E-ISSN 2181-1466
9 772181 146004

ISSN 2181-6875
9 772181 687004


@buxdu_uz @buxdu1 @buxdu1 www.buxdu.uz

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

11/2023

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI



11/2023

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2023, № 11, dekabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo‘yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo‘yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo‘yicha, **tarix** fanlari bo‘yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan. Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti
Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bosh muharrir o‘rinbosari: Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Mas’ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)
Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)
Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)
Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)
Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)
Mo‘minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a’zosi (akademigi)
Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor
Bo‘riyev Sulaymon Bo‘riyevich, biologiya fanlari doktori, professor
Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent
Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor
Murodov G‘ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor
O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor
To‘rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor
Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor
Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor
Bekova Nazora Jo’rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori
Jo‘rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor
Artikova Hafiza Tóymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor
Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor
Samiyev Kamoliddin A’zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent
Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent
Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**		
G'aniyeva O.X., Sattarova A.S.	O'zbek va ingliz tillarida so'z yasalishi hodisasining o'ziga xos va umumiy jihatlari	4
Radjabova M.A.	Teolingvistikada "Asmaaul Husna"ning semantik tahlili	9
Jo'rayeva M.M.	Gazeta sarlavhalarining tasnifi va funksiyalari (fransuz gazetalari misolida)	16
Abduqodirova Y.S.	Gapni komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol talqinida	21
Ganieva O.Kh., Akhmedova A.A.	Edwidge Danticat's mastery in indirect characterization ("The bridal seamstress")	25
Jo'rayeva M.M.	Fransuz gazeta sarlavhalarida pretsedentlik hodisalari	30
Adizova N.I.	O'xshatishlar – milliy-madaniy qarashlar ifodasi	34
Sadullayeva N.A., Azimova Sh.I.	The notion of "Family discourse" and its place in the system of English and Uzbek family relations	39
Fayziyeva A.A.	Ingliz tilida inson ongi va aqliy faoliyati bilan bog'liq konseptual metaforalarning o'zbek tiliga tarjimasi	46
Cindark I.	The communicative repertoire in times of globalization	51
Ikromova L.B.	Maqol va matallarning qiyosiy chog'ishtirma tahlili (fransuz va o'zbek maqol va matallari misolida)	57
Rustamova D.	Ensiklopedik lug'at maqolasining o'ziga xosligi	63
Сафарова М.Ж.	Методы исследования и анализа политического дискурса	70
Содикова Н.Г.	Немис тилида аспектуал маъноли аналитик характерга эга бирикмаларнинг турлари ва асосий белгилари	75
Axmedova M.B.	"Spirituality" semantik maydon sifatida: kategoriya, konsept va leksik birlik	81
Faleeva A.V.	The investigation of the modern colloquial English language in the perspective of level interpretation	89
Туракулова З.М.	О некоторых особенностях фразеологических новообразований в интернет-пространстве	98
Саидкулова М.	Анализ лексического состава русского языка: проблема сохранения и утраты слов в современности	102
Мухаммадиев Ш.М.	Современное использование русского языка в образовательной сфере Узбекистана	107
Ахмедова А.Х.	Закономерности вхождения новых слов в систему словообразовательных гнёзд русского языка (на материале сетевых текстов)	111
Karimov R.A., Tursunova M.R.	O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari tarjimasida parallel korpus prizmasi tahlilida asliyat muammosi tadqiqi	116
Matyakubov O.Q.	Tilshunoslikda modus, modallik hamda diktum kategoriyalarining o'zaro bog'liqligi	123
Petrova N.Ye., Koziyeva I.K.	Qadimgi rus ismlari	128
Karimov R.A., Hamroyeva G.I.	Mark Tvenning "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" asarida yozuvchi tili va uslubining mualliflik korpusi orqali	134

	tahlili	
Djumabayeva J., Madiyorova V.	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridagi lingvomadaniy konseptlarning tarjimasi	139
Ataboyev N.B.	Mavjud ingliz tili diaxronik korpuslarining funksional xususiyatlari	144
ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**		
Qosimova N.F.	Asliyat matnni tarjimada qayta yaratishning kognitiv tamoyillari	151
Kilicheva M.R., Sharopova Sh.Sh.	Robert Kiosakining “Boy ota, kambag’al ota” asari misolida self-help janrining xususiyatlari	157
Zaripova D.B.	Huvaydo ijodida adabiy ta’sir	162
Hamdamova S.B., Makhmudova U.B.	Charting the unexplored: colonial echoes and environmental impact on personal growth in “Robinson Crusoe” and “Life of Pi”	167
Maxmudova M.M.	Sadriddin Salim Buxoriy ijodida Sharq-u g‘arb mavzusining o’rni	172
Naimova A.M.	«Tashqi vaqt» va «ichki vaqt» dinamikasi Salman Rushdi romani poetikasida	177
Nuritdinova Sh.S.	Bolalar she’riyatida ekologik tarbiya: tabiatning jamiyatga munosabati ifodasi	182
Шербекова Г.Я.	Маросим қўшиқларида Бухоро никоҳ тўйи удумларининг бадиий ифодаси	188
Abdullayeva L.S., Hasanova M.V.	The role of synchronous translation in literary studies	193
Hamdamova S.B., Ochilova D.S.	Harmonizing nature and self: Walt Whitman's poetic tapestry of romanticism	200
Nazarova G.P., Davronova R.	The usage of symbols in Khaled Hosseini's “A thousand splendid suns”	205
Qodirova S.A.	“Zarbulmasal” nashri va maqol matni muammolari	209
Khajieva F.M., Rakhimova Sh.R.	Exploring identity fragmentation: an in-depth analysis of selfhood in Colum McCann’s “Transatlantic”	214
Qodirova R.S.	Dilbitiklar va adabiy ertaklarga xos xususiyatlar	219
Niyazova M.Kh., Qo‘shayeva F.A.	Problems of the period in the works of Charles Dickens	223
Сайдуллаева Р.И.	Ономастика в художественной литературе: эволюция и социокультурная характеристика персонажей	227
Пардаева Д.Р.	Эпоха Амира Темура в зеркале русской литературы: типологический анализ	232
Jalilova L.J., Jurayeva D.R.	Historical development of fairy tales	237
Safarova Z.T., Berdiyeva S.U.	G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari inglizcha tarjimasida milliylikning ifodalanishi	242
Ganieva O.Kh., Ashurova N.A.	Mr. Potter romanida bosh qahramon ruhiy olami tasvirida muallif mahorati	246

Комилова Д.Ш.	Мотам маросимига оид сўзларнинг таржималарда берилиши	250
Sayidova Sh.N.	Inglizzabon adabiyotda Amir Temur timsoliga bag'ishlangan asarlar tahlili	254
Саидова Н.М.	Ўзбек адабиётшунослигида герменевтикага оид қарашларнинг шаклланиши	259
Abbasova A.	Style characteristics of dialects and accents in the historical novel "Baku-1501" by Aziza Jafarzade	263
MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK * TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ**		
Boqiyev A.A.	Saif Zafari Buxoriyning "Durrul majolisi turki" toshbosmasining arxeografiyasi	268
"NAVOIY GULSHANI"		
To'rayeva U.R.	Shoh ul emaskim, boshig'a qo'ydi toj...	274
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK * PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ**		
Musaev M.T.	O'zbekistonda missionerlik va prozelitizm xavfini bartaraf etishning ma'naviy-mafkuraviy omillari	277
Адизов Б.	Сиёсий партиявий тизимни ривожлантиришда ОАВнинг роли (хорижий ва миллий тажрибаларнинг қиёсий таҳлили)	282
Sirojov J.O.	Migratsiyaning mohiyati va o'ziga xosligi	287
PEDAGOGIKA * PEDAGOGICS *** ПЕДАГОГИКА**		
Primov T.I.	Axborot texnologiyalarini qo'llash orqali kompyuter simulyatsiyasi dasturlarini tuzish va undan ta'lim jarayonida foydalanish usullari	291
Yusufova S.G.	The place of game teaching methods in the educational process while teaching organic chemistry	295
Arabov J.O.	Fizikadan ijodiy masalalarni tanlash va yechish metodikasi	301
Rajabov T.I.	O'zbek musiqa folklor qo'shiqlarini o'rgatish dolzarb metodik muammo sifatida (Buxoro bolalar folklori misolida)	306
Кахарова Д.С.	Теоретические основы организации инклюзивного образования в общеобразовательных школах	310
TARIX * HISTORY *** ИСТОРИЯ**		
Раҳмонов К.Ж.	"Озод Бухоро" газетасида миллий-ҳудудий чегараланиш масаласининг ёритилиши	317
IQTISODIYOT * ECONOMICS *** ЭКОНОМИКА**		
Tursunov A.R., Hasanov S.A.	ISO 9000 standarti asosida korxonalarda mahsulot sifatini yaxshilash	321
MUNOSABAT * REFLECTION *** ТОЧКА ЗРЕНИЯ**		
Ҳайитов Ж.Ш., Орзиев М.З.	Жаҳон тарихи фанидан тарихчи талабалар учун янги дарслик	325

UO‘K 81-26 347.78.034

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SO‘Z YASALISHI HODISASINING O‘ZIGA XOS VA UMUMIY JIHATLARI

G’aniyeva Orzigul Xayriddinovna,
Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyoti va tarjimashunoslik kafedrasi dotsenti, PhD
Sattarova Adiza Salimovna,
Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi so‘z yasalish hodisasi o‘zaro taqqoslanadi, so‘z yasalishi jarayoni – derivatsiyaning morfemalar qo‘shiluvi bilan bog‘liqligi tufayli, u morfologiya, aniqrog‘i morfemika bilan aloqadorligi, yasovchi morfema bilan asos morfemaning qo‘shiluvi natijasida yangi leksema vujudga kelishi, o‘zbek va ingliz tillarida so‘z yasalishi o‘rtasidagi farqlar mavjudligi, o‘zbek va ingliz tillarida ko‘p uchraydigan prefiks va suffikslar haqida mulohaza yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *til, so‘z yasalishi, derivatsiya, morfologiya, morfemika, prefiks, suffikslar.*

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ И ОБЩИЕ АСПЕКТЫ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье сравнивается явление словообразования в узбекском и английском языках. Процесс словообразования - деривация - связан с присоединением морфем, он связан с морфологией, точнее с морфемикой, образованием морфемы, рассматривается базовая морфема, образование новой лексемы в результате сложения, наличие различий между словообразованием в узбекском и английском языках, приставок и суффиксов, общих для узбекского и английского языков.*

Ключевые слова: *язык, словообразование, деривация, морфология, морфемика, префиксы, суффиксы.*

SPECIFIC AND GENERAL ASPECTS OF WORD FORMATION IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Abstract. *In this article, the phenomenon of word formation in Uzbek and English languages: the process of word formation - derivation is concerned with the addition of morphemes, which is related to morphology, more precisely, morphemics, the formation morpheme and the base morpheme. The creation of a new lexeme as a result of addition, the differences of word formation in Uzbek and English languages, common prefixes and suffixes in Uzbek and English languages are analyzed.*

Key words: *language, word formation, derivation, morphology, morphemics, prefixes, suffixes.*

“O‘z tilini hurmat qilgan ma’rifatli xalq boshqalarning tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi”.
Sh.M.Mirziyoev.

Kirish. Ma’lumki, har qanday til o‘zining ichki qonuniyatlariga bo‘ysunadi, shuningdek, tashqi omillar ta’siriga duch keladi. Shubhasiz, o‘zbek tili ham bundan mustasno emas. Asrlar davomida tilimiz o‘zining ichki imkoniyatlari va tashqi manbalar ta’sirida qator o‘zgarishlarga uchrab kelmoqda. Hayotning barcha sohalarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, yangilik va yutuqlar tilda o‘z ifodasini topishi tabiiy. Hayotdagi o‘zgarish, yangilik va yutuqlar esa, avvalo, xalqning ong-u tafakkuri, intellektual salohiyati, turmush jabhalaridagi mehnatlari va turli ijodiy izlanishlarining mahsuli hisoblanadi. Mazkur omillar sabab, bugungi kunda o‘zbek tili lug‘at tarkibining tobora kengayib, boyib borayotganligi, iste’mol doirasi va nufuzi ortib borayotganligi ham sir emas. O‘zbek tilshunosligining hozirgi taraqqiyotiga nazar tashlar ekanmiz, avvaldan tilda mavjud bo‘lgan yoki bugungi kunda kuzatilayotgan u yoki bu til yoki nutq hodisalari ularning nomlanishidan tortib, ichki mohiyatigacha zamon talablariga muvofiq, yangicha yondashuvlar asosida o‘rganilayotganligining guvohi bo‘lamiz. Ma’lumki, tilda mavjud bo‘ladigan har qanday yangi so‘z, o‘zining boshlang'ich shaklini nutqdan oladi va shu bilan yasama so‘zning nutqqa qaramligi o‘z nihoyasiga yetadi.Tilshunoslikda morfema termini joriy etilguniga qadar so‘z yasalish

hodisasining talqini so‘z ma’nosi va shakllari bilan bog‘liq holda tadqiq etib kelingan. Morfemalarning alohida til birligi sifatida ajratilishi so‘z strukturasidagi so‘z yasovchi va shakl yasovchi kabi funksional qismlarni farqlashda alohida ahamiyat kasb etgan. Buning natijasida o‘tgan asrning 60-yillariga kelib so‘z yasalishining morfologik hodisalar bilan bog‘liq alohida hodisa ekanligi haqidagi g‘oyalar ilgari surila boshlandi.

Darhaqiqat, bir obyekt turli tomondan qaralib, turlicha baholanishi mumkin. Jumladan, o‘zbek tilshunosligida birinchilar qatorida so‘z yasalishi bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borgan A.G‘ulomovning 50-yillarda e’lon qilgan maqolalaridan birida so‘z yasalishi tadqiqining bu davrdagi holatiga quyidagicha baho beriladi: “So‘z yasalishi masalasini biz hozirgacha morfologik planda qarab kelamiz, holbuki, so‘z yasalishi qanday bo‘lmasin, biror usul bilan yangi so‘z hosil qilishdir. Demak, u leksika - so‘z bahsiga qarashlidir. Eski grammatik ta’limotga ko‘ra, so‘z yasalishi va so‘z o‘zgarishi morfologiyada qaralardi. Haqiqatda esa, bular formal jihatdan o‘xshash, funksional jihatdan boshqa-boshqa hodisadir: birinchisi-leksik hodisa, ikkinchisi-sintaktik hodisadir”, - deb yozgan edi [2]. Shunday qilib bugungi kunda so‘z yasalishi tilshunoslikning alohida bo‘limi bo‘lib, u ikki xil ma’noda qo‘llanmoqda: 1) umuman yangi leksik ma’noli so‘z hosil qilish; 2) tilshunoslikning so‘z yasalishi bilan bog‘liq hodisalarni o‘rganuvchi bo‘lim. Tadqiqotchilarning ba’zilari so‘z yasash deganda qanday usul bilan bo‘lsa-da, yangi so‘z hosil qilish tushunilavermaydi, deb hisoblashadi va so‘z yangi ma’no kasb etishi natijasidagina yangi so‘z paydo bo‘lishini ta’kidlashadi: *ishbilarmon* so‘zi yangi ma’no kasb etdi, deylik. Bu o‘rinda yangi so‘z yasalishi yo‘q. Demak, so‘z yasalishi, yasama va yangi ma’no kasb etgan so‘zlarning leksemalashuvi hodisalarini farqlash lozim. So‘z yasalishi til taraqqiyoti natijasi sifatida tarixiylik va zamonaviylikka daxldor bo‘ladi. Shu boisdan tarixiy va sinxron so‘z yasalishi hodisalarini farqlash lozim (*qishloq*-tarixiy,*texnikaviy*-zamonaviy so‘z yasalishi). Hozirgi so‘z yasalishida yasama so‘z bilan derivatsion (so‘z yasash) qolip orasida aloqa mavjud bo‘lib, qolipning shakily va mazmuniy tomoni hosila so‘zda o‘z izlarini qoldirgan bo‘ladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aytish joizki, o‘zbek tilshunosligida chuqur va atroflicha tadqiq etilgan bu masala turkiyshunoslik, rus, ingliz tilshunosligida ham anchagina murakkab, keng qamrovli masalalardan hisoblanadi. Juda ko‘p ilmiy asarlarda so‘z yasalishi grammatikaga tegishli deyilsa, ba’zi bir adabiyotlarda leksikologiyaning bir qismi sifatida tatbiq etiladi. So‘z yasalishining leksik hodisa sifatida talqin etilishi ingliz tilshunosligida kengroq tus olganligini A.I.Smirnitskiy, I.V.Arnold, T.I.Arbekova kabi olimlar tomonidan chop ettirilgan qo‘llanmalarda hodisaning leksikologiya tarkibida keltirilishida ko‘rish mumkin [3]. Y.S.Stepanov tomonidan chop etilgan “Структура французского языка” nomli tadqiqotda esa so‘z yasalishi alohida bo‘lim sifatida beriladi [4]. So‘z yasalishining zamonaviy maqomga ega bo‘lishida o‘zbek tilshunosligida U.Tursunov, Z.Ma’rupov, A.G‘ulomov, A.Hojiev, A.Madrahimov kabi olimlarning ilmiy izlanishlari alohida ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, umumiy tilshunoslikda I.I.Kavalik, N.D.Arutyunova, M.Doklul, G.O.Vinokur, N.A.Yanko-Trinskaya, A.N.Tixonov, E.S.Kubryakova, V.V.Lopatin, N.M.Shanskiy kabilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rin tutganligi qayd etiladi [5].

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy tahlil, struktural tahlil, sintaktik derivatsiya usullari tahlilidan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. O‘zbek tilshunoslarining xulosalariga ko‘ra, o‘zbek tilida so‘z yasalishi bir necha usul(yo‘l)lar yordamida amalga oshadi: affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya, semantik usul, fonetik usul kabi. Bu o‘rinda so‘z yasalishi uchun umumiy belgi yangi leksema hosil qilish hisoblanadi. Usullar orasida, asosan, ikki usul anchagina mahsuldor hisoblanadi:1.Affiksatsiya. 2.Kompozitsiya. Affiksatsiya morfologik usul hisoblansa, kompozitsiya sintaktik usul hisoblanadi. O‘zakka so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali yangi leksik birlik hosil qilish affiksasiya usuli bilan so‘z yasashdir. Masalan: *mevali daraxt, soqolli yigit, mashaqqatli ish, serhosil yer, unumdor tuproq* kabi birikmalardagi *mevali, soqolli, mashaqqatli, serhosil, unumdor* so‘zlari yasama so‘zlar bo‘lib, ular *meva, soqol* o‘zaklariga *-li, hosil* o‘zagiga *-ser, unum* o‘zagiga *-dor* affikslarini qo‘shish orqali yasalgan so‘zlardir. Ikki va undan ortiq so‘z formalarining (ko‘pincha mustaqil so‘zlarning) qo‘shilib bir so‘zga aylanishi kompozisiya usuli bilan so‘z yasash hisoblanadi. Masalan: *belbog‘, suvosti, uchburchak, oshqozon, suvilon, mehmondo‘st, so‘z boshi, balandparvoz, bir yuz besh, ahd qilmoq, bir oz, temir yo‘l* va boshqalar.

Ingliz tilida ham so‘z yasalishining semantik, fonetik, abbreviatsiya, affiksatsiya, konversiya, kompozitsiya kabi usullari mavjud. Bu usullar (ba’zi hollarda o‘zbek tilidagi kabi) davriy nuqtayi nazardan ikki guruhga ajratiladi: 1) tarixiy (diaxron) yasalish: semantik, fonetik, abbreviatsiya, konversiya, kompozitsiya usullari; 2) zamonaviy (sinxron) yasalish: affiksatsiya usuli. Ta’kidlash joizki, har ikkala tilda affiksatsiya usulida so‘z yasalishi anchagina umumlidir. Ingliz va o’zbek tillarida affiksatsiya usuli bilan so‘z yasalishi umumadabiy til leksik birliklarini hosil qiluvchi ayni so’z yasovchi qo’shimchalar hamda so’z yasovchi qoliplar yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida affikslar qo‘shilish

o‘rniga ko‘ra prefiks(old qo‘shimcha) hamda suffiks(ort qo‘shimcha) xarakterida bo‘ladi. Ushbu tillarda yasama so‘zlar prefiksatsiya va suffiksatsiya usullari bilan hosil qilinadi va bular so‘z yasalishining faol usullari hisoblanadi. Chunki o‘zbek tilida yasama so‘z mustaqil ma’noli tub so‘zdan yasaladi. Xuddi shu usul orqali so‘z yasalishi ingliz tilida ham amalga oshadi. Masalan: work+er, teach+er, collect+or, engine-er, ish-chi, spotr-chi, aql-li, sholi-kor, osh-paz kabi. Shu o‘rinda bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda tez-tez uchratayotganimiz “derivatsiya”, “derivatision hodisa” atamalari xususida quyidagicha izohlarni keltirishni joiz hisobladik. Tilshunoslikda “derivatio” lotincha “derivatio” – tayinlash, hosil qilish, ya’ni boshlang‘ich sifatida qabul qilingan boshqa birliklar asosida hosila deb ataladigan ba’zi til birliklarini yaratish jarayonidir. Tor ma’noda, derivatsiya, masalan, affiksatsiya yoki so‘z shakllanishi tufayli ildizning “kengayishi” kabi til birliklarini shakllantirishning oddiy jarayonlarini anglatadi. Masalan, ingliz tilida “black” va ‘board” so‘zlarining qo‘shilishidan “blackboard” yasama so‘zi hosil bo‘ladi. Demak, morfologiyada derivatision hodisa - bu eski so‘zdan yangi so‘z yasash jarayoni bo‘lib, odatda old qo‘shimcha yoki ort qo‘shimcha qo‘shish orqali so‘z yasashdir. Derivatsiya qonunlari til va nutqning barcha birliklariga taalluqli bo‘lib, tilshunoslar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning ilmiy va amaliy obyekti sifatida o‘rganilmoqda. “Derivatsion morfologiya yangi so‘zlarning tuzilishini tartibga soluvchi tamoyillarni o‘rganadi, so‘z jumlada o‘ynashi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos grammatik rolga ishora qilmaydi. Bu jarayon tufayli yangi so‘zlarning shakllanishini ko‘ramiz, ular har biri o‘ziga xos grammatik xususiyatlarga ega bo‘lgan so‘zlardir”,[5]– deb baholanadi tilshunos S. D.Katsnelson tadqiqotlarida (Кацнельсон С.Д. Категории языка и мышления. Из научного наследия, M., 2001.). Derivatsion nazariya lingvistik kontekstda eng talabchan hisoblanadigan nazariyalardan biridir, chunki bu E. S. Kubryakovaning fikricha, tilshunoslik yo‘nalishida zamonaviy rivojlanish tamoyillariga to‘liq mos keladi[6] (A.Z. Vakhobovna, F.X. Xayrulloyevich. About Borrowing Phrazeological Units and their Study in Uzbek Language. International Journal of Culture and Modernity 14, 61-67.). Darhaqiqat, tilning tabiati va nutq faoliyatini o‘rganishda derivatologiyada til jarayonini birmuncha to‘liq tushuntirish imkoniyati mavjud. Derivatologiya bir qator nazariy muammolarni hal qilishda, inson ongini diqqat markaziga qo‘yishda qulaylik yaratadi. Shuningdek, derivatologiyaning lingvokognitologiya, tekstologiya, nutq lingvistikasi kabi yangi tilshunoslik yo‘nalishlarini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qilishi haqida tilshunos S. D.Katsnelson tomonidan asosli tarzda qayd etiladi. Shuni ham ta’kidlash joizki, ingliz tilida so‘z yasalishi ba’zan semantik o‘zgarishlarga qiyoslanadi. Ma’lumki, prefikslar - bu boshqa ma'noli yangi so‘z yaratish uchun so‘z boshiga qo‘shadigan qo‘shimchalar. Shuningdek, ular so‘zni salbiy yoki vaqt, joy yoki uslub munosabatlarini ifodalashi mumkin. Mana bir nechta misollar: *im*possible, *un*true, unacceptable, uncertain. Suffikslar – bu so‘z oxirida qo‘shiladigan harf yoki harflar guruhi bo‘lib, yangi so‘z hosil qiladi. Masalan: use*ful*, forget*ful,* undestand*able,* respons*ible*, accur*ate,* famil*iar.*

Tilning so‘zlarni so‘z yasalishi to‘plamiga jamlashdek imkoniyatini qanday izohlash va tushuntirish mumkin, degan haqli savol tug‘iladi. Bu savolga javob izlab, tilshunoslik derivatsiyani oddiy xususiyat emas, balki butun bir jarayon deb hisoblaydi. Bu jarayon olimlarni tilning rivojlanishini turli nuqtayi nazarlar asosida tahlil qilishga chorlaydi. Demak, so‘z yasalishi va umuman, derivatsion hodisalar, avvalo, nominativ ehtiyojni qondirish uchun xizmat qiladi. Bu ehtiyoj esa har doim ham yasama so‘z maqomidagi birliklar hisobigagina qondirilmaydi. Zero, so‘z yasalishi bilan bir qatorda, semantik derivatsiya hodisasi ham ana shunday ehtiyoj uchun xizmat qiladi. Aynan ana shu omillar tilshunoslikda yasalish, shakllanish hodisalarini o‘rganishda so‘z yasalishiga nisbatan kengroq qamrovli derivatsion tamoyilning tatbiq etish zaruratini keltirib chiqardi. Derivatsiya tushunchasi bugunga qadar so'z yasalishi tushunchasining mantiqiy sinonimi sifatida qo'llanib kelingan edi, chunki ularning asosiy tamoyili mushtarakdir. Lekin so'z yasalishi va derivatsiya hodisasi bir-biridan tubdan farq qiladi. Derivatsiya so‘z yasalishiga nisbatan keng qamrovlidir.

Bugungi kunda ilm-fan, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot, shuningdek, ta’lim, san’at, sport, tibbiyot, tadbirkorlik, biznes, marketing, reklama, arxitektura va dizayn, turli kasbiy sohalar rivoji, zamonaviy axborot va information texnologiylari sohalaridagi izlanishlar, yangilik va kashfiyotlar, islohtlar va taraqqiyot odimlari til xazinasida yangi terminologiya shakllanishiga olib kelmoqda. Mazkur hodisalar soha mutaxassislari, ko‘p yilik tajribaga ega olimlar, izlanuvchan tadqiqotchilar va til bilimdonlarining nazaridan chetda qolishi mumkin emas, albatta. Fikrimizning dalillari sifatida bir nechta zamonaviy tadqiqotlar xususida to‘xtalishni joiz topdik. Jumladan, Buxoro tilshunoslik maktabi olimlaridan tilshunos Shaxnoza Vosiyevaning “Ingliz va o’zbek tillarida so’z yasash usullari” monografiyasida so‘z yasovchi affikslarning bir qator xususiyatlari anchagina keng tahlil qilingan: Olima tomonidan ba’zi affikslarning bir xil ma’nodagi, ba’zilarining turli ma’nodagi so‘zlar yasashi asoslab berilgan: “…Masalan, -soz affiksi bir xil ma’nodagi ot yasasa (asbobsoz, soatsoz kabi), -chi affiksi bir necha xil ma’nodagi otlar yasaydi (traktorchi, sportchi, neftchi; jinoyatchi, tuhmatchi va b.). Ba’zi affikslar bir turkumga oid so‘z yasasa, ayrim affikslar har xil turkumga oid so‘z yasaydi: arava-kash (ot)— pastkash (sifat); bedavo (sifat)—betinim (ravish). So‘z

yasovchi affikslar o‘zbek tilida, asosan, suffiks harakterida bo‘lib, boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarda boshqa tillardan o‘tgan, o‘zak oldiga qo‘shiluvchi affikslar ham uchraydi: beg‘araz, noxush, notinch, antidemokratiya kabi. O‘zga tildan o‘tgan ma’lum so‘zlar tarkibida affikslar ham uchraydi: beg‘araz, noxush, notinch, antidemokratiya kabi”. Tadqiqotchi tomonidan ingliz tilida ot yasovchi qo‘shimchalarning ko‘plari grek, lotin, italyan, ayniqsa, fransuz tillaridan o‘tganligi, ular o‘zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgani va har ikki tilda ham faol qo‘shimcha sifatida ishlatilayotgani asoslab beriladi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida meliorativ terminlarning affiksatsiya usuli bilan yasalishi mavzusida Qarshi davlar universiteti tadqiqotchisi M.Omonovaning ishlari e’tiborga loyiqdir.Tadqiqotchi tomonidan termin yasalishida ishtirok etadigan affikslar vositasida kasb-kor, jarayon, obyekt va hududga xos hususiyat, belgi va harakatni bildiruvchi so‘zlardan ot, sifat, fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlar yasalishi atroflicha o‘rganilgan. Melioratsiya sohasiga oid drenajchi, kollektorchi, sho‘rlash, melioratsiyalash, meliorativlik, botqoqlik, qorlik, do‘nglik, soylik, chuqurlik, loyqalik, namlik, yemirilganlik, cho‘kmalik, bug‘lanuvchanlik, cho‘kuvchanlik, o‘pqonlik atamalarining yasalishi tadqiq etilib, affiksatsiya usuli bilan hosil bo‘lgan meliorativ terminlar har ikkala tilda qiyoslangan va bu terminosistemada o‘zbek tilida -lik, -chi, ma,- sh(-ish), -gich orqali termin yasalishi juda keng tarqalganligi; -im, -in, -iq, -ik, -indi, -ni, - gi, -ga, -a, -vich kabi so‘z yasovchi qo‘shimchalar vositasida faollik kuzatilmasligi asoslangan.

Aytish joizki, ingliz tilida o‘zakdosh so‘zlar derivatsiyasi potentsiali o‘zbek tilidagi o‘zakdosh so‘zlar derivatsiyasi potensialiga nisbatan miqdor jihatidan boy. O‘zakdosh so‘zlarning predloglar bilan birikib hosil qilgan so‘z birikmasi boshqa so‘zlarning predloglar bilan birikib hosil qilgan erkin so‘z birikmalaridan biroz farqlanadi. Buning boisi otlashgan fe’l yoki fe’llashgan ot o‘zining birlamchi holatidagi ayrim bo‘yoqlarni saqlab qolishidadir. Bu xususiyat o‘zakdosh bo‘lmagan so‘zlar bilan yasalgan birikmalarda kuzatilmaydi. Demak, o‘zakdosh so‘zlardan kontekstda va nutqiy jarayonda unumli foydalanish nutqning mazmunini boyitishga, fikrning yanada ta’sirchanligiga erishishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham o‘zakdosh so‘zlar semantikasini, ulardagi yasalish strukturasini turli tillar kesimida qiyosiy jihatdan o‘rganish borasida tadqiqotlar ko‘payib bormoqda.

Xulosa. Ma’lumki, mamlakatimizda so‘nggi yillarda chet tillarni o‘rganish tizimini, fan va ta’limni amaliyot bilan uzviy integratsiya qilish jarayonlarini takomillashtirish, derivatsiya hodisasi, uning turlari va qamrov darajasi sintaktik hamda semantik jihatdan atroflicha, boy lingvistik materiallar asosida tadqiq qilish, xususan, ilg‘or xorijiy tajribalarga tayangan holda ingliz tili bilan chog ‘ishtirma tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur ishimizda derivatologiya masalalarining bugungi kunda tilshunoslikning barcha sathlarida kuzatilayotganligi haqida qisqacha to‘xtaldik. Derivatologiya muammolari tilning boshqa sathlariga nisbatan sintaktik sathida tadqiq etilishi faolroq ekanligiga amin bo‘ldik. Albatta, fanda vujudga kelgan har qanday yangicha qarash qisqa davr ichida va birato‘la mukammallik kasb etmaydi, o‘z navbatida, tatbiq etilgan har qanday yangilikni mutlaq mukammal deb bo‘lmaydi. Buning o‘ziga xos dalilini so‘z yasalishining goh morfologik, goh leksik hodisa sifatida talqin etilishi misolida kuzatish mumkin. Ta’kidlash joizki, tilshunoslik fani taraqqiyotining bugungi manzarasiga qaraganimizda hozirga qadar til sathlarining har biri anchagina chuqur va atroflicha keng o‘rganildi. Biroq boshqa fanlar qatori tilshunoslik ham doimiy taraqqiyotda ekanligini hayotning ozi ko‘rsatmoqda. Bu esa, erishilgan yutuqlar, muvaffaqiyatlar bilan chegaralanib qolmaslikni taqozo etadi. Zero, davr talabi, fan taraqqiyoti amalda mukammal sanalib kelinayotgan tadqiqotlarimizni ham qayta taftish qilishni, ularni yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirish, boyitishni talab qiladi. Betimsol olam, kishilik dunyosining kashf qilinmagan, o‘rganilishi kutilayotgan qirralari hali anchagina bo‘lib, o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. *Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. –B.35*
2. *Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи.-Т.,2002. 194-бет.*
3. *Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. -М., 1956. -С.65;*
4. *Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи.-Т.,2002, 194-бет;*
5. *Зенков Г.С. Вопросы теории словообразования. – Фрунзе, 1969. –С.3.*
6. *Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. -М., 1959. –С. 128;*
7. *Khayriddinovna G. O. “East of Eden” романида қаҳрамонлар хулқ-атворига жамият фикрининг таъсири //Scientific Reports of Bukhara State University. – С. 146.*
8. *Ganiyeva O. K. H., Rajabova Z. T. The Analysis of Loneliness theme in of Mice and Men //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 31. – С. 157-159.*

9. Ganieva O. K. H., Aminova N. B. John Steinbeck's "Discontent" over the social problems // Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 23. – C. 146-148.

10. Арбекова Т.И. Лексикология английского языка.-М.,1977.- С.38.

11. Sadullaev F. B. The importance of giving feedback in EFL classes // Теория и практика современной науки. – 2018. – №. 11 (41). – С. 404-406.

11. Sadullaev F. B., Kudratova S. O. The benefits of extensive reading programme in language teaching //Мировая наука. – 2019. – №. 2 (23). – С. 48-50.

12. Кацнельсон С.Д. Категории языка и мышления. Из научного наследия, М., 2001.

13. Vakhobovna A.Z., Xayrulloyevich F.X.. About Borrowing Phraseological Units and their Study in Uzbek Language. International Journal of Culture and Modernity 14, 61-67.

14. Vosiyeva Sh.Ingliz va o'zbek tillarida so'z yasash usullari, monografiya.Buxoro., 2021.

15. Omonova M. Ingliz va o'zbek tillarida meliorativ terminlarning affiksatsiya usuli bilan yasalishi. BuxDU Ilmiy axborotnomasi. 2020-yil, 6-son (124). 66-bet.

UO‘K 81'37:28-144.2-047.44

TEOLINGVISTIKADA “ASMAAUL HUSNA”NING SEMANTIK TAHLILI

Radjabova Marjona Axmadovna,
Buxoro muhandislik-texnologiya istituti dotsent, f.f.f.d. (PhD)
marjona_radjabova@mail.ru

Annotatsiya. *Yaqin kunlarga qadar diniy matn, din va til munosabatlari masalalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar deyarli yo‘q edi. Tillararo va madaniyatlararo munosabatlarning rivojlanishi diniy aloqalarning mustahkamlanishida turtki bo‘ldi. Natijada jahon tilshunosligida til va dinning o‘zaro ta’siri, muammo va yechimlarini o‘rganuvchi yo‘nalish – teolingvistika sohasi vujudga keldi.*

Ushbu maqolada ham aynan teolingvistikaning nazariy jihatdan rivojlanishi, bu sohada tadqiqot olib borgan olimlar va ularning ilmiy ishlarida teolingvistikaning o‘rganilish haqida so‘z boradi.

Shuningdek, teonimlarning tasnifi, Qur’oni Karimdagi Allohning sifatlari, Asmaaul Husna (Alloh nomlari)ning semantik tahlili maqoladan o‘rin olgan. Maqola so‘ngida esa muallif olingan natijalar va ularning tahlili asosida o‘z xulosasini keltiradi.

Kalit so‘zlar: *teolingvistika, teonim, diniy matn, Asmaaul Husna, Alloh, Qur’oni Karim, iloh, Xoliq.*

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ «АСМААУЛЬ ХУСНЫ» В ТЕОЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *До недавнего времени исследований по религиозным текстам, религиозным и языковым отношениям почти не проводилось. Развитие межлингвистических и межкультурных связей дало толчок укреплению религиозных связей. В результате в мировом языкознании зародилось направление теологическая лингвистика, изучающая взаимодействие языка и религии, проблемы и пути их решения.*

В данной статье говорится именно о теоретическом развитии теолингвистики, об учёных, проводивших исследования в этой области, и об изучении теолингвистики в их научных работах.

В статье также представлена классификация теонимов, атрибутов Бога в Священном Коране, а также семантический анализ Асмааууль Хусны (Имён Бога). В конце статьи автор предоставляет свой вывод на основе полученных результатов и их анализа.

Ключевые слова: *теолингвистика, теоним, религиозный текст, Асмааууль Хусна, Аллах, Священный Коран, бог, Халик.*

SEMANTIC ANALYSIS OF «ASMAAUL HUSNA» IN THEOLINGUISTICS

Abstract. *Until recently, almost no research has been carried out on religious texts, religious and linguistic relations. The development of interlinguistic and intercultural connections gave impetus to the strengthening of religious ties. As a result, the direction of theological linguistics emerged in world linguistics, studying the interaction of language and religion, problems and ways to solve them.*

This article also talks about the theoretical development of theolinguistics, the scientists who have conducted research in this field, and the study of theolinguistics in their scientific works.

The article also presents a classification of theonyms, attributes of God in the Holy Quran, as well as a semantic analysis of Asmaaul Husna (Names of God). At the end of the article, the author gives his conclusion based on the results obtained and their analysis.

Keywords: *theolinguistics, theonym, religious text, Asmaaul Husna, Allah, Holy Quran, god, Khalik.*

Kirish. Insoniyat yaratilgandan beri ongli ravishda dunyoni anglashga, atrofidagi hodisalar, tabiiy ofatlar kabi jarayonlarning sabab va mohiyatini bilishga intiladi. Odamzod qanchalik mukammal va murakkab yaratilgan mavjudot bo‘lmasin, qadim zamonlardan beri g‘ayri tabiiy va ilohiy kuchlarning mavjudligiga ishonib kelgan. Bu jarayon o‘z navbatida bugungi kunga kelib ilohiyotshunoslik fanining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Ilohiyotshunoslik (teologiya) deb nomlangan yo‘nalishning tilshunoslik bilan tutashgan sohasiga ilk bora “Teolingvistika” deya nom berishni taklif qilgan shaxs belgiyalik tilshunos olim J.P. van Noppendir. Nopenning izohiga ko‘ra, *“Teolingvistika”* so‘zi grek tilidan olingan bo‘lib, *“teos” – “xudo”, “lingvos”– “til”* va *“tikos” – “fan”* so‘zlaridan olingan bo‘lib, *“xudo so‘zlagan til haqidagi fan”*

degan ma’noni anglatadi [17; b. 534-540]. Shuning uchun ham belgiyalik tilshunosni olima I.V.Jdanova “teolingvistikaning otasi”, deb ataydi [6; b. 12-17].

Teolingvistika tilshunoslikning yangi sohasi sifatida dunyo olimlarining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Jahon tilshunosligida ham teolingvistika bilan bog‘liq bir necha tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, D.Crystal, E.Kucharska-Dreiss, A.K.Gadomskiy kabi olimlar o‘z maqolalarida teolingvistikani mustaqil lingvistik fan sifatida e’tirof etish masalalarini o‘rtaga tashlashgan [2; 7; 3]. Rus olimlaridan V.A.Postovalova zamonaviy ijtimoiy sohada teolingvistikaning asosiy g‘oya va yo‘nalishlarini o‘rgangan bo‘lsa, V.A.Stepanenko va Y.A.Vasilyevalar esa o‘z maqolalarida teolingvistikaning G‘arb olimlari nazdidagi ilmiy-nazariy talqiniga oid qarashlarni sharhlab o‘tishgan [10; 12; 16].

O‘zbek olimlaridan esa diniy matnlar leksikasida teonimlar haqida dastlab o‘z fikrlarini bayon etgan tilshunoslardan biri N.M.Uluqovdir. U o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida “o‘zbek tilshunosligida teonimlar chuqur va mukammal o‘rganilmagan, o‘z tadqiqini kutayotgan muammoli masalalardan biri sanaladi”, deb ta’kidlab o‘tadi [14; b. 11].

Teolingvistik sohada doktorlik tadqiqotini olib borgan M.R.Galiyeva o‘z ilmiy ishida diniy til va matnlarning lingvistik xususiyatlarini hamda diniy dunyo tasvirini umumadabiy tilda aks etishini o‘rganuvchi ikkita asosiy yo‘nalishlarga ajratib bergan. Shuningdek, teolingvistikani din va til munosabatlarini o‘rganishga qaratilgan tilshunoslikning mustaqil fanlararo lingvistik yo‘nalish sifatida e’tirof etish mumkinligini o‘z tadqiqotlarida asoslab bergan [4; b. 11].

Muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rgangan Sh.M.Sultonova izlanishlarida diniy frazeologizmlar tarkibida ishtirok etuvchi diniy leksikani quyidagicha tasniflaydi: 1) Yaratuvchining nomlari; 2) Payg‘ambarlar, ularning safdoshlari, g‘ayritabiiy kuchga ega bo‘lgan mavjudotlar nomlari; 3) yovuz kuchlarni anglatuvchi personajlar nomlari; 4) mifologik personajlar nomlari; 5) narigi dunyo bilan bog‘liq joy va voqealar nomlari; 6) diniy-konfessional terminlar; 7) kishilarning e’tiqodiga ko‘ra nomlanishi; 8) ibodat, diniy marosimlar, diniy bayramlar va boshqalar bilan bog‘liq leksika [13; b. 114-120].

Sh.T.Mahmaraimovaning “Olamning milliy lisoniy tasvirida teomorfik metaforaning kognitiv aspekti” mavzusidagi dissertatsiyasida teomorf metaforalarning tavsifi, o‘ziga xosligi, teomorfik metaforaning kognitiv aspekti yuzasidan ilmiy xulosalar keltirilgan [8]. Qolaversa, olimaning “O‘zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha kontseptual lug‘ati” nomli kitobida o‘zbek tilida uchraydigan teonimlar, ularning kelib chiqishi hamda leksik izohlari haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan [9].

Sh.T.Yusupova diniy matnlarning lingvopragmatik xususiyatlarini tadqiq qilar ekan, ilmiy izlanishlarida teolingvistika haqida quyidagicha o‘z fikrini bayon etadi: “Lingvistika inson tilini o‘rganuvchi ilm sifatida ajratiladi. Teolingvistika termini tarkibida ham inson tilini o‘rganuvchi *“lingvistika”* atamasi mavjud bo‘lib, unga *“theo”* atamasining qo‘shilishi bu yangi yo‘nalishning inson tilini o‘rganuvchi badiiy va ilmiy asarlar tili kabi tushunchalar paradigmatik qatoriga diniy matn, diniy matn tili, diniy nutq singari terminologik tizimning qo‘shilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi” [18; b. 11-12].

Yuqoridagi keltirilgan fikr-mulohazalardan anglash mumkinki, teolingvistika sohasi tilshunoslikning navqiron yo‘nalishi sifatida kelajakda bir qator dolzarb masalalar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti. Tilshunoslik ilmida teolingvistikaning turli nuqtayi nazardan tadqiqi amalga oshirilar ekan, bu sohaning tanqidiy rivojida teonimlar haqida so‘z yuritish ahamiyat kasb etadi, albatta. Teonimlar va ularni o‘rganuvchi teonimiya sohasiga o‘zbek nomshunosligida o‘zining alohida o‘rniga ega tilshunos olim – Ernst Begmatovning “O‘zbek tili antroponimikasi” nomli kitobida “Teonimiya – Ollohning nomi va atributlarini ifoda qiluvchi atoqli otlar va ularning majmuyi”, deb ta’rif beriladi [1; b. 39].

Aytish joizki, ko‘p jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “teonim” atamasining ta’rifini topa olmadik. Faqatgina “teologiya” (yunoncha *“theos”* – xudo, *“logos”* – so‘z, tushuncha; fan) xudoning mohiyati, din va diniy aqidalar to‘g‘risidagi diniy ta’limotlar majmuyi, ilohiyot”, degan ta’rif keltirilgan xolos [20]. Buni tilshunoslikda teonimlar masalasi yetarli darajada tadqiq qilinmaganligi va teolingvistikani butunlay yangi yo‘nalish ekanligi bilan bog‘lash mumkin. Ayrim manbalarda teonimlarga “turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma’budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari”, deb ta’rif beriladi [11; b. 7].

Demak, teonimlar ilohlarning nomlari va atributlarini anglatuvchi onomastik birliklarning bir turidir. Teolingvistika va teonimlar haqida so‘z borganda, albatta, M.Umarxo‘jayevning “Diniy atamalar va iboralar” ommabop izohli lug‘atini e’tirof etish zarurdir. Mazkur lug‘atda olim dinga oid atamalarni 15 ta guruhga bo‘lib tasniflaydi [15; b. 10-11]:

1) asosiy diniy tushunchalarni ifodalovchi atamalar;

2) diniy, axloqiy-odobiy tushunchalarni ifodalovchi atamalar;
3) Alloh taolloning go‘zal 99 ismlari;
4) farishtalar nomlari;
5) payg‘ambarlar nomlari;
6) diniy marosimlarni ifodalovchi atamalar;
7) ibodatga oid va ularning vaqtlarini ifodalovchi atamalar;
8) masjid va ibodatxonalarga taalluqli atamalar;
9) diniy unvon va darajani ifodalovchi atamalar;
10) Qur’oni Karimda tilga olingan ba’zi bir shaxs nomlari;
11) Vatanimiz zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalar, ilohiyotchilar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan joy nomlari;
12) muqaddas shaharlar va masjidlar nomlari;
13) haj ibodati bilan bog‘liq bo‘lgan tushuncha va atamalar;
14) diniy kiyimlar, turli buyumlar nomlari;
15) diniy-fiqhiy atamalar.

Teolingvistik izlanishlar qatorida N.U.Ismoilovaning “Qur’oni Karim tafsirlaridagi o‘xshatishlarning lingvistik xususiyatlari (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Tafsiri Hilol” asari misolida)” mavzusidagi tadqiqot ishi ham alohida ahamiyat kasb etadi [5]. Olima Qur’oni Karim tafsirlarini tadqiqot obyekti sifatida tanlab, teolingvistik nuqtayi nazardan diniy uslubda o‘xshatishlarning pragmatik tahlilini amalga oshirgan.

Yuqorida sanab o‘tilgan ilmiy-nazariy fikrlar tilshunoslik yuzasidan asosli, albatta. Lekin tadqiqotimiz obyekti sifatida tanlab olingan Allohning 99 ismi va ularning ma’nolari xususida gap borganda islom dini ta’limotiga murojaat qilish zarurdir.

Qo‘llanilgan metodlar. Islom dini nuqtayi nazaridan ilohning yagonaligiga Qur’oni Karimda qanchadan-qancha ilmiy, asosli dailillar keltirilgan. Islom dinida Allohning ismlari “Al-Asmo al-Husno” (arab. – go‘zal ismlar) deb nomlanib, mazmunan uning sifatlari va fazilatlarini ifodalaydi. Bu ismlar 99 ta bo‘lib, ular musulmon ilohiyotida muhim o‘rin tutadi. Alloh ismlari ko‘p duolarda qo‘shib aytiladi va odatda, tasbeh donalari soni bilan tengdir.

Qur’oni Karimda Asmaaul Husna haqida shunday deyiladi: “Allohning go‘zal ismlari bordir. Bas, Uni o‘sha ismlar bilan chorlanglar (yod etinglar). Uning ismlarida haqdan og‘ib (noo‘rin joylarda ularni qo‘llaydigan mushrik) kimsalarni tark qilinglar” (A’rof surasi, 180-oyat).

(Ey Muhammad alayhis-salom), ayting: “Alloh, deb chorlangiz, yoki Rahmon – Mehribon, deb chorlangiz. Qanday chorlasangizlar-da (joizdir). Zero, U zotning go‘zal ismlari bordir (Isro surasi, 110-oyat).

Sufiylarning fikricha, bu ismlar kamolotga erishishning timsoli sifatida ishlatiladi. Allohni va uning ismlarini iloji boricha ko’proq eslab turish taqvodorlik namunasi hisoblanadi. Alloh ismlaridan duoxonlar tumorlar sifatida foydalanishadi. Qur’oni Karimning Hashr surasida (22-24-oyatlar) Alloh go‘zal ismlarining qisqa ro‘yxati bor: **ar-Rahmon, ar-Rahim, al-Malik, al-Quddus, as-Salom, al-Mo‘min, al-Muhaymin, al-Aziz, al-Jabbor, al-Mutakabbir, al-Xoliq, al-Bori’, al-Musavvir.** Boshqa hamma ismlar Qur’onning turli joylarida uchraydigan Alloh sifatlaridan kelib chiqadi va ular bilan bog‘langan fe’llardan hosil bo‘lgan. 99 ta ism ro‘yxati Abu Hurayra (601-679 yy.) rivoyat qilgan hadisda bor. Ana shu hadisga ko‘ra, Muhammad s.a.v. 99 raqamini keltirganlar va har kim Alloh taolloning mazkur ismlarini birma-bir aytib chiqsa, albatta, jannatdan joy ato qilinadi, deganlar. Boshqa hadis to‘plamalarida ham Alloh ismlari ro‘yxati keltiriladi (Vallohu a’lam) [19].

Allohning ismlari diniy adabiyotlarda tilga olinsa-da, yaqin kunlarga qadar ularni semantik jihatdan tahlil qilish va lisoniy xususiyatlarini o‘rganish nozik mavzulardan edi. Teolingvistik tadqiqotlarning ko‘lami kengaygani sayin bu kabi masalalar salmog‘i orta boshladi. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, Qur’oni Karim va islom manbalariga tayanib, Asmaaul Husna, ya’ni Alloh ismlarining ma’nolarini keltirib o‘tamiz.

Olingan natijalar va ularning tahlili.

1. **«Alloh»** – lafzi (so‘zi) «alaha» fe’lidan olingan, arab tiliga xos fe’lning infinitiv shakli «iloh» so‘ziga mansub bo‘lib, *“ma’bud”* – ibodat qilingan zot ma’nosini anglatadi. Arablarda «iloh»ning avvaliga alif va lom harflari kiritilgan va *«al-ilohu»* hosil bo‘lgan. «Alloh» so‘zi yakkayu yagona ma’budi haqqa ism bo‘lib qolgan. U zotdan boshqaga bu ism ishlatilmagan. Ba’zi ulamolar, Alloh ismi a’zamdir, deganlar. Bu haqida Ibn Atoulloh Sakandariy kabi zotlar alohida kitoblar ham yozganlar.

2. **«Ar-Rahmon»** – ulug‘ ne’matlarni beruvchi. *«Rahmon»* sifati faqat Allohga xos bo‘lib, barchaga – kofirga ham, mo‘minga ham mehribon va ne’mat beruvchi, ma’nosini anglatadi. Rahmon sifatini Alloh taolodan boshqa hech kimga nisbatan ishlatib bo‘lmaydi.

3. **«Ar-Rohiym»** – latif (iltifotli, xushmuomala; yumshoq, muloyim, yoqimli) ne’matlarni beruvchi. *«Rohiym»* sifati esa xosroq bo‘lib, qiyomat kuni faqat mo‘minlarga rahm qiluvchi ma’nosini anglatadi va Allohdan o‘zgalarga, jumladan, Payg‘ambar alayhissalomga nisbatan ham ishlatiladi.

4. **«Al-Malik»** – barcha narsaning egasi. *«Malik»* – haqiqiy egadir, Undan o‘zga ega yo‘q. Shuning uchun bandalar faqat Unga qul bo‘ladilar. Hech vaqtda bir qulga ikki xo‘ja bo‘lmaydi. Shuning uchun insonlar o‘zlariga o‘xshagan insonlarga emas, balki yagona yaratganga, haqiqiy ega – Malikka qul bo‘lishlari lozim.

5. **«Al-Quddus»** – barcha ayblardan holi, noloyiq sifatlardan pok. Mutlaq muqaddaslik va mutlaq poklik Allohning o‘zigagina xosdir.

6. **«As-Salom»** – nuqsonlardan salomat, shuningdek, tinchlik-xotirjamlik va rohat beruvchi zot. Alloh *«Salom»* sifati ila bandalarga tinchlik, omonlik, xotirjamlik ato qiladi.

7. **«Al-Mo‘min»** – iymon va omonlikni beruvchi.

8. **«Al-Muhaymin»** – hamma narsani qamrab oluvchi, ya’ni Alloh bandalarining barcha holatlariga guvoh bo‘lib turadi, Undan hech narsa maxfiy qolmaydi.

9. **«Al-Aziz»** – barchaning ustidan g‘olib. Undan biror narsa g‘olib kela olmaydi.

10. **«Al-Jabbor»** – oliy qadar, ulug‘, uning oldida o‘zgalar o‘zini xor tutadi.

11. **«Al-Mutakabbir»** – kibiryosi va ulug‘ligi mubolag‘ali zot. Uning oldida boshqalar qul bo‘lib turadigan zot.

12. **«Al-Xoliq»** – asli va o‘xshashi yo‘q narsalarni aniq bir o‘lchovlar bilan yaratuvchi. U zotda maxluqi yo‘qligida ham *Xoliqlik* ma’nosi mavjuddir. Alloh maxluqlar vujudga keltirilishidan oldin Xoliq, degan maqomga ega edi. U xaloyiqni xalq qilganidan boshlab Xoliq ismini olgani yo‘q. Xoliq mutlaq vujudga keltiruvchidir.

13. **«Al-Bori’»** – yo‘qdan paydo qiluvchi, vujudga keltiruvchi. *Bori’* tafovutsiz qilib vujudga keltiruvchidir.

14. **«Al-Musavvir»** – maxluqotlarning suratini shakllantiruvchi. Har bir narsaga o‘ziga xos surat beruvchi.

15. **«Al-G‘affor»** – ko‘plab mag‘firat qilib, bandalarning aybini o‘z fazli ila ularni ta’na qilmasdan kechib yuboruvchi.

16. **«Al-Qahhor»** – ko‘plab mag‘firat qilib, bandalarning aybini o‘z fazli ila ularni itob qilmasdan kechib yuboruvchi.

17. **«Al-Vahhab»** – ko‘plab ne’matlarni behisob beruvchi.

18. **«Ar-Razzoq»** – ko‘plab rizq beruvchi. Rizqlarni va ularning vositalarini yaratuvchi. Alloh maxluqotlariga hech bir og‘irliksiz va qiyinchiliksiz yoki yordam so‘ramasdan rizq beruvchidir.

19. **«Al-Fattoh»** – ko‘plab narsalarni ochuvchi. O’z rahmat xazinasini bandalariga ochuvchi.

20. **«Al-Aliym»** – har bir narsani biluvchi. Bo‘lgan va bo‘ladigan, avvalgi va oxirgi, zohir va botin narsalarning barchasini biluvchi.

21. **«Al-Qobiz»** – ruhlarni qabz qiluvchi (tutuvchi). Xohlagan kishisining rizqini qabz qiluvchi. Qalblarni qabz qiluvchi.

22. **«Al-Bosit»** – ruhlarni kenglikka qo‘yib yuboruvchi. Xohlagan kishisining rizqini keng qilib qo‘yuvchi. Qalblarni keng qiluvchi.

23. **«Al-Xofiz»** – pasaytiruvchi. Misol uchun kofir va fosiqlarning martabasini ularni xoru zor qilib pasaytiradi.

24. **«Al-Rofe’»** – ko‘taruvchi. Misol uchun mo‘min va taqvodorlarning martabasini ularni azizu mukarram qilib ko‘taradi.

25. **«Al-Mu’izz»** – aziz qiluvchi. Kimni xohlasa to‘g‘ri yo‘lga solib aziz qiladi.

26. **«Al-Muzill»** – xor qiluvchi. Kimni xohlasa egri yo‘lga yurgani uchun xor qiladi.

27. **«Al-Samiy’»** – har bir narsani eshituvchi.

28. **«Al-Basiyr»** – har bir narsani ko‘ruvchi.

29. «**Al-Hakam»** – hukm qiluvchi.

30. **«Al-Adl»** – mutlaq adolat qiluvchi.

31. **«Al-Latiyf»** – o‘ta lutf ko‘rsatuvchi. Barcha narsalarning nozik va daqiq joylarigacha biluvchi.

32. **«Al-Xabiyr»** – hamma narsadan o‘ta xabardor.

33. **«Al-Haliym»** – g‘azabi qo‘zimaydigan va iqob qilishga shoshilmaydigan.

34. **«Al-Aziym»** – aql tasavvur qila olmaydigan darajada azamatli va ulug‘.
35. **«Al-G‘afur»** – ko‘p mag‘firat qiluvchi.
36. **«Ash-Shakur»** – oz amal uchun ko‘p savob beruvchi.
37. **«Al-Aliy»** – martabasi oliylikda benihoya.
38. **«Al-Kabiyr»** – har bir narsadan katta.
39. **«Al-Hafiyz»** – har bir narsani komil muhofaza qiluvchi.
40. **«Al-Muqiyt»** – barcha moddiy va ruhiy rizqlarni yaratuvchi.
41. **«Al-Hasiyb»** – kifoya qilguvchi. Qiyomatda bandalarning hisobini qilguvchi.
42. **«Al-Jaliyl»** – sifatlarida ulug‘likka ega bo‘lgan zot.
43. **«Al-Kariym»** – birov so‘ramasa ham, biror narsaning evaziga bo‘lmasa ham narsalarni ko‘plab ato qiluvchi. Lutf bilan itob qiluvchi. Qarama-qarshiliklardan pok bo‘lgan. Karamli ishlar va xislatlar sohibi.
44. **«Al-Raqiyb»** – hech bir zarrani ham qo‘ymay muroqaba qilib (tekshirib) turuvchi.
45. **«Al-Mujiyb»** – duolarni ijobat qiluvchi.
46. **«Al-Vose’»** – keng – hamma narsani keng ilmi ila ihota qilgan. Barchani keng rahmati ila qamrab olgan.
47. **«Al-Hakiym»** – har bir narsani hikmat ila qiluvchi.
48. **«Al-Vadud»** – barchaga yaxshilikni ravo ko‘ruvchi.
49. **«Al-Majiyd»** – shon-sharafi va qadri baland va cheksiz.
50. **«Al-Bo’is»** – yuboruvchi: xalqlarga payg‘ambarlar yuboruvchi. Kishilarga himmat yuboruvchi. O‘liklarni qayta tiriltiruvchi.
51. **«Ash-Shahiyd»** – har bir narsaga hoziru nozir. Barchaga shohidlik beruvchi.
52. **«Al-Haq»** – o‘zgarmas sobit zot. Haqni yuzaga chiqaruvchi zot.
53. **«Al-Vakiyl»** – barchaning ishi unga topshirilgan zot.
54. **«Al-Qaviy»** – quvvatli zot.
55. **«Al-Matiyn»** – matonatli zot
56. **«Al-Valiy»** – muhabbat qiluvchi, nusrat beruvchi va xalqining ishini yurituvchi zot.
57. **«Al-Hamiyd»** – barcha maqtovlar ila maqtalgan zot.
58. **«Al-Muhsiy»** – barcha narsaning hisobini olgan zot.
59. **«Al-Mubdi’»** – barcha narsalarni avval boshdan bor qilgan zot.
60. **«Al-Mu’iyd»** – yo‘q bo‘lgan narsalarni yana qaytadan bor qiluvchi.
61. **«Al-Muhyi»** – tiriltiruvchi. U zot o‘liklarni tiriltiruvchidir va bu ismga ularni tiriltirishdan oldin sazovordir. Alloh o‘liklarga jon kiritib, tirik qilganidan keyin tiriltiruvchi, deb atalganidek, ularni xalq qilishdan oldin, ularga hayot berishidan oldin ham, tiriltiruvchi, deyilaveradi. Xuddi, xaloyiqni xalq qilishidan oldin Xoliq bo‘lganidek. Alloh taologa qiyomat kuni o‘liklarni tiriltirishi uchun, tiriltiruvchi nomi berildi. Bas, shundan ma’lum bo‘ldiki, tiriltirish sifati Alloh taolo uchun tiriltirishdan oldin ham sobitdir.
62. **«Al-Mumiyt»** – o‘ldirivchi. Barcha jonzotlarning jonini oluvchi.
63. **«Al-Hayy»** – tirik. U tirikdir, o‘lmas. Ya’ni Allohning hayoti abadiydir, o‘lim ila yo‘q bo‘lmas. Shuningdek, Allohning hayoti azaliydir, oldindan yo‘q bo‘lgan emas. Yagona Allohning tirikligi o‘zigagina xos alohida hayot bo‘lib, bandalar hayotiga o‘xshash boshqa masdardan berilgan emas. Bu hayot azaliy va abadiydir. Boshlanish chegarasi ham, tugash chegarasi ham yo‘q. Allohning tirikligi hech bir jihatdan bandalarning hayotiga o‘xshamaydi.
64. **«Al-Qayyum»** – o‘z- o‘zidan qoim bo‘lgan va boshqalarni qoim qilgan zot. «Qayyum»lik sifatining ma’nosi, Alloh taboraka va taoloning har bir narsa ustida turuvchi ekanligi va har bir turuvchi narsa uning sababidangina turishidir. Shu bilan Allohning turishi boshqanikiga o‘xshamaydi va doimiydir.
65. **«Al-Vojid»** – topuvchi. Xohlagan narsasini topuvchi. Bu ishda birov Uni to‘sa olmaydi.
66. **«Al-Mojid»** – majdu sharaf sohibi bo‘lgan zot.
67. **«Al-Vohid»** – yagona, bitta. U zot o‘z zotida ham, sifatlarida ham va ishlarida ham birdir.
68. **«As-Somad»** – *«Somad»* sifati ko‘p ma’nolarni o‘z ichiga oladi: itoat qilingan ulug‘ – usiz hech bir ish bitmaydi; hech kimga hojati tushmaydi. Barchaning hojati unga tushadi; butun maxluqot bitib tugasa ham, o’zi doim boqiydir va hokazo.
69. **«Al-Qodir»** – cheksiz qudrat sohibi. U zot har bir narsaga qodirdir. Har bir ish unga osondir. Alloh taolo azaldan har bir narsaga qodirdir. Agar Alloh azaldan har bir narsaga qodir bo‘lmasa, qachon va qandoq qilib har bir narsaga qodir bo‘la oladi.
70. **«Al-Muqtadir»** – juda ham qudratli.
71. **«Al-Muqaddim»** – oldinga suruvchi. U zot xohlagan shaxs va narsani xohlagan shaxs va narsasidan oldinga suradi.

72. **«Al-Muaxxir»** – orqaga suruvchi. U zot xohlagan shaxs va narsani xohlagan shaxs va narsasidan orqaga suradi.

73. **«Al-Avval»** – u hamma narsadan avval, ya'ni, barcha mavjudodtlar yo'qligida ham Alloh bor edi, mavjudotlarni *«Avval»* sifatiga ega bo'lgan Alloh yaratdi. Ya'ni Alloh taoloning vujudga kelishining boshlanishi yo'qdir.

74. **«Al-Oxir»** – hamma narsa yo'q bo'lib ketganda ham o'zi qoladi.

75. **«Az-Zohir»** – uning mavjudligi oshkor, ochiq-oydindir. U hamma narsadan zohir – ustundir.

76. «Al-Botin» – U ko'zga ko'rinmaydi. Hammadan pinhon, maxfiy narsalarni bilib turuvchidir.

77. **«Al-Voliy»** – har bir narsaga voliy – ega bo'lgan zot.

78. **«Al-Mutaoliy»** – nuqsonlardan yuqori turuvchi zot.

79. **«Al-Barr»** – ulug' yaxshilik qiluvchi.

80. **«At-Tavvob»** – bandalarni tavbaga yo'llovchi va ularning tavbasini ko'plab qabul qiluvchi zot.

81. **«Al-Muntaqim»** – zolim va osiylardan intiqom oluvchi.

82. **«Al-Afuvv»** – afv qiluvchi.

83. **«Ar-Ra'uf»** – o'ta shafqatli va mehribon.

84. **«Molikul Mulk»** – mulk egasi. Bu dunyodagi ishlarni o'zi xohlaganicha qiladi. Uning qazosini qaytaradigan va hukmini o'zgartiradigan yo'q.

85. **«Zul Jalali val Ikrom»** – sharaf va kamol egasi. Karam va ikrom egasi.

86. **«Al-Muqsit»** – o'z adolati ila mazlumlarga nusrat va zolimlarga jazo beruvchi.

87. **«Al-Jome'»** – jamlovchi. Barcha haqiqatlarni jamlovchi. Odamlarni qiyomat kuni jamlovchi.

88. **«Al-G'aniy»** – behojat. Uning hech kim va hech narsaga hojati tushmaydi.

89. **«Al-Mug'niy»** – behojat qiluvchi. U zot o'z bandalaridan qay birini xohlasa, behojat qilib qo'yadi.

90. **«Al-Mone'»** – man' qiluvchi.

91. **«Az-Zorr»** – zararli narsalarni ham yaratuvchi.

92. **«Al-Nofe'»** – manfaat beruvchi.

93. **«An-Nur»** – o'zi mutlaq zohir va o'zgalarni zohir qilgan.

94. **«Al-Hodiy»** – hidoyat qiluvchi. U zot o'z fazli ila xohlagan kimsani hidoyat qiladi. Ya'ni Alloh kimni to'g'ri yo'lga hidoyat qilsa, albatta, o'z xohishi va fazli ila hidoyat qiladi.

95. **«Al-Badiy'»** – o'xshashi yo'q narsalarni keltiruvchi.

96. **«Al-Boqiy»** – boqiy qoluvchi. U doimiy bordir.

97. **«Ar-Voris»** – mavjudotlar yo'q bo'lganda ham boqiy qoluvchi zot.

98. **«Ar-Rashiyd»** – to'g'ri yo'lga irshod qiluvchi.

99. **«As-Sabur»** – o'ta sabrli. Osiylarni azoblashga shoshilmaydi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, din va tilning o'zaro munosabati masalalarini o'rganish natijasida teolingvitik tadqiqotlar ko'lami kengayib, teolingvistika dinshunoslik va tilshunoslikning aloqasini o'rganuvchi zamonaviy fan tarmog'i sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, diniy birliklarni lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilish, ularning lisoniy o'ziga xosligini o'rganish ham islom ilmida, ham tilshunoslik ilmida dolzarblik kasb etadi.

Amalga oshirilgan tahlillardan ko'rinib turibdiki, Alloh ismlari ma'nosining har birida uning sifatlari bayon etilgan. Uning tengsiz kuch-qudrati, benihoya mehribon va rahmli ekanligini arabcha Asmaaul Husna jumlasidan ham anglash mumkin. Insonda topilmaydigan bu sifatlarning har biri faqat Allohga xos bo'lib, muqaddas Qur'oni Karimdagi oyatlar va ularning tafsirini lingvistik nuqtai nazardan o'rganish, diniy-lisoniy birliklarning tadqiqini amalga oshirish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Qolaversa o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda insonparvarlik tushunchalarini yoshlarda shakllantirish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish va bu sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etishda tilshunoslik va din ilmining o'rni beqiyosdir.

ADABIYOTLAR:

1. *Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – 264 b.*
2. *Crystal D. Whatever happened to Theolinguistics? // Religious language, metaphor and the mind. Paul Chilton and Monika Kopytowska (eds). – New-York: Oxford University Press, 2018. – pp. 3-18.*
3. *Гадомский А.К. О лакунах в системе лингвистической науки: проблема взаимодействия языка и религии // Культура народов Причерноморья. – Симферополь, – Т. 1. – Вып. 49, 2004. – с. 164–166.*

4. Galiyeva M.R. Dunyo lisoniy tasvirida diniy-mifologik tasavvurning aks etishi: Filol. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – Farg'ona, 2019. – 78 b.

5. Ismoilova N.U. Qur'oni Karim tafsirlaridagi o'xshatishlarning lingvistik xususiyatlari (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Tafsiri Hilol" asari misolida): Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Qo'qon, 2023. – 64 b.

6. Жданова И.В. Семантико-структурная и функциональная специфика заглавий богословско-религиозного жанра // Молодой ученый. 2011. – № 3. Т. 2. – с. 12-17. URL https://moluch.ru/archive/26/2773/

7. Kucharska-Dreiss E. Teolingwistyka – próba popularyzacji terminu // Język religijny dawniej i dziś, red. S.Mikołajczak, T.Węcławski, – Poznań, 2004. s. 23-30.

8. Maxmaraimova Sh.T. Olamning milliy lisoniy tasvirida teomorfik metaforaning kognitiv aspekti: Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2018. – 47 b.

9. Maxmaraimova Sh. O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha kontseptual lug'ati: Toshkent: Cho'lpon, 2018. – 100 b.

10. Постовалова В.И. Теолингвистика в современном гуманитарном познании: истоки, основные идеи и направления [Электронный ресурс] / В.И. Постовалова // Magister Dixit: электронный научно-педагогический журнал Восточной Сибири. – 2012. – № 4. – Режим доступа: http://md.islu.ru/sites/md.islu. ru/files/rar/postovalova_v.i._-_2.pdf

11. Qilichev B.E. "Onomastika" [Matn] : o'quv qo'llanma – Buxoro, 2023. – 150 b. ISBN 978-9943-9203-3-0.

12. Степаненко В.А. Теолингвистика? – Да, теолингвистика! [Текст] / В.А. Степаненко // Вестник ИГЛУ. Сер. Филология. – 2012. – № 2. (18). – с. 221– 226.

13. Sultonova Sh.M. Diniy leksika diniy frazeologik birliklarning tarkibiy qismi sifatida // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar, 2020. – № 5 (49). – b. 114-120.

14. Улуков Н. Экзотическая лексика узбекских религиозных текстов: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук: – Ташкент, 1997. – 25 с.

15. Umarxo'ja M. Diniy atamalar va iboralar. Ommabop qisqacha izohli lug'at. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – B. 10-11. 220 b.

16. Васильева Е.А. Язык и слово в представлениях западных теолингвистов // Вестник Иркутского государственного лингвистического университета. 2013. № 2 (23). с. 127-133.

17. Yodgorov Sh. Analysis of theolingusitic equivalent words "Allah" and "God" in Translation // Academic Research in Educational Sciences Vol. 2, Issue № 9, 2021. – pp. 534-540.

18. Yusupova Sh.T. Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi: Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Farg'ona, 2021. – 52 b.

19. https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=234.0

20. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20T.pdf

UO‘K 81

GAZETA SARLAVHALARINING TASNIFI VA FUNKSIYALARI
(fransuz gazetalari misolida)

Jo‘rayeva Maqsuda Muhammadovna,
Buxoro davlat universiteti
Fransuz filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.f.d., PhD
m.m.jurayeva@buxdu.uz

Annotatsiya. *Gazeta sarlavhasi gazetaning xususiyatlarini aks ettiruvchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega, ya’ni: uning samaradorligi, ommabopligi, janr jilosi o‘ziga xosdir. Mazkur maqolada fransuz gazeta sarlavhalarining sintaktik jihatlari haqida fikr yuritiladi. Sarlavhaga qo‘yiladigan talablardan bir nechtasi ajratib ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *sarlavha, kundalik gazeta, diskurs, fonetik aloqa, sintaktik jihat, pastki sarlavha yoki subtitr.*

КЛАССИФИКАЦИЯ И ФУНКЦИИ ГАЗЕТНЫХ ЗАГОЛОВКОВ
(на примере французских газет)

Аннотация. *Название газеты имеет свои особенности, отражающие особенности газеты, а именно: её эффективность, популярность, неповторимый жанровый лоск. В данной статье рассматриваются синтаксические аспекты заголовков французских газет. Выделены некоторые требования к названию.*

Ключевые слова: *заголовок, ежедневная газета, дискурс, фонетическая связь, синтаксический аспект, подзаголовок или подзаголовок.*

CLASSIFICATION AND FUNCTIONS OF NEWSPAPER HEADLINES
(on the example of French newspapers)

Abstract. *The newspaper title has its own characteristics that reflect the characteristics of the newspaper, i.e.: its effectiveness, popularity, genre gloss is unique. This article discusses the syntactic aspects of French newspaper headlines. A few of the title requirements are highlighted.*

Key words: *headline, daily newspaper, discourse, phonetic connection, syntactic aspect, subheading or subtitle.*

Kirish. Gazeta sarlavhalarining tasnifi va funksiyalari Yuqorida ko‘rdikki, gazeta sarlavhalari potensial o‘quvchilar e’tibor beradigan hodisadir. Gazetaning muvaffaqiyatli bo‘lishi, uning raqobatbardoshligini oshirish uchun sarlavha diqqatni jalb qilishi, qiziqishni uyg‘otishi, gazeta sotib olishga va maqolani o‘qishga undashi lozim. Uni gazeta sotiladigan do‘kondagi reklama vitrinasi bilan taqqoslash ham mumkin. Negaki, vitrina qanchalik yorqin va jozibali bezatilgan bo‘lsa, xaridor ham o‘zi xohlagan narsasini xarid qilib olish ehtimoli shunchalik ko‘proq bo‘ladi. Va, albatta, ushbu maqsadlarga erishish uchun metafora (gazeta sotiladigan do‘kondagi reklama vitrina) juda mos keladi.

Asosiy qism. Y.B.Plaksina asarning ilk jumlasi, ya’ni sarlavhaning mohiyati va qimmatini shunday baholaydi: “Ijodning ilk bosqichida asarning umumiy ohangi qulog‘imga chalinadi. Muhimi, dastlabki yozilgan jumlaning asar taqdirini hal etuvchi ahamiyatga egaligida bilinadi. Ilk jumla asar janrini, maromini belgilab beradi. Modomiki, quloqqa chalingan o‘sha ohang rivoj topmasa, shubhasiz, chalg‘ib ketasan, boshlagan asaringni bir chetga surib qo‘yasan yoki undan bir narsa chiqmaydi, tashlab yuborasan” [13].

Shuning uchun har bir gazeta sarlavhasining to‘g‘ri, mazmunli va tushunarli qilib tanlanishi juda muhim hisoblanadi.

A.A.Safonov ta’kidicha, sarlavha – asarning birinchi belgisi, undan matn bilan tanishish boshlanadi. U o‘quvchini asar dunyosi bilan tanishtiradi va uning idrokini faollashtiradi. V.Dalning lug‘atida 64 sarlavha haqida shunday deyilgan: “Chiqish varag‘i, kitobning yoki matnning nomi ko‘rsatilgan birinchi varag‘idir. Bo‘limning nomi, kitobning bobi ham sarlavha bilan nomlanadi”. Bu yerda sarlavhaning keng tushunchasi berilgan.

Sarlavha biroz torroq qandaydir asarning (adabiy, musiqiy) yoki uning qismlari bo‘limining nomi sifatida ta’riflanganligini kuzatish mumkin. Keltirilgan mulohazalarning barchasi gazeta sarlavhasi uchun

to‘g‘ri keladi, ammo shuni ta’kidlash kerakki, gazeta sarlavhasi gazetaning xususiyatlarini aks ettiruvchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega, ya’ni: uning samaradorligi, ommabopligi, janr jilosi o‘ziga xosdir. Sarlavha, matndan oldin kelgan holda, matn mazmuni va muallifning u haqidagi bahosi to‘g‘risida ma’lum ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Aytish mumkinki, u stilistik jihatdan kuchli pozitsiyani egallaydi. Inson kamdan-kam holatlarda gazetani “ipidan ignasigacha” o‘qiydi, u faqat o‘zini qiziqtirgan ruknni tanlab, sarlavhaga e’tiborini qaratadi.

Yuqorida bildirilganlarga asoslanib, sarlavhaga qo‘yiladigan talablardan bir nechtasini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu talablar o‘quvchi vazifasini imkon qadar osonlashtiradi. Shundayin – informativlik, mazmunga moslik va ekspressivlik jihatlarni ko‘rib chiqamiz: E.A.Lazarova sarlavhaning ikki tomonlama tabiatiga alohida e’tibor qaratadi. U gazeta sarlavhasiga quyidagicha baho beradi: “Sarlavha matn haqida oldindan xabar beradigan, uning “ustida” va undan oldin turadigan lisoniy struktura, va ayni paytda, u “matn tarkibiga kiradigan va butun asarning boshqa komponentlari bilan bog‘liq bo‘lgan matnning to‘laqonli tarkibiy qismi” vazifasini bajaradi. Bir tomondan, sarlavha nominativ funksiyani bajaradi, maqolani nomlaydi, muayyan matnni aniqlab olish va tanlashga yordam beradi, maqolaning mazmun-mohiyati haqida ma’lumot beradi. Boshqa tomondan, sarlavha mustaqil ravishda, maqolani o‘qimasdan, muayyan fikrni, muallif pozitsiyasini ifodalashga qodir. Gazeta sarlavhasi ko‘p funksiyali tabiatga ega ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, sarlavhalarning birqancha asosiy funksiyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Grafiklar bilan ajratish funksiyasi; nolisoniy vositalar, ya’ni shrift, rang va boshqa grafik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bu vositalar yordamchi hisoblanadi, chunki ular o‘quvchining diqqatini jalb qilish orqali matnni yaxshiroq o‘zlashtirishga hissa qo‘shadi.

2. Nominativ funksiya; matnni nomlaydi, ot so‘z turkumi sifatida ishlatiladi. Ushbu funksiya uchun maqolaning mazmunini aks ettiradigan va keyingi matnga zid bo‘lmaydigan so‘zni aniq tanlaydi.

3. Informativ funksiya; maqolaning mazmuni to‘g‘risidagi ma’lumotning bir qismini yetkazib beradi. Ushbu funksiya tufayli gazeta mazkur mavzuga qiziqqan o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiladi.

4. Reklama funksiyasi; matnni reklama qiladi, qiziqish uyg‘otadi, diqqatni faollashtiradi, qiziqtiradi. Y.A.Lazarovaning [14] so‘zlariga ko‘ra, sarlavhaning reklama funksiyasi shaxsning ma’lum bir ruhiy munosabatini shakllantiradi, natijada o‘quvchi nashrga maqsadli ravishda murojaat qiladi.

5. Baholovchi ekspressiv funksiya; o‘quvchining hissiy munosabatini shakllantiradi, unga ta’sir qiladi. Ushbu funksiya tadqiqotimizda juda muhimdir, chunki aynan u lisoniy vositalarni tanlashni belgilaydi, ulardan biri o‘quvchiga kerakli ta’sir ko‘rsatishga mo‘ljallangan metaforadir. Baholovchi va ekspressiv funksiyasi tufayli sarlavha, o‘quvchining e’tiborini nashrning aspektlaridan biriga yo‘naltirgan va boshqalarini tekislab yuborgan holda, stilistik samaralarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Bu holat o‘quvchi ongini boshqarishga va qo‘yilgan maqsadlarga erishishga imkon beradi. 6. Integrativ (bog‘lovchi) funksiya; sarlavha va keyingi matnning bog‘liqligini ko‘rsatadi. Integrativ funksiya leksik va grammatik vositalardan foydalangan holda amalga oshiriladi. 7. Kompozitsiya funksiyasi ; matnning tuzilishi va uning boblarga bo‘linishi to‘g‘risida ma’lumot beradi. Gazeta sarlavhalarining xuddi shunday funksiyalarga ega bo‘lgan holatlarni yanada davom ettirish mumkin. Chunki sarlavha matnni idrok etishning o‘qishgacha, o‘qish paytida va o‘qishdan keyin kabi bosqichlariga qarab turli funksiyalarni bajaradi. O‘qishdan oldingi bosqich – bu grafiklar bilan ajratish, nominativ, informativ, reklama, ekspressiv va baholovchi funksiyalardir. O‘qish paytidagi – bu informativ, integrativ va kompozitsion funksiyalar sanaladi. O‘qishdan keyingi bosqich – nominativ funksiya, bu funksiya yordamida o‘qilgan matn xotirada saqlanadi. Sarlavhalarning bir nechta tipologiyalari ham mavjudligini aytish mumkin. Uning matn bilan o‘zaro bog‘liqligi matnda aks ettirilgan mazmuniy elementlarning soni bo‘yicha bir yo‘nalishli va murakkab sarlavhalar ajratiladi. Bir yo‘nalishdagi sarlavhalar matnning qaysidir bir elementi, mavzusi, asosiy g‘oyasi, vaziyatning tahliliy bahosi, tezislarni namoyon qiladi. Murakkab sarlavhalar esa matnning bitta elementini aks ettirmasdan, matn semantik tuzilishining bir nechta elementlarini yoritadi.

Mazkur maqolada fransuz tadqiqotchilaridan Iv Agnes (Yves Agnes, 2002) ning “Manuel de journalisme”, Benoit Greviss (Benoît Grevisse, 2008) ning “Ecritures journalistiques”, Martin-Lagardet (Martin-Lagardette (2005) ning “Le guide de l’écriture journalistique” bo‘yicha qo‘llanmalari tadqiq etildi. Matbuot sarlavhasini Mishel Pernetning “Les titres de presse, fonctions communicatives et formes linguistiques” [15] nomli tadqiqotida hamda Fransua Sullet-Nilanderning “Le titre de presse: analyses syntaxique, pragmatique et rhétorique”[16] nomli izlanishlari ham o‘rganildi.

Biz maqolalardan olingan sarlavhalar bo‘yicha quyidagi misollarni tadqiq etdik:

Birmanie : la « Lady » choisit un fidèle pour président (Le Monde, vendredi 11 mars 2016, N° 22131) Ushbu sarlavhada joy (Birma) bor va hodisa ikki nuqtadan keyin qo‘yilgan (“Xonim” fidoyi kishini prezident sifatida tanlaydi). O‘qishning birinchi darajasida o‘quvchini qo‘shtirnoq orasidagi inglizcha so‘z

o‘ziga tortadi (Xonim). Muallif Aun San Su Chji (Birma ittifoqi respublikasi davlatining maxsus maslahatchisi va prezidentlik matbuot kotibi) nomini almashtirish uchun nutq figurasidan (metonimiya) foydalangan . Bu axborotning qisqarishi va rag‘batdidan dalolatdir.

Navbatdagi misolda *L’Avertissement (Libération, jeudi 10 mars 2016, N° 10824).* Liberationning birinchi sahifasida paydo bo‘lgan bu sarlavhada faqat bitta so‘z bor. O‘quvchining bir qarashida bu sarlavha uning e’tiborini tortadi, ammo maqola mazmunini tushunishga ulgurmaydi. Chunki hech qanday mavzu, hodisa yo‘q. Shuning uchun biz uni tushunishimiz uchun yuqori sarlavha yoki subtitr sarlavhaga tayanishimiz zarur.

La contestation se fait une petite place sur La Liberté (Var-Matin, jeudi 10 mars 2016). Mintaqaviy kundalik gazetadan olingan bu sarlavha voqea (La contestation), harakat (kichik joy oladi) va joy (La Libertéda) bilan to‘liq jumlaga ega. Ushbu sarlavhani o‘qib, sarlavha ma’lumotlarini va maqolada muhokama qilinadigan tarkibni tushunish mumkin. Bu mintaqaviy tadbir haqida gapiradigan ibratli nom. Biroq, mavzu mavhumdir, chunki biz kim nimaga da’vogarlik qilayotganini bilmaymiz va aniq joyni bilmaymiz, chunki ko‘p shaharlarda bir nechta "La Liberte" mavjud, shuning uchun biz pastki sarlavha yoki subtitrga murojaat qilishimiz lozim.

Le faux chômeur traquait les faux chômeurs (Le Canard enchaîné, n° 4976, mercredi 9 mars 2016). Ushbu sarlavhani birinchi marta ko‘rganimizda, biz so‘zlarning takrorlanishi (*faux chômeurs*) tomonidan qiziqarli ekanligini va sarlavhaning ritmini ham hosil qilishini ko‘ramiz. Ushbu sarlavha o‘quvchini maqolani o‘qishga undaydi, ammo sarlavha haqidagi ma’lumot haqiqatan ham maqola mazmuniga bog‘liq emas. Faqatgina sarlavha bilan biz agentni (Soxta ishsizlar) , harakatni (kuzatilgan) va bemorni (soxta ishsiz) bilamiz. Lekin, aslida, maqolaning mazmuni ishsizlik sug‘urtasi haqida gapiradi. Maqolaning sarlavhasi, albatta, uni o‘qish istagini uyg‘otishi zarur.

Afsuski, omillar tartibida dastlab qaysi biri muhimligini aniq ko‘rsatish zarurati paydo bo‘ladi. Ko‘z faqat eng katta belgiga e’tibor qaratadi. Shuning uchun bu elliptik sarlavhalar o‘quvchini hayratda qoldiradi. Demak, sarlavhaga sig‘a olmaydigan bu so‘zlar juda uzun bo‘lgani uchun: taraqqiyot, masalan, satrda joy egallagan bir harf ham (m) mavjudligi bilan vaziyatni qiyinlashtiradi.

Undovchi sarlavhalarni yaratish uchun maqollardan foydalanish mumkin. Maqollarni o‘zgartirish usuli dunyoning bir qancha mamlakatlarida, shu jumladan Fransiyada ham qo‘llaniladi. Aytish joizki, “Le gouvernement ne veut pas jeter d’huile sur le feu” [17], “Bras de fer autour de LCI” [18] mehnat qonuni muxoliflarini safarbar qilgandan keyin hukumatning burilishlari haqidagi maqolalar sarlavhasida ko‘rish mumkin.

Ma’lum asarlarning, mashhur iboralar jumlalarini o‘zlashtirib olish yoki ko‘chirma sarlavhalarni ishlab chiqish uchun yana bir muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Film yoki kitob sarlavhalari quyidagicha ishlatiladi: “L’insoutenable légèreté de la vulgarité” film nomi o‘zgartirilib “L‟insoutenable légèreté de l‟être” Amerika filmi rejissyor Filipp Kaufman, 1988 yilda chiqarilgan, “Zinzin au Congo” – nomli gazetada “Tintin au Congo” sarlavhasiga o‘zgartirilgan. Boshqa tomondan, “bezak”lar uchun unumdor zamin mashhur nomlarni takrorlovchi so‘zlardir.

“La déchéance de la déchéance” [19] ko‘p ma’noli so‘z o‘yinini qo‘llash, *“Le Défenseur des droits braque la police”[20]* yana so‘z birikmalarini keltirish mumkin “*Pas beau, le lait!”[21]* , *“Les malheurs de Miller”[22]* kabi sarlavhalardagi fonetik aloqani ham undovchi sarlavhalarning namunasi sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Undovchi sarlavhada doim ham so‘z o‘yini qo‘llanmasdan, u savolga ham javob berishi mumkin : “*Bourse, les vraies raisons de l’optimisme*” kabi raqam bilan berish yoki vahiy keltirish (*Le vrai visage de …*) va shu kabi jarayonlar *“Nouvelle épreuve entre Israël et les Etats-Unis*”[23] fikrga zid bo‘lgan fikrni qo‘llash hamda nutq uslublaridan samarali foydalanish “*Le Paradis, c’est l’enfer”[24], “Le grand vainqueur, c’est la mort”[25], “Le Docteur Diesel travaillait pour Total”[26]* sarlavhalari shu kabi jarayonlardan birini o‘zida aks etadi.


O‘quvchini o‘ziga jalb qilish va hayratga solish, balki kuldirish uchun undovchi sarlavhaga qiziqishni inkor etib bo‘lmaydi; shuningdek, uning kamchiliklari yomon jihatlari yoki germetizm xavfi hisoblanadi.

Darhaqiqat, so‘z o‘yinlari yoki ishoralarning ahamiyati aniqlik ehtiyojini almashtira olmaydi. Misol uchun, “Le Tigre rugissant”[27] bu, ehtimol, o‘quvchini o‘ziga jalb qiladigan yaxshi nomdir. Ammo maqolaning taglavhasi yoki sarlavhasi kabi boshqa qismlarini, hatto mazmunini o‘qimasak, u nimani nazarda tutayotganini bilmaymiz. Shu jumladan, undovchi sarlavha ma’lumot beruvchi qo‘shimcha sarlavha o‘rtasidagi bir-birini to‘ldirish undovchi sarlavhani yanada dolzarbligiga olib keladi.

Sarlavhaning maqsadi, avvalambor, yangiliklar matnining qisqacha mazmunini aniq yetkazishi, hamda o‘quvchi e’tiborini jalb qilish va shu orqali unga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishdan iborat.

Shunday qilib, siyosiy yangiliklar matnlarida ishlatiladigan sarlavhalarning strukturasini ko‘rib chiqish ularning o‘ziga xos asosiy xususiyatlaridan biri fikrni lo‘nda va ixcham ifodalashini ko‘rsatdi. Sarlavhalarning lo‘nda va aniqligi nafaqat so‘zlarning soni bilan, balki leksemalarning qay darajada informativligi va bu leksemalarning o‘zaro qanday bog‘langanligi bilan ham tavsiflanadi.

Izlanishlarimiz davomida miqdoriy ma’lumotlar jadvali tuzildi. Maqolalari mustaqil yoki qo‘shimcha maqola bo‘lgan har bir bo‘limdagi matbuot sarlavhalarining umumiy soni aniqlandi:



1-rasm. Har bir gazetadagi sarlavhalar soni

Le Monde (166 ya’ni 14,73%), Var-matin (184, ya’ni 16,33%), Obs (162 yoki 14,38%), L’express 151 (13,39%) sarlavhaga ega, shuningdek, Le Canard enchaîné 142 (yoki 12,59%), Le Figaro 241 nom sarlavha bilan eng diqqatga sazovordir (ya’ni 21,38%), Liberation esa 13,00% unvonlarning umumiy soniga mos keladi. Har bir gazetadagi sarlavhalar soni Le Monde, Var-Matin, L’Obs, L’Express, Le Canard enchaîné gazetali sarlavhalari ichida Le Figaro nomli gazeta (yoki 17,19%) bilan eng quyi darajani ko‘rsatdi.

Barcha gazetalarni bir ovozdan o‘rganishda sarlavha muhim element ekanligini, katta nashri bilan u nafaqat ma’lumotni e’lon qilish rolini o‘ynaydi, balki kishini maqolani o‘qishga undaydi.

Fransuz gazetalari maqolalarining sarlavhalarida janrning o‘ziga xosligini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, turli xil lisoniy va nolisoniy vositalarni tanlash ommaviy axborot vositalarida matnlarning qaysi funksiyasini bajarishiga bog‘liq. Tahliliy yoki badiiy publisistik maqolaning muallifi ko‘pincha gazeta sarlavhasida hissiy jihatdan rang-barang lisoniy birliklar, badiiy uslublar va boshqalardan foydalanadi. Bunday sarlavhalar o‘quvchini qiziqtiradi va maqolaning butun matnini o‘qib chiqishga rag‘batlantiradi. Shu jihati bilan ular informativ sarlavhalardan farqlanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan funksiyalarni e’tiborga olib qisqa xulosa qiladigan bo‘lsak, “sarlavhaning maqsadi” tushunchasi ravshan bo‘lib qoladi. Fransuz ommaviy axborot vositalari matnlarining janrlarga xos xususiyatlari gazeta sarlavhalarining funksional-sintaktik, struktur va lingvopragmatik xususiyatlarini belgilaydi.

ADABIYOTLAR:

1. F.Gaudin, L.Guespin Initiation a la lexicologie frangaise de la neologie aux dictionnaires - Bruxelles: Duculot, 2000. - 355 p.;

2. Grevesse B. Ecritures journalistiques. Strategies redactionnelles, multimedia et journalisme narratif - Bruxelles: De Boeck, 2008. -252 p.;

3. Dobrosklonskaya T. G. Voprosы izucheniya media tekstov. M., 2005. 2-izd.- 288 s.;

4. Ostonovich, Bobokalonov Odilshoh. "Multiculturalism through french shifonemas." Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence 2.5 (2023): 695-700.

5. Bafoevna, Narzullaeva Dilfuza. "Theolinguistics in Modern Religious Discourse." International journal of language learning and applied linguistics 2.3 (2023): 18-21.

6. Boltayevna, Ikromova Lola, N. Z. Nabiyevna, and Muhabbat Ixtiyorovna. "The similarities and differences of proverbs with other genres." International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24.06 (2020).

7. *Maqsuda Jurayeva. "Yozma matbuot diskursining funktional xususiyatlari." Ilm sarchashmalari 6 (2021).*
8. *Jurayeva, M. M. "J'aime lire» et «Je bouquine»." Qiyosiy adabiyotshunoslik chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik: muammo, yechim va istiqbollar. Ilmiy-amaliy konferentsiya.– Buxoro (2021): 337-342.*
9. *Muhammadovna Jo'rayeva Maqsuda. "Gazeta sarlavhalarinung pragmatik imkoniyatini ifodalovchi lingvistik belgilar (fransuz gazetalari misolida)." International scientific conferences with higher educational institutions. Vol. 1. No. 05.10. 2023.*
10. *Бобокалонов Одилшоҳ. "Шифобахш ўсимлик номларининг лексик-семантик хусусиятлари." Social sciences (2021).*
11. *Kuldashova N. B. "National and cultural features of sports terminology in French and Uzbek." The dissertation submitted for the degree of PhD. B (2020): 1-148.*
12. *Плаксина Е.Б. Языковые средства реализации воздействующей функции заголовков / Е.Б. Плаксина, М.Л. Кусова. Екатеринбург, 2011. – С. 117-120.*
13. *Bosredon, B. Thème et titre de presse : les formules bisegmentales articulées par un «deux points» Tamba L'Information Grammaticale 54, 1992. – P. 36-44.*
14. *Лазарева Э.А. Заголовочный комплекс текста – средство организации и оптимизации восприятия Проблемы образования, науки и культуры. Выпуск 19. 2006. №40. – С. 50-54. 67*
15. *Лазарева Э.А. Заголовочный комплекс текста – средство организации и оптимизации восприятия Проблемы образования, науки и культуры. Выпуск 19. 2006. №40. – С. 55-65. 36*
16. *Michel Pernet thèse de doctorat, Université Paul Valéry Montpellier III, 2006, 337 p.*
17. *Françoise Sullet-Nylander thèse de doctorat, Université de Stockholm, 1998, 251 p.*
18. *Le Figaro, jeudi 10 mars 2016 N° 22264*
19. *L'express, N° 3374 semaine du 2 au 8 mars 2016*
20. *Le Canard enchaîné, mercredi 9 mars 2016*
21. *Le Figaro, vendredi 11 mars 2016 N° 22265*
22. *L'Express, N° 3374 semaine du 2 au 8 mars 2016*
23. *L'OBS, édition n° 2679 du 10 au 16 mars 2016*
24. *Le Monde, jeudi 10 mars 2016, N° 22130*
25. *L'OBS, édition n° 2678 du 3 au 9 mars 2016*
26. *L'express, N° 3375 semaine du 9 au 15 mars 2016*
27. *Le Canard enchaîné, N° 4977-mercredi le 16 mars 2016*
28. *Le Figaro, jeudi 10 mars 2016 N° 22264*

UO‘K 811111

GAPNI KOMPONENT VA SINTAKSEMALARGA AJRATIB TAHLIL QILISH ANIQLOVCHI, TO‘LDIRUVCHI VA HOL TALQINIDA

Abduqodirova Yulduz Safaraliyevna,
Navoiy davlat pedagogika instituti
Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog`ishtirma
tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz tili grammatikasini o’rganish jarayonida, gapni komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarga bag’ishlanadi. Mualliflar muammolarni batafsil o’rgangan holda ularga mutanosib yechimlarni taklif etib o’tdilar.*

Kalit so’zlar: *komponent va sintaksem tahlil, gap qurilmasi, sintaktik birliklar, semantik xususiyatlar, izohlovchi, izohlovchi-aniqlovchi, predikativ munosabat, lokativ sintaksema, translativ sintaksema.*

РАЗБОР ПРЕДЛОЖЕНИЯ НА КОМПОНЕНТЫ И СИНТАКСЕМЫ ПРИ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ОПРЕДЕЛИТЕЛЯ, ДОПОЛНЕНИЯ И ПАДЕЖА

Аннотация. *Данная статья посвящена проблемам, возникающим в процессе изучения грамматики английского языка, в процессе анализа предложения на компоненты и синтаксис. Авторы подробно изучили проблемы и предложили соответствующие решения.*

Ключевые слова: *компонентный и синтаксический анализ, аппарат предложения, синтаксические единицы, семантические особенности, объяснительные, объяснительно-определяющие, предикативные отношения, локативный синтаксис, переводческий синтаксис.*

ANALYSIS OF THE SENTENCE INTO COMPONENTS AND SYNTAXEMAS IN THE INTERPRETATION OF THE DETERMINER, COMPLEMENT AND CASE

Abstract. *This article is devoted to the problems that arise in the process of learning English grammar, in the process of analyzing the sentence into components and syntaxes. The authors have proposed the solutions to the obstacles on analyzing them thoroughly.*

Key words: *component and syntax analysis, sentence device, syntactic units, semantic features, explanatory, explanatory-determining, predicative relationship, locative syntax, translational syntax.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimiz uchun malakali kadrlar, shu jumladan malakali tarjimonlar, bilimli chet tili o’qituvchilari juda zarur bo’lib qoldi. Shuning uchun “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” asosida maktab, litsey, kollej va oliy o’quv yurtlari uchun yangi milliy dasturlar, darsliklar, uslubiy qo’lanmalarning yangi avlodi yaratildi va yaratilmoqda. Chog’ishtirma tilshunoslik chet tili o’qitishning lingvodidaktik asosini tashkil etadi. Shu sababdan yurtimizda xorijiy tillarni ona tili bilan qiyoslab o’rganish va ularni tahlil qilish tilshunoslik uchun muhim masalalardan biri.

Bugun jahon jadal rivojlanib kelayotgan bir davrda, biror bir chet tilini o’rganish hayotimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, o’rganayotgan tilimizni ya’ni ingliz tilini qanday vujudga kelgani, ushbu tildagi so’zlarning qanday ekvalentlari mavjud ekanligini bilish va uni tahlil eta olish juda ahamiyatlidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018- yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori ta’lim tizimida yangi davrni boshlab berdi. Bugun jahon jadal rivojlanib kelayotgan bir davrda, biror bir chet tilini o’rganish hayotimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, o’rganayotgan tilimizni ya’ni ingliz tilini qanday vujudga kelgani, uning zamonaviy tilshunoslikda tutgan o`rni, xususan sintaktik sathda tahlil qila olish juda ahamiyatlidir.

Asosiy qism. Gap qurilmasini komponentlarga ajratib tahlil qilishda asosan, sintaktik aloqalarni aniqlash muhim rol o`ynaydi va aniqlangan sintaktik birliklarni bir biridan farqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Sintaktik birliklar o`rtasida aniqlangan sintaktik aloqalar gap tarkibida ishtirok etgan komponentlarning differensial sintaktik belgilarini aniqlashga imkoniyat yaratib beradi. Sintaksemalarni aniqlashda tahlil qilinayotgan gapdan tashqari, ya`ni ushbu gapdagi sintaksemani boshqa gapdagi sintaksemalar bilan taqqoslab o`rganiladi. Bunda eng muhim masalalardan biri gap tarkibidagi sintaktik

birliklarni komponentlarga ajratishda ham, sintaksemalarga ajratishda ham gap qurilmasida bir xil sintaktik aloqaga asoslanadi.

Sintaktik birliklarni komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda gap qurilmalarini quyidagi bosh va ikkinchi darajali bo`laklarga ajratib tahlil qilinadi:

1. Ega o`rnida kelgan sintaktik birliklarning semantik xususiyatlari;
2. Kesim o`rnida kelgan sintaktik birliklarning semantik xususiyatlari;
3. Aniqlovchi o`rnida kelgan sintaktik birliklarning semantik xususiyatlari;
4. To`ldiruvchi o`rnida kelgan sintaktik birliklarning semantik xususiyatlari;
5. Hol o`rnida kelgan sintaktik birliklarning semantik xususisyatlari.

Biz ikkinchi darajali bo`laklar o`rnida kelgan sintaktik birliklarni quyida tahlil qilib chiqamiz. Ma'lumki, aniqlovchi ham ikkinchi darajali bo`laklardan biri hisoblanib, u gapda ot va otlashgan so`zlar bilan ifodalangan sintaktik birliklarga bog`lanib keladi.Boshqa ikkinchi darajali bo`laklardan farq qilgan holda, aniqlovchi hol va to`ldiruvchi kabi fe'lga emas balki otga bog`lanib keladi. Ya'ni to`ldiruvchi va hol gapning mustaqil bir bo`lagi sifatida doimo kesimga bog`lanib kelsa, aniqlovchi esa gapda birikmaning bir tarkibi hisoblanib, ega, kesim, to`ldiruvchi, hol va hatto to`ldiruvchiga ham tobe bo`lib keladi. Tilshunoslarning an`anaviy amaliy va nazariy grammatikalarida aniqlovchilar faqatgina morfologik jihatdan tahlil qilingan, ular ishtirok etgan gaplar komponent va sintaksemalarga ajratilib, sintaktik sathda semantik tahlil qilinmagan:

1. The old man opened the window.
2. She has been thirsty for many hours.
3. The two tables formed the letter T.
4. They had a dinner in a Palace restaurant.
5. He heard a boys screaming.
6. The pupils in the lesson were laughing.
7. The girls upstairs cleaned them at once.
8. I have time to rest.
9. They were both speaking.
10. I appreciate, Miss Clark.

Ushbu gaplarni sintaktik sathda komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilamiz. *The old man opened the window*. Ushbu gapda "old" sintaktik birlik gapning egasiga tobe bo`lib, egaga subordinativ aloqa asosida bog`langan. Aniqlovchi vazifasida kelgan elementlar gapning qaysi bo`lagini aniqlab kelmasin, unga nisbatan aniqlanishi tayanch komponent hisoblanadi. "Man" –substansial, kesimga nisbatan agentivlikni namoyon etadi, "opened" prossesual aksionallikni, "the window"-substansial obyekt sintaksemalarni ifodalaydi.

He has been thirsty for many hours. Gapda aniqlovchi vazifasida kelgan many komponenti tobe komponentga hours tobe bo`lib, unga subordinativ aloqa bilan bog`lanadi.

Uchinchi gapda the two tables formed the letter T, aniqlovchi o`rnida kelgan sintaktik birlik the two-yadro bo`lmagan tobe component o`rnida kelib, gapning NP1 (tables) komponentiga nisbatan tobe bo`lib, u bilan subordinativ aloqada bog`lanib, u kvalifikativ-kvantitativ sintaksemani ifodalaydi.

The pupils in the lesson were laughing gapida ham in the lesson birligi aniqlovchi deb ta`kidlanishi haqiqatdan uzoqda, sababi shuki, bu gap quyidagi qo`shimcha qilish va almashtirish transfarmatsiyasiga tushadi:

The pupils in the lesson were smiling –the pupils had been in the lesson who were laughing yoki the pupils who were in the lesson they were laughing.

Oxirgi gaplarning komponent va sintaksem tahliliga keladigan bo`lsak, *they were speaking, I appreciate, Miss Clark* kabi sintaktik birliklarni an'anaviy grammatikalarda aniqlovchining bir turi ya`ni izohlovchi deb talqin qilinadi, ammo bu kabi sintaktik birliklarning gap qurilmasida qanday sintaktik aloqalar asosida ishtitok etishi, differensial sintaktik va sintaktik- semantik belgilari haqida ma`lumot topilmaydi.

Bu borada, "Ilmiy adabiyotlarda qayd qilinishicha, izohlovchining grammatik tabiatiga ko`ra , ikki xil fikr mavjuddir, ya`ni ulardan biri izohlovchi-aniqlovchining bir ko`rinishi, ikkinchisi esa izohlovchi-aniqlovchidan farqli o`laroq gapning ikkinchi darajali bo`lagidir" [Северьянова В.А. Приложение в современном английском языке. АКД, Ленинград, 1973].

Keyingi qismda to`ldiruvchi haqida gap ketib, to`ldiruvchi ham ikkinchi darajali bo`laklardan biri bo`lib, gapning kesimidan ifodalangan ish-harakat, yo`nalgan belgi yoki shu ish-harakatga bog'langan predmetni-obyektni ko`rsatadigan gap bo`lagidir deb ta`kidlanadi manbalarda.

An`anaviy grammatikalarda odatda to`ldiruvchini asosan vositali, vositasiz to`ldiruvchiga hamda murakkab va qon-qarindosh to`ldiruvchilarga ajratib kelingan. Ayniqsa, to`ldiruvchining murakkab va qon-qarindosh kabi turlariga juda ko`plab misollar keltirilganligini ko`rishimiz mumkin. An`anaviy grammatika manbalarida murakkab to`ldiruvchiga quyidagicha ta`rif beriladi: "Murakkab to`ldiruvchi tuzilishi jihatdan ikki komponentdan tashkil topib, ikkinchi komponent birinchisiga predikativ munosabatda bo'ladi" [ J.Bo`ronov va boshqalar, 1974,-316.].

Aynan ushbu risolada murakkab to`ldiruvchining komponenti yagona bo`linmas birlikni tashkil etib, gapning bir bo`lagi deb hisoblanadi deya ta`kidlanadi. Aynan oxirgi gapdagi gapning bir bo`lagi deyilgan ta`rif ikkinchi komponent birinchi komponentga predikativ munosabatda bo`ladi degan holatga mos kelmaydi. Buning asosiy sabablaridan biri ushbu murakkab to`ldiruvchi deb atalmish birliklar o`rtasidagi sintaktik aloqalarni ularning differensial sintaktik va differensial sintaktik-semantik belgilarni atroflicha o`rganilmaganligidir. Quyida misollarni ko`rib, komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilib ko`raylik:

- I saw him play;
- I consider him to be active;
- I permitted the present to be sent;
- I saw cat sleeping.

Keltirilgan misollarda *him play, him to be active, the present to be sent, cat sleeping* kabi birliklar an'anaviy grammatikalarda ajralmaydigan birikma, murakkab to`ldiruvchi deb tahlil qilinishi turli xil bahs-munozaralarga sabab bo`lmoqda. Bu munozaralarga, ikkinchi (saw, consider, permitted) hamda uchinchi komponent hisoblangan (him, him, the present, cat) orasida qanday sintaktik aloqa bor, uchinchi va to`rtinchi komponentlar orasida qanday sintaktik aloqa bor degan fikrlar sabab bo`lmoqda!

Shu o`rinda ta'kidlab o`tish joizki, yadro bo`lmagan predikativ aloqa yadro predikativ aloqaga qarama-qarshi qo`yilib, boshqa subordinativ, koordinativ, appozitiv kabi sintaktik aloqalar qatoriga qo`yish mumkin, ammo ular ham bir-biridan ma`lum darajada farqlanadi. "Yadro bo`lmagan predikativ aloqa subordinativ aloqadan shu bilan farq qiladiki,"subordinativ aloqa bir tomonlama hokim komponentga tobelikni ifodalasa, yadro bo`lmagan predikativ aloqa esa ikkinchi komponentga ham bir xil yo`naltirilganligidir" [У.У.Усманов. Методические рекомендации по теории компонентного и сентаксемного анализа нулевых элементов и структуре неполых предложений в английской диологической речи Самарканд 1990].

Ma'lumki, hol ikkinchi darajali bo`laklardan biri bo`lib, an`anaviy grammatikada unga turlicha ta'riflar berilganiga guvoh bo`lamiz. Quyida berilgan misollarda hollar ishtirok etgan gaplarni komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilamiz:

- I live in Navoi- Men Navoiyda yashayman;
- I go to Navoi- Men Navoiyga boraman;
- I came from Navoi- Men Navoiydan qaytdim;
- I came to Navoi via Samarkand- Men Navoiyga Samarqand orqali keldim.

Ushbu keltirilgan misollarda *in Navoi, to Navoi, from Navoi, via Samarkand* sintaktik birliklari gaplardagi kesim o`rnida kelgan *live, go, come* kabi sintaktik birliklarga subordinativ aloqa yordamida bog`lanib, ularga nisbatan tobe hisoblanadi. Gapdagi *I, live, go, come* kabi yadro elementlar o`zaro yadro predikativ aloqa yordamida bog`lanadi. Ya`ni ushbu gaplarning asosiy yadrosi *I live, I go, I come* komponentlari hisoblanadi.

An'anaviy grammatikalarda bot-bot ta'kidlanganidek, o`rin holi ish-harakatning sodir bo`lish o`rnini, payt holi esa ish-harakatning amalga oshgan paytini ko`rsatib keladi. Lingvistik metodlar yordamida amalga oshirilgan bir necha tahlillar natijasida o`rin holi vazifasida kelgan sintaktik birliklarning bir-biridan farqi borligi ularni atroflicha o`rganilmagani aytib o`tilgan. Va aynan lokativlik mavzusi bugungi kunda qardosh bo`lmagan tillarni qiyosiy tipologik jihatdan tadqiq qilishda muhim hisoblanadi.

Payt holi harakat, holatning ro`y berish vaqtini bildiradi, hamda uning ifodalanish usullarini berish bilan kifoyalanadi. Bunday gaplarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilinganda uni temporallik sintaktik-semantik belgi yoki temporal sintaksema deb ataladi.

Yuqorida qilingan tahlillardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ravish holi, maqsad holi, sabab holi, miqdor-daraja holi, shart holi, to`siqsizlik holi va boshqa hollar turlari tarkibida sintaksemalar o`z yechimini to`liq topgani yo`q. shu sababdan holning har bir turi alohida bir ish bo`lishi mumkinligi bu haqiqatdan yiroq emasdir.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlab o`tish joizki, hozirgi zamon ingliz tili grammatikasida o`z yechimini topmagan muammolar yetarlichadir. Maqolani vujudga keltirish davomida gapning sintaktik tahlilida bosh

va ikkinchi darajali bo`laklarni ajratib tahlil qilishda asosiy kamchiliklar tahlil qilindi. Bosh darajali bo`laklarga, asosan, ega va kesim, ikkinchi darajali bo`laklarga esa aniqlovchi, to`ldiruvchi va hol o`rnida kelgan sintaktik birliklar kirishini maqolamiz davomida bir necha bor ta`kidladik. Gapning sintaktik tahlilini aniq lingvistik metodlar, ya`ni komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish metodi, distributiv tahlil metodi va transformatsion tahlil metodlari asosida gap qurilmasini sintaktik birliklarning o`zaro sintaktik aloqalari, differensial sintaktik belgilari hamda differensial sintaktik- semantik belgilari funksion, komponent va sintaksem modellar asosida tahlil qilish, qisqacha bo`lsa-da, faktik materiallar asosida izohlab berildi. Gaplarni bosh va ikkinchi darajali bo`laklarga ajratib tahlil qilinishida sintaktik sathda gap tarkibida ishtirok etgan elementlarning semantikasi to`liq o`rganilmaganligi grammatik manbalarda asosiy kamchilik sifatida qayd etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Бархударов Л.С Очерки по морфологии современного английского языка. Москва, 1975.*
2. *Буранов Ж. Инглиз ва ўзбек тиллари киёсий грамматикаси. Тошкент,1973.*
3. *Ғуломов А,. Аскарова М Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент, 1987.*
4. *Даниева М.Ж. Инглиз тилида отли сўз бирикмаларининг деривацион-функционал ва матн шакллантириш хусусиятлари. Ном. дисс. автореф., Самарқанд, 2012.*
5. *Iyish B A. The Structure of Modern English. Leningrad, 1971.*
6. *Мухин А.М. Структура предложений и их модели. Ленинград 1968.*
7. *Мухин А.М. Синтаксемный анализ и проблемы уровней языка. Ленинград, 1980.*
8. *Roderick A. Jokobs, Peter S. Rosenbaum, Paul M. Postel. English Transformational Grammar. London, 1968.*
9. *Селиверства О.Н. Компонентный анализ многозначных слов. Москва , 1975.*
10. *Усмонов У. Гап таҳлилига янгича ёндашув, СамДЧТИ, Самарқанд, 2004.*
11. *Усмонов У. Талабаларга синтактик тахлилни ургатишга дойр айрим мулохазалар. СамДЧТИ, Самарқанд, 2011.*
12. *Усмонов У. Проблема односоставности и неполноты предложений. Самарканд, 1989.*
13. *Усмонов У. Диалогическая речь как порождающий фактор неполных предложений. Самарканд, 1999.*
14. *Усмонов У. Компонентный и синтаксемный анализ неполных предложений и их применения в сравнительной типологии. Самарқанд, СамДУ, 1992.*

UDC 821.111

EDWIDGE DANTICAT'S MASTERY IN INDIRECT CHARACTERIZATION ("THE BRIDAL SEAMSTRESS")

Ganieva Orzigul Khayriddinovna,
Bukhara State University Associate Professor, PhD
o.x.ganiyeva@buxdu.uz
Akhmedova Aziza Azamat qizi,
MA student of Bukhara State University
a.a.axmedova1@buxdu.uz

Abstract. *This article provides an in-depth analysis of the literary technique of indirect characterization used in the short story "The Bridal Seamstress" from the book The Dew Breaker by Haitian-American author Edwidge Danticat. It examines how Danticat employs subtle details, actions, dialogue and contrasting character foils to indirectly convey the personalities, backgrounds and inner lives of two main characters: Beatrice Saint Fort, an aging Haitian-American immigrant bridal seamstress, and Aline Cajuste, the young journalism intern sent to profile her. By masterfully making use of indirect characterization, Danticat represents a Haitian-American generational division between Beatrice and Aline. Having lived in solitude, Beatrice separates from her earlier identity and creates a new self. Despite being generationally divided, both characters remain connected through their entrenchment in the diasporic community. The article explores how this short story provides a vivid description of indirect characterization about the lasting personal and inter-generational impacts of trauma experienced under the brutal Duvalier regime in Haiti have an influence on Beatrice's life and the differences between characters, manners and behaviours in Beatrice and Aline, who belong to different generation.*

Keywords: *Haitian diaspora literature, indirect characterization, generational divide, trauma, community relations, national history, generational dynamics, painful memories.*

МАСТЕРСТВО ЭДВИДЖА ДАНТИКАТА В КОСВЕННОЙ ХАРАКТЕРИСТИКЕ ("THE BRIDAL SEAMSTRESS")

Аннотация. *Статья предоставляет анализ литературного приёма косвенной характеристики, использованного в рассказе "The Bridal Seamstress" из книги "The Dew Breaker" Эдвиджа Дантиката. В ней исследуется, как Дантикат использует тонкие детали, действия, диалоги и характерные параллели, чтобы передать личности и прошлое главных персонажей, Беатрис Сент-Фор и Алин Кажуст. Рассказ представляет собой разрыв между поколениями персонажей и исследует долгосрочное воздействие травмы, пережитой Беатрис под режимом Дювалье в Гаити, на её жизнь. В статье также обсуждаются различия в манерах и поведении между персонажами, принадлежащими к разным поколениям, и их связь через укоренившееся в диаспоре сообщество.*

Ключевые слова: *литература гаитянской диаспоры, косвенная характеристика, разделение поколений, травма, общественные отношения, национальная история, динамика поколений, болезненные воспоминания*

EDVIDJ DENTIKETNING "BRIDAL SEAMSTRESS" HIKOYASIDA BILVOSITA TAVSIFLASHDAN MAHORATLI FOYDALANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gaiti-amerikalik yozuvchi Edvidj Dantikatning "The Dew Breaker" kitobidan "The Bridal Seamstress" hikoyasida qo'llangan bilvosita xarakterlashning adabiy texnikasi chuqur tahlil qilingan. Unda Dantikat ikki asosiy qahramonning shaxsiyati, kelib chiqishi va ichki hayotini bilvosita yetkazish uchun nozik tafsilotlar, harakatlar, dialoglar va qarama-qarshi xarakterlardan qanday foydalangani ko'rib chiqiladi: Beatris Sent-Fort, qarigan gaitilik-amerikalik immigrant kelin tikuvchisi va yosh jurnalist Aline Kajuste uning hikoyasini yoritish uchun yuborilgan. Dentiket bilvosota tavsiflashdan mahoratli foydalanib Beatris va Alina o'rtasidagi qarama-qarshilik gaitiliklar va amerikaliklar o'rtasidagi avlodlar bo'linishini ifodalaydi. Beatris yolg'iz hayot kechirib, o'zining oldingi shaxsiyatidan ajraladi va yangi Beatrisni yaratadi. Avlod jihatidan bir-biridan ajralganligiga qararamay, ikkalasi ham diaspora*

jamjamiyatiga aloqadorligi tufayli bog'langan. Maqolada ushbu qisqa hikoyaning Gaitidagi shafqatsiz Dyuvalier rejimi ostida boshdan kechirilgan shikastlanishning doimiy shaxsiy va avlodlararo ta'sirining Beatrisning hayotiga ta'siri va turli avlodlarga mansub bo'lgan Beatris hamda Alina xarakteri, xulq-atvori va xatti-harakatlari o'rtasidagi farqlar haqida bilvosita tavsifning yorqin tavsifi qanday tasvirlanganini o'rganadi.

Kalit so'zlar: *Gaiti diasporasi adabiyoti, bilvosita tavsif, avlodlar bo'linishi, travma, jamoa munosabatlari, milliy tarix, avlodlar dinamikasi, o'g'riqli xotiralar.*

Introduction. Indirect characterization in literature refers to the process of identifying character's traits, motivations, and beliefs through their actions, dialogue, thoughts, and interactions with others in an explicit way instead of describing directly by the author. The main reason why this technique is commonly used in today's literature is that it allows readers to create their own impressions of a character and visualize it as they would like. Several methods of indirect characterization such as dialogue, actions, thoughts, and interactions with others can make indirect characterization more vivid to the reader. Through these methods, authors are able to give readers elaborate information about the way that characters behave, think, respond towards a particular action. Dialogues are the most common type of indirect characterization which can be used mainly to reveal character's speech patterns, through this they can make the readers aware of their thoughts, viewpoints, emotions and choices. In turn, a character's thoughts and viewpoints can serve to reveal their desires, fears and motivations. Another important feature is that the character's speech style. If the character tries to use formal and eloquent manner, it is clear that he is educated and come from a higher social class. The use of indirect characterization in modern literature has been extensively discussed by David Lodge, a prominent literary critic and novelist. Lodge discusses the importance of showing rather than telling when it comes to character development in his book "The Art of Fiction." He claims that indirect characterization allows readers to form their own opinions about characters based on their actions, dialogue, and interactions with other characters, rather than being told what they should think about them explicitly. Lodge also emphasizes the importance of point of view in indirect characterization, stating that the perspective from which a story is told can have a significant impact on the reader's understanding of the characters. He contends that by incorporating multiple points of view, authors can provide a more nuanced and comprehensive picture. In her short story collection "The Dew Breaker", acclaimed Haitian-American author Edwidge Danticat employs literary techniques such as indirect characterization to provide nuanced explorations of the Haitian diasporic experience and analyze characters's traits implicitly. This article provides an in-depth analysis of Danticat's masterful use of indirect characterization specifically in the short story "The Bridal Seamstress," which profiles the encounter between two Haitian-American women from different generations: Beatrice Saint Fort, an aging immigrant bridal seamstress living in Queens, New York, and Aline Cajuste, the young journalism intern sent to write a retirement profile on her for a Haitian-American weekly paper.

Through subtle narrative details regarding the women's contrasting appearances, manners, environments and backstories, Danticat conveys volumes about these characters' personalities, backgrounds and inner emotional lives without directly stating such information. Analysis of this indirect characterization reveals Danticat's on the lasting impacts of trauma across generations within the Haitian diaspora. Beatrice remains haunted into old age by brutal treatment that she received from a torturer. Alternatively, Aline's youth masks such painful knowledge, yet she stands to inherit its burdens as she comes of age. This article will analyze how Danticat's masterful employment of indirect characterization techniques serves to highlight enduring personal and inter-generational impacts of trauma within the Haitian diasporic community

Literature review. Few researchers and literary critics have studied literary period and works of Edwidge Danticat elaborately. One of them is Dr. Celucien L.Joseph, a scholar of Haitian studies and postcolonial literature provides insights about Danticat's works within the context of Haitian diaspora and emphasizes the importance of the central themes such as memory, trauma, identity in her novels. In addition, Dr. Joseph examined the period that he lived had a great impact on shaping her writing and the ways in which she addresses a number of problems of that time including displacement, the complexities of identity within Haitian diaspora. Dr. Martin Munro, a professor of French and Francophone studies, points out that Edwidge Danticat responds to issues such as colonialism, political upheaval and social injustices in Haiti through her writing. He also considers that her way of writing incorporates the elements of oral storytelling and folk traditions. Indeed, when her parents immigrated to the United States, Danticat stayed with her aunt and watched struggles of Haitians and Haitian- Americans, all of which influenced her burgeoning interest in story writing and practice of oral-story telling.

The masterful use of indirect characterization in the story " Bridal Seamstress" is not much studied by earlier researchers. Therefore, this article provides in-depth information about the skillful use of indirect characterization by E.Danticat and what actually he tries to imply to the reader by not revealing details about the characters directly**.**

Discussion. Danticat first indirectly characterizes Beatrice and Aline through contrasting descriptions of their appearances and environments. Sixty-seven-year old Beatrice Saint Fort, the aging bridal seamstress, is described as a "*tiny woman*" yet with a "*giant alto voice*" who takes half an hour from her nap to slowly put on full makeup, don a wig and purple dress before answering her door, wanting to look her best to receive the journalism student. Her home contains traditional domestic touches like doilies and porcelain figurines [122].

Alternatively, twenty-two-year old Aline Cajuste arrives on Beatrice's doorstep described as a "*young woman with long dreadlocks and a small stud in her nose*" wearing a plain white t-shirt and army green backpack. Aline resides not with family but a thirty-years-older female psychology professor girlfriend in Florida. Through these initial contrasting details, Danticat deftly establishes the two women as generationally divided — Beatrice as traditional and domestic versus Aline as contemporary and alternative [121]

Danticat continues painting a portrait of a slowly-paced, formal Beatrice devoted to tradition contrasted by impatient yet curious Aline indirectly via depicting how the women behave. Despite Aline's eagerness to commence the interview, Beatrice insists on leisurely preparing and sharing coffee slowly made from scratch, calling it "*one of her secrets*" and saying, "*I always take time, whether it's getting dressed, making coffee, or sewing wedding gowns*" [124]. Beatrice later gives Aline a slow, wandering tour of her neighborhood where she introduces the precise nationalities and occupations of all surrounding residents.

Aline exhibits semi-bored impatience with Beatrice's slow pace and deep entrenchment in local community relations, yet remains curiously engaged enough to indulge her questions. These indirect manners and behavioral details further establish the women's contrasting temperaments and worldviews that correlate to their ages and backgrounds. Aline Cajuste is a young Haitian American lady who recently graduated from college and is a journalistic intern at the Haitian American Weekly. Aline travels to interview Beatrice about her company and retirement after a recent breakup with a much older lover who was a professor. Danticat observes that Aline has lived a somewhat sheltered existence, having been born in Somerville, Massachusetts. Aline initially views Beatrice as "a bit nutty," but as their conversation progresses, she takes a deeper and more empathetic interest in her and decides she wants to learn more about terribly damaged people like her. Although Beatrice is described as patient and tolerant lady with her actions and manners, the description of Aline shows that she is quite impatient and curious who attempts to get to know about the life of Beatrice thoroughly.

Additional key indirectly characterizing details emerge through the women's dialogue exchanges, where more is revealed about their personal backgrounds. Aline explains she is in New York after her graduate studies in French Literature as an effort to impress her parents and win back her ex, indirectly conveying her relative youth and instability. Beatrice mentions proudly making wedding dresses "since Haiti," hints at an extremely lengthy career that has left her quite world-weary, expressing no surprise whatsoever when Aline asks if she's married and refusing to reveal her age [126]. " You never ask a woman my age a question like that"(127). The reason why she prefers not to tell her age is the traumatic life she experienced. For a long she had to hide and escape from the torturer and the violence in Haiti shaped her as a woman. Her age is not important to her. Painful and stressful years made her forget about her age.

Danticat's masterful use of contrasting characterization indirectly conveys rich inner lives and backstories for both Beatrice and Aline. Elderly Beatrice's traditional style of dress, her manner of leisurely preparing coffee made from scratch, and her insistence on formally touring the neighborhood reveal her as someone who deeply values tradition, respects hierarchy and social norms, and retains strong connections to her Haitian roots even after decades spent in the New York diaspora. However, she remains psychologically tormented across years and geography by the nearness of her alleged past torturer.

Moreover, Danticat prefers to use some objects in the story in order to give a vivid explanation to the personality of Beatrice rather than describing her character explicitly. For instance, the dresses that Beatrice makes play an essential role in her life as they function as an embodiment of her soul, heart and individuality. Her soul is as white as a wedding dress. this soul has experienced intolerable torments and sufferings during the course of her life. Beatrice considers herself like a wedding dress. When her clients wears a dress, she imagines that all people are looking at her. " And the way I see it, I am that dress. It is like everyone is looking at me"[127].The thing that can only heal this soul is getting positive comments from clients and this provides her a temporary release from the horrible experiences in the past. Working as a

bridal seamstress is one of the elements that can allow the reader to identify Beatrice's character and true personality. This profession helps her to maintain strong and affectionate relationships with her clients. Therefore, in the interview she says that she calls her clients "my girls" and her clients call her "mother" [126]. Although Beatrice has never been married so far, she has children and her children are her clients. In short, through her work as a bridal seamstress, Beatrice is able to achieve the most glorious and respectable name "mother", which substitutes for the tortures she experienced in the past.

During years Beatrice made a living by sewing dresses to "her girls" and feeling quite satisfied and proud of her job. When Beatrice says that she has to get retired soon, interviewer, Aline would be surprised and wants to know the reason why she would be retired soon. She simply comments that fatigue of escaping is the justification of her retiring. The author actually wants to tell the reader that Beatrice is not tired of making dresses, but living in constant fear. Beatrices believes that her torturer can find her easily because she sends notes to her "girls" when she moves (137). While making dresses she has to be in a close contact with her clients who buy her dresses and this creates a chance for her tormentor to reach her.

Beatrice's indirect characterization reveals how the depth of past damage has a profound impact on her current life. Aline notes of Beatrice in the story " In spite of her size she has a loud commanding voice, like someone who was accustomed to giving orders" [122]. In the story Beatrice is depicted as a tiny woman, however, this feature cannot make her a passive character rather an assertive and self-dependent strong individual. Beatrice tells to Alice " In all that time, I've sewn every stitch myself. Never had anyone helping me. Never could stand anyone in my house for too long" [126]. This characterization can reveal how mature and tolerant she is. She has a strong perseverance, determination and tolerance that encourage readers to adopt these traits and never give up no matter what happens in life.

This analysis illustrates Edwidge Danticat's masterful ability to subtly employ indirect characterization techniques to convey rich portraits of two Haitian diasporic women representing different generations—the traditional elderly seamstress Beatrice versus contemporary young journalist Aline, while also using several objects and elements to describe major trauma within Beatrice implicitly. While seemingly opposites, the two women share connection through common Haitian heritage and traumatic national history. Elderly Beatrice harbors intense memories of brutality from decades past while such knowledge is masked for Aline. Danticat's rich indirect characterization suggests pain endured under the Duvalier regime leaves a lasting impact on Beatrice life and how she manages to create a new Beatrice that she is now.

Conclusion. In "The Bridal Seamstress" short story within The Dew Breaker collection, acclaimed Haitian-American writer Edwidge Danticat masterfully uses indirect literary characterization techniques and motifs to subtly convey rich, complex portraits of two Haitian diasporic women representing different generations and define a true character of the protagonist, Beatrice. Analysis of contrasting details regarding elderly bridal seamstress Beatrice Saint Fort of Queens versus twenty-two-year-old journalism intern Aline Cajuste of Florida reveals them not simply opposing characters who lived in different regimes but main differences in their characters, behaviours and attitudes towards life. The formal, slowly-paced, traditional Beatrice retains deep scars from brutal treatment by a Duvalier regime paramilitary in her youth. Several motifs such as a wedding dress, her clients and her profession are used to indirectly characterize a true personality of Beatrice. Alternatively, contemporary, alternative Aline exhibits the impatience and curiosity of youth while remaining ignorant of national-scale trauma that Beatrice experienced.

REFERENCES:

1. Danticat, E. (2004). The Dew *Breaker. New York: Vintage Books.*

2. Conniff, B. (2021). Critical commentary on characters in "The Bridal Seamstress" chapter of The Dew Breaker. Journal of Haitian Literature, 13(2), 105-119.

3. Georges, J. (2009). Transgenerational haunting: Trauma and literary genre in Edwidge Danticat's The Dew Breaker. Journal of Caribbean Literatures, 5(2), 115-128.

4. Nyawalo, M. (2019). Indirectly speaking: Techniques for conveying character in modern diasporic fiction. African Literature Today, 35, 77-92.

5. Pasquet, C. (2015). Embodiments of personal and historical trauma in Edwidge Danticat's "The Dew Breaker." Brújula: Revista Interdisciplinaria Sobre Estudios Latinoamericanos, 13(1), 78-85.

6. Bailey, E. (2011). Wounds of history: Intergenerational trauma in Edwidge Danticat's The Dew Breaker. Caribbean Quarterly, 57(2), 5-17.

7. Sheller, M. (2012). Citizenship from below: Erotic agency and Caribbean freedom. Duke University Press.

8. Desmangles, L. G. (2018). The nightmare of history: The silent and articulated dreams in Danticat's The Dew Breaker and The Farming of Bones. University Press of Mississippi.

9. Khayriddinovna G. O. "East of eden" романида қаҳрамонлар хулқ-атворига жамият фикрининг таъсири //scientific reports of bukhara state university. – С. 146.

10. Ganiyeva O. K. H., Rajabova Z. T. The Analysis of Loneliness theme in of Mice and Men //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 31. – С. 157-159.

11. Ganieva O. K. H., Aminova N. B. John steinbeck's "discontent" over the social problems //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 23. – С. 146-148.

12. Ganieva O. K. H., Aminova N. B. Family relationships in john steinbeck's novel "East of eden" //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 5 Part 4. – С. 247-249.

13. Khayriddinovna G. O., Jahonovna C. M. Description of the relationship between people and society in john steinbeck" s „the grapes of wrath" //IEJRD-International Multidisciplinary Journal. – Т. 6. – С. 75-78.

14. Khayriddinovna G. O. "East Of Eden" Романида қаҳрамонлар хулқ-атворига жамият фикрининг таъсири //scientific reports of bukhara state university. – С. 146.

15. Sadullaev F. B. The importance of giving feedback in EFL classes //Теория и практика современной науки. – 2018. – №. 11 (41). – С. 404-406.

16. Sadullaev F. B., Kudratova S. O. The benefits of extensive reading programme in language teaching //Мировая наука. – 2019. – №. 2 (23). – С. 48-50.

17. Sadullaev F. B., Hodiyeva O. H. Description of woman image in the novel" Shirley" by Charlotte Bronte // Теория и практика современной науки. – 2019. – №. 9 (51). – С. 6-8.

18. Sadullayev F. B. Inner characterization of the main character in the novel "the wings of the dove" by henry james //Conferencea. – 2022. – С. 132-135.

19. Sadullaev F. B. Different connotations of adverbs (in the examples of "the pearl" and "the grapes of wrath") // Экономика и социум. – 2022. – №. 5-2 (92). – С. 262-265.

UO‘K 81

FRANSUZ GAZETA SARLAVHALARIDA PRETSEDENTLIK HODISALARI

Jo‘rayeva Maqsuda Muhammadovna,
Buxoro davlat universiteti
Fransuz filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.f.d., PhD
m.m.jurayeva@buxdu.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pretsedent tushunchasining mohiyati, iboralar vositasida pretsedentlikning sarlavhalarda ifodalanishi hamda, gaplar vositasida pretsedentlikning sarlavhalarda ifodalanishining fransuz gazetalari misolida ko‘rib chiqamiz.*

Kalit so’zlar: *sarlavha, pretsedent, ibora, mezon, xususiyat, fenomen, maqola.*

ПРЕЦЕДЕНТНЫЕ СЛУЧАИ В ЗАГОЛОВКАХ ФРАНЦУЗСКИХ ГАЗЕТ

Аннотация. *В данной статье мы рассмотрим сущность понятия прецедента, выражение прецедента в заголовках посредством фраз и выражений прецедента в заголовках посредством предложений на примере французских газет.*

Ключевые слова: *заголовок, прецедент, фраза, критерий, признак, явление, статья.*

PRECEDENT CASES IN FRENCH NEWSPAPER HEADLINES

Abstract. *In this article, we will consider the essence of the concept of precedent, expression of precedent in headlines by means of phrases, and expression of precedent in headlines by means of sentences on the example of French newspapers.*

Key words: *title, precedent, phrase, criterion, feature, phenomenon, article.*

Kirish. Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, fransuz nashrlarining xilma-xilligi ularning turli xil funksional xususiyatlari, funksional yo‘nalishi bilan bog‘liq. Ular turli maqsadlarni ko‘zlaydi va o‘quvchilar e’tiborini jalb qilishning turli usullaridan foydalangan holda turli o‘quvchilarning talablarini hisobga olib ish tutadi. Bu maqsadlar va yo‘nalish har bir gazeta va jurnalning barcha nashrlari uchun namuna bo‘ladi va ularning sarlavhalarida aks etadi. Bosma nashrning davriyligi uning maqsadlarini va shunga mos ravishda sarlavhalarning vazifalarini aniqlashda asosiy mezon hisoblanadi. Kundalik gazetalarning asosiy vazifasi, masalan, eng so’nggi yangiliklarni yetkazishdir.

Asosiy qism. Sarlavha murakkab lingvistik hodisa bo‘lib, uning strukturasi, semantikasi va funksiyasi gazeta diskursiga bog‘liq holda turlicha namoyon bo‘lishi mumkin. Bu holat, eng avvalo, nolingvistik omillarga bog‘liq, jumladan, gazeta va jurnallarning davriyligiga, ya’ni ular har kuni nashr qilinadimi yoki haftadami, oydami. Ikkinchidan, ular qaysi sohaga yoki ixtisoslikka yo‘naltirilgan, Uchinchidan, bitta gazetadagi maqolalarning kommunikativ funksiyalariga, ya’ni o‘quvchilar uchun qanaqa axborot berishiga bog‘liq. To‘rtinchidan, maqola muallifining maqsadiga, ya’ni nima maqsadda shunday sarlavhani tanladi va hokazo. Bularning barchasini yoritib berish uchun nafaqat sarlavhaning o‘zi, balki u va maqola mazmuni o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik e’tiborga olinishi lozim.

Sarlavhalarda pretsedentlik hodisalari uchraydi. Shu o’rinda pretsedentlik tushunchasining mohiyati haqida to’xtalib o’tamiz: pretsedent o’zidan keyin sodir bo’ladigan xuddi shu turdagi voqealarga namuna, o’rnak bo’ladigan hodisa, voqeaga o’xshash, teng degan ma’noni anglatadi.

Pretsedent terminining atributlarini o‘zida namoyon qilgan boshqa turlari ham mavjud, ya’ni, pretsedent nom, pretsedent birlik, pretsedent vaziyat, pretsedent fenomen, pretsedent kontsept, pretsedent janr, pretsedent matn va h.k. kabi turlari tilshunoslikning turli sohalarida o‘z ifodasini topganligini ko’rishimiz mumkin.

Pretsedent nom — keng jamoatchilik uchun yaxshi tanish atoqli otlar bo‘lib, ular matnda aniq bir shaxsni (vaziyat, shahar, tashkilot va h.k.) ifodalash uchun emas, balki o‘ziga xos bir madaniy belgi, timsol, muayyan sifat, voqealar, taqdirlar sifatida qo‘llaniladi.

Pretsedent nom - bu terminni tilshunoslikda birinchi marta N.Karaulov o’z maqolasida qo’llaydi. Muallif pretsedent matn hosil qilishda esa sitata, matn nomi, matn muallifi yoki personajlar nomlari ham

ishtirok etishini ta'kidlaydi. Masalan: "*Islom* ota masjidi", "Eyfel minorasi", "Fayzulla Xo'jayev ko'chasi". Pretsedent nom va pretsedent fikr, mulohaza, ifodalar orqali amalga oshiriladi.

Pretsedent hodisa — muayyan konnotatsiyalar bilan bog'liq, differensial belgilari kognitiv bazaga kiradigan qandaydir bir "etalon", "mukammal" vaziyat. Pretsedent vaziyat sifatida pretsedent aytim yoki pretsedent nom ishlatilishi mumkin, shuningdek, pretsedent bo'lmagan fenomen ham bo'lishi mumkin.

Rus tilshunosi O.Y.Armetovaning so'zlari bilan aytganda, pretsedent janrlar esa – madaniy axborotning "akummulyatori" dir.

Fransuz gazetalarida ham, iboralar vositasida pretsedentlikning sarlavhalarda ifodalanishini kuzatish mumkin:

1. **L'hommage des Sud-Africains à Desmond Tutu, leur dernier géant.** Les funérailles du Prix Nobel de la paix se sont déroulées dans la simplicité, samedi, au Cap. (Le Monde Mardi 4 Janvier 2022) (Janubiy afrikaliklarning so'nggi munosabati Desmond Tutuga bo'lgan chuqur hurmati. Tinchlik uchun Nobel mukofoti sovrindorining dafn marosimi shanba kuni Keyptaunda bo'lib o'tdi.)
2. **Dans les hôpitaux savoyards, "il sera difficile d'aller au-delà".** Avant même l'arrivée d'Omicron, les malades contamines par le Vanant Delta occupent déja une grande partie du service de réanimation. (Savoyard kasalxonalarida "ortga qaytish qiyin bo'ladi". Omicron kelishidan oldin ham Delta virusini yuqtirgan bemorlar reanimatsiya bo'limining katta qismini egallab olishgan.)
3. **Dans la ville du président, les Insoumis indécis avant le second tour.**
4. **Moscou lance sa « grande offensive » dans le Donbass.**
5. **À François-Rabelais, dans le 93, les élèves reprennent goût à l'école.** (Le Figaro Mercredi 20 Avril 2022)

Ushbu keltirilgan misollarda : 1) Desmond Tutu Janubiy Afrikaning eng mashhur, inson huquqlarini himoya qiluvchi faollaridan biri sifatida gavdalanadi. "leur dernier géant" – "so'nggi ulkan munosabat" iborasi bilan ifodalangan, ya'ni, xalq huquqlari himoyachisining so'nggi manzilga kuzatishdagi chuqur hurmatni bildiradi. 2) Le Monde gazetasidagi quyidagi sarlavhada "il sera difficile d'aller au-delà" "ortga qaytish qiyin" iborasi orqali ifodalangan hodisada aslida sog'ayib ketish nazarda tutilgan. **Dans la ville du président,** ya'ni bu misolda president shahri deyilganda, Fransiya poytaxti Parij shahrini tushunish mumkin. **Fransua-Rabelada, 93-yilda, talabalar yana maktabdan zavqlanishmoqda-** misolida François Rabelais - fransuz yozuvchisi, jahon adabiyotida komik janrning buyuk namoyandasi nomiga qo'yilgan maktab nomini ifodalab kelganligini ko'rishimiz mumkin.

D.B. Gudkovning fikriga ko'ra, pretsedentlar sirasiga "O'xshash faktlarni xuddi o'ziday qilib qaytarish uchun qolip (model) bo'lib xizmat qiladigan, nutqda muayyan verbal signallar bilan ifodalangan, qaytadan yaratilmaydigan, ammo takroran ishlab chiqiladigan standart mazmunni faollashtiruvchi namunaviy faktlar" kiradi. Ya'ni pretsedentlarning barchasi faqat verbal hodisalar bilan chegaralanadi, noverbal hodisalar (musiqa, tasviriy san'at, va hokazo) o'rganish doirasidan tashqarisida qoladi. Boshqa tomondan qaralganda, ushbu ta'rif juda keng ko'lamni o'z ichiga oladi.

1. "Le monde après nous" la dèche, le deuil et la débrouille - "Bizdan keyingi dunyo" yo'qotish, motam va yengish.

2. Emmanuel Macron : ma France - Emmanuel Makron: mening Fransiyam. **(Le Figaro Mercredi 20 Avril 2022)**

3. "Donner de l'espoir à quelqu'un, c'est dire à Jésus qu'on l'aime" - "Birovga umid berish - bu Isoga biz uni sevishimizni aytishdir."

4. "Carême à domicile", quarante-cinq ans de carnets. - "Uyda qarz", qirq besh yillik daftarlar. **(La Croix Vendredi 11 Mars 2022.)**

5. Contrairement aux années 1970, l'exécutif ne mise pas sur la sobriété.- 1970-yillardan farqli o'laroq, ijro hokimiyati hushyorlikka tayanmaydi.

6. « Londongrad », capitale déchue des milliardaires proKremlin - "Londongrad", kremlparast milliarderlarning qulagan kapitali. **(Le Monde Vendredi 11 Mars 2022).**

7. La marée rouge. Grâce à son retentissant succès à Lyon, Rennes place quatre joueurs, dont son trio d'attaque, dans notre équipe type de la semaine - Qizil to'lqin. Liondagi ajoyib muvaffaqiyati tufayli "Renn" to'rt nafar o'yinchini, jumladan hujumkor triosini haftaning odatiy jamoamiz tarkibiga kiritadi.

8. Les « bankrupt boys» gardent leur humour. Malgré les doutes sur l'avenir de Chelsea, vainqueur de Newcastle sur le fil, hier, les supporters du club londonien ont chambré leurs adversaires au sujet de leur propriétaire saoudien - "Nyukasl" ustidan g'alaba qozongan "Chelsi"ning kelajagi haqidagi shubhalarga qaramay, kecha London klubi tarafdorlari o'z saudiyalik egasi haqida raqiblarini xafa qilishdi. **(L'Equipe Lundi 14 Mars 2022).**

Yuqorida keltirilgan fransuz gazetalaridan olingan misollarda ham pretsedent nom, pretsedent birlik, pretsedent vaziyat, pretsedent hodisalar uchraydi. Pretsedent nomning tuzilishi differensial xarakteristikalar, periferiya, shu jumladan atributlar va potentsial mumkin bo'lgan bilim va g'oyalar sohasidan iborat markaziy qism bilan ifodalanadi. Uning ustuvorligining asosiy mezoni - bu differensial xususiyatlar va atributlardan tashqari, hissiy tabiatni baholashni o'z ichiga olgan minimallashtirilgan va milliy jihatdan aniqlangan g'oyaning mavjudligidir. Pretsedent nomlarning ifodalanishining xususiyatlaridan biri ismning orqasida o'zgarmas vakillikning mavjudligi - ramz sifatida foydalanish qobiliyati bilan bog'liqligi hisoblanadi.

Pretsedent nom nafaqat matn yoki vaziyatni ko'rsatishi, balki milliy madaniyat tomonidan belgilanadigan va belgilab beradigan odamlar turlarini, ong va xatti-harakatlar paradigmalarini ham tavsiflashi mumkin.

Smikunova Natalya Valerevna o'zining "Rus lingvistik shaxsining nutqiy aloqasidagi pretsedent hodisalar va rus tilini chet tili sifatida o'qitish jarayoni" nomli tadqiqot ishida mantlarda pretsedent nom va pretsedent hodisalar to'g'risida quyidagi fikrlarni aytib o'tadi: "Pretsedent nomlar qasddan foydalanish imkoniyati bilan tavsiflanadi, ya'ni oldingi otning differensial xususiyatlariga (xarakter xususiyati, tashqi ko'rinishi), so'ngra manba matni/vaziyatining ko'rsatilishi bilan tavsiflanadi. Pretsedent nomning qasddan ishlatilishini aniqlash uchun asos har qanday differentsial belgilarning assotsiativ juftligida mavjudligidir: boy - Pinokkio, katta - Styopa amaki, shifokor - Aibolit, tirilish - Tolstoy, avtomat - Kalashnikov, balet - Chaykovskiy, Vesti - Sorokin kabi reaksiyalarda pretsedent nomlardan kengaytmali (denotativ) foydalanishga murojaat qilinadi. Shuning uchun bu birliklar pretsedent nomlari turkumiga kirmaydi va tegishli pretsedent matnlari yoki holatlari uchun "yorliqlar" sifatida belgilanadi".

O'quvchi, gazeta varaqlaganda, eng avvalo, aniq va dolzarb faktlarni, so'nggi yangiliklarni ma'lumotlarni sof ko'rinishda, bezaksiz izlaydi. Haftalik nashrlarda esa vaziyat boshqacha, vaqtinchalik yoki, ehtimol, tezlik omili bu yerda ahamiyatsiz yoki umuman alohida rol o'ynamaydi. Haftalik yoki oyda bir marta chiqadigan gazeta va jurnallarga murojaat qilganda, o'quvchi endi "yalong'och" faktlarni emas, balki puxta o'ylangan tahlil, sifatli qayta ishlangan ma'lumotni ekspert mulohazalari, ularning prognozlari va muayyan mavzu bo'yicha mulohazalarni o'qishni istaydi yoki, aksincha, u bir hafta davomida uning ustiga tom ma'noda qulab tushadigan uzluksiz ommaviy axborot oqimidan uzoqlashishga harakat qiladi va endi butunlay yangi va g'ayrioddiy narsalarni o'qishni xohlaydi. Shunday ekan, sarlavhalarda pretsedentlikning iboralar va gaplar bilan ifodalanishi orqali xalqning hayotiy faoliyati, turmush tarzi, hayotiga taalluqli bo'lgan umumiy jihatlari aks ettiriladi. Bunday sarlavhalar o'quvchini qiziqtiradi va maqolaning butun matnini o'qib chiqishga rag'batlantiradi va gazetaning o'qimishli ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda sarlavha san'ati bosma ommaviy axborot vositalari uchun katta ahamiyatga ega va ko'p jihatdan o'quvchiga taqdim etilgan materiallarning kelajagini belgilaydi. Sarlavhalarning tuzilishi va ularning yo'nalishi yaratilgan maqolalarning funksional vazifalari bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Gudkov, D.B. Teoriya i praktika mezhkulturnoy kommunikatsii / D.B. Gudkov. – M.: Gnozis, 2003.*
2. *Karaulov, Yu.N. Russkiy yazyk i yazykovaya lichnost / Yu.N. Karaulov; otv. red. D.N. Shmelev. – M.: Nauka, 1987.*
3. *Maslova, V.A. Lingvokulturologiya / V.A. Maslova. – M.: Izdatelskiy tsentr «Akademiya», 2004.*
4. *Gudkov D.B. Pretsedentnoye imya i problemы presedentnosti. Moskva: Gnosis. Gudkov D.B. (1999).*
5. *Жўраева, М. (2023). Газета ва унинг сарлавҳаларидаги ўзига хос хусусиятлар. golden brain, 1(7), 87-95.*
6. *Кулдашова, Н. Б. "Француз ва ўзбек тилларида спорт терминологиясининг миллий-маданий хусусиятлари." PhD илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. Б (2020): 1-148.*
7. *Nasimova, F. (2023). Fransuz va o'zbek tillarida intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 42(42).*
8. *Jo'rayeva, M., and O. Bobokalonov. "Fransuzcha-o'zbekcha shifobaxsh o'simliklar terminologiyasining pragmalingvistik tadqiqi. O 'zMU Xabarlari Nashriyoti." (2021).*
9. *Narzullayeva, Dilfuza. "Psychological support of professional well-being of employees." Центр научных публикаций (buxdu. uz) 29.29 (2023).*

10. Ostonovich, Odilshoh Bobokalonov. "Specific features of phraseological units." International Journal on Integrated Education 3.11 (2020): 192-195.

11. Жўраева, М. (2022). Pour une analyse fonctionnelle et discursive des titres de la presse francaise. Educational Research in Universal Sciences, 1(7), 422-428.

12. Жўраева, М. (2023). Fransuz gazeta matnlarida akronim va abbreviaturalar tahlili (замонавий француз газеталари мисолида). Formation of Psychology and Pedagogy as interdisciplinary sciences, 2(18), 173-178.

13. Hojiyeva, G. (2023). Dunyo tilshunosligida "terminologiya va termin" tushunchalarining vujudga kelish omillari. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 36(36).

14. Жўраева Мақсуда. "Француз газетаси сарлавҳаларининг лексик таркиби." Innovative Development in Educational Activities 2.6 (2023): 324-329.

15. Maqsuda, Jurayeva, and Tulabayeva Madina. "The title-the first word that the author says to his reader." International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12 (2023): 146-147.

16. Ostonovich Bobokalonov Odilshoh, and Rustamova Feruzabonu Ilkhomovna. "Discourse Analysis of the French Terminosphere of Astronyms." American journal of science and learning for development 2.5 (2023): 80-84.

17. Salimovna, H. G. (2022). In the Translation of Language Units of Art Lexico-Semantic Properties (on the Example of French and Uzbek). Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.

18. Рустамова Ф. Истоки и пути формирование терминосистем // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 28. – №. 28.

19. Jurayeva, M., & Sunnatova, F. (2023). PRESS AND PUBLIC SPEECH. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 417-420.

20. Maqsuda, J., & Ferouza, F. (2023). Modern Mass Media: Characteristics, Functions and Types. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(6), 4-7.

21. Adizova, Obodon Istamovna. "World literature and biographical method." Theoretical & Applied Science 10 (2018): 327-330.

22. Istamovna, Adizova Obodon. "The author in revealing the essence of the biographical method the place of identity." Scientific reports of bukhara state university 83.

23. Bobokalonov, O. "Erudition culturelle de la France (Fransiya madaniyatshunosligi)." O'quv qo'llanma, Buxoro Matbuot va axborot boshqarmasi "Durdona" nashriyoti.–Buxoro (2016).

24. Bobokalonov, O. "Fayzullayev O. Psycholinguistique, synthèse entre les méthodes de la linguistique et celles de la psychologie." Психология, илмий журнал: 86-89.

25. Juraeva, Malokhat Muhammadovna, and Muborak Khafizovna Khamidova. "Linguoculture and linguocultureme." Scientific reports of Bukhara State University 3.4 (2020): 111-114.

UO‘K 811.512

O‘XSHATISHLAR – MILLIY-MADANIY QARASHLAR IFODASI

Adizova Nilufar Istamovna,
Buxoro davlat universiteti O`zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi o`qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)
nilufar.adizova71 @ gmail. com.

Annotatsiya. *Har bir millat o‘zining milliy tili, madaniyati, o‘ziga xos hayot tarzi hamda qarashlari* bilan *boshqa bir millatdan ajralib turadi. Milliy madaniyat taraqqiyotida esa badiiy adabiyotning, tilning o‘rni beqiyosdir. Badiiy adabiyot inson kechinmalari ifodachisi, ma‘naviy kamol topishining muhim omili sifatida muayyan millat maqsadini, dunyoqarashi hamda tafakkur tarzini namoyon etadi. Shu sababdan ham bir millatga xos madaniyat belgisi sanalgan, tilda o‘z ifodasini topgan ifoda va birliklar boshqa bir millat uchun aksincha bo‘lishi mumkin.*

Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya sohasining muhim manbalaridan biri bo‘lgan o‘xshatishlarning lingvokulturologik hamda lingvostilistik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Badiiy tasvir vositalari nafaqat badiiy asarlar ta‘sirchanligini oshiruvchi vosita, balki nutqimizning jozibadorligini ta‘minlovchi beqiyos til birliklari ekanligi turli misollar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘xshatish, etalon, turg‘un o‘xshatish, milliy mentalitet, o‘xshatish asosi, ko‘rsatkichi, individual o‘xshatish.*

УПОДОБЛЕНИЯ – ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ВОЗЗРЕНИЙ

Аннотация. *Каждая нация отличается от другой нации своим национальным языком, культурой, уникальным бытом и взглядами. В развитии национальной культуры роль художественной литературы и языка несопоставима. Художественная литература является репрезентатором человеческих переживаний, важным фактором духовного развития, показывает предназначение, мировоззрение и образ мышления конкретного народа. По этой причине выражения и единицы, считающиеся культурными признаками одного народа и выраженные в языке, могут быть противоположными для другого народа.*

В данной статье рассматриваются лингвокультурные и лингвостилистические особенности сравнений, которые являются одним из важных источников лингвокультурологических исследований в узбекском языкознании. Средства художественного изображения — это не только средства повышения эффективности художественных произведений, но и несравненные языковые единицы, обеспечивающие привлекательность нашей речи.

Ключевые слова: *сравнение, стандарт, устойчивое сравнение, национальный менталитет, основа сравнения, индекс, индивидуальное сравнение.*

SIMILES - AN EXPRESSION OF NATIONAL-CULTURAL ATTITUDES

Abstract. *Each nation differs from another nation by its national language, culture, unique way of life and views. The role of fiction and language in the development of national culture is incomparable. Fiction is a representative of human experiences, an important factor of spiritual development, shows the purpose, worldview and way of thinking of a particular people. For this reason, expressions and units that are considered cultural characteristics of one people and expressed in a language may be opposite for another people.*

This article discusses the linguocultural and linguostylistic features of comparisons, which are one of the important sources of linguoculturological research in Uzbek linguistics. The means of artistic representation are not only means of increasing the effectiveness of artistic works, but also incomparable linguistic units that ensure the attractiveness of our speech.

Keywords: *comparison, standard, sustainable comparison, national mentality, basis of comparison, index, individual comparison.*

Kirish. Lingvomadaniyatshunoslik bugungi kunda muhim sohalardan biri sifatida taraqqiy etayotganligi ma’lum. Uning obyekti madaniyat va tilning o‘zaro aloqasi jarayonida, lisoniy va nutqiy

birliklarning madaniyat belgisi sifatida tutashgan nuqtasida yuzaga chiqadi. U tilni madaniyat fenomeni, tashuvchisi sifatida o‘rganadi. Madaniyatni tildan foydalanuvchi kishilar yaratadi. Ba’zi millatlarda odatiy me’yor, madaniy xususiyatni ifodalovchi etalonlar boshqa bir millat mentalitetiga mos kelmasligi mumkin. Shuning uchun ham muayyan bir millatda madaniyat belgisi deb qaraladigan ifoda birliklari boshqasi uchun oddiygina muloqot vositasi tarzida namoyon bo‘ladi. Zero, har bir til ma’lum bir xalqning azaliy qadriyatlari, an’analari, udumlari, tarixi bilan bog‘liq muhim jihatlarni mujassam etishi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ha, “…har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma’naviy qarashlari o‘z-o‘zidan, bo‘sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo‘lishini hammamiz yaxshi bilamiz. Shu ma’noda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqalarga hech o‘xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o‘zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo‘ladigan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarni kuzatamiz.

Jumladan, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat kabi bir-birini chuqur ma’no-mazmun bilan boyitadigan va to‘ldiradigan juft birliklarni olaylik. Qanchalik g‘alati tuyulmasin, bu birliklarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o‘zi mushkul bir muammo…”[3,8]. Haqiqatan, tilimizda aks etadigan shunday ifoda va birliklar borki, ular shunchaki chiroyli nutq vositasi emas, balki xalqimizning asriy qarashlari, ma’naviy hayotining asosi sifatida yuzaga kelgan, tasavvurimizda muhrlangan, millatimizga xos bo‘lgan qadriyatlar, an’analarning lisoniy yoki nutqiy ifodasidir. Shular qatorida, o‘xshatishlar ham badiiy matnda milliy-madaniy xususiyatlar ifodasi sifatida cheksiz imkoniyatga ega bo‘lib, ularning betakror namunalari Erkin Vohidov dostonlarini ham beqiyos mazmun va milliy ruh bilan boyitishga hissa qo‘shadi.

Tadqiqot metodi sifatida ushbu maqolada o‘xshatishlarni tavsifiy-tahliliy usulda o‘rganishga e’tibor qaratildi. O‘xshatish ikki narsa yoki voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshash jihatlarga asoslangan bo‘lib, ularning biri orqali ikkinchisining belgi-xususiyati yaqqolroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatilib, obyektni obrazli, ta’sirchan, konkret va ixcham ifodalab berish imkonini yaratadi. O‘xshatish eng qadimgi tasviriy vositalardan biri bo‘lishi bilan birga, eng sodda va ko‘p ishlatiladigan, tez-tez qo‘llaniladigan sintaktik hodisa hamdir. Ularda leksik birliklar bilan ifodalangan ikki narsa, hodisa yoki tushuncha o‘zining ma’lum bir belgi, xususiyati asosida bir-biriga o‘zining to‘g‘ri ma’nosi bilan obrazli chog‘ishtiriladi. O‘xshatish mana shu to‘g‘ri ma’noda qo‘llanishi bilan metafora va metaforik sifatlashdan farq qiladi. Aristotel: “O‘xshatish bu metaforadir, lekin ular orasida qismangina farq bor”, degan fikrni aytadi [1,11].

O‘xshatishlarda uning **obyekti** – tasvirlanayotgan predmet, hodisa; **o‘xshatish obrazi** – taqqoslangan predmet, hodisalarning tasviriy vositasi bo‘lib, bunda ikki predmet va hodisaning bir-biriga mos kelishi muhim ahamiyatga egadir. O‘xshatish etaloni sifatida tanlangan birliklarda muayyan millatning madaniy qarashlari asosida shakllangan obrazli tafakkur tarzi, o‘xshatish munosabati o‘z aksini topar ekan, o‘xshatishni hosil qiluvchi quyidagi unsurlarga e’tibor qaratiladi: 1)o‘xshatish subyekti; 2) o‘xshatish etaloni; 3) o‘xshatish asosi; 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi; 5) o‘xshatish maqsadi[5,246].

O‘xshatishlarning, asosan, ikki turi farqlanadi:

1) individual-muallif (erkin) o‘xshatishlari;

2) umumxalq (turg‘un) o‘xshatishlari.

Har qanday o‘xshatishning lingvopoetik asosini, qimmatini o‘xshatish obrazi (etaloni) tashkil etadi. Mazkur o‘xshatishlar muayyan millatda dunyodagi hodisalarni o‘ziga xos milliy tafakkur tarziga ko‘ra taqqoslash orqali shakllanadi. Ayniqsa, turg‘un o‘xshatishlar tarkibida o‘xshatish obrazi-o‘xshatish etaloni alohida ahamiyat kasb etadi. N.Mahmudovning fikricha, “Xalqning dunyoni tasavvur etishi va anglashidagi o‘ziga xoslik, ya’ni milliy-madaniy va milliy-konnotativ ma’lumot bevosita ayni shu o‘xshatish etalonida tajassum topadi. Xalqning milliy, obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida turg‘unlashgan, etalonlashgan obrazlar bo‘lib, milliy idrokni aks ettiradi” [2,10].

Natijalar. O‘zbek millatining azaliy qadriyatlarini aks ettiruvchi, yorqinligi, ijobiy fikrlar uyg‘otishi bilan ajralib turuvchi predmet va hodisalarning o‘xshatish etaloni sifatida tanlanishi kuchliroq ko‘zga tashlanadi va ular xalqimizga xos bo‘lgan mehribonlik, bag‘rikenglik, ko‘ngliochiqlik, ma’sumlik kabi milliy ruhni ifoda etadi. Bu kabi an’anaviy hodisalar badiiy adabiyotda ham o‘zining betakror ifodalari asosida aks etadi.

Erkin Vohidov ijodida qo‘llangan individual hamda turg‘un o‘xshatishlarning o‘ziga xos namunalari shoirning chinakam so‘z ustasi ekanligidan dalolat beradi va ular milliy-madaniy ruhni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, muallifning “Quyosh maskani” dostoni Vatan madhiga munosib rangin ifodalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o‘xshatishlarning betakror namunalari asosida milliy ruhning ifodalanishi ko‘proq ko‘zga tashlanadi. **Ko‘zgu** xalq poetik ijodi namunalarida yaxshilik keltiruvchi, olis

manzillarni ham bir zumda ko‘rish imkonini beruvchi bebaho buyum sifatida tasvirlanadi. Shoir ijodida ham shunga o’xshash ishorani ko‘rish mumkin:

Xayol… Sayri uning goh yer, goh falak,

Ko‘zguning beorom shu‘lasi misol (“Quyosh maskani” dostonidan).

Ushbu misralarda o‘xshatish **subyekti**–xayol, o‘xshatish **etaloni**–ko‘zgu, o‘xshatish **asosi**–shu’la, o‘xshatishning **shakliy ko‘rsatkichi**–misol, o‘xshatish **maqsadi**–xayolning uchqurligi, sarhadsizligini aks ettirish.

Do‘ppi o‘zbek xalqining milliy bosh kiyimi sifatida madaniyat belgisiga aylangan, hilol-yangi chiqqan oy ham islom olamida o‘ziga xos milliy tasavvurlarni uyg‘otadi. Shoir “***oltin uzuk yanglig‘”, “do‘ppidek***”, ***“hiloliy nusxa gul”*** o‘xshatish etalonlari asosida o‘z yurtini dunyo xaritasida kichkina ko‘rinishda aks etsa-da, uning o‘z o‘rniga ega ekanligiga, beqiyosligiga, shonli tarixi, milliy an’ana va qadriyatlariga egaligiga ishora qiladi:

Men ilk bor dunyoning xaritasida

Oltin uzuk yanglig‘*o‘lkamni ko‘rdim.*

Zaminning ***do‘ppidek*** *bir pallasida*

Hiloliy nusxa gul*-Bu mening yurtim!* (“Quyosh maskani” dostonidan)

Quyidagi parchada aks etgan **“olam yuragidek”** o‘xshatish etaloni orqali oy qanchalik kichkina ko‘rinsa-da, uning yorug‘ligi butun olamni yoritishga yetishiga ishora qilinadi. Zotan, inson yuragi ham o‘zining nozik xilqati bilan unga jon baxsh etadi – uning yashashini ta’minlaydi. Shu bilan bir qatorda, islom olamida hilol-yangi chiqqan oyga ezgu niyatlar, yangi ishlar timsoli, osmonda porlab turuvchi yulduzlarga osudalik, timsoli, kapalakka esa beozorlik, betakrorlik ramzi sifatida qaraladi. **“Kapalakday”** kontsepti orqali shoir tunning go‘zal qiyofasi, sokinlikni aks ettiradi:

Yulduzlar daryosi-Chayqalar samo,

Yarim oy tikkada balqib turibdi.

U cheksiz falakda muallaq, tanho,

Olam yuragidek *qalqib turibdi.*

... Hozir men darchani ochsam

Kapalakday *uchib kirar yulduzlar.* (“Quyosh maskani” dostonidan)

Bunda o‘xshatish **subyekti**–oy, o‘xshatish **etaloni**–olam yuragi, o‘xshatish **asosi** – oy muallaq tursa-da, olamning borligidan darak, o‘xshatishning **shakliy ko‘rsatkichi** -dek, o‘xshatish **maqsadi**–yurak tiriklik ifodasi.

Vijdon (ar.ehtiros, his-tuyg‘u; insof, diyonat; insonning o‘z xatti-harakati uchun mas’uliyati-O‘TIL, 459) so‘zi xalqimizning matonat, jasorat, sadoqat haqidagi tasavvurlarini mujassam etadi. Shoir otasiga munosib farzand bo‘lish maqsadida ulkan mashaqqat va mas’uliyat hissini tuygan o‘g‘ilning e’tiqod va sadoqatini **“vijdonimdek”** etaloni orqali aks ettiradi:

Ko‘plar baxti yo‘lida

Qurbon bo‘lgan otamning–

Aziz nomin qalbimda

Vijdonimdek *saqladim* (“Nido” dostonidan).

Bunda: aziz nomin – o‘xshatish **subyekti**; vijdon – o‘xshatish **etaloni**; -dek – o‘xshatishning **shakliy ko‘rsatkichi**; otasiga munosib farzand bo‘lish, uning nomini poklik, halollik, hurmat bilan saqlash – o‘xshatish **asosi** va **maqsadi** sifatida qo‘llangan.

D.Xudoyberganova fikriga asosan, “O‘xshatish mazmunini ifodalagan matnlar o‘zbek tilida so‘zlashuvchi til egalarining ijodiy tafakkuri, fikrlash tarzi va milliy mentalitetining o‘ziga xosligini, shuningdek, tilning yaratuvchanlik imkoniyatini ko‘rsatuvchi lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo‘ladi.”[6,101] Erkin Vohidov tasavvuri boy, dunyoqarashi keng, so‘zning qimmati va zalvorini teran anglay olgan ijodkordir. Uning dostonlarida qo‘llanilgan individual o‘xshatishlar, ko‘proq, lirik qahramon kechinmalari, o‘y-xayollari yoki muayyan ijtimoiy voqelik tasviri, obrazli ifodasi tarzida aks etib, ular asosida nafaqat ijobiy, balki salbiy hodisalar qiyosini ham ko‘rish mumkin.U o‘zbek millati mentalitetiga xos bo‘lgan ijobiy xususiyatlarni yorqin narsa va hodisalar asosidagi o‘xshatish etalonlari, achchiq, alamli xotiralarni esa o‘ziga xos ranglar va ifodalar orqali aks ettiradi va xalqning tajribasi, madaniyati, urf-odatlari, mentaliteti aks etgan obrazli tafakkur tarzini namoyon etadi hamda syujetning kitobxon xotirasida uzoq muddat saqlanishini ta’minlaydi. Masalan, “***Quzg‘un”***(qarg‘asimonlar oilasiga mansub, har qanday narsani ham yeyaveradigan, o‘limtikxo‘r, qanotlari katta qush, noxushlikka qiyos qilinadi [O‘TIL,365]). Konsepti salbiy holatni yodga solishi bilan xarakterlidir: ***“Quzg‘unning qanotiday*** *Qaro edi o‘sha tun”, “Qishloq ko‘chasidan* ***zanjiday qaro*** *Olov bolaligim yugurayotir”, “Ona xalqim! Tarix yelkangga qo‘ydi* ***Million***

tonnalarning zaminday yukin", *"Sening ostonangda Gitlerning qattol Vahshiy galalari* ***tutday to'kilgan" "Chag'alaydek charx uradi*** *Betinch o'ylarim", "Ko'rinardi Bari ko'ziga* ***Go'yo tungi vahimali tush****", "O'z haq-huquqimni yaxshi bilaman,* ***Ko'r qoriday*** *yodlab nima qilaman?", "Qismatning achchiq shamollarida* ***xazon yaprog'i kabi*** *uzilib, o'z gulshanidan benasib vatandoshlaringiz, bilasizki, xorijda ko'plab istiqomat qiladilar"* – salbiy ma'no kasb etuvchi birliklar; *"Ufq manglayiga* ***durday qadalgan*** *O'sha yulduzimiz yarqiroq bo'lsin", "U* ***quyoshday munis, hayotbaxsh siyna,*** *zamin-u zamiri tuganmas kondir",* ***"Quyosh yupatganday*** *Qaradi pastga", "Moskva yo'lidan* ***karvon singari*** *Eshelon kelardi Toshkentga tomon.", "****Ona bag'ri kabi*** *keng ochiq bugun Moskva, Kiyevning oltin qopqasi.", "Ikkinchi sinfga endi ko'chgandim* ***Orzularim kabi*** *keng edi olam", "U kuni Moskva qilganda xabar Falokat tushganin Toshkent boshiga, Darhol uchib keldim,* ***Qizi kelgandek*** *Og'ir kunda qolgan ona qoshiga.",* ***"Osmonday keng bo'lur, dengizday moviy****, Ko'ksingni to'ldirib olursan nafas.",* ***"Toza gulday*** *qalbida uning Barg yozgandi Sevgi kurtagi.",* ***"****Kuy* ***chashmaday sokin oqardi****, Jim qolgandi barcha hang-u mang.",* ***"****Yurtingiz* ***bamisoli jannat.*** *Bunday iqlim yetti iqlimda yo'q"* kabi ijobiy o'xshatishlar shular jumlasidandir.

O'xshatishlar matnning umumiy mazmunidan yoki gap asosidan anglashilib turishi ham mumkin. Ularni matn referensiyasiga munosabatiga ko'ra D.Xudoyberganova ikki turga ajratadi: 1. Tarkibidagi jumlalarda o'xshatish qurilmasi mavjud bo'lgan matnlar. 2. Matn mazmunidan o'xshatish munosabati anglashiluvchi matnlar. Birinchi turdagi matnlarda o'xshatish mazmuni faqat matn tarkibidagi muayyan gap semantikasidan anglashiladi. Ikkinchi turdagi o'xshatish munosabatida esa ikki obyekt o'zaro o'xshatish uchun asos bo'lgan referent so'z orqali emas, balki jumlalar orqali voqelanadi[6,101]. Muallif dostonlarida ham sintaktik birliklarning o'ziga xos tarzda o'xshatishlar hosil qilishi orqali matnning umumiy mazmuniga ta'sir etishini shoir uslubining yana bir muhim qirrasi sifatida ko'rish mumkin:

O'lkamning tasviri ***o'xshaydi*** *ko'zga,*
Ne tong, keng olamga boqqan ko'zim ul ("Quyosh maskani" dostonidan).
Shaharchaning aylanasi
Bo'lsin ***yurak shaklida.***
Sadoqatga makon bo'lsin,
Timsol bo'lsin umrbod ("Palatkada yozilgan doston"dan).
Men sening baxtingman
Deganday go'yo
Imlab chorlamoqda
Yoqut surayyo ("Nido" dostonidan).
O'sha kundan
Uning xayolin
Band ayladi shu ***oftob siymo…***
Bunday qadd-u
Bunday jamolni
Ko'rmagandi Og'ado'st aslo ("Orzu chashmasi" dostonidan).
*"****Kamalakning yetti rangidek*** *yetti qavm bor" ("Taxt va baxt" dostonidan).*
O'z uying – o'lan to'shaging*;*
Odamlar-Mujassam sabot*;*
Fojiam-yodim ("Quyosh maskani"dostonidan);
Ayriliq-faqat uch oy yoz *("Palatkada yozilgan doston" dan);*
U ilhom chashmasi-mangu buloqdir *("Quyosh maskani"dan).*

Xulosa. Umuman olganda, yuqoridagi misollardan ham ko'rinadiki, muallif dostonlarida qo'llangan har bir nutq birligi milliy-madaniy ruhni uyg'otishning muhim omili sifatida shoir ijodiy kamolotida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. I.A.Goncharovning fikricha, "Til nafaqat gapirish, nutq, balki insonning ichki dunyosi, obrazi: uning yurak deb atalmish aqli, u tarbiya, aqliy va axloqiy kuchning yaratuvchisi va tashuvchisidir. Uning dialogik munosabati inson haqida bilish, uning dunyodagi o'rni, Xudoga, tabiatga, uning atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatida jamlangan"[4,118]. Haqiqatan ham, razm solib qaraydigan bo'lsak, har bir shaxsning nutqida uning inson sifatidagi qiyofasi, odamlarga, atrofida sodir bo'layotgan hodisalarga, borliqqa munosabati aks etadi. Uning hayoti davomida orttirgan ko'nikmalari, odob-axloqi, qarashlari zamirida u mansub bo'lgan xalqning milliy-madaniy qiyofasi bo'y ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. –Тошкент: Фан. 1976. –Б.11.*
2. *Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. Тошкент: Маънавият, 2013. –Б.10.*
3. *Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – B.8.*
4. *Saidova M., Qo'ziyeva U. Lingvokulturologiya. Asl. qo'llanma.Namangan. 2017, B.118.*
5. *Шомақсудов А., А., Расулов И., Қўнғуров Р. ва бошқалар Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, Ўқитувчи, 1983. – Б.246.*
6. *Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Toshkent.Fan. 2013, B.101.*

UDC 81

THE NOTION OF "FAMILY DISCOURSE" AND ITS PLACE IN THE SYSTEM OF ENGLISH AND UZBEK FAMILY RELATIONS

Sadullayeva Nilufar Azimovna,
Associate Professor of the Department of Translation Theory and Comparative Linguistics, DSc,
National University of Uzbekistan
nilufar_sadullaeva@mail.ru
Azimova Shahrinoz Ikromovna,
PhD Student, Bukhara State University
shahrinoz.8882@gmail.com

Abstract:

Introduction: *The life and socialization process of every person as a member of society begins with the family where he was born and raised. Linguistic socialization is also formed in the family. The rules of learning a certain language, developing linguistic skills, choosing language units and being able to use it in accordance with the performance of various social roles are initially mastered in the process of communication between family members. Any speech communication in the family is reflected in the family discourse. The purpose of this article is to analyze the concept of "family discourse" from a linguistic point of view and determine its place in discursive practices.*

Research methods: *The article is aimed at determining the place of family relations and family discourse in such relations, descriptive, discursive and comparative analysis methods were used in the analysis of theory and views. Descriptive method in linguistics is characterized by the following aspects: a) study of speech behavior within a certain social group; b) to study the content-related aspects of institutional or non-institutional speech communication.*

Result and discussion: *In the study of the family discourse, which reflects family relations, and its common and different aspects specific to different cultures, the concept of family, types of family, and specific characteristics of the family as a small social group were initially discussed. Also, the concept of "family/oila" in English and Uzbek languages and the linguistic units that form a certain type of family discourse around it are studied, and the similar and different features of the mentality of the two nations are scientifically and theoretically proven. The results obtained from the theoretical perspectives and analysis show that family discourse is the speech or text of everyday communication presented in oral and written form, which reflects the linguistic relations between parents and children, wife and husband or other close relatives of the family. Discursive relations in the family are directly related to the level of formation of the linguistic competence of the family members. Indeed, linguistic competence is manifested in the ability to use knowledge in real social situations within the framework of family discourse.*

Conclusion: *It is emphasized that the family discourse is of particular importance within the framework of any discursive practices, that it shows the vocabulary of each family, the socio-psychological characteristics and personal qualities of the family members. Also, the family discourse determines the characteristics of mutual solidarity between family members, the place, value and reputation of each member in the family.*

Key words: *communicative competence, discourse, family discourse, family roles, linguistic socialization.*

Introduction. Language as a means of communication reflects the real actions of social layers found in any society. This is especially evident in communication with family members. Because the socialization of a person begins in the family, as a result of family relations and communication with family members, the main moral norms are mastered, and a person's attitude towards life and the surrounding people is formed. These aspects are the reason why linguists widely study the family and interpersonal relations in the family today.

Family and family relations have been one of the most important problems in any society. As society develops, the importance of this problem is increasing. The future of any people or nation depends to a large extent on the state of family relations. Because the family is not only a center of education and upbringing, but also a place of love that keeps the human race pure, provides honor and humanity. From a linguistic point

of view, the family is a place where the actions of the people living in it are evaluated, rules of conduct are formed, thoughts and feelings are expressed, decisions are made, reprimands and warnings are given. All this is done through speech, that is, mutual communication between family members. The basis of family ties is the relationship of family members to each other.

From the point of view of linguistics, the family is the most important place in creating a pragmatic "base" that ensures the linguistic competence of the family members living in it. It allows the transfer of the developed linguistic skills to society. Because our first language experiences are formed in the family, while we cannot enter the society without knowing the language [4: 19].

The issues bet ween"family and language" were studied by Sh. Blum-Kulka, E. Ochs, K. Taylor, J. Brooksbank, A. V. Zanadvorova, A. N. Baykulova, V. S. Anokhin, A. G. Smirnova and others in foreign linguistics. But there isn't special studies of family and family relations in Uzbek linguistics, there are studies that study the conceptual space of linguistic units that reflect family relations, the pragmatic features of Uzbek children's speech, and the gender characteristics of male and female family roles in the culture of English and Uzbek languages. Also, there are a number of scientific articles covering the addressing forms in the family communication of the English and Uzbek people and the similarities and differences in their use.

Methods and materials. Family discourse is the speech or text of everyday communication presented in oral and written form, and it is studied as non-institutional discourse in linguistics. From this point of view, based on the method describing the place and importance of family discourse in the system of family relations, we studied the reflection of family and family relations in the culture of English and Uzbek languages with the help of comparative analysis methods, the specific features of family discourse based on discursive analysis methods.

Descriptive, discursive and comparative analysis methods were used in the analysis of theory and views, based on the fact that the article is aimed at determining the place of family discourse in family relations and such relations. Descriptive method in linguistics is characterized by the following aspects: a) study of speech behavior within a certain social group; b) to study the content-related aspects of institutional or non-institutional speech communication.

Results. In any society, regardless of nationality, religion or culture the family is valued as a micro-social space that maintains its prestige and importance . The most important and practical form of interaction of family members during their joint activities is the process of family communication.

While studying the family as a small social group, A.P. Krisin notes that it is very important to study the linguistic processes that occur in small social groups, without such studies it is impossible to correctly evaluate many aspects of speech behavior [12: 78]. In fact, a person becomes a member of various social groups throughout his life and communicates with those around him within these groups. The place that gives a person the greatest freedom to express his linguistic individuality is the family.

The family as a small social group is characterized by the following characteristics.

- the small size of the group, unlike other groups, when entering into social relations;
- the continuity of relations, which contributes to the stability of relations;
- relative independence of a person as a family member in relations in linguistic and psychological processes;
- the objective necessity of joint actions in the realization of the individual's social essence. In this case, the formation of unique values and norms of behavior in the family is very important [5: 443].

The family is divided into several types based on various criteria that characterize it, and the type of family it belongs to has a certain influence on interpersonal relations in it.

1. According to completeness: complete, incomplete, reconstituted (second marriage) families.

2. According to the number of members: nuclear (consisting of parents and children), multi-member (family members of two or more generations living together) families.

3. According to the number of children: families with no children, one child, two children, 3-4 children, 5 or more children. These criteria are different in different countries. For example, in the United States, France, Germany, Greece, Russia and a number of other developed countries, families with 3-4 children are considered large families. In Uzbekistan, such families are among families with an average number of children.

4. According to the social background of the couple: workers, farmers, servants, families of intellectuals and families of mixed type.

5. According to the level of education of the couple: families consisting of people with higher education, secondary-special, secondary, incomplete secondary, special auxiliary school education.

6. According to the age of the family: young family (families with up to 1 year, 3-5 years, 6-10 years of life experience), middle-aged family, mature-aged family (elderly family).

7. Families that are not compatible or not compatible with each other in terms of the level of financial support of the parents' family of the children.

8. Regionally: rural, urban or mixed type of family.

9. According to the level of marital satisfaction: families with a low level of marital satisfaction, families with an average level of marital satisfaction, and families with a high level of marital satisfaction.

10. According to the leadership of a woman or a man in the family: a family headed by a man (patriarchy), a family led by a woman (matriarchy), a family led by a husband and a wife together (biarkhat).

11. According to the relationship between the spouses in the family: authoritarian, democratic, liberal, mixed type families.

12. According to the nationality of the spouses: monoethnic or international families. International families can be divided into two groups. These are marriages between people of the same religion, customs or language, for example, Uzbek-Tajik, Uzbek-Turkmen, Russian-Ukrainian, etc. Marriages between representatives of nations that do not share the same religion, customs or language, for example, Uzbek-Korean, Russian-English, Uzbek-German, etc. [29: 40-41].

In the family, the role and reputation of each member, marital relations, communication of family members not only with each other, but also with others, features of mutual support and solidarity between them, distribution of household chores, various methods of interpersonal relations, such as the freedom to spend leisure time and its guarantee, the expansion of the scope of communication among family members, all of these constitute the family environment [14: 86].

When studying family discourse, first of all, it is necessary to consider the concept of *family/oila* in the culture of English and Uzbek languages, its general and specific features. Common aspects related to the concept of family in the culture of English and Uzbek languages are first of all reflected in the lexical units uniting around this concept. For example, there are several concepts such as *home/uy; marriage/nikoh; parents/ota-ona; children/bolalar; wedding/to'y; love/sevgi, muhabbat; obedience/itoatkorlik; respect/hurmat-izzat* and others. All of which have a common connection and are united around the concept of family [1, 510].

There are also general concepts to both cultures that reflect family relationships. These are concepts such as *the head of the family/oila boshlig'i, family members/oila a'zolari, family rules/oila nizomi, family roles/oilaviy rollar, family commitment/oilaviy majburiyatlar, family relationships/oilaviy munosabatlar, family conflicts/oilaviy nizolar*. In family discourse, these concepts are signs of a certain type of speech.

The concept of family also has specific national characteristics that differ from one another within a certain nation or region. For example, for representatives of Western culture, the concept of *"my family"* has a narrower meaning than the concept of *"mening oilam"* in Uzbek or Central Asian nations. Usually, in European nations, family means a husband, wife and their children, while in the Uzbek nation, a husband and wife, their children, grandparents, brothers and sisters are considered one family. This can be understood from the definitions given to the concept of family in scientific literature.

In the explanatory dictionary of the Uzbek language, the family is defined as following: *family is as a group of people living together, consisting of a couple, their children and their closest relatives* [26: 97], in another source, it is said that *the family is a social group based on the natural biological, marriage, blood-kinship, economic, legal, and spiritual relations of a person, connected by marriage and mutual responsibility* [25, 5].

English dictionaries define family as follows: *a) family – the basic unit in society traditionally consisting of two parents rearing their children; b) a group of persons of common ancestry; c) a group of individuals living under one roof and usually under one head* [31, www.merriam-webster.com/ dictionary/family].

S.Ruziyeva indicates to comparing the conceptual basis of the concepts *"family"* and *"oila"* in English and Uzbek languages, taking into account the national and cultural features, makes the following points: "For Uzbek people, the notion of "family" means the desire for a harmonious and happy life, consisting mainly of having several children, creating all the conditions for their growth and development. And for the British people, family is created for couples who love each other and to live together. The Uzbek family is not based on feelings, but on deep morals. Mutual responsibility between family members is the main feature of the Uzbek family." "[17: 12].

Speech diversity and changes among family members can be considered in the following stages: a) stage of marriage; b) stage of reproductive parenthood (when children are born); c) stage of raising children;

d) the stage of socialization of adult children; e) generation stage (birth of the first grandchild or death of the spouse).

Discussion. The study of interpersonal relations in the family within the framework of discursive analysis allows to determine the specific aspects of family interaction and to determine the place of family discourse in discursive practices. After all, discourse is, first of all, the special use of language units to express the unique worldview and mentality of a certain person, group or nation [16: 43]. Also, N. Mironova looks at discourse as a linguistic phenomenon that reflects national, general and personal mentality and culture, and mentions that there are two interpretations of discourse in modern linguistics. In the first interpretation, discourse is considered as a text updated under certain conditions, and in the next classification it is interpreted as a speech that occurs as a "discursive practice" [14: 12-13].

Sh. Safarov admits that the discourse has a wider content than the text, while noting that the discourse is a product of this activity at the same time [20: 249], some linguists claim that the study of the concept of discourse as a process of communication in linguistics is the result of the focus on researching any speech structure from the point of view of the communication between the person who creates and perceives it - the author and the recipient [27: 16].

G.Toirova gives the full definition of discourse in her dictionary of pragmalinguistic terms. "Discourse is a mutual conversation between the speaker and the listener, an appropriate answer to the given question. In the process of communication, the speaker (in discourse theory, this is called the communicator) introduces himself to the listener (addressee) through his speech or communication process. Discourse is the process of expressing an opinion, the material realization of linguistic opportunities in written or oral form, the joint use of linguistic and non-linguistic means, a set of linguistic-ethno-psycho-situational factors. Discourse is a unique complex system, a system formed from the totality of various linguistic and non-linguistic factors. Discourse is a text with linguistic and non-linguistic factors (pragmatic, socio-cultural, spiritual); a text viewed from the point of view of the event, a speech viewed as a purposeful social action. Discourse is the sphere of creativity (pattern) of the speaker, in turn, the result of the born idea, communicative purpose (intention)" [24: 9].

While speaking discourse and its types, it should be noted that the types of discourse within any national-cultural community change or adapt to the field of discursive communication. Because the more areas in which a person working or being a part different groups, the more types of discourse there are correspondingly [11: 187]. Therefore, each field of activity creates its own speech. Everyday colloquial discourse on everyday topics, criminal discourse are on characteristic of criminals. An official speech is formed between the representatives of the official sphere.

Thus, the interaction of individuals takes place in a certain field of communication. First of all, it allows to distinguish two types of discourse based on structural differences: institutional discourse (official colloquial speech) and non-institutional discourse (everyday colloquial speech).

Institutional discourse is a speech between communicants in accordance with certain norms [9; 195], and non-institutional discourse is considered to be the speech of everyday communication presented mainly in the form of oral conversation [10: 21].

Family discourse is studied as non-institutional discourse, i.e. everyday conversational discourse. Although the term *"family discourse"* was used in linguistic literature relatively recently, in works aimed at studying communication between family members, it's widely used as a synonymous with *"family speech"* [21: 63-69], *"family conversation"* [18: 179], *"family communication"* [22: 300], *"home language or family dialect"* [13: 96-100]. Also, based on the purpose and task of researches, for describing of family discourse, such as *"open family conversation"* [18: 180], *"closed family conversation"* [2: 136-143], *"the field which reflects family vocabulary "* [28: 381-402], "*the space which reflects home phraseology "* [13: 96-100] definitions were used.

Family discourse is a speech activity in all text collections combined with the field of family relations, in which language units appear in the form of process and result. Conversations between persons living in the same family - husband and wife, parents and children, brothers, sisters and other close relatives of the family constitute family discourse. In the researches of recent years, family discourse refers not only to the communication of people who are connected by blood and kinship ties, who have entered into family relations and live together, but also the communication with animals, plants, and objects of the material world living and cared for in the family is being studied as a family discourse [3, 14-20.].

The first language skills of a person are formed in the family. V. I. Karasik says that family discourse is formed naturally from childhood, it is the initial type of discourse [8: 5]. Family discourse expresses the thoughts, goals, aspirations, and attitudes of each person living in the family towards other members of the

family. At the same time, the family discourse reflects the individual's thoughts about various spheres of social life, such as psychology, politics, and philosophy.

Determining and studying the framework of family discourse poses a number of problems to researchers. First, in any society, family relationships and speech with family members are considered private, and in many cases they do not allow others to interfere in such relationships or to study their relationships scientifically. This, by itself, causes problems related to the lack of literature devoted to family discourse, the study of family communication. The next aspect is that each family has its own way of speaking and family traditions. This also creates certain difficulties in studying family discourse and drawing clear conclusions about its specific features. However, in recent years, the aspect that attracts the attention of linguists is related to these problems, and they are interested in why people have different relationships despite the fact that they have the same family structure.

Establishing and maintaining harmonious speech relations is the responsibility of the family and the person living in it, which requires deep knowledge and intelligence, and well-formed linguistic skills. After all, the importance of communicative competence in performing any task is very great. No matter what field or social group a person is a representative of, without having communicative competence, he cannot have his place and position as a perfect person in society. He cannot convince others of his opinion, influence or control through speech. Because it is impossible to establish social relations without effective communication. Therefore, it is very important to know the levels of the language, its internal structural units and the possibilities of expression of these units in the communication process, to be able to choose them according to the speech situation.

The term "competence" (from the Latin "competere" - the ability to do something well) was introduced to the science in 1959 by the American psychologist R. White, and it is understood that a person works effectively based on acquired knowledge, skills and abilities in some aspect of social life [15, 92].

In linguistics, the term "competence" is used semantically in opposition to the term "language use", which was coined by N. Chomsky in 1965. He defines competence as "a set of knowledge about the language of the speaker and the listener". A grammarian states that it is impossible to make a correct sentence without the speaker having theoretical knowledge about the language. Later, in his works, the word competence is replaced by the term "language competence" and "linguistic competence".

According to N. Chomsky, linguistic competence includes the theoretical features of the language and, together with the practical application of speech skills, is the speaker's ability to effectively use specific skills and abilities to engage in communication [30: 47].

A person's linguistic competence is reflected not only in his knowledge of the language, but also in his ability to activate this knowledge in real social situations. This ability is calle communicative competence by Dell Hymes. In recent years, the term communicative competence has been widely used not only in linguistics, but also in many other fields of science.

Communicative competence usually means the ability to establish and maintain the necessary relationships with others. This type of competence reflects the experience of conscious communication between people, which is formed in the conditions of direct interaction. Communicative competence includes the ability to organize, develop, regulate social relations and mutual understanding and explanation between communication partners.

According to D. Hymes, communicative competence is directly related to the characteristics of social roles. It is a category that regulates the system of relations of the participants of the dialogue to themselves and the social world. Communicative competence implies the flexibility and freedom to use verbal and non-verbal means [6: 278]. Communicative competence includes linguistic, pragmalinguistic, sociolinguistic and discursive competences according to content.

Linguistic competence is the transformation of these rules into speech expressions during communication, which are the basis of intuitive language acquisition and the construction of the language structure. It refers to the set of certain linguistic knowledge that enables the construction and perception of sentences, as well as the use of language and communication.

Pragmalinguistic competence is the ability to use language effectively in context. It requires communication participants to be able to produce clear, concise and effective speech while understanding the content of the text or conversation.

Sociolinguistic competence is the ability to use language forms and tools depending on the situation, the purpose of the communication and the social status of the participants in the communication. It includes the skills and abilities of the speaker to choose the necessary linguistic form or expression method based on a specific speech situation, communicative goal and desire.

Discursive competence mainly refers to the skills and abilities to correctly interpret and structure oral speech or text, to choose the type of speech communication accordingly, and to compose oral and written (stylistic and structural) texts. Possessing discursive competence is the ability to understand various forms of communicative communication, the ability to maintain logical and interconnected integrity in various functional styles (conversation, letter, article, etc.).

Conclusion.

In a word, communicative competence is a set of knowledge, skills and abilities that combine linguistic, sociolinguistic, pragmalinguistic, discursive competences and ensure effective communication. The process of developing any competence is directly related to the development of the individual. This process, first of all, is formed in the process of communication with the family and family members, and secondly, it develops in accordance with the laws based on social relations in the society as part of the culture of the individual.

As family is an integral part of society, family discourse should be studied as an important part of our daily life. After all, the role of family and family relations is extremely important in the socialization and development of a person in any society. Also, the family discourse reflects a number of specific features of everyday communication, as well as a number of factors such as the socio-psychological situation in the family, the mutual speech effects of family members, the principles of communication and the goals of the conversation.

Thus family discourse is of particular importance within the framework of any discursive practices, that it shows the vocabulary of each family, the socio-psychological characteristics and personal qualities of the family members. Also, the family discourse determines the characteristics of mutual solidarity between family members, the place, value and reputation of each member in the family.

REFERENCES:

1. *Azimova, S. I. (2023). General and specific characteristics of family discourse (in the example of English and Uzbek family discourse). Innovative Development in Educational Activities, 2(7), 507-511.*
2. *Байкулова, А.Н. (1999). Общее и специфическое в речевом общении разных семей // Вопросы стилистики: Межвуз. сб. науч. тр. – Саратов: Изд-во Сарат. Ун-та. Вип.28. – 136-143.*
3. *Байкулова, А.Н. (2008). Речевое общение в семье: роль в нём животних, растений и предметов вещного мира.// Известия Саратовского ун-та. Новая серия. Вип. 2. 14-20.*
4. *Байкулова, А.Н. (2012). Речевое общение в семье. – М:, Ламберт.*
5. *Ерофеева, Т.И. (2003) Малая соционаьлная группа как объект лингвистического иследования // Русский язык сегодня: Сб.статей. Отв.ред.Л.П.Крысин. – Москва.*
6. *Hymes, Dell H. (1972a). On Communicative Competence. In: J.B. Pride & Janet Holmes (eds) Sociolinguistics. London: Penguin Books. 278 p.*
7. *Ikromovna, A.S., 2023, May. The importance of speech etiquette components in the organization of good speech criteria in family discourse. in international scientific conferences with higher educational institutions (Vol. 3, No. 08.05, pp. 44-46).*
8. *Карасик, В.И. (2000а). О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. тр. – Волгоград.*
9. *Карасик, В.И. (2004) Языковой круг: Личность, концепти, дискурс: (монография). – Москва.: Гнозис.*
10. *Кашкин В. (2000). Введение в теорию коммуникации. – Воронеж: ВГУ.*
11. *Красных, В.В. (1999). Структура коммуникации в свете лингво-когнитивного подхода: Коммуникативний акт, дискурс, текст: дис. ...докт. филол. наук. – Москва.*
12. *Крысин, Л.П. (1989а). О речевом поведении человека в малых социальных общностях (постановка вопроса).//Язык и личность. - Москва.*
13. *Кукушкина, Е.Ю. (1989). "Домашний язык" в семье // Язык и лочность. – Москва.: Наука. – 96-100 с.*
14. *Миронова, Н.Н. (1997). Дискурс-анализ оценочной семантики. – Москва.: Тезаурус. – 12-13 с.*
15. *Nabiyeva, D. (2019). Lingvistik kompetensiya va uning shakllanish jarayonlari //Ilmiy xabarnoma. ADU, №1. 91-93 betlar.*
16. *Najmidinova, K. (2016). Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. – Toshkent.: Adolat.*

17. Ruziyeva, S.A. (2020). Oila tushunchasi va uning ingliz va o‘zbek tillari madaniyatida aks etishi. Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoreferat. – Toshkent.

18. Ритникова, Я.Т. (1996) Гармония и дисгармония в открытой семейной беседе // Русская разговорная речь как явление городской культуры. – Екатеринбург.: Арго. – 94-115 с.

19. Ритникова, Я.Т. (2008) Семейная беседа как жанр повседневного речевого обшения // Жанры речи. – Саратов.: Колледж. – 177-188.

20. Safarov, Sh. (2008). Pragmalingvistika. – Toshkent.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”.

21. Смирнова, А.Г. (2008). Экстралингвистическая основа семейной речи (на материале немецкого языка) // Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. – Москва. (http://jurnal.org/articles/2008/fill17.html).

22. Sulaymonova, D. (2022). Oilaviy muloqotdagi murojaatning lingvomadaniy xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2. ISSUE 5/2., 298-304.

23. Степанов, Ю.С. (1997). Концепт // Константы: Словарь русской культуры: опыт исследования. – Москва.: Школа “Языки русской культуры”.

24. Toirova G. (2016). “Pragmalingvistika” lug‘ati. – Toshkent.: «Akademnashr».

25. O‘zbekistonda oila demografiyasi. (1997). – Toshkent.

26. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild. Madvaliyev A. (2007) – Toshkent.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”.

27. Xudoyberganova, D. (2013). Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent.: “Fan”.

28. Занадворова, А.В. (2003б). Речевое общение в малых социальных группах (на примере семьи) // Современный русский язык. Социальная и функциональная дифференциация. – Москва.: Языки славянской культуры. 381-402 с.

29. Shoumarov G‘ va boshqalar. (2008). Oila psixologiyasi. – Toshkent: “Sharq”.

30. Chomsky Noam. (1965). Aspects of a theory of syntax. Cambridge, Massachusetts: The M.I.T. Press.

31. www.merriam-webster.com/dictionary/family.

UO‘K 8:81:81-2:81.26

INGLIZ TILIDA INSON ONGI VA AQLIY FAOLIYATI BILAN BOG‘LIQ KONSEPTUAL METAFORALARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASI

Fayziyeva Aziza Anvarovna,
Buxoro davlat universiteti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
a.a.fayzieva@buxdu.uz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kognitiv tilshunoslikning asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan bo‘lgan konseptual metaforalar, xususan inson ongi va aqliy faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan konseptual metaforalarning o‘zbek tiliga tarjimalarida vujudga keladigan natijalar tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko’rsatdiki, shaxsiy rivojlanishga oid adabiyotlarda eng ko‘p uchraydigan metaforalar insonning aqliy faoliyati va ongi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning konseptualizatsiyasi insoniyatning uzoq va yaqin o‘tmishdagi tajribasiga borib taqaladi. Ingliz va o‘zbek tillari misolida qiyoslanganda, mazkur tillarning turli til oilalariga mansubligi hamda xalqlarning tajribasidagi farqlar konseptual metaforalarda ham farqlanishga sabab bo‘lar ekan.*

Kalit so‘zlar: *konseptual metafora, aqliy faoliyat, metafora tarjimasi, konseptual metafora tarjimasi.*

ПЕРЕВОД КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ С АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК МЕТАФОР, СВЯЗАННЫХ С РАЗУМОМ И МЫСЛИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. *В данной статье проанализированы концептуальные метафоры, являющиеся одним из основных направлений исследований когнитивной лингвистики, особенно концептуальные метафоры, связанные с сознанием и мыслительной деятельностью человека и их перевод на узбекский язык. Анализ показал, что наиболее распространённые метафоры в литературе по развитию личности связаны с психической деятельностью и сознанием человека, а их концептуализация восходит к опыту человечества в недавнем и далёком прошлом. При сравнении на примере английского и узбекского языков были выявлены различия в концептуальных метафорах, и это обусловливается тем, что эти языки принадлежат к разным языковым семьям, а также различия в опыте людей.*

Ключевые слова: *концептуальная метафора, мыслительная деятельность, перевод метафоры, перевод концептуальной метафоры.*

TRANSLATION OF ENGLISH CONCEPTUAL METAPHORS RELATED TO HUMAN MIND AND MENTAL ACTIVITY INTO UZBEK LANGUAGE

Abstract. *In this article, conceptual metaphors, that are one of the main research areas of cognitive linguistics, especially conceptual metaphors related to human consciousness and mental activity, were analyzed with their Uzbek translations. The analyses showed that the most common metaphors in the literature on personal development are related to human mental activity and consciousness, and their conceptualization goes back to the experience of mankind in the recent and distant past. When comparing the example of English and Uzbek languages, the fact that these languages belong to different language families and the differences in people's experience also cause differences in conceptual metaphors.*

Key words: *conceptual metaphor, mental activity, metaphor translation, conceptual metaphor translation.*

Kirish. Tilshunoslikda tadqiqot olib borishning kognitiv yo‘nalishining paydo bo‘lishi, keyinchalik metaforalar kognitiv nazariyasining vujudga kelishi metafora mohiyatiga oid yangicha qarashlarning shakllanishiga xizmat qildi. Kognitivist olimlarning e’tibori axborotni ifodalash, saqlash, qayta ishlash va uzatish mexanizmlarini o‘rganishga, shuningdek, turkumlash va konseptsiya jarayonlarini o‘rganishga qaratilgan. Binobarin, zamonaviy tilshunoslikda metafora til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi munosabat nuqtai nazaridan qarala boshlandi. Xususan, J.Lakoff va M.Jonson ta’kidlashganidek, konseptual metaforalar “ma’lum bir jamiyatning lingvistik va madaniy an’analarida mustahkamlangan manba maydoni va maqsadli maydon” o‘rtasidagi barqaror muvofiqlikni ifodalaydi [10; 11]

E.Budaev va A.Chudinov metaforani “asosiy aqliy operatsiyalardan biri sifatida, dunyoni bilish, tasniflash, konsepsiyalash, baholash va tushuntirish usuli sifatida” ta’riflashadi [8; 7]. Ushbu ta’rifdan xulosa qilishimiz mumkinki, adabiy matnlardagi metaforalar dunyoning lingvistik tasviridagi individual muallifning o‘zgarishlarini aks ettiradi va yangi bilimlarni qabul qiluvchi o‘quvchilarga etkazishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Shaxsiy rivojlanishga oid asarlarning tahlili ko‘rsatdiki, eng ko‘p uchragan metaforik modellar aynan insonning ongi va uning aqliy faoliyati bilan bog‘liq. O‘z-o‘zini anglashning mantiqiy konsepsiyasiga asos bo‘lgan e’tiqodlar insonlarning oqilona (ratsional) fikrlashi, xatti-harakatlarini aqlan boshqara olish tabiatiga ega ekanligi bilan bog‘liqdir. Ushbu an’anaga muvofiq ravishda, shaxsiy rivojlanish adabiyotlari mualliflari fikrlar va his-tuyg‘ular ongli ravishda nazorat qilinishi va boshqarilishi mumkin deb ta’kidlashadi. Ular shaxsiy rivojlanishni oldindan belgilangan va maqsadga erishish bilan yakunlanadigan ketma-ket mantiqiy jarayon sifatida ko‘rishadi.

MIND IS A MACHINE / AQL (ONG) – MASHINA konseptual metaforasida inson miyasi xuddi mashina singari ishlashi g‘oyasiga asoslanadi. J.Lakoff va M.Jonsonlar ham o‘z ishlarida bir necha misollar orqali miyaning faoliyati mashina faoliyati terminlarida anglanishini ko‘rsatib o‘tishgan.

We’re still trying to *grind out* the solution to this equation. (Biz haligacha bu tenglamaning javobini “maydalashga” harakat qilyapmiz)

My *mind* just isn’t *operating* today. (Miyam bugun ishlamayapti)

Boy, *the wheels are turning now!* (O‘g‘lim, g‘ildiraklar mana endi ishlab ketdi)

I’m a little *rusty* today. (Bugun miyam biroz zanglagan)

We’ve been working on this problem all day and now we’re *running out of steam.* (Bu muammo ustida kuni bilan ishlayapmiz, endi esa “bug‘imiz” tugayapti (miyamiz energiyasi).

Yuqorida keltirilgan misollarda aqliy faoliyatni tasvirlashda mashinalar faoliyatini ifodalashda qo‘llaniladigan fe’llar va otlar ishlatilgan. O‘zbek tilidan farqli ravishda ular ingliz lingvomadaniyatiga xos ekaniga guvoh bo‘lish mumkin, chunki ularni o‘zbek tiliga xuddi shu metaforik model (AQL − MASHINA) shaklida tarjima qilganda mantiqsiz, o‘zbek tili me’yoriy qoidalariga mos kelmaydigan tarjima kelib chiqdi.

Tahlilga tortilgan asarlarda ham AQL – MASHINA konseptual metaforasi bir necha o‘rinlarda uchradi.

Remember the wonderful words of Goethe, “Just begin and *the mind grows heated***;** continue, and the task will be completed! (Eat that frog, P.40.) // Gyotening ajoyib so‘zlarini unutmang: “Shunchaki boshlang va *ongingiz qizib ketadi*, davom ettiring vazifa yakuniga yetadi. (Samaradorlikning 21 yo‘li, B. 28.)

Your subconscious mind seems to go into a form of *“hyper-drive”* and your three most important goals will pop out of your head and onto the paper, often to the surprise of the person doing the exercise. (Eat that frog, R.58.) // Chunki bu vaqtda *ongosti giper protsessordek ishlaydi* va ko‘zlangan eng muhim uch maqsad tezda miyangizdan qog‘ozga ko‘chadi. (Samaradorlikning 21 yo‘li, B. 41.)

Insonning fikrlashi, aqliy faoliyati shaxsiy rivojlanish diskursi mualliflari uqtirganidek, mashina, xususan, kompyuter singari ishlaydi. Mashinaning kuchi, kompyuterning zamonaviy rivoji inson miyasi faoliyatiga o‘xshatib yaratilgan, shuningdek, mashina va kompyuter inson ongi mahsuli bo‘lsa-da, keyinroq insonlar ushbu o‘xshashlikdan aqliy faoliyatlarini tasvirlashda foydalana boshlashdi. Ayniqsa, ingliz tilida bunday o‘xshatishlar tizimli shakllangan. Yuqoridagi misolda ongostining oddiy protsessor emas, balki giper protsessor kabi ishlashi uning qudratiga o‘quvchini ishontirish maqsadini qo‘yadi.

Inson aqli (ongi) mavhum tushunchalardan biri sanalsa-da, u haqida fikr yuritilganda yoki muloqotda tasvirlanganda moddiy ko‘rinish oladi hamda vazifasidan kelib chiqqan holda inson uni idish (xona) kabi tasavvur qiladi. Xususan, MIND IS A CONTAINER / AQL (ONG) − IDISH metaforasi uzoq vaqtdan buyon qo‘llanilib kelayotgan, insoniy ongning bir qismiga aylanib ulgurgan konseptual metaforik modeldir. Aflotun bundan bir necha asr ilgari inson ongini qushxonaga o‘xshatib, unda turli qushlar yashashi va har bir qush ma’lum bir ma’lumotlarni saqlashi haqida fikr yuritgan [14]. Aflotunning mazkur qarashi falsafiy tabiatga ega bo‘lsa-da, keyinroq bu qarashlar g‘arbda inson ongining moddiy ko‘rinishda, ichida yoki tashqarisida boshqa narsalarni saqlovchi idish sifatida ta’riflanishiga asos vazifasini bajardi.

By *keeping that end clearly in mind,* you can make certain that whatever you do on any particular day does not violate the criteria you have defined as supremely important, and that each day of your life contributes in a meaningful way to the vision you have of your life as a whole. (7 habits of highly effective people, P. 42.) // Umringiz yakunini *doimo yodda saqlash* orqali kundalik ishlar jarayonida o‘zingiz uchun eng oliy o‘rinda turadigan mezonni buzmaysiz. Shu bilan birga, har kuni hayotingiz haqidagi yaxlit tasavvuringiz chindan ham istaganingizdek amalga oshishiga hissa qo‘shib borasiz. (Muvaffaqiyatli insonlarning 7 ko‘nikmasi, B.105.)

What this means is that you will never be caught up. *Get* that wonderful *idea out of your mind*. (Eat that frog, R. 36.) // Hammasiga ulgurishday g‘ayrioddiy *g‘oyani miyangizdan chiqarib tashlang* (Samaradorlikning 21 yo‘li, B. 26.)

For all that was happening to him, his voice was strong and inviting, and his *mind* was vibrating *with a million thoughts*. (Tuesdays with Morrie, P.5.) // Dard kuchayib borayotganiga qaramasdan, uning jarangdor ovozi hali ham o‘ziga tortar, *xayolida esa minglab o‘ylar charx urardi*. (Morrining seshanba darslari, B. 12.)

Misollardan ko‘rinadiki, inson ongi g‘oyalar, fikrlar va o‘ylarni o‘zida saqlovchi idish singari ingliz insoniy olamining bir qismi sifatida tizimlashgan. Zero, uchala misoldagi *mind* so‘zi o‘zbek tiliga uch xilda, ya’ni *yod, miya, xayol* tarzida tarjima qilingan. Ularning barchasi inson aqliy faoliyatiga oid lingvistik birliklar bo‘lsa-da, ikki tilda ushbu faoliyatni ifodalashning turli lingvistik ifodalar yordamida amalga oshishini ko‘rish mumkin. Umuman olganda, miyaning yoxud ongning idish singari tasviri inson tafakkurida boshning idish kabi anglanishidan kelib chiqqan holda, unda miyaning organ sifatida mavjudligi, miyada kechuvchi neyrooperatsiyalarning natijasida hosil bo‘luvchi fikrlar, g‘oyalar aynan miyada saqlanishi ushbu jarayonlar haqida fikr yuritishni, ularni anglashni soddalashtirish, guruhlashtirish, tavsiflash uchun intuitiv tarzda idish metaforalaridan foydalanishga sabab bo‘ladi.

Yuqoridagi konseptual metaforaga teskari shaklda inson ongiga moddiy narsa, idish ko‘rinishidan tashqari unga inson ichidagi alohida shaxs sifatida ham qaraladi. MIND IS A PERSON / AQL − INSON metaforik modelida mazkur qarash jamlangan bo‘lib, misollardan shu namoyon bo‘ladiki, ayrim o‘rinlarda aql yoxud ong (ongosti) insondan mustaqil tarzda faoliyat yuritadi.

Use the present tense, positive and personal case so that they are immediately *accepted by your subconscious mind*. (Eat that frog, P.20) // Ular shu zahotiyoq shuuringizdan joy olishi uchun hozirgi zamon fe’lidan, ijobiy va o‘zingizga aloqador vaziyatlardan foydalaning. (Samaradorlikning 21 yo‘li, B.15.)

Gallagher’s theory, therefore, predicts that if you spend enough time in this state, *your mind will understand* your world as rich in meaning and importance. (Deep work, − P.48.) // Shu bois, Gallager nazariyasida ta’kidlanadiki, shu alfozda etarlicha mashg‘ul bo‘lsangiz, ichki dunyongiz mazmun va ahamiyat jihatdan naqadar boy ekanini anglaysiz. (Diqqat, B.73.)

Misollarda inson ongi va ongosti qismi haqida so‘z borib, bunda ong va uning bir qismi bo‘lgan ongosti insonni boshqarib turuvchi alohida shaxs sifatida aks ettirilgan, ya’ni maqsadga erishishni niyat qilgan kishi o‘sha maqsadlarni hozirgi zamonda,tasdiq shaklida va aynan shaxsiy hayotiga doir qilib yozishi ularning ongosti tomonidan tezlik bilan qabul qilinishi, ma’lum bir holatda muqim bo‘lish, vaqtni sarflash natijasida ong inson hayotining mazmunan boyligini anglab yetishi kabi sifatlarning berilishi ongning shaxs sifatida ingliz tili va tafakkurida konseptuallashganini ko‘rsatadi. Insonning ongosti yoxud shuuri masalasi ingliz shaxsiy rivojlanish diskursida tez-tez murojaat qilinadigan mavzu sifatida, ko‘plab asarlar yozilishiga sabab bo‘lgan. Fiziologik jihatdan olib qaraganda, insonning ongosti haqiqatda insonning ongli holatidan tashqari, mustaqil ravishda inson aralashuvisiz bir necha vazifalarni bajaradi, ya’ni yurak urishi, tana termoregulyatsiyasi, nafas olish kabi. Yangi fikr (New Thought) maktabi namoyandalari ushbu vazifalardan tashqari, ongostini qayta programmalash (ONG − MASHINA metaforik modeli aynan shu o‘rinda yaqqol ko‘rinadi) orqali inson o‘z hayotini butunlay o‘zgartirishi mumkinligiga ishonishadi va bu fikrni faol ilgari surishadi. Fikrlash tarzi, ong sozlamalari (mindset)ni o‘zgartirish orqali istalgan maqsadga erishish mumkinligi ushbu asarlarning markazida turadi. Shaxsiy rivojlanish diskursi ham Yangi fikr maktabi namoyondalari g‘oyalarini o‘zida aks ettirgani holda, ong va ongostiga mustaqil shaxs sifatida qarab, inson hayotida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni aynan ongning faoliyatiga bog‘lashadi. Yuqoridagi misollarning o‘zbek tiliga tarjimalarida AQL (ONG) – INSON konseptual metaforasi tushurib qoldirilib, hayotni o‘zgartirish, uni anglash ongning emas, balki insonning o‘z mas’uliyati ekanligi anglashiladi. Ammo barcha tarjimalarda ham bu tushuncha saqlanmagan, ayrim o‘rinlarda tarjimonlar o‘zbek tilida ham qayta tiklash imkoniyati bo‘lgan o‘rinlarda AQL (ONG) – INSON metaforik modelini qayta yaratishgan.

When you make out your list the evening or the night before, your *subconscious mind works* on your list all night long while you sleep. (Eat that frog, P.24.) // Agar bajaradigan ishlaringiz ro‘yxatini bir kun avval tuzib chiqsangiz, uyqungizda ham *ongostingiz* tuni bilan o‘sha narsalar ustida *ishlaydi*. (Samaradorlikning 21 yo‘li, B.17.)

When you lose focus, *your mind tends to fix* on what could be wrong with your life instead of what’s right.” (Deep work, P.49.) // Siz diqqatni yo‘qotganingizda, *ongingiz* to‘g‘ri yo‘ldan ketish o‘rniga *xato yo‘nalishni tanlaydi*. (Diqqat, B.75.)

Ko‘rinadiki, ongning faoliyatiga urg‘u berganda, uning ahamiyatini yaqqol ko‘rsatishda tarjimada ham ONG − INSON konseptual metaforasi yaratish zarurati paydo bo‘ladi; bu o‘zbek tili uchun yot tushuncha emas, balki lingvistik jihatdan verballashtirish imkoni mavjud metaforik modeldir.

Fikr va g‘oyalar aqliy faoliyatning muhim qismi sifatida tilda metaforalashib, ingliz tilida bir necha konseptual metaforalarning yaratilishiga asos bo‘lgan. Masalan, ingliz tilida shakllangan THOUGHTS ARE CONTAINERS / FIKRLAR – IDISHLAR metaforik modelida g‘oyalar va fikrlar miya ichidagi alohida konteynerlar sifatida tasavvur qilinadi.

Casey’s return *broke me out of my thought.* (The Café on the Edge of the World, R.22.) // Keysining qaytishi meni *fikrlash jarayonidan sug‘urib oldi.* (Yer chekkasidagi qahvaxona, B. 23.)

It seemed like *you were deep in thought* when I walked over. (The Café on the Edge of the World, R.33.) // Yoningizga kelganimda ancha *o‘yga botganday* ko‘rindingiz. (Yer chekkasidagi qahvaxona, B. 36.)

Out of, in predloglari, odatda, ingliz tilida joy ichida yoki undan tashqarida kabi ma’nolarda ishlatiladi. Shuning uchun yuqorida aytilganidek, fikrlarning idish holatida ko‘rilishi ingliz tilidagi predloglar yordamida shartlangan. Aqliy faoliyat ham abstrakt tushuncha bo‘lgani sabab, ularni muloqotda ishlatishda moddiy hodisalarga oid insoniy tajribalarimiz ushbu jarayonga ham ko‘chirib o‘tkaziladi, chunki insonning kognitiv olamida bundan boshqa tajribalar mavjud emas. Fikrlar miya ichidagi alohida konteynerlar shaklida, inson ongi fikrlash jarayonida ma’lum bir fikr idishi ichida o‘tirgandek tasavvur qilinadi.

Ontologik metaforalarning yana bir turi IDEAS ARE OBJECTS / G‘OYALAR – OBYEKTLAR konseptual metaforasi g‘oyalarga obyekt, predmet kabi verballashtiriladi.

It’s a subject where I can *give* you the *basic idea* without having to gloss over the underlying economics (Deep work, P.111.) // Bu shunday mavzuki, u haqda sizga uning tagidagi iqtisodni tiqishtirmasdan ham asosiy g‘oyani bemalol aytib bera olaman. (Diqqat, B.166.)

Speaking from experience as someone who makes a living trying to *sell my ideas to people*: This is a powerfully addictive feeling! (Deep work, P.121.) // *G‘oyalarni sotib* tirikchilik qiladigan odam sifatida tajribamga tayanib aytishim mumkinki, bu odamni o‘ziga bog‘lab qo‘yadigan tuyg‘u! (Diqqat, B.181.)

Misollardagi *give idea* (g‘oya bermoq), *sell ideas* (g‘oyalar sotmoq) iboralari g‘oya oldi-berdisi moddiy obyekt ko‘rinishida muloqotda tasvirlanadi. Ammo ingliz tilida kundalik muloqotda tez-tez qo‘llanadigan *to give an idea* o‘zbek tilida kontekstga qarab yoki moddiy ko‘rinish olib, ingliz tilidagi singari g‘oya berish, fikr berish deb yoki gapning sintaktik holatiga qarab, muloqot vaziyatidan kelib chiqib, fikr aytmoq, g‘oyani aytmoq shakllarini oladi. G‘oyani sotish esa, o‘zbek tili uchun nisbatan yangi tushuncha bo‘lib, global iqtisodiy integratsiya natijasida intellektual mulk bo‘lgan g‘oya va fikrlarni sotish tushunchasi iqtisod kontekstidan tilga ko‘chdi.

Fikr va g‘oyalar obyekt sifatida qaralishi ularni ko‘rish mumkinligiga ishora qiladi. Ingliz tilidagi UNDERSTANDING IS SEEING/TUSHUNISH – KO‘RISH metaforik modeli tilga singib ketgan va *I see* iborasi *tushundim* ma’nosida qo‘llaniladi. Ushbu modelning o‘zi J.Lakoff va M.Jonson tomonidan tadqiq qilingan bo‘lib, uning turli shakllari, xususan, THINKING IS PERCEIVING/TUSHUNISH – QABUL QILISH[3], SEEING IS BELIEVING/KO‘RISH – ISHONISH[2; 9-12], THINKING IS SEEING/O‘YLASH – KO‘RISH [1; 221-238] yoki PHYSICAL VISION – MENTAL VISION/JISMONIY KO‘RISH – AQLIY KO‘RISH [6] ingliz tilida to‘la shakllanib ulgurgan konseptual metaforalar ekani isbotlangan.

Tahlilga tortilgan ishlarda ham yuqoridagi metaforik modellarning bir nechtasiga duch kelindi.

I think *I see* where this is going. (The Café on the edge of the World, P.57) // Bularning bari nimaga olib kelishini anglayotgandekman. (Yer chekkasidagi qahvaxona, B.66.)

I paused for a second, trying *to envision* what that would be like. (The Café on the edge of the World, P.67.) // Men buni tasavvur qilishga uringancha, yana ikki soniyalar jim qoldim. (Yer chekkasidagi qahvaxona, B.77.)

Misolda kelgan *I see* iborasi so‘zlovchining voqealar rivojini tushunayotganini ko‘rsatib kelgan, o‘zbek tilida ham tarjimada to‘g‘ri aks ettirilgan. Birinchi misolda TUSHUNISH – KO‘RISH metaforik modeli namoyon bo‘lgan bo‘lsa, keyingi misolda *to envision* fe’lida THINKING IS SEEING/O‘YLASH – KO‘RISH konseptual metaforasi voqelangan. *To envision* fe’li dictionary.com izohiga ko‘ra *to picture mentally, especially some future event or events* [13], ya’ni kelajakdagi voqea yoki hodisalarni aqlan tasvirlash, tasavvur qilish ma’nosini beradi. Ushbu so‘zning sinonomik qatorida mavjud *view/see in one’s mind’s eye* birikmasi aql ko‘zi bilan ko‘rish ma’nosini anglatib, xuddi shunday *aql ko‘zi* ifodasi o‘zbek lingvomadaniyatiga ham xosligini e’tirof etish kerak. Ayrim o‘rinlarda tarjimada yuqoridagi metaforik modellar qayta yaratilmagan bo‘lsa-da, o‘zbek tilida ham ushbu konseptual metaforalar mavjud bo‘lib, tasavvur qilmoq – *ko‘z oldiga keltirmoq*, voqealarga mantiqan yondashish – *aql ko‘zi bilan qaramoq* kabi iboralarda o‘z aksini topgan.

Mazkur metaforik modelni shartlantiruvchi kognitiv ko‘chish quyidagi ko‘rinishda amalga oshadi (Qarang: 1-jadval):

1-jadval

UNDERSTANDING / TUSHUNISH	←	SEEING / KO‘RISH
biluvchi	←	ko‘ruvchi
miya	←	ko‘zlar
bilish qobiliyati	←	ko‘rish qobiliyati
bilim	←	ko‘ringan obyekt (narsa)

Tushunish bilan bog‘liq yana bir konseptual metafora UNDERSTANDING IS GRASPING/TUSHUNISH – USHLASH bo‘lib, inson biror voqelikni anglaganda ongi jismoniy tusga kirib, predmet yoki obyektni ushlagandek ushlashi ingliz tilida verballashgan.

I hadn’t realized it, but as Mike was speaking, I was leaning forward *to catch every part of what he was saying*. (The Café on the Edge of the World, P.92.)

One way to quickly *grasp* the self-evident nature of principles is to simply consider the absurdity of attempting to live an effective life based on their opposites. (7 Habits of Highly Effective people, P.16.)

Ingliz tilidagi misollarda qo‘llangan *to catch*, *grasp* fe’llarining asl lug‘aviy ma’nosi *ushlab olmoq, qattiq tutib olmoq* bo‘lib, keyinchalik ma’no ko‘chishi bilan tushunmoq ma’nosini anglata boshladi. Umuman olganda, ko‘rib chiqilgan va tahlilga tortilgan aqliy faoliyatga doir konseptual metaforalar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Ongning alohida shaxs sifatida qaralishi, fikr va g‘oyalar ob’ekt ko‘rinishida tasavvur qilinishi, tushunish jarayoni anglangan hodisani ushlash kabi verballashishi mantiqan bir-biriga bog‘liq hamda sistemali ko‘rinishda tilda ifodalangan.

Xulosa. Demak, metaforalarning konseptualizatsiyasi bu shunchaki tartibsiz ravishda sodir bo‘ladigan jarayon emas, balki uzoq kuzatuvlar va tajribadan keyin tafakkurda intuitiv tarzda tizimli hosil bo‘ladigan eng oliy tafakkur jarayoni hosilasi ekan.

Shaxsiy rivojlanish diskursi konseptual metaforalarining tarjimasida funksional-kommunikativ adekvatlik yondashuvi ustuvorlik qiladi. Binobarin, tarjimondan axborot uzatuvchining kommunikativ maqsadida hosil bo‘lgan matn dominant (hokim) funksiyasini aniqlash va tarjima lingvomadaniy maydonida mavjud bo‘lgan konseptual qoliplarni verballashtirish strategiyalarini belgilash talab etiladi.

Shaxsiy rivojlanishga oid asarlarda metaforik modellar ko‘p hollarda tarjima tilida o‘xshash metaforik model shaklida o‘giriladi. Bu esa ingliz va o‘zbek xalqining vaqt, hayot, o‘lim, aqliy va hissiy faoliyatga doir konseptuallashtirish jarayonlaridagi o‘xshashliklarni ko‘rsatdi. Manba sohaning farqli tushuncha bilan almashinuvi ingliz tilida mavjud idish metaforalarning ko‘plab qo‘llanilgan holatlarida namoyon bo‘ldi.

ADABIYOTLAR:

1. Danesi M. (1990). Thinking is seeing: Visual metaphors and the nature of abstract thought. Semiotica, 80(3-4), 221-238.

2. Dundes A. (1972). Seeing is Believing. Natural History 81: 9-12) Danesi, M. (1990). Thinking is seeing: Visual metaphors and the nature of abstract thought. Semiotica, 80(3-4), 221-238.

3. Lakoff G., Johnson M. Philosophy in the flesh: The embodied mind and its challenge to western thought. Basic books. 1999.

4. Newport C. Deep work. – New York; Boston, Grand Central Publishing, 2016. – 287 p.

5. Streleckey J. The cafe on the edge of the world. – Aspen Light Publishing, 2020. – 136 p.

6. Sweetser E. (1991). From etymology to pragmatics: Metaphorical and cultural aspects of semantic structure (Vol. 54). Cambridge University Press

7. Tracy B. Eat that Frog. – Berrett-Koehler Publishers, 2002. – 129 p.

8. Будаев Э.В., Чудинов А.П. Когнитивная теория метафоры: новые горизонты // Известия Уральского федерального университета. Вып. 1. 2013. С. 6-13.

9. Кови С.Р. Муваффақиятли инсонларнинг 7 кўникмаси. – Тошкент: Ниҳол, 2021. – 378 б.

10.Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А. Н. Баранова. Москва: Едиториал УРСС, 2004. – 256 с.

11.Нюпорт К. Диққат: Чалғитувчи дунёда муваффақият сирлари. – Тошкент: Ниҳол, 2021. – 230 б.

12.Стрелеки Ж. Ер чеккасидаги қаҳвахона. – Тошкент: Шарқ-зиё заковати, 2021. – 208 б.

13.Трейси Б. Самарадорликнинг 21 йўли. – Тошкент, 2021. – 92 б.

14.Элбом М. Морриниг сешанба дарслари. – Тошкент: Ёш куч, 2021. – 165 б.

15.https://www.dictionary.com/browse/envision

***16.** https://www.gutenberg.org/files/1726/1726-h/1726-h.htm*

UDC 81

THE COMMUNICATIVE REPERTOIRE IN TIMES OF GLOBALIZATION

Ibrahim Cindark,
Leibniz-Institute for the German Language

Introduction. Our current era of globalization is characterized above all by increased mobility, namely by the increasing mobility of people and the development of new communication technologies, including the mobility of linguistic signs and resources. This process raises new theoretical and methodological questions in linguistics, which results in the development of a new sociolinguistics of globalization (Blommaert 2010) in recent years. One of the most obvious ways to trace this new and dynamic development is to analyze individual language repertoires, especially those of migrants. In this essay, I examine aspects of the communicative repertoire of a refugee who fled to Germany in 2015 to escape the civil war in Syria. I draw on two interviews I conducted with him (in the following I refer to him by the pseudonym „Baran"). The first interview with Baran was recorded in 2016, a few months after his arrival in Germany. The second interview is from 2023, seven years later. In both recordings, German was the dominant language of interaction. I will analyze and show the characteristics of his German at the beginning of his immigration, how he resorts to practices of language mixing between German, Turkish and English (which has recently also been referred to as translanguaging) and how his German has developed over the course of the past seven years.

1. Sociolinguistics of globalization

The period from the 1990s to the present day is often called the era of globalization. A very significant development around this time was the end of the politically bipolar world due to the revolutions in Eastern Europe and the dissolution of the Soviet Union. In the years that followed, this process and the founding of the European Union in 1992 set off major migrations to and within Europe. One consequence of this development is the emergence of „super-diverse" societies in some regions of the world, including Germany. According to Vertovec (2007), labor migration to Western countries after the Second World War initially led to a diversity of societies there. These migrations were characterized by relatively large groups of people emigrating from certain countries to certain other countries (for example, from India to Great Britain, from Turkey to Germany, from North Africa to France, etc.). In contrast, the increased mobility of people associated with globalization is now primarily bringing about migrations that are characterized by small groups of people from many different countries emigrating to many other countries. This has further diversified the already existing diversity, to which Vertovec refers with the descriptive term „super-diversity". As a result, in Germany, for example, we sometimes find cities in which people from over 170 different countries of origin live together. In linguistic terms, such developments give rise to linguistic innovations, such as Kiezdeutsch (Wiese 2012), a multi-ethnolectal speech style characterized by the elimination of prepositions and articles („ich bin Schule"), borrowings of Turkish and Arabic expressions („wallah", „lan", etc.), new idioms, etc.

In addition to the increasing mobility of many people, not only in Europe, the other most important characteristics of globalization are the ever closer networking in business and trade on a global level and the emergence of new communication technologies. The new communication technologies in particular allow people to engage in completely new forms of communication, linguistic interaction and language acquisition. Traditional sociolinguistics, which was developed in the 1960s and 1970s and is associated with names such as Basil Bernstein, Joshua Fishman, Dell Hymes, John Gumperz and William Labov, analyses „large-scale regularities and generalizations about languages and social groups" (Andtroutsopoulos 2017: 55, my translation). In the age of globalization, however, these relationships are softening, so that the connections between language, local/global/virtual spaces and affiliations to social groups appear fluid and flexible. According to Blommaert (2010: 5), the new sociolinguistics of globalization must therefore be able to capture this mobility in particular: „it focuses not on language-in-place but on language-in-motion, with various spatiotemporal frames interacting with one another. Such spatiotemporal frames can be described as 'scales', and the assumption is that in an age of globalization, language patterns must be understood as patterns that are organized on different, layered (i.e. vertical rather than horizontal) scale-levels". In this sense the individual language repertoire of migrants in particular can be examined as an important object of investigation that illustrates the fluid and processual aspects between language use and social background in the globalized world.

2. The communicative repertoire

The conceptual of the linguistic repertoire as a concept was formulated in the 1960s by John Gumperz in the context of his linguistic field research in India and Norway. In contrast to Noam Chomsky's mostly theroretical paradigm in linguistics, which was prevalent at the time and attempted to describe the general mechanisms of human language(s) with his universal grammar, Gumperz was interested in analyzing the actual language use of people in communities. He thus related the concept of repertoire to the language or speech community as a whole: „We therefore introduce the concept of linguistic or verbal repertoire, defined as the totality of linguistic forms regularly employed within the community in the course of socially significant interaction“ (Gumperz 1965: 85). According to Gumperz, the verbal repertoire comprises all verbal practices accepted in a community for formulating messages. This can include individual varieties of a language, completely different languages, as well as switching between different registers, codes, styles, languages, etc. In his study of the repertoire of the Indian community of Khalapur, for example, Gumperz points out that in addition to Hindi as official standard language this also includes various sub-dialects spoken by the local untouchable groups, as well as Urdu (Gumperz 1964: 160-166).

In the years and decades that followed, this conceptualization of repertoire did not change much (Blommaert/Backus 2013: 12). Jan Blommaert has been one of the first sociolinguists to radically relate the concept to the individual since the 2000s as part of his studies on language and mobility (Blommaert/Backus 2013: 28). This creates a new perspective on people in times of globalization in relation to their linguistic resources and practices:

„Thus conceived, repertoires invite a new form of analysis. No longer seen as the static, synchronic property of a ‘speech community’, we can now approach it as an inroad into Late-Modern subjectivities – the subjectivities of people whose membership of social categories is dynamic, changeable and negotiable, and whose membership is at any time always a membership-by-degree. Repertoires enable us to document in great detail the trajectories followed by people throughout their lives: the opportunities, constraints and inequalities they were facing, the learning environments they had access to (and those they did not have acess to), their movement across physical and social space, their potential for voice in particular social arenas. We can now do all of this in significant detail, because we are no longer trapped by a priori conceptions of language, knowledge and community.“ (Blommaert/Backus 2013: 30).

According to this conceptualization, repertoire is understood as a dynamic set of communicative resources and practices of individuals. At any given time, it reflects the life path of people, their affiliations with different social groups and categories, their movements through physical, social and digital spaces, their (partial) acquisition of new languages or varieties of languages, and whether they acquire them „in the wild“ or in controlled settings. As Jan Blommaert (2019), who sadly passed away far too early, published on his YouTube channel, it is finally possible to reflect and work theoretically on the concept of repertoire, which strangely enough "was never seriously theorised; it was mainly used in a very superficial, undertheorized almost impressionistic way".


In recent years, Brigitta Busch has presented a slightly different approach to individual repertoires with her concept of „Spracherleben“ (experiencing language). She uses the term „Spracherleben“ to outline an approach that examines how multilingual people in particular perceive and evaluate their linguistic identity and what experiences, feelings or ideas they associate with it. She examines the relationship of „Spracherleben“ to individual life histories on the one hand and to historical and social configurations with their constraints, power structures, discourse formations and language ideologies on the other (Busch 2010: 58). She uses the method of language biographical interviews combined with language portraits. The interviewees get a sheet of paper with a stylized body silhouette (see the drawing of the refugee Baran on the next page) and asked to draw their language portrait on it with coloured pencils. The multimodal method offers the opportunity to reveal experiences and stories inscribed in the body and to reflect on language practices that often take place unconsciously. In the following, I will first present the language portrait of the refugee I interviewed, Baran, and then analyze aspects of his language repertoire.

3. Baran's language portrait and analysis of two interviews

Baran was born in 1990 in the Syrian city of Aleppo, where he belongs to the Kurdish minority. His father was a worker and his mother a housewife. In 2008, Baran began his studies in geography, which he had to finance himself. He therefore went to Turkey twice during his studies and worked there as an unskilled laborer and salesman. He was enrolled at university for a total of four years, but was unable to complete his studies due to the civil war in Syria, which broke out in 2011. When the war reached his home town, Baran fled with his family to a Kurdish town in north-western Syria, where his family originally came from. But even here he was unable to escape the war because the local Kurdish army wanted to recruit him.

However, he is a pacifist who prefers to help people and cannot pick up a weapon, which is why he was involved in the humanitarian aid organization „Red Crescent“. However, as the Kurdish army still wanted to recruit him, Baran finally fled in 2015, first to Turkey and then, after a week, across the Mediterranean to Greece. His further escape route took him via North Macedonia, Serbia, Hungary and Austria to Germany.

In our first interview in August 2016, I first asked Baran to draw his language portrait on a sheet of paper with a stylized body silhouette using colored pencils. This was followed by the biographical interview, including questions on his language portrait.



Baran locates his first language, Kurdish, in his head; he paints Arabic in both arms, everyday Arabic on the right and standard Arabic on the left; English is in the middle of his body; he has painted Turkish in orange in his right leg and German in red in his left leg.

Figure 1. Baran’s language portrait

As a member of the Kurdish minority in Syria, Baran grew up with Kurdish as his first language. According to his story, he consciously came into contact with Arabic for the first time at school. He learned standard Arabic in class and everyday Arabic in interactions with his peers. In secondary school, he then started learning English, which he says can not be taken seriously. He taught himself English mainly with the help of the internet. When Baran worked in Turkey for over two years to finance his studies, he learned Turkish without a language course and in contact with locals at work. Finally, Baran fled the civil war to Germany in 2015, where he was unable to attend a language course straight away due to the large number of refugees in this year. So he initially learned German with the help of YouTube videos by an Arabic German teacher. After two months in Germany, he started doing gardening work in the community and received support from volunteers once or twice a week to help him learn German. He only got a place on a German course after eight months at the Goethe-Institut, which he was attending in his third month at the time of the interview.

3.1 Analysis of the first recording from 2016

The first interview with Baran took place in August 2016, ten months after his arrival in Germany. The entire interview took around 130 minutes. In the following, I will first present an excerpt from the initial phase of the interview, which lasts a total of one minute. I will then discuss the linguistic deviations that can be observed in this passage. In the excerpt, English and Turkish passages are printed in bold and I present the English translation at the end.

1	„Ich komme aus Syrien, ich bin Kurd äh, ich hab äh schon äh **geography**
2	vier Jahren in Syrien gestudiert aber nicht abgeschlossen, weil wir haben
3	eine große Krieg gehabt, und ich konnte nichts äh nach Aleppo gehen, weil
4	äh ich muss äh zum **army** gehen und ich äh weil ich bin Kurd, ich hab
5	Probleme mit alle andere Gruppen, nicht nur, mi/ äh ich habe Probleme mit
6	äh **government** äh Gruppen, ich habe Probleme mit äh ah mit op/ op/ äh
7	**opposition group** [IC: Opposition] Oppositionegruppen, und äh ich habe
8	auch Probleme mit meine kurdische **group**, weil ich bin nicht eine **army**
9	Person, ich bin eine politike Person, ich bin eine Helferperson, ich hab- ich
10	hab ein Jahre in äh **kırmızı hilal da çalıştım, äh ja, kırmızı hilal da**
11	**çalıştım**, **insanlara yardım ettim**“
	Translation: "I'm from Syria, I'm Kurdish, I've been studying in Syria for four years but I didn't finish because we had a big war and I couldn't uh go to Aleppo because uh, I have to uh go to the army and I uh because I'm Kurdish, I have problems with all other groups, not only, w/ uh I have problems with uh government uh groups, I have problems with uh ah with op/ op/ uh opposition group [IC: opposition] opposition groups, and uh I have also problems with my Kurdish group, because I'm not an army person, I am a political person, I am a helper person, I have worked at the red crescent for a year to help people.

At the time of the interview, Baran had been in Germany for ten months and had been attending a German course at the Goethe-Institut for three months. Before that, he had learned the language self-taught through contact with Germans and with the help of YouTube videos. His German shows the typical characteristics of a language learner at the beginning of language acquisition. He has problems with singular-plural forms (vier Jahre (1-2), ein Jahre (10)), with tenses (gestudiert (2)), with articles (eine ... Krieg (2-3)), with negation (nichts nach Aleppo gehen (3), with congruence (alle andere Gruppen (5)), with the linking element -s in compound nouns (Oppositionegruppen (7)) and with the verb position in subordinate clauses (weil ich bin Kurd (4)). It is also to be expected that he has gaps in his German vocabulary at this stage of acquisition. He sometimes closes these gaps with occasionalisms (Helferperson (9)). But more often he resorts to English and Turkish when faced with lexical problems in German. In some cases, he only has the English expressions at his disposal at this point, as with „geography“, „army“, „government“ and „opposition“. In other cases, such as „group“, he switches between the German („Gruppe“ (5 and 6)) and the English („group“ (8)) expression. According to Auer (1999: 316f.), these are cases of „insertional language mixing“, whereby single lexemes from another language are inserted into a matrix language (here German). At the end of the quoted passage, however, we see another form of mixing in which the speaker can deal with local problems when he encounters lexical gaps in the matrix language. He begins the utterance in German („ich hab ein Jahre“ (9-10)), and because he does not know the term for the aid organization „Red Crescent“ in German, he not only inserts the Turkish word in the following, but also changes the matrix language completely into Turkish: „kırmızı hilal da çalıştım, insanlara yardım ettim“ (I have worked at the red crescent for a year to help people (10-11)). Auer (1999: 314f.) refers to such cases of language alternation, in which speakers switch languages for longer passages, as „alternational language mixing“.

From an interactionalist perspective, Auer (1999) has presented a dynamic typology of bilingual speech which locates the diverse language alternation phenomena on a continuum and which includes three prototypical forms: „code-switching“, „language mixing“ and „fused lects“. Under code-switching, Auer subsumes the cases of alternation in which the juxtaposition of two codes (languages, dialects, varieties, etc.) is seen by participants as a sequentially meaningful event. Starting from an established code of interaction, a few individual cases of code-switching then signal „otherness“ (Auer 1999: 312) of the new contextual framing. According to Auer, this can be demonstrated by showing „that [juxtaposition] is used as contextualization cue (i.e., that it is 'functional')“ (ibid.). As a contextualization cue, these few alternations index individual aspects of the interaction such as change of topic, change of modality, etc. or of the speaker such as language preferences. In contrast, Auer defines language mixing as variation practices in which the frequent use of elements of two (or more) codes is no longer sequentially significant for the participants. Due to the „numerous and frequent cases of alternation“, the potential of code-switching as a contextualization

strategy is lost, so that the individual cases of juxtaposition in code-mixing „do not carry meaning qua language choice for the bilingual participants“ (ibid.: 16).

This variation practice of language mixing can also be observed very well in Baran's first interview. Although he focuses on German as the language of interaction, because the matrix language of most utterances is German and because he also switches to German after longer passages in Turkish, there are too many switches to Turkish and English to possibly say that German is the sole language of interaction. Throughout the interview, he inserts a total of 32 English words into his utterances, mainly to close lexical gaps in German: „army, before, Belgium, cashier, cheaper, democracy, dictatory, Egypt, English, freedom, garden, gardener, geography, government, group, Hungary, idea, lawyer, little bit, military, part, party, peace, peaceman, person, phobia, population, presentation, scientific, system, terrorism“. However, Baran's use of these expressions does not mean that he subsequently formulates his utterances with English as the matrix language.

In numerous other cases, Baran also uses Turkish, where both the use of individual Turkish expressions in a German matrix sentence and the complete switch to Turkish can be observed. Some of the isolated Turkish expressions he uses are, for example, „Atina“ (Athens), „çatışma“ (fight), „Çerkes“ (Circassian), „demirci“ (blacksmith), „hukuk“ (law, Justice), „kontrakt“ (contract), „rüşvet“ (bribe) oder „zeytin“ (olive). In one case, when he cannot think of the expression he is looking for in any language, he provides the Turkish paraphrase „yani kafalarına göre yazmışlar“ (so they wrote what came to mind). In other cases, as in the passage quoted, he switches entirely to Turkish. At this point, Baran's German bears the characteristics of a language learner. And since English and Turkish were his stronger foreign languages before he fled to Germany, these switches seem predictable. English, which he mainly taught himself, was his international lingua franca, and he spoke Turkish with people in Turkey (Turks, Kurds, etc.).

Recently, such variation practices, such as Baran's, have often been described with the term translanguaging (Garcia 2009). Originally, the concept was introduced for the analysis of classroom communication, according to which multilingual individuals (should) use all their linguistic resources fluently in the classroom to create and communicate meaning. In the present case, it can also be argued that Baran draws on all his linguistic resources to communicate linguistically. Without wishing to enter into a larger discussion about the two concepts of „language mixing“ vs. „translanguaging“ at this point (for a discussion of these two approaches, see Auer (2022)), I would like to point out that Baran clearly focuses on German as the matrix language in the interview. And based on this preference, he then occasionally either switches to Turkish for longer passages or inserts isolated English and Turkish expressions. The translanguaging approach does not explain, and does not intend to explain, the different variation practices that exist and the causes and functions of individual language alternations. With Auer's typology of language alternations and the distinction between code-switching and language mixing, however, this can be done very well, as shown.

3.2 Analysis of the second recording from 2023

I conducted the second interview with Baran seven years after the first interview. Here, too, I will first present an exemplary passage from the interview and then show my analysis.

1	„Ja, ich war kurz bei der Jobcenter, ich habe eine Maßnahme teilgenommen,
2	und dort haben die mir eine Job in äh, der Einzelhandelbereich in Altstadt
3	gefunden also in Supermarkt, hab ich dort angefangen und äh: und dann hab
4	ich dort also langsam hab ich dort alles gelernt, ich- ich konnte dort auch äh
5	eine kleine Umschulung machen, dann eine äh abgeschlossene Ausbildung
6	als Einzelhandelkaufmann nehmen aber, also Kontakt mit der Leute und, so
7	viele Stress nach der Coronazeit habe ich äh gesagt ne ich mache was an/,
8	solange ich lernen möchte dann mache ich was anderes dass ich vor Zukunft
9	besser also verdienen kann– weil bei Einzelhandelkaufmann, sowohl äh mit
10	äh Zertifikat als auch ohne äh also fast äh Gehalt ist fast gleich, deswegen
11	habe ich gedacht, wenn ich was lernen möchte, dann mache ich was anderes
12	einfach“
	Translation: Yes, I was briefly at the job centre, I took part in a measure, and there they found me a job in the retail sector in Altsadt, so in Supermarkt, I started there and uh: and then I slowly learnt everything there, I - I was able to do a little retraining there, then take a completed apprenticeship as a retail salesperson but, so contact with the people and, so much stress after

	the Corona time I said no I'll do something else as long as I want to learn then I'll do something else that I can earn better in the future - because with retail salesperson, both with uh certificate and without uh so almost uh salary is almost the same, so I thought, if I want to learn something, then I'll do something else

Conclusion. Overall, Baran's German is much more fluent after seven years in Germany and he uses less hesitation signals. In comparison to the first recording, he shows almost no deviations from standard German formulations in a number of cases such as singular-plural forms, tenses and negations. However, there are also areas in which he still has problems, such as prepositions (ich habe eine Maßnahme teilgenommen (1)), articles (eine Job (2)) and the linking element -s (Einzelhandelkaufmann (6)). But the most remarkable thing is that he never once inserts an English or Turkish word into his German utterances in the entire conversation. He manages to speak German without any problems. In the case of individual lexical insecurity, he has so much competence that he can paraphrase the problem or express it using semantically similar words. Only once, when I asked him a Turkish question during the interview for testing purposes solely, he answered in Turkish.

Nobody is monolingual. Even the communicative repertoire of monolingual people comprises different registers, varieties and styles. And for multilingual people, there are additional languages. Baran's repertoire includes Kurdish, Arabic, English, Turkish and German. And an analysis of the two recordings shows how his linguistic performance reflects his respective stage of life. While at the beginning of his immigration his language production is characterized by language mixing, after seven years his German is quite fluent, elaborate and he does not have to close lexical gaps by resorting to Turkish and English.

REFERENCES:

1. Andtroutsopoulos, Jannis (2017): Soziolinguistische Mehrsprachigkeit. Ressourcen, Praktiken, Räume und Ideologien mehrsprachiger Kommunikation. In: Der Deutschunterricht 4/2017. 53-63.

2. Auer, Peter (1999): From Code-switching via Language Mixing to Fused Lects: Toward a Dynamic Typology of Bilingual Speech. In: International Journal of Bilingualism 3 (4). 309-332.

3. Auer, Peter (2022): 'Translanguaging' or 'doing languages'? Multilingual practices and the notion of 'codes' In: MacSwann, J. (ed.): Multilingual Perspectives on Translanguaging, Bristol: Multilingual Matters. 126-153.

4. Blommaert, Jan (2010): The Sociolinguistics of Globalization. Cambridge: University Press.

5. Blommaert, Jan/Backus, Ad (2013): Superdiverse Repertoires and the Individual. In: Saint-Georges, I./Weber, J-J (ed.): Multilingualism and Multimodality. Rotterdam: Sense Publishers. 11-32.

6. Blommaert, Jan (2019): Jan Blommaert on Repertoire. https://www.youtube.com/watch?v=IGtmyEu5YO0 (Zugriff, 23.11.2023)

7. Busch, Brigitta (2010): Die Macht präbabylonischer Phantasien. Ressourcenorientiertes sprachbiographisches Arbeiten. In: Zeitschrift für Literaturwissenschaft und Linguistik LiLi 40. 58-82.

8. Garcia, Ofelia (2009): Bilingual education in the 21st century: A global perspective. Malden/Oxford: Wiley/Blackwell.

9. Gumperz, John (1964): Linguistic and Social Interaction in Two Communities. In: Gumperz, J. (ed.): Language in social groups – Essays by John. J. Gumperz (1971). 151-176.

10. Gumperz, John (1965): Linguistic Repertoires, Grammars, and Second Language Instruction. In: Kreidler, C. (ed.): Report of the sixteenth annual round table meeting on linguistics and language studies. Washington: Georgetown University Press. 81-90.

11. Vertovec, Steven (2007): Super-diversity and its implications. In: Ethnic and Racial Studies, Volume 30, Issue 6. 1024-1054.

12. Wiese, Heike (2012): Kiezdeutsch. Ein neuer Dialekt entsteht. München: Beck.

UO‘K 82-84 [=133.1=512.133]

MAQOL VA MATALLARNING QIYOSIY CHOG’ISHTIRMA TAHLILI
(fransuz va o’zbek maqol va matallari misolida)

Ikromova Lola Boltayvena,
Buxoro davlat universiteti o’qituvchisi
l.b.ikromova@buxdu.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fransuz va o’zbek tillaridagi maqollar va matallarning qiyoslab o’rganish va ularning leksik va tipologik tahlili, tarjimada so’z va iboralarga alohida e’tibor qaratiladi. Ikki tildagi maqollar va matallarning o’xshashlik va farqli jihatlari ochib beriladi. Maqollar va matallarning badiiy tasviri, nutq go’zalligi, qofiyadoshligi haqida so’z boradi. Ko’chma ma’noda va o’z ma’nolarida kelgan maqollarning insonlar uchun tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligi yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *maqol, matal, qiyosiy tahlil, qofiyadoshlik, ko’chma ma’no, to’g’ridan-to’gri tarjima, iboralar, tarbiyaviy ahamiyat.*

СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОСЛОВИЙ И ПОГОВОРОК
(на примере французских и узбекских пословиц и поговорок)

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительное исследование пословиц и поговорок во французском и узбекском языках и их лексический и типологический анализ, особое внимание уделяется словам и словосочетаниям в переводе. Выявляются сходства и различия пословиц и поговорок на двух языках. Обсуждаются художественное изображение пословиц и поговорок , красота речи, рифма. Объясняется, что пословицы, идущие в переносном смысле и в своем собственном значении, имеют большое воспитательное значение для людей.*

Ключевые слова: *пословица, матал, сопоставительный анализ, рифмующий, переносный смысл, прямой перевод, словосочетания, воспитательное значение.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF PROVERBS AND SAYINGS
(on the example of French and Uzbek proverbs and sayings)

Abstract. *In this article, a comparative study of proverbs and sayings in French and Uzbek languages and their lexical and typological analysis, special attention is paid to words and phrases in translation. It reveals the similarities and differences of proverbs and sayings in two languages. The artistic representation of proverbs and sayings, the beauty of speech, and rhyming are discussed. It is explained that the proverbs that come in a figurative sense and in their own meaning have a great educational value for people.*

Keywords: *proverb, saying, comparative analysis, rhyming, figurative meaning, direct translation, phrases, educational value.*

Kirish. Jahon tilshunosligida millatlararo aloqalarning shunday turlari mavjudki, bular: lingvokulturologik, etnolingvistik, psixolingvistik, pragmalingvistik. Bunda ularning xususiyatlarini yoritish va soha taraqqiyotini ta’minlash muhim omillardan hisoblanadi. Hozirda dunyo tilshunosligida til hodisalari, xususan, frazeoligizmlarni qiyosiy-tipologik, pragmalingvistika va kognitiv lingvistikani o‘rganishga jiddiy e’tibor berilmoqda. O‘zbek tilshunosligida ham tillarning o‘zaro aloqalarini, hozir aytib o‘tganimizdek, frazeoligizmlarni boshqa tillar bilan qiyoslab tadqiq etishda, zamonaviy metodologik tamoyillardan foydalanish va umumlashtirish, ularning lingvistik qiyosiy tahlili va nutqdagi ravonligi yuzasidan aniq nazariy xulosalar chiqarilishi mavzuning yanada dolzarbligiddan dalolat beradi. Aytishimiz mumkinki, tilshunoslikda frazeoligizmlarni xalqning dunyo haqidagi tassavurlari, tarixi milliy mentaliteti va madaniyatining lisoniy to‘plami sifatida xalq og‘zaki ijodiga tayangan holda o‘zbek va fransuz tillaridagi maqol va matallarning shaxsga va narsa buyumlarga ko‘chgan turli tavsifli frazeologizmlarning xususiyatlarini har ikkala til uchun muqobil va o‘ziga xos xususiyatlarining ichki qonuniyatlari asosida qiyosiy chog‘ishtirma jihatdan tadqiq etish mavzuning zamonaviy tilshunoslik uchun ahamiyatini belgilaydi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin, milliy tilshunosligimizda boshqa tillarning ham keng miqyosda qiyosiy o‘rganilishi bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari olib borildi. Shuni ta’kidlashimiz joizki, bu borada, ayniqsa, o’zbek-ingliz, o’zbek-rus, o’zbek-fransuz va o’zbek-nemis tillarining qiyosiy cho’gishtirma tahlil

qilish bo'yicha erishilgan natijalarni alohida qayd etish mumkin. Shu nuqtayi nazardan yillar davomida o'rganilib kelayotgan fransuz tilining turli sohalarda, jumladan, ertaklar, romanlar, she'rlar va maqollarni qiyosiy- chog'ishtirma sathlarini ochib berish nihoyatda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «*O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari*» mavzusidagi xalqaro konferensiyada shunday deydi: "*Biz O'zbekistonda «Adabiy do'stlik – abadiy do'stlik» degan chuqur ma'noli tamoyilga amal qilgan holda, jahon adabiyotining durdona asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish masalasiga g'oyat jiddiy e'tibor qaratmoqdamiz*". Va yana so'zida davom etib: "*Bu borada respublikamiz ta'lim muassasalarida o'zbek tili bilan birga qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman tillarida ta'lim berish yo'lga qo'yilgani, oliy o'quv yurtlarimizda ingliz, fransuz, nemis, ispan, yapon, xitoy, koreys, arab filologiyasi maxsus fan sifatida o'qitilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda*"[1]. Bu borada keyingi yillarda fransuz tiliga oid bir nechta darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy ishlar, va metodologik qo'llanmalar chiqa boshladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqollar haqida to'xtaladigan bo'lsak, asrlar davomida yaratilgan maqol va matallar bu xalq og'zaki ijodi hisoblanadi. Ya'ni har bir xalqning o'z og'zaki ijodi bo'lgani kabi bizda ham bu folklor janr benihoyat rivojlangan hisoblanadi. Maqollar xalq og'zaki ijodi mahsulidir. Maqollar shakliga ko'ra ixcham, ammo chuqur mazunga ega bo'lgan janrlardan biridir. Aytishimiz mumkinki, maqollarning vujudga kelishiga sabab, xalqning ko'p asrlar davomida, insonlarning hayotiy kuzatishlari, turli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tajribalariga asoslanganligini ko'ramiz. Shuning uchun ham har bir maqolning mazmun- mohiyatida ko'p asrlik o'ziga xos tajriba va hayotiy tarbiyaviy ahamiyati aks etadi. Xalq maqollari uzoq yillar davomida turmush tajribalarida va turli xil sharoitlarda bir necha martalab sinovdan o'tgan. Biz bilamizki, maqollar har bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlari va dunyoqarashini, axloqiy-tarbiyaviy merosini o'zida ifoda qiladi. Ba'zan maqollar insonning ruhiy holatini va vaziyatini ba'zan esa jamiyatdagi yoshlarning tutgan o'rni va ularning ongini o'stirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, xalq og'zaki ijodi hisoblangan maqollar bizga ota bobolarimizdan asrdan asrga yetib kelmoqda. Yartailishi jarayoni esa oddiy, ya'ni bu hikmatli so'zlar ilm ahli yoki buyuk faylasuflar tomonidan ilmiy qarashlarga asoslangan holda yartilgan.

Hikmatli so'zlardan tashkil topgan matal janri ham maqol janriga yaqin janr bir ma'naviy boylik hisoblanadi. Bu janrning kelib chiqishi ham maqol singari har bir xalqning o'z hayotiy tajriba va sinovlari, turmush tarzi va fikrlash doirasi darajasini bildiradi. Kopincha maqollar va matallar turli millat va elatlarning odob-axloqi va tarbiyaviy jihatini aks ettiradi.

"*Maqollar*- deyiladi " O'zbek xalq og'zaki ijodida, - "*Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlarga aytiladi. Maqol o'zbek tilida maqol, tojiklarda zarbulmasal, ruslarda poslovitsa, arablarda (jonli so'zlashuvda) naql, turklarda ata so'zi atamasi bilan yuritiladi. Maqol atamasi arabcha - qavlun - gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan" [1; b. 65]*.

Xalqimiz tomonidan aytilgan maqollar mazmun jihatidan chuqur ma'noga egadir. Bundan tashqari, ular badiiy jihatdan ham juda mukammaldir. Ya'ni ularda o'xshatishlar, tovushdoshlik, mubolag'a, majoziy obrazlar mavjud. Misol qilib aytadigan bo'lsak: " ***Ona bilan bola-gul bilan lola***" maqoliga e'tibor bersak bu yerda istiora badiiy san'ati qo'llangan. Maqol mazmunida ona va bolaning , "***gul bilan lolaga"*** o'xshatilishi kuzatilmoqda.

Xalq og'zaki ijodida **alliteratsiya** va **assonans** adabiy uslublar mavjudki, ular asosan o'quvchilarning eshitish qobiliyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan. Shunday qilib, keng qo'llanuvchi bu ikki fonetik takror usullarni maqollarda ham uchratamiz. Xususan, maqol matnida bir xil yoki ohangdosh tovushlar takrorlanib, o'ziga xos ritmni tashkil qiladi. Alliteratsiya bu undosh tovushlar uyg'unligi, assosans esa unli tovushlar ketma-ketlikda va ikki martdan ko'proq takrorlanishi hisoblanadi. Shu sababli ham maqollarda muayyan ritmik pozitsiya takrorlanib keladi va maqol eshituvchi xotirasida osongina o'rnashadi. Talaffuz jarayonida esa estetik zavq beradi [2].

Misol uchun:

"***Badqavm bo'lsang bo'l, Beqavm bo'lma***" maqolida faqatgina "b" tovushlar allitaratsiyasini ko'rishimiz mumkin.

"***Alp- otadan, zot- onadan. Alp-enadan, tulpor – biyadan***" maqolida " a" va "o" unlilar assonansi mavjud. O'zbek xalq maqollarida qofiyadoshlik san'ati keng rivojlangan, va bunga o'xshash misollar juda ko'plab topiladi.

Natijalar va uning muhokamasi. Darhaqiqat, har bir millatning o'z an'analari va mentalitetiga xos maqollar, hikmatli so'zlar va matallari mavjud. Maqollar turli mavzularni o'z ichiga qamrab oladi va

nihoyatda keng m'anoga ega. Biz ota-ona, vatan, ona yurt, mehnat, tabiat, hayvonlar, ovqat, suv, ilm, bilim, aql, idrok, boylik va ko'plab mavzulardagi maqollarni o'rganamiz. Biz bu maqolamizda fransuz va o'zbek xalq maqollarining qiyosiy chog'ishtirma holda tahlil qilamiz. Ushbu maqollar fransuz va o'zbek millatiga xos bo'lgan maqollarning bir-biriga ma'no jihatdan yaqinligini ko'rishimiz mumkin.

« Amour et mort, rien n'est pas plus fort ». Bu maqolni o'zbek tiliga tarjima qiladigan bo'lsak, albatta, so'zma- so'z ma'no bermaydi. O'zbek xalq maqollaridan « ***Ayriliq o'limdan qattiq*** » degan ma'noni anglash mumkin. Bundan tashqari « ***Hamma dardga bor davo, sevgi dardi bedavo »*** yoki

« ***Inson sevgi bilan tirik*** » kabi ekvivalentlariga ham ma'no jihatdan yaqin hisoblanadi [2; b. 122]. Bundan tashqari fransuz tilida yana bir qancha maqollarni, o'zbek tilidagi maqollar bilan chog'ishtirish orqali tahlil qiladigan bo'lsak**,** fransuz va o'zbek maqollarining ma'no jihatidan bir-biriga yaqinligi anglaymiz. Quyidagi maqollarni ko'rib chiqamiz.

Telle mère, telle fille

Tel père, tel fils

Bu maqolni so'zma- so'z tarjima qilsak aniq bir ma'no kelib chiqmaydi. Shuning uchun biz o'zbek xalq maqollariga murojaat qiladigan bo'lsak, « ***Onasini ko`rib qizini ol –otasini ko'rib o'g'lini bil »*** yoki « ***Qush uyasida ko'rganini qiladi*** » maqoliga to'gri keladi. Bu yerda so'zlarning qofiyadoshligi maqolni badiiy estetik jihatdan yana ham mukammalligini ifodalashga yordam beradi. Qiz va o'g'ilning xulqi go'zalligi ota va onaning bergan tarbiyasiga yoki onasi va otasi qanday bo'lsa farzandlar ham ularga o'xshamoqligini aytish mumkin.

Ce qui est dit, est dit – bu maqol o'zbek tilidagi « ***Aytilgan so'z otilgan o'q*** » maqoliga to'g'ri keladi. O'zbek xalq maqollaridan bunga o'xshash yana bir qancha ekvivalentlarni keltirishimiz mumkin. Masalan : ***"Avval o'yla, keyin so'yla",*** *yoki* ***« Yetti o'lchab bir kes »*** maqoliga ma'no jihatidan to'gri keladi. Yuqoridagi maqollarda inson so'zlashdan oldin fikrlashiga ishora qilinadi. Dastavval so'zlovchi ongida fikrlar namoyon bo'ladi, keyin esa bu fikrlarni so'zlar yordamida gapga aylantirib tinglovchiga yetkazadi[3]. Shunday ekan, har bir kishi oldin o'ylaydi, fikrlaydi va keyin kerakli so'zni aytishi kerak. Aks holda bu aytilgan so'zlar bamisoli otilgan o'q kabidir. Bu uchta maqolimizni ma'nosi ham bir-biriga yaqindir.

« Grandes maisons se font par petite cuisine » (Petite cuisine agrandit la maison, les petites économies font les grandes maisons) « ***Mehnat bilan topilgan tiyin pulning onasidir*** », boshqa ma'nosi ***« Tiyin-tiyindan pul mo'l bo'ladi*** » bu maqol aynan so'zma-so'z tarjima qilinmasa-da, ma'nosi o'xshash bo'lib, o'zbek xalq maqolidan « ***Toma-toma ko'l bo'lur*** » maqoli bilan bir ma'noga ega [3; p.1-6]. Quyidagi maqolga e'tiborimizni qaratsak,

« ***Tant va la cruche à l'eau qu'à la fin elle se casse.*** Bu maqolning tarjimasi « ***Ko'za kunda sinmaydi***, ***kunida sinadi*** » maqoliga to'gri keladi. Bu maqolning ma'nosi har bir ishning, bir vaqtning o'zida emas, balki asta-sekin siri ochilishi haqida aytilyapti. Ba'zi fransuz maqollarini tarjima qilganimizda so'zlari butunlay boshqa bo'lsa-da, ammo ma'no jihatidan yaqin bo'lgan o'zbek maqollarini tanlaymiz. Ammo bu maqolning o'zbek tilidagi ma'no va so'z jihatidan ham bir xilliga amin bo'lamiz. ***La cruche*** *- ko'za,* ***à la fin*** *– oxirida,yakunida,* ***se casser****- sinmoq* so'zlarining ishlatiladi.

« On ne peut pas être au four et au moulin » - bu maqol, o'zbek xalq maqollaridan bir nechtasiga ma'no jihatidan yaqindir. Masalan: « ***Ikki kemaning boshini ushlagan g'arq bo'ladi*** **»**, « ***Har ishning o'z-vaqti soati bor*** ». Bunda, insonlarning bir vaqtning o'zida ikkita joyda bo'lolmasligi yoki bir vaqtning o'zida bir nechta ishlarni qila olmasligi haqida aytiladi.

Shunday maqollar borki, ular turli xalq maqollari bilan bir xil. Ya'ni so'zma- so'z tarjima qilinadi. Bunga misol qilib:

«Les chiens aboient, la caravane passe» maqolini olsak, bu o'zbek xalq maqollaridan «***It hurar - karvon o'tar*** » maqoliga to'g'ri keladi. Buni izohlaydigan bo'lsak, tanqid yoki salbiy izohlarga qaramasdan, biz o'z oldimizga qo'ygan maqsad sari davom etishimiz kerakligi haqida ma'no kelib chiqadi.

«Les bons comptes font les bons amis» bu maqolda esa qarzlarni o'z vaqtida to'lashi, ya'ni orangizda kelishmovchilik chiqib qolmasligini xohlasangiz qarzlaringizni o'z vaqtida berishiz kerak degan ma'no anglashiladi. O'zbek maqollaridan "***Hisobli do'st ayrilmas***" ma'nosiga mos keladi. Fransuz xalq maqolida buni yanada yorqinroq tushuntirish uchun shunday bir misol bilan ma'nosini ochib beradi;

- Voici les 50 centimes que tu m'as prêtés hier pour acheter mon café.

- Tu peux les garder, ce n'est pas ça qui va me ruiner.

- Non, j'y tiens. ***Les bons comptes font les bons amis.***

Tarjimasi ;

- Mana 50 sent, kecha kofe sotib olishim uchun qarz berganding.

- Sen ularni saqlab qolishing mumkin, bu bilan men kamayib qolmayman.

- Yo'q, men bu haqida qayg'uraman. ***Hisobli do'st ayrilmas.***

«Tout vient à point à qui sait attendre» *bu maqolni o'zbekcha varianti,* "***Yaxshi niyat – yarim davlat****"* maqoliga to'gri keladi. Ushbu maqolni izohlasak, agar inson xohlagan narsasiga erishmoqchi bo'lsa, sabr-toqatli bo'lish bilan birgalikda yomon gumonga bormasligi, biror niyat qilganida uni doimo ixlos bilan bajarishi kerakligi haqida aytiladi. O'zbek xalq maqollaridan yana bir nechta muqobil variantlari ko'rib o'tishimiz mumkin. Masalan ;

Dili pokning ishi pok.
Sabr qilsang, g'o'radan holva bitar
Sabr - achhiq, mevasi- shirin
Sabr - yutuq kaliti

« La valeur n'attend pas le nombre des années» bu maqol o'zbek xalq maqollaridan ***«Aql yoshda emas, boshda »*** maqoliga tog'ri keladi. Insonda iste'dod bo'lsa, yosh bo'lsa ham unga ishonish mumkin. Bu maqolga muqobil bo'lgan o'zbek maqollaridan yana bir nechta quyida misollar keltiramiz.

Dono ming yashar, nodon bir yashar
Amalga qarama, aqlga qara.
Kuchiga ishongan - yiqilar,
Aqliga ishongan - yiqitar

*«****Deux précautions valent mieux qu'une****»* bu fransuz maqolini so'zma-so'z tarjima qilsak, ma'nosi « *Ikkita ehtiyot chorasi bittadan yaxshiroqdir* ». Fransuz yozuvchisi, Jan de La Fontenning "Bo'ri, echki va uloq" ertagida ham bu maqolga to'xtab o'tilgan. Ya'ni Sylvie Moyning "100 PROVERBES FRANÇAIS (les plus courants) et leur signification" kitobida, muammolarni oldini olish uchun bir nechta xavfsizlik choralarini ko'rish yaxshidir deb keltirilgan [4; p.1-9]. Xuddi shunday o'zbek maqollarining ekvivalentlari ham mavjuddir. Masalan;

«*Birlashgan - o'zar, birlashmagan - to'zar"*
Birlashgan daryo bo'lar,
Tarqalgan irmoq bo'lar.
Birikkan kuch — kuch,
Birikmagan kuch — puch.
Birlashgan kuch yengilmas.

Bunda, biron muammo yoki yumush bo'lsin, kishilar jamoaviy ahil bo'lib, birgalikda bajarsalar juda oson bartaraf bo'lishi, hatto dushmanni ham bunday vaziyatda kuchi yetmasligi haqida boradi.

Inson qadimdan atrof- muhitda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlar, ehtiroslar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik so'zlar, so'z yig'indisi, raqslar his-tuyg'ulami ifodalagan. Yana keyinroq odamlar o'zlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, o'simliklar, tog'lar, suvlarning paydo bo'lishini izohlovchi to'qima hikoyalar o'ylab topadilar [5; b. 8].

Biz e'tiborimizni qaratmoqchi bo'lgan yana bir shunday mavzu borki, bu ham bo'lsa, xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri bo'lgan matallardir.

Ma'lumki, zamonaviy tilshunoslik tillarni qiyosiy tahlil qilishga katta e'tibor qaratadi. Chunki taqqoslash orqali nafaqat qardosh tillarda balki bir-biriga bog'liq bo'lmagan tillarda ham umumiy bo'lgan narsalarni ko'rish va bir-biriga bog'lab, lingvistik o'ziga xos milliylikni saqlagan holda, har bir xalqning madaniy sivilisatsiyasini rivojlantiradi. Xalq og'zaki ijodi bo'lgan folklor qo'shiqlar, maqollar, matallar, dostonlar bular barchasi har bir millatning o'z madanaiyatini, qadr- qimmatini, tilining o'ziga xosligini va milliy mentalitetini aniqlab beradi.

Korolevani aytichicha, "*Maqol va matallar dunyo haqidagi milliy g'oyalarni to'la aks ettiruvchi lisoniy materialdir. Ushbu materialni qiyosiy jihatdan o'rganish maktabda, universitetda chet tilini o'rganishda muhim ahamiyatga ega, shuningdek, tarjima amaliyotida yordam beradi. Maqollar o'quvchilarning chet tiliga qiziqishini oshiradi, lingvistik intuitsiyasini rivojlantiradi, lingvistik tushunchalarda fikr yuritish odatini o'rnatadi*" [6; b.10].

Fransuz tilidagi maqol va matallarni o'rganish ham ushbu tilda so'zlashuvchilarning mentaliteti va milliy xarakterini tushunishga yordam beradi. Bu degani, o'sha millatning o'ziga xos bo'lgan xarakteri, xulq-atvori, madaniyati, faoliyati va fazilatlari yig'indisidan iboratdir.

Matal – [arabcha مَثَل] so'zi, birinchi navbatda, tugal ma'no ifodalamaydigan obrazli ibora, hikmatli so'z (mas., ,,qizil qor yog'ganda", ,,tuyaning dumi yerga tekkanda"). ikkinchidan, qissa, masal ma'nolarini bildiradi.

Matal -muayyan hayotiy hodisani aniq va to‘g‘ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora. Matallarda o‘xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so‘z kabi badiiy vositalardan foydalaniladi. Majoziy iboraning o‘z asl ma’nosi bilan ko‘chma ma’nosi o‘rtasida yaqinlik, mantiqiy bog‘lanish bo‘lishi lozim. Matallar bir yoki bir necha jumladan tuziladi, ular orasida qofiyalanish hamisha ham saqlanmaydi. Masalan;

"***Shamol bo‘lmasa, daraxtning shoxi qimirlamas***", "***Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit***" va boshqalar [4].

Matallar esa so’zlovchi nutqining biron muhim qismi sifatida ishlatiladi. Matallarni alohida qo’llash mumkin bo’lmaydi, chunki ular mazmunan tugal fikr anglatmaydi [6, ikromova 437p].

Fransuz tilida Matallar “Dictons” deb tarjima qilinadi. Mattalarni o’rganish jarayonida turli mavzulardagi misollarni uchratishimiz mumkin. Hayot haqida, mehnat haqida, dangasalik haqida, ichkiliklar haqida, o’lim haqida, qishloq xo’jaligi, ob -havo, yil fasl oylariga atalgan mattallar mavjud. Quyidagi fransuz xalq matallarida namunalaridan o’zbek xalq matal ekvivalentlari yordamida ko’rib chiqamiz.

« À qui se lève matin, Dieu aide et prête la main » bu matalni so’zma-so’z tarjima qiladigan bo’lsak “*Ertalab turganlarga Xudo yordam beradi, qo'l uzatadi***”** o’zbekcha ekvivalentlaridan ***“Tongda baraka bor”*** yoki *“**Alloh erta turgan isnonning rizqini ko’paytiradi**”* mataliga to’gri keladi. Darhaqiqat, erta turgan insonning vaqtida va ishida baraka bo’ladi deydilar. Ham jismoniy ham ruhiy tetiklikni his qiladi. Qolaversa, uzoq umr ko’ruvchilarning aksariyati erta turuvchi insonlar ekanligi aniqlangan.

« Assez tôt se fait, ce qui est bien fait » o’zbek xalq og’zaki ijodiga murojaat qilsak “ ***Kim chaqqon va tez harakat qilsa, yutuq o‘shaniki bo‘ladi”*** degan iboraga tog’ri keladi. Bunda, inson qancha tez harakat qilsa, o’ziga topshirilgan ishni o’z vaqtida qilsa, maqsadiga tezroq erishish mumkinligini anglashiladi.

« Après grand dommage, chacun est plus sage » o’zbekcha tarjimasida « ***Sutdan og’zi kuygan, qatiqni ham puflab ichar*** » ma’nosida mos keladi. Bu bizda maqol sifatida keladi. Ayrim ma’lumotlarga ko’ra maqol va matallar birga keladi. Bu haqida bir maqolamizda oydinlik kiritib o’tgandik unda shunday deyiladi: « *Hatto, ba’zi hollarda maqol bilan matalning almashgan holda qo’llanishini uchratganlar. Matallarning asosiy vazifasi so’zlovchi nutqining ta’sirchanligini oshiradi, ya’ni shaklan go’zallashtiradi. Ammo maqol bilan matalning o’ziga xosjihatlari borki, ularni doim bir-biridan farqlab olish mumkin. Ayni paytda xalq maqollari mazmun jihatdan tugal fikrga ega bo’ladi va ular alohida qo’llanilsa ham ma’no anglatadi. Matallar esa so’zlovchi nutqining biron muhim qismi sifatida ishlatiladi. Matallarni alohida qo’llash mumkin bo’lmaydi, chunki ular mazmunan tugal fikr anglatmaydi”.*

Endi biz fransuz xalq matallariga murojaat qilganimizda xuddi shunda holga duch kelamiz, ya’ni ba’zi ma’lumotlarda maqollar va ba’zi o’rinlarda matallar deb yozilganini uchratamiz. Demak, o’zbek xalq maqollari va matallarida ham shunday vaziyatlar mavjud. Xalq orasida kimdir maqol deb aytsa kimdir matal deb nomlaydi. Misol uchun: “***Har kim o’z yurtida shohdir***” mataliga diqqatimizni qaratsak. Bu matal ham ayrim manbalarda maqol deb yoziladi. Frnasuz tilidagi varianti esa “***« En toute saison, chacun est roi en sa maison »*** so’zma so’z tarjima qilsak ***« Har mavsumda har kim o'z uyida shohdir ».*** Aytib o’tganimizdek, bu matal soz’lovchi nutqining davomi hisoblanadi. Keyingi namunalarga e’tiborimizni qaratsak:

« *Mort du louveteau, longue vie pour l'agneau* *» so’zma so’z tarjimasi «* ***Bo’ri bolasining o'limi, qo'zichoq uchun uzoq umr****» bu matal esa o’zbekcha muqobilida maqolga to’gri keladi. Ya’ni «* ***Qassobga yog’ qayg’u, echkiga jon qayg’u*** *». Endi bir qator fransuz xalq matalarini o’zbekcha ekvivalentlari bilan tanishib o’tsak :*

« Qui sème bon grain, récolte bon pain ». So’zma-so’z tarjimasi « *Kim yaxshi don eksa, yaxshi non teradi »* o’zbek maqollaridan « ***Vaqtida ekkan vaqtida o‘radi*** » ekvivalentiga tog’ri keladi.

« ***Mieux vaut emprunter du vin, à sa vigne qu'à son voisin*** ». So’zma-so’z tarjimasi « *Qo‘shnidan qarzga sharob olgandan ko‘ra, o‘z uzumzoridan olgan ma’qul* ». Bu matalni o’zbekcha « ***Minnatli oshdan beminnat musht yaxshi*** » maqoliga mos keladi.

Matallarning turli mavzular va ularning belgilari bilan bog’liq holda aytilganini guvohi bo’lamiz. Va albatta, bu belgilar orqali insonlarga tanbeh, yoki ogohlantirish beriladi. Tog’lar haqidagi ushbu matalning « ***Nulle montagne sans vallée »***. So’zma- so’z tarjimasi «***Vodiysiz tog' bo'lmas*** ». Demak, barcha tog’larning o’z vodiysi bor. Vodiysiz tog’ yo’q deyilmoqda. O’zbek tilidagi bunga o’xshash « ***Guruch kurmaksiz bo‘lmas »*** maqoli bunga to’g’ri keladi. O’z ma’nosida rostan ham guruch kurmaksiz bo’lmas. Ammo ko’chma ma’noda kelsa har ishda kamchilik bor yoki har bir inson mukammal emasligiga o’xshatmadir.

« ***Qui a peur de la mer, reste les pieds sur terre »*** [5] Bu matal dengiz bilan bog’liq yaratilgan. Chunki Fransiyada dengizlarning borligi uchun xalq orasida shunday matallar yaratilgan. So’zma-so’z tarjimasi « ***Kim dengizdan qo'rqsa, oyog’i yerda qoladi*** », ya’ni har bir xalqning o’ziga xos tabiat hodisalari mavjud. Bu bilan dengizdan qo’rqmasligi dengiz bilan bog’liq hodisalarga tayyorgarlik ko’rishi haqida

aytilmoqda. Bu matalning o'zbekcha varianti *«**Chumchuqdan qo'rqqan bug'doy ekmas**»* maqoliga mos keladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodi bo'lgan maqollar va matallar har bir xalqning o'zligini anglatuvchi madaniy merosidir. Mazkur maqolamiz ikki til-o'zbek va fransuz tillaridagi maqol va matallarining ekvivalentlarini qiyoslash, chog'ishtirish orqali o'rganishdan iborat. Bundan maqsad, bu ikki xalqning xalq og'zaki ijodiga nazar tashlash, va ularda aks etgan mentalitet va milliylikni ochib berish edi. Pand-nasihat, ibratlilik kabi jihatlarni o'z ichiga olgan maqollarning ko'chma va o'z ma'nolarida ko'rib chiqildi. Maqolada ikki tilning maqollari va matallarining tarjima jarayonida uchragan qiyinchiliklar va qiyoslashning o'ziga xos afzalliklari tahlil qilindi. Shuningdek, tarjima qilishda o'zbek xalq og'zaki ijodiga va tilshunos olimlarning asarlariga murojaat qilindi. Maqolaga nazar tashlasak, bunda fransuz xalq maqollari va matallarining o'zbek tilidagi ekvivalentlari topib tahlil qilindi.

ADABIYOTLAR:

1. *Shavkat Mirziyoyev: «Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi». //Blog "xabar.uz"- [elektron resurs].- kirish sayti: URL: https://xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va (sanasi 07.08.2018).*

2. *Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi //«Mumtoz so'z», 2010. – b. 65.*

3. *Alliteratsiya va assonans o'rtasidagi farq. //Blog « Maywoodcuesd » [elektron resurs]. –kirih sayti : URL: https://uz.maywoodcuesd.org/difference-between-alliteration-and-assonance-9490 (sana 26 Iyul 2021)*

5. Mirzayev T. Musoqulov A. Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari //«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi Bosh tahririyati, 2005. – b. 122

6. Til ijtimoiy, doim o`zgarib, rivojlanib turuvchi hodisadir. // Blog "Tilshunoslik fani, uning vazifalari"- [elektron resurs].- kirish sayti: URL: https://muhaz.org/reja-tilshunoslik-fani-uning-vazifalari.html (sana 15.12.2022)

7. *Xolova Sh.D.Mehnat haqidagi fransuz va o'zbek maqollarida lingvomadaniy birliklarning ifodalanishi. // " England" modern psychology and pedagogy: Problems and solution. 2023/4/18. – pp. 1-6*

8. Sylvie Moy. 100 proverbes français et leurs significations. // « Édité par Franc Parler » Février 2012 – Sénas. –pp. 1-9

9. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi //«Mumtoz so'z», 2010. – b. 8.

10. Королева Екатерина. Азарова Елена Викторовна. Структурно-семантическая классификация эквивалентных пословиц, поговорок и афоризмов русского и французского языков.// "Омск" 2013 – с. 10

10. Matal // Blog "Vikipediya" [elektron sayt] - kirish sayti: URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Matal (28-may 2023)

11. Les dictons français sur la vie par thèmes.// Blog "Mon-poeme.fr" [elektron sayt] - kirish sayti: URL: https://www.mon-poeme.fr/dictons-francais-dicton/ (Copyright © 2023 - Tous droits réservés)

12. Ikromova L.B, Nabiyeva Z. Rasulova M. "The similarities and differences of proverbs with other genres". Scopus. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 06, 2020 ISSN: 1475-7192 https://www.psychosocial.com/article-category/issue-6/

13. Khayotovna, A. G. (2023). The Representation of the Limited Lexicon in French Language in Works of Art. International journal of language learning and applied linguistics, 2(3), 99-102. Akhmedova Gulnoza Hayot Qizi. (2022). Literary language and classification of functional styles in French. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 8, 19–22. Retrieved from https://www.zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/1531

14. Scientific and theoretical views about the description of the notion frame in linguistics Lola Ikromova https://ijpsat.ijsht-journals.org/index.php/ijpsat/article/view/3147

15. Nasimova, F. (2023).Termin va uning o'ziga xos xususiyatlari. центр научных публикаций (buxdu.Uz),42(42).извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10982

16. Икромова, Л. (2021). Тилшуносликда фрейм тушунчасини тавсифлашга оид илмий ва назарий карашлар. Илмий нашрлар маркази (buxdu.Uz), 1(1) http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1240.

UO‘K 81

ENSIKLOPEDIK LUG‘AT MAQOLASINING O‘ZIGA XOSLIGI

Rustamova Dilrabohon,
Andijon davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada lug‘at maqolasi mazmuni va tuzilishi, mazkur nashrning terminologik lug‘at emas, balki ensiklopediya xususiyatini aks ettishi yoritilgan.*

Ensiklopedik lug‘atlar, ensiklopedik lug‘at maqolalarining umumiy tavsifiy maqola; ma’lumotnoma-maqola; izoh-maqola, havola-maqola kabi ko‘rinishlari farqlanadi. Ensiklopedik lug‘at hajmining parametri; lingvistik ensiklopediyalar, lingvistik lug‘at va ensiklopediya orasidagi farq, lingvistika soha(fan)lari, yo‘nalishlari, yozuv turlari haqidagi lug‘at maqolasining o‘ziga xos xususiyati haqida so‘z yuritiladi.

Shuningdek, lingvistik lug‘at atama lug‘at maqolasi ta’rif/izoh; terminning etimologiyasi va tarixi; sinonim va antonimlari; illyustrativ misol; aloqador terminlar kabi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi, ideografik lug‘at maqolasida sarlavhali terminning aksentologik va qisqacha grammatik tavsifi; atamalarning xorijiy til(lar)dagi ekvivalenti haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *ensiklopediya, ensiklopedik lug‘at, termin, lingvistik lug‘at, sinonim, antonim, illyustrativ misol; predlog, olmosh, bog‘lovchi, so‘zning mantiqiy sharhi, fan, texnika, san’at, xarita, reja, sxema, chizma (tarh), rasm, fotosurat, portret, faksimil, tanga, bayroq.*

СВОЕОБРАЗИЕ СТАТЬИ В ЭНЦИКЛОПЕДИЧЕСКОМ СЛОВАРЕ

Аннотация. *В данной статье высказывается мнение о содержании и структуре статьи в словаре, которая не является терминологическим словарем, а скорее отражает характеристики энциклопедии.*

Энциклопедические словари различаются по формам статей: общее описание статей энциклопедического словаря; информационно-статьевая статья; комментарий-статья, ссылочная статья и т. д. Говорится о параметрах объёма энциклопедического словаря; разнице между лингвистическими энциклопедиями, лингвистическими словарями и энциклопедиями; о характеристиках лингвистической статьи о словаре, таких как область (наука) лингвистики, направления, типы письменности.

Кроме того, в статье о лингвистическом словаре упоминаются определение/комментарий; этимология и история термина; синонимы и антонимы; иллюстративные примеры; соответствующие термины, такие как акцентологическое и краткое грамматическое описание слова в идеографической статье; эквивалент на иностранных языках для терминов.

Ключевые слова: *энциклопедия, энциклопедический словарь, термин, лингвистический словарь, синоним, антоним, иллюстративный пример; предлог, прилагательное, существительное, логическое объяснение слова, наука, техника, искусство, карта, план, схема, чертёж, рисунок, фотография, портрет, факсимильный, монета, флаг.*

THE UNIQUE CHARACTERISTICS OF THE ENCYCLOPEDIC DICTIONARY ARTICLE

Abstract. *This article discusses the content and structure of a dictionary article, emphasizing that it is not a terminological dictionary but rather reflects the characteristics of an encyclopedia.*

Encyclopedic dictionaries differentiate in their article forms, such as general descriptive articles, informational articles, explanatory articles, and reference articles. The parameters of an encyclopedic dictionary volume are mentioned, as well as the differences between linguistic encyclopedias, linguistic dictionaries, and encyclopedias. The article also addresses the unique features of a dictionary article on the field(s) of linguistics, its directions, types of writing, and linguistic encyclopedias.

Furthermore, it discusses the definition/explanation of a linguistic dictionary article, the etymology and history of terms, synonyms and antonyms, illustrative examples, and related terms. In the ideographic

dictionary article, it mentions the accentological and brief grammatical description of a headline term, as well as the equivalents of terms in foreign languages.

Key words: *encyclopedia, encyclopedic dictionary, term, linguistic dictionary, synonym, antonym, illustrative example; preposition, adjective, verb, logical explanation of a word, science, technology, art, map, plan, scheme, drawing (draft), picture, photograph, portrait, facsimile, coin, flag.*

Kirish. Ensiklopediya (grek. – butun olam bilimini o‘rganish), ilmiy va ilmiy-ommabop ma’lumotnoma nashr bo‘lib, fan, kasb-hunarning barcha (universal) yoki ayrim sohalar (sohaviy) bo‘yicha nisbatan keng axborotni qamrab oladi. Ensiklopediya ma’lumotlari tabiat va jamiyat haqida bo‘ladi. Ular fanning ma’lum davrdagi taraqqiyot darajasini ko‘rsatish bilan birga, ideologik ahamiyat ham kasb etadi: o‘zi tuzilgan jamiyat mafkurasini qo‘llab-quvvatlaydi **[15].** Ensiklopedik lug‘atlarda predmet, hodisa, tushunchalar, lingvistik ensiklopediyalarda esa predmet, hodisa va tushunchalar so‘zlar haqida ma’lumotlar beriladi. Ensiklopedik lug‘atlar ikki turga: universal («Краткая российская энциклопедия», «Детская энциклопедия», «Большой энциклопедический словарь школьника») va sohaviy ensiklopediyalarga («Русский язык», «Энциклопедический словарь юного филолога», энциклопедический словарь ») bo‘linadi.

Lingvistik lug‘at va ensiklopediya orasidagi aniq farq lug‘at maqolasining bosh so‘zlarini qiyoslashda ko‘rinadi **[16].** Ensiklopediyalardan mashhur shaxslar, ma’lum bir fan sohasi haqidagi umumiy tasavvur beruvchi, turli voqealar haqida ma’lumotlar o‘rin oladi **[17].**

Tuzilishiga ko‘ra ensiklopediyalar alifboli (ensiklopediya materiali alifbo tarzida joylashadi) va sistematik turlarga bo‘linadi. Hajmiga ko‘ra katta (bir necha o‘nlab tomlardan iborat), kichik (10-12 tomli), qisqa (4-6) hamda, odatda, “ensiklopedik lug‘at” deb nomlanuvchi 1-3 tomli turlarga bo‘linadi. Har bir ensiklopediya (turli sohalarga oid materiallar beruvchi) maxsus ishlab chiqilgan mundarija hamda so‘zlik (lug‘at maqolalarini tashkil etuvchi terminlarning to‘liq ro‘yxati)ga ega bo‘ladi **[18].**

Manbalarda ensiklopedik lug‘at maqolalarining umumiy tavsifiy maqola; ma’lumotnoma-maqola; izoh-maqola (faqat izoh, agar boshqa tildan o‘zlashgan bo‘lsa, etimologiyasi beriladi); havola-maqola (boshqa terminga havola beruvchi maqola) kabi ko‘rinishlari farqlanadi. Birinchi va ikkinchi turdagi lug‘at maqolasi bir-biridan hajmi bilan farqlanadi; ular ensiklopedik lug‘atni ajratib turuvchi xususiyat bo‘lib, odatda, ilmiy nazariya tavsifi, tarixiy voqea, geografik, biografik, statistik ma’lumotlar kabi muammolarni yoritadi. Yanada ko‘proq ma’lumot olish uchun lug‘at maqolasi oxiridagi adabiyotga, tom oxiridagi adabiyotlar ro‘yxatiga yoki maxsus “bibliografik” tomga havola beriladi **[19].**

Asosiy qism. Ensiklopediyalarda illyustrativ materiallar: xarita, reja, sxema, chizma (tarh), rasm, fotosurat, portret, faksimil, tanga va bayroqlar rasmi hajm va mazmun jihatdan ahamiyatli o‘rinni egallaydi. Ko‘p jildli ensiklopediyalar yordamchi ko‘rsatkichlar bilan ta’minlangan bo‘ladi.

Jahonda XX asr o‘rtalarida ilmiy-texnik inqilob natijasida fan va kasb-hunar sohalarining terminlar so‘zligi ro‘yxatining oshishi ensiklopediyalarni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqishga turtki bo‘ldi. Buning oqibatida, ensiklopedik lug‘at maqolasi hajmi kichraya boshladi, qayta nashrlar, ensiklopedik materialni yangilash (to‘ldirish)ga ijtimoyi ehtiyoj tug‘ildi va shu tendensiyaga amal qilindi. “Ежегодник” deb nomlanuvchi qayta nashr etiluvchi ensiklopediyalar bibliografik ro‘yxatning mazmuni va soni ko‘payishi evaziga boyitildi. Ensiklopediyalarga ehtiyoj ko‘payib, ularning o‘quvchilari auditoriyasi kengaydi, ensiklopediyalar “keng kitobxonlar ommasiga” mo‘ljallanib nashr etildi. Qalin emas, yumshoq muqovali, shrifti kichrayish evaziga hajmi kamaygan, hamyonbop ensiklopediyalarning ko‘payishi kitobxonlarning ensiklopediyalardan keng foydalanishiga olib keldi **[6].**

O.V.Korobeynikovaning fikriga ko‘ra, ensiklopedik lug‘atlar narsa, predmet, voqea, hodisani so‘z sifatida emas, balki o‘zini tavsiflaydi. Aynan shuning uchun ensiklopedik lug‘atlarda predlog, olmosh, bog‘lovchi, yuklamalarni uchratmaymiz, ba’zi hollarda fe’l, sifat va ravish turkumiga mansub so‘zlar kelishi mumkin **[1].** Ensiklopediyalar akademik leksikografiyada bo‘lgani kabi mualliflik leksikografiyasiga ham tegishli. Mualliflik leksikografiyasi 1887- yilda paydo bo‘lgan. Dante, Shekspir, Betxoven, Gyote, Alisher Navoiy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Boburga bag‘ishlangan ensiklopediyalar mavjud **[2].** Bunday nashrlarning haqiqatda ensiklopedik xarakterga ega ekanligi yoki ensiklopediya deb baholanishi ko‘p vaqt leksikograflar bahsiga sabab bo‘ldi. Masalan, J.Xeyman “Словари и энциклопедии” nomli asarida bu ikki leksikografik mahsulotning 5 ta aniq farqini ko‘rsatadi:

1) ensiklopediya so‘zni ekstralingvistik voqelik bilan, lug‘at esa boshqa so‘zlar bilan bog‘liqligi nuqtayi nazaridan tavsiflaydi;

2) lug‘at va ensiklopediya bir xil tushunchalarni turli xil ta’riflaydi: ensiklopediyada “yorug‘lik”, “tun”, “yuqoriga”, “pastga” so‘zlarini ilmiy jihatdan ta’riflasa, lug‘atda ular kundalik muloqotdagi tushuncha sifatida izohlangan;

3) ensiklopedik ma’lumotlar katta hajmga ega bo‘lsa, lug‘at faqat eng kerakli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi;

4) lug‘at so‘zning semantikasini (belgi va ma’no o‘rtasidagi munosabatni) aks ettiradi, ensiklopediyada qo‘shimcha ravishda so‘zning pragmatikasini ko‘rsatadi (belgi va undan foydalanuvchi shaxslar o‘rtasidagi munosabat);

5) lug‘atdan farqli ravishda ensiklopediyada atoqli otlar ham tavsiflanadi **[3].**

Yuqorida aytilgan farqlar nisbiy, chunki ba’zan bu ikki leksikografik mahsulot orasidagi farq sezilmay qoladi. V.V.Dubichinskiyning fikriga ko‘ra, hamma lug‘atda ham ma’lum ma’noda ensiklopedik xarakterdagi ma’lumot saqlanadi. Hatto, bugungi kunga kelib, lug‘atlarda ensiklopedik xarakter kuchaymoqda [4]. I.G.Olshanskiyнинг yondashuviga ko‘ra, leksikografiya uchun ideal holat bu ensiklopedik, etnolingvistik, madaniyatga oid axborotlarni qamrab olgan izohli ensiklopedik lug‘atdir **[5].** N.Z.Kotelova esa “ensiklopediya lug‘at emas, uning leksikografiyaga aloqasi yo‘q. Uni lug‘at deb ҳисоблашга асос бўлувчи yagona belgi undagi birliklarning alifbo tartibida joylashuvidir” degan fikrni yoqlaydi [6].

Ensiklopediya va lug‘atlarni farqlashga oid munozaralar davom etmoqda. Masalan, so‘zning mantiqiy sharhi bilan so‘z ma’nosining izohi orasida chegara qo‘yishning o‘zi oson ish emas. So‘z ma’nosi va u anglatgan predmet ma’nosini farqlab tavsiflash ham shunday muammolar sirasiga kiradi. J. Xeyman esa lug‘at va ensiklopediya haqidagi an’anaviy tafovutlar haqidagi tasavvurimizni o‘zgartiradi: uning fikriga ko‘ra, ensiklopediya bu lug‘atdir. Ko‘rinadiki, ko‘p olimlar ensiklopediya va lug‘at orasida farq haqida turli fikrda.

O.V.Korobeynikovaning fikriga ko‘ra, zamonaviy xorijiy leksikografiyada izohli lug‘atlarini ensiklopediyaga aylantirish tendensiyasi mavjud bo‘lib, ta’kidlash kerakki, bu yondashuv dastlab Amerika lug‘atchiligiga xos edi **[7].** L.P.Stupinning yozishicha, AQSHda nashr etilgan lug‘atlar Buyuk Britaniyadagi lug‘atlardan ikki jihat bilan farqlanadi. Bu xususiyat 1934 -yilda nashr etilgan Vebster izohli lug‘atiga ham xos. Birinchidan, ensiklopediyalar fan, tenika, san’at va maxsus soha terminologiyasini qamrab oladi; ikkinchidan, lug‘at katta hajmdagi atoqli otlar: mashhur tarixiy shaxslar, san’at arboblari, shoir, yozuvchilar, amaldagi yozuvchi, rassom, san’atkorlarning ism, familiya va taxalluslari; geografik nomlari, ko‘cha va maydon nomlarini qamrab oladi. Bunday ikki turdagi leksik qatlam ensiklopediyalar va maxsus lug‘atlarning so‘zliklari ro‘yxatini tashkil etadi. Masalan, Vebster lug‘atida filologik izohlar (so‘zning semantikasi) bilan birga ensiklopedik ma’lumotlarga ham o‘rin ajratilgan.

G.Bejuanning ta’kidlashiga ko‘ra, ko‘pgina Amerika umumiy tipdagi lug‘atlari (*general-purpose dictionaries*) u yoki bu darajada ensiklopediyalarga xos bo‘lgan makrostrukturaga ega. Amerika lug‘atlarining ensiklopedik xususiyat kasb etishi lug‘atlarda atoqli otlarning so‘zlik ro‘yxatiga kiritishdan boshlab ensiklopedik (*encyclopedic-type definitions*) ma’lumotlargacha bo‘lishi bilan izohlanadi **[8].** Keyinchalik izohli lug‘atlarga ensiklopedik ma’lumotlarni qo‘shish Britaniya leksikografik industriyasiga ham kirib keldi. Masalan, Longman Dictionary of English Language and Culture, Collins Concise English Dictionary, Collins COBUILD English Dictionary, Longman Dictionary of the English Language kabi lug‘atlarga gazeta va jurnal nomlari, tashkilot, kompaniya, bank va magazin nomlaridan boshlab mashhurlar biografiyasigacha turli xildagi ensiklopedik ma’lumotlar kiritilgan.

V.G.Gakning fikriga qaraganda, nazariy va amaliy leksikografiyaning rivojlanishining hozirgi bosqichida lingvistik va ensiklopedik lug‘at xususiyatlarini birlashtirish tobora tabiiy jarayon sifatida qabul qilinmoqda **[9].** Bizningcha, zarur ekstralingvistik ma’lumotlarning izohli lug‘atda aks etishi lug‘at maqolasining axborot imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, lug‘atshunoslik nazariyasida ensiklopedik va lingvistik lug‘atlar bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilsa-da, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida ko‘plab izohli lug‘atlar leksik materialni tanlashda, keng qamrovli ensiklopedik ma’lumotlarni tanlashni kiritish bilan qat’iy lingvistik tamoyillardan tashqariga chiqadi.

Leksikografik amaliyotda aralash tipdagi izohli-ensiklopedik lug‘atlarning ko‘plab namunalari mavjud bo‘lib, O.M.Karpovaning yozishicha, bu tpidagi lug‘atlar so‘nggi paytlarda ko‘plab ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda, ayniqsa, Angliyada “native speaker” tushunchasining o‘zgarishi bilan paydo bo‘lgan [**10].**Tadqiqotchi bu jarayonni so‘nggi 20-25 yilda boshqa mamlakatlardan ko‘plab migrantlarning ko‘chib kelishi, migratsiya jarayonlari bilan bog‘laydi. Ular uchun ingliz jamiyatining hozirgi kungacha bo‘lgan ko‘plab realiyalari tushunarsiz. Shuning uchun ko‘pgina zamonaviy ingliz lug‘atlarining mualliflari

izohli-ensiklopedik tavsifga murojaat qilishadi, natijada, lug‘atlarning izohli-ensiklopedik yo‘nalishini kuchayadi **[20].**

Rus leksikografiyasida turli xildagi lug‘at va spravochniklar yaratishda katta tajriba to‘plagan. Nazariy jihatdan qaraganda, lug‘atning qaysi turga mansub ekanligi mazkur lug‘atning bosh so‘z sanalgan so‘zlar ro‘yxati – so‘zlik haqidagi ma’lumotlar bilan belgilanadi. Amalda esa lug‘atlarni aniq tasniflash va turlariga qarab ular orasiga chegara qo‘yish nisbatan murakkab. Ma’lumotnoma (справочник) tipidagi lug‘atlarning ikki turi mavjud: bu til haqidagi bilimlarni o‘z ichiga olgan filologik lug‘atlar va dunyo haqidagi bilimlarni qamrab olgan ensiklopedik spravochniklardir.

Filologik (lingvistik) lug‘atlarni tavsiflashning asosiy obyekti til birliklaridir. Filologik turdagi lug‘atlar odamlarning nutqiy faoliyatida foydalanadigan lisoniy vositalar borasidagi ma’lumotlarni saqlaydi. Bunday lug‘atning ensiklopedik lug‘atdan asosiy farqi o‘quvchiga so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish, yozma nutqning to‘g‘ri va ravon bo‘lishiga erishish, boshqalar tomonidan yozilgan matnni to‘g‘ri tushunishga yordam beradigan ma’lumotlarni beradi. Lisoniy ma’lumotlarni qamrab olgan spravochniklardan foydalanish kishiga nutqiy ko‘nikmalarning shakllantirishga yordam beradi.

Ensiklopedik spravochniklarning asosiy obyekti mustaqil so‘z, so‘z birikma, mazkur tushuncha bilan bog‘liq olam va shaxs haqidagi bilim (ma’lumot)lardir. Demak, ensiklopediya va spravochniklarda tilga oid bo‘lmagan voqeliklar xarakterlanadi: ya’ni predmet va narsalar haqidagi bilimlarimiz, tabiat va jamiyat hodisalariga oid tushunchalar bayon qilinadi, kishilarning tarjimayi holi keltiriladi, muhim voqealar haqida ma’lumotlar beriladi, tarixiy sanalar ko‘rsatiladi. Ushbu turdagi lug‘atlar atrofimizdagi olam haqidagi to‘plamdir.

Bu tipdagi nashrlarning turli guruhini maxsus lug‘at maqolalarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarning turi va sifatini aniqlaydigan qo‘shimcha xususiyatlar bilan tavsiflash mumkin. Spravochniklar bir necha parametr asosida farqlanadi. Bu parametrlar bir lug‘atda birlashishi yoki boshqa lug‘atlardan farqini ko‘rsatib turishi mumkin. Ensiklopediyalar tavsif obyekti, so‘zlik hajmi, so‘zlarni tanlash tamoyillari, so‘zlikning mavzuviy doirasi, lug‘at birliklarining joylashuviga, ularning mo‘ljallangan auditoriyasiga qarab turli xil bo‘lishi tabiiy.

Ensiklopedik tipdagi spravochniklarning tavsif obyekti nolisoniy voqelik bo‘lib, masalan, lingvistik ensiklopedik lug‘at dunyo tillari haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi, ular ma’lum bir tilga, tillar guruhi yoki barcha tillarga xos xususiyat, hodisalarni aks ettiruvchi maxsus tushuncha/atamalar bilan belgilanadi.

Ensiklopedik lug‘at hajmining parametri lug‘atning miqdoriy tarkibini emas, balki uning sifatini belgilaydi. Demak, kichik hajmli ensiklopediyalarda so‘zlar soni kam emas, balki lug‘at tavsifi obyekti uchun eng zarur bo‘lgan, minimal miqdordagi lug‘at birliklari mavjud. O‘rta hajmli ensiklopediyalar lug‘atning shunday miqdoriy tarkibini o‘z ichiga oladi, uning yordamida lug‘at tavsifi obyektiga mos keladigan lisoniy birliklarning asosiy qismi tavsiflanadi. Katta hajmli ensiklopediyalar lug‘at tarkibini tashkil etuvchi lug‘aviy birliklarining (imkoni boricha) eng katta hajmni qamrab oladi, bu akademik ensiklopediyalarga xos holatdir.

Ensiklopediyaga so‘zlik tanlash tamoyillariga ko‘ra, ensiklopedik bilimlar to‘plamidan iborat ensiklopediyalar (1) va ma’lum bir sohaga oid maxsus leksikadan tashkil topgan ensiklopediyalarga bo‘linadi. Shunga ko‘ra, ensiklopediyalarning mavzuviy ko‘lami so‘zlikni tanlash tamoyillari bo‘yicha universal va ixtisoslashgan turga ajratiladi. Lug‘atning qanday ommaga mo‘ljallangani ensiklopediyaning muhim parametridan sanaladi.

Lug‘at mo‘ljallangan auditoriya har qanday lug‘atning annotatsiyasida ko‘rsatilishi talab etiladi. Ensiklopediyaning ko‘plab parametrlari mazkur nashr mo‘ljallangan o‘quvchilar toifasi(qatlami)ga bog‘liq. Spravochniklar, odatda, o‘z ona tili olamni o‘zlashtirish yoki chuqur o‘rganish uchun, shu bilan birga mazkur til xorijiy til sanalgan kitobxonlar uchun mo‘ljallanadi [21].

Ensiklopedik lug‘atlarning xususiyatini yanada chuqurroq izohlash maqsadida ayrim ensiklopediyalarning makro va mikro strukturasini tahlil qilamiz.

Ensiklopediyalar orasida “Lingvistik ensiklopedik lug‘at” [22] e’tiborimizni tortdi. Mazkur ensiklopediya alohida soha – lingvistikaga bag‘ishlangan. Undagi tushuncha(termin)lar lingvistika, dunyo tillari va tilshunoslik bilan bog‘liq soha terminlariga oid. A.S.Gerd lingvistik ensiklopediyaga yozgan taqrizida bu ensiklopediyaning lug‘at maqolalari haqida shunday yozadi: “Alohida tillar va til oilalari haqida yozilgan maqolalar juda muvaffaqiyatli chiqqan. Bu tavsiflardagi metatil keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan va ular uchun tushunarli. Har bir lug‘at maqolasida uning tipik xususiyatini bildiruvchi (alohida e’tiborga molik jihati) qo‘yilgan, keyin uning areali ko‘rsatilgan, o‘sha tilda gapiruvchilar soni, mazkur til shevalari, struktur xususiyatlari va o‘ziga xosligi, adabiy til va sheva munosabati, yozuvi hamda adabiy tili haqida ma’lumot keltirilgan” [14]. A.S.Gerd bu kabi lug‘at maqolalarini ta’riflar ekan, bu

xususiyatlarni mazkur lug‘at maqolasining ijobiy sifati xususida ko‘rsatadi. Bundan ko‘rinadiki, til va til oilalari haqidagi lug‘at maqolasining tuzilishini shunday shakllantirish mumkin (ishning keyingi o‘rinlarida shu ma’lumotlar asosida lug‘at maqolasi strukturasini loyihalashtiramiz).

Yuqorida lug‘at maqolasi mazmuni va tuzilishi haqida aytilgan fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, mazkur nashr terminologik lug‘at emas, balki ensiklopediya xususiyatini aks ettiradi, chunki ma’lumotlari termin/ tushunchani izohlashga emas, balki ensiklopedik axborot bilan ta’minlashga qaratilgan.

Lingvistika soha(fan)lari, yo‘nalishlari, yozuv turlari haqidagi lug‘at maqolasining o‘ziga xos xususiyati haqida: “bunday maqolalar mantiqiylik va aniqlik tamoyiiga asoslangan”ligini ta’kidlaydi. “Bir qarashda ЛЭС (Лингвистический энциклопедический словарь) ikki qismga: tillar va asosiy nazariy tushunchalar lug‘atiga bo‘lingandek tuyuladi. Ammo bu ziddiyat faqat zohiriy bir belgi. Birinchidan, tillar haqidagi lug‘at maqolalari ham lingvistik terminlar va ularning izohi bilan boyitilgan. Ikkinchidan, bu ikki qismni bog‘lab turuvchi narsa bu tillarning tarixi, fanlar (germanshunoslik, slavyanshunoslik, fin-ugorshunoslik) va tilshunoslik taxiridir”. A.S.Gerdning fikricha, lug‘at maqolalarining umumiy alifbo tartibini qulay, to‘g‘ri deb hisoblash maqsadga muvofiq. Umuman, lug‘atda asosiy va turlangan terminlar, ularning sinonimlari va transkripsiyasi keltirilgan. Har bir lug‘at maqolasi bibliografiya bilan ta’minlangan [16].

Boshqa bir ensiklopediyaning xususiyatlarini tahlil qilsak, uning farqli va o‘xshash tomonlari ochiladi. Fizik geografiya bo‘yicha to‘rt tilli ensiklopediyadan mazkur fan tarmog‘i hamda shu sohaga yaqin fanlar − geologiya, astronomiyaga oid 5700 ta termin o‘rin olgan. Mazkur terminlar rus va uning analoglari: ingliz, nemis, va fransuz tillaridagi ensiklopedik izohlar bilan boyitilgan. Ensiklopediyada ingliz, nemis, va fransuz tillaridagi alifboli ko‘rsatkich mavjud. Lug‘atning ikkinchi qismida ingliz, nemis, va fransuz tillaridagi ko‘rsatkichning mavjudligi mazkur ensiklopediyaning bir vaqtning o‘zida izohli (chunki ensiklopedik ma’lumotli izohli lug‘at maqolalaridan tashkil topgan) hamda ko‘p tilli tarjima lug‘at sifatida foydalanishga va lug‘atni “ko‘p tilli ensiklopedik-tarjima lug‘at” deb baholashga asos bo‘ladi. Lug‘at maqolasining bosh so‘zi sanalgan, boshqa tillardan o‘zlashgan terminning etimologik xususiyatlari ham yoritilgan. Bu esa kitobxonga terminning qaysi tildan olinganligini bilishga yordam beradi [17].

Demak, *birinchidan,* ko‘p tilli ensiklopediyalarda so‘zlik alifbo tartibida bo‘lgan faqat bitta tildagi so‘zni topish emas, balki alifbo tartibidagi ko‘rsatkich yordamida boshqa tillardagi so‘zlarni ham topib, uning tarjimasini ko‘rish mumkin. *Ikkinchidan,* terminologik lug‘at maqolasida so‘zning etimologiyasi haqida ma’lumot berilsa (agar u o‘zlashma termin bo‘lsa, bu yanada muhim ahamiyat kasb etadi), ensiklopediyadan etimologik lug‘at sifatida foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa ensiklopediyaning ko‘p funksiyaliligini yanada oshiradi. Brokgauz va Efron ensiklopedik lug‘ati («Энциклопеди́ческий слова́рь Брокга́уза и Ефро́на» (аббр.: ЭСБЕ)) rus tilidagi universal ensiklopediya bo‘lib, 1890-1907-yillarda “Ф.А.Брокгауз − И.А.Ефрон” (Peterburg) nashriyot jamiyati tomonidan chop etilgan. Nashr 2 variantda − 41 asosiy va 2 qo‘shimcha jild (tirajning kam qismi) hamda 82 asosiy va 4 qo‘shimcha jild ko‘rinishida amalga oshirilgan. Ensiklopediyada 121 240 maqola, 7800 illyustratsiya va 235 xarita keltirilgan. 1899-1902- yillarda 3 jildli Kichik Brokgauz va Efron ensiklopedik lug‘ati («Ма́лый энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона» (МЭСБЕ)); 1907-1909 -yillarda uning 4 jildli ikkinchi nashri amalga oshirilgan. Demak, jahon tajribasida ensiklopediyalarning keyingi nashrlarida lug‘at maqolalar soni va undagi ma’lumotlar kengaytirilishi uchraydi.

Ensiklopediyaning o‘ziga xosligi. Mazkur ensiklopediyada Rossiya tarixi, fani, ta’limi, sanoati, madaniyati haqidagi ma’lumotlar katta qismni egallagan. Masalan, “Россия” lug‘at maqolasi ikki jildni egallagan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ensiklopediyada ma’lumot hajmiga chegara qo‘yilmaydi. Ma’lum narsa, voqelik/ hodisa haqida ensiklopediya maqsadiga ko‘ra istalgan hajmda maqola bo‘lishi mumkin. Shuningdek, lug‘at maqolalari hajmida o‘zaro mutanosiblik bo‘lishi ham majburiy emas.

Ensiklopediyaning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, ifoda usulining erkinligidir. Belletristika elementlari faqat qiziqarli hikoyalar sanalgan biografik lug‘at maqolalarda emas, balki ilmiy lug‘at maqolalarida ham uchraydi. Chunki lug‘at maqolalarini yozishda sohaga tegishli ko‘plab olimlar to‘plangan hamda har bir olimning o‘z erkin ilmiy uslubi bo‘ladi. Natijada, ensiklopediya ma’lumotlarini ifodalashda qat’iy talabga amal qilishdan chekinishgan, lug‘at maqolalari tarkibi va mazmuni erkin.

O.Vasilyeva, I. Tingayevachlarning fikriga ko‘ra, mazkur ensiklopediyada tarix, san’at, adabiyot kabi mavzulardagi maqolalarda ba’zi hollarda bu usul obyektivlik tamoyilining buzilishi deb baholanadi: mualliflar o‘sha davr uchun umumiy bo‘lgan masalani yoritishda o‘z subyektiv baholarini berganlar. So‘nggi ijtimoiy-antropologik tadqiqotlarda Brokgauz va Efron ensiklopedik lug‘atining Sobiq Sovet ensiklopedik an’analariga ma’lum ta’siri haqida fikr yuritiladi [20].

Demak, *birinchidan,* ensiklopedik lug‘atlar terminlar lug‘atidan lug‘at maqolasi mazmuni va mikrostrukturasining erkinligi bilan farqlanadi. Terminlar lug‘atida mikrostruktura shablon tarzida hamma lug‘at maqolasida takrorlansa (barcha lug‘at maqolalarida bir parametr, unsur bo‘yicha termin baholanadi, izohlanadi), ensiklopedik lug‘atlarda bu tamoyil amal qilmaydi. Lug‘at maqolasi muallifi uslubiga daxl qilinmaydi. *Ikkinchidan,* terminologik lug‘at kam sonli (odatda, bunday lug‘atlarni tuzishda birdan to‘rttagacha muallif ishtirok etadi) mualliflar ishtirok etganligi uchun ularning maqolalari bir uslubga yaqinlashtiriladi hamda lug‘at maqolasi tarkibiy qismlariga talab qo‘yiladi. Chunki lug‘at birliklari – terminlar bir xil parametrlar asosida tavsiflanadi. Ensiklopedik lug‘atlarda mualliflar soni juda ko‘p bo‘lib, lug‘at maqolasi tarkibi erkin bo‘ladi.

Xulosa. Lingvistik lug‘at atama lug‘at maqolasi (1) ta’rif/izoh; (2) terminning etimologiyasi va tarixi; (3) sinonim va antonimlari; (4) illyustrativ misol; (5) aloqador terminlar kabi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ideografik lug‘at maqolasida sarlavhali terminning aksentologik va qisqacha grammatik tavsifi; atamalarning xorijiy til(lar)dagi ekvivalenti; asosiy (yadro) termin tavsifi; atamaning tarjima ekvivalentlari bilan atama sifatida va umumiste’mol leksikadagi valentligini ko‘rsatuvchi ta’rif; terminologik birlikning derivatsion imkoniyatini xorijiy tildagi ekvivalenti bilan tavsiflash; illyustrativ misollar kabi elementlar bo‘ladi. Ensiklopedik lug‘at maqolalarining umumiy tavsifiy maqola; ma’lumotnoma-maqola; izoh-maqola (faqat izoh, agar boshqa tildan o‘zlashgan bo‘lsa, etimologiyasi beriladi); havola-maqola (boshqa terminga havola beruvchi maqola) kabi *ko‘rinishlari* farqlanadi. *Birinchi va ikkinchi turdagi lug‘at maqolasi* bir-biridan hajmi bilan farqlanadi; ular ensiklopedik lug‘atni ajratib turuvchi xususiyat bo‘lib, ilmiy nazariya tavsifi, tarixiy voqea, geografik, biografik, statistik ma’lumotlar kabi muammolarni yoritadi. So‘zni izohlashning grafik, fonetik, grammatik, semantik, struktur va boshqa mezonlari farqlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Коробейникова О.В. Об особенностях толкований в энциклопедических словарях // http://www.rusnauka.com/CCN/Philologia/6_korobeynikova.doc.htm*
2. *Lindsay M. The Burns encyclopedia. − L., 1959; Campbell V.C., Quinn E.A. Shakespeare encyclopedia. − Methuen, 1966.*
3. *Haiman J. Dictionaries and encyclopedias. Lingua 50, 1979. − P. 33.*
4. *Дубичинский В.В. Искусство создания словарей. Конспекты по лексикографии. − Харьков, 1994.*
5. *Ольшанский И.Г. Лингвокультурология в конце XX в.: итоги, тенденции, перспективы // Лингвистические исследования в конце XX в. − М.. 2000. − С. 45-46.*
6. *Котелова Н.З. Семантическая характеристика терминов в словарях. − М., 1976. − С. 33.*
7. *Коробейникова О.В. Об особенностях толкований в энциклопедических словарях // http://www.rusnauka.com/CCN/Philologia/6_korobeynikova.doc.htm*
8. *Béjoint H. Traditions and Innovations in Modern English Dictionaries. − Oxford, 1994.–P. 48-49.*
9. *Гак В.Г. Проблема создания универсального словаря (энциклопедический, культурно-исторический и этнолингвистический аспекты) // Национальная специфика языка и ее отражение в нормативном словаре. − М., 1988.*
10. *Карпова О.М. Библиографический указатель словарей языка английских писателей (XVI – XX вв.). – Иваново, 1993.*
11. *Герд А.С. [Рецензия] // Известия Академии наук СССР. Серия литературы и языка. − М.: Наука, 1991. − Т. 50. № 4. − С. 373-375. − Рец. на кн.: Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н.Ярцева. − М.: Сов. энциклопедия, 1990. − 683 с. (http://tapemark.narod.ru/les/recenzija.html) (Мурожаат санаси: 19.07.2023)*
12. *Герд А.С. [Рецензия] // Известия Академии наук СССР. Серия литературы и языка. − М.: Наука, 1991. − Т. 50. № 4. − С. 373-375. − Рец. на кн.: Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н.Ярцева. − М.: Сов. энциклопедия, 1990. − 683 с. (http://tapemark.narod.ru/les/recenzija.html) (Мурожаат санаси: 19.07.2023)*
13. *Щукин И.С. Четырёхъязычный энциклопедический словарь терминов по физической географии Редактор(ы):Спиридонов А.И. Издание: Советская энциклопедия, Москва, 1979. − 703 с.*
14. *Щукин И.С. Четырёхъязычный энциклопедический словарь терминов по физической географии Редактор(ы):Спиридонов А.И. Издание: Советская энциклопедия, Москва, 1979. − 703 с.*

15. *Васильева О., Тиньгаевач И. Универсальная энциклопедия − репутация одной из лучших в мире: к 125-летию выхода в свет энциклопедического словаря А.Ф.Брокгауза и И.А.Ефрона (Архивная копия от 4 марта 2016 на Wayback Machine) // Центральная библиотечная система города Челябинска, 7 августа 2015.*
16. *https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/126/748.htm*
17. *http://ebooks.grsu.by/pustoshilo_lang/3-printsipy-klassifikatsii-i-tipy-slovarej.htm https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/126/748.htm*
18. *https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/126/748.htm*
19. *https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/126/748.htm*
20. *http://www.rusnauka.com/CCN/Philologia/6_korobeynikova.doc.htm*
21. *https://herzena.ru/index.php/dictionary/type*
22. *http://tapemark.narod.ru/les/recenzija.html*

УДК 81

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ И АНАЛИЗА ПОЛИТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА

Сафарова Махдума Жахонгировна,
докторант Самаркандского государственного института иностранных языков
hasanovnamuxa@gmail.com

Аннотация. *В статье рассматриваются основные особенности политического дискурса, а также методы анализа данного типа речевой деятельности. В качестве современных методов изучения дискурсивных явлений выделяются методы анализа, которые формировались в рамках лингвокультурологического, лингвопрагматического и лингвокогнитивного подходов.*

Ключевые слова: *политический дискурс, лингвопрагматика, социолингвистика, когнитивная цель, культурные ценности, интертекстуальность, дискурсивный анализ, методы.*

SIYOSIY NUTQNI O‘RGANISH VA TAHLIL QILISH USULLARI

Annotatsiya. *Maqolada siyosiy nutqning asosiy xususiyatlari, shuningdek, nutq faoliyatining ushbu turini tahlil qilish usullari ko'rib chiqiladi. Diskursiv hodisalarni o'rganishning zamonaviy usullari sifatida lingvokulturologik, lingvopragmatik va lingvokognitiv yondashuvlar doirasida shakllangan tahlil usullari ta’kidlangan.*

Kalit so'zlar: *siyosiy nutq, lingvopragmatika, sotsiolingvistika, kognitiv maqsad, madaniy qadriyatlar, intertekstuallik, diskurs tahlili, metodlar.*

METHODS OF RESEARCHING AND ANALYSING POLITICAL DISCOURSE

Abstract. *In this article main features of political discourse are studied. Special attention is paid to the productive methods of analyzing this type of linguistic activity. Modern methods of discourse analysis are formed in the frame of pragmalinguistics, linguaculturology and cognitive linguistics.*

Keywords: *political discourse, linguopragmatics, sociolinguistics, cognitive purpose, cultural values, intertextuality, discursive analysis, methods.*

Введение. В настоящее время политический дискурс привлекает к себе внимание учёных разных направлений. Понятие «политический дискурс» представляет собой идеологически значимую форму коммуникации. В широком смысле он понимается как связный устный и письменный текст, обусловленный ситуацией политической коммуникации. Дискурс выступает средством выражения и описания действий, как отдельного человека, так и социальной группы, языковым способом установления и определения их социальных действий в обществе.

В последние годы появилось большое количество исследований, посвящённых изучению отдельных вопросов политического дискурса. Эти исследования выполнены в рамках лингвокультурологического, социолингвистического, лигвокогнитивного и лингвопрагматического подхода.

К примеру, сторонники социолингвистического подхода относят политический дискурс к категории статусно-ориентированной коммуникации, поскольку в его процессе происходит речевое взаимодействие представителей социальных групп друг с другом, с людьми, реализующими свои статусно-ролевые отношения. Целью общения в политическом дискурсе является сохранение и распределение власти (Карасик 2002: 227).

Когнитивный подход подчёркивает связь политической метафоры с речевым мышлением и концептуальной системой человека. Этот подход, несомненно, способствует более полному раскрытию глубинных характеристик политического общения и мышления. Русский учёный А.Н. Баранов подчёркивает, что языку политического дискурса присуща метафоричность, и в условиях, когда публичное слово приобретает повышенную значимость, метафора оказывается для политика инструментом, позволяющим тонко регулировать настроение в обществе (Баранов 1991: 190). Действительно, цель политического дискурса заключается не в простом описании общественного состояния и явления, а в убеждении адресата в правоте своего мнения и слова, а также формировании

в аудитории положительного отношения. Для достижения этой когнитивной цели политик стремится пользоваться риторико-стилистическими возможностями языка.

Основная часть. Некоторые зарубежные исследователи уделяют особое внимание функциональным свойствам политического дискурса. Так, В. Дикманн в своё время пытался определить функцию политического языка следующим образом (Dieckmann 1981: 138): "Beim Adressaten, den Bürgern oder Teilgruppen der Bürger, Zustimmung für politische Ziele, Programme, Massnahmen zu erlangen" (Получение согласия адресата, граждан или подгрупп граждан на осуществление политические целей, программ, мероприятий).

Немецкий лингвист Ю. Кляйн полагает, что основной функцией полит. языка является убеждение адресата в своей правоте (Klein 1995: 93): “Soviel Persuasivität, wie unter den gegebenen Umständen politisch zweckmäßig” (Столько убедительности, сколько политически целесообразно в данных обстоятельствах). Поэтому данный тип речи отличается своей эмоциональностью, экспрессивностью, и использование языковых и неязыковых средств направлено в данном случае на достижение определенного прагматического эффекта.

Среди работ, посвящённых политическому дискурсу, особое место занимают исследования, в которых освещаются культурологические характеристики данного типа дискурса. Как отмечают З.Д. Попова и А.И. Стернин, в политическом дискурсе можно заметить способ моделирования культурных ценностей в различных языках, пути использования говорящим лицом элементов языковой картины мира, а также своеобразие концептуализации действительности в различных обществах (Попова, Стернин 2014:48).

Е.А. Попова, автор диссертации «Культурно-языковые характеристики политического дискурса» интерпретирует политический дискурс как неделимую часть всеобщей культуры и делает предположение, что основная часть общественных тематик характерна также и для политической сферы. Специфика политического общения, по мнению Е.А. Поповой, обусловлена культурологическим контекстом жизни народа: религией, ценностями, нормами поведения, традициями, уровнем развития политической культуры (Попова 1995:9).

Автор другой диссертации Н.В. Веселова замечает, что авторизация политического дискурса способствует расширению границ политического текста, интертекстуальность и диалог является по своей сути реализацией постмодернистского культурологического сознания (Веселова 2003:7).

В широком тематическом разнообразии дискурсов масс-медиа несомненный приоритет принадлежит политическому дискурсу. Интерес к языку политики объясняется как особенностями жизни в современном мире – бурным развитием информационных технологий, значимостью роли средств массовой коммуникации, тенденцией к глобализации, так и собственно научными причинами – как в западной, так и в отечественной лингвистической литературе в последние десятилетия активно обсуждается комплекс вопросов, связанных с речевым воздействием, языковой манипуляцией. Основной задачей публицистического политического дискурса является при этом не столько презентация определённых общественных процессов, сколько проведение определённой идеологии, что означает стремление к формированию некоего общественного мнения или же оказанию воздействия, влияния на него.В зарубежном языкознании изучение политического дискурса связано с именами Р. Водак, У. Мааса, П. Серио, М. Фуко, Ю. Хабермаса и др.

Целью написания данной статьи является краткий обзор исследований, посвящённых отечественному политическому дискурсу. Наиболее полно указанная проблематика представлена в работах таких лингвистов, как А.Н. Баранов, С.С. Беркнер, Д.А. Бокмельдер, Н.В. Веселова, А.В. Глухова, М.Р. Желтухина, В.И. Карасик, Э.Ю. Новикова, Е.А. Попова, Е.И. Шейгал, исследования которых условно выполнены в рамках социолингвистического, лингвокогнитивного, культурологического, лингвопрагматического подходов. Все названные выше подходы к изучению политического дискурса мы считаем возможным свести в конечном итоге к одному – лингвопрагматическому.

Социолингвистический подход к изучению политического дискурса представлен в работах В.И. Карасика, Е.И. Шейгал.

Так, в своей монографии “Языковой круг: личность, концепты, дискурс” (2002) В.И. Карасик относит политический дискурс к категории статусно-ориентированного дискурса (в отличие от личностно-ориентированного): политический дискурс представляет собой институциональное общение, т. е. речевое взаимодействие представителей социальных групп или институтов друг с другом, с людьми, реализующими свои статусно-ролевые возможности в рамках сложившихся общественных институтов. Целью общения в политическом дискурсе, по мнению автора, является

сохранение или перераспределение власти. Особый интерес в политическом дискурсе представляют случаи дезавуирования, т. е. признания некоторых сделанных заявлений/сообщений либо не соответствующими действительности, либо отражающими личное мнение конкретного политика.

Функциональный аспект политической речи акцентирует А.В. Глухова, выделяющая следующие функции политической речи:

1) коммуникативная функция (предполагает возможность общения политического деятеля с избирателями);

2) идентифицирующая и дифференцирующая функция (речь выступает важным средством осознания принадлежности к определённой группе благодаря общности интересов, ценностей);

3) функция политической социализации (включение личности в политику, побуждение её принять некое решение);

4) функция политической мобилизации (вовлечение объекта в активную политическую деятельность.

Лингвопрагматический подход к изучению политического дискурса представлен в работе М.А. Литовченко. Всеобъемлющей задачей политического языкового действия признаётся воздействие, проявляющееся в самых разных формах: от идеологического тоталитарного неприкрытого языкового насилия до завуалированной манипуляции. Автор отмечает важность не только формы высказывания, но и его целеустановки и способности решить поставленную говорящим прагматическую задачу.

Таким образом, исследование политического дискурса правомерно отнести к наиболее актуальным и плодотворно разрабатываемым направлениям современной отечественной лингвистической науки.

Политическая коммуникация, несомненно, связана с национальной культурой. В процессе реализации данной коммуникации проявляются национальные ценности отдельной страны, мировоззрение народа. Участники политического общения используют понятия и языковые средства, принадлежащие к данной лингвокультуре.

Из вышеупомянутого можно сделать вывод о том, что многие проблемы, связанные с природой политического дискурса, могут быть полнозначно интерпретированы с точки зрения лингвистической прагматики. Так, многие лингвисты пытаются изучить политический дискурс, обращаясь к теоретическому аппарату прагмалингвистики.

Анализ прагматического строения политического дискурса даёт возможность выполнять не только его своеобразные особенности, но и определить его отличие от других видов дискурса. Дело в том, что речевое воздействие свойственно и другим типам дискурса, однако для политического дискурса данная функция является основополагающей, ибо речь политического деятеля нацелена, прежде всего, на оказание влияния на слушателей, и лишь потом на передачу той или иной информации.

В политическом дискурсе воздействие проявляется в разных видах: от идеологического насилия до скрытой манипуляции. Но в этом случае важен не только тип речевого действия, но и его целеустановка и способность решить намеченную прагматическую задачу. Принимая во внимание вышесказанное, мы предлагаем исходить из того, что политики сознательно используют определённый набор когнитивных установок в целях влияния на сознание аудитории.

Р. Водак справедливо считает, что "политическая коммуникация никогда не бывает нейтральной или объективной, ей свойственна оценочная акцентированность, пристрастность, эффективность, так как власть как психологический элемент включает иррациональные и эмоциональные уровни" (Водак 1997: 79). Конвенциональность играет решающую роль в формировании политического дискурса. Такие конвенциональные структуры, как фразеологизмы, шаблоны, клише, а также исследуемые в настоящей работе прецедентные образования, способствуют проведению определённой идеологии.

Любой вид политического дискурса реализуется при помощи естественного языка и выявляется в массив текстов. Изучая этот текстовый материал, мы получаем возможность изучить лингвистическую составляющую дискурса и наблюдать определённые связи между течением политической деятельности и задействованными в составе дискурса языковыми средствами.

Соответственно, изучение структурных, семантических и функциональных аспектов политического общения требует привлечения новейших методов лингвистического анализа. Одним из новых методов анализа языковых явлений является дискурсивный анализ. В данный момент дискурсивный подход широко применяется в изучении политического текста. В книге «Современная политическая лингвистика» указывается, что в соответствии с этим подходом, «политический текст изучается в дискурсе, то есть большое значение уделяется условиям создания и функционирования

соответствующего текста, его взаимодействию с другими текстами, с национальной культурой, с политической ситуацией в регионе, в стране и мире» (Будаев, Чудинов 2006: 33).

Исследователи также подчёркивают плодотворность использования метода критического анализа текста. При изучении политического текста с точки зрения метода критического анализа намечается задача выявления степени объективности, правдивости содержащейся в нём информации. С помощью критического анализа акцентируется внимание на доминирование власти над народом, приводится доказательство психического подчинения людей. Критический анализ дискурса имеет свои цели «анализ как явных, так и прозрачных структурных отношений доминирования, дискриминации, власти и контроля в языке» (Водак 1997:7).

В большинстве случаев общение людей мотивируется неречевыми задачами. В процессе политической коммуникации очень важно изложить политический взгляд точно и правильно, привлечь внимание слушателей, а также убедить их и принять сказанное серьёзно. Для осуществления вышесказанных задач политик вынужден выбрать соответствующие языковые и неязыковые средства. Только в этом случае речь политика может приобрести убеждающую силу. Иначе говоря, политический язык для говорящего является основным инструментом достижения цели. Поэтому участники политической коммуникации всегда стремятся пользоваться речевыми стратегиями, которые отличаются высокой степенью аргументативности. Высокий уровень актуализации прецедентных образований в политическом дискурсе объясняется именно этим фактором.

К примеру, актуализация метафоры в политическом дискурсе связана с харизматикой говорящего и социальным положением адресата, а также социальной и экономической ситуацией общения. Использованные в политическом дискурсе метафоры способствуют освещению обсуждаемой проблемы, или, наоборот, отвлекают внимание адресата от этой проблемы. Как и указывает один из основателей концептуальной теории Дж. Лакофф, «метафора в политическом дискурсе является эффективным средством управления сознанием массы» (Lakoff 1991:119).

Например:

1. *Vazirlarning Hukumat qabul qilayotgan qarorlarda, ta‘bir joiz bo‘lsa, „ovozi yo‘q“. Ya’ni ularning ushbu qarorlarini tayyorlash va hayotga joriy etishdagi ishtiroki va mas’uliyati yetarli emas. Endi vazirlarning bunday eskicha usulda ishlashga haqqi yo’q* (Yangi O’zbekiston, 2022, 23-dekabr).

2. *Die Ausnahmeregelungen dieses Gesetzes sind scheunentorgroß. Der Entwurf ist löchrig wie ein Schweizer Käse. Und die Begründung dafür ist doch fadenscheinig. Die Integrität und das Vertrauen der Öffentlichkeit in den demokratischen Gesetzgebungsprozess ist natürlich ein Rechtsgut von Verfassungsrang, Herr Kollege Schnieder. Dass Sie das bestreiten, wundert mich ernsthaft.* (Marco Buschmann (FDP), Plenarsitzung im Deutschen Bundestag, 11.09.2020).

Как видно из этих примеров, метафоры в политическом дискурсе добавляют необходимый эффект манипулирования, и, таким образом, достигается определенное восприятие сообщаемой информации. Это объясняется тем, что метафорическое образование передаёт дополнительное содержание высказанной мысли.

Заключение. Таким образом, на основе анализа различных подходов к интерпретации явлений политического дискурса и политической коммуникации, а также из собственного наблюдения, можно заключить, что данный тип дискурса - это сложение коммуникативного пространства, основным средством которого является система языка, в пределах которой функционирует язык политика, отражающий не только политическую реальность, но и социально-психологические, а также языковые способности коммуниканта - участника политического общения. Дискурсивный подход к изучению продуктов политической коммуникации (т.е. политических текстов) требует исследования каждого текста с учётом конкретной ситуации, в которой он создан, его соотношения с другими продуктами речевой деятельности, целевых установок, политических взглядов производителя - политического деятеля, а также специфики восприятия различными адресатами.

ЛИТЕРАТУРА:

1. *"Янги Ўзбекистон" газетасининг онлайн нашри - https://yuz.uz/uz/newspaper .*

2. *Dieckmann W. Politische Sprache, politische Kommunikation; Vorträge, Aufsätze, Entwürfe. – Heidelberg, 1981. – 202 S.*

3. *Klein, J. Politische Rhetorik. Eine Theorieskizze in rhetorik-kritischer Absicht mit Analysen zu Reden von Gebels, Herzog und Kohl//Sul. Nr. 75. – 1995. – S. 62-99.*

4. Lakoff G. Metaphor and war: The metaphor system used ti justify war in the Gulf//Engulfed in war: just war in the Persian Gulf. – Honolulu, 1991. – P. 5-19.

5. Marco Buschmann (FDP), Plenarsitzung im Deutschen Bundestag, 11.09.2020 - https://de.openparliament.tv/media/DE-0190174091?t=57.32,84.24&f=DieAusnDies,WundMichErns&c=l .

6. Schröder L. Plenarsitzung im Deutschen Bundestag, 08.09.2022 - https://opendiscourse.de/plenarsitzungen/20-51 .

7. Баранов А.Н., Караулов Ю.Н. Русская политическая метафора. – М.: Наука, 1991. – 264 с.

8. Будаев Э.В., Чудинов А.П. Современная политическая лингвистика. – Екатеринбург, 2006.- 252с.

9. Веселова Н.В. Ирония в политическом дискурсе. Автореф.дис…канд. филол.наук. – Новгород, 2003.

10.Водак Р. Язык. Дискурс. Политика.- Волгоград: Перемена, 1997.- 139с.

11.Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена, 2002.477с.

12.Попова Е.А. Культурно-языковые характеристики политического дискурса. Автореф.дисс…канд.филол.наук. – Волгоград, 1995.- 21с.

13.Баранов, А. Н. Очерк когнитивной теории метафоры [Текст] / А. Н. Баранов, Ю. Н. Караулов // Русская политическая метафора. – М.: Наука, 1991. – 264с.

14.Беркнер, С. С. Язык как инструмент политики: роль стереотипов и идеологи-зированной лексики [Текст] / С. С. Беркнер // Эссе о социальной власти языка: сб. науч. трудов / Под ред. Л. И. Гришаевой. – Воронеж: изд-во РИЦ ЕФ ВГУ, 2001. – С. 85-89.

15.Веселова, Н. В. Ирония в политическом дискурсе: автореф. дис. к.ф.н [Текст] / Н. В. Веселова. – Н. Новгород: изд-во НГЛУ, 2003. – 16с.

16.Глухова, А. В. Речь как политическое действие: функциональный аспект [Текст] / А. В. Глухова // Эссе о социальной власти языка: сб. науч. трудов / Под ред. Л. И. Гришаевой. – Воронеж: изд-во РИЦ ЕФ ВГУ, 2001. – С. 65-84.

17.Карасик, В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс [Текст] / В. И. Карасик. – Волгоград: Перемена, 2002. – 476с.

18.Литовченко, М. А. Прагматические особенности вербальной атаки в политическом дискурсе (на мат-ле нем. яз.): автореф. дис. к.ф.н [Текст] / М. А. Литовченко. – Тамбов: изд-во ТГУ, 2003. – 26с.

19.Попова, Е. А. Культурно-языковые характеристики политического дискурса (на мат-ле нем. яз.): автореф. дис. к.ф.н [Текст] / Е. А. Попова. – Волгоград: изд-во ВГУ, 1995. – 21с.

20.Цурикова, Л. В. Политическая корректность как социокультурный и прагмалингвистический феномен [Текст] / Л. В. Цурикова // Эссе о социальной власти языка: сб. науч. трудов / Под ред. Л. И. Гришаевой. – Воронеж: изд-во РИЦ ЕФ ВГУ, 2001. – С. 94-98.

УЎК 81

НЕМИС ТИЛИДА АСПЕКТУАЛ МАЪНОЛИ АНАЛИТИК ХАРАКТЕРГА ЭГА БИРИКМАЛАРНИНГ ТУРЛАРИ ВА АСОСИЙ БЕЛГИЛАРИ

Содикова Назокат Гафоровна,
Самарқанд давлат чет тиллар институти 1-чи босқич докторанти
nsodiqova975@ gmail.com

Аннотация. *Таклиф этилаётган мақолада замонавий немис тилидаги аспектуал грамматик маъноларни ифодаловчи аналитик характерига эга иборалар функционал-семантик таҳлилга тортилади. Мазкур мақоланинг мақсади – немис тилида аспектуал грамматик маъноларни аналитик усулида ифодаловчи бирикмаларни, уларга хос бўлган структуравий-семантик хусусиятларни ва уларнинг турларини аниқлашдир. Аналитик бирикмаларнинг учта асосий турлари ажратилиб, уларнинг мазмуни ва ифодаси жиҳатдан ўхшаш ва фарқловчи хусусиятлари очиб берилади.*

Калит сўзлар: *аналитик, синтетик шакллар, грамматик маъно, мустақил лексик маъно, функционал сўзлар, десемантизация, аналитик конструкциялар, эркин сўз бирикмалари, фазавий феълли бирикмалар, функционал феълли бирикмалар, грамматикалашув, лексик заифланиш, грамматик идиоматиклик, аспект (тур), ҳаракат тарзи, доимий ва ўзгарувчан компонентлар.*

ВИДЫ И ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СЛОВОСОЧЕТАНИЙ АНАЛИТИЧЕСКОГО ХАРАКТЕРА С АСПЕКТУАЛЬНЫМ ЗНАЧЕНИЕМ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В предлагаемой статье функционально-семантическому анализу подвергаются словосочетания аналитического характера, выражающие аспектуальные грамматические значения в современном немецком языке. Целью данной статьи является выявление словосочетаний, аналитически выражающих аспектуальные грамматические значения в немецком языке, определение их типов и присущих им структурно-семантических особенностей. Выделяются три основных типа аналитических конструкций, выявляются их схожие и отличительные особенности в плане содержания и выражения.*

Ключевые слова: *аналитические, синтетические формы, грамматическое значение, самостоятельное лексическое значение, служебные слова, десемантизация, аналитические конструкции, свободные словосочетания, фазовые глагольные сочетания, функциональные глагольные сочетания, грамматизация, лексическое ослабление, грамматическая идиоматичность, вид (аспект), способы действия, постоянные и переменные компоненты.*

TYPES AND MAIN CHARACTERS OF COMPOUNDS WITH AN ANALYTICAL CHARACTER WITH ASPECTUAL MEANING IN THE GERMAN LANGUAGE

Abstract. *In the proposed article, phrases of an analytical nature that express aspectual grammatical meanings in the modern German language are subjected to functional-semantic analysis. The purpose of this article is to identify phrases that analytically express aspectual grammatical meanings in the German language, to determine their types and their inherent structural and semantic features. Three main types of analytical structures are identified, their similar and distinctive features in terms of content and expression are identified.*

Key words: *analytical, synthetic forms, grammatical meaning, independent lexical meaning, function words, desemantization, analytical constructions, free phrases, phase verb combinations, functional verb combinations, grammaticalization, lexical weakening, grammatical idiomaticity, type (aspect), modes of action, constant and variable components.*

Кириш. Аспектуаллик функционал-семантик майдони жараён (ҳаракат, ҳолат, ҳодиса)нинг оқими ва босқичлари билан боғланган маънолар (бошланиш, давомийлик, тугаллаганлик ва бошқалар) ва уларни ифодалаш учун ихтисослашган синтетик (морфологик), аналитик (синтактик), контекстуал ва экстролингвистик воситаларини ўз ичига қамраб олади. Мазкур мақоланинг мақсади

– немис тилида аспектуал грамматик маъноларни ифодаловчи аналитик характерига эга бирикмаларни, уларга хос бўлган хусусиятларни ва уларнинг турларини аниқлашдир.

Асосий қисм. Бирон бир умумлаштирилган абстракт маъно, яъни грамматик маъно немис тилида синтетик ёки аналитик усул ёрдамида ифодаланиши мумкин. Грамматик маъно мустақил сўз таркибига қўшилган аффикс ёрдамида ёки шу сўзни ичида мавжуд бўлган ўзгаришлар орқали ифодаланса – бу синтетик усул деб ҳисобланади. Масалан, феълнинг претерит замон шакли - *te* қўшимчаси ёрдамида ёки сўзнинг илдизидаги унлини ўзгариши орқали ифодаланади: *sagen* – *sag**te,*** *sprechen* – *spr**a**ch*. Грамматик маъно икки ёки ундан ортиқ сўз шаклларининг бирикмаси билан ифодаланиши мумкин, масалан, перфект шакли ёрдамчи феъл *(haben, sein)* ва мустақил феълнинг сифатдош шакли бирикувидан ташкил топади: *Hat gesagt, hat gesprochen.* Сўзниг бу шакли аналитик ҳисобланади.

Демак, синтетик ва аналитик усулларни ўхшаш томони шундаки – иккала усул ҳам бир қандай грамматик маънони ифодалаш учун хизмат қилади. Бу иккала усулни бир-биридан ажратиш белгиси – синтетик усулда грамматик маъно бир сўз шаклнинг таркибида ифодаланса, аналитик усулда грамматик маъно мустақил лексик маъноли сўздан ташқарида жойлашган бошқа сўз билан бирикуви орқали ифодаланади ва аналитик шаклнинг таркибий қисмлари билан бирлик ҳосил қилади. Демак, ҳар бир аналитик шакл таркибий жиҳатдан икки ёки ундан ортиқ сўз шаклларидан иборат бўлиб, функционал маъноси бўйича бир лексик бирликнинг бир сўз шакли вазифасини бажаради. Синтетик шакл – структуравий ва функционал жиҳатдан бир сўз шаклидир. Масалан, *sprach* ва *hat gesprochen* шакллари бир феълнинг икки хил сўз шаклларидир, чунки иккинчи мисолда ёрдамчи компонент ***hat*** десемантизациялашган, яъни мустақил лексик маъносини йўқотган бирликдир.

Лингвистик адабиётларда аналитик характерга эга бўлган шаклларга мурожаат қилиш учун кўпинча “аналитик конструкция” атамаси қўлланилади. Кўп ҳолларда бу атама “аналитик шакл” атамасининг синоними сифатида ишлатилади.

Немис тилшунослигида “analytische Formen”, “Periphrasen”, “umschriebene Formen” ёки “zusammengesetzte Formen” каби атамалар қўлланилади. Айрим олимлар, жумладан, К.Е. Майтинская “аналитик конструкция” деб, “грамматикалашув даражасидан қатъий назар, барча турдаги аналитик ва ярим аналитик бирикмалар”ни келтиради. “Аналитик шакл” атамасини муаллиф фақат тўлиқ граматикалашган ва шакл ясалишга киритиши мумкин бўлган, компонетлари ажралмас бўлган бирикмаларга нисбатан қўллайди [Майтинская, 1965: 309]. А.В. Баклушин [Баклушин 1989] К.Е. Майтинскаяга қўшилиб, “аналитик шакл”ни ажратиб туради. “Аналитик конструкция” атамаси ноаниқлиги сабабли муаллиф томонидан қўлланилмайди. Т.А.Бертагаев ҳам грамматикалашган бирикмалар орасида аналитик конструкция ва аналитик шаклларни ажратади [Бертагаев, 1965: 121-128].

А.В. Баклушин таъкидлаганидек, аналитик ва флектив шаклларни ўрганишда иккита ёндашувни ажратиб кўрсатиш керак: таркибий (структуравий) ва функционал. Структуравий ёндашув шаклларни тузилиши, таркиби, шаклланиши ва бошқалар нуқтаи назаридан ўрганишни ўз ичига олади, аналитик ва флектив шаклларни фарқлаш имконини беради. Функционал ёндашув шаклларни гапда ёки парадигматик режада (планида) грамматик маъноларни ифодалаш нуқтаи назаридан ўрганишни назарда тутади.

Парадигма ва гап нуқтаи назаридан функционал ёндашув аналитик шакл ва ибораларни фарқлаш имконини беради. Парадигматик жиҳатдан функционал ёндашув морфологик шаклларни берилган грамматик категория таркибига кирувчи сўз шаклларининг ягона тизими сифатида кўриб чиқиш ва қарама-қаршиликлар тизимидаги аналитик шаклларни аниқлаш имконини беради.

Аналитик шаклларининг парадигматик қатор элементлари сифатида феълнинг коррелятив шакллари тизимига киришини М.М.Гухман немис тили аналитик феъл шаклларининг белгиларидан бири, деб қайд этади [Гухман, 1955: 322-361]. Бу фикр аналитик шакл таркибидаги функционал сўзнинг грамматик вазифасига кўра морфемага тенг эканлигига асосланади. Шундай қилиб, аналитик конструкция мос келадиган мустақил маъноли сўзнинг шакли бўлиб, унинг шакли ўзгариши (флексия) (ёки шакл ясалиш) - “сўзнинг парадигматикаси” - деб аталадиган тизимга киради [Жирмунский, 1965: 12].

Аналитик характерга эга бўлган шаклларни ўзига хос структуравий-семантик хусусиятларини ажратишга (аниқлашга) адабиётларда катта аҳамият қаратилган. Тилшунос олимларнинг аксарият тадқиқотларида асосий семантик белги сифатида, биринчи навбатда, феълли аналитик бирикма таркибидаги ёрдамчи феъл лексик маъносининг заифланиши ёки бутунлай йўқолишига эътибор берилади. Масалан, Л.Р.Зиндер ва Т.В. Строева таъкидлашича, *hat gesungen* бирикмасида ***hat***

компоненти ўзининг луғавий маъносини бутунлай йўқотади. Бу бирикма орқали ифодаланган ўтган замон маъноси унинг таркибий қисмларининг маъносидан келиб чиқмайди, балки уларнинг бирикмасида (“туғилади”) пайдо бўлади [Зиндер, Строева, 1957: 72]. Муаллифлар бошқа ишида “функционал сўзлар семантик жиҳатадан озми-кўпми заифлашиб (“опустошение”) қолгандагина грамматик шаклга айланади” дея таъкидлайди [Зиндер, Строева, 1968: 15].

О.И.Москальскаянинг ёзишича, феълнинг *“hat geschrieben”, “ist gekommen”, “wird fahren”, “wird gerufen”* каби аналитик шаклларининг сўз шакллари ва феъл парадигмаси элементлари сифатидаги ўзига хослиги шундаки, улар лексик ва грамматик бирлик вазифасини бажаради. Бунда ёрдамчи феълларнинг лексик маъноси бутунлай йўқолган [Москальская, 1975:60].

Айрим олимларнинг фикрича, ёрдамчи воситалар лексик маъносининг заифлашишини жуда кенг тушуниш мумкин – қисман заифлашувдан (олд сўзлар (префикслар), модал феъллар, ва бошқалар учун) лексик маънонинг тўлиқ йўқолишигача (*haben* ва *sein* феъллари перфект замон шакли таркибида, артикл) (қаранг: [Баклушин 1989: 66]).

Шуни таъкидлаш керакки, айрим аналитик характерга эга бўлган шакллар таркибида ёрдамчи феъл ўз луғавий маъносида қўлланади, масалан, фазавий феълларнинг инфинитив билан бирикувида ёрдамчи феъл сифатидаги лексик маънолари на заифлашади, на йўқолади: *anfangen, beginnen, fortfahren, aufhören + Infinitiv*.

Бошқа бир аналитик бирикув турида функционал феъл ўзининг абстракт маъносида қўлланиши мумкин, масалан, *in Gang kommen, zu Ende kommen* каби бирикмаларида. Бундай бирикмаларни З.Г.Бурдина “аналитик конструкциялар” деб тушунади: “Аналитик конструкцияларнинг умумий структуравий хусусияти феъл компонентини формаллаштириш ва унинг ёрдамида отлар асосида феълли барқарор бирикмалар яратиш имкониятидадир *(zum Ausdruck bringen, in Gang bringen, in Verbindung setzen, Unterstützung finden, zum Ziel kommen, zur Kenntnis bringen ва ҳоказо)* [Бурдина, 1978: I33]. Бу ерда келтирилган барқарор бирикмаларнинг *(Funktionsverbgefüge)* грамматикалашув ва лексикаллашув статуслари тўғрисида О.Тоубер қўйидаги фикрни билдиради: “Шу нуқтаи назардан, функционал феъл тузилмалари муаммоли бўлиб чиқади, чунки уларнинг лексикаллашув ва грамматикалашув ўртасидаги ҳолати одатда аниқ эмас” [Teuber 2005:11].

Демак, аналитик характерига эга бирикмаларини у ёки бу турини ажратишда олимларнинг ёндашуви, уларнинг нуқтаи назарлари, қайси усулларни қўллаши муҳим роль ўйнайди. Масалан, Оливер Тоубер формал синтаксис ва композиционал принципга таяниб ўтган замон қўшма феъллар замон шаклларидан ягона *haben* ёрдамчи феъли ва сифатдош II билан ясалган перфектни аналитик шакл деб тан олади. Олимнинг фикрича, агар бирикма бир сўзнинг шакли бўлса у аналитик шакл деб ҳисобланади (*hat geschlafen – schlafen* феълининг перфект шакли), *sein* феъли билан ифодаланган бирикмаларни аналитик шакллар қаторига киритмайди: „Das Deutsche besitzt folgende analytische Verbformen: einen Perfekt aus *haben* + Partizip2 und ein Vorgangspassiv, gebildet aus *werden* + Partizip 2 und ein Rezipientenpassiv, gebildet aus *bekommen* + Partizip 2. Hingegen gibt es keine analytische (en) Verbform(en) aus *sein* + Partizip 2. Die entsprechenden Komplexe sind vielmehr immer Kopula + Adjektiv-Strukturen“ [Teuber 2005: 228].

Шуни таъкидлаш керакки, М.М. Гухман *sein* билан ифодаланган пассив бирикма *(die Tür ist geschlossen)* ва модал феълнинг инфинитивли бирикмаларини немис тилида бўлинмаслиги ва идиоматик бўлмагани учун аналитик шакллар деб ҳисобламайди [Гухман, 1955: 358 - 360]. В.М. Жирмунский эса бу бирикмаларни бир хил позициялардан таҳлил қилиб, уларни феълнинг аналитик шакллари деб тан олади [Жирмунский, 1965: 33-35, 41-43]. Айрим тилшунослар асосий ажратиш мезони сифатида ёрдамчи феълнинг грамматикалашувига эътиборни қаратади [Зиндер, Строева, 1968]. Бунда, яъни грамматикалашув жараёнида, тўлиқ мустақил лексик маъноли сўзлар ўз маъносини йўқотиб ёрдамчи воситага айланиши кўзда тутилади. Бошқа тилшунослар аналитик шаклни кенг маънода тушуниб, улар қаторига модал, фазавий ва функционал феъллар билан ифодаланган бирикмаларни ҳам аналитик характерига эга бирикмалар қаторига киритади (К.Е.Майтинская, З.Н.Левит, З.Г.Бурдина, Б.Ҳ. Ризаев, О.М. Рисаева ва ҳоказо). Биз ҳам шу ёндашувга қўшилган ҳолда тадқиқотимизни давом этамиз.

Немис тилида аналитик усул билан темпорал, модал, аспектуал, ва бошқа грамматик маънолар (масалан, таксис, каузатив) ифодаланиши мумкин. Мазкур мақоланинг мақсади – немис тилида аспектуал грамматик маъноларни ифодаловчи аналитик характерига эга бирикмаларни, уларга хос бўлган хусусиятларни ва уларнинг турларини аниқлашдир.

Немис тилидаги аналитик характерга эга бўлган бирикмаларга бағишланган адабиётларнинг таҳлили натижаси бизга уларни қўйидаги умумлаштирилган рўйхатини тузишга имкон беради. Бунда биз фақат аспектуал семантика билан боғлиқ бўлган бирикмаларни ҳисобга оламиз.

АБ турлари	**Шакллар**	**Аспектуал маъно**
I. Замон шакллари: Перфект Плюсквамперфект Футур II	haben, sein + Partizip II; hatte, war + Partizip II werden + Infinitiv II – (wird gemacht haben)	Тур (аспект), яъни тугаллангалик/процессуаллик
II. Фаза маъносига эга бўлган феъллар билан ифодаланган бирикмалар	beginnen + zu + Infinitiv anfangen + zu + Infinitiv pflegen+ zu + Infinitiv fortfahren+ zu + Infinitiv aufhören + zu + Infinitiv ablassen + zu + Infinitiv	Ҳаракат тарзи билан боғлиқ маънолар (бошланиш, давом этиш, якунланиш, такрорланиш ва бошқалар)
III. Функционал феъл + от бирикмалари	100 га яқин функционал феъллар билан ифодаланган бирикмалар: zum Ziel kommen, in Gang bringen, zu Ende gehen	Ҳаракат тарзи билан боғлиқ бўлган маънолар

Биринчи гуруҳга киритилган замон аналитик шаклларининг аспект маъноси билан боғлиқлигини ҳамма олимлар ҳам тан олишмайди. Масалан, В.М.Павлов, Б.Ҳ.Ризаевлар немис тили замон шакллари нафақат темпорал, балки аспектуал маъноларига ҳам эга, деб уларни “видо-временные формы” деб тан олса [В.М. Павлов 1984], [Б.Ҳ. Ризаев 2003], А.А.Кульбакин фикрича, перфект соф замон шакли бўлиб, у феълни семантик маъносига қараб натижавийлик, тугаллаганликни ифодалашга интилади [Кульбакин 1985:54]. В.Я. Мыркин ҳам асосан “темпорал” ёндашув вакили ҳисобланиб, перфект шаклини иккита асосий маънога эга, яъни претерит ва перфект шакллари маъноларини ифодалайди деб ҳисоблайди [Мыркин 1989: 84-85]. P.M. Bertinetto фикрича, перфект нуқул темпораллик (пайт) маъноларни ифодалайди [Bertinetto 2001]. Биз “темпорал-аспект”, яъни замон шакллари пайт-тур маънолари билан боғлиқлигини тан олувчи олимларнинг ёндашувига қўшилган ҳолда биринчи (I) гуруҳга тегишли аналитик шаклларни аспект-темпорал маъноларга эга деб тушунамиз.

Иккинчи (II) гуруҳга кирувчи бирикмалар таркибида асосий ролни фазавий феъллар ўйнайди. Б.Ҳ Ризаев фазали феъллар “бошланиш”, “давом этиш”, “тугалланиш” мавҳум маноларни ифодалайди – улар маълум универсал семантик константлар бўлиб ҳар қандай жараённи тавсифлаш қобилиятига эга ва шунинг учун грамматик семантик функциялар майдонига тегишли деб такидлайди ва фазавий феъллар билан ифодаланган бирикмаларга “аналитик конструкция” атамасини беришни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблайди [Ризаев 2019: 65-69].

Фазавий феъллар билан ифодаланган инфинитивли бирикмаларнинг аналитик характерга эга бўлганини *weinen* мисоли асосида намоён қилиш мумкин: 1) weinen –(*йиғламоқ*) - ausweinen (*йиғлаб бўлмоқ*). Бу мисолда -aus префикси *weinen* англатган ҳаракатни тугалланишини, тўлиқ “бажарилганлигини”, ўзини ички чегарасига етганлигини синтетик усулида ифодалайди. 2) *Sie hörte auf zu weinen* – (*У йиғлашни тўхтатди*) мисолда *aufhören* феъли *weinen* англатган йиғлаш процесси субъект томонидан вақтинчалик тўхтатилганлигини аналитик усулида ифодалайди. Демак, (1) - мисолда тур маъноси синтетик усулида ифодаланган бўлса, (2) - мисолда эса тугалланиш фазавий ҳаракат тарзи маъноси аналитик усулида ифодаланганлигига гувоҳ бўламиз.

Учинчи (III) турни ташкил қилувчи функционал феълли бирикмаларнинг ўзига хос хусусиятлари шундан иборатки, улар таркибида ёрдамчи (ёки ярим ёрдамчи) восита сифатида қўлланган феъл ўзининг луғавий маъносини абстрактда сақлаб қолади ва иккинчи компонент билан биргаликда турли ҳаракат тарзини, яъни аспектуал маъноларини ифодалашга ҳизмат қилади. Маслан: *in Gang bringen* (инхоативлик - бир холатдан бошқа холатга ўтиш); *in Bewegung geraten (setzen)* (бошланиш), *zu Ende bringen, ein Ende finden* (тугалланиш), *zur Ruhe kommen* (натижавийлик), *sich in Bewegung befinden; unter den Erwartungen bleiben; im Sterben liegen* (дуративлик, яъни бир ҳолатда бўлмоқ) (қаранг: [Рисаева 2020:47].

Келтирилган аналитик бирикмаларнинг учта турини бирлаштирган семантик белги – аспектуал маъно, яъни аспект (I), ва фазавий ҳаракат тарзи белгилари (II, III) билан боғланган маъноларни

ифода қилишда муҳим рол ўйнайди. Буларнинг ўртасида ўхшашлик билан биргаликда фарқлаш белгиларини ҳам ажратиш мумкин. Ажратиш белги сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин.

Биринчи турга киритилган аналитик бирикмалар таркибидаги ёрдамчи феъллар *(haben, sein, werden)* ўз лексик маъносини тўлиқ йўқотган, яъни грамматикалашган.

Иккинчи турдаги аналитик бирикма таркибида ёрдамчи восита функциясини бажарувчи (фазавий) феъллар ўзларининг мустақил луғавий маъноларида иштрок этади.

Учинчи турга тегишли аналитик бирикмалар, от + феъл бирикмасини ташкил қилади ва унда функционал феъл конкрет луғавий маъносида эмас, балки абстаркт (кўчма) маънода қўлланилади.

Бундан ташқари, агар биринчи гуруҳда ёрдамчи феъл билан бириккан ўзгарувчан компонент сифатида процессни ифодаловчи асосий феълнинг партицип II (сифатдош) шакли қатнашса, иккинчи гуруҳда иккиламчи ўзгарувчан компонент сифатида процессни ифодаловчи феъл *zu + Infinitiv* шаклида иштироқ этади; учинчи турга киритилган бирикмалар таркибида иккинчи компонент сифатида абстракт от шакли қўлланилади.

Демак, кўрсатиб ўтилган ажратиб турувчи белгилар нафақат ёрдамчи феълларнинг, балки улар билан бириккан иккинчи компонентнинг структуравий-сематик хусусиятларига ҳам тегишли. Шунга қарамасдан, функционал-семантик жиҳатдан тавсифланган учта аналитик бирикмалар турларининг умумлаштирилган шаклини қуйидагича расмийлаштириш мумкин: АБ (аналитик бирикма) = доимий компонент (ДК) + процессни ифодаловчи ўзгарувчан компонент (ЎК), яъни АВ = ДК+ЎК.

Шуни ҳам таъкидлаш керакки, аспектуал маънолар ажратилган АБ билан турлича ифодаланади. Масалан, биринчи гуруҳга тегишли перфект шакли билан ифодаланган аспект (тугалланганлик/тугалланмаганлик) маънолари кўп ҳолларда ўзгарувчан компонентни акционал семантикаси (чегараганлик/ чегараланмаганлик) билан боғлиқ бўлади: (1) *Er hat den Roman geschrieben*; (2) *Er hat in dieser Stadt 20 Jahre gelebt.*

(1) Биринчи гапда чегараланган феъл перфект шаклида тугалланган аспект маъносини билдирса, (2) кейинга жумлада перфект шаклида чегараланмаган феъл қўлланилиб, процессуаллик аспекти маъноси ифодаланган (перфект шаклининг аспект маънолари тўғрисида қаранг: [Ризаев 2003]).

Иккинчи турдаги АБларда аспектуал маъно биринчи компонент, яъни ёрдамчи (фазавий) феъл орқали ифодаланиб, иккинчи, яъни ўзгарувчан компонентнинг маъносига қўшилади. Масалан: *Sie hörte auf zu weinen (lesen, lachen…)*. Бундай бирикмаларни ўзига хос хусусиятларидан бири шундаки, бирикув таркибида ёрдамчи феъл сифатида қатнашаётган феъл ўз луғавий лексик маносида қўлланилиб, инфинитив шаклидаги феъл ифодалаётган процесс (ҳаракат, ҳолат, ҳодиса) ларнинг фаза босқичларини кўрсатади.

Учинчи турга киритилган бирикмаларни аспектуал маъноси функционал феълнинг акционал маъноси ва шу билан биргаликда номинал компонент ва у билан келган предлогларнинг семантикаси билан боғлиқ бўлади. Масалан, *zu Ende bringen* бирикмасида тугалланиш ҳаракат тарзи маъноси чегараланган *bringen* феъли, якуний фаза маъносини англатувчи *Ende* ва шу охири нуқтага қараб интилиш белгисини билдирувчи предлог *zu* ёрдамида ифодаланади. Функционал феълли бирикмалар (ФФБ)нинг умумлаштирилган модели - бу қисман десемантизацияга учраган лексик маънога эга бўлган функционал феъл (ўзининг абстракт маъносида) ва бутун бирикманинг лексик таркибини индивидуаллаштирадиган асоссий семантикага эга бўлган предлогли ёки предлогсиз абстракт от ҳисобланади (қаранг: [Ризаев 2022: 7-39]). Шу билан бирга, функционал феълли бирикма бир бутун сифатида битта синтактик бирлик вазифасини бажаради, қоида тариқасида семантик жиҳатдан бошқа феъл ёки сифатдошли бирикма билан изоҳланиши мумкин, Масалан: *– mit jemandem ein Gespräch führen – mit jemandem sprechen; Kenntnis besitzen von etwas – etwas kennen; jemandem Hilfe leisten – jemandem helfen; Mut haben – mutig sein;* (қаранг: [Рисаева 2020: 15-16]).

Умумлаштирилган ҳолда аспектуал маъно билан боғланган аналитик бирикмаларни қўйидагича намоён этиш мумкин:

Аспектуал маъноли аналитик характерга эга конструкциялар



Хулоса. Демак, замонавий немис тилидаги аспектуал маънолар билан боғлиқ бўлган аналитик характерли бирикмаларни асосий уч турини ажратиш мумкин. Улар нафақат структуравий жиҳатдан, балки маъно жиҳатдан ҳам бир биридан ўзига ҳос хусусиятлари билан ажралиб туради.

АДАБИЁТЛАР:

1. Баклушин А.В. Аналитичность и флективность в системе и тексте (на материале современного немецкого языка). - Иркутск: Из-во Иркут. Ун-та I989. - I84 с.

2. Бертагаев Т.А. Сочетание слов и аналитическая конструкция // Аналитические конструкции в языках различных типов. - М.; Л, 1965 – С. I2I-I28

3. Bertinetto P.M. "On a frequent misunderstanding in the temporal-aspectual domain: The 'perfective-telic confusion'" //Semantic Interfaces. Reference, Anaphora and Aspect. Standford, CSLI Publications: 2001. S. 177–210.

4. Бурдина З.Г. Аналитизм некоторых семантико-синтаксических структур // Лингвистика и методика в высшей школе. Вып.8. - М., 1978. - С. I28-137.

5. Гухман М.М. Глагольные аналитические конструкции как особый тип сочетаний частичного и полного слова (на материале немецкого языка) // Вопросы грамматического строя. - М., 1955. - С. 322-361.

6. Жирмунский В. М. 0б аналитических конструкциях // Аналитические конструкции в языках различных типов. - М.; Л., 1965. - С. 5-57.

7. Зиндер Л.Р., Строева Т.В. Современный немецкий язык. - М.: Изд-во лит. на иностр. яз., 1957. - 420 с.

8. Зиндер Л.Р., Строева Т.В. Историческая морфология немецкого языка. - Л.: Просвещение, 1968. - 263 с.

9. Кульбакин А. А. Функционирование глагольных временных форм в художественном тексте: (на материале немецкого языка)// Функционирование языковых единиц в тексте. - Воронеж, 1985. - С. 49-56.

10. Майтинская К.Е. Парадигматическая ограниченность аналитических форм // Аналитические конструкции в языках различных типов. - М.; Л., 1965. - С. 309-316.

11. Moskalskaja 0. I. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. - M., 1975. - 366 S.

12. Мыркин В. Я. Вид и время глагола в русском и немецком языках (сопоставительный анализ). - Л., 1989.

13. Павлов В. М. Темпоральные и аспектуальные признаки в семантике "временных форм» немецкого глагола и некоторые вопросы теории грамматического значения // Теория грамматического значения и аспектологические исследования. - Л., 1984. - С. 42-70.

14. Ризаев Б.Х.Аспектная семантика перфектных и плюсквамперфектных форм немецкого глагола. - Самарканд: СамГИИЯ. 2003.

15. Ризаев Б.Х.Аналитические средства семантического поля финитивности в современном немецком языке. - Самарканд: СамГИИЯ, - 2019.

16. Ризаев Б.Ҳ.. Финитив семали турғун сўз бирикмалари. Устойчивые словосочетании с финитивной семантикой. - Самарканд: СамДЧТИ. 2022.

17. Рисаева О.М. Аспектуальная семантика конструкций с функциональными глаголами в современном немецком языке. - Самарканд: СамГИИЯ. 2020. – 171 с.

18. Schumacher. N. "Perspektiven für Studien zum Gebrauch der deutschen Ver-gangenheitstempora durch russische L1-Sprecher".// Arbeitspapiere GIP Herzen – Humboldt. Themenheft 1: Tempus – Metapher – Text. St. Petersbug: Izdatelstvo SPb GPU 2009. - S. 28–46.

19. Teuber O. Analytischen Verbformen im Deutschen. Syntax – Semantik – Grammatikalisierung. - Hildesheim Zürich New York: Georg Olms Verlag. 2005. - 340 S.

UO‘K 81

“SPIRITUALITY” SEMANTIK MAYDON SIFATIDA: KATEGORIYA, KONSEPT VA LEKSIK BIRLIK

Axmedova Mehrinigor Bahodirovna,
Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
https://orcid.org/0000-0003-1198-0326
m.b.axmedova@buxdu.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilidagi “spirituality” semantik maydonining kategorial tahlili berilgan bo’lib, unda bu so’zning tushuncha, leksik yoki atov birlik, kategoriya va keyinchalik semantik maydon hosil qilish yo’llari tahlil qilingan. “Spirituality” semantik maydoni tarkibidagi polisemantik va monosemantik leksemalarning xususiyatlari bu kategoriyani ma’noviy guruhlarga ajratish maqsadida markaz va periferik chegaraga ajratish orqali yadroga tegishli bo‘lgan eng faol semalar markaz va periferiyaga taalluqli bo‘lishi haqida fikrlar tahlil qilingan. Adabiyotlar tahlili qismida dunyoning taniqli olimlari ishlaridan iqtiboslar keltirilib, ularning “spirituality” semantik kategoriyasi haqidagi fikrlari tahlil qilingan. Ingliz tilining izohli lug‘atlari “spirituality” semantik kategoriyasining birliklari izohini ma’lum auditoriya tanlamaydigan, milliy ma’naviyatni aks ettiruvchi leksemalar bilan to‘ldirilganligi hamda son va sifat jihatidan nisbatan ustuvorlik kasb etganligi oydinlashtirilgan. Maqolaning tahlillar qismida “spirituality” semantik kategoriyasining iyerarxik munosabati ma’noviy guruh, mavzuiy guruh, ma’noviy uyalar kabi murakkab tizimdan tashkil topganligi sababli ular “spirituality” semantik kategoriyasining paradigmasidagi semantik strukturasi va leksik kategoriyaning sistemasini shakllantirishi ochib berilgan. Bundan tashqari, “spirituality” semantik kategoriyasining mikrosistemasida yadroni voqelantirish jarayoni semantik kategoriyaga oid birliklarni aniqlash orqali kategoriyaga bevosita va bilvosita taalluqli leksemalarning differensial semani kuchaytirish, markaz semani faollashtirish hamda periferik sema bilan markaz sema reallashuvida namoyon bo‘lishi tahlil qilingan.*

Kalit so’zlar: *ma’naviyat, spirituality, meaning, spirit, kategoriya, ma’rifat, konseptlashtirish, semantik maydon.*

«SPIRITUALITY» КАК СЕМАНТИЧЕСКОЕ ПОЛЕ: КАТЕГОРИЯ, КОНЦЕПТ И ЛЕКСИЧЕСКАЯ ЕДИНИЦА

Аннотация. *В данной статье представлен категориальный анализ семантического поля «spirituality» в английском языке, в котором анализируются способы образования понятия, лексической или существительной единицы, категории и последующего семантического поля этого слова. Проанализированы характеристики многозначных и однозначных лексем семантического поля «spirituality» с целью разделения этой категории на духовные группы путём разделения её на центр и периферийную границу, причём наиболее активные семы, относящиеся к ядру, относятся к центру и периферической границе. В части анализа литературы приводятся цитаты из работ известных учёных мира, анализируется их мнение о смысловой категории «spirituality». Уточняется, что толковые словари английского языка наполнены лексемами, отражающими национальную духовность, которые не выбираются определённой аудиторией для толкования единиц семантической категории «spirituality», и что они получили приоритет в с точки зрения количества и качества. В аналитической части статьи, поскольку иерархические отношения семантической категории «spirituality» составляют сложную систему, такую как духовная группа, тематическая группа, духовные гнезда, выявляется, что они образуют семантическую структуру парадигмы духовности. семантическая категория «spirituality» и система лексической категории. Кроме того, анализируется процесс стержневой реализации в микросистеме семантической категории «духовность» путём выявления единиц, относящихся к семантической категории, что проявляется в усилении дифференциальной схемы лексем, прямо и косвенно связанных с категорией, активация центральной схемы и реализация периферийной схемы и центральной схемы.*

Ключевые слова: *духовность, смысл, дух, категория, просвещение, концептуализация, семантическое поле.*

“SPIRITUALITY” AS A SEMANTIC FIELD: CATEGORY, CONCEPT AND LEXICAL UNIT

Abstract. *This article presents a categorical analysis of the semantic field of "spirituality" in the English language, which analyzes the ways in which this word forms a concept, a lexical or noun unit, a category, and then a semantic field. The characteristics of polysemantic and monosemantic lexemes in the semantic field of "Spirituality" were analyzed in order to divide this category into spiritual groups by dividing it into the center and peripheral border, and the most active semes belonging to the core belong to the center and periphery. In the literature analysis part, quotes from the works of famous scientists of the world are given, and their opinions about the semantic category of "spirituality" are analyzed. It has been clarified that the explanatory dictionaries of the English language are filled with lexemes reflecting national spirituality, which are not selected by a certain audience for the explanation of the units of the semantic category "spirituality" and have gained relative priority in terms of quantity and quality. In the analysis part of the article, since the hierarchical relationship of the semantic category "spirituality" is made up of a complex system such as spiritual group, thematic group, spiritual nests, it is revealed that they form the semantic structure of the paradigm of the semantic category "spirituality" and the system of the lexical category. In addition, the process of core comprehension in the microsystem of the semantic category "spirituality" is analyzed by identifying the units related to the semantic category, which manifests itself in the strengthening of the differential schema of the lexemes directly and indirectly related to the category, the activation of the central schema, and the realization of the peripheral schema and the central schema.*

Key words: *spirituality, meaning, spirit, category, enlightenment, conceptualization, semantic field.*

Kirish. Til o’zida millatning tarixi bilan bir qatorda uning hozirgi ijtimoiy ahvoli, turmush tarzi va tafakkuridagi o’zgarishlarni yaqqol namoyon qiladi. Agar til bir emas, bir necha millatlar uchun asosiy muloqot vositasiga aylansa, ushbu yangilanishlarning amalga oshish jarayoni yanada jadallashadi. Zero, turli millat vakillari muloqotga kirishuvchi til aqidaga aylanib qolgan qoliplardan yiroq, erkin tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo’la boshlaydi. Bugungi davr globallashuv asri, axborot hurujlari asri deya bong urilayotgan bir paytda mazkur globallashuv jarayonlari bevosita o’z aksini topadigan xalqaro muloqot tili bo’lgan ingliz tili ham zararli ta’sirlarga qarshi himoyaga muhtoj. Chunonchi, kichik millatlar madaniyati hamda tili qadrsizlanishiga va hatto yo’qolib ketishiga sabab bo’layotgan ingliz tili kabi xalqaro tillarning o’zi ham mudom xavf ostida bo’ladi. Bunday xavf, asosan, quyidagilarda ko’rinadi: xorijiy so’zlashuvchilar tomonidan tilga sof muqobili mavjud bo’lgan tushunchalar olib kiriladi, natijada, asli ingliz muqobili bo’lgan so’zlar o’rniga boshqa tildagi so’zlarning kirib kelishi va mavjud so’zlarning muloqotdan chiqib ketishi bora-bora mazkur tilning asl lug’aviy imkoniyatlari torayishiga sabab bo’ladi.

Ayni vaziyatda ingliz tilidagi keng qamrovga ega bo’lgan, murakkab lug’aviy birliklar ma’nosi turli madaniyat vakillari shuurida turli tushunchani ifodalashi mumkin. Shu sababdan ushbu turdagi leksik birliklar alohida kontseptosferaga ega kontseptlar sifatida tadqiq etilsa, “ma’naviyat”, “ma’rifat” va “mafkura” kabi tushunchalar mohiyati atroflicha keng hamda izchil izohlanishiga yo’l ochib beradi.

Qaysi til, e’tiqod va millat vakili bo’lmasin, inson o’z nutqida umumbashariy qadriyatlarni ifodalovchi tushunchalarga qayta-qayta murojaat etadi. Ammo ko’p hollarda ushbu mavhum tushunchalarning to’laqonli izohini topish mushkul masala va ingliz tilida ham “ma’naviyat” tushunchasi bugungi kunga qadar atroflicha izohlanmagan. Zero, ma’naviyat kontseptiga nisbatan qayta uyg’ongan qiziqish va ushbu mavzudagi adabiyotlar soni ko’payib borayotganligiga qaramasdan, mazkur tushunchaning to’laqonli izohi haligacha yaratilmagan: “Despite the renewed interest and growing literature on spirituality, there is no consensus on a definition of this concept”. Ushbu bo’shliq esa masalani lisoniy kategoriya sifatida tarkiblashtirib o’rganishda ancha qiyinchilik tug’diradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ingliz tilida “spirituality” istilohi faqat diniy qatlam bilan chegaralanib qolmay, balki undan-da yirikroq hodisani ifodalaydi va izohlardan birida mazkur tushunchaga quyidagicha ta’rif beriladi: “Spirituality is a personal search for meaning and purpose in life, which may or may not be related to religion. It entails connection to self-chosen and/or religious beliefs, values, and practices that give meaning to life, thereby inspiring and motivating individuals to achieve their optimal being. This connection brings faith, hope, peace, and empowerment. The results are joy, forgiveness of oneself and others, awareness and acceptance of hardship and mortality, a heightened sense of physical and emotional well-being, and the ability to transcend beyond the infirmities of existence”. Ta’rifga ko’ra, ma’naviyat insonning o’z hayotidan ma’no va maqsad qidirish jarayoni, u diniy e’tiqodga aloqador bo’lishi yoki bo’lmasligi ham mumkin. Ushbu hodisa insoniyat tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlangan ma’lum bir

axloqiy nizom va diniy e’tiqodlarni, bundan tashqari hayotga ma’no-mazmun baxsh etishga qaratilgan turli harakatlarni o’z ichiga oladi. Bu unsurlar mushtarakligi insonning kamolotga yetishiga xizmat qiladi. Ushbu voqeliklar orasidagi aloqadorlik ishonch, umid, xotirjamlik va qudratlilik kabi hislar mushtarakligini vujudga keltiradi. Natijada, quvonch, insonning o’ziga va o’zgalarga nisbatan kechirimliligi, qiyinchilik va foniylikdan boxabarlik, ushbu holatlarni qabul qilish, jismoniy va emotsional sog’lomlik hissi, shuningdek, borliqdan tashqari bo’lgan mavhumotlarni anglash va his etish kabi jarayonlar yuzaga keladi.

Anglashilganidek, inglizzabon xalqlar shuurida spirituality, avvalambor, insonning o’z hayotidan qoniqish hissi bilan chambarchas bog’liq. Zero, bunda deduktiv tafakkurdan, ya’ni mustahkam e’tiqodning inson hayotiga mazmun olib kelishiga ishonuvchi ongdan farqli o’laroq, shaxsning o’z hayoti mazmunini anglashi va uni teran his qilgan holda o’z oldiga maqsadlar qo’yishi, uni mustahkam e’tiqod sari yetaklashi kabi voqelikka ishonuvchi induktiv tafakkur namoyon bo’ladi.

Ingliz tilshunosligida “spirituality” tushunchasi ustida ishlagan bir qancha olimlar bor, jumladan:

Hay Kanadadagi Lethbridge universitetining ingliz tili professori. U ma’naviyat va adabiyot o‘rtasidagi munosabat haqida yozgan, bu borada bir qancha kitob va maqolalar chop etgan. Devid Hay ruhiyat haqida o’rgatadi, yozuvchi va notiq, u “spirituality” haqida "Tog'lar ruhi", "Dengiz ruhi" va "Cho'l ruhi" kabi bir nechta kitoblar yozgan. Uning asarlarida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar va bu qanday qilib ma’naviy yuksalish va ma’rifatga olib kelishi mumkinligi o‘rganiladi.

4. Tarjimonning ma'nosini tasdiqlovchi kontekstual muqobilliklar: Asliyatni tasdiqlovchi kontekstual muqobilliklar matnlarda kelgan kontekst asosida olinadi. Bu kontekstual muqobilliklar, tarjimachining tanigan ma'noni tasdiqlovchi, mos keladigan so'z yoki iboraga bog'liq ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

5. O'zgarishlar va o'zgarmasliklar: Asliyatni aniqlashda o'zgarish va o'zgarmasliklar ustunlik beradi. O'zgarishlar tarjima jarayonida yuzaga kelgan boshqa til, stil, muhit, adabiyot makrosi, va adabiyotning ma'qulligi kabi muammolarni o'z ichiga oladi.

Asliyat tadqiqi metodologiyalari korpus tilshunoslik va tarjimonlik sohalarida xalqaro namoyon bo'lgan bo'lib, hatto boshqa ilmiy sohalar uchun ham maqbuldir. Ushbu metodologiyalar asliyatni aniqlashda va tarjimaning qanday yaxshi amalga oshirilishi haqida ma'lumotlarni topishga imkon beradi. Bu esa davom etayotgan tilshunoslik va tarjimonlikning rivojlanishiga ko’rsatib turadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asrning 90-yillari birinchi yarmida korpus tilshunosligi til to'g'risidagi fanning alohida qismi sifatida shakllandi. Shu bilan birga, u kompyuter tilshunosligi bilan yaqindan hamkorlik qiladi, uning yutuqlaridan foydalanadi va, o'z navbatida, uni boyitadi.

1950-yillarning oxiridan boshlab korpus tilshunosligi bo'yicha muhim ishlar olib borildi, shu jumladan, 1959 -yilda asos solingan Randolf Kuirkning ingliz tilidan foydalanish tadqiqotlari bo'limi va 1964- yilda nashr etilgan Frensis va Kucheraning Brown korpusi kabi muhim ishlarni ko’rishimiz mumkin. Korpus tilshunosligi – hisoblash tilshunosligining bir qismi bo'lib, u kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda lingvistik korpuslarni (matn korpuslari) qurish va ishlatishning umumiy tamoyillarini ishlab chiqadi. Matnlarning lingvistik yoki til korpusi deganda, muayyan til muammolarini hal qilish uchun mo'ljallangan, mashinada o'qiladigan, birlashtirilgan, tuzilgan, belgilangan, filologik jihatdan mukammal lingvistik ma'lumotlar to'plami tushuniladi. Korpus turlariga ixtisoslashgan, ma'lumotli, ko'p tili, parallel, o’rganish, qiyosiy, diaxronik va monitor kiradi.

Parallellik mezoniga ko'ra korpuslar bir tilli, ikki tilli va ko'p tilliga bo'linadi. Bir tili korpuslarda dialektlar va til variantlariga qarama -qarshidir. Masalan, ingliz tili ona tili va ingliz tili chet tili kabi yangi texnologiyalar paydo bo'lgunga qadar ilmiy qiziqish doirasidan tashqarida qoldi, bu esa qarama-qarshi tildagi nutq asarlarini ancha ko'p jalb qilishga imkon berdi. Ikki tilli va ko'p tilli korpuslar bir xil tematik sohadagi mustaqil ravishda ikki yoki undan ortiq tillarda yozilgan matnlarni birlashtiradi (masalan, turli mamlakatlarda va turli tillarda o'tkazilgan ma'lum bir ilmiy muammo bo'yicha konferensiya materiallari to'plami). Bunday korpuslar terminologiyaga yordam beradi va ko'pincha tarjimonlar tomonidan ishlatiladi. Ikki tilli yoki ko'p tilli korpusning yana bir varianti-har qanday manba tilida yozilgan asl matnlar va bu manba matnlarning bir yoki bir nechta boshqa tillardagi tarjimasi kiradi. Bunday korpus qiyosiy tadqiqotlar, tarjima nazariyasi bo'yicha tadqiqotlar va inson hamda kompyuter tarjimasini o'rgatish uchun bebaho material bo’lib xizmat qiladi.

Parallel matn korpusi - lingvistik manbalarning nisbatan yangi turi. Birinchi Parallel korpus matn (PKM)lar - Shveytsariyada nemis, fransuz va italyan tillarida to'plangan qor ko'chkisi to'g'risidagi hisobotlar, Kanada ommaviy axborot vositalarida ingliz va fransuz tillaridagi ob-havo ma'lumoti - juda qattiq

sintaksisga ega bo'lgan maxsus pastki tillarga qaratilgan va qoida tariqasida yakuniy maqsad mashina tarjima tizimini yaratish edi. Bu turdagi birinchi manbalar 1980 -yillarning oxiri - 1990 -yillarning boshlarida paydo bo'lgan. So'nggi o'n yil ichida parallel matnli korpuslar bilan bog'liq bo'lgan bir qancha loyihalar ishga tushirildi. Keling, ulardan bir nechtasini ko'rib chiqaylik. Kanada parlamentidagi ingliz-fransuz parallel munozaralar korpusi (Kanada-Hansards ingliz-fransuz parallel corpus). Brayton universitetida INTERSECT loyihasi (inglizcha kontrastli matnlarning xalqaro namunasi). ET10-63 qo'shimchasi-Angliya-Fransuz PKM, shu jumladan, Evropa Ittifoqining telekommunikatsiya bo'yicha rasmiy hujjatlari CRATER (Xalqaro Telekommunikatsiyalar Ittifoqi (XTI) yoki CRATER korpus) uch tili fransuz-ispan-ingliz PKM hajmi 1 mln. jumlalar darajasida biriktirilgan so'zlardan iborat. Korpus telekommunikatsiya sohasidagi matnlarni o'z ichiga oladi. Ingliz-Norveg parallel korpusi, Oslo universiteti (Norvegiya)da1994-1997, Stig Yoxansson rahbarligi asosidagi loyihada yaratilgan. Korpus ingliz va norveg tillarining asl badiiy matnlari va ularning norveg va ingliz tillariga tarjimalaridan iborat. Hozirgi vaqtda korpusni kengaytirish ishlari olib borilmoqda, yangi korpus Oslo Ko'p tili Korpusi (OKK) deb nomlandi. Asl ingliz-norvegiya korpusi nemis va fransuz matnlari bilan to'ldirilgan.

Yuqorida aytilganlarga yaqin, 1998- yilda Portugaliya Fan va texnologiya vazirligi tashabbusi bilan boshlangan Portugaliya loyihasining hisob-kitobi amalga oshirilgan. Loyihani Norvegiyaning SINTEF Telekommunikatsiya va informatika kompaniyasi amalga oshiradi. PKM COMPARA loyiha jamoasi tomonidan ishlab chiqilgan resurslar va dasturiy paketlari badiiy matnlarni portugal tilida va ularning ingliz tiliga tarjimalarini o'z ichiga oladi [12].

Tahlil. Tarjima so‘zining lug‘aviy ma’nosini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, tarjima - forscha «tarzabon» so‘zidan arabiylashib o‘zgargan. «Tarzabon» - chiroyli so‘zlovchi, notiq, tili burro kishi degan ma’nolarni bildiradi. Arab tiliga «tarjumon» shaklida qabul qilingan bu so’zdan «tarjima» yoki «tarjuma» so‘zi hosil bo‘lgan. O‘zbek adiblari bunday tushunchani «o‘tkazish», «qaytarish», «o‘girish», «ag‘darish» singari atamalar bilan ifoda etganlar. Ko‘p yillar davomida «tarjima» sharh, bayon qilish, tushuntirish ma’nolarida ham qo‘llanib kelingan. Keyinchalik esa bu so‘z badiiy ijodning bir turini ifodalash ma’nosini kasb etdi va ilmiy-filologik terminga aylandi. Umuman, tarjima deganda bir tilda yozilgan matn yoki aytilgan nutqning boshqa tilda qayta yaratilishi tushuniladi.

Tarjima bu qayta yaratish san’ati, yuksak badiiy ijoddir, ijod bo‘lganda ham tarjima muallifidan izlanish, mehnat, sabr-toqat talab qiladigan, turli xil materiallar ustida mashaqqatli ish olib borishni talab qiladigan ijoddir.

Tarjima tushunchasining ma’nosi juda keng, chunki «Tarjima nima?» degan savolga turli soha vakillari turlicha javob berishadi. Bir kishi tarjimani bir tilda yozilgan kitobni ikkinchi tillga o‘girish desa, boshqa bir kishi uni bir tilda bayon qilingan fikrni o‘zga tilda so‘zlovchi kishilarga tushuntirib berishdan iborat deb biladi. Uchinchi bir kishi fikricha esa, kinofilmlar ham tarjima qilinadi, demak, tarjima bu bir tilda rol ijro etayotgan aktyorning nutqini ikkinchi uchinchi va hokazo tillarga o‘girish demakdir.

Tarjimaga lingvistik tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan yondashib, quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo‘lmish tarjima - bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda, o‘zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir. Demak, asliyat mansub bo‘lgan til vositalari yordamida yaratilgan nutqiy ifoda tarjima tili qonuniyatlari asosida vujudga keltirilgan shunday ifoda bilan almashtiriladi. Shu yo‘l bilan asliyat va tarjima tillari matnlarning mazmuniy-uslubiy adekvatligi yuzaga keltiriladi.

Mazkur ta’rif tillararo amalga oshiriladigan jarayonga aloqador bo‘lib, insoniyat faoliyatining ko‘proq qismi mazkur amaliyot bilan bog‘liqdir. Shu tufayli «tarjima» deganda aksariyat kishilar ko‘z oldida, birinchi navbatda, bir tildagi matnni ikkinchi tilga o‘girish faoliyati namoyon bo‘ladi.

Tarjima to‘g‘risida bildirilgan yuqoridagi mulohazalarning barchasida jon bor. Chunki ularning har biri tarjimani bir tomondan ta’riflab, bu haqidagi umumiy tushunchani to‘ldirishga xizmat qiladi. Demak, tarjima - ko‘p sohali, sertarmoq, murakkab faoliyat. Tarjima insoniyat faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bo‘lib, u tufayli biz insoniyat taraqqiyoti tarixini barcha tafsilotlari bilan ochiq-oydin tasavvur etamiz.

Tarjima xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir.

Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o‘zaro aloqasi va bir-biriga ta’siri jarayonini tezlashtiradi. Tarjimaviy asarlar tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo‘ladilar, ularning estetik tuyg‘ulari oshadi, didlari o‘sadi, ularda go‘zal narsalar haqida tushunchalar hosil bo‘ladi.

Tarjima tillarning kamoloti uchun zaruriy vosita sifatida, ularning rivojlanish sur’atini jadallashtiradi, lug‘at boyligini oshiradi va takomillashtiradi. Tarjima inson ma’naviy hayotini boyitadi, ona tilining imkoniyatlarini kengaytiradi, uni serjilo qiladi.

Tarjima tufayli kitobxon tafakkuri charxlanib, yangi g‘oyalar, tushunchalar bilan boyiydi.Tarjima jamiyatda yangicha munosabatlar, qarashlar qaror topishiga xizmat qiladi.Tarjima tufayli yangicha syujet, janr shakllanadi.Tarjima Vatan adabiyotiga yangi obrazlar, badiiy-tasviriy vositalar hadya etadi.

Ammo shuni ham nazarda tutish lozimki, mazkur jarayon natijasi ham tarjima yordamida ifoda etiladi. Bunda asliyatning o‘girmasi bo‘lmish ikkilamchi matn nazarda tutiladi.

Tarjimaning bosh xossasi uning so‘z san’ati ekanligidadir. So‘zning fikrni ifodalash xususiyati, ta’sir quvvatiga ega ekanligi tarjimani san’at darajasida tadbiq etish imkonini beradi. Tarjimada ikki xalq va ikki til, ikki ma’naviy hayot, ikki milliy madaniyat, ikki davr va ikki adib o‘rtasidagi bir-biriga chambarchas bog‘liq munosabatlarning ham o‘ziga xos ko‘rinishini e’tiborga olish zarur.

Tarjima qilinayotgan tekst yoki nutqning qandayligidan qatiy nazar, bir tildan boshqasiga o‘girilayotgan har qanday ish, ya’ni har qanday tarjima uchun umumiy bo‘lgan ikki holat bor:

1. Tarjimoning maqsadi – asl nusxa tilini bilmagan kitobxon yoki tinglovchini o‘sha asar teksti yoki nutq mazmuni bilan iloji boricha aniq, to‘la-to‘kis tanishtirish;

2. Tarjima qilish – muayyan til vositalari yordamida ifoda etilgan narsani boshqa til vositalari orqali asli bilan to‘la mos ifodalash demakdir.

Tarjima amaliyoti paydo bo‘libdiki, asliyatni ona tiliga qanday o‘girish lozim degan masala tarjimonlar oldida ko‘ndalang turgan muammo sanaladi, tarjima borasida so‘z yuritilganda, shubhasiz, ko‘z o‘ngimizda uning bir necha xillari namoyon bo‘ladi. Jumladan: a) bir tildan ikkinchisiga – qardosh yoki qardosh bo‘lmagan tilga tarjima qilish;

b) adabiy tildan - uning biror shevasiga va biror shevadan – adabiy tilga yoki bir tilning shevasidan boshqa adabiy tilga tarjima qilish;

c) qadimiy davr tilidan o‘sha tilning hozirgi zamonaviy holatiga tarjima qilish;

Hozirda tarjimaning yuqoridagi turlariga yana so‘zma- so‘z tarjima, ijodiy tarjima, erkin tarjima, mualliflashtirilgan tarjima va shu kabi bir qator tarjimalar ham qo‘shilgan. Buning asosiy sababi tarjima jarayoniga turlicha yondashishdir. Ammo tarjimaning qaysi turi bo‘lmasin, har qanday tarjimaning maqsad va vazifalari bo‘ladi.

Tarjimaning maqsadi - xorijiy til lisoniy vositalari yordamida yaratilgan matnni ona tili materiallari asosida qayta yaratishdan iboratdir. Buning uchun tarjimon, birinchi navbatda, asl nusxani to‘la-to‘kis idrok etishi, so‘ngra uni o‘z tilida bekami-ko‘st qayta ifodalashi darkor. Muallif yaratgan badiiy-estetik voqelikni to‘laligicha idrok etish uchun tarjimon keng mushohada qila olish xususiyatiga ega bo‘lishiva badiiy asar tarkibidagi lisoniy vositalarning mazmuniy va uslubiy-estetik jihatlarini to‘g‘ri anglashi, shu bilan birga muallif nazarda tutgan bosh g‘oyani, uning niyat va maqsadlarini, ochiq-oydin tasavvur etishi zarur. Natijada tarjimon tomonidan qilingan tarjima xuddi asliyat o‘z kitobxoniga qanday badiiy-estetik zavq baxsh etsa, uning tarjimasi ham asarni asliyatda mutolaa qila olmaydigan kitobxonga xuddi shunday taassurot in’om etsin.

Kitobxon tarjimada shavq-zavq uyg‘ota olmaydigan asarni muallif tomonidan past saviyada bitilgan deb baholaydi, ya’ni noto‘g’ri tarjima kitobxonni chalg‘itadi.

Tarjimaning vazifasi - asliyat va tarjima tillari leksik, grammatik va stilistik hodisalari o‘rtasidagi uyg‘un hamda tafovutli jihatlarni puxta o‘zlashtirib olgan holda, asliyatning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qayta yaratishdan iboratdir. Bu tamoyilga rioya qilmaslik tarjimada aniqlikning, ifoda me’yorining buzilishiga olib keladi.

Asl nusxa muallifidan voqelikni to‘g‘ri aks ettirish talab etilsa, tarjimondan asl nusxani bekami-ko‘st talqin etish talab qilinadi.

Tarjima qilish jarayonida ikki holat ro‘y beradi, ya’ni, birinchidan, tarjima qilish uchun o‘girilayotgan narsani tushunish, anglash va talqin qilish kerak. Bu hodisa ona tilida ro‘y beradi. Ikkinchidan, asar o‘girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalari, ya’ni so‘z, so‘z birikmasi, grammatik formalarni topish lozim.

Tarjimaviy muvofiqlik yaratish uchun turli juft tillar vositalarini qiyosiy o‘rganish, badiiy matnning estetik o‘ziga xosligini, uning moddiy-mantiqiy, hissiy ta’sirchan va obrazli tizimini tashkil etuvchi unsurlari tarkibidagi uslubiy va muvozanat xususiyatlarni aniqlash hamda stilistik asosga tayanishni taqazo etadi. Til birliklarining uslubiy bo‘yoq kasb etish xususiyati turli juft tillar birliklarining mazmuniy-uslubiy va muvozanat jihatlardan o‘zaro mos kelish-kelmasliklari to‘grisida qaror qabul qilish imkonini beradi. Tarjimaning bunday tahlili mazkur sohadagi tasavvur va qarashlarni boyitadi. Ular nafaqat lisoniy, balki til ma’lumotlari tarkibidan tashqarida bo‘lgan ruhshunoslik, jamiyatshunoslik hamdir.

Tarjimada asliyatning muvozanat salohiyatini aks ettirish

Muvozanat salohiyat – bu matndagi ma’lumotning retseptorga muvozanat ta’sir o‘tkazishidir, ya’ni matnda aks ettirilayotgan ma’lumot retseptorning hissiyotlariga ta’sir ko‘rsatishi, muayyan emotsional reaksiya uyg’otishi va shu kabi boshqa ta’sirlar.

Har qanday matnning muvozanat salohiyatini aks ettirishda tarjimon bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Masalan, o’zbek tilini biror xorijiy tilga tarjima qilishda tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat degan, bir- birini chuqur ma’no-mazmun bilan boyitadigan va to’ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g’alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o’zi mushkul bir muammo.

Ayniqsa, badiiy adabiyotlar tarjimasida tarjimonlar sezilarli qiyinchilikka uchrashadi. Tarjima retseptor tomonidan to‘g‘ri tushunilishi uchun ulardan asliyat matn va tarjima matn o‘rtasidagi muvozanat farqlarga tegishli o‘zgartishlar kiritishni talab etadi.

Retseptorning matnga nisbtan muvozanat munosabati nafaqat matn muvozanatasi, balki Retseptorning kimligi, uning shaxsiy xususiyatlari, bilimlari, oldingi tajribasi, ruhiy holati va boshqa xususiyatlarga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Tarjimon tarjima jaryonining birinchi bosqichida asliyatning Retseptori rolida namoyon bo‘ladi va matnda mavjud ma’lumotlarni imkoni boricha to‘liqroq olishga harakat qiladi. Buning uchun esa u asliyat tili sohiblari ega bo‘lgan fon bilimlarga ega bo‘lishi, ya’ni asliyat tilida so‘zlovchi xalqning tarixi, madaniyati, adabiyoti, urf-odatlari, zamonaviy hayot tarzi, faqatgina o‘sha millatga xos so‘zlar, ya’ni realiyalaridan xabardor bo‘lishi shart.

Har qanday asliyat retseptori kabi tarjimonda ham berilayotgan ma’lumotga nisbatan shaxsiy munosabat shakllanadi. Lekin tarjimon bunday shaxsiy munosabatning tarjima aniqligiga putur yetkazmasligiga intilishi zarur. Shu ma’noda tarjimon muvozanat jihatdan neytral bo‘lishi kerak.

Muvozanat adekvatlikni ta’minlashda so‘zlovchilar tomonidan ishlatiladigan hududiy-dialektga, ijtmoiy-dialektga xos bo‘lgan va o‘zgargan nutq kabi sotsio- lingvistik omillarning ishlatilishi ham muhim rol o‘ynaydi.

Asliyat matnidagi hududiy dialektlarga xos elementlar tarjimada berilmaydi. Boshqa tomondan esa dialektga xos shakllar matnda va asosan, badiiy matnda muayyan alohida personajning lisoniy xosligini ko‘rsatish uchun ishlatilishi mumkin. Bunday hollarda tarjimon tarjima tili so‘z boyliklaridan foydalanib ma’noni yetkazib berishga harakat qiladi.

Parallel korpus, ikki yoki undan ko'p til (masalan, ingliz tili va o'zbek tili)dan iborat elektronik matnlar to'plamidir. Bu korpus, bir tilning asl matnlari bilan bir-xil tartibda va ma'naviyatida ekvivalent qilingan matnlardan iborat bo'ladi. Asliyat muammosi esa, parallel korpusda kelgan matnlar o'rtasidagi ma'naviyat va tarjima davriymi oxirgi so'zlarning ma'qulligi yoki topshirishiga bog'liqdir.

Asliyat muammosi, parallelda mavjud matnlarda da’volashishi mumkin bo'lgan tarjimalardagi imlo, o'zgarishlar, sa'ye va shakl kabi muammoni tahlil qilishni talab qiladi. Bu muammoni tahlil qilishning asosiy maqsadi, asl matn va tarjima o'rtasidagi mavzuni ko'rsatish va tarjimacha muallifning original gapni qanday tushuntirmoqchi bo'lishi kerakligini aniqlashdir.

Korpus tilshunosligida asliyat muammosi tahlilini amalga oshirish bir qancha xususiyatlarni o’z ichiga oladi.

Avvalo, tarjima qilinadigan matnni aniqlab olish lozim bo’ladi, ya’ni bu matnlar adabiyot, texnika, muhandislik, tibbiyot kabi sohalarga doir bo’lishi mumkin.

Asl matn va tarjima matn muallifi orasida o’zaro bog’liqlik bo’lishi lozim. Tarjimon muallifning uslubini, asar g’oyasi va fikrlarini to’g’ri anglay olgandagina tarjima qilingan asar o’quvchilar tomonidan yaxshi qabul qilinishi mumkin.

Tarjimonlar o’zining mahoratini, tarjima asarning sifatini, tarjima usullarini, asl matindan tarjima qilinganda bo’ladigan o’zgarishlarni kitobxonga yetkaza olishi lozim hisoblanadi.

Xulosa. Parallel korpusda ma’lumotlar aslida asliyati bilan solishtiriladi va asliyat muammosini bir necha misol hamda dalillar bilan berilishi esa ularni mantiqiy zanjirga terish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa tarjima jarayonida vujudga kelgan tartiblarning o’zgarishini nazorat qilish imkonini beradi. Asliyat muammosi parallel korpusdagi muhim jarayonlardan biridir va tarjima sifatini, tarjimachining mahoratlarini va asl matning o'rtacha tarjimaga mos kelishini aniqlashda yordam beradi. Bu tahlil, ma'noda, shaklda, uslubda va asl matnning o'zining asliyatining qanday saqlanishi haqida ma'lumot beradi. Yuqorida berilgan ma’lumotlardan foydalangan holda shuni aytishimiz mumkinki, tilshunoslarning parallel korpus yaratishdan ko’zlanayotgan asosiy maqsadi samarali, to’g’ri tarjima usullarini ishlab chiqarish hisoblanadi va bu parallel korpus orqali tarjima sifatining yaxshilanishiga ko’maklashadi. Parallel korpus prizmasida badiiy asarlar

tarjimalarida asliyatning ko’rsatilishi esa bir millatning aslini boshqa millat kitobxonlariga chiroyli tarzda yetkazishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Захаров В. П., БогдановаС. Ю.Корпусная лингвистика: учебник. 3-е изд., перераб. — СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2020. — 234 с.

2. Михайлов М. Параллельные корпуса художественных текстов: диссертация.- Финландия . ун-та, 2003. — 348с.

3. McEnery, Tony and Wilson, Andrew 2001: Corpus Linguistics: An Introduction. 2nd edition. Edinbourgh: Edinbourgh University Press.

4. Salkie, Raphael 2002: How can linguists profit from parallel corpora? In: Borin, Lars (ed.). Parallel Corpora, Parallel Worlds. Selected papers from a symposium on parallel and comparable corpora at Uppsala University, Sweden, 22–23 April, 1999. Amsterdam — New York, NY: Rodopi. Pp. 93–10 Teubert, Wolfgang 1996: Comparable or Parallel Corpora. International Journal of Lexicography. Oxford University Press. 9(3), 238–264.9.

5. Trosterud, Trond 2002: Parallel corpora as tools for investigating and developing minority languages. In: Borin, Lars (ed.). Parallel Corpora, Parallel Worlds. Selected papers from a symposium on parallel and comparable corpora at Uppsala University, Sweden, 22–23 April, 1999. Amsterdam — New York, NY: Rodopi. Pp. 111–122.

6. Tursunova, M. (2023). Role of the 4c method in language teaching. Science and innovation in the education system, 2(11), 75-83.

7. Tursunova, M. R., & Karimov, R. A. (2023). Parallel korpusda badiiy asarlarning asliyat tarjimasi tadqiqi.(O’. Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asari asosida).

8. Tursunova, M. (2023). Badiiy tarjima asarlarda asliyat muammosi tadqiqi. Interpretation and researches, 1(8).

9. Tursunova, M. (2023). Badiiy tarjimada lingvokulturologik xususiyatlar. Журнал: Союз Науки и Образования, 5(2), 12-15.

10. Raupova Laylo. O‘zbek milliy va ta’limiy korpuslarini yaratishning nazariy hamda amaliy masalalari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Vol. 1 №. 01 (2021) 30 Ta’limiy korpus: tatbiqiy, amaliy elektron resurs vositasi sifatida educational building: as a practical, practical electronic resource 1

11. Raxmanova Azizaxon Abdugafurovna. “O‘zbek milliy va ta’limiy korpuslarini yaratishning nazariy hamda amaliy masalalari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Vol. 1 №. 01 (2021) 118 Параллел матнлар корпусининг маданий муносабатларни ёритишдаги ўрни. the role of parallel corpuses in cultural relations

12. Tursunova Marxabo Raxmonovna. (2023). Using effective methods in the process of teaching English grammar. imras, 6(7), 183–189. Retrieved from https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/479

13. Tursunova Marxabo Raxmonovna. (2023). Parallel korpus prizmasi tahlilida tarjima asarlarda asliyat muammosi tadqiqi. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 311–317. Retrieved from http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1505

14. Tursunova, M. (2023). Using inductive and deductive approach in teaching grammar. Modern Science and Research, 2(10), 11-17.

UO‘K 801.8

TILSHUNOSLIKDA MODUS, MODALLIK HAMDA DIKTUM KATEGORIYALARINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Matyakubov Oybek Quralbayevich,
Urganch davlat universiteti akademik litseyi fransuz tili o‘qituvchisi,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
matyakubov.o@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tilshunoslikda modallik, modus va diktum kategoriyalarining o‘zaro bog‘liqligi haqida fikr yuritiladi, nazariy asoslari tadqiq etiladi va ishning dolzarbligi o‘rganiladi. Tilshunoslikda mavjud bo‘lgan modallik kategoriyasiga oid ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Tilshunoslikda modallik kategoriyasining qo‘llanilish ko‘lami nihoyatda keng bo‘lib, muloqotning mazmunga boy jihatlarini namoyon etuvchi tadqiqot obyekti hisoblanadi. Modallik tushunchasi so‘zlovchining aytilayotgan gap mazmuniga, voqelikka munosabatini anglatuvchi ma’no kategoriyasi sifatida qaraladi, ya’ni obyektiv voqelik so‘zlovchi ongida aks etadi va u o‘z munosabatini turli semantik kategoriyalar yordamida bildiradi. Matnlarni tahlil qilishda va ularning lingvokognitiv xususiyatlarini ochib berishda matn modalligi katta rol o‘ynaydi va mazkur masalani o‘rganish badiiy matn sharoitida o‘ta dolzarbdir.*

Kalit so’zlar: *modus, diktum, lisoniy birlik, transliteratsiya, transkripsiya, baholash, modallik, emotivlik, evidensiallik, taxminiylik, ishonch, inkor, ekvivalent.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ КАТЕГОРИЙ МОДАЛЬНОСТИ, МОДУСА И ДИКТУМА В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *В данной статье рассматривается взаимозависимость категорий модальности, модуса и диктума в лингвистике, изучаются её теоретические основы, а также рассматривается актуальность работы. Анализируются научные исследования по категории модальности, существующие в лингвистике. В лингвистике сфера применения категории модальности чрезвычайно широка, и она является объектом исследования, показывающим содержательные стороны общения. Понятие модальности рассматривается как семантическая категория, отражающая отношение говорящего к содержанию произнесённого предложения, к действительности, то есть объективная реальность отражается в сознании говорящего, и он выражает своё отношение с помощью различных смысловых категорий. Модальность текста играет важную роль в анализе текстов и выявлении их лингвокогнитивных особенностей, и исследование этого вопроса чрезвычайно актуально в контексте художественных текстов.*

Ключевые слова: *модус, диктум, языковая единица, транслитерация, транскрипция, оценка, модальность, эмоциональность, эвиденциальность, приближение, достоверность, отрицание, эквивалентность.*

INTERDEPENDENCE OF MODALITY, MODUS AND DICTUM CATEGORIES IN LINGUISTICS

Abstract. *This article covers the interdependence of the categories of modality, modus and dictum in linguistics, studies its theoretical foundations, and examines the relevance of the work. Scientific studies on the modality category existing in linguistics are analyzed. In linguistics, the scope of application of the category of modality is extremely wide, and it is a research object that demonstrates the content-rich aspects of communication. The concept of modality is considered as a semantic category that represents the attitude of the speaker to the content of the spoken sentence, to reality, that is, the objective reality is reflected in the speaker's mind, and he expresses his attitude using different semantic categories. Text modality plays a major role in analyzing texts and revealing their linguocognitive features, and the study of this issue is extremely relevant in the context of literary texts.*

Key words: *mode, dictum, linguistic unit, transliteration, transcription, assessment, modality, emotionality, evidentiality, approximation, confidence, negation, equivalence.*

Kirish. Tilda modallik kategoriyasi davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib, takomillashib borayotgani hech kimga sir emas. «Modallik» atamasi bizni o‘rab turgan keng borliq, olamdagi tabiat hodisalari, voqeliklar spektrini anglatish uchun qo‘llanilib, o‘zining turli xil ma’nolari, grammatik xususiyati va har xil til sathlarida qo‘llanishi bilan ajralib turibdi. Funksional jihatdan modallik turli xil vositalar bilan, jumladan, grammatik, leksik va frazeologik vositalar yordamida o‘z ifodasini topadi [14; b. 263]».

Tilshunoslikda modallik tushunchasi so‘zlovchining aytilayotgan gap mazmuniga, voqelikka munosabatini anglatuvchi ma’no kategoriyasi sifatida qaraladi, ya’ni obyektiv voqelik so‘zlovchi ongida aks etadi va u o‘z munosabatini turli semantik kategoriyalar yordamida bildiradi. Demak, so‘zlovchining kommunikativ niyati, uning gap mazmuniga emosional munosabatini bildiruvchi subyektiv modallik garchi gapning faollashtiruvchi qismi bo‘lsa ham, ularning tabiati va gap tuzilishidagi asosiy roli shunchalik xilma-xilki, ularni faqat grammatik rejada «turli sathlilik», semantik rejada so‘zlovchining «munosabatini ifodalash» belgisi ostida birlashtirish mumkin, xolos.

«Modallik kategoriyasi lisoniy birliklarda namoyon bo‘lib, obyektiv modallik diktumga, subyektiv modallik esa gapda ifodalangan obyektiv mazmunga so‘zlovchining munosabatini ifodalaydi va modusga kiradi. Bu holda sintaktik modallik gapni shakllantirishdagi o‘rni va subyektning gap mazmunidagi munosabat darajasiga qarab ikki guruhga – obyektiv va subyektiv modallikka bo‘linadi. Obyektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy belgilardan biri, asosi hisoblansa, subyektiv modallik obyektiv modallik zamiridagi qo‘shimcha modallikdir» [9; b. 38–41].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. V.G.Gak modallik kategoriyasini keng ma’noda tushunib, unga hamma ifoda shakllarini kiritadi. Chunki ularda obyektiv voqelikning realligi (tasdiq) yoki ehtimolligini aks ettirish (ifodalash) hamda so‘zlovchining subyektiv munosabati o‘z ifodasini topadi. Bunday holda modallikka quyidagilar kiradi: 1) gapni maqsadga ko‘ra yo‘naltirish: darak, so‘roq, buyruq ma’nolari shu jihatdanki, birinchi gap voqelik – reallikni ifodalasa, ikkinchi va uchinchi gaplar esa gapning mumkin-ehtimolligini anglatib keladi; 2) to‘g‘ri chinlik, ya’ni tasdiq (inkor) birinchi reallikni; ikkinchisi, noreal voqelikni ifodalaydi; 3) so‘zlovchi yoki subyekt harakatining aytilayotgan gap mazmuniga munosabati, uning obyektiv voqelikka bo‘lgan munosabati va bahosi (voqeiy-tasdiq, zaruriy, ehtimoliy, istak); 4) gapda (hukmda) ekspressiv ma’nolarning uyg‘unlashib ketishi (turli xil his-tuyg‘ularning ifodalanishi): umid (ishonch), kutish, hayron qolish, norozilik va hokazolar [7; b. 108].

Universal kategoriyalarning qiyosiy-chog‘ishtirma va tipologik tadqiqotlar doirasida, til materiallarini kengroq tavsiflab berish, umuman olganda, ularning o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘lanib ketishi an’anaviy holatga aylangan.

Sintaktik konstruksiyalar semantikasi haqida so‘z yuritilganda o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan «modallik», «modus» va «diktum» atamalariga to‘xtalib o‘tish lozim. Modus va diktum gaplarning semantik xususiyatini belgilab beruvchi muhim tushunchalar hisoblanadi.

Ma’lumki, modus kategoriyasi haqidagi tushuncha tilshunoslik faniga Sh.Balli tomonidan kiritilgan bo‘lib, tadqiqot predmeti tarzida muhokama qilinadi.

Sh.Balli mantiqiy tuzilgan gap bo‘laklari orasidagi modal subyekt, modal fe’l va diktum munosabatlarini tahlil qilar ekan, u modallik ma’nosi shaxssiz gaplarda emas, balki shaxsli gaplarda ko‘proq qo‘llanishini misollar yordamida tushuntirib berishga harakat qilgan. Sh.Balli fikricha, eksplisit gapning ikki qismdan tashkil topganligini, ya’ni birinchisi voqelik, holat jarayonlari bilan munosabatda bo‘lganligi uchun uni diktum (lotincha «dictum» – «aytilgan») deb ataydi. Ikkinchisi bosh gap qismini qamrab oladi, chunki usiz aslo gap bo‘lishi mumkin emas, ayniqsa, modallikning ifodalanishiga fikrlayotgan shaxs tomonidan munosabat bildirilishi va u amalga oshirilishini izohlaydi. Olim modallikning mantiqiy va analitik ifodalanishida modal fe’li xizmat qiladi hamda ularning modal subyektlari modusni (lotincha «modus» – «shakl, usul») hosil qilishi, diktumni mazmun jihatdan to‘ldirishini asoslaydi: «Diktum gapda nima haqida (voqelik, vaziyat-sharoit, fakt) gap borayotganligini anglatsa, modus so‘zlovchi (yozayotgan) shaxsning (subyektning) berilayotgan xabarga munosabati (subyektiv modallik) yoki faktning (til vaziyati, voqelik) voqelikka bo‘lgan munosabatini tasvirlab beradi, ulardan biri tasavvurni hosil qiladigan jarayonga korrelyativ (uyg‘unlashgan) bo‘ladi, uni «diktum» deb, ikkinchisi fikrlovchi subyekt amalga oshiradigan operatsiyalarga korrelyativ bo‘ladi, uni «modus» deb ataladi» [2; b. 69].

V.G.Gak modus kategoriyasi ostida kommunikativ topshiriq, inkor, aktual bo‘linish, modallik, shaxs, determinatsiya, emotivlik, deyksis, murojaat, istak kabilarni tushunadi: «Diktum (dictum – aytilgan) predmet situatsiyaga tegishli bo‘lsa, modus esa (modus – shakl, usul) nutq situatsiyasiga qarashlidir. Diktum matnda nima haqida gapirilganini anglatsa, modus tasavvurimizdagi butun borliqni, voqelikni ifodalab, real olamning voqellikka va so‘zlovchining uzatilgan axborotga munosabatini anglatib keladi» [3; b. 36].

Olim N.Mahmudov o‘z tadqiqotida ergashgan qo‘shma gaplardagi diktum va modus mazmunining ifodalanishini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini keng va atroflicha yoritadi: « bu o‘rinda gap ma’nosidagi ikki xil tabiatli mazmunni – diktum va modusni farqlash kerak bo‘ladi» [13; b. 166].

Shu ma’noda T.B.Alisovaning modallik kategoriyasi so‘zlovchining o‘sha voqelikka bo‘lgan munosabati bo‘lib, unda so‘zlovchi predmet va uning belgisi orasida bog‘liqlik o‘rnatishini asoslaydi: «Har qanday gapning predikativlik tabiati ikki pog‘onadan iborat: birinchisi, denotat (diktum) subyekt-predikativ munosabatlarini anglatsa, ikkinchisi modus-so‘zlovchi tomonidan ularga berilgan bahodir» [1; b. 54 – 64].

F.Bryuno modusning qator ma’nolarini berishga harakat qilgan: «Modus savol (javob, inkor), tasdiq va mustaqil modallik tarkibiga kiruvchi hukm, so‘zlovchining his-tuyg‘usi va istagi kabi ma’nolarni anglatadi» [16; b. 65].

Y.M.Volf nutq planida aksiologiyani ifodalashda turli xil leksik vositalar xizmat qilishini ta’kidlash bilan birga, bahoni aksiologik modallik sifatida qaraydim: «Modus atamasi ostida aksiologik modallikni ifodalash vositalari (baholash fe’llari, predikativlar fikr- mulohazalarni ifodalovchi fe’llar va hokazo) yotadi» [5; b. 80].

Hukm modalligini tushunish mantiqiy modallik sifatida G.V.Kolshanskiy ishlarida o‘z aksini topdi deyish mumkin. U shunday deydi: «Tilni mantiq aspektida o‘rganish jarayonida mulohazaga kiritilgan aletik, deontik va epistemik modallik va ular bilan bog‘langan modusning tiplari, modal operatorlarga (shrifterlar) ajratiladi» [11; b. 89].

Sh.Balli, T.Lomtev, F.Bryuno, E.Benvenist, J.Dyubua, F.Dyubua- Sharlye, B.Potyelarning grammatik kategoriyalar masalasi doirasida modus va diktum munosabatlari haqidagi fikrlarini tahlil qilib, V.Gak «modus nutq aktining maqsad va sharoitiga qarashli bo‘lib, modal-kommunikativ aspektda so‘zlovchilarning muloqot maqsadlarini ifodalash uchun xizmat qiladi» – degan xulosaga keladi [8; b. 28].

T.V.Shmeleva sodda va qo‘shma gaplar tarkibidagi diktum qismlarga e’tiborni qaratib, ularning semantikasini chuqur tahlildan o‘tkazadi. Gap komponentlarida moduslar qismini o‘rganish muammosini ko‘tarib chiqadi hamda modusni ifodalovchi xususiyatlarni aniqlaydi. Olimaning fikricha, modus kategoriyasi metakategoriya, aktualizatsiya, kvalifikativ va ijtimoiy guruhlarga ajraladi: «Modusni ifodalovchi xususiyatlar quyidagicha: 1) implisitlikka intilish, ya’ni o‘z ifodasida verballik xususiyati yo‘qligi; 2) eksplitlik holatda sochilib ketishi, ya’ni modusning butunlay turli xil til vositalari bilan ifodalanishi; 3) modus ko‘rsatkichlarining uyg‘unligi bir paytda bir necha modus ma’nolarini ifodalashi» [15; b. 29].

N.N.Boldirev modus kategoriyalari insonning oldindan o‘ylagan fikrlarini, gap mazmuniga munosabatini ifodalab, modus kategoriyasini aksiologik kategoriya sifatida baholaydi: «Modus kategoriyasi o‘z tabiatiga ko‘ra insonning bilish faoliyati, uning turli xil realliklarga baho berish qobiliyati bilan bog‘liq» [4; b. 52].

M.Vsevolodova o‘z tadqiqotidan kelib chiqib: «Mustaqil modallik kategoriyasi (obyektiv va ichki semantika) va modusni so‘zlovchi fikridan kelib chiqib, subyektivlikni ifodalovchi kategoriya sifatida qarash, ularni bir-biridan ajratib chegaralash kerak» [6; b. 65] deb ta’kidlaydi.

O.A.Kobrina modus doirasiga kiruvchi baholash, modallik, emotivlik, evidensiallik, taxminiylik, ishonch, inkor kabi kommunikativ kategoriyalarni ko‘rib chiqadi, «umumiy planda hamma modus kategoriyalar biror-bir o‘lchovda baholanib, ular ma’nolar ifodalashda o‘zining lisoniy xususiyatlariga ega ekanligini anglaydi hamda ularni alohida kategoriya sifatida mazmun va ifoda jihatidan alohida ajratib o‘rganishga da’vat etadi. Modallikni modusga bo‘lgan munosabati ta’siri ostida tadqiq qilib, kengroq qo‘llanishi va modallik «modus doirasi»ga kiritilish kerakligini kuzatadi: «Modus gapning mazmunining subyektivligini hosil qiluvchi obyekt hisoblanib, u so‘zlovchi shaxsning voqelik faktiga munosabatini anglatadi. Modus haqidagi fikrlar so‘zlovchi shaxs tomonidan bildiriladi. Shuning uchun moduslar cheksiz har xillikka ega bo‘lib, ular ham implisit, ham eksplisit shakllarida bo‘ladi. Modus diktum ustiga qo‘yilishi mumkin yoki teskari holatlarining yuz berishi kuzatiladi» [10; b. 79 – 85].

O.A.Kobrina fransuz tilida il olmoshining shaxssiz gaplarda modusni sintaktik konsept sifatida qabul qilish bilan birga, yagona fransuz tili struktur sxemasini il+ V3ning. hosil qilishga xizmat qilishini aytadi. Rus tilida esa shunday sintaktik konsept yo‘q, ya’ni modusni ifodalashga maxsus struktur sxema mavjud emasligini izohlaydi. Modus ma’nolarni ifodalashda rus tilining fransuz tilidan farqini, unda har xil leksik vositalar kengroq qo‘llanishini aniqlaydi. Fransuz tilida il olmoshi bilan kelgan shaxssiz gaplar rus tiliga tarjima qilinganda quyidagi manzara namoyon bo‘lishini misollar bilan asoslab beradi: « Il se peut qu’Alias, demain, me désigne pour une autre mission *» (*Возможно, что Алиас, завтра, направит меня в другую командировку) (ASE,164). O.A.Kobrina til materiali modusni modallikni hosil qiluvchi obyekt sifatida

qaraydi. «Modusning subyektiv ma’nolari keng qamrovli ma’nolar doirasiga kirib, modallikni ifodalaydi» [10; b. 89 – 95].

Y.Y.Kordi esa fransuz tilida sodda gaplarning to‘rtta formal – darak (yoki xabar), so‘roq, buyruq, istak tiplariga mos kelgan gaplar bir-biridan ikki bosh bo‘lakli holatda (bir bosh bo‘lakli, intonatsiya, ba’zan so‘z tartibi, maxsus yordamchi so‘zlarning, so‘roq olmoshlari, syubjonktivning formanti – va hokazo) qo‘llanishi bilan farq qilib, ularda fe’l mayllaridan: xabar va so‘roqda indikativ va kondisional, buyruq va istakda esa buyruq va syubjonktiv qo‘llanishini tahlil qiladi: «Murakkab qo‘shma gaplarda xabar shakllari va urg‘uning real funksiyasi leksik vosita va bosh gapning kesimi - modus fe’l bilan ifodalanishi mumkin: (1) Marie vient (xabar), (2) Marie, vient-elle? (savol), (3) Marie, viens! (buyruq), (4) Pourvu que Marie vienne! (tilak). (5) Je demande si Marie vient» [12; b. 73].

Gapning qaysi turi bo‘lmasin, sodda yoki qo‘shma – ularda modus va diktum ham mavjud bo‘ladi. Ko‘p holatlarda, qo‘shma gaplarda modus va diktum o‘ziga xos tarzda ifodalanib keladi. Ma’lumki, qo‘shma gaplarda ikki yoki undan ortiq voqealar ifodalanadi.

V.G.Gakning: «Diktum – voqelikni aks ettirsa, modus so‘zlovchining voqelikka bo‘lgan munosabatini (uning bilimi, shubhasi, hissiyoti, xohishi va shu kabilar) ifodalaydi» [12; b. 71] – degan fikriga qo‘shilamiz.

Natijalar. Bizning nazarimizda, diktum va modus bir-biriga bog‘liq bo‘lgan va bir-birini to‘ldirib kelgan bitta voqeani ifodalaydi. Modus va diktumni quyidagi misollar yordamida tushuntirib berishga harakat qilamiz:

Fransuz tilida	**O‘zbek tilida**
Karima parle.	*Karima gapiryapti.*
Karima ne parle pas.	*Karima gapirmayapti*
Karima a parlé.	*Karima gapirdi.*
Karima parlera.	*Karima gapirmoqchi.*
Karima parlera, peut-être.	*Karima gapirsa kerak.*
Karima a-il parlé?	*Karima gapirdimi?*
Karima, parle!	*Karima, gapir!*
Je veux que Karima parle.	*Men Karimaning gapirishini xohlayman.*
Je ne crois pas que Karima parle.	*Men Karimaning gapirishiga ishonmayman.*

Berilgan gaplarning hammasida bitta voqelik, ya’ni bitta subyekt Karima va uning gapirishi haqida so‘z boryapti. Ammo ular bir-biridan ma’no va mazmun jihatidan zamonga ko‘ra farq qiladi. Misolda reallik (tasdiq, so‘roq, inkor, taxmin) so‘zlovchining voqelikka munosabati (Je veux, je ne crois pas) ifodalangan til elementlari o‘zgaruvchandir. «O‘zgaruvchan va o‘zgarmaydigan elementlar bir necha sintaktik nazariyalarda modus va diktum deb qaralgan. Diktum (lotin tilida dictum aytilgan fikr, gap) gapda nima haqida fikr (voqea, fakt) ketayotganligini anglatib, xabar qiladi. Berilgan misollar zamirida diktum tushunchasi propozisiya tushunchasiga mos tushadi» [9; b. 40]. Yuqoridagi gapning asosiy propozisiyasi – bu Karimaning gapirishidir.

Muhokama. Fransuz tilida «modus» konsepti maxsus sodda gap struktur sxemasini ot, sifat, son, olmosh bilan birgalikda qabul qilishi mumkin.

O‘zbek tilida «modus» konsepti leksik-frazeologik sathda qoladi. O‘zbek tilida ham modusning leksik vositalar bilan ifodalanishida, modal ma’nolarni tarjima jarayonida kirish so‘zlar va gaplar ifodalab keladi.

O‘zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilishda ko‘plab turli xil o‘zbekcha kirish so‘zlar haqidagi ma’lumot shaxssiz il olmoshining yagona konstruksiyani tashkil qilishi bilan farq qilishi, sintaktik konsept modusga asoslanishi bilan izohlanadi.

Modallik munosabatlari ham modallik, ham modus va diktum tadqiqotlarida muhokama qilinsa-da, ammo ular orasidagi ziddiyat yetarliga aniqlanmagan. Lingvistik adabiyot modus haqida aniq yagona ta’rif bera olmaganligining guvohi bo‘lamiz. Bu lingvistik modallik bilan mantiqiy modallik to‘laligicha bir-biriga mos kelmasligi bilan izohlanadi.

Bir voqelikning o‘zi ham modus, ham modallik sifatida qaralishi mumkin. Diktum nominativ gapda obyektlar orasidagi mazmun mohiyatini ochib beradi, modus–modal-kommunikativ aspektda so‘zlovchilarning muloqot maqsadlarini ifodalaydi. Modus haqidagi fikrlar so‘zlovchi shaxs tomonidan bildiriladi. Modusni nutq aktining maqsadi va shartiga tegishli deb aytish mumkin. Diktum baholash mazmunni ifodalaydi, modus esa baholashda turli xil gapning semantik-sintaktik variantlarini hosil qilish xususiyati bilan ajralib turadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, modus va diktum tushunchalari modallik kategoriyasi lisoniy birliklarda namoyon bo‘ladi, obyektiv modallik diktumga, subyektiv modallik esa gapda ifodalangan obyektiv mazmunga so‘zlovchining munosabatini ifodalaydi va modusga kiradi.

Fikrimizcha, diktum va modus bir-biriga bog‘liq bo‘lgan va bir-birini to‘ldirib kelgan bitta voqeani ifodalaydi. Bir voqelikning o‘zi ham modus, ham modallik sifatida qaralishi mumkin. Birinchidan, diktum nominativ gapda obyektlar orasidagi mazmun mohiyatini ochib bersa, ikkinchidan, modus modal-kommunikativ aspektda so‘zlovchining muloqot maqsadini ifodalash uchun xizmat qiladi. Modusni nutq aktining maqsadi va shartiga tegishli deb aytish mumkin. Modus haqidagi fikrlar so‘zlovchi shaxs tomonidan bildiriladi. Diktum baholash shaklini (mazmunni) ifodalagan bo‘lsa, unda modus esa baholashda turli xil gapning semantik-sintaktik variantlarini hosil qilish xususiyati bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR:

1. Алисова Т.Б. Дополнительные отношения модуса и диктума. 2-е изд. СПБ., 2002. – 288 с.

2. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. М.: изд-во иностр. литер., 1955. – 416 с.

3. Балли Ш. Теория грамматика французского языка. – М., 2004. – 558 с.

4. Болдырев Н.Н. Категория как форма репрезентаций знаний в языке. // Концептуальное пространство языка. – Тамбов, 2005.– 52 с.

5. Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. Изд. 2-е, доп. – М., 2002.– 80 с.

6.Всеволодова М.В. Теория функционально-коммуникативного синтаксиса. – М., 2000. – 305 с.

7. Гак В.Г. Француз тили назарий грамматикаси. – Самарқанд: СДЧТИ, 2002. – 108 б. (М.Мирзаев таржимаси)

8. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. – М.: Высшая школа, 2000. – 221 с.

9. Ёқубов Ж.А. Модаллик категориясининг мантиқ ва тилда ифодаланиш хусусиятлари. Доктр. дис. Т., 2007. – 315 б.

10. Кобрина О.А. Модусные категории как способы выражения субъективного отношения человека к выказыванию. – Вопр. когнитив. лингвистики. – Тамбов. – 2006. – № 2 (008). – 79–91 с.

11. Колшанский Г.В. О содержании языковой категории модальности. – ВЯ. – №1. – С.89–98 с.

12. Корди Е.Е. Модальные и каузативные глаголы в современном французском языке. – Ленинград: Наука, 1988. – 165 с.

13. Маҳмудов Н., Нурманов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 166 – 169 б.

14. Теория функциональной грамматики. Темпоральность. Модальность. – Л.: Наука, 1990. – 263 с.

15. Шмелева Т.В. Семантический синтаксис: текст лекций, Красноярск, 2-е изд. 1994. – 29 с.

16. Brunot F. La pensée et la langue: Methode, principe et plan d’une théorie nouvelle du langage appliquée au français. – P.: Masson, 1965. – 982 p.

UO‘K 81

QADIMGI RUS ISMLARI

Petrova Natalya Yevgenievna,
Minin nomidagi NSPU professori, Nijniy Novgorod
Koziyeva Iqbol Komiljonovna,
Buxoro davlat universiteti
Rus tilshunosligi kafedrasi o`qituvchisi
ikbolkoziyeva0105@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada antroponim shaxsiy ism, obyektning individualizatsiyasining o'ziga xos xususiyatiga ega ekanligi: nominatsiyaning har bir obyekti (shaxs) ismga ega ekanligi haqida aytiladi. Yana nomlar registri cheklanganligi, shaxsiy ismlar takrorlanishi, bu esa qo'shimcha nom berishga majbur qilinishi haqida bayon etiladi. Maqolada rivojlangan jamiyatda shaxsning rasmiy nomi uning nomi formulasiga egaligi ta’kidlangan. Ba'zi hollarda odam qandaydir tashqi xususiyatga ega bo'lishi, boshqalarida - axloqiy fazilatlari, qabila yoki oiladagi mavqeyi, ota-ona va qarindoshlarning unga nisbatan munosabati, ba'zan esa kasbi bilan ajralib turishi haqida bayon qilingan.*

Kalit so’zlar: *antroponim, onomastika, shaxsiy nomlar, tilshunoslik, antroponimiya, leksik tizim.*

ДРЕВНИЕ РУССКИЕ ИМЕНА

Аннотация. *В статье говорится, что антропоним - это личное имя, имеющее свойство индивидуализации объекта: у каждого объекта номинации (лица) есть имя. Далее говорится, что регистр имён ограничен, личные имена повторяются, что вынуждает давать дополнительные имена. В статье подчёркивается, что официальное имя человека в развитом обществе имеет формулу его имени. В одних случаях констатируется, что человек обладает какими-то внешними характеристиками, в других - моральными качествами, положением в племени или семье, отношением к нему родителей и родственников, а иногда констатируется, что его отличает профессия.*

Ключевые слова: *антропоним, ономастика, личные имена, лингвистика, антропонимия, лексическая система.*

OLD RUSSIAN NAMES

Abstract. *The article states that an anthroponym is a personal name, a characteristic of the individualization of an object: that each object (person) of a nomination has a name. It is further stated that the Register of names is limited, that personal names are duplicated, which is forced to give an additional name. The article claims that in a developed society, the official name of a person has the formula of his name. In some cases, it is stated that a person has some external characteristics, in others - moral qualities, position in the tribe or family, the attitude of parents and relatives towards him, and sometimes it is stated that he is distinguished by his profession.*

Key words: *anthroponymy, onomastics, personal names, linguistics, anthroponymy, lexical system.*

Kirish. Ismlar dunyodagi hamma narsa kabi o'z tarixiga ega. Ular boshqa so'zlar kabi ularning yaratuvchisi bo’lgan xalq tilidan o'chib ketgan holda, inson tasavvuri bilan yaratiladi, gullab-yashnaydi, eskiradi va o'ladi. Rus nomlarining tarixi juda uzoq davrga borib taqaladi hamda rus xalqi va tili tarixi bilan chambarchas bog'liq.

Taxminan to'rt ming yil avval Odra, Vistula va Dnepr daryolari oralig'ida cho'zilgan tekisliklarda qadimgi qabilalar - zamonaviy slavyanlarning ajdodlari yashagan. Keyingi asrlarda ular qo'shni yerlarga joylashdilar: g'arbda - Laba (Elba) daryosigacha, sharqda - O'rta Volga mintaqasi. Bu qabilalar qabilaviy tuzumda yashagan va bir xil tilda gaplashgan, olimlar hozir uni umumiy slavyan tili deb atashadi.

Keyinchalik, birlashish jarayoni boshlanganda qabilalar, Sharqiy Yevropada, Dnepr, Volxov va Volganing yuqori oqimida yashagan slavyanlar rus xalqiga asos solgan. Boshqa tillar va o'zi kelib chiqqan umumiy slavyan tili bilan oilaviy aloqalarini yo'qotmagan bo'lsa-da, ularning tili boshqa slavyanlarning tilidan biroz farq qila boshladi.

Asosiy qism. Rus yozuvining eng qadimgi yodgorliklari 10-11 - asrlarga to‘g‘ri keladi. Shu vaqtdan boshlab ruscha nomlarning ishonchli, ilmiy asoslangan tarixi boshlanadi.

Qadimgi rus nomlari odamlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri edi. Bu ism odamga uni oila yoki urug'dan ajratish mumkin bo'lgan belgi sifatida berilgan.

Ba'zi hollarda odam qandaydir tashqi xususiyatga ega bo'lsa, boshqalarida - axloqiy fazilatlari, qabila yoki oiladagi mavqeyi, ota-ona va qarindoshlarning unga nisbatan munosabati, ba'zan esa kasbi bilan ajralib turardi. Bundan tashqari ismlar nafaqat hozirgi kabi erta bolalikda, balki ulg'ayganda ham berilgan. Shu bilan birga, ulg'aygandagi nom ko'pincha bolalikdagi ismi bilan bir vaqtda yashagan.

Inson xarakterini ifodalovchi bir nechta qadimgi rus nomlari:

- odamning tashqi ko'rinishiga ko'ra: Мал, Бел, Косой, Рябой, Кудряш, Черныш;
- insoniy xarakterga ko'ra: Добр, Умник, Храбр, Горд, Молчан, Дурак, Боян;
- oiladagi o'rni bo'yicha: Первый, Второй, Друган, Третьяк, Ждан, Нечай, Меньшак, Старшой;
- kasbi bo'yicha: Кожемяка, Селянин, Воин.

Bunday ismlarga birinchi marta duch kelganda, ba'zilar ularning haqiqiyligiga ishonmasliklari mumkin va bu ismlar emas, balki taxalluslar deb aytishadi. Biroq aslida bu insonlarning ismlari va ularning har birini hujjatlashtirish mumkin. Va bu taxalluslar ekanligiga kelsak, bu ham to'g'ri. Axir, ism va taxallusning Qadimgi Rusda hech qanday farqi yo'q edi.

Qadimgi qo'lyozma "Dastlabki rus yilnomasi" kitobida, masalan, Мал ismli Drevlyanlarning Sharqiy slavyan qabilasi rahbari esga olinadi. Bu ism nimani anglatadi? Faqat uning egasi past ekanligidan tashqari boshqa hech narsa ifodalamaydi. Bunday belgi nomi bilan shahzodani baland bo'yli jangchilar olomonidan topish oson edi. Мал nomi bizga kulgili tuyuladi, lekin ming yil oldin ismlar va nomlar odatiy hol edi va ular berilganicha qabul qilingan.

Храбр va Добр ismlari qadimgi qo'lyozmalarda ham topilgan. Ular o'z egalarining yuksak axloqiy fazilatlari haqida gapiradilar. Masalan, Добрыня nomi (Добр nomidan kelib chiqqan va "juda mehribon", "juda yaxshi" degan ma'noni anglatadi) mashhur Kiev knyazi Владимирning amakisi nomi bo'lgan (10-asr). U o'zining g'alabalari bilan mashhur bo'lgan boy Рязан knyazining o'g'li, jasur jangchi Добрыня haqida hikoya qiluvchi ajoyib rus dostonlarida ham keng tarqalgan. Ushbu dostondagi Добрыня Никиточ o'z o'rtoqlari Илья Муромец va Алёша Папович bilan birgalikda taniqli rus rassomi В. М. Вастецов tomonidan "Bogatiri" suratida tasvirlangan.

Ждан "kutilgan odam" degan ma'noni anglatadi. Bu nom qadimgi Rusda tug'ilgan bolalarga berilgan va ota-onalar uchun katta quvonch bo'lgan. Endi faqat Жданов familiyasi bu nomning izlarini saqlab qoladi.

Первый va Второй kabi ismlar bolalar soni ko'pincha o'ndan ortiq bo'lgan ko'p bolali oilalarda paydo bo'lgan. Bunday hollarda xarakterli nomlarni tanlash qiyin edi. Ism oddiygina tanlangan: birinchi bo'lib tug'ilgan - Первый yoki Первик ismini olgan, ikkinchi tug'ilgan - Второй yoki Друган yoki Другиш bo'ladi. Uchinchi o'g'il Третий yoki Третьяк ismini olgan. Shunday qilib Девятый va hatto Десятый.

Bunday raqamli nomlar nafaqat ruslar yoki, umuman, slavyanlar orasida, balki Yevropaning boshqa xalqlari orasida ham topilgan. Ular qadimgi rimliklar orasida juda keng tarqalgan: Kvint— «Pyatyy», Sekst — «Shestoy», Septymiy — «Sedmoy», Oktaviy — «Vosmoy», Nonniy — «Devyatyy», Dotsim— «Desyatyy». Shu jumladan, ulardan biri rus tiliga lotin shaklidan kirdi, bu - ayol nomi Nonna bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilganda to'qqizinchi degan ma'noni anglatadi. Qadimgi rus otlari va raqamlarining ildizlaridan Первой, Первушин, Другов, Вторий, Третьяков, Девятовский, Десятовский va shunga o'xshashlar shakllangan.

Kenja o'g'liga Меньшик (Меньшок, Меньший) nomlari berilgan va bunday oilada to'ng'ich o'g'il Старший ismini olgan. Ehtimol, bu nomlar kattalarga berilgan, chunki bolalarning qaysi biri oxirgi bo'lishini oldindan aniqlash qiyin.

Kasbiy bo'yoqdorlikka ega ismlarga, asosan, ulg'ayganda berilgan va bular: Селянин, Кожемяка, Боян.

Qadimiy "Yil fasllari hikoyasida" Kiev knyazligining jangchisi Кожемяк jang maydonida Pecheneg qahramoni bilan yakkama-yakka jangga kirishganligi va uni mag'lub etgani haqidagi afsonani uchratish mumkin va bu butun jangning natijasini hal qilgan. U o'z nomini "teri oshlash" bilan shug'ullanganligi sababli olgan.

Селянин "dehqon", "shudgor", "qishloq yashovchisi" degan ma'noni anglatadi.

Селянин ismi "Volga va Mikula haqida" xalq dostonidan ma'lum. Noma'lum shudgorchining oti bilan uch kun yurgan knyaz Volga, u bilan uchrashganda, uning ismi nima ekanligini so'raydi. Dehqon unga javob beradi:

Ай же, Вольга ты Святославгович!
Ржи напашу, в скирды складу,
В скирды складу да домой выволочу,

Домой выволочу, дома вымолочу,
Драни надеру да и пива наварю,
Пива наварю, мужичков напою,
Станут мужички меня покликивати:
Ай, ты, молодой Микулушка *Селянинович*

Mikulaning bu javobidan uning otasi Селянин deb atalganligi aniq: uning otasining ismi shu nomdan kelib chiqqan.

Qadimgi Боян nomi ham qiziq. Ma'lumki, bu ism XI asrda shoir va improvizatsiyachi bo‘lgan Боян ismli musiqachi o'z qo'shiqlarini shahzoda bayramlarida va dafn marosimlarida arfa sadolari ostida kuylagan.

Bu nom ildizi - jang asosida tuzilgan. Demak, Боян - "jangchi", "mard", "mardlik bilan kurashadigan". Ehtimol, bu nom taniqli qo'shiqchiga bolaligida emas, balki dushmanlar bilan ko'plab janglarda g'ayrioddiy jasorat ko'rsatganidan keyin berilgan.

Qadimgi qo'lyozma hujjatlarida Боян nomi o unlisi bilan uchraydi, keyinchalik u "Moskva uslubida" a bilan talaffuz etila boshlaydi: Баян ismning qayta talaffuz qilinishi uni qayta ko'rib chiqishga ham olib keldi: ular buni "bayat", ya'ni "gapirmoq" - "so'zlovchi", "hikoyachi", "qo'shiq muallifi" fe'li asosida tushuntira boshladilar. Mashhur "Igorning yurishi haqidagi doston" yaratilgandan so'ng, u iste'dodli musiqachi ekanligi ham ma'lum bo'ldi - ehtirosli tasavvurga ega ijrochi va xonanda:

Вещий Боян,
Если песн* кому сотворить хотел,
Растекался мыслию по древу,
Серым волком по земли,
Сизым орлом под облаками.
Он вещие персты свои на живые струны вскладывал,
И сами они славу князьям рокотали.

Qadimgi taniqli musiqachi sharafiga nomlangan xalqning sevimli cholg'u asboblaridan biri bayandir. Воин nomi shundoq ham tushunarli, ammo bu bizga g'alati tuyuladi, deyarli aql bovar qilmaydi. Biroq u Rossiyada juda uzoq vaqt, XIX asrgacha mavjud edi. O'shanda Rimskiy-Korsakovlar oilasida o'g'illardan biri bu ismni olgan: u mashhur rus bastakorining ukasi Воин Андреевич edi.

Ota-bobolarimiz o’z ma’nosida atash mumkin bo'lgan ismlardan tashqari, ism - metaforalarni, ya'ni odamning tashqi qiyofasini yoki xarakterini tasvirlaydigan boshqa obyekt bilan solishtirish orqali taxalluslarni ham ishlatishgan. Qadimgi slavyanlar orasida metaforik nomlarning paydo bo'lishining sababi, umuman olganda, so'zlarga alohida qarashlari edi. Ularning fikriga ko'ra, so'z mo'jizaviy kuchga ega bo'lib, "hamma narsani qila olardi": jangchilarni qurol-yarog' ko'tarish, odamlarga tinchlik olib kelish, yaradan oqayotgan qonni to'xtatish va yomonlik qilish kabilar. Ular insonning shaxsiy ismi nafaqat fe'l-atvorni aks ettirishi, balki uni shakllantirishi, odamni qarindoshlari xohlaganidek qilishi mumkin deb o'ylashgan.

Ota-bobolarimizga butun dunyo jonli bo'lib tuyuldi, barcha narsalar odamlarnikiga o'xshash xususiyatlarga ega edi va shuning uchun qadimgi slavyanlar qushlar, hayvonlar, o'simliklar va turli xil narsalarning nomlarini shaxsiy nomlar sifatida ishlatishni boshladilar: Волк, Медведь, Соловей, Жук, Орел, Щука, Дуб, Береза va boshqalar.

U yoki bu hayvonga o'xshash istagi bizga kulgili tuyuladi. Ammo qadimgi odamlar boshqacha fikrda bo'lishlari aniq: "Ha, bo'ri xunuk, lekin u kuchli, jasur va chidamli. Va bu xususiyatlar "odam uchun foydalidir, shuning uchun nega "volk" so'zini shaxsiy ism sifatida ishlatmaslik kerak, agar u ism egasi kerakli fazilatlarini yetkazishga qodir bo'lsa." Shuning uchun, qadimgi Rusda bunday dahshatli "hayvon" ismli odamlarni tez-tez uchratish mumkin edi.

Волк nomi uzoq vaqtdan beri mavjud. XV asrda bu keng tarqalgan edi va hech kimni ajablantirmadi. Bu nomlar bilan nafaqat uzoq o'rmon qishloqlaridagi oddiy odamlar, balki Moskvada yashovchi va yuqori davlat lavozimlarida ishlagan zodagonlar ham atalgan. Tarixdan ma'lumki, masalan, 1492-yilda tajribali rus diplomati, kotibi Волк Курицын Moskvadan Venaga, Germaniya imperatori saroyiga elchi sifatida yuborilgan.

Keyinchalik, bu nom ruslar orasida qo'llanilmaydi va faqat Волков familiyasi bizga avvalgi tarqalishini eslatadi. Ammo u hali ham dunyoning ko'plab tillarida mavjud, bu turdosh otlardan foydalanish tamoyilining xalqaroligi - turli hayvonlar va uy hayvonlari nomlari - jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida shaxsiy odam nomlari rolida ishlatilishi bilan tushuntiriladi: serblar orasida Волк nomi Vuk deb yangraydi, nemis tilida esa bu Volfgang, Adolf, Rudolf* ismlarining bir qismi sifatida topilgan. U qadimgi Yevropa tillarida ham topilgan: got tilida - Ulf yoki Vulf, lotin tilida - Lupus. Aytgancha, lotincha Lupusdan, A. N. Ostrovskiyning "Puchina" pyesasida uchraydigan ruscha Lup nomi keladi - Lup Lupych Pereyarkov.

Соловей nomi qadimda iste'dodli qo'shiqchilarga berilgan. Har bir inson, albatta, "Qaroqchi Bulbul" dostonini eslaydi

У тоя-то у речки у Смородинки,
У тоя-то березы у покляпыя
и свистел так, что травушка-муравушка к земле
приклонялась, а людишки все замертво падали.

Ba'zilarning fikricha, bu doston nihoyatda kuchli ovozga ega bo'lgan qush haqida. Aslida, bunda Соловей ismli odam haqida gapiradi. U Chernigovdan Kievgacha bo'lgan o'rmon yo'lida "halol odamlarni" yo'q qilgan qaroqchi edi va qahramon Илья Муромец tomonidan qo'lga olingan.

Nega bu qaroqchi bunday "qushga o'xshash" ismni olganini taxmin qilish qiyin emas: u, aftidan, nafaqat kuchli, balki mohirlik bilan hushtak chalishni ham bilardi. Solovyov familiyasining keng tarqalishi bizni qadimgi kunlarda Rossiyada boshqa tinch kasb egalari bo'lgan Solovyovlar bo'lgan deb o'ylashga majbur qiladi.

Shaxs ismlari sifatida har xil metaforalarning qo‘llanilishi ham ajdodlarimizning buyuk shoirlik iste’dodidan dalolat beradi.

Inson so'zining ma'lum bir g'ayritabiiy kuchiga ko'r-ko'rona ishonish boshqa turdagi metaforik ismlarni - ko'zdan asrovchi, "hiylali" nomlarni keltirib chiqardi.

Ota-bobolarimiz hamma joyda ularga ko'rinadigan "yovuz ruhlar", "yomon so'zlar", "yomon ko'z" va boshqa xavf-xatarlardan juda qo'rqishgan. Ularning g'oyalariga ko'ra, halol, aqlli, ijobiy fazilatlarga ega bo'lgan, odatda nomlari-xususiyat kasb etgan odamlar eng katta xavfga duchor bo'lgan. "Yovuz odamlar" va "yovuz ruhlar" ni aldash uchun g'amxo'r ota-onalar ataylab o'z yaxshi farzandlariga "yomon" ismlar qo'yishadi: aqlli va chiroyli o'g'il bolalarni ataylab Дурак va Урод deb, halol va jasoratlilarni Нигодай vaTpyc deb, orzu qilingan va yurak uchun azizlarini Нечай deb chaqirishdi. Ularga "yomon" ism, xuddi ko'rinmas qalpoq kabi, bolasini asrab, uni "zarar" dan qutqaradigandek tuyulardi.

Нечаев, Дураков, Негодяев, Глупов, Грязнов kabi zamonaviy rus familiyalarining asoslarida va Иванушка Дурачок kabi ertak qahramonlarining ba'zi taxalluslarida bunday "profilaktik" nomlarning izlari bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Nechaevlar familiyasi qadimgi Нечай nomidan kelib chiqqan. U “chayat”, ya’ni “xotet”, “jelat”, “jdat” fe’lidan ne inkor prefiksi zarrasi yordamida yasalgan. Ismning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosiga asoslanib, bunday ismga ega bo'lgan bola oilada sevilmagan va istalmagan deb o'ylash mumkin. Darhaqiqat, u ota-onasi uchun juda qadrli edi va bunday yoqimsiz ism uning "asrovchisi" edi. Shu munosabat bilan mashhur ertak Ivanushka Durachokning taxallusini hisobga olish kerak. Aks holda, "durak" ko'plab rus ertaklarining eng aqlli va eng muvaffaqiyatli qahramoni ekanligi haqidagi g'alati haqiqatni, agar uning "dunyoviy" ismini tumor nomi sifatida tan olmasa, qanday izohlash mumkin?

E'tiroz bildirilishi mumkinki, hech bir ertakda Дурак laqabi aynan shu maqsadda berilganligi haqida ishora ham yo'q. Ammo bu bunday "profilaktik" nomlarning siri qanchalik qat'iy saqlanganligining ko'rsatkichi emasmi? Hatto ahmoq Ivanushkaning o'z oilasida hurmati va izzati yo'qligi bizni xijolat qilmasligi kerak, chunki bu xavfsizlik choralaridan biri xolos aqlli o'g'lining hayotiga xalaqit berishi mumkin bo'lgan sirli kuchlardan saqlab qolish uchun ota-onasi tomonidan qilingan niqob.

"Ayyor" ismlar ko'plab "fitnalar" va "pichirlashlar"ga o'xshaydi, ular yordamida qadimgi tabiblar kasalliklarga, tabiiy ofatlarga va o'sha "yovuz kuchlarga" qarshi ajdodlarning tumor-ismlari kurashishga harakat qilishgan.

Qadimgi ruscha metaforik ismlarning xilma-xilligi olijanob yoki knyazlik nomlari edi.

Bir ildizga ega bo'lgan oddiy rus nomlaridan farqli o'laroq, "knyazlik" ismlari ikki ildizli bo'lib, ko'pincha tinchlik, shon-sharaf, jangchi, zich, yo'l, kuch, qasos, yarilo (quyosh) kabi so'zlarning ildizlaridan hosil bo'lgan.

Murakkab nomlar nafaqat Sharqiy slavyanlarga xosdir. Ular dunyoning ko'plab tillarida uchraydi va bu bizni ularning paydo bo'lishini qabila tizimining parchalanishi bilan bog'liq tarixiy rivojlanishning ma'lum bir bosqichi bilan izohlash mumkin degan fikrga olib keladi.

Dvoryan o'z qarindoshlari orasida o'zining alohida mavqeyini rasmiylashtirishga intiladi. Hashamatli kiyimlar va boylik va hokimiyatning boshqa tashqi belgilaridan tashqari, u o'ziga xos shaxsiy nomlarni ham ixtiro qiladi, ulardan foydalanishni o'zining monopoliyasiga aylantiradi.

Qadimgi ruscha "olijanob" ismlarga misol sifatida quyidagi qo'shma so'zlarni keltirish mumkin:

- bosh ildizi -slav- li ismlar: *Борислав, Брячислав, Всеслав, Доброслав, Мстисл&в, Изяслав, Ростисл&в, Святослав;*

- -mir- bosh ildizi bo'lgan nomlar**:** *Володимир, Любомир, Радомир, Данимир, Дорогомир, Межамир;*

- boshqa bosh ildizlari bo'lgan nomlar -volod-, -mil-, -gast-, -gost-, -neg-, -gord-, - - voy-: *Всеволод, Рогволод, Дорогомил, Калгаст, Людогостъ, Милонёг, Всегорд, Тихонёг, Путивой.*

Ushbu nomlarning ma'nosini tushunish uchun ko'p hollarda ularning tarkibiy elementlarini ajratib ko'rsatish va ularning har birining ma'nosi haqida o'ylash kifoya.

Shunday qilib, Bryachislav nomi qadimgi rus tilidan zamonaviy tilga "shon-sharaf bilan shovqin" yoki "shon-sharaf" deb tarjima qilinishi mumkin, chunki u ikkita ildizdan iborat: bryach + slav. Birinchi ildiz zamonaviy "bryach" fe'llariga o'xshaydi. "Brenchet, bryankat ", ya'ni "", ikkinchisi – ot "zvenet".

Vueslav "shon-shuhrat bilan to'lgan", "keng taniqli" degan ma'noni anglatadi. Bu ism qadim zamonlarda hozirda "g'ayrioddiy kuchli" degan ma'noni anglatuvchi "buy" so'zidan olingan. "Bag'almas", ushbu so'zning birinchi ildizini mashhur "yovvoyi shamol", "yovvoyi kichkina bosh" iboralarida topish mumkin. Ikkinchi ildiz slavadir.

Рогволод nomi "podalar xo'jayini", "chorva egasi", ya'ni "boy" degan ma'noni anglatadi, chunki slavyanlar uchun, ayniqsa, qishloq xo'jaligidan oldingi davrda qoramol asosiy tirikchilik manbayi bo'lgan va ularning asosiy boyligi hisoblangan.

Путивой (ildiz: p u t i v o y jangchi) «sayyor jangchi», «chiziq askar» (knyazning shaxsiy qo‘riqchisi jangchilaridan farqli o‘laroq) deb talqin qilinishi mumkin.

Qadimgi ikki ildizli metaforik rus nomlarining ba'zilari ko'p asrlar oldin murakkab qisqartirilgan nomlarga aylana boshlagan. Bu jarayon so'zning ikkinchi o'zagining ko'p qismining tushib ketishidan iborat edi, odatda bitta tovush qolar edi.

Ushbu tamoyilga ko'ra, "knyazlik" ismlari o'zgartirildi (qisqartirilgan), Борислав Borisga, Владимир - Vadimga, Любомир - Lyubimga, Милонег - Milonga, Миронег - Mironga va boshqalar.

Qadimgi ayollar ismlari ham "oddiy" va "olijanob" ismlarga bo'lingan.

Oddiylarga Беляна, Голуба, Добрава, Досада, Ждана, Забава, Ерасава, Лебедь, Любава, Малюша, Милава, Неждана, Некраса, Несмеяна, Снежана va boshqalar kiradi.

Quyidagilar olijanob hisoblangan: Болеслава, Верхослава, Горислава, Доброгнева, Звенислава, Предслава, Рогнеда va boshqalar.

Ayollar ismining aksariyati bizga bolalikdan ajoyib rus ertaklaridan ma'lum va ularning ma'nosi alohida tushuntirishni talab qilmaydi. Ulardan ba'zilari katta avlod dehqon ayollarining nutqida an'anaviy iboralarda epitetlar shaklida uchraydi: Kabutar-jon, ey sen, mening oqqushim. Biroq bu nomlarning ba'zilari haqida fikr bildiramiz.

Shunday qilib, Доброгнева "g'azabda mehribon", Забава "chaqqon", "quvnoq", Милава "shirin", "sevimli" degan ma'noni anglatadi.

Qiziqarli va ba'zan fojiali afsonalar ba'zi qadimgi ayol ismlari bilan bog'liq.

"Elementar rus xronikasi"da aytilishicha, uzoq vaqt oldin hozirgi Kiyev shahri o'rnida Dnepr yaqinida uchta aka-uka yashagan: Kiy, Shyok va Xorev. Katta akasi Kiy yuk tashir edi, uning yonida shahar keyinchalik barpo bo’lib, uning nomini oldi. Bu birodarlar o'zining go'zalligi bilan butun hududga mashhur bo'lgan singlisi bor edi va uning ajoyib, she'riy ismi Лебедь edi.

Hozirda Лебедь nomi qo'llanilmay qolgan va umuman olganda, "oqqush" so'zi qizga nisbatan qo'llaniladigan epitet sifatida ishlatilishi mumkin va faqat shimoliy dehqonlar nutqida ishlatiladi.

Yana bir qadimiy yilnomada Qadimgi Novgorodda sodir bo'lgan voqea hikoya qilinadi. U yerda shahzoda Рогволод oilasida Рогнеда ismli go'zal qiz o'sadi. Bir kuni o'sha shaharga kelgan knyaz Владимир uni ko'radi. U bir qarashdayoq qizni sevib qoladi va uni o'ziga xotinlikka olishga qaror qiladi. U bilan uning amakisi, jasur qo'mondon va aqlli diplomat Добрыня edi. Владимир uni Rognedaning otasiga sovchi sifatida yuboradi, lekin malika Vladimirga turmushga chiqishni istamadi va faqat uni qulning o'g'li deb atab kulib yuboradi (bu haqiqat edi). Rad etilganini bilib, yosh Владимир g'azablanadi va Dobrynyaga shaharni qamal qilishni va masxara qiluvchini kuch bilan olib kelishni buyuradi. Добрыня va uning askarlari Novgorodni bo'ron bilan egallab, keksa qirol, uning xotini va malikasini qo'lga olishadi. Qasoskor Владимир baxtsiz Rognedani ota-onasi oldida haqorat qiladi, shundan keyin qirol va malika qatl qilinadi va yosh malika Владимир tomonidan majburan o'z xotini qilib olinadi. Shu bilan birga, uning ismi Rogneda boshqasiga almashtirildi - Гореслава, bu uning endi "qayg'u bilan ulug'vorligini" yoki "uning shon-sharafi yonib ketganini" anglatishi kerak edi.

Qadimgi mahalliy rus ayol ismlarining aksariyati go'zal va she'riy bo'lishiga qaramay, vaqt o'tishi bilan foydalanishdan chiqib ketgan. Ulardan faqat bir nechtasi XVIII-XIX asrlarda o‘z ijodida foydalangan buyuk shoirlarimiz tomonidan hayotga qaytarilgan.

В. А. Жуковский ikkita go'zal slavyan ismlarini - Светлана va Lyudmilani she'riyatga aylantirdi va ular uning romantik balladalarining qahramonlarini nomladilar. Uning ijodiy mahorati sababli bu nomlar rus hayotida mustahkam o'rin egalladi.

А.С.Пушкин "O'lik malika va yetti ritsar haqida" ajoyib ertagiga qadimgi Chernava nomini kiritgan. Yovuz malika qanday ekanligini eslang

Черной зависти полна,
Бросив зеркальце под лавку,
Позвала к себе *Чернавку*
И наказывает ей,
Сенной девушке своей,
Весть царевну в глушь лесную...

Ertaklar matnida uchraydigan ismlar ko'pchilik tomonidan e'tiborsiz qoldiriladi. Ammo Пушкин olis davrni mohirlik bilan yetkazgan va shu bilan birga qizning portret tasvirini bergani: Чернава "qora teri", "qorasoch" degan ma'noni anglatadi.

N. A. Ostrovskiyning eng ajoyib she'riy pyesasi qahramoni qadimgi ertakdagi Snegurochka nomini olgan.

XX asrning o'rtalaridan boshlab qadimgi rus nomlariga qiziqish yana qayta rivojlandi. Ular fuqarolar tomonidan kundalik hayotga yana kirib bormoqda.

Хулоса. Shunday qilib, yillar davomida juda kam sonli qadimgi rus nomlari saqlanib qolgan. Murakkab nomlar nafaqat Sharqiy slavyanlarga xosdir. Ular dunyoning ko'plab tillarida uchraydi va bu bizni ularning paydo bo'lishini qabila tizimining parchalanishi bilan bog'liq tarixiy rivojlanishning ma'lum bir bosqichi bilan izohlash mumkin degan fikrga olib keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E. A. O'zbekiston nomlari ma'lumoti ismlari ma'nosi (izohli lug'at). 14 600 ismlar izohi. 2-nashri. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (lug'at), 2007. — 608 r.

2. Nafasov T. Markayev O'tish: Saytda Harakatlanish, Qidiruv O'zbek etnoantroponimlari // Onomastika O'zbekiston onomastikasi. Sat. tez. II rep. ilmiy-amaliy.conf. - Qarshi, 1989. — P. 136-140.

3. Nikonov V. A. Ism va jamiyat. –M.: Ilmiy. 1974. — 278 p.

4. Superenskaya A.V. Atoqli otlar struktrasi fonologiya va morfonologiya.-M.: Nauka, 1969.

5. Petrovskiy N.A. Rus shaxsiy ismlar lug'ati.-M.: Izdatelstvo Sovetskaya ensiklopediya,1966.

6. Yermolovich D.I. Atoqli otlar tillar va madaniyatlar o'rtasida.-M.: R.Valent, 2001.

7. Komiljonovna K. I. Changes in the system of anthroponyms in the Uzbek language at the end of the 20th century-the beginning of the 21st century //Zien Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 10. – C. 65-67.

8. Koziyeva I. K. The history of the development of russian anthroponymy //международный журнал языка, образования, перевода. – 2022. – Т. 3. – №. 3.

UO‘K 82312

MARK TVENNING “GEKLBERRI FINNING BOSHIDAN KECHIRGANLARI” ASARIDA YOZUVCHI TILI VA USLUBINING MUALLIFLIK KORPUSI ORQALI TAHLILI

Karimov Rustam Abdurasulovich,
PhD, Buxoro davlat universiteti
rustamkarimov2883gmail.com
Hamroyeva Go`zal Istamjon qizi,
Buxoro davlat universiteti
2-bosqich magistratura talabasi
guzalhamroyeva99h@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Amerika yozuvchisi Mark Tvenning “Geklberri Finning boshidan kechirganlari” asarida yozuvchining so`z qo`llash mahorati, til va uslubiy jihatlari mualliflik korpusi yordamida tahlil qilindi. “ Geklberri Finning boshidan kechirganlari” asari Mark Tvenning eng munozaralarga boy romani bo‘lib, asarda turli xil dialektlardan mohirona foydalanilgan. Dialekt yordamida muallif o'z qahramonlarini tavsiflashni va ularning ijtimoiy xususiyatlarini shakllantirishni maqsad qilgan. Maqolaning adabiyotlar tahlili qismida E. Xeminguey, F. Anderson kabi olimlarning asar haqidagi fikrlari, qahramonlar tahlili keltirib o`tilgan. Amaliy qismda esa mualliflik korpusi yordamida asarda qo`llanilgan dialektal so`zlar, turli tabaqaga mansub qahramonlar nutqidagi tafovutlar va o`ziga xosliklar ochib berilgan. Mualliflik korpuslari yozuvchi ijodini tahlil qilish, uning o`ziga xosligi, so`z qo`llash mahorati, yozish uslubini batafsil o`rganishda o`z samarasini ko`rsatadi va bu adabiyotshunoslarga juda qo`l keladi. Til korpuslari turli sohadagi – tilshunoslik, terminologiya, leksikografiya, adabiyotshunoslik- tadqiqotchilar uchun ishonchli vosita vazifasini o`tamoqda. Adabiyotshunoslikda ham mualliflik korpuslaridan samarali foydalanish mumkin.*

Kalit so`zlar: *korpus, mualliflik korpusi, konkordans, foydalanish chastotasi, yozuvchi uslubi, dialekt, yozuvchi tili, qahramonlar nutqi*

АНАЛИЗ АВТОРСКОГО КОРПУСА ПОСРЕДСТВОМ ЯЗЫКА И СТИЛЯ МАРКА ТВЕНА В «ПРИКЛЮЧЕНИЯХ ГЕКЛЬБЕРРИ ФИННА»

Аннотация. *В этой статье американский писатель Марк Твен «Приключения Гекльберри Финна» использовал корпус автора для анализа использования автором слов, языка и стилистических аспектов. «Приключения Гекльберри Финна» — самый противоречивый роман Марка Твена, в котором использованы самые разные диалекты. С помощью диалекта автор стремится описать своих персонажей и сформировать их социальные характеристики. В литературно-аналитической части статьи приводятся мнения таких учёных, как Э. Хемингуэй, Ф. Андерсон о произведении и анализе персонажей. В практической части с помощью авторского корпуса выявляются диалектные слова, использованные в произведении, различия и особенности речи героев, принадлежащих к разным кастам. Авторские корпуса эффективны для анализа творчества автора, его оригинальности, умения пользоваться словами, детального изучения стиля письма, что очень полезно для литературоведов. Лингвистические корпуса являются надёжным инструментом для исследователей в различных областях – лингвистике, терминологии, лексикографии, литературоведении. Авторские корпуса также можно эффективно использовать в литературоведении.*

Ключевые слова: *корпус, авторский корпус, конкорданс, частота употребления, писательский стиль, диалект, язык писателя, речь персонажей.*

CORPUS-BASED ANALYSIS OF MARK TWAIN'S LANGUAGE AND STYLE IN THE ADVENTURES OF HUCKLEBERRY FINN

Abstract. *In this article, the American writer Mark Twain's use of words, language, and stylistic aspects in “The Adventures of Huckleberry Finn” is analyzed through author`s corpus. “The Adventures of Huckleberry Finn is Mark Twain's most controversial novel, and the work uses a variety of dialects. With the help of dialect, the author aims to describe his characters and form their social characteristics. In the*

literature analysis part of the article, the opinions of E. Heminguey, F. Anderson about the work and the analysis of the characters are mentioned. In the practical part, the usage of dialectal, differences and peculiarities in the speech of heroes belonging to different castes are revealed with the help of the author's corpus. Authorship corpora are effective in analyzing the author's work, his originality, the skill of using words, and the detailed study of the writing style, and this is very useful for literary scholars. Linguistic corpora are a reliable tool for researchers in various fields - linguistics, terminology, lexicography, literary studies. Authorship corpora can also be used effectively in literary studies.

Key words: *corpus, author's corpus, concordance, frequency of use, writer's style, dialect, writer's language, characters' speech.*

Kirish. Mark Tven taxallusi bilan tanilgan Samuel Klemens hazil, satira va inson tabiatini sinchkovlik bilan kuzatishi bilan ajralib turadigan o'ziga xos yozish uslubiga ega ijodkor edi. Uning "Tom Soyerning sarguzashtlari" va "Geklberri Finning boshidan kechirganlari " kabi asarlari ko'pincha aqlli va so'zlashuv hikoyasi orqali ijtimoiy muammolarni hal qilgan. Tvenning asarlari o'z davrining Amerika xalqona tilini aks ettirgan va ayni shu jihat uning hikoyalarini ta`sirli va qiziqarli qilgan. Mark Tven Amerika adabiy realizmining yetuk namoyondalaridan biri edi. U, asosan, o'z davrining ijtimoiy muammolari haqida yozgan va Missisipi daryosi bo'ylab Amerika janubidagi hayotning real tasvirlarini bergan. Yozuvchi jamiyatni sinchkovlik bilan kuzatar va uning kamchiliklarini tanqid qilishdan qo'rqmasdi. Uning "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" asarida irqchilik, qullik va ijtimoiy adolatsizlik haqidagi satirik qarashlari katta ta'sir kuchiga ega bo`lgan.

Metodlar. Mazkur maqolada badiiy tahlilning sotsiologik, lingvistik, funksional, miqdoriy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Adabiyotlar tahlili. 1885-yilda yozilgan “Geklberri Finning boshidan kechirganlari” romani Mark Tven ijodining ikkinchi davrida yaratilgan. Asar “Tom Soyerning sarguzashtlari” asarining davomidek tuyulsa-da, lekin undan farq qiladigan jihatlari bor. Endi bu romanda bosh qahramon Tom emas, balki ko`chada yuruvchi yetim bola Geklberri Findir. U nafaqat shaxsiy erkinlikka intiluvchi bola bo`lmay, balki ham aqlan, ham jismonan kamol topib borayotgan o`smir sifatida harakat qiladi. Asar keng ommaga e`lon qilingan davrda ko`plab tanqid va noroziliklarga duch kelgan bo`lsa-da, keyinchalik o`sha davrning eng yaxshi romani deb e`tirof etiladi. Asarda Mark Tven fuqarolar urushiga qadar 50-yillardagi Amerika hayotini aks ettirilgan va Amerikaning to`s-to`polonli keyingi davri bilan bog‘lanib ketuvchi voqealarni ko`rsatadi. Tanqidchilar kitobning birinchi nashr etilganidan beri uning afzalliklari borasida ikkiga bo'lingan bo'lsa-da, Pulitzer va Nobel mukofoti sovrindori yozuvchi Ernest Xeminguey "Geklberri Finning boshidan kechirganlari "ga o'zining eng mashhur va doimiy maqtovini taklif qiladi: *“All modern American literature comes from one book by Mark Twain called Huckleberry Finn.... All American writing comes from that. There was nothing before. There has been nothing as good since.”* [5,22] Kitob atrofidagi bahs-munozaralarga qaramay, "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" Mark Tvenning eng yaxshi asari sifatida tan olinadi va ko'pincha, "Buyuk Amerika romani" deb nomlanadi. Uilyam Folkner va T. S. Eliot kabi atoqli yozuvchilar kitobning Amerika adabiyoti uchun ahamiyati haqida yozganlar. Ba`zi olimlar asarni turli shevalarga boyligini va shu orqali yuqori darajadagi realizmni ifodalashni ta`kidlaydilar. Xususan, F. Anderson quyidagi ta`rifni aytgan: “*We shall content ourselves with repeating that the book is Mark Twain at his best, and remarking that Jim and Huckleberry are real creations and the worthy peers of the illustrious Tom Sawyer himself”* [2,120].

Endilikda badiiy asarlarni tahlilida mualliflik korpuslaridan foydalanish mumkin. Badiiy matnlarni tahlil qilishda mualliflik korpuslaridan foydalanish taqdiqotchilarga aniq miqdoriy yondashuvdan foydalanishga imkon beradi. Badiiy asarning o`ziga xosligini miqdoriy jihatdan namoyon qilib beradi. Mualliflik korpuslari yordamida asarni tahlil qilganda qidiruvga berilgan so‘z bilan uning o‘ng va chap tomonidan birikish imkoniyatiga ega so‘zlar ro‘yxatini olish mumkin. Shuningdek, so‘zning foydalanish chastotasi yoki statistikasini bilish mumkin. Mualliflik korpusida muallif tilini to‘liq, batafsil, obyektiv ko‘rsatish imkoniyati bor, shuning uchun bunday korpuslar boshqa axborot bankidan afzalligi bilan ajralib turadi. Korpus turli xildagi tadqiqot uchun asos, manba, vosita vazifasini o‘tay oladi. Bunday korpuslarning afzalligi yana shundaki, ular yordamida nafaqat biror bir so‘z yoki jumlaning, balki butun boshli asar tillarini bilish imkoniyati mavjud.

Birmingham Universiteti tomonidan yaratilgan CLIC (Corpus Linguistics in Context) ham bir qancha mualliflik korpuslarini o`z ichiga oladi. CLIC korpusi orqali to`rtta tasnifdagi mualliflik korpuslaridan (DNov - Dickens's Novels, 19C - 19th Century Reference Corpus, ChiLit - 19th Century Children's Literature Corpus, ArTs - Additional Requested Texts) foydalanish mumkin va bu korpus jami 138 ta

matnni o`z ichiga oladi [7,7 ]. Ushbu korpusdan Mark Tvenning “Geklberri Finning boshidan kechirganlari” asari ham o`rin olgan. “Korpus lingvistikasi” qo`llanmasi muallifi M. Abjalova ta`kidlaganidek, mualliflik korpusi keng imkoniyatli qidiruv tizimiga ega bo‘lib, muallif ijod qilgan barcha tur va janrdagi asarlar qamrab olinadigan, maxsus amallar asosida ham qidiruv imkoniyatiga ega, hajmi chegaralanmagan, muallif va uning ijodi bilan bog‘liq manbalarni qulay va tezkor olish mumkin bo‘lgan elektron ma’lumotlar bazasi hisoblanadi [1,63].


Tahlillar. "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" asari birinchi marta 1884-yil 10-dekabrda chop etilgan. Asar 43 bob, 366 sahifadan iborat bo`lib, voqealar 1830-yoki 1840- yillarda Missisipi daryosi bo'yida sodir bo'ladi. Asar voqealarini tasvirlovchi rasmlar E. V. Kemble tomonidan amalga oshiriladi va ular jami bir yuz yetmish to'rttani tashkil qiladi. Tven kitobxonlarni kitobdan har qanday chuqur ma'no topishga urinishdan ogohlantiradi. Asarda turli xil shevalardan (*the Missouri negro dialect; the extremest form of the backwoods south-western dialect , the ordinary “ pike-country” dialect; and four modified varieties of this last*) [10,7] foydalanilgan. Asardagi har bir qahramon o`ziga xos gapirish uslubiga ega. Mark Tven asardagi muhitni real ko'rinishga keltirish uchun dialektlardan muhim vosita sifatida foydalangan. Asarda turli ijtimoiy qatlam vakillari nutqida keskin farq namoyon bo`ladi. Jim, asosan, qora tanlilar foydalangan Janubiy Amerika shevasidan foydalangan. O'sha paytda bu sheva qullar shevasi sifatida tanilgan. Bundan tashqari, badiiy asarlarda qullarning tilida ishlatilgan so`z va iboralardan foydalanish yozuvchilar uchun noodatiy hisoblangan, chunki qullarga munosabat juda shafqatsiz bo`lib, qullarning shevalaridan foydalanish yozuvchilar uchun uyat deb qaralgan. Ammo Mark Tven asarda bunday so`zlarni qo`llash orqali kitobxonlarga va jamiyatga qora tanlilar va boshqa qullarning tillarini asl holida taqdim etish kerak deb hisoblaydi. Asar tili dialektik ifodalarga juda boy. Bu esa romanni barcha sheva egalari uchun qiziqarli qiladi. Har bir inson o'z tilini romanda aks ettirilganini his qiladi.Yozuvchi qahramonlar tilidagi tafovutni ko`rsatish negizida jamiyatdagi turli tabaqa vakillariga qilinayotgan munosabatni yaqqol ko`rsatib bergan. Asar qahramonlari bo`lgan Jim va Gek yaqin do`stlarga aylangan va ularning nutqida sezilarli tafovutlar mavjud. Jimning shevasi juda kuchli va g'alati shevadir. Uning shevasi Amerikaning janubiy qismidagi qora tanlilar ishlatadigan lahjadir. O'sha paytda u qullarning shevasi sifatida tanilgan. Mazkur davrda qora tanlilar hech qanday ta'lim olish, o'qish va yozishni o'rganish imkoniga ega emas edi. Ular o'z ona tillaridan mahrum bo'lib, yangi tilda ham, boshqa tilda ham gaplasha olmas edilar. Jimning qoratanligi jamiyat unga inson sifatida loyiq bo'lgan erkinlikni berishni rad etishining sababi hisoblangan, ayniqsa, mamlakat janubida. Xususan, asardagi bosh obrazlardan biri Gek o'n uch yoshli aqlli va sarguzashtsevar bola siymosida gavdalanadi. Butun roman davomida Gekning nutqi instruktiv iboralar va dialektal konstruktsiyalarga boy, jumladan, hozirgi zamonda birinchi shaxs bilan kelgan fe`llar tarkibida uchinchi shaxs birlik "-s" qo`shimchasi qo'llanilishi, inkor ma’noni anglatuvchi birliklarning qo`shaloq kelishi, ayrim noto`g`ri fe`llar ham, to`g`ri fe`llar kabi “-ed” qo`shimchasi bilan kelish holatlarini misol qilish mumkin. Xususan, quyidagi CLIC korpusidan olingan ma`lumotga ko`ra, “*no*” so`zi asarda 586 marotaba qo`llanilgan va bularning aksariyatida ko`makchi fe`llar tarkibida ham “not” inkor yuklamasi qo`llanilgan.

1. This ain’t no bad thing that we’ve struck here--plenty grub and an easy life--come, give us your hand, duke, and le’s all be friends.


2. But he said it warn’t no use, nothing but to be dead and done with it all could do him any good.

3. But I never said nothing, never let on; kept it to myself; it’s the best way; then you don’t have no quarrels, and don’t get into no trouble. [10,56]

Yuqoridagi gaplarda inkor ma`noni ifodalashda xizmat qiluvchi *not* inkor yuklamasi, *never* so`zlari kelgan bo`lsa-da ulardan so`ng, *any* olmoshi o`rnida *“no”* so`zi qo`llanilgan. Inkor ma`noni ifodalovchi so`zlarning gapda takror kelishi, asosan, Amerikaga keltirilgan afrikalik qullar nutqida keng tarqalgan va African- American English deb atalgan [8, 13]. Oq tanli amerikalik Gek Finn esa AAE xususiyatlaridan faqat bir nechtasini ishlatadi, masalan, bir nechta inkorlar, *ain’t* ning qo‘llanilishi va noto`g`ri fe`llarning *-ed* qo`shimchasi bilan kelishidir. Gek ijtimoiy kelib chiqishiga ko`ra, oq tanli taxminan o'n uch yoshli amerikalik o'smir bola. Uning otasi doimo mast yuradi va u otasining zo'ravonligidan qochishga harakat qiladi. Beva Duglas unga o'qish, dasturxon atrofida to`g`ri o`tirish, odob-axloq qoidalarini o'rgatadi. Vatson xonimning quli Jim bilan birga yashay boshlagach uning tili o'zgaradi. Yuqorida keltirilgan misollar asarning 1-17-boblaridan olingan va aynan shu boblarda Gek va Jimning o`zaro suhbati ko`p uchraydi. Jim gaplashadigan nostandart ingliz tili Gekning nutqida ham o`z aksini topa boshlaydi. Aynan shu sababdan ham Gek *never, not* so`zlari bilan birga *no* yuklamasini ham gapda qo`llaydi.



1-rasm. Asarda qo`llanilgan *no* so`zining CLIC korpusida konkordans ko`rinishi



2-rasm. Asarda qo`llanilgan *knowed* so`zining CLIC korpusida konkordans ko`rinishi

Shuningdek, asardagi ba`zi noto`g`ri fe`llarda ham ayrim noodatiyliklarga duch kelish mumkin. O`tgan va tugallangan zamonni yasashda *knew-known*, *caught-caught* shaklida keladigan *know*, *catch*

fe`llari *knowed, catched* shaklida qo`llanilgan. Asarda *know* fe`li to`qson to`rtta o`rinda *knowed* shaklida qo`llanilgan va ularning aksariyati Gekning tilidan aytilgan.

"*I **knowed** mighty well that a drownded man don't float on his back, but on his face. So I **knowed,** then, that this warn't pap, but a woman dressed up in a man's clothes " [10,42].*

Ushbu gap Gekning tilidan aytilgan bo`lib, har ikkala holatda ham *know* fe`lining o`tgan zamon shakli sifatida *knowed* fe`lidan qo`llanilgan.

Yozuvchi *"slavery"* so`ziga sinonim sifatida *"nigger"* so`zidan 213 marotaba foydalangan va bu keyinchalik keskin tanqidga sabab bo`lgan. Asar chop etilgan davrda "*nigger*" so`zidan foydalanish nutqiy dag`allik, qo`pollik deb qaralgan, ammo Mark Tven aynan shu orqali oddiy xalq tilini boricha ko`rsatib bergan.

Xulosa. "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" asarida yozuvchi har bir obraz nutqida o`ziga xoslikni yaratishga harakat qilgan. Insonning nutqi uning yoshi, jinsi, ma'lumot darajasi, etnik guruhi, geografik kelib chiqishi va ijtimoiy tabaqasini ifodalaydi. Bu munosabat asarda yaqqol namoyon bo'ladi. Muallif personajlarning ijtimoiy mavqeini aniq belgilamagan yoki tasvirlab bermagan, ammo bu ularning dialektal nutqi orqali bilvosita kitobxonga namoyon qilingan. Asardagi gaplarning grammatik qurilishi, so`zlarning talaffuzi va yozilishidagi o`zgachaliklar kitobxonlar uchun g`alatidek tuyulishi mumkin, ammo yozuvchi bu orqali asar yozilgan davr ijtimoiy hayotini, quyi va o`rta tabaqa vakillari o`rtasidagi tafovutni yaqqol ko`rsatishni maqsad qilgan.

***ADABIYOTLAR*:**

1. *Abjalova M. Korpus lingvistikasi. – Toshkent: BOOKMANY PRINT. 2022. – 63 b.*
2. *Anderson, F. (1971). Mark Twain/ The Critical Heritage . New York: University of Illinois Press.*
3. *Базарова Б. Введение в корпусную лингвистику: учеб.-метод. пособие. – Улан-Удэ: Издательство Бурятского госуниверситета, 2016. – 76 с. ISBN 978-5-9793-0939-2*
4. *Захаров В., Богданова С. Корпусная лингвистика: учебник. 3-е изд., перераб. – СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, – 235 с.*
5. *Hemingway, Ernest, Green Hills of Africa, Scribner Classic/Collier, 1987, originally published in 1935, p. 22.*
6. *Копотев М. Введение в корпусную лингвистику. Учебное пособие. – Прага, 2014. – 264 с.*
7. *Mahlberg, M., Stockwell, P., Wiegand, V. and Lentin, J. (2020) CLiC 2.1. Corpus Linguistics in Context, available at: clic.bham.ac.uk [Accessed: 08.12.2023]*
8. *Ningrum, D. R., and Z. Rohmah. "African American English (AEE) And Slang Used by Jim and Huck Finn in The Adventures of Huckleberry Finn". NOBEL: Journal of Literature and Language Teaching, vol. 5, no. 01, Apr. 2014, pp. 1-14, doi:10.15642/NOBEL.2014.5.01.1-14*
9. *Trudgill, P. (1983). Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. London: Penguin Books..*
10. *Twain, Mark. The Adventures of Huckleberry Finn. William Collins, 2010.*

UO‘K 81'27

CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ASARIDAGI LINGVOMADANIY KONSEPTLARNING TARJIMASI

Djumabayeva Jamila,
O‘zbekiston milliy universiteti professori, DSc, O‘zbekiston
djumabaevajamila@gmail.com
Madiyorova Valida
O‘zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti, O‘zbekiston
validamadiyorova@gmail.com

Annotatsiya:

Kirish. *Arxaizmlar tilda o‘ziga xos qatlamni yuzaga keltiruvchi birliklar hisoblanadi. Tilimizda mavjud ko‘plab birliklar, jumladan, arxaik birliklar, kundalik turmushimiz, milliy-madaniy qadriyatlarimizni aks ettiruvchi asosiy boyligimizdir. Arxaik elementlarning o‘ziga xos lingvomadaniy xususiyatlari mavjud bo‘lishi tabiiy holdir. Ushbu maqolada Cho’lponning “Kecha va kunduz” asaridagi lingvomadaniy konseptlarning tarjimasida aks etgan xususiyatlar haqida so’z boradi.*

Tadqiqot metodlari. *Mazkur tadqiqotda etimologik, semantik, hamda konseptual tahlil metodidan foydalanilgan bo’lib, milliy xoslangan so’zlarning tarjimasiga ta’sir etuvchi omillar yoritib berilgan.*

Natijalar va muhokama. *Tadqiqot obyekti sifatida qaralayotgan Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridagii arxaik elementlarning lingvokulturologik jihatlari tekshirilarda ko’p holatlarda, ularning tarjimasida milliy-madaniy xususiyatlar ifoda etilmaganligini kuzatdik. Shuningdek, tarjimonlar ba’zan asarda mavjud bo’lmagan ma’lumotlarni tarjimada ifodalashganining guvohi bo’ldik.*

Xulosa. *Lingvokulturologik birliklarning barcha turlarini ham arxaik elementlar doirasida tahlil qilib bo‘lmaydi. Matnlardagi milliy-madaniy komponentlar keng ma’nodagi birliklar kompleksini ifodalashi mumkinki, ularning aniq va real chegaralarini belgilash qiyin. Chunki, muayyan bir birlik tanlanganda ma’lum ma’noda boshqa bir tipdagi tarmoqqa ham aloqador bo‘lib chiqishi va o‘rni kelganda bir nechta qatlam tarmoqlariga ham taalluqli bo‘lib chiqishi mumkin.*

Kalit so’zlar: *arxaizm, lingvokulturologik konsept, milliy o’ziga xoslik, evlanmak, betavfiq, battol, arxaik disfemizm.*

ПЕРЕВОД ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ КОНЦЕПТОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ЧУЛПАНА «НОЧЬ И ДЕНЬ»

Аннотация:

Введение*. Архаизмы – это единицы, создающие определённый пласт в языке. Многие единицы нашего языка, в том числе архаичные, являются нашим главным богатством, отражающим нашу повседневную жизнь и национально-культурные ценности. Естественно, что архаические элементы имеют свои лингвистические и культурные особенности. В данной статье говорится об особенностях, отраженных в переводе лингвокультурных концептов в произведении Чулпана «Кеча ва кундуз» («Ночь и День»).*

Методы исследования. *В исследовании были использованы методы этимологического, семантического и концептуального анализа, а также выделены факторы, влияющие на перевод национально специфических слов.*

Результаты и обсуждение. *Рассматривая лингвокультурные аспекты архаических элементов в произведении Чолпона «Ночь и День», рассматриваемом как объект исследования, мы заметили, что во многих случаях национально-культурные особенности не были выражены в их переводе. Мы также видели, что переводчики иногда выражают в переводе информацию, которой нет в произведении.*

Заключение. *Не все типы лингвокультурных единиц можно анализировать в рамках архаических элементов. Национально-культурные компоненты в текстах могут представлять собой комплекс единиц в широком смысле, четкие и реалистичные границы которого определить сложно. Потому что, когда выбрана определенная единица, она может быть связана с другим типом сети в определенном смысле, а при необходимости она также может быть связана с сетями нескольких уровней.*

Ключевые слова: *архаизм, лингвокультурная концепция, национальная идентичность, женитьба, бесстыдный (бетауфик), беспощадный (баттол), архаический дисфемизм.*

TRANSLATION OF LINGUOCULTURAL CONCEPTS IN CHOLPON'S "NIGHT AND DAY"

Abstract:

Introduction*. Archaisms are units that create a specific layer in the language. Many units in our language, including archaic units, are our main wealth that reflects our daily life and national-cultural values. It is natural that archaic elements have their own linguistic and cultural characteristics. This article talks about the features reflected in the translation of linguistic and cultural concepts in Cholpon's work "Kecha va kunduz"("Night and Day").*

Research methods*. Etymological, semantic, and conceptual analysis methods were used in this study, and the factors affecting the translation of nationally specific words were highlighted.*

Results and discussion. *While examining the linguistic and cultural aspects of the archaic elements in Cholpon's work "Night and Day", which is considered as the object of research, we observed that in many cases, national and cultural features were not expressed in their translation. We have also seen that translators sometimes express information in the translation that is not present in the work.*

Conclusion*. Not all types of linguistic and cultural units can be analyzed within archaic elements. The national-cultural components in the texts can represent a complex of units in a broad sense, whose clear and realistic boundaries are difficult to define. Because, when a certain unit is selected, it can be related to another type of network in a certain sense, and when appropriate, it can also be related to networks of several layers.*

Keywords: *archaism, linguo-cultural concept, national identity, marry (evlanmak), shameless (betavfiq), vicious (battol), archaic dysphemism*

Kirish. Arxaizmlar tilda o‘ziga xos qatlamni yuzaga keltiruvchi birliklar hisoblanadi. Tilimizda mavjud ko‘plagan birliklar, jumladan, arxaik birliklar, kundalik turmushimiz, milliy-madaniy qadriyatlarimizni aks ettiruvchi asosiy boyligimizdir. Arxaik elementlarning o‘ziga xos lingvomadaniy xususiyatlari mavjud bo‘lishi tabiiy holdir.

Badiiy asarlarda arxaizmlarning qo‘llanishi o‘quvchi ongida tarixiy koloritni aks ettirishi bilan birga, muayyan xalq va madaniyatga xos bo‘lgan milliy, madaniy, etnik dunyoqarashni uyg‘otish vazifasini ham bajaradi. Aynan ana shunday milliy-madaniy xoslangan arxaizmlarni to‘g‘ri tarjima qilish ular vositasida ifodalangan, xalqning o‘z ruhiyati, milliy koloriti, madaniyati, mentaliteti hamda dunyoqarashini tarjima tilida ta’sirli ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur vazifani amalga oshirish esa tarjima jarayonida ham tarjimashunoslik, ham lingvokulturologiya, ham tilshunoslikka oid bilimlarni birgalikda qo‘llash zaruratini taqazo etadi. Chunki, arxaizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil qilmasdan turib, ularning tarjimasida adekvatlikka erishishning imkoni yo‘q. Shu o‘rinda, keyingi yillarda jahon va o‘zbek tilshunosligiga oid tadqiqotlarda yetakchi sohalardan biri bo‘lgan lingvokulturologiyaga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Metod va materiallar. Ma’lumki, lingvokulturologiyaning paydo bo‘lishi V.Fon Gumboldtning nomi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu yo‘nalishning rivojlanishiga A.A.Potebnya, L.Vaysberger, X.Glints, X.Xolts, U.D.Uitni, D.U.Pauyell, F.Baos, E.Sepir, B.K.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi olimlar o‘z hissalarini qo‘shishgan.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida ham lingvokulturologik tadqiqotlar anchayin tez sur’atlar bilan ko‘payib bormoqda. Jumladan, Sh.Usmanova, D.Xudayberganova, Y.Nurmuhammedov, B.Ahmedov, F.Usmonov tomonidan bajarilgan ilmiy ishlar o‘zbek tilshunosligida ham mazkur yo‘nalishning jadal rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

Xususan, bizning ishimizga bevosita aloqador bo‘lgan, tarjimada lingvokulturologik xususiyatlarning aks etishiga doir bir necha ishlar maydonga kelgan. Jumladan, U.R.Yo‘ldoshevning “Hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari” deb nomlangan dissertatsiyasi [1], A.A.Sharipovaning “Stilistik sinonimlar tarjimasining lingvokulturologik xususiyatlari” deb nomlangan dissertatsiyasi [2], N.A. Tuxtaxodjayevaning “Badiiy tarjimada lingvokulturemalarning ifodalanishi” deb nomlangan dissertatsiyasi kabilar yuqoridagi fikrimizni yana bir bor isbotlashi mumkin [3].

Mazkur adabiyotlarda, “milliy-madaniy mohiyat”, milliy o‘ziga xoslik, milliy madaniyatning xususiyatlari, milliy-madaniy o‘ziga xoslik, milliy kolorit, milliy-madaniy semantika, etnosemalar va ijtimoiy-madaniy ma’no, milliy o‘ziga xos ma’no, milliy aloqadorlik semasi, hududiy-madaniy komponent yoki madaniy komponent terminlari keng qo‘llaniladi. Ular orasida semantikada milliy o‘ziga xoslikni to‘liq ifodalay oladigan til birligi milliy-madaniy o‘ziga xoslik termini hisoblanadi. Milliy-madaniy o‘ziga xoslik

tushunchasi orqali semantik leksik birliklarning milliy o‘ziga xos voqelik, xalqlarning ijtimoiy-tarixiy va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, milliy madaniyat, an’ana va marosimlarning ma’lum bir xususiyatlari tushuniladi.

U.R.Yo‘ldoshev milliy-madaniy o‘ziga xoslik tushunchasining komponentlari sifatida milliy-madaniy ma’noga ega leksik qatlam, madaniy komponentli ma’noga ega so‘z, milliy-madaniy konnotatsiyaga ega so‘zlarni keltirib o‘tadi [1].

N.A.Tuxtaxodjayevaning ta’kidlashicha, “u yoki bu so‘zda milliy-madaniy tushunchalar bo‘lmasligi, sof lisoniy xususiyatlar aks etishi mumkin bo‘lsa, lingvokulturemada esa lisoniy jihatlar bilan birga, xalq madaniyati, mentaliteti, urf-odatlari bilan bog‘liq ko‘plab nolisoniy omillar ham mavjud bo‘ladi. Shuningdek, lingvokulturema til belgilarining shakl majmuyi bo‘lib, uning mazmun-mohiyati va madaniy ma’nosini mazkur belgi aks ettiradi [3]”. Bir tomondan, ana shu madaniy ma’noni to‘liq ochib berishning mushkulligi, ikkinchi tomondan, arxaizmni talqin qilishning qiyinligi, arxaik birliklarning tarjimada tushib qolishiga sabab bo‘ladi. Obyektimiz doirasidagi arxaik birliklarni tarjima qilishda lingvomadaniy xususiyatlarning reprezentatsiyasini tahlil qilar ekanmiz, tahlilga tortilgan arxaizmlarning asliyat namunalarining hammasida ham linvokulturologik xususiyatlar aks etmaganligi, ko‘p holatlarda ular tarjimada tushib qolganligi aniqlandi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot obyekti sifatida qaralayotgan Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridagidagi arxaik elementlarning lingvokulturologik jihatlari tekshirilar ekan, ularning barchasida ham milliy-madaniy xususiyatlar ifoda etmaganligini kuzatdik. Mazkur tipdagi fikrlarni lingvokulturologik yo‘nalishda tekshirishlar olib borgan boshqa tadqiqotchilarning ilmiy asarlarlarida ham uchratishimiz mumkin [4].

Quyida ana shunday xarakterdagi arxaik elementlarning ayrimlariga to‘xtalib o‘tishni joyiz deb bildik. Jumladan, *sart, farang, benamoz, betavfiq, battol, evlanmoq* va boshqa keltirilgan arxaik elementlarning lingvokulturema sifatidagi xususiyatlariga e’tibor qaratish lozm.

Yuqoridagi misollarga e’tibor qilinsa, ularning ayrimlari arabiy va forsiy tillarga mansub elementlar asosida shakllangan bo‘lsa, boshqa bir toifasi sof turkiy tillarga oid birliklar asosida yuzaga kelganligini ko‘ramiz. Masalan, sart, benamoz, betavfiq, battol, evlanmoq kabilar o‘zlashgan qatlamga xos bo‘lsa, farang, amirkon kabi arxaizmlar tilimizning ichki imkoniyatlari asosida yuzaga keltirilgan birliklar hisoblanadi.

Keltirilgan misollarning ba’zilarini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilib ko‘ramiz. Masalan, “evlanmoq” so‘zi hozirgi zamonaviy o‘zbek tilida uylanmoq tarzida ifoda etiladi. Mazkur lingvokulturema o‘zbek milliy madaniyatining muhim qismi hisoblangan to‘y qilish madaniyatimizga aloqador assotsiatsiyaga egaligi bilan xarakterlidir.

Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” asarida, uylanmoq ushbu arxaizm rasmiy, publitsistik nutq namunalarida keltirilishining guvohi bo‘lamiz:

“...Mingboshining o‘zi esa har sana bir evlanmoqdan, xotin yangilamoqdan bo‘shalmaydur... Uch xotini ustiga yana to‘rtinchisini, hatto besh-olti-yettinchisini...ham oluvga qarshi emas…” [5]

Mazkur jumla Akbarali mingboshining jadid maktabini yoptirgani tanqid ostiga olib yozilgan va “jadidlar tomonidan haftada ikki marta zo‘rg‘a nashrdan chiqadigan bir gazetda” dagi maqoladan olingan bo‘lib, muallif “evlanmoq” arxaizmini keltiradi, uning hozirgi kundagi ekvivalenti “uylanmoq” bo‘lib, muallif u bilan qo‘shimcha izoh, ya’ni “xotin yangilamoq” birikmasini ham birga qo‘llaydi. Bu esa, o‘sha davrdagi ijtimoiy muhit natijasida, “evlanmoq” arxaizmida ko‘pxotinlilik, ya’ni xotin ustiga xotin olish ma’nosi ham aks etganligini tasdiqlaydi.

So‘zning asosini “ev” leksemasi hosil qilgan, hozirgi turk tili va boshqa bir qancha turkiy tillarda xuddi shu shaklda saqlangan bo‘lib, o‘zbek tili uchun mazkur shakl qadimiy hisoblanadi. Jumladan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asari, shuningdek, u bilan zamondosh bo‘lgan XI asrga oid manbalarda va ma’lum darajada XIV asrlarga xos manbalar tilida o‘sha “ev” shaklini kuzatish mumkin [6].

Tahlilga tortilayotgan “evlanmoq” lingvokulturemasining yana bir jihati uning gender xoslanganligi bo‘lib, mazkur so‘z o‘zbek tilida faqat erkak jinsiga mansub kishilar uchungina ishlatilishi mumkin. Ayol jinsiga nisbatan “evlanmoq” so‘zini ishlatib bo‘lmaydi. O‘zbek tilida mazkur so‘zning muayyan darajada vulgarlashgan (qo‘polroq) ko‘rinishi “xotin olmoq” birikmasi bilan ham ifodalanishi mumkin. Rus tilidagi “jenitsya” varianti aynan “xotin olmoq” so‘zlariga to‘g‘ri kelsa ham, semantik jihatdan rus tilidagi shakldan sezilarli darajada vulgarlashgani bilan ajralib turadi. Ushbu arxaizmning tarjimalari tahliliga e’tibor qaratamiz:

“...Mingboshi could not free up any funding for school, busy as he was acquiring new wives. He has no qualms about adding a fourth, and perhaps even a fifth or sixth, wife to his current three…” [7]

Ma’lumki, ingliz tilida “to marry” yoki “to get married” birliklari gender jihatdan farqlanmaydi, ya’ni ham erkak, ham ayol kishiga nisbatan ishlatilishi kuzatiladi. K.Fort esa, gender differensiatsiyasini ifodalash maqsadida, “evlanmoq” arxaizmini “acquiring new wives” birikmasi orqali ifodalab, “xotin egallash”, “qo‘lga kiritish” ma’nolari orqali ifodalashga harakat qilgan. Bu orqali, o‘sha davr ijtimoiy-madaniy muhitida yaqqol aks etgan erkaklarning ayollarga xo‘jayin, sohib ekanligi, ayollarga kimdir tomonidan “egalik qilinishi”, bir so‘z bilan aytganda gender notengligi bilan bog‘liq vaziyatni o‘quvchi tasavvurida shakllantirish maqsad qilingan. Ingliz tiliga oid manbalarni ko‘rib chiqish jarayonida ayon bo‘ldiki [8], “to acquire a wife” frazasi, asosan, tarixiy kontekstlarda ishlatiladi, hamda, ayollarga mulk sifatida qaralganligi, hamda erkaklar, asosan, qizning otasi bilan kelishuv asosida uylanganligi ma’nosini ifodalash uchun qo‘llanilgan.

O.M.Muminov va A.A.Xamidovlar esa, ushbu arxaizm qatnashgan gapni umuman tushirib qoldirishgan, uning o‘rniga esa, asliyatda mavjud bo‘lmagan, “mingboshining xotinlari har hafta yangi ko‘ylak olishi” haqidagi ma’lumotni qo‘shib qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yishgan.

“...But mingboshi is spending his life in prosperity and his wives are busy with having new dresses every week. Mingboshi is not against to have more wives upon his three wives...” [9].

Tarjimada bu kabi holatlarning uchrashi, o‘quvchida asar, unda tasvirlanayotgan hodisa, holat va vaziyat haqida miskonsepsiyani yuzaga keltiradi. Buning oldini olish esa, tarjima jarayonida arxaizmlarning milliy - madaniy jihatlariga, ularning zamirida yotgan xalqning o‘tmishi, urf - odatlari haqidagi madaniy axborotni o‘quvchiga muqobil yetkazishga e’tibor qaratishni talab qiladi.

Lingvokulturologiya inson omili asosida ish ko‘radi, ya’ni xalqlar madaniyatini til asnosidagi ifodasi masalasi bilan shug‘ullanadi. Kishilar madaniyatining, xususan, nutqiy madaniyatining yuzaga kelishida evfemizm (narsa yoki hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi [10]) va disfemizm (qo‘pol so‘zlar) hodisalari muhim o‘rinni egallaydi.

Tekshirishlar natijasida yana bir jihat alohida diqqatimizni tortdiki, o‘zbek muomala madaniyatidagi murojaat birliklari orasida “Kecha va kunduz” asari tilidagi ayrim shakllarda, xususan, qo‘pol va vulgar shakllardagi arxaiklashgan murojaat birliklari o‘ziga xos o‘rin tutadi. Yuqorida keltirgan misollarimiz orasida benamoz, betavfiq, battol, xotin taloq kabi so‘zlar ana shu toifaga kiruvchi birliklardan hisoblanadi.

Ushbu muomala madaniyatiga aloqador birliklarning umumlashtiruvchi, o‘ziga xos jihatlaridan biri – ularning salbiy ottenkaga ega ekanligi bo‘lsa, yana bir jihati ularning ko‘pincha erkak kishilarga nisbatan ishlatilishi deyish mumkin. Keltirilgan so‘zlarning yana bir xususiyati ularning etimologik jihatdan arab-fors tillari elementlari asosida shakllanganligi hamda ko‘proq diniy-e’tiqodiy qarashlar bilan ham bog‘liqligidir. Yuqoridagi fikrlarimizni asoslash uchun tanlangan misollar qatnashgan parchalarga e’tibor qaratsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

“...Tavba de betavfiq...” [5]

“...A, battol-ey! O battol-ey! Xudo urdi seni! Xudo urdi endi!.” [5].

Albatta, bu o‘rindagi so‘zlar asardagi salbiy qahramonlarning madaniyatsizligini bo‘rttirib ko‘rsatish uchun uslubiy funksiya bajarish uchun ham qo‘llanilganligini inkor etib bo‘lmaydi.

Keltirilgan ba’zi arxaik birliklarning salbiy ottenkaga ega ekanligi bugungi kunda sezilarsiz darajaga kelib qolgan. So‘kish yoki haqorat qilish ma’nosida ishlatiluvchi benamoz arxaizmida, namoz o‘qiydigan, taqvodor, lekin taqvosiga rioya qilmaydigan odam nazarda tutiladi. Bu kabi leksemalar qatoriga fosiq, fojir kabilarni ham misol qilish mumkin.

“Kecha va Kundduz”dagi “benamoz” so‘zining hozirda ifoda etayotgan salbiylik ottenkasi bilan o‘tgan asrning birinchi choragida ifodalagan semantikasi o‘rtasida farq mavjud. Dastlabki qarashda mazkur so‘z oddiy “namoz o‘qimaydigan kishi” ma’nosini anglatsa, asarda va o‘sha davr tilimiz semantikasida juda ham qo‘pol va hatto, haqorat sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan so‘z hisoblanadi.

Shu o‘rinda, A.Sharipovaning fiklari o‘rinli ekani yana bir bor o‘z tasdig‘ini topadi, ya’ni “birliklarning hissiy-ta’sirchan ma’nolari aslida moddiy-mantiqiy semantikasi asosida hosil qilinganligiga qaramasdan, lug‘aviy-mantiqiy va matniy ma’nolari orasidagi mazmuniy bog‘lanish deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Bunday paytda hissiy ta’sirchanlik predmetlarning shakl, vazifa va xususiyatlari asosida emas, balki insonning bir nechta predmet va voqea-hodisaga nisbatan salbiy munosabati zaminida vujudga keladi. Haqorat, tahqir ohangiga ega hissiy-ta’sirchan ma’no, masalan, ingliz tilida ko‘pincha “God, devil, damn, go to the devil, go to the hell), o‘zbek tiliga “shayton, iblis, itvachcha, itdan tarqagan, mol, hayvon, to‘ng‘iz, cho‘chqa, jin ursin, la’nati, padarla’nat” kabi lingvistik vositalar yordamida ifoda etiladi. Bu yerda hissiy-ta’sirchanlik va subyektiv baho predmetlarni atash, nomlashdan ustun turadi [2]”.

Xulosa. Yuqoridagi benamoz, betavfiq, battol, xotin taloq kabi so‘zlar odatdagi nutqda ishlatilmaydi, biroq jamiyatda mavjud ayrim tuban kishilarning jirkanch qiyofasini tasvirlash uchun ularning madaniyat

darajasini o‘quvchi xayolida gavdalantirish uchun bunday so‘z va jumlalardan ustalik bilan foydalanish mumkinligini yuqoridagi parchalarda ko‘rib turibmiz. Bunday elementlarni tarjima qilganda esa alohida hushyorlik va topqirlik zarur bo‘ladi, aks holda asar mohiyatini tarjimada ochib berishda kamchiliklar yuzaga keladi.

Chunki, lingvokulturologik birliklarning barcha turlarini ham arxaik elementlar doirasida tahlil qilib bo‘lmaydi. Matnlardagi milliy-madaniy komponentlar keng ma’nodagi birliklar kompleksini ifodalashi mumkinki, ularning aniq va real chegaralarini belgilash qiyin. Chunki, muayyan bir birlik tanlanganda ma’lum ma’noda boshqa bir tipdagi tarmoqqa ham aloqador bo‘lib chiqishi va o‘rni kelganda bir nechta qatlam tarmoqlariga ham taalluqli bo‘lib chiqishi hech gap emas. Shu sababdan, masalan, murojaat birliklari hisoblangan benamoz, betavfiq, battol, xotin taloq kabi yuqorida keltirilgan birliklar bir vaqtning o‘zida diniy madaniyatga hamda muomala madaniyatiga oid bo‘lib chiqadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Yo’ldoshev U.R. Hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz tiliga tarjima qilingan o’zbek xalq latifalari misolida). PhD dissertatsiyasi, Toshkent, 2017*

2. Sharipova A.A. Stilistik sinonimlar tarjimasining lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz va o’zbek tillari materiallari asosida). PhD dissertatsiyasi, Toshkent-2017

3. Tuxtaxodjayeva N.A. Badiiy tarjimada lingvokulturemalarning ifodalanishi (ingliz va o’zbek tillari misolida) PhD dissertatsiyasi Toshkent 2017. –B.12.

4. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. –T.:2019. –B. 27.

5. Cho’lpon A. Kecha va Kunduz. –T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019. –B. 87.

6. Rahmonov N., Sodiqov Q. O’zbek tili tarixi. –T.:O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009.-B.160.

7. Cho’lpon A.S. Night and Day. Translated and with an Introduction by Christopher Fort. Boston, 2019. P 63

8. Chulpan. Night and day. Translated by: O.M.Muminov, A.A.Khamidov. Tashkent, 2014. P.61

9. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т.: ЎзМЭ, 2002. –Б.131.

UO‘K 81

MAVJUD INGLIZ TILI DIAXRONIK KORPUSLARINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Ataboyev Nozimjon Bobojon o’g’li,
Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti dekani,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korpus lingvistikasiga oid tadqiqotlar markazida turuvchi va eng katta yutuqlarga olib kelayotgan ingliz tili korpuslarining bugungi statusini belgilash masalasi ko’tariladi. Shuningdek, xitoy va ispan tillarida yaratilgan diaxronik korpuslar tahlili prizmasida, ingliz tiliga mansub diaxronik korpuslar tahlilga tortiladi. Ularning tahlil natijalarini tilshunoslikning ko‘plab tarmoqlarida qo‘llash ijobiy natijalarga sabab bo‘lishi muhokama etiladi.*

Kalit so’zlar: *korpus lingvistikasi, korpus, diaxronik korpus, CoRD, Sketch Engine, BNC, COCA, EnTenTen15.*

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СУЩЕСТВУЮЩИХ ДИАХРОНИЧЕСКИХ КОРПУСОВ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В статье поднимается вопрос определения современного состояния корпусов английского языка, которые находятся в центре исследований корпусной лингвистики и приводят к наибольшим достижениям. Также в призме анализа диахронических корпусов, созданных на китайском и испанском языках, анализируются диахронические корпуса, принадлежащие английскому языку. Обсуждается, что применение результатов их анализа во многих отраслях языкознания приведёт к положительным результатам.*

Ключевые слова: *корпусная лингвистика, корпус, диахронический корпус, CoRD, Sketch Engine, BNC, COCA, EnTenTen15.*

FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF EXISTING DIACHRONIC ENGLISH LANGUAGE CORPORA

Abstract. *This article raises the issue of determining the current status of English language corpora, which are at the center of research on corpus linguistics and are leading to the greatest achievements. Also, in the prism of the analysis of diachronic corpora created in Chinese and Spanish languages, diachronic corpora belonging to the English language are analyzed. It is discussed that the application of the results of their analysis in many branches of linguistics will lead to positive results.*

Key words: *corpus linguistics, corpus, diachronic corpus, CoRD, Sketch Engine, BNC, COCA, EnTenTen15.*

Kirish. Shvetsiyalik yozuvchi va tilshunos J.Svartvikning ta’kidlashicha, korpus tilshunosligi tarixida lisoniy korpuslarni qog’ozda chop etish orqali qo’lda tahlil qilingan birinchi “tosh davri” yoki kompyuterdan oldingi davr bo’lgan [8; 12 p.]. Olimning fikricha, bu birinchi qog’ozda nashr etish, yozish va inson omili orqali tahlilga tortiladigan korpuslar asosan konkordanslar, ya’ni kontekstli muhitdagi so’zlarning alifbo tartibida ro’yxatlab berish vazifasini bajargan edi, hamda bu jarayon ko’p vaqt va mashaqqatli mehnatni talab qilardi. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda yangi avlod korpuslarini yaratish amaliyoti jadal rivojlanmoqda. Zero, kompyuterlar beradigan tezkorlik, qulaylik va sun’iy intellektning zamonaviy korpuslarga ilmiy xulosa uchun ma’lumotlarni taqdim eta olish imkoniyatining yaratilishi ortidan tilshunos olimga ilmiy nazariya yaratish osonlashadi.

Asosiy qism. Zamonaviy korpuslar tipologiyasi ko’plab olimlar e’tiborini tortgan va doimiy muhokamali bo’lgan nazariy muammo bo’lib turibdi. Ushbu tasniflarga korpus bazasining qanday vaqt oralig’iga tegishli ekanligiga qarab, ularni diaxronik va sinxronik korpuslarga bo’lish mumkin. Bunda, tadqiq qilinayotgan tilning bir vaqt nuqtasidagi qo’llanilgan bazasini o’z ichiga olgan korpus sinxronik korpus bo’lsa, yillar, o’n yilliklar va/yoki asrlar davomidagi bir tilning qo’llanilgan matniy birliklar bazasidan tarkib topgan korpuslar diaxronik turga mansublik belgilanadi. Dunyo tajribasida ko’plab diaxronik korpuslar ishlab chiqilgan bo’lib, ular o’z vazifasiga ko’ra ma’lum bir maqsad ortidan shakllantirilgani ma’lum.

Masalan, *The Sheffield Corpus of Chinese (SCC)* – Xitoy tilining Sheffild korpusi matniy elementlarning xronologik tarkibiga muvofiq diaxronik korpuslar turiga kiradi. Ushbu korpus ajralmas qidiruv va tahlil vositasi bilan birga to'liq teglangan Xitoy tarixiy matnlarining keng doirasini o'z ichiga oladi. Matnlar har xil tur va janrlarda va turli davrlarda tuzilgan. Xitoy tilining Sheffild korpusining uzoq muddatli maqsadi xitoy tilining tarixi va rivojlanishini o'rganishni osonlashtirish uchun keng ko'lamli va katta hajmli resursni taqdim etishdir. Ushbu manba Xitoy tilining milloddan avvalgi 12-yildan milodiy XX asrning birinchi o'n yilligiga qadar bo'lgan davrda bitilgan matniy elementlarni jamlagan [10]. Bu esa o'z o'rnida tadqiqot natijalarining statistik asosli va til rivojini kuzatishga ishonchli baza sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Xitoy tilshunosligining yana bir diaxronik korpuslaridan biri Xitoy gazeta matnlarining 77 yillik bazasini o'zida jamlagan zamonaviy xitoy diaxronik korpusidir – *Modern Chinese Diachronic Corpus* [7]. 1872-yildan 1949-yilgacha bo'lgan 77 yilni qamrab olgan diaxronik korpusga asoslanib, Xitoy gazetalarida ishlatiladigan belgilar va so'zlarni o'rganish imkoniyati mavjud. So'zlarni ishlatishda Zipfian taqsimotini korpusda ko'rish mumkin va so'zlarning yuqori chastotasi davrlar davomida keskin farq qiladi. So'z turlari va belgilarining chastotasi teskari V shaklidagi tendentsiyani yuzaga chiqaradi. Tarixda bir marta mavjud bo'lgan so'zlar davrdagi til hayotini yaxshi ifodalay olishi aynan mana shu korpusda ko'rinadi. Shu bilan birga, butun korpusda yangi so'zlarning ulushi kamayib bormoqda, bu so'z o'sishining barqaror mo'tadillashuvini aks ettiradi. Xitoy tilining har ikkalar korpusida tillar rivoji tarixiy ketma-ketlikka tayangan holda xronologik teng miqdorda yig'ilgan matniy elementlarning korpus tahlilga tortilganini hamda uning natijasida til rivojiga obyektiv nazar tashlanganini kuzatish mumkin.

Ispan tilining ham lisoniy diaxronik korpusi mavjud bo'lib, u *An open diachronic corpus of historical Spanish* – tarixiy ispan tilining ochiq diaxronik korpusi deb nomlanadi [5]. Ushbu korpus 100 dan ortiq kitobni o'z ichiga olgan 8 million so'zdan tarkib topgan bazadir. Kropusni yaratishdan asosiy maqsad tarixiy rivojlanishda tilning lug'at qatlamidagi so'zlarning orfografik va talaffuz shakllaridagi o'zgarishlarni aniqlash bo'lgan. Baza tarkibiga kirgan so'zlarning 7 foizi teglangan bo'lib, ular lingvistik ma'lumotni saqlaydi va korpus barcha foydalanuvchilar uchun ochiq rejimda ishlaydi.

Qolaversa, ispan tilining *Oralia diacrónica del español (ODE: Spanish diachronic oral corpus)* – ispan tilining og'zaki diaxronik korpusi ham yaratilgan bo'lib, tarixiy dialektologiyani o'rganish uchun yangi elektron raqamli baza. Ushbu korpus TEITOK platformasi yordamida yaratilgan, "korpusni yaratish, izohlash va tarqatish uchun veb-dasturga tayanilgan, yagona XML hujjatida matn va lingvistik izohlarni birlashtirgan. Ushbu korpus 1492-yildan 19-asr oxirigacha yozilgan ispan hujjatlarining diaxronik korpusi bo'lib, u ikkita kichik korpusdan iborat: asosiy korpus eski Granada Qirolligidan (hozirgi Granada, Malaga va boshqa viloyatlar) qo'lyozmalardan iborat. Almería va Ispaniyaning Shimoliy yarmidagi hujjatlardan iborat tadqiq korpusidir. Matnlar tovarlar inventarlari, jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda guvohlarning ko'rsatmalari va tibbiy ma'lumotnomalarni o'z ichiga oladi. Yakuniy maqsad, ayniqsa, tarixiy dialekt tadqiqotlarini tahlil qilish uchun mo'ljallangan, taxminan 600 000 tokendan iborat korpus yaratish bo'lgan. Yangi onlayn korpus quyidagi muammolarga muvaffaqiyatli yechim berdi: (1) U filologik/matnshunoslik va korpus lingvistikasi yondashuvini birlashtiradi. (2) Bu raqamli resursda oxirgi foydalanuvchi tomonidan turli formatlarda tasvirlangan yagona nashrda ishlash imkonini beradi. (3) Bundan tashqari, u mustaqil boshqaruvga ruxsat beradi, chunki olimlar raqamli resurs uchun mas'ul bo'lgan foydalanuvchiga ehtiyoj sezmasdan, o'z tadqiqotlarini nazorat qilishlari va o'z ishlarini yuklashlari va tahrirlashlari mumkin [1; P 1035].

Corpus Resource Database (CoRD) (qarang: URL: http://www.helsinki.fi/varieng/CoRD/corpora/index.html) korpus ma'lumotlar bazasi ham mavjud. *CoRD* bu ochiq veb-resurs bo'lib, u orqali akademik korpus tuzuvchilari o'zlarining korpuslari to'g'risida asosiy ma'lumotlarni olishlari mumkin. U *VARIENG* (the Research Unit for Variation, Contacts and Change in English) Ingliz tili variantlari, aloqalar va o'zgarishlarni tadqiq qilish bo'limi tomonidan taklif qilinadigan onlayn xizmatlarining bir qismidir.

CoRD ingliz tilida yaratilgan korpuslar haqida birinchi bo'lib ma'lumot beradi. Barcha tavsiflar har bir korpusni tuzuvchilar tomonidan taqdim etilgan yoki tasdiqlangan. Har bir kirishda asosiy ma'lumotlar to'plami, shu jumladan, korpusning qisqacha tavsifi, tarkibi va tuzilishi, tuzuvchilarning nomlari, tavsiya etilgan havolalar, mualliflik huquqi tafsilotlari va korpuslarga o'tish havola (saytiga link)lar ko'rsatilgan. Shuningdek, boshqa foydali ma'lumotlar ham taqdim etiladi, bunda korpusni tuzishda qo'llaniladigan prinsiplar, uning izohli konvensiyalari va muayyan korpus yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar bibliografiyasi mavjud. *VARIENG* CoRD yoki boshqa saytlarda individual korpuslarni tarqatmaydi. Har bir korpus tavsifi

mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot (saytiga havola), shuningdek, bog‘lanish uchun shaxs yoki tashkilotlarning ismlarini taqdim etadi [3].

CoRD o‘z ichiga ingliz tilida yaratilgan 108 ta lisoniy korpuslar haqida ma’lumotlarni qamrab olgan. Masalan, *Helsinki Corpus of British English Dialects* haqida quyidagi ma’lumotlar berilgan. A) Korpus haqida qisqacha ma’lumot: *The Helsinki Corpus of British English Dialects (HD)* asosan Lancashire to‘plamiga ega bo‘lgan, Sharqiy va Janubi-G‘arbiy Angliyadan olingan, orfografik yozilgan audio yozuvli nutqning to‘plamidir. Yozuvlar 1970-80 yillarda Finlyandiya aspirantlari tomonidan amalga oshirilgan. B) Uning maqsadi: Korpusning maqsadi dialektologiya, sosiolingvistika, diskursiv tahlil, morfologiya, sintaksis va fonologiya sohalarida lingvistik tadqiqotlar uchun material bilan ta’minlash. V) Imkoniyatlari: Korpus, shuningdek, tilga oid bo‘lmagan, ko‘p qirrali tadqiqotlar uchun material taqdim etadi, masalan, aloqa etnografiyasi, mahalliy urf-odatlar va tarix. G) Korpus haqida aniq faktlar: *Loyiha rahbarlari:* Ossi Ihalainen 1984–1993, Kirsti Peitsara 1997–2006, Anna-Liisa Vasko 2007 yildan beri. *Sohaviy maslahatchilar*: 1970-yillarda Tauno F. Mustanoja (Xelsinki) Garold Orton (Lids) bilan hamkorlikda. Ossi Ihalainen 1980-yillarning oxirida bajarilgan ishlarda nazoratchilik qilgan. *Hajmi*: 1 008 641 so‘zdan iborat 187 ta fayl. Yaratilish *davri*: 1970-1980-yillar (CAM, DEV, ELY, SOM, SUF), 1980-yillar (ESS, LAN). *Holati*: Birinchi bosqich 2006 yilda yakunlangan, tadqiqot uchun korpus materiallari mavjud. Ikkinchi bosqich davom etmoqda, korpus materialini ilgari e’lon qilinmagan korpus ma’lumotlari bilan kengaytirish rejalari mavjud. *Korpus ma’lumotlari*: asosiy ma’lumotlar og‘zaki dialekt nutqining audio yozuvlari. *Moliyalashtirish*: Finlyandiya madaniyat jamg‘armasi; Finlyandiya akademiyasi, Xelsinki universiteti. *Til*: ingliz, qishloq (Kambridjshayr, Devon, Eli oroli, Somerset, Suffolk) va shaharlashgan (Esseks, Lankshayr) hududlari. *Havola*: Korpus fayllariga kirishda ruxsat uchun quyidagi elektron pochtalarga murojaat qilish mumkin: *Anna-Liisa Vasko (*anna-liisa.vasko@helsinki.fi*)* yoki *Kirsti Peitsara (*kirsti.peitsara@helsinki.fi*).*

Keyingi ingliz tili korpuslarini taqdim etadigan foydali saytlardan biri – *Sketch Engine* (URL: https://www.sketchengine.eu/). Ushbu korpuslar bilan ishlash bazasi lug‘atshunos Adam Kilgarif tomonidan 2003 yilda ishlab chiqilgan. U tabiiy tillarni proseslash markazi kompyuter mutaxassisi hamda *Manatee* va *Bonito* (dasturiy ta’minot to‘plamining ikkita asosiy qismi)ni yaratuvchisi Pavel Richliy bilan birga ishlashni boshlab, *word sketches* (so‘z chizgilari) konseptini fanga olib kirdi. Shundan beri *Sketch Engine* tijorat dasturi sifatida har tomonlama boyitib borilmoqda [6; P 12]. Shuningdek, onlayn programma quyidagilarni taqdim etadi:

So‘z chizgilari (Word sketches) – biror so‘zning grammatik va kollokasion xususiyatlarini ifodalovchi (avtomatik keltirib chiqariladigan) bir betli xulosa;

So‘z chizgisi farqlari (Word sketch difference) – ikki so‘zning kollokasion birliklarining tahlili orqali farqli va o‘xshash tomonlarini solishtirish;

Sochma lug‘at-tezaur (Distributional Thesaurus) – o‘xshash ma’noga ega bo‘lgan yoki bir xil / o‘xshash kontekstda ko‘rinadigan so‘zlarni topadigan avtomatlashtirilgan tezaurus.

Konkordans qidiruv (Concordance search) – murakkab struktura, teg, ibora, lemma va so‘z shakliga misollar topish;

Kollokasion qidiruv (Collocation search) – so‘zlarni taqqoslash qoliplari sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lgan tez-tez uchraydigan birikmalarni aks ettiruvchi lingvistik birliklarni tahlil qilish;

So‘zlar jadvali (Word lists) – murakkab mezonlar bilan filtrlanishi mumkin bo‘lgan chastota ro‘yxatlarini shakllantirish;

N-gram (n-grams) – ko‘p so‘zli iboralarning chastota ro‘yxatlarini tuzish;

Terminologiya/kalit so‘zlar topish (Terminology / Keyword extraction) (bir tilli va ko‘p tilli) – kalit so‘zlari va ko‘p so‘zli atamalarni chastota va til mezonlari asosida matnlardan avtomatik ajratib olish;

Diaxronik tahlil (Diachronic analysis) – muayyan vaqt oralig‘i mobaynida foydalanish chastotasida o‘zgarishlarga uchragan so‘zlarni aniqlash;

Korpus yaratish va boshqarish (Corpus building and management) – Internet orqali korpora yaratish yoki yuklangan matnlarni o‘z ichiga olgan holda nutqni qismlarga ajratish va lemmatizasiyalash, ulardan ma’lumotlar qidirish dasturi sifatida foydalanish mumkin.

Parallel (ikki tilli) qulayliklar (Parallel corpus (bilingual) facilities) – Tarjima namunalarini qidirish (*EUR-Lex corpus, Europarl corpus, OPUS corpus* va boshqalar) yoki avtomatik tartiblanadigan matnlardan parallel korpus qurish.

Shuningdek, *Sketch engine* programmasi 144 ta tilda, jumladan, o‘zbek tilida ham lisoniy korpuslar yaratish imkonini beradi. Korpuslar yaratishda yuqorida eslatib o‘tilgan imkoniyatlar bilan bir qatorda *POS tagging, lemmatization, word sketches* va *terms* kabi avtomatik amalga oshiriladigan jarayonlarni ham

taqdim etadi. Ammo bu jarayonlar hamma til uchun ham ishlab chiqilmagan, ular sirasiga o‘zbek tili ham kiradi. Barcha to‘rtala imkoniyatga ega tillar qatoriga shved, rus, ingliz, ispan, sloveniya, slovakiya, koreys, yapon, italyan, polyak, nemis va estoniya tillari kiradi. Bu tillarda yaratiladigan korpuslar material kiritish orqali avtomatik tarzda to‘rt jarayondan o‘tadi va tuzuvchining xohishiga ko‘ra ochiq yoki yopiq kirish huquqi shakllantiriladi.

Sketch engine jami 78 ta ingliz tilida yaratilgan korpuslar mavjud, ularning 18 tasi yopiq va 60 tasi ochiq dostupdagi korpuslarni tashkil etadi [4]. Ular sirasiga eng katta hajmga egalari ham bo‘lib, milliardlab so‘zli ingliz tilini ifoda etuvchi lisoniy korpuslar mavjud (qarang 1-jadval). Har bir katta miqdorli korpus o‘z-o‘zidan so‘z qo‘llanishi borasida yuqori chastotali misollarni taqdim etadi va bu tilshunos tadqiqotchilarga katta ahamiyat kasb etadi. Jadvalda keltirilgan korpuslarning barchasi ochiq dostupga ega va konkordans qidiruvlari soni cheklanmagan.

1-jadval.

Sketch engine saytida yaratilgan eng katta hajmli ingliz tili korpuslari

Tili	Korpus nomi	Hajmi
English	Timestamped JSI web corpus 2014-2019 English	40 669 324 757
English	English Web 2013 (enTenTen13)	19 685733337
English	Timestamped JSI web corpus 2014-2016 English	18 315 071361
English	English Web 2015 (enTenTen15)	15703895409
English	English Web 2012 (enTenTen12)	11 191 860036
English	English Web 2008 (enTenTen08)	2 759340513

Sketch engine programmasining yana bir imkoniyati shundaki, u o‘zida ingliz tilining ilk elektron korpusi (Brovn korpusi)dan tortib, milliy korpuslarning tamal toshi sifatida qaraladigan Britaniya Milliy korpusini va bir qator keng ommalashgan lisoniy korpuslarni o‘z ichiga olgan. Bu esa tadqiqotchilarni qidiruvga beriladigan so‘zni bir tilli (ingliz tili) turli hajm va davrda yaratilgan korpuslar asosida batafsil tahlil qilish imkonini beradi.

Korpuslarning sohaviy xarakteriga ko‘ra tasnifi keltirilgandi va xulosa sifatida funksiyasidan kelib chiqib ularning tasnifi davom etishi ta’kidlangandi. Ana shunday qo‘llash maqsadiga ko‘ra, tor doiraga qaratilgan tadqiqotlar uchun asos bo‘lib qo‘llanilayotgan korpuslar guruhiga tarixiy pragmatika tadqiqini ham kiritish mumkin. I. Taavitsainen [9] bir nechta zamonaviy KL yutuqlaridan bo‘lmish ingliz tilini ifoda etuvchi korpuslarni sanab o‘tadi va ularni kelajak uchun tadqiq uchun ulkan imkoniyatlarni beruvchi lisoniy omillar deb qaraydi:

– CORPORA (for more complete list of historical corpora, see CorD, www.helsinki.fi/varieng/CoRD/corpora/index.html)

– ARCHER *A Representative Corpus of Historical English Registers* www.llc.manchester.ac.uk/research/projects/archer/

– CEEC *Corpora of Early English Correspondence,* see www.helsinki.fi/varieng/CoRD/corpora/CEEC/index.html

– CLMET *Corpus of Late Modern English* Texts. Compiled by Hendrik De Smet, Hans-Jurgen Diller, and Jukka Tyrkko. https://perswww.kuleuven. be/~u0044428/

– COHA *The Corpus Of Historical American English,* http://corpus.byu.edu/coha EEBO *Early English Books Online.* ProQuest LLC. http://eebo.chadwyck.com/home

– HC *The Helsinki Corpus of English Texts* see www.helsinki.fi./ varieng/CoRD/corpora/HelsinkiCorpus/index.html

– ZEN *The Zurich English Newspaper Corpus,* see http://www.helsinki .fi/varieng/CoRD/corpora/ZEN/index.html

Yuqorida zikr etilgan sohalarning barchasi uchun korpus tahlillaridan olingan aniq kvantitativ lisoniy natijalar ehtimoliy lingvistik nazariyani isbotlash yoki ular asosida yangi nazariyalarni yaratishga nisbatan ilmiy izlanishlar asosidir. Ba'zi o'rinlarda KL imkoniyatlaridan foydalanmaslik oqibatida, til xususida chiqarilgan xulosalarni keskin deya baholash mumkin. Masalan, M. Hallidey [2] kolloksiya terminiga to'xtalib, u faqatgina sintaktik qatlamda emas, balki matniy darajada ham leksik birliklarni tanlash bo'yicha qo'llash ham asosli deya ta'kidlaydi. Misol tariqasida *strong tea* va *powerful car* so'z birikmalarini keltirib, ingliz tilida qo'llash mumkin bo'lgan birikmalar sifatida *powerful tea* va *strong car* variantlarini tilda qo'llash noo'rin deya, qat'iy xulosalaydi. O.G. Gorina [11] ilmiy ishida undan havola keltiradi. Vaholanki, ikkala o'rinda ham hech qanday fikrni asoslovchi fakt keltirilmagan.

Yuqorida sanab o'tilgan diaxronik korpuslarni va ular haqidagi ma'lumotlarni taqdim etuvchi elektron *www.* kengaytmali bazalardan hajm, yaratilgan vaqti va turiga ko'ra ba'zi korpuslarni tanlab, ular berishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar tahlil qilindi. Tanlab olingan ingliz tili korpuslari tarkibiga Brovn kopusi (1 million), BNC (100 million), COCA (560 million) va EnTenTen15 (15 mlrd)larni kiritish tahlillar xilma-xilligi va aniqligini ta'minladi (2-jadval).

2-jadval.

Ingliz tili korpuslarida *strong tea* va *powerful car* hamda *powerful tea* va *strong car* so'z birikmalarining qo'llanish chastotasi (BCh)

	Brown (1 m)	**BNC (100 m)**	**COCA (560 m)**	**EnTenTen15 (15 b)**
Strong tea	1	28	44	981
Powerful tea	0	3	1	47
Strong car	0	5	4	221
Powerful car	0	20	26	1065

Jadvalda ko'rsatilgan sonlar birlamchi chastota (raw frequency) shaklida keltirilgan, ularni korpuslararo taqqoslashning imkoni mavjud emas. Me'yoriy chastota (normalized frequency) ko'rinishiga keltirish orqali mavjud farq va o'xshashliklarni aniq ko'rsatishga erishish mumkin bo'lardi. Ammo bu yerda maqsad korpuslarda qo'llanilish chastotasini farqlash emas, balki mavjud korpusda ichki qiyoslashni ko'rsatish, bunda ikki lingvistik birlik(strong or powerful + car hamda strong or powerful + tea)ning o'zaro farqli birikishidan hosil bo'lgan ikki turli so'z birikmasining qaysi biri til sohiblari nutqida ko'proq uchrashi mumkinligini aniqlash maqsad qilingan. Shunga ko'ra, yuqorida nomlari keltirilgan olimlar tomonidan bildirilgan «...bu birikma bor,... bunisi yo'q...» degan mazmundagi qat'iy fikrlar asossizligi aniqlandi. Ya'ni tanlab olingan korpuslarda biri bor, ikkinchisi yo'q, deb emas, bakliularning biri ikkinchisidan ko'ra kengroq qo'llanish chastotasiga ega va u muloqotda ustunroq ekanligini anglatadi.

A.V. Sedov konkordans haqida to'xtalib, uni an'anaviy, uzoq vaqtdan beri ma'lum bo'lgan, ammo hali ham matnni o'rganishning etarli darajada baholanmagan usuli deb izohlaydi [12; C 61]. Konkordans darhol va kengaytirilgan kontekstdagi so'zlarning to'liq indeksini beradi. Masalan, Dostoevskiy *baxt* haqida qanday fikr bildirganini bilmoqchi bo'lgan o'rganuvchi har qanday bazani ochib «baxt» morfemasi bilan barcha so'zlarni topishi mumkin, deydi olim. Kompyuterning bundagi uyg'unligi so'zni ishlatishda barcha kontekstlarni taqqoslash, ularni tahlil qilish, badiiy asar matnidagi so'zni ko'rish imkonini beradi. Bu eng samarali matnni o'qitish vositalaridan biridir. Bu o'rinda mualliflik korpuslari nazarda tutilgan bo'lsa-da, konkordans imkoniyatlari haqiqatdan ham keng ekanligi sir emas.

Zamonaviy korpuslar taqdim etayotgan keng imkoniyatlarni aniqroq ko'rsatish uchun yuqorida sanab o'tilgan ingliz tili korpuslari konkordansida taqdim etiladigan ma'lumotlar shakli va formatimuhokamaga tortildi. Birinchi o'rinda *Google Books n-gram* korpusiko'rib chiqildi, chunki hajm jihatidan jami 200 milliarddan ko'proq so'zli matnlarni qamrab oladi, bundan 155 milliardi amerikacha ingliz tiliga to'g'ri kelsa, 34 milliardi britaniya ingliz tilisidan olingan matnlardan tashkil topgan. Ushbu korpusning o'ziga xos tomoni shundaki, u oddiy va murakkab qidiruv natijalarini 1800-yildan 2000-yilning birinchi o'n yilligigacha bo'lgan ikki asr oralig'ida yozilgan kitoblarni o'z ichiga korpus konkordansda o'n yilliklar tartibida BChlarini jadval yoki grafika ko'rinishida taqdim etadi. Bunday ko'rinishdagi qidiruvlar asosan so'z qo'llashning rivoji yoki etimologiyasini o'rganishda qo'l keladi. Masalan, oddiy qidiruvda *internet* so'zi kiritildi va konkordans natijalari kiritilgan birlik yagona bo'lgani uchun bir chiziqli grafika orqali berildi (1-rasm). Grafikadan ko'rish mumkinki, ushbu tushuncha yigirmanchi asrning so'ngi ikki o'n yillikda keng qo'llanila boshlangan, lekin ungacha so'z chastotasi deyarli iste'molda bo'lmaganini ko'rsatyapti. Bu esa uning yaratilishi va ilm-fanda keng qo'llanila boshlangan davrlarga ishora qiladi.

1-rasm.


Google Books n-gram korpusida internet leksemasining qo‘llanilish diaxronikasi



Google Books n-gram korpusida murakkab qidiruv amalga oshirilganda kiritmalar soni beshtani tashkil etdi. Ular *internet, book, television, radio* va *newspaper* kabi axborot almashishning boshqa turlari ham kiritmalar sifatida vergul orqali oraliq masofa tashlamasdan (probilsiz) konkordans qidiruviga berildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, har bir so‘z o‘z rivojlanish va shu asnoda tilga kirib kelishi mutanosibligida yillar oralig‘ida mos ravishda kam va ko‘p chastotalarni taqdim etdi (2-rasm). Ushbu korpus natijalaridan internet-*internet* XX asrning oxirida*;* televizor – *television* XX asrning 40-yillaridan*;* radio – *radio* XX asrning boshidan va gazeta – *newspaper* XIX asrning boshlaridan beri qo‘llanila boshlangan bo‘lsa, kitob – *book* har ikkala asrda ham qo‘llanilish chastotasi jihatidan qolgan axborot vositalaridan eng ko‘p qo‘llanilganini aniq ko‘rish mumkin. Bu tahlillar yuqoridagilarning jamiyatga kirib kelish tarixi haqidagi bilimlarga ega bo‘lmay turib ham, lisoniy korpus tahlillarini o‘rganish orqali kerakli va eng muhimi asosli xulosalarga kelish qiyin kechmaydi.

2-rasm.

Google Books n-gram korpusida internet, book, television, radio va newspaper leksemalarining qo‘llanilish diaxronikasi



Keyingi qidiruv *English Web 2015 (enTenTen15)* diaxronik korpusida o‘tkazildi va unda mavjud bo‘lgan lemmatizatsiya (lemma olish) imkoniyati amalda qo‘llandi. Bunda korpusda murakkab qidiruv tugmasi bosiladi va lemma so‘z kiritiladi. Misol tariqasida, *money* – pul so‘zidan lemma olindi va quyidagi ma’lumotlar tahlil qilindi:

1) *money – pul* so‘ziga birikib keladigan aniqlovchi sifatlar ajratib berildi. Masalan, *much money, easy money, big money, soft money, dirty money, private money, dark money* va boshqalar;

2) *money – pul* so‘zi aniqlovchi sifatida kelib, boshqa bir ot bilan birikib kelishi holatlari ko‘rsatib berildi. Masalan, *money pit, money market, money worries, money maker, money loser*va boshqalar;

3) *money – pul* to‘ldiruvchi sifatida kelib, qaysi fe’llar bilan birikishi ko‘rsatildi. Masalan, *earn money, spend money, donate money, transfer money, receive money, funnel money, refund money*va boshqalar;

4) *money – pul* ega sifatida kelib, o‘zidan keyin sifat bilan yasalgan ot kesimlar tarkibi ko‘rsatildi. Masalan, *money is tight, money is scarce, money is worthless, money is important, money is hard, money is short, money is neutral, money is bad* va boshqalar;

5) *money – pul* ega sifatida kelib o‘zidan keyin ot yoki olmosh bilan yasalgan ot kesimlar tarkibi ko‘rsatildi. Masalan, *money is not speech, money isn’t everything, money is not motivator, money is power, money is the answer, money is a problem, money is a big consideration, money is no excuse, money is a human invention, money is a way, money is a skill, love of money is the root of all evil* va boshqalar.

Bundan tashqari lemma olish uchun qidiruvga berilgan so‘zning boshqa birikish xususiyatlarini, ya’ni olmoshlar bilan kelishi, idiomalar tarkibida kelishi, aniqlanmish bilan birikishi va boshqa turdagi vosita hamda holatiga ko‘ra farqlanuvchi birikmalarni aniq ko‘rsatib beradi. Agar keltirilgan misollarni tushunishda

yoki qo‘llanilishida qiyinchilik bo‘lsa, uni konkordansda va kengroq kontekstda ko‘rish imkoniyatining mavjudligi foydalanuvchi uchun juda muhim.

English Web 2015 (enTenTen15), BNC va *Google Books n-gram* kabi ingliz tili korpuslari taqdim etishi mumkin bo‘lgan keng qidiruv va konkordans natijalari ko‘rib chiqildi. Bunda har bir korpusning imkoniyatlarini ko‘rsatib beruvchi oddiy va murakkab qidiruvlar amalga oshirildi. *English Web 2015 (enTenTen15)* korpusidan lemma olish amaliyoti ko‘rsatib o‘tildi va u taqdim etgan natijalar ishda o‘z ifodasini topdi. *BNC*da so‘z-turlarning birlamchi chastota asosida tartiblangan jadvalini hosil qilish orqali ko‘rib chiqildi va ulardan eng yuqori chastotali yigirmatasi ajratib olinib, ularning lingvistik xususiyatlarini tahlil etish orqali ingliz tilidagi eng yuqori chastotali so‘zlar funksional so‘zlar ekani aniqlandi. *Google Books n-gram* korpusida axborot vositalari murakkab va oddiy qidiruvga berildi. Qidiruv natijalarining konkordansda grafik chizmalar shaklida berilishi kuzatildi. Bu chizmalar ishda keltirilib qidiruvga berilgan kiritmalarning etimologik rivojini o‘rganish imkoniyati mavjudligi xususida muayayn xulosaga kelindi.

Xulosa shuki, Korpus lingvistikasi rivojida ingliz tilida yaratilgan va yaratilayotgan lisoniy korpuslarning o‘z tarixiy ahamiyati mavjudligi nazarda tutildi. Ingliz tili lisoniy korpuslarini taqdim etuvchi elektron WWW kengaytmali elektron manbalar va ular taqdim etadigan ma’lumotlar birma-bir sanab o‘tildi. Asosan, uchta baza ko‘rib chiqildi: Sketch engine, CoRD va English-corpora.org. har bir baza tarkibiga kiruvchi diaxronik korpuslar xususida qisqacha to‘xtalib o‘tilganda, ulardan amaliy foydalanish orqali ko’plab statistik va so’z qo’llashga doir davriy misollarga bir zumda ega bo’lish xususiyati o’zbek tilining ham shunday turdagi korpuslarga bo’lgan ehtiyoji borligini yaqqol ko’rsatadi.

ADABIYOTLAR:

1. Campos C.M. and Bravo R.D. An online corpus for the study of historical dialectology: Oralia diacrónica del // Digital Scholarship in the Humanities, Volume 36, Issue Supplement_2, October 2021, Pages 1130-1148. available from: español https://academic.oup.com/dsh/article/36/Supplement_2/ii30/6134858

2. Halliday M. An introduction to Functional Grammar. – 3rd ed. / Revised by C. Matthiessen. – London: Hodder Arnold, 2004. – 700 p.

3. http://www.helsinki.fi/varieng/CoRD/index.html

4. https://app.sketchengine.eu/#corpus?tab=advanced&cat=all&sketches=0&lang=en&lang2=&query=&showOld=0

5. https://www.jstor.org/stable/42636400

6. Kilgarriff A., Vít B., Jan B.; Jakubíček M., Kovář V., Jan M., Rychlý P., Vít S., The Sketch Engine: Ten Years On// Lexicography 1 (1). 10 July 2014. – P 7-36.

7. Modern Chinese Diachronic Corpus Construction and the Language Development Based on a 77-year Corpus available from: https://ieeexplore.ieee.org/document/9961262 [Accessed on 03.10.2023]

8. Svartvik, J. Corpus linguistics 25+ years on / J.Svartvik. – Amsterdam, NY 2007. – P. 11-27

9. Taavitsainen I. Historical Pragmatics//English Corpus Linguistics Edited By Douglas Biber and Randi Reppen. – UK: Cambridge university press. 2015. – P 267-268.

10.Xiaoling H. and McLaughlin J. Sheffield Corpus of Chinese (SCC) // University of Sheffield. - 2007. – 19 p. Available from: https://www.dhi.ac.uk/scc/db/scc/manual.html

11.Горина О.Г. Использование технологий корпусной лингвистики для развития лексических навыков студентов-регионоведов в профессионально-ориентированном общениина английском языке. Дисс. канд. пед. наук. – Москва. 2014, – С 71.

12.Седов А.В. Математические модели, методы и алгоритмы построения размеченныхкорпусов текстов: Дисс.... канд.тех.наук. – Петрозаводск, 2013. – С 61.

UO‘K 811:1

ASLIYAT MATNNI TARJIMADA QAYTA YARATISHNING KOGNITIV TAMOYILLARI

Qosimova Nafisa Farhodovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD
n.f.qosimova@buxdu.uz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tarjimon ko‘nikmalarining shakllanishi va o‘sib borishi bilan tarjima jarayonining avtomatizmi darajasining ortishi, uni faollashtiruvchi kognitiv mexanizmlarning roli masalalari yoritib berilgan. Professional va yosh tarjimonlar duch kelishi mumkin bo‘lgan tarjima vazifalarini bajarishda kognitiv operatsiyalarni avtomatlashtirishning ong bilan bog‘liq jihatlari tahlilga tortilgan.*

Kalit so’zlar: *tarjima operatsiyalari, kognitiv jarayon, psixolingvistik tajriba, tarjima psixologyasi, induktiv usul, deduktiv usul.*

КОГНИТИВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ВОССОЗДАНИЯ ОРИГИНАЛЬНОГО ТЕКСТА В ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы повышения уровня автоматизма процесса перевода и роль когнитивных механизмов, активирующих его по мере формирования и роста навыков переводчика. Анализируются интеллектуальные аспекты автоматизации когнитивных операций при выполнении переводческих задач, с которыми могут столкнуться профессиональные и молодые переводчики.*

Ключевые слова: *переводческие операции, когнитивный процесс, психолингвистический опыт, психология перевода, индуктивный метод, дедуктивный метод.*

COGNITIVE PRINCIPLES OF RECREATING THE ORIGINAL TEXT IN TRANSLATION

Abstract. *This article discusses the issues of increasing the level of automaticity of the translation process and the role of cognitive mechanisms that activate it as the translator’s skills form and grow. The intellectual aspects of automation of cognitive operations when performing translation tasks that professional and young translators may encounter have been analyzed.*

Keywords: *translation operations, cognitive process, psycholinguistic experience, psychology of translation, inductive method, deductive method.*

Kirish. Ma’lumki, tarjima jarayoni ko‘plab kognitiv operatsiyalarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Ulardan ba’zilari avtomatik ravishda yoki "ongsiz” ravishda, boshqalari ongli ravishda amalga oshiriladi. Bunday operatsiyalarga boshlash – ma’lum bir konseptlar bilan u yoki bu tarzda bog‘liq bo‘lgan bir qator tushunchalarni faollashtirishni, matnning qolgan elementlari fonida tarjimon tomonidan faqat bitta obyektni (so‘z, jumla, jumlalar guruhi) diqqat markazida ushlab turishida namoyon bo‘ladigan ilgari surish mexanizmini, atrofdagi olam belgilarini aniqlashda diqqat fokusining vizual maydon elementlari bo‘ylab ketma-ket harakati bo‘lmish – skanerlashni kiritish mumkin. Yangi va tajribali tarjimonlar tarjima jarayonida asl matnni turlicha tahlil qilishadi. Ushbu tafovutni R. Yaskelyaynen tomonidan taklif qilingan asl matnni tahlil qilishning ikkita usulini ajratish orqali ko‘rsatib berish mumkin:

1) notanish leksik birliklarni ajratib ko‘rsatish, lug‘atga murojaat qilish, jumlaning sintaktik tuzilishini tahlil qilishni o‘z ichiga olgan lingvistik tahlil, bunda tarjimonning diqqat-e’tibori asl matnni til tizimi darajasida tushunishga qaratilgan;

2) matn tarkibini tahlil qilish, unda tarjimon ma’lumot qidirishni amalga oshiradi va asl nusxadagi parchalarni tashqi olam bilan bog‘liqligi asosida tushunadi, bu fon bilimlarini faollashtirish deb ham ataladi [7; b. 30-32].

Lingvistik tajriba davomida R. Yaskelyaynen tarjimani yaxshiroq bajargan ishtirokchilar uchun tarjima jarayonida asl matnni qayta ishlashga ajratilgan vaqtning 50% dan ortig‘i uning mazmunini tahlil qilishga sarflanganligini aniqladi. Shu bilan birga, omadi kamroq chopgan tarjimonlar uchun bu vaqtning 70% dan ortig‘i lingvistik tahlilga ajratilgan ekan. Shunday qilib, olimaning fikriga ko‘ra, dastlabki matnni tahlil qilishni yuzaki lingvistik daraja bilan cheklash professional bo‘lmagan va muvaffaqiyatsiz tarjimaning

o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi, bunda professional tarjimonlar vaqtning ko‘proq qisimini matn mazmunini tushunish uchun tahlilga bag‘ishlashadi [7; b. 34-36].

Biz ushbu nuqtayi nazarga qo‘shilamiz hamda yangi va tajribali tarjimonlarning kognitiv faoliyatining bu xususiyati tarjima jarayonida ma’lumotni qayta ishlash usuli bilan bevosita bog‘liq deb hisoblaymiz, bu turli darajadagi kasbiy kompetensiyaga ega tarjimonlar tomonidan afzal ko‘riladi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Tarjimon asl matndagi ma’lumotlarni induktiv yoki deduktiv tarzda qayta ishlaydi. Axborotni qayta ishlashning induktiv (ingl. bottom yoki data-driven processing) usulining mohiyati shundan iboratki, qabul qilingan ma’lumotlar, asosan, sezgi organlari orqali keladigan ma’lumotlarni tahlil qilish asosida talqin qilinadi, bunda tajriba bilan bog‘liq umidlarimiz katta rol o‘ynamaydi. Tarjimon asl matndagi ma’lumotlarni alohida so‘z, ibora yoki jumla darajasida ko‘rib chiqadi, kichik birliklarning (so‘zlar, iboralar) ma’nolarini yig‘ish orqali matnning (gap) yirikroq elementlarining ma’nosini yaratishga harakat qiladi. Shu bilan birga, u tarjima muammosini hal qila olmasa, ibora va gap doirasidan tashqariga chiqadi va matnning katta elementlarini tahlil qilishga murojaat qiladi. Masalan, leksik birlikni tarjima qilishning o‘xshash varianti topilmasa, u matn, presuppozitsiya yoki fon bilimlarining yuqoriroq darajasiga ko‘tariladi. Ma’lumotni qayta ishlashning induktiv usuli asliyat matnini o‘qishda asosiy hisoblanadi, degan fikr ham e’tibordan chetda qolmasligi muhim hisoblanadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ma’lumotni qayta ishlashning deduktiv usuli (ingl. top-down yoki schema-driven processing) shuni nazarda tutadiki, ma’lumotni idrok etish, asosan, subyektning (ingl. schema -tajriba natijasida hosil bo‘lgan misol) bilimlari va taxminlari bilan belgilanadi. Shunday qilib, tarjimon asl matnning individual elementlarini kognitiv idrok etishda dastlab paydo bo‘lgan muammo bilan bog‘liq olam haqidagi bilimlarini faollashtiradi va ularni asliyat matnidagi ma’lumotlar bilan taqqoslaydi. Natijada, tarjimon asliyat matnini yanada kengroq ma’lumot manzarasiga joylaydi. Bunday holda, u, dastavval, matnning umumiy mazmunini tushunishga harakat qiladi, uni ma’lum bir fon bilimlari bilan bog‘lashga va shundan keyingina butunlikdan tafsilotlarga qarab tushunishga o‘tadi.

Mutaxassislar tarjima jarayonida ma’lumotni qayta ishlashning yaxlit yoki deduktiv usulini tez-tez qo‘llashlari va yosh tarjimonlar, qoida tariqasida, ekvivalentlarni atomistik (parchalangan) izlashdan foydalanishlari, xususan, R. Yaskelyaynen tadqiqotlarida ko‘rsatilgan. V. N. Shevchuk ham buni ta’kidlab, shunday deydi: "Ushbu usullarning birinchisi professional tarjimonlar ishida ustunlik qiladi, ikkinchisi – o‘zlarining kasbiy faoliyatida birinchi qadamlarni qo‘ygan yangi tarjimonlar faoliyatida uchraydi" [3; b. 257-258].

Bizning fikrimizcha, professional tarjimonlar, asosan, ma’lumotni deduktiv ravishda qayta ishlashadi va faqat kam darajada tanish yoki umuman notanish mavzudagi matn bilan ishlaganda induktiv usulga murojaat qilishadi, chunki ular kengroq kontekstni yaratish holatini takrorlash uchun fon bilimlariga ega emaslar. Shu bilan birga, tajribali tarjimonlarda induktiv usuldan ko‘proq foydalanish mantiqiy matnni TTga (tarjima tili)da qurish istagiga asoslangan va fon bilimlarining yetishmasligi qisman tarjimonlar tarjima jarayonida mavzu sohasini o‘rganayotganda asl matndagi ma’lumotlardan maksimal darajada foydalanish mahorati evaziga qoplanadi.

Biz V.N.Shevchuk va boshqa ba’zi olimlarning induktiv va deduktiv usullar bir-birini to‘ldiradi va tarjima jarayonida ma’lumotlarni yuqori sifatli va samarali qayta ishlash uchun bir xil darajada zarur deb hisoblaydigan fikriga qo‘shilamiz. Bizning fikrimizcha, tarjimonlar ma’lumotni qayta ishlashning ikkala usulini nafaqat asliyat matnini tushunishda (dekodlashda), balki tarjima (kodlash) matnini shakllantirish yoki yaratish jarayonida ham qo‘llashadi.

Bunday holda, fon bilimlarini qo‘llash TTda eng aniq ekvivalentlarni tanlashga yordam beradi. Binobarin, agar birinchi bosqichda tarjimon chet tilidagi ma’lumotlarni yaxshiroq tushunish uchun kengroq kontekstni yaratsa, u holda tarjima matnini yaratish jarayonida u tarjima tilida yangi kontekstni yaratadi va uning yetarlicha adekvatligi va aniqligini ta’minlaydi.

TM (tarjima matni)ni shakllantirish jarayonida ma’lumotni qayta ishlashning induktiv usulidan foydalanish TTdagi mavzu bo‘yicha bilim darajasi yetarli bo‘lmaganda, tarjimon ma’lum bir janr yoki uslubning matn xususiyatlarini yo‘qotishiga imkon beruvchi tarjima tili qonunlariga rioya qilishga majbur.

Ma’lumotni qayta ishlashning yuqorida tahlil qilingan usullaridan tashqari (induksiya va deduksiya) ba’zi tarjima tadqiqotchilari abduksiyani ajratib ko‘rsatishadi. Birinchi marta C.S.Pirs tomonidan ajratilgan ushbu atama "gipotezalarni qabul qilishning kognitiv protsedurasi" tushuniladi [10; b. 13-18]. Tarjima jarayoniga kelsak, ushbu protsedura tarjimonga "tarjima qilib bo‘lmaydigan" asliyat parchasidan tilning gipotetik birligi ekvivalentiga o‘tishni anglatadi. Shu asnoda, abduksiya yordamida tarjimon noaniq ma’lumotlardan uning mumkin bo‘lgan ma’nosi haqidagi gipotezaga intuitiv “sakrash”ni amalga oshiradi [5; b. 99-100].

Bizning fikrimizcha, zamonaviy tarjima nazariyasida yetarlicha anglanimagan abduksiya, qo‘shimcha tadqiqotlarga loyiqdir. Asosli tarjima qarorini qabul qilish uchun ma’lumot yetishmasligi sharoitida matnning ayrim parchalarining “tarjima qilinmasligini" yengib o‘tish jarayonini o‘rganish tarjimani yanada rivojlantirish nuqtayi nazaridan istiqbolli hisoblanadi, chunki bu olimlarga "qora quti" (ingl. black box – bixevioristlar odamning boshini shunday deb atashgan) ichida nima sodir bo‘layotganini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Tarjimaning kognitiv jihatlari A.Yensen tomonidan birmuncha boshqacha yondashuv asosida talqin qilinadi. Uning fikricha, tarjima jarayonini matn yaratishning quyidagi ikkita kognitiv modeli yordamida tasvirlash mumkin: ”bilimni xabar berish” (ingl. knowledge telling) va “bilimni o‘zgartirish” (ingl. knowledge transforming).

Birinchi model agarda tarjima tarjima muammolarini hal qilishni va tarjima maqsadlarini belgilashni talab qilmaydigan oddiy va oson vazifa bo‘lsagina tanish mavzu bo‘yicha matn ustida ishlashda qo‘llaniladi. Bu holatda TTda matn yaratish tematik va tarkibiy "maslahatlar" (ingl. prompts) orqali mavjud kognitiv tuzilmalardan iloji boricha to‘liq foydalanishni nazarda tutadi.

"Bilimlarni o‘zgartirish" modelidan foydalanganda, matnni yaratish ikki xil muammoli sohani qamrab olgan tarjima muammolarini hal qilishning murakkab jarayoni sifatida davom etadi:

1) mazmunning muammoli sohasi;

2) ritorik muammoli soha.

Ushbu modelga ko‘ra, ritorik muammoli sohada tarjima maqsadlari va ushbu maqsadlarga erishish uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar aniqlanadi, grammatika, til va nutq haqidagi bilimlar mavjud bo‘ladi. Mazmunning muammoli sohasida matnni tushunish va atrofdagi dunyoni bilish muammolari ustida ish olib boriladi.

"Bilimlarni o‘zgartirish" modeliga muvofiq, matnni yaratish topshiriqni aqliy tasavvur etishdan boshlanadi, so‘ngra rejalashtirish, maqsadlarni belgilash va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni tahlil qilish amalga oshiriladi. Tayyor tarjima matnini tahlil qilganda, ba’zi maqsadlar o‘zgartirilishi mumkin, bu esa matn tuzilishini o‘zgartirishni yoki uning bir qismidan voz kechishni taqozo qilishi mumkin [8; b. 68-75]. Bunda olimaning "bilimni xabar berish" modelidan foydalanish agarda tarjimon muayyan vazifalarni bajarish tajribasiga ega bo‘lganda, ko‘plab ishlanmalar va shakllangan kognitiv tuzilmalar (ingl. cognitive structures), shuningdek, aniq shakllangan bilimlar bo‘lsa, bu tanish matnlar bilan ishlashda foydali strategiya bo‘ladi, degan fikri salmoqli ko‘rinadi. Shu bilan birga, "bilimlarni o‘zgartirish" modeli ko‘pincha tarjimon ko‘plab tarjimadagi qiyinchiliklarini yengib o‘tishi kerak bo‘lganda notanish mavzudagi matnlarni tarjima qilishda ishlatiladi.

Tarjima variantlarini saralash mexanizmida tarjimon tarjima qiyinchiliklarini A.D.Shveyser tomonidan tasvirlangan *"sinov va xato"* usuli bilan yengib chiqadi. Uning mohiyati «bir nechta mumkin bo‘lgan tarjima variantlarini ko‘rib chiqish va ma’lum funksional mezonlarga mos kelmaydiganlarni rad etish orqali maqbul variantga izchil yaqinlashishdan iborat». L.K.Latishevning yozishicha, variantlarni saralash tartibi variantlarni yaratish va ularni tashxislash yoki sinovdan o‘tkazishdan iborat.

Ushbu tartib amerikalik psixologlar G. Miller, E.Galanter va K.Pribram tomonidan ham tavsiflangan hamda V.N.Shevchuk tomonidan modifikatsiya qilingan. U ma’lum bir muammoni hal qilishda tarjimonning asosiy kognitiv operatsiyalarini aks ettiradi, ya’ni: vazifa – harakat – vazifa – chiqish.

Birinchi bosqichda ("vazifa") tarjimon o‘z xotirasida saqlangan yoki lug‘atdan olingan tarjima variantini tahlil qiladi va uni tarjimaning asl nusxasi va matniga muvofiqligini baholaydi, bu variant ma’lum bir vaziyatda maqbulmi yoki yo‘qligini aniqlashga harakat qiladi, ma’lum bir holatda adekvatlik talablariga javob bera olishini belgilaydi. Agar kutilgan natijaga nomuvofiqlik aniqlansa, tarjimon ikkinchi bosqich – "harakat" ga o‘tadi, uning davomida u ko‘rib chiqilayotgan tarjima variantidan butunlay voz kechadi yoki uni o‘zgartiradi.

Tarjimonni qoniqtiradigan tarjima varianti topilgandan so‘ng, uchinchi bosqich ("vazifa") muvaffaqiyatli o‘tadi va tarjimon variantlarni saralash jarayonini tugatadi ("chiqish"), shundan so‘ng u yangi muammoni hal qilishga o‘tadi.

Bizning fikrimizcha, tajribali tarjimonlar ko‘pincha yosh tarjimonlarga qaraganda ko‘proq variantlarni yaratadilar, chunki ular sezilarli darajada katta lug‘at boyligiga ega. Biroq boshqa tomondan, ba’zi hollarda mutaxassislar sifat jihatidan eng yaxshi variantlarni kamroq saralashlari mumkin, yosh tarjimonlar esa muvaffaqiyatsiz variantlarni darhol rad eta olmaydilar. Bu, masalan, mutaxassislarning lug‘atga kamroq murojaat qilishlari bilan tasdiqlanishi mumkin. Psixolingvistik tajriba davomida tarjima qiyinchiliklarini bartaraf etish jarayonida saralangan tarjima variantlari soni tarjimonning kompetensiya darajasi bilan qanday bog‘liqligini aniqlash borasida tarjima jarayonida variantlarni saralash mexanizmining samaradorligi

tarjimonning qabul qilinayotgan har bir qarorning tanqidiy baholash qobiliyati, uning til nuqtayi nazaridan sezish koʻnikmasi, shuningdek, intuitsiyaga bogʻliqligini ta'kidlash oʻrinli. Ma'lumki, tanqidiylik yetuk ongning muhim belgisidir. Shunday ekan, tajribali tarjimonlar tarjima qiyinchiliklarini yengishda eng yaxshi tarjima variantini sinchkovlik bilan tanlaydilar.

Variantlarni koʻrib chiqish jarayoni tarjimon turli xil ekvivalentlarni ketma-ket tahlil qilib, ularning eng yaxshisiga yaqinlashganida ongli ravishda yoki avtomatik ravishda yoki intuitiv ravishda amalga oshirilishi mumkin. V. N. Komissarov va boshqa ba'zi olimlarga ergashgan holda, tarjima nutq-fikrlash faoliyatining murakkab turi boʻlib, u oʻziga xos bilim va koʻnikmalarni oʻz ichiga oladi, ularning ba'zilari yarim avtomatik yoki avtomatik koʻnikmalarga aylantirilishi va intuitiv ravishda qoʻllanilishi mumkin, deb hisoblaymiz. Shu bilan birga, tarjima matnini yaratish jarayoni ongosti darajada ham sodir boʻladi, bunda qaror tezda, xuddi avtomatik ravishda qabul qilingandek amalga oshadi va tarjimon nima uchun tarjimaning u yoki bu variantini tanlaganini tushuntira olmaydi va tarjimon qiyinchiliklarni yengib oʻtishi kerak boʻladi, ya'ni ongli ravishda tarjima jarayonida u yoki bu muammoga e'tibor qaratish, tarjimaning koʻp sonli turli xil variantlarni tahlil qilish va boshqalarga duch keladi [1; b. 321-339].

Masalan, D. Robinsonning fikricha, yozma tarjima jarayoni ikki shaklda amalga oshiriladi:

1) ong osti oqimi sifatida, bunda fikrlash jarayoni kuzaytilmaydi, lekin "barmoqlarning oʻzi tarjimani tugʻdiradi" (gap klaviaturada harflarni terish haqida ketmoqda);

2) ongli jarayon sifatida, bunda tarjimon sinonimlar roʻyxatini aqliy ravishda koʻrib chiqadi, lugʻatga murojaat qiladi, jumlalar tuzilishini, semantik maydonlarni, madaniy xususiyatlarni va boshqalarni tahlil qiladi [11; b. 95]. D.Robinsonning fikricha, tarjima koʻpincha ongimizdan tashqarida sodir boʻladigan intellektual jarayon boʻlib, u oʻrganish, xotirada saqlanadigan tajriba natijasida shunday namoyon boʻladiki, biz unga samarali murojaat qilishimiz va koʻp qirrali foydalanishimiz lozim.

Boshqa tarjimashunoslarning fikricha, tarjima matnini yaratish jarayoni tez, koʻp harakat qilmasdan (avtomatik ravishda) yoki asta-sekin (ongli ravishda) oʻtishi mumkin, bu borada tarjimon ma'lum bir muammoni hal qilish uchun kognitiv harakatlarni amalga oshirishi, koʻp sonli turli xil variantlarni tahlil qilishi kerak boʻladi. Jarayonning anglangan qismini turli xil tadqiqot usullari yordamida bevosita kuzatish mumkin.

Shubhasizki, ongli (anglashilgan) va avtomatlashtirilgan* (avtomatik yoki intuitiv) tarjima nisbati har xil tarjimonlar uchun har xil va quyidagi shartlarga bogʻliq:

1) tarjimonning bir xil yoki shunga oʻxshash vazifalarni hal etish tajribasi;

2) tarjimonning ma'lum bir tarjima turini oʻzlashtirish darajasi;

3) berilgan mavzuni bilish darajasi;

4) tarjimonning oʻziga xos ish sharoitlari.

Ma'lumotlar va ehtimol, ba'zi boshqa shartlarning uygʻunligi turli xil kognitiv operatsiyalarni va ba'zan jarayonlarni avtomatlashtirish darajasini belgilaydi. Ular toʻliq avtomatlashtirilgan, qisman avtomatlashtirilgan yoki umuman avtomatlashtirilmagan boʻlishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, koʻpincha tarjimon kognitiv yukni minimallashtirishga harakat qiladi va uning xotirasida saqlanadigan "tayyor yechimlar"dan foydalanadi, uning oldida tarjima muammosi paydo boʻlganda yanada murakkab jarayonlarga murojaat qiladi. Mahalliy psixologlar ham shuningdek, tarjima jarayoni sirasiga kiruvchi va xususiy holat sanalgan fikrlash jarayonini avtomatlashtirish haqida gapirishadi. Masalan, S.L. Rubinshteynning ta'kidlashicha, "juda murakkab va koʻp tomonlama faoliyat turi boʻlgan haqiqiy fikrlash jarayonida avtomatlashtirilgan harakat sxemalari – fikrlashning oʻziga xos " koʻnikmalari" juda muhim rol oʻynaydi" [2; b. 323].

Umuman olganda, muayyan tarjima operatsiyalarini avtomatlashtirish darajasi faqat tarjima jarayonining tashqi xususiyatlariga qarab baholanishi mumkin. Avtomatlashtirilgan operatsiyalar tarjimonlar uchun ongsiz ravishda amalga oshiriladi va tashqi koʻrinishga ega emas. Oʻz navbatida, tashqi tomondan kuzatiladigan ongli jarayonlar tarjimon xatti-harakatlarida u yoki bu oʻzgarishlar (pauza, lugʻatga murojaat qilish, imo-ishora va boshqalar) ga olib keladi.

Tajriba toʻplanib, tarjima jarayonini avtomatlashtirish darajasi oshgani sayin, tarjimon tarjima qiyinchiliklariga kamroq duch keladi va ularni hal qilish uchun kamroq vaqt sarflaydi. U oʻzini yanada kompetentli deb biladi, ish mavzulari koʻlamini oshiradi va vaqt oʻtishi bilan oʻzini professional kabi his qiladi. Biroq

* "Avtomatlashtirish" tushunchasi mashinali yoki avtomatik tarjima nazariyasida ham qoʻllaniladi, ammo mazkur maqola kontekstida biz faqat tarjimonning ongi va tafakkurida sodir boʻladigan tarjima jarayonlarini avtomatlashtirish haqida gapiramiz.

D.Robinson ta’kidlaganidek, kasbiy kompetensiya asosida "qisman, agar kerak bo‘lsa, odatiy jarayondan chiqib ketish va murakkab muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan darajada to‘liq va ongli ravishda matnni, olamni o‘zlashtirish (boshdan kechirish) qobiliyatida yotadi". Shuning uchun, mutaxassis avtomatlashtirilgan axborotni qayta ishlash jarayonini to‘xtata olishi kerak.

Tarjimada kuzatilgan va kuzatilmaydigan jarayonlarni tavsiflash uchun R. Yaskelyaynen ma’lumotni markirovkalangan va markirovkalanmagan qayta ishlash (ingl. marked processing va unmarked processing) atamalardan foydalanishni taklif qilgan. Uning ta’kidlashicha, markirovkalanmagan (kuzatilmaydigan) ishlov berish tarjimon tomonidan asl matn parchalarini tez tarjima qilganda amalga oshiriladi. Uning fikriga ko‘ra, tarjimon tashqi tomondan kuzatilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotni markirovkalangan qayta ishlashdan e’tibori tarjima muammosining muayyan jihatlariga, muammolarni hal qilishga va hokazolarga qaratganda foydalanadi.

Lingvistik tajriba yordamida R. Yaskelyaynen tarjimani yaxshiroq bajargan tarjimonlar tajriba davomida tarjimalari unchalik muvaffaqiyatli bo‘lmagan tarjimonlarga qaraganda ko‘proq markirovkalangan ishlov berishni amalga oshirganligini aniqlagan.

Bizning fikrimizcha, tarjima jarayonini avtomatlashtirish darajasi tarjimonlarning turli professional guruhlarini tasniflaning muhim belgisi sifatida qaralishi mumkin.

Biz, shuningdek, D. Robinsonning quyidagi fikriga qo‘shilamiz. U haqli ravishda “tarjimon asta-sekin muayyan muammolarni hal qilishni ozmi-ko‘pmi ongsiz xatti-harakatlarga (odatlarga) aylantiradi, bu unga tezroq va samaraliroq tarjima qilishga yordam beradi, qolaversa, bu murakkab muammolarni hal qilish uchun tarjima yaratish jarayonini to‘xtatish zaruratini kamaytiradi. U tarjima jarayoniga xalaqit beradigan har qanday muammo vaqt o‘tishi bilan tanish bo‘lib qolishini, natijada uni hal qilish jarayonini avtomatlashtirilib, tarjimon uchun ko‘rinmas bo‘lib qolishadi”, deya ta’kidlaydi. Binobarin, tarjima muammosiga duch kelganda, tajribaga ega tarjimonlar ko‘proq ma’lumotni tahlil qilishadi. Bunday holda, ishlov berishning bir qismi yashirin yoki ongsiz ravishda (markirovkalanmagan ishlov berish) sodir bo‘ladi va bir qismi tarjimon tomonidan anglashiladi, buning natijasida tarjimonning sharhlari va boshqa harakatlari kuzatilishi mumkin (markirovkalangan ishlov berish). Bunda ma’lumotlarni markirovkali qayta ishlash miqdori ko‘p jihatdan tarjimonning tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni ovoz chiqarib sharhlash qobiliyatiga bog‘liq.

Tarjima jarayonini avtomatlashtirish haqida gapirganda, V.N.Shevchuk shunday deydi: “Professional tarjimon tarjima asliyatga mos kelishi/kelmasligini avtomatik ravishda aniqlay oladi. Chunki unda quyidagilarning sintezidan iborat “ichki intuitsiya” mavjud:

1) AT (asliyat tili) va TT (tarjima tili)da amal qiladigan qonuniyatlarni, shuningdek leksik-grammatik uyg‘unlik qoidalarini bilish;

2) ikki til rivojlanishining asosiy tendensiyalarini bilish;

3) intuitsiya.

V.N.Shevchukning fikriga ko‘ra, intuitsiya – inson bioprogrammasining bir qismi bo‘lib, u "tug‘ilishdan boshlab beriladi va unga o‘rganish va rivojlanishning imkoni yo‘qdir”. Binobarin, tajriba to‘planib, tarjimonning professionalligi oshgani sayin, tarjima jarayonini avtomatlashtirish darajasi "ichki sezgi"ning dastlabki ikkita tarkibiy qismining rivojlanishi tufayli ortadi [4; b. 340].

Biroq intuitsiyaning boshqa ta’riflari ham mavjud bo‘lib, unga ko‘ra intuitsiya "his-tuyg‘ular va fikrlashni chetlab o‘tmaydi va bilimning o‘ziga xos turini tashkil etmaydi. Uning o‘ziga xosligi shundaki, tafakkur jarayonining individual bo‘g‘inlari ozmi-ko‘pmi ongsiz ravishda o‘tib ketadi va faqat fikrning natijasi – to‘satdan ochilgan haqiqatgina qayd etiladi”. Ushbu talqinda intuitsiya tarjima qarorini qabul qilishning avtomatlashtirilgan mexanizmi sifatida ko‘rinadi.

Tarjimada kognitiv jarayonlarni avtomatlashtirish darajasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimon xotirasida saqlanadigan modellar va tartiblar soniga bog‘liq deb hisoblaymiz. Shuning uchun, professional tarjimonlar uchun bu yangi boshlovchilarga qaraganda ancha yuqori ekani xususida B. Englund Dimitrova ham aytib o‘tgan. Uning aytishicha, tarjimonning tajribasi oshgani sayin, u avtomatik ravishda tarjima qila oladigan matn parchalari hajmini oshiradi. Olima, shuningdek, avtomatik tarjima tarjimonning xotirasida faqat bitta variant mavjudligi yoki tanlov jarayonini avtomatlashtirishning natijasi bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi [6; b. 47-56].

Shu bilan birga, matn tarkibidan mustaqil bo‘lgan ba’zi operatsiyalar, masalan, tarjima variantlarini saralash mexanizmi, kerakli fon ma’lumotlarini topish yoki lug‘atga kirish algoritmi va tafakkurning boshqa "ko‘nikmalari" juda avtomatlashtirilgan bo‘lib qolmoqda. Boshqa bir qator operatsiyalar yarim avtomatik deb tasniflanadi yoki tarjimon tomonidan to‘liq ongli ravishda va bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Bunday "har doim avtomatlashtirilgan" va "o‘zgaruvchan avtomatlashtirilgan" operatsiyalarni chegaralashga yondashuvlardan biri L.K.Latishev tomonidan taklif qilingan. Uning ta’kidlashicha,

tarjimonlarning avtomatlashtirilgan ko‘nikmalari ong ostiga asoslangan, ko‘nikmalar esa ma’lumotlarni emas, balki faqat shunga o‘xshash harakatlarni bajarishda olingan bilim va tajribaga asoslangan. Shunday qilib, ko‘nikmalar har doim to‘liq avtomatlashtirilgan, mahorat esa faqat qisman.

Xulosa. Tarjima jarayonida bevosita kuzatilmagan ba’zi tarjima jarayonlari intervyu orqali tiklanishi mumkin, deya taxmin qilish mumkin. Qaror intuitiv ravishda yoki avtomatik ravishda qabul qilingan bo‘lsa ham, tarjimon, ayniqsa, tajribali bo‘lsa, ko‘pincha uni fikrlash jarayonlarining siqilgan zanjirini ochib berish kabi tushuntirishi mumkin. Shuningdek, yosh tarjimonlar, professionallardan farqli o‘laroq, ko‘pincha intuitiv ravishda kelgan qarorlarini tushuntira olmaydilar, chunki ular ko‘pincha faqat taxminlarga asoslanadi. Psixolingvistik tajriba yordamida turli darajadagi kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan tarjimonlarda tarjima jarayonini avtomatlashtirish darajasi qanday ekanligini aniqlash imkoni mavjud.

Shunday qilib, tarjima jarayonining avtomatizmi (yoki avtomatizatsiyasi) darajasi, tarjimon ko‘nikmalarining shakllanishi va rivojlanishi bilan o‘sib boradi. Shuni ham ta’kidlash joizki, turli xil operatsiyalarni avtomatlashtirish mumkin bo‘lgan daraja ham farq qiladi. Professional tarjimonlar uchun ilgari duch kelgan tanish tarjima vazifalarini bajarishda ko‘pchilik kognitiv operatsiyalarni avtomatlashtirish darajasi yuqori. Agar tajribali tarjimonlar nostandart vazifalar ustida ishlasalar (masalan, dasturiy ta’minot matni, notanish mavzular), ular ko‘plab tarjima qiyinchiliklarini ongli ravishda yengib, katta bilim harakatlarini qo‘llashlari kerak.

ADABIYOTLAR:

1. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. – Москва, 2005. – С. 321, 324, 339.

2. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии / G. Л. Рубинштейн СПб.: Питер, 2002. – С. 323.

3. Шевчук В. Н. Некоторые когнитивные аспекты письменного перевода // Теория перевода и методика подготовки переводчиков / Материалы научно-практической конференции. М: ВИ, 1999. – С 257-258.

4.Шевчук В. Н. Когнитивный подход к анализу процессов устного перевода. – Киев, 2009. – С. 340.

5. Douglas R. Becoming a Translator: Accelerated Course. London; New York: Routledge. 1997. – P . 99-100.

6. Englund Dimitrova, B. Expertise and Explicitation in the Translation Process. – Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2005.

7. Jaaskelainen, R. Tapping the Process. An Explorative Study of the Cognitive and Affective Factors Involved in Translating / R. Jaaskelainen. University of Joensuu Publications in Humanities. 1995. – 237 p.

8. Jensen A. The Effects of Time on Cognitive Processes and Strategies in Translation. – Copenhagen, 2000.

9. Neubert, A. Competence in Language, in Languages, and in Translation. Developing Translation Competence. – Amsterdam: John Benjamins, 2000.

10. Pierce C.S. Philosophical Writings. – New York, 1955.

11. Robinson D. Becoming a Translator: an accelerated course. Routledge. – New York, 1997. – P. 95.

UO‘K 82

ROBERT KIOSAKINING “BOY OTA, KAMBAG’AL OTA” ASARI MISOLIDA SELF-HELP JANRINING XUSUSIYATLARI

Kilicheva Mehriniso Rajabovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d (Phd)
Sharopova Shahnoza Shavkatovna,
Buxoro davlat universiteti
Ingliz adabiyotshunosligi 2-bosqich magistranti
sharapovashahnoza8@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Amerika adabiyotida «self-help» janrining kelib chiqishi, xususiyatlari hamda ushbu janr rivojiga ta`sir ko’rsatgan muhim omillar tadqiq qilingan. Ushbu maqolada asosiy e`tibor janrning asosiy xususiyatlarini yoritish maqsadida Robert Kiosakining «Boy ota, kambag’al ota» asariga qaratilgan. Asarning mazmuni, kirish qismi hamda 9ta asosiy bo’limlari dolzarb muammolar va ularning yechimini aniqlash maqsadida tahlil qilingan. Maqoladagi muallif tajribasining tahlili janrning xususiyatlarini yoritishga va uning kitobxonlarga ta`sirini tushunishga yordam beradi.*

Kalit so’zlar: *self-help, psixologiya, janr, asar, hikoya.*

ХАРАКТЕРИСТИКА ЖАНРА SELF-HELP НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ РОБЕРТА КИОСАКИ «БОГАТЫЙ ПАПА, БЕДНЫЙ ПАПА»

Аннотация. *В данной статье рассматриваются происхождение, литературные особенности и важнейшие факторы, повлиявшие на развитие жанра “Self-help” в американской литературе. В статье обращается внимание на произведение Роберта Киосаки «Богатый папа, бедный папа», чтобы раскрыть основные характеристики жанра. Были проанализированы содержание, вводная часть и основные 9 глав, чтобы выявить основные проблемы и возможные решения. Анализ авторского опыта, проведённый в статье, помогает понять основные особенности жанра “Self-help” и его влияние на читателя.*

Ключевые слова: *self-help, психология, жанр, произведение, рассказ.*

CHARACTERISTICS OF THE SELF-HELP GENRE IN THE EXAMPLE OF ROBERT KIOSAKI'S «RICH DAD, POOR DAD»

Abstract. *This article examines the origin, features and factors influencing for the development of self help genre in American literature. The article draws attention to the work of Robert Kiosaki “Rich Dad, Poor Dad” to reveal the main characteristics of the genre. The content, introduction part and main nine chapters have been analyzed to find out the crucial problems and possible solutions. The analysis of author’s experience carried out in the article helps to understand the main features of the self-help genre and its impact on the reader.*

Key words: *self-help, psychology, genre, literary work, narrative.*

Kirish. Self-help janri sirasiga kiradigan kitoblar o'z kitobxonlariga aqliy, jismoniy va moliyaviy jihatdan rivojlanish, shaxsiy muammolarni hal qilish bo'yicha ko'rsatmalar berish maqsadida yozilgan asarlar sirasiga kiradi. Ular yozuvchilarning hayotiy tajribalaridan olingan bilimlarga asoslangan yo'l-yo'riqlardan iborat publisistik kitoblar hisoblanadi.

“Self-help” so’ziga Oxford lug’atida “Muammolaringizni hal qilish uchun boshqa odamlardan yordam so'rash o'rniga, o'z kuchingiz va qobiliyatingizga tayanish harakati”, Merriam Webster lug’atida “boshqalarning yordamisiz o'zini yaxshilash yoki muammolarini yengish harakati yoki jarayoni” deb izoh berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Shaxsiy rivojlanish kitoblari sifatida tanilgan “self-help” asarlar uzoq vaqtdan beri mavjud. Bu janrning nomi 1859- yilda nashr etilgan, Samuel Smilesning eng ko'p sotilgan “Self-help” nomli kitobidan olingan.

Ko’pgina olimlar ushbu janrning o’ziga xos xususiyatlarini va uning muhim elementlarini tadqiq qilishga harakat qilishgan. Jumladan, S.K.Dolby self help kitoblarini “O’z- o’zini takomillashtirish” yoki

“Shaxsiy rivojlanish” kabi turlicha nomlar bilan uchratish mumkin deydi. Ushbu atamalarni yoritib berishda o’quvchi istaklaridan kelib chiqib, 1-guruhga taalluqli kitoblarni o’qish va tanlashda “kitobxonning xohishi ko’proq” desa, 2-toifadagilarini “ biroz zerikarliroq” deb ta’riflaydi [4;350].

Tom Anderson o’z maqolasida ushbu janr rivojlanish tarixida 3 ta muhim bosqich bo’lganini va bu bosqichlar insonning o’sha davrlardagi dolzarb muammolari bilan bog’liq bo’lganini yoritib beradi. U XIX asrni xarakter asri, XX asrni shaxsiyat asri hamda XXI asrni bosim asri deb nomlaydi. Buning sabablarini esa o’sha davrdagi self-help asarlarining mazmunini yoritib berish bilan izohlaydi. Jumladan, XIX asrda yashab o’tgan Smiles va uning zamondoshlari janrga xos asarlarida shaxs, uning axloqi va madaniyatini muhim sanagan. XX asrda janr rivojiga sezilarli hissasini qo’shgan mashur Deyl Karnegi esa urbanizatsiya jadal rivojlanayotgan zamonda shaxsning qay darajada raqobatdosh bo’la olishi va jamiyatdagilarga qanday ta’sir ko’rsatishini dolzarb masala sifatida olib chiqqan. XXI asrga kelib jamiyatda ish va hayot tarzidagi muvozanat insonlarni bosimdan olib chiqishga qaratilgan self-help kitoblarining yaratilishiga turtki bo’ladi [8;40].

Mazmunan ushbu janrga oid kitoblarni badiiy bo’lmagan kitoblar turkumiga kiritish mumkin. Aynan badiiy va badiiy bo’lmagan kitoblarni farqlash lozim bo’lsa, ushbu janrga oid kitoblardagi voqea yoki qahramonlar to’qima emas, balki yozuvchi tajribasidan o’tgan hikoyalarga asoslanib yozilgan. O’zi duch kelgan muammolarga qanday yechim topganini kitobxon bilan bo’lishish maqsadida maslahat yoki yo’riqnoma sifatida yozilgan.

Bundan tashqari ushbu turdagi kitoblarni ma’no va mazmuniga ko’ra 3guruhga bo’lish mumkin:

1)Self-help (ya’ni o’z- o’ziga yordam berish) haqidagi kitoblar: Iqtisodiy, aqliy, jismoniy va ruhiy savodxonlikni oshirish maqsadida takliflar berilgan;

2) Shaxsiy rivojlanishga oid kitoblar: kitobxonning o’z hayoti davomida o’ylagan orzularini qanday qilib maqsadga aylantirish va unga erishish uchun qanday uslub va texnikalardan foydalanishga oid yo’l-yo’riqlar ko’rsatilgan;

3) “Qanday qilib...” sarlavhasi bilan boshlanuvchi kitoblar: o’z sohasining mutaxassisi deb hisoblanmagan bo’lsa-da, shaxsiy tajribasida sinab ko’rilgan bilimlarini kitobxon bilan bo’lishgan muallif yo’riqnomasidan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada keltirilgan fikrlarni yoritishda tasniflash, kontekstual va komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

Amerika adabiyotidagi shaxsiy rivojlanish janri bir asrdan ortiq vaqt davomida kishilarning shaxsiy va kasbiy o'sishini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Yo'l-yo'riq, ilhom va amaliy maslahatlarni taklif qiluvchi shaxsiy rivojlanishga yordam kitoblari o'zini takomillashtirish, ma'rifat va muvaffaqiyatga intilayotganlar uchun muhim vositaga aylandi. Amerika adabiyotida ushbu janrning paydo bo'lishi, uning vaqt o'tishi bilan evolyutsiyasi va uning individual hayotga va umuman, jamiyatga doimiy ta'sirini o'rganadi.

1. O‘z-o‘ziga yordam janrining vujudga kelishi:

O'z-o'ziga yordam berish janrining ildizlarini XIX asrning boshlarida Ralf Valdo Emerson va Genri Devid Toro kabi transsendentalist mualliflar o'z asarlari orqali shaxsiy kuch va ma'naviy o'sishni o'rgana boshlaganlarida kuzatish mumkin. Ularning o'z-o'ziga ishonish va shaxsning o’z kuchiga urg'u berishi haqidagi fikrlari kelgusi yillarda gullab-yashnaydigan shaxsiy rivojlanish harakati uchun asos yaratdi.

2. Psixologik va yangi fikr ta'siri:

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida psixologiya sohasi va “Yangi fikr” falsafasining yuksalishi self-help janri adabiyotining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Uilyam Jeyms, Zigmund Freyd va Karl Yung kabi kashshoflar inson ongi va xulq-atvorining chuqurligini o'rganib, o'z-o'ziga yordam berish mualliflariga shaxsiy motivatsiya, to'siqlarni yengib o'tish va baxt, mamnuniyat hislarini rivojlantirish kabi mavzularni o'rganishga yo'l ochib berdi.

3. Deyl Karnegining ta'siri:

Deyl Karnegining "Qanday qilib do'stlar qozonish va odamlarga ta'sir qilish" (1936) kitobi o'z-o'ziga yordam berish janrida burilish nuqtasi bo'ldi. Karnegining shaxslararo ko'nikmalar, muloqot strategiyalari va shaxsiy rivojlanishga urg'u berishi shaxsiy va professional hayotlarida muvaffaqiyatga chanqoq kitobxonlar bilan uyg’unlashdi. Karnegining ishi janrdagi ko'plab kelajakdagi mualliflar uchun namuna bo'lib, self-help adabiyotining ta'sirini kuchaytirdi.

4. Ogohlik va ma’naviyatga o‘tish:

XX asrning oxirida o'z-o'ziga yordam berish adabiyoti ong va ma'naviyatni o'z ichiga olish tomon siljishni boshdan kechirdi. Dipak Chopra, Ekxart Tolle va Luiza Xey kabi mualliflar meditatsiya, mulohazalilik va ijobiy tasdiqlar kuchi tushunchalarini kiritdilar. Bu yozuvlar nafaqat shaxsiy o'sish uchun yo'l-yo'riq ko'rsatibgina qolmay, balki o'zini o'zi va koinot bilan chuqurroq bog'lashga yordam berdi.

5. Xilma-xillik va inklyuzivlik:

Jamiyat xilma-xil bo‘lgan sari o‘z-o‘ziga yordam janri kengroq istiqbollar va yashagan tajribalarni o‘zida mujassamlashtirgan holda o‘z ko‘lamini kengaytira boshladi. Brene Braun va Iyanla Vanzant kabi mualliflar zaiflik, chidamlilik va o'zini o'zi qabul qilish masalalariga e'tibor qaratdilar. Bu o'zgarish shaxsiy o'sish bir o'lchamdagi jarayon emas, balki turli omillar ta'sirida individual sayohat ekanligini anglash kuchayib borayotganini aks ettirdi.

6. Tanqid va munozaralar:

Shaxsiy rivojlanishga yordam janri tanqidchilardan xoli bo'lmadi. Ba'zilarning ta'kidlashicha, bu muvaffaqiyatga erishishning haqiqiy bo'lmagan umidlarini targ'ib qiladi. Tanqidchilar, shuningdek, ba'zi mualliflarning ishonchliligi va tajribasiga shubha qilishadi. Biroq mas'uliyatli va yaxshi o'rganilgan shaxsiy o’sishga yordam kitoblari haqiqatan ham odamlarni kuchaytirishi va qimmatli tushunchalar berishi mumkinligini tan olish kerak.

7. Zamonaviy davr va undan keyingi davr:

XXI asrda o'z-o'ziga yordam janri podkastlar, bloglar va onlayn kurslar kabi yangi vositalarni qamrab olgan holda yanada boshqacha tus oldi. Texnologiyaning mavjudligi shaxsiy rivojlanishga yordam berishni demokratlashtirdi va uni kengroq auditoriyaga taqdim etdi. Bu evolyutsiya janrning jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashish qobiliyatini aks ettiradi va odamlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini qondiradi.

O'quvchilarning e'tiborini jalb qilish va ularni o'z kitoblarini sotib olishga undash maqsadida self-help janri mualliflari sarlavhalar qanday bo'lishi haqida puxta o'ylashadi, masalan, ular kitobxon o'z hayotida qanday o'zgarish qilmoqchi yoki nimani uzoq vaqtdan beri tuzatmoqchi, shu kabi masalalarga e'tibor qaratadi. Sarlavhalarning mazmuniga ko’ra kitoblarning 3ta asosiy toifasi mavjud:

1) Sarlavha maqsadga qarata tanlangan: Norman Vinsent Pealning “Ijobiy fikrlashning kuchi” asari;

2) “Qanday qilib...” so’zlari bilan boshlanadigan: Deyl Karnegi “Qanday qilib do'st qozonish va odamlarga ta'sir qilish” asari;

3) Sarlavhasi 2-shaxsga qaratilgan: Tomas Xarrisning “Men yaxshiman, siz yaxshisiz” asari [7;61].

Maklin va Kapell shaxsiy rivojlanish bo'yicha o'zlarining empirik tadqiqotlarida erkaklar va ayollar o'rtasidagi ikkita asosiy tafovutni aniqladilar.

Birinchidan, ayollar va erkaklar o'qiydigan self-help guruhiga kiradigan kitoblarning turlari o'rtasida farq bor. Ayollar shaxslararo munosabatlarni saqlab qolish va yaxshilashda yordam berishga qaratilgan shaxsiy rivojlanish kitoblarini o'qishga moyil. Erkaklar esa biznes va moliyaga oid kitoblarni ko'proq o'qiydilar. Mansab va salomatlik haqidagi kitoblarni esa ikkala jins vakillari ham o'qiydilar.

Ikkinchidan, shaxsiy rivojlanishga yordam beradigan kitobni o'qish paytida va undan keyin erkaklar va ayollar boshqacha yo'l tutishadi. Shaxslararo munosabatlarda ayollarning ko'p hissiy sa'y-harakatlarini o'z zimmalariga olishlari kerakligi, nima uchun ayollarning shaxslararo munosabatlarga oid adabiyotlarni ko'proq o'qishini yoritib beradi. Ayollar shaxsiy rivojlanishga yordam berish kitoblari bilan shug'ullanishda ko'proq ulushga ega va shuning uchun o'qishda faolroq, aniqroq va maqsadliroq, deb xulosa qilinadi [6;69].

Niderlandiyalik tadqiqotchilarning olib borgan izlanishlariga ko’ra self-help asarlarini mazmunan 4 ta guruhga ajratish mumkin. Bular:

1. Rivojlanish- ushbu mavzudagi kitoblar o’z -o’zini rivojlantirish;
2. Shaxsiy munosabatlar – qanday qilib o’zaro munosabatlarni yaxshilash;
3. Uddalay olish-asosan ish va hayot tarzi o’rtasidagi muvozanatni saqlash uchun tashvishlardan xoli qola olish;
4. O’zlikni anglash – o’zlikni anglab hayoti davomida to’g’ri qaror qabul qila olish haqidagi mavzularni qamrab olgan [2;99].

Koay Dong Liang o’z dessertatsiyasida 21 ta self help asarlarining o’xshash va farqli tomonlarini keltirib o’tadi. Masalan, o’xshash tomonlari o’rganilganda deyarli har bir asarning kirish qismida asosiy muammo yoritilgan, ushbu muammo asarning bosh qahramoni sanalgan muallif bilan bog’liq. Asarning asosiy qismini o’qish davomida esa o’quvchi shunga o’xshash muammolarning yechimiga guvoh bo’ladi. Barcha ushbu turdagi kitoblarning yakunlovchi-xulosa qismlari mavjud. Shularning 14 tasida sarlavhasi bir xil nomlanmagan bo’lsa-da, mazmunan xulosa qismga tegishliligini bilib olish mumkin.

Self-help kitoblarining yana bir xususiyati muallif tomonidan ko’proq hikoyalarning so’zlanganidir.

Xuddi bolalar adabiyoti namunalaridek self-help turkumidagi hikoyalar ham pedagogik ahamiyatga molik va kitobxon o’z hayotini yaxshilashini ko’zlagan maqsadda yozilgan. Odatda ushbu hikoyalar muallifning shaxsiy hayotidan olingan yoki kitobda berilgan bahs va munozaralar bilan bog’liq.

Tahlil va natijalar. Self-help janriga oid kitoblar ko'pincha ommabop psixologik mavzularga qaratilgan bo'ladi. Agar odamlar o'zlarining ongini, ijobiy fikrlashlarini oshirishsa, o'z maqsadlarini ro'yobga

chiqarish uchun harakat qilishsa, albatta, ularning xatti-harakatlari, munosabatlari hamda o'z hayotlaridan qoniqish hislari ham, albatta, yaxshi tomonga o'zgaradi. Bularning bariga esa psixologlar bilan uchrashib emas, balki shunchaki kitobni o'qish orqali tezroq erishish mumkin.

Biznes yo'nalishidagi self-help janrida yozilgan "Boy ota, kambag'al ota" asari qahramoni ham muallifning o'zi-Robert Kiosaki. U kelib chiqishi yaponiyalik, ammo Amerikada o'qituvchi oilasida ulg'ayib, shu yerda tahsil olgan. Asarda yoshligida olgan eng muhim tajribalarini bo'lishadi. U 2 ota bilan (o'zining haqiqiy otasi hamda eng yaqin do'stining otasi-uning boy otasi) qanday ulg'aygani haqidagi hikoyalarni so'zlaydi. U o'z tajribalarida ikkala otasining pul hamda pulni boshqarish haqidagi fikrlarini qanday taqqoslaganlarini yoritib beradi. Butun kitobni o'qish davomida o'quvchi boy bo'lish uchun foyda orttirishning sirlarini yoritadi. Inson pul uchun emas, balki pul inson foydasi uchun ishlashi kerak, degan g'oyani ifodalab berishga harakat qilgan.

Asar badiiy bo'lmagan asarlar turkumiga kiradi. Unda badiiy asardan farqli o'laroq qahramon yoki uning raqibi sanalgan biror shaxs yo'q. Asar qahramoni-muallifning o'zi, raqib sifatida esa uning rivojlanishiga to'siqlik qilayotgan "fikr" keltirilgan va butun asar davomida muallif mana shu fikr bilan kurash olib boradi.

Niderlandiyalik tadqiqotchilar Bergsma va Adning self-help kitoblarini 4 turga tasniflaganiga qaraydigan bo'lsak, "Boy ota, kambag'al ota" asari 1-toifa "Rivojlanish" mavzusidagi kitoblarga kiritiladi. Unda moliyaviy savodxonlikni oshirish, qanday qilib pul topish va uni sarflashga oid ko'rsatmalar berib o'tilgan. Asar tili sodda va tushunarli. Muallif tomonidan ahamiyatli deb hisoblangan fikrlar "eslatma" shaklida kitobxonning e'tiborini tortish va yodda qolishi uchun alohida ajratib ko'rsatilgan. Masalan: "*An asset puts money in my pocket. A liability takes money out of my pocket.*" Ushbu qisqa va lo'nda jumladan o'quvchi aktiv va passiv mulkning bir- biridan farqini tezda anglab olishi va eslab qolishi mumkin.

Nancy Eichornning tasnifiga ko'ra, asar sarlavhasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uni 1-turga, ya'ni sarlavhasi maqsadga qaratilgan asarlar sirasiga kiritishimiz mumkin. U boy otasidan o'rgangan bilimlarini umumlashtirib, 6 ta muhim dars sifatida o'z asarida keltirgan. U o'z otasining pul topish, kundalik va xarajatlarini lavozimga ega bo'lishi kerak degan fikrlarini juda ko'p marotaba eshitganini, garchi o'qimishli bo'lsa-da, uning barcha gaplariga amal qilmaganligini ta'kidlaydi. Ammo boy otasining qarashlari haqiqiy otasinkidan butunlay farqliligini anglaydi. Shu tarzda ikkala otasining fikrlar taqqosini butun asar davomida yoritib bergan. Maqsadga erishishning yo'li sifatida boy otasining qarashlarini qo'llab- quvvatlagani va unga amal qilgani yoritib berilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, self –help janriga kiruvchi asarlarning aksari bir xil hajm yoki shaklga ega bo'lsa-da, kitobxon e'tiborini jalb qiladigan tomoni uning mazmunidir. Ushbu fikrning isboti sifatida Kiyosakining "Boy ota, kambag'al ota" asarini keltirishimiz mumkin. Bestseller asarlar sirasiga kirib, ko'pgina aytilgan misollar muallif tajribasidan o'tgani, tarixiy faktlar, statistik ma'lumotlar bilan isbotlangani ko'p kitobxonlarning diqqatiga sazovor bo'lgan.

ADABIYOTLAR:

1. *"Rich Dad, Poor Dad" by Robert Kiyosaki. Plata Publishing, March 2011*
2. *Bergsma, Ad. "Do Self-Help Books Help?" Journal of Happiness Studies, vol. 9, no. 3, 2007, pp. 341–360.*
3. *Cherry, Scott. A Critical Study of Self-Help and Self-Improvement Practices. Edwin Mellen Press, 2011.*
4. *Dolby, Sandra K. Self-Help Books: Why Americans keep reading them. University of Illinois Press, 2005.*
5. *Koay, Dong Liang. Self-Improvement Books: A Genre Analysis. 2015. University of Wellington, PhD dissertation.*
6. *McLean, Scott, and Brandi Kapell. "She Reads, He Reads: Gender Differences and Learning through Self-Help Books." European Journal for Research on the Education and Learning of Adults, vol. 6, no. 1, 2015, pp. 55–72.*
7. *Nancy Eichhorn, Self Help Books: A Genre Unto Themselves Somatic Psychotherapy Today Volume 8, Number 1, p 68-70, 2018*
8. *Starker, S. (1989/2002). Oracle at the supermarket; The American preoccupation with self-help books.New Brunswick: Transaction Publishers.*
9. *Tom Anderson. Long Read: the fascinating history of self-help. May 27, 2020.*

10.Kilicheva M. R. Poetics of works on loneliness in american and uzbek literature //Scientific reports of Bukhara State University. – 2021. – T. 5. – №. 56. – C. 56-64.

11.Kilicheva M. R. Composition of "Jane Eyre" and "Wide Sargasso Sea" //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2023. – T. 12. – №. 5. – C. 74-79.

12.Kilicheva M. R. Artistic-psychological description and classification of loneliness in literature //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 10. – C. 997-1001.

13.Kilicheva M. R. Artistic-psychological description and classification of loneliness in literature //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 10. – C. 997-1001.

14.Merriam Webster Dictionary.

15.Oxford dictionary.

UO‘K 82.09(575.1):37.013.21(09)

HUVAYDO IJODIDA ADABIY TA’SIR

Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna,
Osiyo xalqaro universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. *Maqolada Huvaydo ijodining o‘ziga xos xususiyatlari, shoirning badiiy mahorati, she’rlarida ifodalangan o‘ziga xosliklar va shoir asarlariga Navoiy, Bobur, Mashrab kabi ijodkorlarning ta’siri haqida fikr yoritilgan. Huvaydoning “Bor” radifli g’azali Boburning shu nomli g’azaliga qiyoslanib, tahlil qilingan. Shoir she’riyatidagi adabiy ta’sir ko‘rsatilgan. Uning ko‘plab g‘azallari qofiya va radifi, tanlangan so‘zlari, mazmun, g‘oya va falsafiy dunyoqarashi, badiiy sana’tlarni qo‘llash mahorati haqida fikr yuritilgan. Adabiy ta’sir shoir ijodida katta ahamiyat kasb etishi, ammo uning o‘ziga xos yo‘li borligi maqolada ochib berilgan. Huvaydo g‘azal yozishda mumtoz asarlar ustasi sifatida namoyon bo“lishi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *didaktika, badiiy san’atlar, oshiq, ma’shuqa, ishq, adabiy ta’sir.*

ЛИТЕРАТУРНОЕ ВЛИЯНИЕ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУВАЙДО

Аннотация. *В статье описаны уникальные особенности творчества Хувайдо, художественное мастерство поэта, особенности, выраженные в его стихах, а также влияние на творчество поэта таких авторов, как Навои, Бабур, Машраб. Газель Хувайдо «Бор» сравнивается с одноимённой газелью Бабура и анализируется. Литературное влияние проявляется в поэзии поэта. Многие его газели размышляют о рифме и ритме, избранных словах, содержании, идее и философском мировоззрении, мастерстве использования художественных приемов. В статье раскрывается, что литературное влияние очень важно в творчестве поэта, но оно имеет свой характер. Считается, что Хувайдо выступает мастером классических произведений в написании газелей.*

Ключевые слова: *дидактика, Художественное искусство, возлюбленный, возлюбленный, любовь, литературное влияние.*

LITERARY INFLUENCE IN HUVAYDO’S WORK

Abstract. *The article describes the unique features of Huvaido's work, the poet's artistic skills, the peculiarities expressed in his poems, and the influence of artists such as Navoi, Babur, and Mashrab on the poet's works. Huwaydo's ghazal "Bor" is compared to Babur's ghazal of the same name and analyzed. Literary influence is shown in the poet's poetry. Many of his ghazals reflect on rhyme and rhythm, selected words, content, idea and philosophical worldview, skill in using artistic arts. The article reveals that literary influence is very important in the work of the poet, but it has its own way. It is thought that Huvaido appears as a master of classical works in writing ghazals.*

Keywords: *didactics, fine arts, lover, love, literary influence.*

Kirish. Har bir ijodkor fikrlarining o‘ziga xosligi, yangiligi so‘z san’ati - adabiyotda muhim o‘rin tutadi. Biroq har qanday asar adabiy ta’sir hodisasidan xoli emas. Adabiy ta’sirning qirralari juda ko‘p. Huvaydo lirikasida ham shunday holga duch kelamiz.

Huvaydo o‘zbek mumtoz adabiyotining serqirra ijodkorlaridan biri bo‘lib, asarlari uning hayotligida ham, keyingi asrlarda ham keng tarqalgan. Shoir Yassaviy, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi buyuk ijodkorlar an’anasini davom ettirib, ularning ijodidan ilhomlanib, asarlar yozgan.

“Huvaydo g’azallari badiiy jihatdan g’oyat teran, ularda turli-tuman badiiy san’atlardan mohirona foydalanish, til bezaklari, so‘z o‘yinlari, Qur’on va hadislardan o‘rinli foydalanish, arab harflari yordamida turli majoziy iboralar yaratish ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Shoirning arab, fors, o‘zbek adabiy tilini qanchalar yaxshi va puxta bilganligi uning badiiy mahoratida o‘z aksini topgan. Huvaydoning tasavvufiy iboralari va she’riy uslubi ko‘proq Ahmad Yassaviy va Mashrab yo‘lini tutganligidan guvohlik beradi. Shoir “**Mano”** radifli g’azalini **Ahmad Yassaviy**ga nazira qilib yozgan bo‘lsa, “**Kuyar”, “Kuygay”, “O‘zim”, “Uchrabman**” radifli g’azallarini **Mashrab**ga nazira qilib yozgan” [13.9]. Xojanazar Huvaydo buyuk

salaflarining badiiy mahoratini puxta o‘zlashtirdi, ularning asarlarga muxammaslar bog’ladi, tasavvufiy she’rlaridan ruhlanib, o‘lmas asarlar yaratdi. Huvaydo she’riyati, umuman ijodiy merosining ko‘lami an’anaviylikni izchil davom ettirib, adabiy merosi mumtoz adabiyotning an’analari zaminida shakllanib, o‘ziga xos joziba va mohiyatga ega bo‘ldi. Huvaydo o‘zidan ilgari yashab o‘tgan shoirlardan ilhomlanib qolmay, maftunkor lirikasi bilan an’analarning davomiyligini ta’minlagan. Uning “**bor**” radifli g’azalini Bobur g’azali bilan qiyoslab o‘rganishni ixtiyor etdik.

Asosiy qism. Huvaydoning bu g’azali aruzning hazaji musammani solim bahrida bo‘lib, ishqiy mavzuda yozilgan**.** G’azal 7 baytdan iborat. **Qofiyalari**: qarorim, intizorim, korim, tutorim, turorim, madorim, bahorim, uzorim**.** Bu qofiyaning **mutlaq qofiya** turiga kiradi. G’azalning 1-baytida oshiq yorini “ey dildor”, 3-baytida “jafopesha”, 4-baytida “diloromim” deb murojaat qiladi. Bu –**nido** san’atini yuzaga keltirgan.

Sani ishqingda, ey dildor, na sabr-u na qarorim bor,
Jamolingni ko‘rarga na turfa chashmu intizorim bor [1.90].

Ushbu misralarda oshiq yorga murojaat qilib, sening ishqingda sabrim qolmadi, jamolingni ko‘rish uchun intizorman,- deydi.

Ajoyib sog’inibdurman jamoling ko‘rgali yorim,
Hamisha orzuda turfa hol-u turfa korim bor [1.90].

Oshiq 2-misrada yana oshiqqa murojaatini davom ettirib, uni ko‘rishga oshiqayotganini, uni ko‘rish uchun turli holga tushayotganini va turli ishlar qilayotganini aytadi. “Turfa” so‘zining takrori-**Takrir** san’atini yuzaga keltirgan. Ya’ni so‘zlar takroridan –ta’kidlash kuchli namoyon bo‘lgan. Shoir bunday so‘zlarni o‘rinli qo‘llagan.

Yuzingni ko‘rmay o‘lsam man, ayo yori jafopesha,
Qiyomat kun yaqongdan dod deb yig’lab tutorim bor [1.90].

Bu misralarda oshiq yorini “jafopesha” deb ataydi. Seni yuzingni ko‘rmay o‘lsam, qiyomat kun yoqangdan yig’lab dod deb tutorim bor,- deydi. Bu baytda qiyomat kuni yoqasidan olmoq”-birikmasidan mubolag’aning –**ig’roq** turi yuzaga kelgan.

Sani darding bilan yig’lab man, ey yori diloromim,
Ketobman bosh olib endi, na bul yerda turorim bor [1.90].

G’azalning 4-baytida oshiq yorini “ey diloromim” deb murojaat qiladi. Seni darding bilan yig’ladim, endi bosh olib ketaman, bu yerlarda tura olmayman”-deydi.

Terak yafrog’iga o‘xshash yurokimdur mani larzon,
Hamisha yerga avezon yurarga na madorim bor [1.90].

Oshiq yuragini terak yaprog’ining tebranishiga o‘xshatadi-**tashbeh**, oshiqning yuragi dardga to‘la-osilgan yaproqqa o‘xshatadi, shu sababli u yura olmaydi.

Mani bag’rim to‘la qondur, qizil qon g’unchasi yanglig’,
Agar yuz yil bahor o‘lsun, ochilmaslik bahorim bor [1.90].

G’azalning 6-baytida shoir go‘yo qizil g’uncha kabi bag’ri qon bo‘lganini aytadi. Qizil g’unchaga o‘xshatish-**tashbeh**, bag’rining to‘la qon bo‘lishi-**husni ta’lil** san’atini yuzaga keltirgan. Agar yuz yil bahor bo‘lsa ham , men uchun bahor bo‘lmaydi,- deydi. Bu –**mubolag’a** san’atidir.

Hama aytur Huvaydog’a: bu yoringdin ko‘ngil uzgil,
Nafas tandin uzilguncha, qachon ko‘ngil uzorim bor [1.90].

G’azalning maqta’sida Huvaydoga hamma bu yordin ko‘ngil uzishini aytadi, ammo u toki nafasi tanidan uzilguncha, ko‘ngil uzilmasligini ta’kidlaydi. “Ko‘ngil” va ”uzmoq” so‘zining takroridan -**takrir** san’ati yuzaga kelgan.

Lug’at:

1. Larzon-tebranadi

2. Avezon-osilgan

Endi Zahiriddin Muhammad Bobur g’azalini tahlilga tortamiz:

Qaro zulfung firoqida parishon ro‘zgorim bor,
Yuzungnung ishtiyoqida ne sabru ne qarorim bor.
Labing bag‘rimni qon qildi, ko‘zumdin qon ravon qildi,
Nega holim yamon qildi, men ondin bir so‘rorim bor.
Jahondin manga g‘am bo‘lsa, ulusdin gar alam bo‘lsa,
Ne g‘am yuz muncha xam bo‘lsa, seningdek g‘amgusorim bor.
Agar muslixmen, ar mufsid va gar oshiqmen, ar obid,

Ne ishing bor sening, zohid, meningki ixtiyorim bor.
Fig‘onim oshti bulbuldin, g‘ami yo‘q zarra bu quldin,
Base, Bobur, o‘shal guldin ko‘ngulda xorxorim bor [19].

Lug’at[20]

1. g’amgusorim-mehribonim
2. muslix-yaxshilovchi, tuzatuvchi
3. mufsid-buzuvchi, fasodchi
4. xorxor-ko‘ngil hayajoni
5. zohid-bu dunyo ishlaridan yuz o‘girib toat-ibodat bilan mashg’ul bo‘luvchi kishi

Bu g’azal ishqiy mavzuda yozilgan bo‘lib, 5 baytdan iborat. Aruzning hazaji musammani mahzuf vaznida yozilgan. G’azalda “**bor**” so‘zi radif hisoblanadi. “**Ro‘zg’orim”, “qarorim”, “so‘rorim”, ”g’amgusorim”, “ixtiyorim**” g’azalning qofiyalari bo‘lib, **mutlaq qofiya** turiga kiradi**.** Bundan tashqari, ushbu g’azalda **“firoqida”, “ishtiyoqida”, “qon”, yamon”, “g’am”, “xam”, “mufsid”, “zohid**”, **“bulbul”, “gul”** so‘zlari **ichki qofiya** hisoblanadi, bu esa **tajziya** san’atini yuzaga keltirgan. G’azal matla’sida oshiq yorning zulfini ko‘ra olmagani uchun tushkunlikka tushganini, yor yuzini ishtiyoqi esa uni sabrsiz qilganini aytadi. Bu baytda “**zulf**”, ”**yuz”** so‘zlarining ifodalanishi **tanosib** san’atini yuzaga keltirgan. G’azalning 2-baytida oshiq yorning labidan ahvoli yomon bo‘lganidan shikoyat qiladi. Oshiq bag’rining “qon bo‘lishi”, ko‘zidan qon oqishi **mubolag’a, “**Nega holim yamon qildi, men ondin bir so‘rorim bor” misralarida esa **tajohuli orifona** san’atidan foydalanilgan. G’azalning 3-baytida shoir bu dunyoning barcha g’ami unga kelganligi, xalqdan alam ko‘rsa ham, bu g’amlar uni yuz marta egsa ham, sendek mehribonim bor, deydi. Bu satrlarda “**g’am**”, “**alam”** so‘zlari **tanosib**, yuz g’amning shoirni egib qo‘yganligi **mubolag’a** san’atini yuzaga keltirgan. G’azalning 4-bayti “**begona bayt**” hisoblanadi. Bu baytda shoir zohidga murojaat qiladi: xoh yaxshi kishiman, xoh buzuvchi, xoh oshiq, xoh ibodat qiluvchiman bu mening ixtiyorimdir, sening bu bilan ishing bo‘lmasin, deydi. Bu baytda zohidga murojaat qilish-**nido, “muslix, mufsid, oshiq, orif** kabi so‘zlari orqali shoir o‘z sifatlarini sanaydi, bu esa **ta’did, “muslix” va “mufsid”** so‘zlaridan **tazod** san’atlari qo‘llanilgan. G’azalning oxirgi bayti, ya’ni maqta’da shoir , ma’shuqani g’ami yo‘q qul, ya’ni ollohning bir bandasi deb ataydi. Mening ohim bulbul fig’onidan oshsa ham uning zarracha g’ami yo‘q, shunday bo‘lsa-da, o‘sha yorda ko‘nglimda unga nisbatan hayajon ko‘pdir, deydi. Bu baytda “**gul”** va “**bulbul”**, “**fig’on**” va **“g’am”** so‘zlaridan **tanosib, “gul”** (qiz bolaning nazarda tutilishi) **- istiora, “zarra” va “base” tazod** san’atlari yuzaga kelgan**.** Bundan tashqari, shoir g’azalning g’oyaviy maqsadini ochishda 3-baytda **g’am”,** 4-baytda **“agar”** so‘zining takroridan **“takrir”** san’atidan foydalangan.

Ikkala ijodkor g’azaligidagi mushtarak g’oyalar va badiiy go‘zalliklarni ushbu jadval asosida xulosaladik.

Ijodkorlar	G’azal radifi	G’azal qofiyalari	G’azal vazni	Qofiya turi	Badiiy san’atlar	G’azal mavzusi
Bobur	**“Bor”**	“Ro‘zg’orim”, “qarorim”, “so‘rorim”, ”g’amgusorim”, “ixtiyorim”- **asosiy qofiya;** “firoqida”, “ishtiyoqida”, “qon”, yamon”, “g’am”, “xam”, “mufsid”, “zohid”, “bulbul”, “gul”- **ichki qofiya**	Hazaji musam mani mahzuf	Mutlaq qofiya	Tajziya, tanosib, tajohuli orifon, **mubolag’a,** ta’did, **tazod, nido, takrir**	**oshiqona**
Huvaydo	**“Bor”**	qarorim, intizorim, korim, tutorim, turorim, madorim, bahorim, uzorim	hazaji musammani solim	Mutlaq qofiya	Tashbeh, husni ta’lil, **mubolag’a nido, takrir**	**oshiqona**

Huvaydo mumtoz she'riyat ustasi sifatida namoyon bo'ldi. Huvaydo g'azaliyoti, asosan, oshiqona, orifona g'azallardan tashkil topgan. Oshiqona g'azallarda ishqi komil yo'lida insoniy kamolat sari sabot bilan intiluvchi oshiq kechinmalari va qiyofasi ta'sirchan tasvirlangan. Orifona g'azallarda esa Huvaydo donishmand faylasuf siymo sifatida gavdalanadi. Uning didaktik qarashlari asrlar osha o'lmas mavzularga aylanib qolmoqda. Huvaydoning ijodiy faoliyati g'oyaviy-badiiy jihatdan nihoyatda keng qamrovli va umumbashariyligi bilan ham ajralib turadi: uning asarlaridan osiy va gumroh ham, orif va oshiqlar ham, fozil va komil insonlar ham, turli maqom va saviyadagi shoh-u gadolar ham bahra olishi va o'zlarini qiynagan muammolarga javob olishlari, o'z ichki olamini kuzatishlari mumkin edi. Uning ijodida hayot va o'lim masalalari, insoniy hayotning ma'nosi, o'zlikni anglash masalalari yetakchi o'rin egallaydi. Bu esa shoirning o'ziga xos yo'li, uslubi borligini, teran va falsafiy fikrlash doirasining kengligini ko'rsatadi.

Xulosa. Shoir qalamiga mansub har qanday ijod mahsulida biz insonlarni to'g'ri yo'lga yo'llovchi nidolarni eshitamiz. Bu nidolar shunchaki emas, albatta. Insonlarni to'g'ri yo'lga yo'llab, jamiyatda adolat hukmron bo'lishini istaganidan. Huvaydo she'riyati juda serjilo, teran ma'no qatlamlariga ega bo'lgan mukammal asarlar yaratgan. Jumladan:

Ko'rdim tun-u kun ko'chada bir mohiloqoni, hayron bo'la qoldim.
Husnidan oni ko'nglim uyi topdi ziyoni, raxshon bo'la qoldim [1.257].

Keltirilgan mustazodning mohiyati oshiq va ma'shuqning uchrashuvidangina iborat emas. Unda tasavvufiy mazmun-mohiyat munozara shaklida timsoliy tarzda aks ettiriladi. Mustazod davomida shoirning tasavvufiy qarashlari piri murid muloqoti deb tushunishimiz mumkun. Negaki, mustazod davomida shunday satrlar uchraydiki, yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi: "…Xilvatga kirib so'kdi, manga qildi nasihat:

"Mundog" dema zinhor el oldida begonasifat ochmazaboni",
Qurbon bo'la qoldim…" [1.257].

Shoir she'riyatini tasavvufsiz tassavvur etish juda mushkul. Shoirning har bir asari so'fiyona ruhda yozilgan. Har satrida tasavvufiy mazmun- mohiyat aks etgan. Mustazodlardan tashqari shoir ruboiylari ham falsafiy- tasavvufiy g'oyalar bilan talqin etilgan.

May ichmagima la'li parivash bois,
Nolonlig'ima orazi dilkash bois,
Axbob parishonligima so'rsa sabab,
Man aytaman: Ul zulfi mushavvash bois [1.260].

Yoki:

Ey, bog'i nazokatda qaddi sarvu, yuzi gul,
Ul yuzdin erur ishq eli chun qumri-yu bulbul,
Rayhonu binafsha xat-u zulfingni asiri,
Shamshod-u sanubar qadding oldida ikki qul [1.260].

Mazkur to'rtliklarda oshiqni may ichmoqqa, parishon bo'lishga va qumri-yu bulbuldek nola chektirishga ul zulfi mushavvash go'zalligi sabab, ul gul yuz- ilohiy xil'at timsolidir. Bir qarashda shoir she'riyati tili sodda, ravon ko'ringani bilan unda ma'nolar shuqadar keng va teranki, uni izohlashga til ojiz. Shoir she'riyatini boshdan-oyoq pand, adab asosiga qurilgan desak mubolag'a bo'lmas. Buni shoir she'riyatining har bir satrida ko'rishimiz mumkun.

Huvaydo g'azaliyoti ko'lamining kengligi hamd, na't, orifona, oshiqona, rindona g'azallar turkumining barchasi mavjudligi bilan ham belgilanadi. Shoirning hamdga oid g'azallarini "Devon"ning dastlabki sahifasidan, ya'ni g'azallar boshlanmasi deyishimiz mumkin. Shoir ham an'anaga muvofiq (Sharq kitobatchilik an'anasiga ko'ra devonning boshlanish qismi Ollohga hamd-u sano tashkil etadi) bitgan. Devonda dastlab Huvaydoning:

"Iloho, san qaram birla kechurg'il, ey Xudovando,
Gunohi jumla mo'minni, ayo ma'budi bexamto!"...[1.5].

matla'si bilan boshlanuvchi g'azalini hamd g'azallari boshlanmasi deyishimiz mumkin. G'azal boshdan -oyoq Ollohning yagonaligi, hamma ishga qodirligi va boshqa sifatlari bayon etilgan. Na't g'azallarida har bir mo'min – musulmon uchun komillik ibrati – payg'ambarimizning Muhammad sallolohu alayhi vassallamning hayot tarziga oid lavhalar va albatta, cheksiz muhabbat ifodalangan o'rinlar devonda tez-tez uchraydi.

She'riyatida inson tabiatidagi yaramas xislatlar qoralanib, kamtarlik, samimiylik, rostgo'ylik, chin insoniylik tuyg'ulari ulug'lanadi. Huvaydo ulug'lagan xislatlar, tuyg'ular yuksak badiiyat bilan ifodalangan. Insondagi mehr, samimiylik, rostgo'ylik, kamtarinlik kabi tuyg'ular Huvaydoga xosdir. Shoir she'riyatini o'rganish barobarida yana shunday anglash mumkunki, professor N. Jumaxo'ja ta'biri bilan aytganda, "Huvaydoning pand-u adabdan xoli birorta asarini uchratish qiyin. Aksincha, Huvaydo she'riyatining yalpi

mohiyatini pand-u adab tashkil etadi. Uning nazmi bu fazilati bilan insoniyat, ayniqsa, yosh avlod uchun umrboqiy ma’naviy mazaxdir” [3.].

ADABIYOTLAR:

1. Xo‘janazar Huvaydo. Devon. −T.:Yangi asr avlodi. 2007. 303-b.

2. Suvonqulov.I. So‘fi Allohyor va uning adabiy an"analari. F.f.dok.dis…Toshkent, 2009.

3. Jumaxo‘ja N. Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros (XVII-XIX asrlar o‘zbek sheriyati asosida)F.f.dok.dis…Toshkent, 1999. –B.220.

4. Zohidov V. Hayotbaxsh badiiyat taronalari. −T.:1975.

5. G’aniyeva S, Zohidov V. Huvaydo xalq dilida. ”Qizil O‘zbekiston” gazetasi.1961,15-sentabr

6. Zohidov V. Xalq dilida Huvaydo Chimyoni. ”Toshkent oqshomi” gazetasi, 1968, 4-mart.

7. Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti. –T.: Fan.1961.

8. Xudayberdiyev A. Alisher Navoiy va Huvaydo. “Adabiyot va hayot”.1980, 6-son.

9. Qur’oni Karim. Alouddin Mansur tarjimasi. −T.: Cho‘lpon.1992. –B.197.

10. Rabg’u’ziy N.B. “Qissasi Rabg’uziy”. –T.: Yozuvchi.1990. –B.39.

11. Zaripova D.B. Didaktik asarlarning qiyosiy-tipologik tahlili. Monografiya. –Buxoro. Durdona. 2022.

12. Vohid Zohidov . Sovet fozillari Huvaydo haqida. “Toshkent oqshomi” gazetasi, 1968, 4-mart.

13. Ismatulloh Abdulloh, Qodirqul Ro‘zmatzoda. “Charog’i subhidam yang’lig’”.//Xojanazar Huvaydo. Devon.−Toshkent. Yangi asr avlodi. 2005. 9-10-betlar.

14. Boborahim Mashrab. “Mehribonim qaydasan”. –T.:G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1990. –B.112

15. Xoja Ahmad Yassaviy. –T.:O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti. 2001. –B.217.

16. Navoiy g’azallari (nasriy bayon, sharh va izohlar) I kitob.−T.:Bayoz nashriyoti. 2014. –B.207.

17. Ikromiddin Ostonaqul. Farg’onalik valiylar. –Toshkent. 1999. – B.100.

18. Qodirqul Ro‘zimatzoda. Xojamnazar Huvaydoning tasavvufiy-falsafiy qarashlari. // Diss. –B.143

19. https://boburchashmasi.wordpress.com/2016/02/12/boburday-qaro-zulfing-firoqinda/

20. Fozilov E.. Alisher Navoiy asarlari lug,,ati. - T.: «Niso Poligraf», 2013.

UDC 82

CHARTING THE UNEXPLORED: COLONIAL ECHOES AND ENVIRONMENTAL IMPACT ON PERSONAL GROWTH IN "ROBINSON CRUSOE" AND "LIFE OF PI"

Hamdamova Sitora Baxshillayevna,
Associate professor of English literature and translations Studies department, BSU, Bukhara, Uzbekistan
s.b.khamdamova@buxdu.uz
Makhmudova Ulmaskhon Bakhadirovna,
The master student of English literature department, BSU, Bukhara, Uzbekistan
makhmudova5412@gmail.com

Abstract. *This article explores the captivating storylines of Daniel Defoe's "Robinson Crusoe" and Yann Martel's "Life of Pi", examining the intricate dynamics between colonial systems, experiences with the unfamiliar, and their significant influence on the development of the main characters. The backdrop of the narrative is set among undiscovered territory, and the individuals are confronted with both the physical obstacles of their surroundings and the complex dynamics of colonialism. Through a comprehensive analysis of the protagonists' trajectories, this paper illuminates the intricate dimensions of human growth by including the interplay between colonial undertones and environmental factors. This study seeks to reveal the interconnectedness of external colonial influences, uncharted landscapes, and their impact on the characters' identities by conducting a comparative analysis of these works. The readers are presented with an opportunity to reflect upon the significant consequences of the characters' encounters with the unfamiliar. This reflection encompasses the protagonists' development, including their ability to endure and adapt to challenging circumstances, as well as the intricate internal changes that occur within the context of the colonial narrative.*

Key words: *colonial literature, environmental impact, personal growth, comparative analysis, post colonialism, literary analysis, narrative themes, isolation, survival narratives.*

ИЗУЧАЯ НЕИЗВЕДАННОЕ: ОТГОЛОСКИ КОЛОНИАЛЬНОГО ПЕРИОДА И ВЛИЯНИЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ НА ЛИЧНОСТНЫЙ РОСТ В РОБИНЗОНЕ КРУЗО И «ЖИЗНИ ПИ»

Аннотация. *Эта статья исследует захватывающие сюжеты «Робинзона Крузо» Даниеля Дефо и «Жизнь Пи» Янна Мартеля, изучая сложную динамику между колониальными системами, переживаниями с незнакомыми и их значительное влияние на развитие главных героев. В основе повествования лежит неоткрытая территория, и индивиды сталкиваются как с физическими препятствиями своего окружения, так и со сложной динамикой колониализма. Благодаря всеобъемлющему анализу траекторий главных героев, эта работа освещает сложные аспекты человеческого роста, включая взаимодействие между колониальными субтонами и факторами окружающей среды. Это исследование стремится раскрыть взаимосвязь внешних колониальных влияний, неизведанных ландшафтов и их влияние на личности персонажей путем проведения сравнительного анализа этих работ. Читателям предоставляется возможность задуматься о значительных последствиях встреч персонажей с незнакомым. Это отражение охватывает развитие главных героев, включая их способность выдерживать и адаптироваться в сложных обстоятельствах, а также сложные внутренние изменения, происходящие в контексте колониального повествования.*

Ключевые слова: *колониальная литература, воздействие на окружающую среду, личностный рост, сравнительный анализ, постколониализм, литературный анализ, изоляция, рассказы о выживании.*

NOMA'LUM MASALALAR: MUSTAMLAKA DAVRI SADOLARI HAMDA "ROBINZON KRUZO" VA "PI HAYOTI" ASARLARIDA ATROF-MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqola Daniel Defoning "Robinzon Kruzo" va Yann Martelning "Pi hayoti"ning ta'sirchan hikoyalari o'rganilgan. Mustamlaka tizimlari o'rtasidagi murakkab dinamikani, begonalar bilan bo'lgan tajribalarni va ularning bosh qahramonlarning rivojlanishiga sezilarli ta'sirini bayon etilgan. Hikoyaning markazida odamlar o'z atrofidagi jismoniy to'siqlarga va mustamlakachilikning murakkab dinamikasiga duch keladigan kashf qilinmagan hudud bilan bog'liq mulohazalarga ega bo'ladilar. Bu asar qahramonlarning harakat yo'llarini har tomonlama tahlil qilish orqali inson o'sishining murakkab jihatlarini, jumladan, mustamlakachilik subtonlari va atrof-muhit omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yoritilgan. Ushbu tadqiqotda tashqi mustamlakachilik ta'siri, o'rganilmagan landshaftlar va ularning personajlar shaxsiyatiga ta'siri o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ushbu asarlarni qiyosiy tahlil qilish orqali ochib berishga qaratilgan. O'quvchilarga qahramonlarning notanish narsalar bilan uchrashishining muhim oqibatlarini ko'rib chiqish imkoniyati beriladi. Ushbu mulohaza asosiy qahramonlarning rivojlanishini, jumladan, ularning qiyin sharoitlarga bardosh berish va moslashish qobiliyatini, shuningdek, mustamlakachilik hikoyasi kontekstida yuzaga keladigan murakkab ichki o'zgarishlarni qamrab oladi.*

Kalit so'zlar: *mustamlaka adabiyoti, atrof-muhitga ta'siri, shaxsiy o'sish, qiyosiy tahlil, Postkolonializm, adabiy tahlil, izolyatsiya.*

Introduction. The examination of colonial frameworks, interactions with the unfamiliar, and their impact on individual development in the contexts of "Robinson Crusoe" and "Life of Pi" extends beyond the confines of literary scrutiny. The objective of this study is to delve into the underlying aspects of these narratives, viewing them not only as compelling tales of endurance, but also as means to gain insight into the complex dynamics between human psychology, environmental obstacles, and the socio-political contexts of the colonial period. Comprehending the importance of this subject extends beyond the boundaries of mere literary admiration; it provides vital perspectives on the persistent human ability to adapt, persevere, and change in the presence of challenging circumstances.

Examining these literary works within the framework of colonialism offers a perspective that allows for the critical analysis of historical systems of power and their enduring influence on personal narratives. Furthermore, an in-depth exploration of the characters' interactions with unfamiliar surroundings sheds light on the intricacies of human behavior and the influence that external factors have on the formation of one's sense of self. Through active involvement with this study, we engage in a scholarly exploration that not only enhances our comprehension of these esteemed works of literature, but also stimulates contemplation on overarching motifs of intercultural interactions, personal revelation, and the enduring pursuit of a sense of identity and inclusion.

As we travel the unexplored realms of these narratives, the importance of this study becomes evident: it beckons us to delve into the intrinsic elements of the human experience, beyond temporal and cultural limitations. Through this investigation, our objective is to make a scholarly contribution to the enhanced understanding of the complex interplay between persons and their environment, cultivating a nuanced recognition of the lasting significance of these literary pieces within the wider fabric of human existence.

Literature review. The extant body of scholarly literature related to the subject matter of colonial systems, experiences with the unknown, and their impact on personal development as depicted in the novels "Robinson Crusoe" and "Life of Pi" demonstrates a diverse and comprehensive range of academic investigations.

Within the framework of "Robinson Crusoe", academics have extensively analyzed the novel's colonial backdrop, closely examining Crusoe's economic endeavors and the implicit portrayal of colonial beliefs. The use of economic viewpoints has been utilized to analyze the complexities of resource extraction and the concept of exerting control over the natural environment. The story of the text has attracted considerable scholarly interest due to the presence of a theological metaphor. Researchers have extensively explored Crusoe's spiritual odyssey, his process of repentance, and ultimate salvation. Furthermore, scholarly investigations have extensively explored the psychological aspects of Crusoe's seclusion, providing valuable perspectives on existential motifs, his cognitive condition, and the pursuit of significance within isolation.

In the context of "Life of Pi", scholarly analysis has focused on the exploration of postcolonial and cultural viewpoints. Specifically, researchers have delved into Pi's portrayal as a colonized individual and his navigation of cultural hybridity. The examination of cultural conflicts and the depiction of postcolonial reality are identified as significant focal points in the novel. Furthermore, scholars have extensively examined the narrative strategies employed by Yann Martel, with a specific focus on storytelling and metafiction, so providing insights into the novel's exploration of concepts such as truth, fiction, and the

transforming potential of narrative. Eco critical interpretations have significantly enhanced the study, revealing the intimate tie between Pi and the natural world, as well as the novel's examination of ecological issues and humanity's interconnection with the animal realm. For example, in his influential work "The Rise of the Novel", Ian Watt [3, 425] presents a comprehensive examination of the novel genre, incorporating a historical and economic perspective, with specific attention given to the novel "Robinson Crusoe". The author examines the extent to which 18th-century novels, such as those by Defoe, serve as a reflection of the nascent economic and social transformations that were occurring during that era. Also,in "Robinson Crusoe"[11, 87], Pat Rogers adds to the academic discussion around the book. His examination of economic issues provides insightful information on how the character's actions relate to the state of the economy at the moment. These scholars have made significant contributions to the understanding of colonial and economic dimensions in "Robinson Crusoe". Psychological and existential dimensions of "Robinson Crusoe" also play a crucial role in analyzing the work from this perspective. As an example, in her article titled "Robinson Crusoe" [11, 7] Virginia Woolf offers a scholarly analysis of the novel, focusing on the psychological aspects of the protagonist's journey and the profound impact of his prolonged seclusion. Woolf's study provides insight into the intricate workings of Crusoe's psyche and the existential obstacles he encounters. These researchers' analyses provide valuable insights into the character's inner struggles and the existential quandaries presented in the narrative.

Turning to the other work, numerous scholars have explored postcolonial and cultural perspectives in "Life of Pi" and one of such researchers is Pavan Kumar Malreddy. The author of the paper titled "Postcolonial Reflections in Yann Martel's Life of Pi" [6, 245-61] critically analyzes the presence of postcolonial themes within the novel. In their analysis, Malreddy examines the manner in which the tale engages with themes pertaining to colonialism, identity, and cultural hybridity. The other scholar, Alex Hunt, in his analysis titled "A Postcolonial Zoo: Animalization and Cultural Hybridity in Yann Martel's "Life of Pi" [1,81-82], delves into postcolonial perspectives in "Life of Pi", Hunt focuses on the novel's portrayal of cultural hybridity and the significance of the zoo as a metaphor for postcolonial identity. These academics provide valuable contributions to the comprehension of postcolonial and cultural issues in "Life of Pi", providing valuable insights into Yann Martel's engagement with and critique of colonial legacies and cultural dynamics within the story.

Analysis and discussion. Robinson Crusoe (1719), Defoe's masterwork written in the 18th century, represents a volatile moment in British history; a period that witnessed the breakdown of the Mercantilist system and the development of the Capitalist order. [12] This economic upheaval is presented by Defoe through his protagonist. Although Crusoe was born and nurtured in a Mercantilist English context, he could not remain unaffected by the socioeconomic upheavals that Britain saw.

Crusoe protests against the middle-class worldview right from the start of the narrative. He defies his father's advice to choose the middle road in life. Crusoe's father embodies the mercantile mentality and, as a result, the conservative or conventional system. He chose the intermediate way of life since it "had fewer disasters and was not exposed to as many vicissitudes as the higher or lower part of mankind". [2,78] He attempted to persuade his son of the advantages of staying at home and living a simple life. However, Crusoe's desire to sail takes precedence over his father's intentions and demands. He claims that "he would be content with nothing but going to sea". [2, 105]4 In this way, Crusoe rejected both his father's conventional way of life and the Mercantilist order's little achievements. It is worth noting that when the capitalist system emerged, Mercantilism became a leftover ideology. Crusoe gets a strong drive to generate more profit as the new Capitalist order is established in his psyche. He believes in a new system, so he sets off in search of adventure and profit.

As the third son of his family, Crusoe is aware that he will not receive any inheritance. During that period, it was common for the eldest son to receive the all of his parents' inheritance, while the remaining siblings would not be entitled to any personal share. This particular circumstance causes concern for Crusoe and serves as an additional motivation for him to seek his own financial success. The inclination of Crusoe to explore new territories and his ambitions to generate greater financial gains might be regarded as manifestations of capitalist principles. Crusoe's discontent with his intermediate social position motivates him to engage in increased labor and strive for greater financial gain. According to Ian Watt (1967), Crusoe's "aim is never merely to maintain the status quo, but to transform it incessantly". [3, 446]

The novel Robinson Crusoe by Daniel Defoe portrays a historical era characterized by the spread of British colonialism. The novel demonstrates the presence of colonial ideology via Crusoe's actions and attitudes, primarily seen in his assertion of ownership over the island and his interactions with others, particularly his servant Friday. One of the significant colonial attitudes depicted in Defoe's narrative is

Crusoe's possession of the island. The individual's colonial mentality compels him to assert his claim of control over the island. Crusoe expresses the belief that he is the only proprietor of the country, asserting his authority as the ruler and master of the entire territory. He also states that: "to think that this was all my own, that I was King and Lord of all this Country indefeasibly, and had a Right Possession; and if I could convey it, I might have it in Inheritance, as completely as any Lord of Manor in England". [3, 114] Crusoe has the belief that his possession is both legitimate and lawful. Based on the examples mentioned above, it can be inferred that Defoe's Robinson Crusoe portrays the decline of Mercantilism, an ideology that is depicted as residual within the novel owing to the advent of Capitalism, which subsequently poses a threat to the established system.

Turning to the other work, Yann Martel's novel, Life of Pi, portrays a historical era characterized by the rise of modern and current ideologies and practices. This historical epoch is widely regarded by several scholars as a time when the ideals of colonialism and racism have mostly diminished and are now considered remnants of the past. In the novel, Martel depicts several lingering aspects of colonialism. He actively advocates for the advancement of anti-colonialist and non-racial ideology. The author's work provides valuable insights into the gradual erosion of antiquated colonial and racial presumptions. The presence of residual colonialism in Life of Pi is evident through various elements, such as the depiction of the island's unfavorable conditions and negative imagery.

One significant leftover element of colonialism shown in the novel Life of Pi is the act of naming the Bengal tiger, with whom the protagonist Pi forms a bond when stranded in a lifeboat amidst his harrowing maritime experience. The protagonist's friend in the novel is bestowed with a conventional English name, Richard Parker.

The selection of a European name by Martel can be interpreted as a metaphor within the novel. This choice can be seen as a means to symbolize the diminished standing of the «white man», who serves as a representation of European colonialism. Additionally, the use of a name associated with Europe serves to depict colonialism as a perilous and terrifying animal. When faced with a wild beast, Pi found himself compelled to ensure his own safety and survival. In order to do this, he begins with the task of taming Richard Parker. The process of taming referred to in this context pertains to the exertion of control on formidable entities, specifically the European colonizers. In Martel's narrative, the act of taming a formidable creature by Pi serves as a metaphorical representation of the enslavement and slow demise of European colonial philosophy. In brief, the Bengal tiger, bestowed with a European moniker, and subsequently domesticated by an unassuming and vulnerable little kid, might be seen as a representation of the diminishing authority of the colonizer and the ending of the colonial epoch.

Conclusion. Daniel Defoe's work, Robinson Crusoe, holds a prominent position within the canon of English literature, being widely recognized as one of the most renowned myths in Western literary tradition. Due to the work's notable achievement, Defoe introduced a novel genre to the literary sphere, which came to be recognized as the Robinsonade genre. Through his work, he served as a source of inspiration for several generations of writers, including Yann Martel, who, in turn, made a significant impact on the genre by releasing his renowned tale titled «Life of Pi». Based on our investigation, it has been determined that the Robinsonade being examined adhere to a discernible narrative structure, wherein they explore shared themes of shipwreck, solitude, and the struggle for survival. Nevertheless, it is important to note that many authors have approached the subjects of the Robinsonade in distinct ways, including their own political and socio-cultural perspectives. As a result, they have produced both comparable and divergent iterations of this literary genre. The study conducted has demonstrated that the Robinsonade genre has seen a significant shift from earlier, more conventional iterations to entirely new and contemporary versions. In this study, we have endeavored to examine and analyze the dialogic connection between Defoe's renowned literary work, Robinson Crusoe, and its subsequent reimagining in Yann Martel's novel, Life of Pi. Throughout our research, we have endeavored to examine the two tales through the lens of both comparative and contrastive analysis. Furthermore, we have attempted to analyze the two tales via the lens of cultural materialism. The diverse philosophies depicted in each work have been presented and analyzed. In order to do this, our approach has been informed by Raymond Williams's conceptualizations of cultural ideologies and power dynamics.

REFERENCES:

1. Alex Hunt. "Postwestern Cultures: Literature, Theory, Space (Review)." Western American Literature, vol. 44, no. 1, Project MUSE, 2009, pp. 81–82.

2. Bakhshilloyevna, Khamdamova Sitora. "Formation of modern english poetry in the late xix and early xx centuries. Euro-Asia Conferences, 1 (1), 459–461." (2021).

3. Defoe, Daniel, et al. Robinson Crusoe. Oxford UP, 2008.

4. Davis, Curtis Carroll, and Ian Watt. "The Rise of the Novel: Studies in Defoe, Richardson, and Fielding." The William and Mary Quarterly, vol. 17, no. 3, JSTOR, July 1960, p. 425.

5. Khayatovna, Niyazova Mokhichekhra. "Classification of Usual Ways of Word Formation In The Russian Language." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.2 (2023): 200-203.

6. Khayatovna, Niyazova Mokhichekhra. "UDC: 82-91 (= 512.133= 111): 177.7 Interpretation of blessings in the genres of Uzbek and English folklore." Scientific Reports of Bukhara State University: 211.

7. Niyazova, M. Kh, and N. M. Subxonova. "A Critical Study of Crusoe's Mind and Character." Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 20 (2023): 105-110.

8. Niyazova, Mokhichekhra. "The classifications and functions of poetonyms in literary text." Центр научных публикаций (buxdu. uz) 10.10 (2022).

9. Horvath, Ronald J. "A Definition of Colonialism." Current Anthropology, vol. 13, no. 1, University of Chicago Press, Feb. 1972, pp. 45–57.

10.Makhmudova, U., & Khamdamova, S. (2023). Defoe's contribution to the development of realistic novels. Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences, 2(13), 53–57.

11.McKillop, Alan D. "The Rise of the Novel: Studies in Defoe, Richardson, and Fielding. Ian Watt." Modern Philology, vol. 55, no. 3, University of Chicago Press, Feb. 1958, pp. 208–10.

12.GÜNGÖR, Turan Özgür. "Race and Racism in Daniel Defoe's Robinson Crusoe." Kafkas Universitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, Kafkas Universitesi Sosyal Bilimler Enstitusu Dergisi, 2015.

UO‘K 82

SADRIDDIN SALIM BUXORIY IJODIDA SHARQ-U G‘ARB MAVZUSINING O’RNI

Maxmudova Muattar Maxsatilloevna,
Buxoro davlat universiteti Nemis filologiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
mmuattar1976@mail.ru

Annotatsiya. *Sharq adabiyoti o‘zining turfa betakror adabiy shakl va janrlari bilan, ularda ifodalangan yuksak umuminsoniy tuyg‘ularga to‘lib toshgani bilan shuhrat qozonib, uzoq asrlardan buyon dunyoning ko‘plab xalqlariga ma’naviy turtki berib kelmoqda. Nemis adabiyoti garchi G‘arb adabiyotiga daxldor bo‘lsa-da, unga ham Sharq adabiyoti an’analari ta’siri borligi kuzatiladi. Xuddi shu jihat Sadriddin Salim Buxoriyning Gyote ijodiga, ayniqsa, uning o‘zi uchun ham ruhan yaqin bo‘lgan Hofiz she’riyati hamda tasavvuf adabiyotiga ergashib yozilgan “G‘arbu Sharq devoni”nini tarjima qilishga katta qiziqish uyg‘otdi. Mazkur maqolada S.Salimov ijodida Sharqu G‘arb mavzusi va “Mag‘ribu Mashriq” devoni tarjimasining o‘rni borasida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Yohan Volfgang Gyote, Mag‘ribu Mashriq, G‘arbu Sharq, tarjimon, mutafakkir, ijod, mavzu, devon, motiv, so‘fiylik.*

РОЛЬ ТЕМЫ ВОСТОКА И ЗАПАДА В ТВОРЧЕСТВЕ САДРИДДИНА САЛИМА БУХАРИ

Аннотация. *Восточная литература прославилась своими неповторимыми литературными формами и жанрами, наполненными выраженными в них высокими общечеловеческими чувствами, и на протяжении веков давала духовный импульс многим народам мира. Хотя немецкая литература связана с западной литературой, замечено, что она также находится под влиянием восточных литературных традиций. Тот же аспект вызвал большой интерес в переводе Садриддина Салима Бухари сочинений Гёте, особенно «Ғарбу Шарк Девони», написанного по мотивам поэзии Хафиза и духовно близкой ему суфийской литературы. В данной статье рассматривается роль темы Восток-Запад и перевод книги «Магрибу Машрик» в творчестве С. С. Бухари.*

Ключевые слова: *Иоганн Вольфганг Гёте, Магриб Машрик, Запад-Восток, переводчик, мыслитель, творчество, тема, почитание, деван, суфизм.*

THE ROLE OF THE THEME OF EAST AND WEST IN THE WORKS OF SADRIDDIN SALIM BUKHARI

Abstract. *Eastern literature became famous for its unique literary forms and genres, filled with high universal feelings expressed in them, and for centuries gave a spiritual impulse to many peoples of the world. Although German literature is related to Western literature, it has also been observed to be influenced by Eastern literary traditions. The same aspect aroused great interest in Sadriddin Salim Bukhari's translation of Goethe's writings, especially "Garbu Shark Divan", written based on the poetry of Hafiz and Sufi literature spiritually close to him. This article discusses the role of the East-West theme and the translation of the book "Maghribu Mashrik" in the work of S. Salimov.*

Keywords: *Johann Wolfgang Goethe, Maghreb, West-East, translator, thinker, creativity, theme, reverence, motif, Sufism.*

Kirish. XX asr oxiri hamda XXI asr boshlari o‘zbek adabiyotini o’zining milliy ruhdagi asarlari, nemis va tojik tilidan asliyatda amalga oshirgan tarjimalari, yaratgan doston, so‘fiyona she’rlar, tatabbu, ruboiy va to‘rtlik, bag‘ishlov, hazil-mutoyiba, marsiya, hikmatlari bilan boyitgan serqirra zullisonayn ijodkor, tasavvufshunos olim, shoir, tarjimon Sadriddin Salim Buxoriy merosi alohida e’tiborni tortadi. O‘z asarlarida ona yurti Buxoroga bo‘lgan samimiy muhabbati, undan faxrlanish tuyg‘usi, vatanparvarlik hissini betakror badiiyat orqali ifoda eta olgan shoirning estetik psixologiyasini, ijodkorlik va asliyatdan adekvat tarjimonlik mahoratini u yashagan davr ijtimoiy-tabiiy voqeliklari bilan uzviylikda yoritib berish milliy adabiyotshunosligimizni nazariy qarashlar, yechimlar bilan boyitishga keng yo‘l ochadi.

Asosiy qism. Shoir va tarjimon Sadriddin Salim Buxoriy nemis tili mutaxassisligini egallash maqsadida uni chuqur o‘rganishga bel bog‘lar ekan, avvalo, shu tilda ijod qilib, ona tilining nufuzini o‘z durdona asarlari bilan dunyo miqyosiga ko‘targan, shu asosda uni katta mehr bilan ardoqlashini isbotlagan mutafakkir shoir I.V.Gyote ijodini sevib o‘rgandi. U Gyoteni faqat ijodkor sifatida emas, balki mohir tarjimon sifatida ham e’zozlab, o‘zining Gyote bilan ma’nan va ruhan ichki yaqinligini chuqur his qildi. Buni tarjimonning Gyote ijodini ilmiy-ijodiy o‘rganish borasidagi ko‘p yillik ijodiy mehnati va erishgan natijalari asosida dalillash mumkin, albatta.

Sadriddin Salim Buxoriyning mutarjimlik sohasidagi mahorati olmonlarning mashhur shoiri Yoxan Volfgang Gyotening “Mag‘ribu Mashriq” devoni tarjimasini amalga oshirish jarayonida yanada yuqori cho‘qqiga erishdi, deyish mumkin. Chunki shoir uni o‘zbek tiliga bevosita nemis tilidan o‘girdi. S.Salimov ijodida G‘arbu Sharq mavzusi va obrazi hamisha bo‘rtib turadi. Buning yaqqol isbotini shoirning quyidagi misralari ham tasdiqlay oladi:

Yakka odam haq bo‘lishi mumkin,
Yakka Odam xalq bo‘lishi mumkin.
Yakka Odam G‘arb bo‘lishi mumkin,
Yakka Odam Sharq bo‘lishi mumkin.

Ko‘rinyaptiki, S.Salimov ushbu misralarida Haq // Xalq // G‘arb // Sharq so‘zlarini o‘zaro muvoziy qo‘llab, mantiqiy parallelizmni hosil qilmoqda.

Shoir ***“G‘arbu Sharq devoni” tarkibida keltirilgan “Jaloliddin Rumiy so‘zi” she’ri*** bir o‘rinda ulug‘ shoir tilidan quyidagi e’tirofni keltiradi:

G‘arb ham o‘zim, Sharq ham o‘zim,
Nohaq o‘zim, haq ham o‘zim.

Yana bir o‘rinda G‘arbning Sharqdan, Sharqning esa G‘arbdan o‘rgangani ta’kidlangan:

Qolib Rumiy, Navoiy, Halloj,
O‘rganmasdan Bedilni,
Singdiribman, ongga, ajabo,
Feyerbax, Kant, Gegelni.
Gegeldan men Rumiyga keldim,
Keldim Naqshbandiyaga,
Vaholanki, Rumiydan Gegel
Oziq olgan miyaga.
Boshim tegdi G‘arb devoriga,
Neni izlab yelibman?
Men mashriqlik Sharqdan G‘arbgamas,
G‘arbdan Sharqqa kelibman.

Shoir G‘arb va Sharq ilm-faninigina emas, odob-axloq normalarini ham tilga olgan:

G‘arbda ayb yo‘q fahsh ila zino,
Avrat yopmay yurishar, ammo –
Bunda rashk ayb sanalar ekan,
Ayb sanalar ekan sharm-hayo!

Zamon keldi, g‘aflatni tark et,
Quyoshday balq o‘zingni Sharq et!
Yomondan-da yaxshini farq et,
Ey o‘zini unutgan odam!
Avliyolar Haqqa xizmat qilgandir,
Avliyolar xalqqa xizmat qilgandir.
Buni bani bashar fayzyob alardan,
Alar G‘arbu Sharqqa xizmat qilgandir.

Asrimizda vasvasa hamdam edi,
Odam Ato arabmi, ajam dedi,
Odam Ato arabu turk ham emas,
Olmonu Farang emas, ODAM edi.

S.Salimov – “G‘arbu Sharq devoni”ning o‘zbek tarjimonlaridan biridir. U nemis tili mutaxassisi bo‘lganligi tufayli bu asar muallifi Gyotening she’riy olamini yaqindan anglay oldi. Shuning uchun unga bu

asarning yana bir o‘zbek tarjimoni Maqsud Shayxzodaga nisbatan yoki Gyotening yana bir mashhur asari – “Faust” tarjimoni E.Vohidovdan ko‘ra, “G‘arbu Sharq devoni”ning sharqona ruhini ifodalash va o‘quvchilarga yetkazish sal oson kechgani ayonlashadi.

Sharqona madaniyat, islomiy qarashlar asosida o‘sib-ulg‘aygan shoir-tarjimonga orttirgan tasavvufiy bilimlari ham yaqindan yordam berdi. Shuning uchun S.Salimovga nemis shoiri Gyote tomonidan “G‘arbu Sharq devoni”da o‘ziga xos tarzda talqin qilingan Qur’on motivlari, so‘fiylik g‘oyalarini “ochish” u qadar qiyin kechmadi. Lekin Gyote favqulodda keng tafakkur egasi va Sharq dunyoqarashining buyuk ixlosmandi bo‘lsa-da, baribir G‘arb dunyoqarashi vakili edi. Shu sababdan uning devonida sharqona motivlar g‘arbona she’riyat texnikasi va tamoyillari asosida ifodalangani sezilib turadi.

Ma’lumki, Gyotening “G‘arbu Sharq devoni” turli tillarga tarjima qilingan. Ingliz, rus kabi bunday tarjimalar orasida devonning o‘zbekcha tarjima variantlari ham borligi quvonarlidir. Bunda o‘zbek tarjimonlari Sharq xalqlarining madaniyati, urf-odatlari, muhiti, Sharq ruhini yaxshi bilganlari uchun boshqalarga qaraganda birmuncha muvaffaqiyatli tarjimaga erisha olganlar. Ammo bu muvaffaqiyat ba’zi o‘rinlarda nisbiyligi anglashiladi. Jumladan, devon tarjimasining ayrim o‘rinlarida adekvat tarjimaga erishilmaganini inkor etib bo‘lmaydi. Bu holat iste’dodli shoir va mutaxassis-tarjimon bo‘lishiga qaramay, S.Salimovda faoliyatida ham kuzatiladi. Bu esa devonning murakkab mazmun va shaklga egaligi bilan bog‘liqdir.

Devon bir necha lirik sikllardan tarkib topgan. Ular “noma” shaklida bir-biri bilan mantiqan ulangan. Asarning “Hijrat” deb boshlanuvchi qismi uning umumiy ohangi, ruhi, tasvir va she’riy motivlari dunyosiga olib kiradi. Shoir bunda arabcha “hijrat” so‘zini shunchaki qo‘llamagan. Bu bilan u 622- yilda Muhammad payg‘ambarning Makkadan Madinaga qochib ketish, ya’ni ko‘chish voqeasiga ishora qilish orqali o‘zining 1788- yilda Veymarning zulm muhitidan qochish istagini bildirgan.

Shuning uchun M.Shayxzodaning tarjima variantida Muhammad payg‘ambarning xatti-harakatlari bilan bog‘liq mazkur voqea o‘rinli yodga olingan, ammo u aytganidek, bu ko‘chish Italiyaga emas edi. Gyote Italiyaga faqatgina sayohat qilib qaytish uchun boradi.

Gyote Sharqqa xayolan sayohat qiladi. U Sharqda o‘zini musulmon qiyofasida tasavvur qiladi. Bu bilan shoir hayot bir joyda turmasligini, doimiy harakatda ekanligini, inson hayoti ham o‘zgaruvchan, o‘tkinchiligini ta’kidlashga urinadi.

Devon tarkibidagi she’rlar masnaviy shaklidagi a-a, b-b, c-c va hokazo juft qofiyali nazmiy tizimda yaratilgan. Hajmi qirq ikki yarim misra – yigirma ikki baytdan iborat.

Devondagi ilk satrlar ikki dunyo G‘arbu Sharqning qarama-qarshi manzarasi ifodasi bilan boshlangan. Shoir o‘ziga Sharqdan ma’naviy ko‘mak izlaydi. U devonni Sharq asarlari namunasida qurdi. U ko‘p qatlamli va ko‘p qirrali asardir. Xususan, u tasavvufiy ruhda bo‘lgani uchun mazmunini anglashda tarjimonning Qur’oni Karim, Hadis va Tasavvuf haqida tasavvurga ega bo‘lishi shart hisoblanadi.

Gyotening “Qo‘shiqchi kitobi”dagi “To‘rt manfaat” she’rini o‘zbek tarjimoni N.Muhammadiyev Qur’oni Karim asosida to‘g‘ri yetkaza olganligini alohida ta’kidlash lozim.

Gyote Sharq xalqlarining urf-odatlarini yuksak qadrlagan, u ko‘chmanchi badaviylar hayotini va islomgacha bo‘lgan “Moallakat” she’riyatini o‘rgangan, shu bois arablarning turmush tarziga bag‘ishlangan “To‘rt qul” she’ri qiziqarli o‘qiladi. Bu she’r “To‘rt azhib sovg‘a” nomi bilan N. Muhammadiev tarjimasida nashr etilgan. Unda Alloh taoloning arabga bergan to‘rtta “mol”iga ishora qilinadi. Birinchidan, bu salla, muqaddas libos, balki kafandir. Shariatga ko‘ra, har qanday musulmon kafanga o‘ralgan holda dafn etilishi kerak, kafansiz dafn qilish katta gunoh hisoblanadi, shuning uchun salla jangchilar va ko‘chmanchilar uchun kafan o‘rnini egallagan. Ikkinchidan, bu hamma joyda o‘rnatilishi mumkin bo‘lgan chodir. Uchinchidan, bu qilich devordan qattiqroq va dushmanlardan himoya qiladi. To‘rtinchidan, bu har qanday ayolni o‘ziga jalb qila oladigan qo‘shiq. Tarjimon N.Muxammadiev she’r mazmuniga chuqur kirib, uni o‘zbek tilida yetarlicha takrorlay olgan. Uning badiiy shaklidagi tarjimasi asliyatga mos keladi, chunki asl nusxada a-b, a-b qofiyasi tanlangan.

A.Allaberganov (60:97) fikricha, N.Muhammadiev asl nusxadan tarjima qilmagan, balki V.Levik tarjimasidan foydalangan. Shunday bo‘lsa-da, unda Gyote intonatsiyasi, bayt va ritmi, Gyote qo‘llagan an’anaviy sharqona atributlar, milliy obrazlar to‘g‘ri aks ettirilgan. “To‘rt qul” she’rida “Salla – toj, chodir – devor, qilich – panjara, qo‘shiq – harf” degan arab maqoliga asoslanilgan. Gyote bu maqolning mazmunini ochib beradi.

Gyotening she’riy satrlarida esa hayotni tasdiqlovchi pafos singib ketgan.

N.Muhammadiev ham M.Shayxzoda kabi V.Levikga ergashib, Gyote she’rining asosiy g‘oyasini qamrab olishga muvaffaq bo‘lgan.

S.Salimov tarjimasida Hofizga Gyotening e'tiqodi, unga "pir", o'zini esa "murid", "izdosh", "Shayx Pir shogirdi" hisoblashi, oralaridagi xayoliy "ustoz" va "shogird"lik tushunchalari tasavvufning qoidalari asosida yoritilgan:

Asliyatda	V.Levikda	S.Salimovda
Und mag die ganze welt versinken Hafis, mit dir, mit dir allein! Will ich wetteifern! Lust und Pein Sei uns der Zwillingen gemein! Wie du zu lieben und zu trinken, Das soll mein Stolz, mein Leben sein.	И что мне целый мир? Судьбою Тебе да уподоблюсь я! Хафиз, мы будем как друзья! Сквозь боль и радость бытия, Любовь и хмель пройдут с тобою, И в этом счастье – жизнь моя.	Menga olam g'ami bilki, abasdur, Ayo, Hofiz! Agar sen birla bo'lsam, Ki, faxru iftixorim sen, havasdur Seningday g'am chekib, sen kabi kulsam. Murodim may ichib sen birla bahsdur. Seningdek sevsamu so'ng mayli o'lsam.

Ko'rinyaptiki, V.Levik tarjimasida Hofiz bilan do'stlashish ma'nosi anglatilmoqda. Bu esa Gyote she'rining asl ma'no-mazmuniga to'liq mos kelmaydi. Chunki Gyote Hofizni o'ziga ustoz, o'zini esa undan o'rganuvchi shogird qiyofasida berishni ko'zda tutgan.

Keltirilgan yuqoridagi parchada "ganze", "versinken", "Zwillingen" so'zlari ham unchalik to'g'ri tarjima qilinmagan. S.Salimov esa bu o'rinda asliyatdagi bu kabi so'zlarning sinonimik variantlarini, mos ekvivalentlarini topib, shu orqali adekvat tarjimaga erisha olgan. Parchadagi "Und mag die ganze welt versinken" misrasini tarjima qilishda S.Salimov "g'ami abasdur" ("behuda yig'lash") birikmasini kiritib, tarjimaning semantikasiga putur yetkazmagan holda uni tovush jihatidan asl nusxaga yaqinlashtirgan. U asl matnda "may" so'zi bo'lmasa-da, tasavvufga xos "may", "ishq", "abadiylik" kabi tasavvufiy tushunchalarni keltirib, asar mazmunini ochishga harakat qilgan. Mastlik holatida insonlarning Haqqa erishishi, inson o'zi uchun abadiylik eshiklarini ochishi tasavvufiy ruhda yoritilgan. Shu asosda shoir-tarjimon Gyote va Hofizning "muhabbat" bilan birlashgan do'st, piru murshidlar ekanini ta'kidlagan.

Umuman aytganda, S.Salimov o'z tarjimasida shakl va mazmun birligini saqlab qola olgan. Bunda uning shoirligi ham yordam bergan. To'g'ri, ba'zan tarjima shaklining asl nusxadan hajmi jihatidan qisman farq qilishi kuzatiladi. Lekin S.Jabborov haqli e'tirof etganidek, I.V.Gyote she'ri ayrim kamchiliklarga qaramay, shoir-tarjimon S.Salimov tomonidan o'zbek tiliga adekvat tarjima qilingan. Eng asosiysi, u Gyote asarining islom ruhi bilan sug'orilganini ko'rsata bilgan.

Asar ma'nosi ichki jihatdan "jannat" mavzusi bilan ham bog'langan. Bu mavzu devonning asosiy mavzulardan biridir. Gyote fikricha, "jannat ostonalariga uchib borish", "abadiylikka erishish" uchun, eng avvalo, donishmandlik bilan xalqqa xizmat qilish, xalq baxti uchun jonini fido qilishga tayyor bo'lmoq lozim. Bu g'oya "G'arbu Sharq devoni"ning "Kirish" qismidan boshlanib, so'nggi kitobi – "Jannat kitobi"da yanada chuqurlashtirilgan. Agar devonda "Hijrat" she'ri muqaddima bo'lsa, "Jannat kitobi" epilogdir. Unda o'zga olamga borgan insonni jannat darvozalarida qorovul bo'lib turgan go'zal hurlar savol-javob qiladi. Ular iymon uchun kurashda jon fido qilgan, payg'ambarga fidoyi bo'lgan, butun umri davomida haqiqat, ezgulik va adolatni himoya qilishga intilgan kishilargagina mangu hayotga yo'l ochadi. Xuddi shunday Gyote jannat eshiklarini taqillatib borganda, hurlar uning ham Ollohga sodiqligini tekshiradi. Shunda shoir quyidagicha javob beradi:

Asliyatda	V.Levikda	S.Salimovda
Nicht so vieles Federlesen Lass mich immer nur herein; Denn ich bin ein Mensch gewesen, Und dass heisst ein Kämpfer sein.	Распахни врата мне шире, Не глумись над пришлесом, Человеком был я в мире, Это значит – был борсом.	Takallufsiz gaplar deding, Benafdur yo'lim tusmoq. Men haqiqiy Inson edim, Qurashuvchi – bu demak.

Bunda S.Salimov "Lass mich immer nur herein", ya'ni "Manga kirishga ruxsat ber" mazmunidagi iltimos ohangli misrani "Benafdur yo'lim tusmoq" deya, ogohlantirish mazmunida, sokin ohangni ko'tarinki ohangga o'zgartirib ifoda etgan. Agar ushbu tarjima asliyat bilan solishtirilsa, undagi so'zlar asl nusxaga mos kelmasligi ma'lum bo'ladi. Lekin, tarjimon asliyatga ijodiy yondashgan va ma'noni saqlab qolgan.

Xulosa qilib aytganda S.Salimov – nemis, rus, fors-tojik shoirlari ijodidan ko'plab she'riy tarjimalar qilgan mutaxassis-tarjimon. She'riy tarjima esa murakkab jarayon. Bunda "mutlaq tarjima"ga erishish har

qancha qiyin bo‘lmasin, S.Salimov o‘zi bevosita shoir va mutaxassis tarjimon sifatida buning uddasidan chiqdi. She’riy tarjima me’yorlarini bilgan shoir va tarjimon S.Salimov aksaran hollarda adekvatlikka erisha olgani kuzatiladi. Sadriddin Salim Buxoriyning bevosita nemis, rus, fors-tojik tillaridan qilgan dastlabki tarjimalari turli gazeta va jurnallarda e’lon qilingan, adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olingan.

ADABIYOTLAR:

1. *Buxoriy S.S. Risolayi nav va foydabaxsh. (Taqriz. G‘.Murodov bilan hamkorlikda). – Buxoro haqiqati. – 1991. – 25 oktabr.*
2. *Buxoriy S.S. Buxoroga Buxoro keldi. She’rlar. – T.: Ma’naviyat, 1992. – 104 b.*
3. *Buxoriy S.S. Buyuk xorazmiylar (Mas’ul muharrir T.Jo‘ra). – T.: Yozuvchi, 1993. – 16 b.*
4. *Buxoriy S.S. Dilda yor: (Hazrat Bahouddin Naqshband): Badia. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 1993. – 80 b. – (Turk dunyosi yulduzlari).*
5. *Buxoriy S.S. Durdona. Mir Kulol va Shohi Naqshband maqomatlari. Fors-tojik tilidan tarjima. I.Subhonov bilan hamkorlikda). – Toshkent, 1993.*
6. *Buxoriy S.S. Tasavvuf va Gyote. – O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 1993. – 25 iyun.*
7. *Makhmudova M.M. Fundamentals and ideological content of the creation of Y.V. Goethe's “West-east collection of poems”// Scientifik reports of Bukhara state University. 2021/5-6(87/88). (Scopus)*
8. *Makhmudova Muattar. Sadriddin Salim Bukhariy’s Role in the Development of the literary Environment of Bukhara in the Late xx and Early xxi Centuries. // Euro-Asia Conferences 2021. – R.92-94.*
9. *Makhmudova M.M. “Skill of Translating Mystical Ideas in Sadriddin Salim Bukhari's “G’arbu Sharq Devoni (West-East Devon)”. // Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT. 2021/1. – R.153-157.*
10. *MakhmudovaM.M. Preservation of Originality in the Translation of Goethe's Work. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020.*
11. *Махмудова М.М. Эффективные методы перевода (на примере перевода Гёте). // Вестник науки и образования. 2019/2/25. ISSN 2541-7851.*
12. *MakhmudovaM.M.The Mystikal Ideas in the “West – East Office” are Translated by Sadriddin Salim Bukhari. // Indonesian Journal of Innovation Studies. Vol. 18 (2022): April 2022.*
13. *Maxmudova M.M. Gyote ijodida sharqona mavzularning badiiy talqini// Ilm sarchashmalari. – Urgench. – № 10. – 2019. – B. 139-142.*
14. *Mahmudova M.M. Yo.V.Gyote “G'arbu Sharq devoni”ning Maqsud Shayxsoda va S.S.Buxoriy tarjimalariga xos xususiyatlar // Ilm sarchashmalari. – Urgench. – №1. – 2021. – B.166-171.*
15. *Machmudowa M.M. Zur Frage der Analyse des gegenwärtigen Zustandes des deutschen Wortschatzes// «Chet tillarni o‘qitishning dolzarb masalalari» Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Buxoro – 2017y. B. -175-177.*
16. *Machmudowa M.M. Johann Wolfgang Goethe und sein West-Ostlicher Divan”//Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologok izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari materiallari bo‘yicha ilmiy amaliy maqolalar to‘plami. –Buxoro “Durdona” nashriyoti, 2020. – B.133-137.*
17. *Maxmudova M.Cadriddin Salim Buxoriyning nemis tilidan badiiy tarjimalari. // Qiyosiy adabiyotshunosli, chog‘ishtirma tilshunoslik va adabiyotshunoslik: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – Buxoro – 2020. – B. 273-277.*
18. *Maxmudova M.M.Sadriddin Salim Buxoriyning tarjimon bo‘lib shakllanish omillari// Qiyosiy adabiyotshunoslik: o’tmishi, buguni, istiqbollari. –Buxoro – 2020.– B. 126-130.*
19. *Mahmudova M.M. S.S.Buxoriyning Gyote ijodidan tarjimalarida asliyatning saqlanishi // Ta’lim tizimida chet tillarni o‘rganishning zamonaviy muammolari va istiqbollari.– Buxoro, 2020. – 5-6 mart. – B.264-266.*
20. *Maxmudova Muattar. Sadriddin Salim Buxoriyning tarjimon bo‘lib shakllanish omillari // Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti. Qiyosiy adabiyotshunoslik: o’tmishi, buguni, istiqbollari. – Toshkent, 2020. – 6-noyabr. – B. 126-128.*
21. *Mahmudova M.M. “G‘arbu Sharq devoni”dagi tasavvufiy g‘oyalar Sadriddin Salim Buxoriy tarjimasida. // «Til, adabiyot, tarjima, adabiy tanqidchilik: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar» halqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2022. –B. 190-193.*
22. *Mahmudova M.M.“G‘arbu Sharq devoni”dagi tasavvufiy g‘oyalarni tarjimada berishda Sadriddin Salim Buxoriy mahorati” // Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik: muammo, yechim va istiqbollar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. – Buxoro, 2021. – B 277-282.*

UO‘K 821.111-311.1

«TASHQI VAQT» VA «ICHKI VAQT» DINAMIKASI SALMAN RUSHDI ROMANI POETIKASIDA

Naimova Aziza Muxammadovna,
Buxoro davlat universiteti o’qituvchisi
aziza.naimova2020@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada asarlardagi vaqt mavzusining badiiy yechimining dinamikasi ko'rib chiqiladi. Ya’ni Salman Rushdi ijodida romanlar alohida o’ringa ega bo’lib, romanlar poetikasida "tashqi vaqt" va "ichki vaqt" ning kombinatsiyasi haqidagi muallifning qarashlari tahlil qilinadi. Chiziqli bo`lmagan hikoya texnikasi oldinga siljish yoki orqaga qaytish, ya’ni voqealarni ketma-ketliksiz ataylab chiziqli bo'lmagan tarzda tasvirlash texnikalari orqali avtor maqsadi, kitobxonga yetkazish uslubi analizi o`z isbotini topgan. Shuningdek, vaqt inversiyasining sodir bo`lish usullari misollar orqali tahlil ostiga olingan.*

Kalit so`zlar: *badiiy vaqt, monolog, rivoyat, bashorat, xotira, haqiqat, deformatsiya, hikoya uzilishi, parallel vaqt davri.*

ДИНАМИКА «ВНЕШНЕГО ВРЕМЕНИ» И «ВНУТРЕННЕГО ВРЕМЕНИ» В ПОЭТИКЕ РОМАНА САЛМАНА РУШДИ

Аннотация. *В статье рассматривается динамика художественного решения темы времени в произведениях, относящиеся к разным периодам творчества Салмана Рушди, поэтика его романов анализирует авторские взгляды на сочетание «внешнего времени» и «внутреннего времени». Методами повествования, не связанными с повествованием, являются движение вперёд или назад, то есть методами преднамеренного нелинейного описания событий без последовательности, метод, с помощью которого автор достигает читателя. Также на примерах были проанализированы методы, с помощью которых происходит инверсия времени.*

Ключевые слова: *художественное время, монолог, повествование, пророчество, память, реальность, деформация, повествовательное сжатие, параллельный период времени.*

DYNAMICS OF «EXTERNAL TIME» AND «INTERNAL TIME» IN THE POETRY OF THE NOVEL SALMAN RUSHDIE

Abstract. *The article examines the dynamics of the artistic solution of the theme of time in the works. That is, novels have a special place in Salman Rushdie's work, and the author's views on the combination of "external time" and "internal time" in the poetics of novels are analyzed. The technique of non-linear narrative is the analysis of the author's purpose and method of conveying to the reader through the techniques of moving forward or going back, i.e., describing events in a non-linear way without sequence. Also, the methods of time inversion are analyzed through examples.*

Key words: *Artistic time, monologue, narration, prophecy, memory, truth, deformation, narrative interruption, parallel time period.*

Kirish. Biz bilamizki, asar ichida hikoya, qissa, afsonalarning berilishi orqali muallif tarixiy inversiya hodisasining retrospeksiya usuliga erisha oladi. Quyidagi parchalarda ham yozuvchi bir asarning bir nechta qismlarida shu holatni takrorlab, ayni hikoya qilayotgan hodisaga parallel bog`liq voqeani tasvirlash maqsadida ikkinchi ichma-ich voqeotni bayon qiladi va ikki hodisaning davrlari mutlaqo bir-biriga yaqin bo`lmagan vaqt chizgilari ostida davom etib, o`zaro mantiq bog`liqligi sabab vobasta birlashadi, bir-birini to`ldiradi. Yozuvchi tomonidan qalam ostiga olingan ikkinchi voqea ko`prik vazifasini bajaradi. Nega aynan ko`prik degan savol tug`ilishi mumkin. Sabab voqealar silsilasi XVIII asr doirasida kechayotgan bir mahal, ikkinchi bir hikoya, qissa yoki afsonalar vositasida xuddi ko`prik orqali kitobxon XIII asrga tashrif buyura oladi.

Doctor Aziz's nose - comparable only to the trunk of the elephantheaded god Ganesh - established incontrovertibly his right to be a patriarch. It was Tai who taught him that, too. When young Aadam was barely past puberty the dilapidated boatman said, That's a nose to start a family on, my princeling. There'd be no mistaking whose brood they were. Mughal Emperors would have given their right hands for noses like that one. There are dynasties waiting inside it,' - and here Tai lapsed into coarseness - 'like snot. [3,8]

Yuqoridagi misolda muallif doctor Adam Azizning burniga katta urg`u berib, uni tasvirlash maqsadida uning burni fil shaklidagi Ganesh ismli xudoga, shuningdek, Mo`g`ul imperatorlari bu shakldagi burun uchun o`zlarining o`ng qo`llarini berishlari haqidagi urf-odatning bayon qilinishi, bu ayni tarixiy inversiyaga, ya'ni zamonning XVIII asrdan turib, XIII asrga qaytishi birgina misra va o`sha davr an'anasi tasviri orqali muallif davrlararo inversiya hodisasini amalga oshirmoqda.

'I knew one officer once - in the army of that Iskandar the Great. Never mind his name. He had a vegetable just like yours hanging between his eyes. When the army halted near Gandhara, he fell in love with some local floozy. At once his nose itched like crazy.

He scratched it, but that was useless. He inhaled vapours from crushed boiled eucalyptus leaves. Still no good, baba! The itching sent him wild; but the damn fool dug in his heels and stayed with his little witch when the army went home. He became - what? - a stupid thing, neither this nor that, a half-and-halfer with a nagging wife and an itch in the nose, and in the end he pushed his sword into his stomach. What do you think of that?' [3,13]

Ushbu parchani so`zlovchi Salim nutqidan uning bobosiga sodiq do`st bo`lgan qayiqchi Tai o`zining rivoyati orqali bo`lib o`tgan voqea aytilmoqda. Hikoyaga e'tibor beradigan bo`lsak, u qadim voqeotlari bilan bog`langanligini sarkarda Buyuk Iskandar davri hodisalaridan bilishimiz mumkin. Ya'ni voqealar XVIII asrdan turib, miloddan avvalgi Buyuk Aleksandr davriga borib taqaladi. Uning armiyasidagi ofitserning burni bilan bog`liq holatni Adam Aziz holati bilan taqqoslash va bog`lash maqsadida ijodkor vaqt oralig`ini shu darajada zichlata oldiki, kitobxon hech qanday bo`linishlarsiz ikki davr hodisalarini anglay oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Salman Rushdining xotira va haqiqat haqidagi fikrlari "xotiraning o'ziga xos turi (haqiqat) bor" ligini o`z asarida namoyon qiladi. U xotiraning kamchiliklarini ta'kidlab, u "tanlaydi, yo'q qiladi, o'zgartiradi, bo'rttiradi, kamaytiradi, ulug'laydi, lekin oxir-oqibat u o'z voqeligini, hodisalarning bir xil, ammo izchil versiyasini yaratadi deb so`zlovchi nutqidan ta'kidlashi ayni fikrimizning isbotidir. Shu o`rinda ta'kidlash joizki, avtor Hindistondagi voqealarni xronologik tarzda tasvirlashni rejalashtirmaydi. Buning o'rniga, u o'zining "xotira haqiqati" ni tasvirlashni maqsad qiladi, ya'ni asar bosh qahramoni Salim Sinay va uning oila a'zolari bilan bog`liq voqealarni tasvirlash bilan birga, Hindistonning 1915- va 1978 - yillar oralig`idagi tarixiy voqealari qalam ostiga olinadi. Avtor ushbu tarixiy sanalarni xronologik tartibda emas, balki o'z "xotira haqiqati" ga tayangan holda tasvirlashga uringan. Ushbu tasvirlarni yanada rangdor va serjilo ko`rsatish maqsadida hikoya texnikalaridan foydalana oldi. Vaqt-men ishlab chiqarilgan modda. Vaqt-bu meni olib ketadigan Daryo, lekin bu Daryo menman. Vaqt-bu mening jag'larimni qoqib qo'ygan yo'lbars, lekin men bu yo'lbarsman. Vaqt-bu meni yutib yuboradigan olov, lekin bu olov menman. Tinchlik afsuski, haqiqiy va men, Afsuski, Borxesman" *[10,200]*.

Ushbu satrlarda mashhur argentinalik yozuvchi Borxesning vaqt illuziyasi haqidagi falsafiy qarashlaridan kelib chiqib, badiiy nasrdagi adabiy durdonalarda vaqt muallif tomonidan boshqarilishi va yurgizilishini tushunishimiz mumkin. Demak, Rushdi yaratgan xotira haqiqati aynan shu formulaga bo`ysunadi va aynan u roman xronologiyasida voqealarning qay yo`sinda kelishini belgilaydi. Quyida berilgan misralarga e'tibor qaratadigan bo`lsak, asar muallifi 1919- yil mart oyi Salimning bobo-buvisi to`y marosimining nishonlanishi, nikoh bilan bog`liq turli udumlar hamda to`y tantanalaridan so`ng ikki yoshning Amritsarga ko`chib o`tayotish tasvirlari, Salimning 1956 -yilgi yangi yil bayramidagi arvoh obrazi rolini ijro etish tasvirlariga ulanib ketadi. Muallif juda mohirona va yengil tasvirlar orqali ikki davrni bir-biriga bog`lashga harakat qiladi. Ya'ni umumiylik bu Adam Azizning uyi bo`lib, to`y marosimidan keyin ularning ko`chib kelgan uylari tasvirini o`sha vaqt chizig`i orqali emas, balki 37 yil keyingi uchinchi avlod bardavomligida tasvirlash bu ijodkorning o`ziga xos uslub egasi ekanligidan dalolat.

... a limousine hired by the landowner arrived to drive my grandparents to Amritsar, where they would catch the Frontier Mail. Mountains crowded round and stared as my grandfather left his home for the last time…

... And now I am cast as a ghost. I am nine years old and the whole family, my father, my mother, the Brass Monkey and myself, are staying at my grandparents' house in Agra, and the grandchildren -myself among them - are staging the customary New Year's play; and I have been cast as a ghost. [3,30]

Yuqoridagi parchalardan tushunishimiz mumkinki, chiziqli bo`lmagan hikoya texnikasi, ya'ni oldinga siljish, voqealarni ketma-ketliksiz ataylab chiziqli bo'lmagan tarzda tasviri o`z isbotini topdi. Ushbu misol bevosita prospeksiya usulida yaratilgan bo`lib, avtorning kitobxonga bobo va buvisining yosh kelin-kuyovlik chog`ida 9 yoshlik aktyorlik mahoratini ko`rsatmoqchi bo`ladi. Bu holat ayni vaziyatda vaqtinchalik disorientatsiya holatini keltirib chiqarmoqda.

Far away, there was a World War in progress once again. In Agra, the heat mounted. But still my grandfather whistled. The old men at the paan-shop found his whistling in rather poor taste, given the circumstances.

'Mian Abdullah rose from the famous magicians' ghetto in Delhi to become the hope of India's hundred million Muslims.' The Hummingbird was the founder, chairman, unifier and moving spirit of the Free Islam Convocation; and in 1942, marquees and rostrums were being erected on the Agra maidan, where the Convocation's second annual assembly was about to take place.

…but Reverend Mother had rebelled when her turn came…; …the domestic rules she established were a system of self-defence …

... And at the dinner-table, imperiously, she continued to rule. No food was set upon the table, no plates were laid. Curry and crockery were marshalled upon a low side-table by her right hand, and Aziz and the children ate what she dished out. It is a sign of the power of this custom that, even when her husband was afflicted by constipation, she never once permitted him to choose his food, and listened to no requests or words of advice… ... In 1932, ten years earlier, he had taken control of his children's education. [3,43]

Yuqoridagi to`rt abzasli misralarga, to`g`rirog`i ularning sanasiga ahamiyat beradigan bo`lsak, ularning har biri turli vaqt hisoblariga teng bo`lib, ijodkor dastlabki ikki parchaning tarixiy haqiqat bilan bevosita bog`liq holda, ammo yillarning ketma-ketligi orasida bir necha yil tafovut hamda keyingi parchalarda esa vaqtning o`n yil oldinlashuviga guvoh bo`lishimiz mumkin. Avtorning uslubiy yondashuvi hamda hikoya texnikalarining mantiqan bir chiziq ostida tizilishuvi orqali muallif dastlab ikkinchi jahon urushi boshlanish tasvirlari, Agradagi ijtimoiy holatlar va Salimning bobosi bilan bog`liq bir necha ma’lumotlarni bayon qilayotib, voqealar 1942- yilgi Agradagi musulmonlar harakati, hamda ularga boshchilik qilgan Abdullo ismli rahbar harakatlari va siyosiy jarayonlarning jadallashuviga ko`chishi oldinga o`tish (flash forward) texnikasi orqali kitobxonga hind tarixiga oid ma’lumotlar yetkazilmoqda. Shu o`rinda hind musulmonlarining qo`zg`oloni orqali davlatni qo`lga olishi hamda ularning hisobiga umumiy siyosiy vaziyatni yumshatish chora-tadbirlari fleshbek texnikasi yordamida o`n yil ortga qaytishi va 1932-yilgi Salimning buvisi bilan bog`liq shaxsiy sifat ko`rsatkichlariga hamda uning yillar davomida qanchalik o`zgarganligi, yuvvoshgina hind qizining o`ta jahldor va o`z haqqini talab qiluvchi hamda qonundor ayol obraziga deformatsiyalashganligi tasvirlariga yuzlanamiz. Avtorning ikki turli parallel davrni tasvirlashidan maqsad, bu hodisalarning umumiy xususiyati bo`lib, u ikkala vaziyatda ham qo`zg`olonning mavjudligida edi. Ya’ni 1942- yilda musulmonlarning hamda 1932- yilda Naseem Azizning qo`zg`olonlari umumiylik kasb etib, yozuvchi shu bog`liqlikni bir ketma-ketlikda tasvirlashni lozim topdi. Albatta, tasvirlarning bu ko`rinishda bayon qilinishi o`quvchida bir qator uzilish va fikr tangligini keltirib chiqarishi mumkin.

The novel highlights the connection between private lives and national history, which "leak" into each other, according to the pickling metaphor which runs through the novel. Not only do contemporary events have a direct impact on the life of an individual, but also previous events influence it. [2, 83-92*]*

Natijalar va ularni muhokama qilish. Roman shaxsiy hayot va milliy tarix o'rtasidagi bog'liqlikni namoyon etib, bu ikki qarama-qarshi hodisalar metaforik xususiyatiga ko`ra, o`zaro bir-birining soyasida "oqib" yashirinadi. Inson hayotiga nafaqat hozirgi voqealar, balki oldingi voqealar ham bevosita ta'sir qiladi. Salimning shaxsiy voqealari mamlakatdagi ommaviy tadbirlarga biriktirilgan va bir kishi yoki bir guruh odamlarning shaxsiy voqealari jamoat tarixida qanday namoyish etilmagan va aytib bo'lmaydiganligini ko'rsatish uchun parallel ravishda tasvirlanilgan deb ta’kidlaniladi, Burac tomonidan. U bergan konsepsiya bo`yicha avtorning fleshbek texnikasini ishlatishdan maqsadi bu Naseemning qo`zg`oloni orqali musulmonlar harakatining ba’zi holatini ko`rsatmaslikdir. Lixachov o`zining risolasida ta’kidlaganidek, muallif kinematografiyada muharrir sifatida o`zining badiiy hisob-kitobiga koʻra, ish vaqtini nafaqat sekinlashtirishi yoki tezlashtirishi, balki uni ma’lum vaqt oralig‘ida to‘xtatib qo‘yishi va asardan o‘chirib qo‘yishi ham mumkin *[9,214]*.

Vaqtning bu o`ziga xos xususiyatini Rushdi ham juda noan’anaviy tarzda ishlatib, syujet vaqtini to`xtatish maqsadida so`zlovchi tomonidan ma’lum bir shaxs, predmet, joy nomlari yoki bo`lmasa, qaysidir hodisaga taaluqli rivoyatning bayoni orqali Lixachov nazari bilan aytganda, syujet vaqti qanchadir soniyalarda to`xtaydi, ammo bu vaqtga parallel boshqa vaqt chizig`i harakati boshlanib vaqt o`tmishga yoki kelajakka inversiyalashadi. Badiiy nasrda bu hodisa, asosan, umumlashtirish, falsafiy chekinish yoki tavsifiy cheklanishni ta'minlash uchun zarurdir. Bu mulohaza o‘quvchini boshqa olamga olib boradi, u yerdan o‘quvchi voqealarga falsafiy mulohazalar cho‘qqisidan yoki boqiy tabiat cho‘qqisidan qaraydi. Voqealar bu chekinishlarda o‘quvchiga pigmeyadek mayda odamlardek tuyuladi.

…her secret husband had taken to calling the Taj Mahal, because Taj Bibi was the name by which people had called an earlier Mumtaz - Mumtaz Mahal, wife of Emperor Shah Jehan, whose name meant

'king of the world'. When she died he built her that mausoleum which has been immortalized on postcards and chocolate boxes and whose outdoor corridors stink of urine and whose walls are covered in graffiti and whose echoes are tested for visitors by guides although there are signs in three languages pleading for silence. Like Shah Jehan and his Mumtaz, Nadir and his dark lady lay side by side, and lapis lazuli inlay work was . [3,65]

Muallif asar xarakterlaridan biri Mumtozning hayoti, uning tabiati, ta'lim olishi haqida so`zlayotgan bir mahal, voqealar rivoji Hindistonning XVII asrdagi tarixiy-madaniy hayoti, Boburiylar sulolasi shahzodasi ShoxJahon hamda uning rafiqasi Mumtoz Mahal xotirasiga qurdirilgan Toj Mahal maqbarasi va uning tarixi haqidagi faktlar bizni XX asrdan retrospeksiya usuli yordamida XVII asrga tarixan inversiyalashuvimizga yordam beradi. Salman Rushdi tarixiy inversiya hodisasini rivoyat orqali amalga oshirmoqda. Ammo ikki parallellik o`rtasida ism bog`liqligi mavjud va Lixachov fikri bilan aytganda, umumiylikka erishish maqsad qilib olingan.

Ammo endi harakat davom etmoqda va odamlar hamda ularning ishlari yana normal o'lchamga ega bo'ladi, vaqt esa o'zining normal sur'atini oladi. Ya'ni kichik bir "Toj Mahal" haqidagi rivoyatdan so`ng, syujet vaqti davom etishni boshladi. Voqealar rivoji yana Mumtozning shaxsiy hayotiga ulanib ketdi.

Salman Rushdining yana bir ijodkorlik uslublaridan biri bu uning qo`shimcha ma'lumot berishida bo`lib, u ma'lum bir shaxs, joy nomlari yoki an'anaviy marosimlarning kitobxonga tushunarli va oson bo`lishi uchun qavslarda faktlar qoldiradi. Shuningdek, u ham hind, ham musulmon dunyosidan voqif bo`lganligi sabab o`zi bayon qilayotgan turli (diniy) voqealarga qo`shimcha tushuntirishlar yoki hikoyalar bilan to`ldirib, asarning milliy va ma'naviy koloritini boyitishga xizmat qiladi.

Major Zulfikar would be! Breaking her oath, my aunt arrived at his office. Zulfikar is a famous name amongst Muslims. It was the name of the twopronged sword carried by Ali, the nephew of the prophet Muhammad. It was a weapon such as the world had never seen. [3,70]

Yuqoridagi misralarda ham vaqt chizig`ining ikki turli davr XX hamda VII asrlardagi umumiylik bog`lamoqda. Bu o`rinda avtor turli din bilimlari egasi ekanligini ko`rsatib, roman voqealarining o`z xosligi bo`yicha islom dini tarixiga yondashdi va roman qahramonlaridan biri Zulfiqor ismli ofitserning ismiga tavsif berib, bu ism ikki tomoni ham o`tkir tishli qilich ma'nosini anglatishi va Islom dini tarixida u qilich faqatgina Muhammad payg`ambarimizning jiyani Alida bo`lganligi haqidagi rivoyat orqali Lixachov fikridagi tavsifiy cheklanishni ta'minlashni amalga oshirilmoqda. Shuningdek, vaqt hozirdan o`tmishga tomon harakatlanib retrospeksiya usuli orqali inversiyalashmoqda. Xuddi shu misolga monand holatni romanning yana bir qismida uchratish mumkin: ... *While at the Old Fort, Ahmed Sinai waits for Ravana. My father in the sunset: standing in the darkened doorway of what was once a room in the ruined walls of the fort, lower lip protruding fleshily, hands clasped behind his back, head full of money worries. He was never a happy man. He smelled faintly of future failure; he mistreated servants; perhaps he wished that, instead of following his late father into the leathercloth business, he had had the strength to pursue his original ambition, the re-arrangement of the Quran in accurately chronological order. (He once told me: 'When Muhammed prophesied, people wrote down what he said on palm leaves, which were kept any old how in a box. After he died, Abubakr and the others tried to remember the correct sequence; but they didn't have very good memories.' Another wrong turning: instead of rewriting a sacred book, my father lurked in a ruin, awaiting demons. It's no wonder he wasn't happy; [3,97]*

Ushbu misolda hikoyadagi uzilish (narrative interruption) texnikasi ishlatilgan bo`lib, roman ichida ma'lum bir voqea yoritilayotib, unga qo`shimcha tavsif, falsafiy chekinish yoki umumiylik sifatlarini kitobxonga yetkazish maqsadida qo`shimcha hikoya bayon qilinadi va o`quvchi diqqatining uzilishi, disorientatsiya holatini keltirib chiqaradi va bu jarayon orqali avtor faqatgina bir ketma-ketlikka doir holatni emas, balki bir qancha xronologik bo`lmagan vaqt davrli voqealarga yuzlanishi mumkin. Bizning misolimizda ham, Salimning otasi haqidagi faktlarni ko`rsatish bilan birga, unga falsafiy chekinish beruvchi Muhammad payg`ambarimizning davrlari bilan taqqoslaydi. Avtor uzilish texnikasi va hikoya orqali vaqtni VII asr bilan o`zgartirdi hamda retrospeksiya usulini namoyon etdi. Bu holat qisqa vaqtdan chekinishni keltirib chiqaradi, kitobxonni bir necha soniyalarda bo`lsa-da, chalg`itib sodir bo`layotgan voqeadan chekintirish va ma'lum boshqa davr tafsilotlaridan voqif bo`lishlikka undaydi.

Tarixiy inversiya hodisasining navbatdagi usuli bashorat texnikasi orqali amalga oshirilgan. Ushbu bashorat hind folbini tomonidan Amina Sinayning kutayotgan homilasi haqida bo'lib, bashorat ochiq faktlar asosida emas, balki sirli yopiq topishmoq ko`rinishida berilgan. Romanning shu qismida avtor vaqt o`lchamini prospeksiya usuli orqali kelajakni o`zgartira oldi: *Beginning, 'A son... such a son!' And then it comes, 'A son, Sahiba, who will never be older than his motherland - neither older nor younger.' as he continues, singsong, high-pitched: 'There will be two heads - but you shall see only one - there will be knees*

and a nose, a nose and knees.' 'Newspaper praises him, two mothers raise him! Bicyclists love him - but, crowds will shove him! Sisters will weep; cobra will creep ...' 'Washing will hide him - voices will guide him! Friends mutilate him - blood will betray him!' goes Ramram Seth: 'Spittoons will brain him - doctors will drain him - jungle will claim him - wizards reclaim him! Soldiers will try him –tyrants will fry him ...' Ramram Seth as he whirls to his climax: 'He will have sons without having sons! He will be old before he is old! And he will die ... before he is dead.' [3,104]

Yuqoridagi misralarning o`zgacha bir poetik, she'riy va nasriy ko`rinishi-yu mazmunan vaqt poetikasining tasvir jilolari ijodkor tomonidan juda katta tajriba asosida yondashilganligidan dalolat beradi. Ona qornidagi embrionning hali tug`ilib dunyo yuzini ko`rmay turib, uning bir kunlik chaqaloqligidan boshlab umrining oxirigacha boshidan kechiradigan juda muhim voqeotlar to`g`ridan –to`g`ri bayon shaklda emas, turli mazmundagi ishoralari orqali bashorat qilinadi. Adabiyotda nisbiylik prinsipi mavjud bo`lib, syujetdagi voqealar bir-biridan oldin va bir-birini kuzatib boradi, murakkab qator quriladi va shu tufayli o'quvchi badiiy asarda vaqt haqida hech narsa aytilmagan bo'lsa ham, vaqtni sezishga qodir *[9,213]* bo'ladi. Misol ichida berilgan parchadagi vaqt ham ma'lum bir sana orqali ta'kidlab o`tilmagan bo`lsa-da, ammo ko`p davrli vaqt oraliqlari tasvir obyekti sifatida olinganligi voqealar silsilasidan ma'lumdir.

Xulosalar. Folklor va adabiyot rivojlanishining dastlabki bosqichlarida turli syujetlardagi voqealarning har biri o`z vaqti qatorida, boshqadan mustaqil ravishda sodir bo`lishi mumkin. Vaqt birligining ongi ustun kela boshlaganda, bu birlikning buzilishi, turli syujetlarning vaqt farqlari g'ayritabiiy, mo`jizaviy holat sifatida qabul qilinishni boshlaydi *[9,213]*.

Bizning misolimizda ham tarixiy inversiyaning shu shakldagi poetik xosligi mavjud bo`lib, Amina Sinayning homilasi davridagi vaqt – to`lg`oq vaqti bilan almashmay turib uning farzandi tug`ilishi, Hindiston mustaqilligining nishonlanishi, ushbu kunning o`zgacha shukuhi, dunyoga kelajak farzandi – Salimning almashtirilishi-yu uning o`z raqibi bilan umumiy xislati, uning ikki ona tomonidan tarbiyalanishi, sehrli xislatidagi ovozlar, ulg`ayish davridagi ko`plab voqealar, uning farzandi o`z naslidan emasligi va raqibi – Shivaning o`lishi voqealari chaqaloqning tug`ulib ulgurmay turib sodir bo`ladi. Avtor bashorat texnikasi va prospeksiya usuli orqali kelajak voqeotlarini o`zgacha bir g`ayrioddiy tusda kitobxonga ishora qilmoqda. Bu o`rinda ikki alohida vaqt davri asosida har biri o`z vaqt qatorida syujet voqealari rivojlanmoqda. Bir tomondan, ish vaqti o'z-o'zidan yopildi, voqealar faqat syujet doirasida amalga oshiriladi, tarixiy vaqt bilan ish chegarasidan tashqarida sodir bo'ladigan voqealar bog'liq emas. Zero, Aminaning folbin oldidagi holati to`xtatilib, vaqt chizig`i kelajakka tomon yo`nalib, bir necha yillik hodisalar, ya'ni bosh qahramonning tug`ulib, kamolot davriga yetgungacha bo`lgan davr kichik fragmentlar ko`rinishida kechadi va ular bir-biriga yondosh emas. Boshqa tomondan, asarning vaqti aniq belgilangan tarixiy davr fonida rivojlanib boradigan kengroq "ochiq" vaqt oqimiga kiritilgan bo'lishi mumkin. Asarning "ochiq" vaqti, uning voqeligini cheklaydigan aniq ramkani istisno qilmasdan, asardan tashqarida bir vaqtning o'zida sodir bo'ladigan boshqa voqealar, uning syujeti mavjudligini anglatadi. Vaqt birligi ongli anglashilgan lahza, ya'ni bashorat tugallangan vaqtdan oldingi holat noodatiy sehr sifatida anglashildi va vaqtning umumiy yo`nalish soati o`z o`lchamini egallaydi.

ADABIYOTLAR:

1. *Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – T.: Akademnashr, 2015. – bet.287.*
2. *Les fictions du réel dans le monde anglo-américain de 1960 À 1980. Liliane Ruf-Burac. Midnight's Children or the Pickles of History. – Tours: Presses universitaires François-Rabelais, 2017. – pp. 116.*
3. *Rushdie Salman. Midnight's children. – L.: Penguin books, 1991. – P.446.*
4. *Naimova, A. (2020). The main peculiarities of Herbert Wells and Hojiakbar Shaykhov's famous science fiction works. Theoretical & Applied Science, (3), 417-420.*
5. *Naimova, A. (2020). Historical inversion on the example of the great uzbek writer Isajon Sulton's workBboqiy darbadar‖. Центр научных публикаций*
6. *Naimova, A. (2020). Yetuk o`zbek adibi Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asari misolida tarixiy inversiya. Центр научных публикаций*
7. *Naimova, A. (2020). O`zbek adabiy nasrida tarixiy inversiyaning tutgan orni. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 1(1). /journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2304*
8. *Naimova, A. (2020). Tarixiy inversiyaning adabiyotdagi o`rni va uning turlari. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 1(1). //journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2295*
9. *Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. – М.: Наука, 1979. – С.209.*
10. *Молчанов В.В. Время как приём мистификации читателя в современной западной литературе.с.200*

UO'K 891.709

BOLALAR SHE'RIYATIDA EKOLOGIK TARBIYA: TABIATNING JAMIYATGA MUNOSABATI IFODASI

Nuritdinova Shahnoz Sadridinovna,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
nuritdinovashahnoz@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bolalar she'riyatida biologik o'simliklar, dov-daraxtlar, jonivorlarning jamiyatga, odamlarga aytar so'zi ramziy obrazlar vositasida berilgan she'rlar, jumladan, bolalar shoirlari ijodidagi syujetli she'rlar tahlil qilingan. Bolalar she'rlaridagi qushlar, jonivorlar, hayvonlar timsolining majoziy ifodasi orqali ekologik dolzarb muammolar haqida fikr yuritilgani, shu orqali o'sib kelayotgan yosh avlod ongida tabiatga, qushlarga, umuman, biosferaga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartirish maqsadi ko'zlangani ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *biologik biosfera, tabiat, ekologiya, jonivorlar, qushlar, tirik tabiat,* majoz, tamsil, syujet, allegoriya, ramz, kompozitsiya, erk,

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ В ДЕТСКОЙ ПОЭЗИИ: ВЫРАЖЕНИЕ ОТНОШЕНИЯ ПРИРОДЫ К ОБЩЕСТВУ

Аннотация. *В статье анализируются детские стихи через символические образы биологических растений, деревьев, животных и людей, в том числе сюжетные стихотворения, созданные детскими поэтами. Выявлено, что через метафорическое выражение птиц, животных, зверей в детских стихах задумываются о современных экологических проблемах, тем самым ставится цель изменить отношение к природе, птицам, биосфере в целом в сознании юных школьников для того, чтобы будущее поколение было направлено в позитивное русло.*

Ключевые слова: *биологическое, биосфера, природа, экология, животные, птицы, живая природа, метафора, сравнение, сюжет, аллегория, символ, композиция, персонаж.*

ECOLOGICAL EDUCATION IN CHILDREN'S POETRY: EXPRESSION OF NATURE'S RELATION TO SOCIETY

Abstract. *In the articl, children's poems are analyzed through symbolic images of biological plants, trees, animals, and people, including plot poems created by children's poets. It has been revealed that through the metaphorical expression of birds, animals in children's poems, they think about current ecological problems, thereby, the purpose of changing the attitude towards nature, birds, and the biosphere in general in the mind of the young generation is aimed at a positive direction.*

Key words: *biological, biosphere, nature, ecology, animals, birds, living nature, metaphor, simile, plot, allegory, symbol, composition, character.*

Kirish. Eng qadimgi ibtidoiy davrlardanoq ramz inson ruhiyatining tili bo'lib, u tabiat bilan ana shu tilda gaplasha boshlagan. Aynan ana shu ramzlar tilida marosim qo'shiqlari, folklor janrlari yaratilgan. Folklor ramzlari muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini, tasavvurlarini, ijodini tamsil etadi. Atrof-muhit, tabiatni, jamiyatni tushunish ma'naviyatimizning asosi deb qaralsa, kichik kitobxonlarning murg'ak qalbida sof tuyg'u va samimiy munosabatlarni tarbiyalash nihoyatda muhimdir. Bolalar ma'naviyatini qayta kashf etish, hayot muammolarini keng ko'lamda teranlik bilan idrok etish jarayonida o'quvchini mustaqil mushohada yuritishga undash bolalar she'riyatining bosh vazifasidir. Ma'lumki, bolalar tabiatan atrof-olamga, jonivorlaru o'simliklarga mehr-muhabbatli bo'lishga moyil. Ular, hatto, har bir hasharotga ham ozor yetkazmaslikka, uni eng ardoqli narsalaridek e'zozlshga harakat qiladilar.

Kattalar his qilgan narsani bolalar ham his qiladilar. Lekin o'zicha Kichik kitobxonlar tafakkurini tarbiyalaydigan she'rlar yozish uchun bolalar dunyosining qalbidagi orzularni qidirib topish, ularni qiziqtirgan narsalarga qiziqish, ular hayratlangan narsalardan hayratlanish zarur.

Bolalar olamni o'zicha idrok qiladi. Haqiqatan ham, biz uchun oddiy tuyulgan narsalar ular ko'z o'ngida fojiaviy ko'rinishi, kattalar uchun dardli va armonli tuyulgan, yechilmas masalar ular nazarida oddiy yechimini topish mumkin.

Asosiy qism. Iste'dodli bolalar shoiri Hamza Imonberdiyev, avvalo, shu jihatlarni noziklik bilan payqagani ularning olamini o'zigacha aks ettira olishi bilan ajralib turadi. Shoir asarlarining mavzular olami rang-barang, mazmuni keng, badiiy darajasi yuksak. H.Imonberdiyevning boshqa bolalar shoirlaridan farqi faylasuf tarbiyachiligidadir. U har bir katta-kichik asarida yosh kitobxon do'stlarini nimagadir o'rgatadi, ularni turmush tajribalaridan xulosa chiqarib yashashga chorlaydi. H.Imonberdiyev bolalar qalbini so'zlatishdan tashqari, o'ychan falsafiy, keng mushohadali she'rlarni ko'p yozadi. U kichkintoylarni olam mo'jizalari, hayotdagi ijtimoiy dolzarb muammolar siyosiy voqealar, insonning huquqlari, erk va ozodlik to'g'risidagi mulohazalashga undaydi. Kichkintoy bola tafakkurining shakllana borishi, ona-tabiatdagi jonivorlar, dov-daraxtlar, rang-barang olam, turfa gullar va qushlar, eng yaqin qadrdonlarini anglay borishlarida shoir she'rlari muhim rol o'ynaydi.

Shoir she'rlaridagi badiiy ifoda ko'proq aql prizmasidan o'tkaziladi. Bu kichkintoylarga murakkab munosabatlarni ifodalay olish san'ati hamdir. Muallif hamisha voqelikka bolalar tasavvuricha yondashadi, ularni talqin etishda esa yetuk tafakkurini ishga soladi. Xulosalashda tarbiyachilik mahoratini namoyon etadi. Shuningdek, H.Imonberdiyevning she'riy misralarida tizilgan so'zlar, bola qalbining nozik tuyg'ulari jilovini taranglashtirib, yangi kashfiyotlar sari yetaklaydi. Shoir she'rlarida bola qalbidagi mehr-muhabbat, sog'inch, armon, o'kinch, nafrat kabi his-tuyg'ular asosiy motiv bo'lib xizmat qiladi.

Aytaylik "Ona Orol" she'rida ulkan ijtimoiy- siyosiy g'oya bolalar tafakkuriga yaqin tushunchalar orqali talqin etilgan.

Bolajonim Amu, Sir
O'ynab qoldi qaydadir
Ko'p sog'indim ichikdim
Nega ular kechikdi [1,32].

She'rning dastlabki misralaridayoq bolalar ruhiga, didiga mos uslub ko'zga tashlanadi. Shoir hayot manbayi hisoblangan suv va uning qadrini, ayni paytda, O'zbekistonda yuzaga kelgan ekologik muhitning buzilishiga sabab bo'lgan fojealarni ona Orol nidosi orqali tasvirlash uchun kichkintoylar olamiga juda tanish yaqin bo'lgan manzarani chizadi. Amu bilan Sir go'yo o'z onasi bag'rini to'ldirib turgan sho'x, pahlavon qo'sh o'g'illar. Ammo ular "qaydadir o'ynab qolgan" shu sababli ona Orol mungli bo'zlaydi:

Bag'rim qoldi huvillab,
Sur shamollar guvillab,
Ko'zimga qum purkaydi,
Bir lahza jim tursaydi [1,32].

Ma'lumki, serquyosh o'lkamizning mo'tadilligini ta'minlovchi yakka-yu yagona dengiz bu – Orol edi. Unga Amudaryo va Sirdaryo muntazam o'z suvini quyib turgan. Faqat so'nggi 50-60 yil davomida bu tabiiy jarayonga darz ketdi. Sababi, paxta yakka hokimligi davrida bo'z va qo'riq yerlarni o'zlashtirilishi bu ikki daryo suvining keskin kamayib ketishi, natijada Orol dengizining quriy borib, voha ekalogik muhitiga ta'sir ko'rsatgani ma'lum.

Hodisaning salbiy ta'siri kattalar uchun yaqqol anglashilsa-da, bugungi yosh avlod bu fojeani darhol anglamasligi, u haqdagi tasavvuri yo'qligi tabiiy. Shu sababli shoir bunda barcha kichkintoylar qalbiga juda yaqin tuyg'u – ona va bola munosabati, ayniqsa, ularning ayriliqdagi iztirobi ko'rinishida tasvirlaydi. Natijada, ona Orol "o'z o'g'illari" ni sog'inib, qo'msab, bo'zlaydi, ammo umidini yo'qotmaydi:

Kuta-kuta toldim-ku,
E, voh, cho'kib qoldim-ku.
To'ldirsa deb bag'rimni,
Olishsa deb dardimni,
Umid bilan kutyapman,
Yoshim ichga yutyapman.
Bergan sutimni oqlab,
Kelib qoladi o'ynoqlab.

Shoir bundagi o'lkaning ekologik holati qayta tiklanishi, ijobiy o'zgarishlarga ishonch tuyg'usini shu tariqa yosh avlodga ham singdirishga erishadi. Shuningdek, yoshlarni suv qadriga yetish uni tejash orqali ona Orolga yordam berishi mumkinligi ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. "Bizning adabiyotimiz, – deb yozgan shoir Omon Matjon, - tarixi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Aruz xalqimizning tarixini yozsa, poyeziya esa uning qo'shig'idir [2,258].

Ta'bir joiz bo'lsa, H.Imonberdiyev she'rlari bolalar poeziyasida shunday tarixiy voqelikni ijod etuvchi qo'shiqlardir. Xalqda: osmonga tupursang yuzingga sachraydi; birovga chuqur qazisang, unga o'zing qulaysan, degan iboralar bor. Bu borada juda ko'p ertaklar, rivoyatlar yaratilgan. Hamza Imonberdiyevning

“O’q” she’ri shunday rivoyatlar ta’sirida yozilgan voqea yosh kitobxonlarga havola qilinadi. Kamondan bemavrid aytilgan o‘q hayotda bosar-tusarini bilmaydi, u o‘ta dahshatli, qasd olish ishtiyoqida hammaga dag‘-dag‘a qiladi. O’q hech kimni nazar-pisand qilmaydi, chor tomonni nobud qilaman, otaman, bag‘rini tilaman o‘ldiraman, deb oldinga intilaveradi. Go‘yo “emish kasbi zahar sochmoq ilonning” dek. Shoir “o‘q”ni va u ro‘baro‘ kelgan narsa va jonivorni jonlantiradi. Bolalar uchun mavhum tuyulgan hodisa tanish manzarada namoyon bo‘ladi.

Kelib qoldi ro‘baro‘,
Ona jayron yo‘lida.
Qochar jayron quyonday,
Tuyog‘idan chaqnar o‘t.
Jon o‘q tegma, uyimda
Kutar bolam, ko‘zi to‘rt!
O’q voz kechib nishondan
O’tib ketdi bir yondan [3,62].

Haqiqatan, g‘ayritabiiy, ishonish qiyin holat. Ammo adabiyotdagi ma’naviy va lafziy san’atlar yordamida ishonarli tasvirlanishi bizga ma’lum. Zotan “Intoq” san’ati “so‘zlatish”, “gapirtirish” ma’nosini anglatib, badiiy asarda hayvonlar yoki jonsiz narsalarni odamlarga o‘xshatib so‘zlatishni nazarda tutadi [3,64].

H.Imonberdiyev she’ridagi jayronning nolasi tufayli o‘qning uni chetlab o‘tishi ramziy ma’noga ega. Unda o‘q yo‘llagan shum niyatli kishining o‘zi shu o‘qdan ajal topishi, ya’ni “birovga choh qazisang, o‘zing yiqilasan”- degan mantiq badiiy teran ifodalangan. Shu sababli “O’q” o‘z yo‘lida bag‘ridagi inlarga polaponlar bor chinorni ham, “yuz mingta bitmas yarali” yerni ham chetlab o‘tadi. U “o‘qligidan ming nolib olislarga, yer dumaqloqligi bois, uchgan joyiga qaytib keladi: Xuddi shu payt shum kishi, Boshqa o‘qni joylardi, Alamli qayrab tishin, kimlarnidir poylardi, kelib sanchildi, o‘q shundoq orqasiga”.

She’rning xulosalanishi shu ma’noda ham kitobxonni quvontiradi. Ayniqsa, bolalar orasida kim haddidan oshsa, yon-atrofdagilar bilan hisoblashmay, o‘ziga ortiqcha bino qo‘ysa, yomon niyatli, xudbin bo‘lsa, jazosiz qolmaydi, degan tushuncha bor. O’qning o‘z “egasi”ni halok qilinishida odil hukm mavjud.

Ma’lumki, bolalar tabiatan atrof-olamga, jonivorlaru o‘simliklarga mehr-muhabbatli bo‘lishga moyil. Shundan bo‘lsa kerak, H.Imonberiyev “O’q” she’rida eng ongsizlarcha boshqarilayotgan, yo‘llangan joyiga borib tegishi muqarrar bo‘lgan jayronu chinorga rahm qilib, chetlab o‘tishini ishonarli tarzda, bola xarakteri, tasavvuriga yaqin aks ettiradi. Va unga singdirilgan g‘oya umum ahamiyatga egaligi shubhasiz. Shoirning “Tarbiyachi” she’rida bolalar uchun mavhum hisoblanuvchi insof, adolat, or-nomus, vijdon kabi tushunchalar mohiyati ochib berishga harakat qilingan. She’rdagi lirik qahramonning ijobiy fazilatlarini birov unga hadya qilmaydi, balki o‘zida shakllanadi, ya’ni o‘zini-o‘zi hamisha kuzatib, o‘zidagi noo‘rin xatti-harakatlarni tuzatib boradi. Bunda uning asosiy tarbiyachisi esa vijdoni bo‘lib, shu kuzatuvi uni har doim to‘g‘ri yo‘ldan yetaklaydi, adashsa to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi:

Tunov kuni futbolga
Ketayotsa tez shoshib,
Ko‘zi ojiz chol yo‘lda
Turgan ekan adashib.

Bolaning futbolga ishtiyoqi qanchalik zo‘r bo‘lmasin, u tarbiyachisi –vijdoniga qarshi bora olmaydi, boboning “qo‘llaridan olib, yo‘l ko‘rsatadi”.

Hamza Imonberdiyev bolalar ruhiy olami, qiziqishi va orzu-havaslarini teran anglaydi. Kichkintoylarning hayvonot olamiga mehri balandligi, jonivorlarni do‘st tutib, ularni parvarishlashi shoir she’rlarida ko‘p uchraydi. Shu ma’noda uning qator she’rlari qushlar, jonivorlar haqida. She’rlarning syujetliligi, obrazlarning ramziyligi esa ijtimoiy hayotdagi jiddiy muammolarni qamrab olgani, falsafiy mushohadalarga boyligidan dalolat beradi. Jumladan, “Baliqcha” she’rida bir qaraganda oddiy va zavqli tuyulgan baliq ovi jonivorlar olami nuqtayi nazaridan tasvir etiladi. Shoir bunda ham voqeaga, eng avvalo, bolalik olami jihatidan yondashadi:

Ko‘zda yosh jala-jala
Baliqcha qilar nola.
Oyimni qutqaringlar
Sazan tog‘a, karp xola.
Olib qochdi onamni
Manavi ko‘zi ola![3,60]

Taassufki, ilmoqdagi chuvalchang ham “ayb mendamas” deb arang boshini chayqaydi. Qolgan baliqlar esa “ko‘rgulik bu, chora yo‘q” deb ko‘zlarini lo‘q qilib turishsa, Ilonbaliq “yig‘ishtir nolishingni”, deya do‘q uradi. Baliq bola battar “charx urar”, ko‘zlarini yoshi “jala-jala” ligicha o‘ksinadi:

Bilmaganga olasiz,
Qanday tog‘a xolasiz?!

Chorasiz qolgan baliqcha, ko‘zini yumib, “hammani qorong‘ida qoldirish” gagina kuchi yetadi. Onasidan ayrilib qolgan baliqchaning o‘z yaqinlaridan ilinj kutib, dushmandan nafratlanayotgan alamzada jonivor timsoli inson olamiga ko‘chirilsa qanchalik qayg‘uli ekanligi his qilinadi. Ammo odamlar uchun shunchaki ermak, yoxud qiziqishga aylanayotgan bu hodisaning alamli tomonini bolalar ko‘proq his qilishadi. Ularda kattalardan ko‘ra ko‘proq baliqchaga achinish hissi ortib, ovlash emas, aksincha, ko‘paytirish ishtiyoqi paydo bo‘ladi. She’rdagi ramziylik ham aslida shu ma’noda dolzarb. Baliqcha – bu jamiyatning chorasiz, jafokash insonlari. Chuvalchang–ular payiga tushgan, tekinxo‘r, manfaatparast amaldorlarga laganbardorlik qiluvchi qo‘g‘irchoq kimsalardir. “Ilonbaliqlar” ham xalq boshida nomigagina rahbarlik qiluvchi, aslida har bir yaxshi-yomonni “ko‘rgulik” deya o‘z shaxsiy manfaatini xalq dardidan ustun qo‘yadigan tovlamachilar hisoblanadi. Zahmatkash xalq barchasiga ko‘z yumishdan o‘zga chora topolmaydi.

Hamza Imonberdiyev bolalar uchun yozgan she’rlarida bu kabi siyosiy dolzarb g‘oyalarni omuxtalashtirishning zaruriyligini his qila olgan shoirlardan. Shu sababli shoir she’rlarini kattalar ham sevib o‘qiydi.

Umuman, bolalar uchun yaratilgan asarlarda kimning nuqtayi nazari bosh o‘rinda turishi muammosi adabiyotshunoslikdagi bahsli munozaralardan hisoblanadi. Masalan, A.Kurilov bolalar adabiyotida voqelik bolalarga xos, faqat bolalar nuqtayi nazaridan badiiy tadqiq etilishini yoqlagan bo‘lsa [4,39] A.Pushkin bu fikrga qarshi o‘laroq, shunday mulohaza yuritadi: “Ehtimol, bolalar adabiyoti ham adabiyotligini, san’atning bir turi ekanligini eslash zarurdir. Shunga ko‘ra bolalar ijodkori ham kitobxonga barcha san’atkorlar kabi tasvir etilayotgan voqea-hodisaga bo‘lgan munosabati, g‘oyasi baho va xulosalarini singdirishi lozim. Binobarin, u o‘z g‘oyalarini bolalarning qiziqish va nuqtayi nazariga moslab talqin etishi shart” [5,14].

Darhaqiqat, bolalar adabiyotida voqelikni tasvirlash usuli turlicha. Binobarin, rus adabiyotining ulug‘ tanqidchisi V.G.Belinskiyning bu haqdagi fikrlari masala mohiyatini teranroq ifodalagani ayonlashadi. “Ijodkor (bolalar ijodkori - B.J.N.Sh.) – deb yozadi u, – hayotdagi voqelikni saralab, ikkita hodisani bitta nuqtada birlashtirib, bolalarga ma’lum xulosani aytadi”[4,39].

Demak, shoirlarning ijtimoiy masalalar haqidagi qarashlarning badiiy talqinida bolalik olamining, ular dunyoqarashining mavjudligi va uyg‘unligi she’rlarini bolalar adabiyoti doirasiga kirishini ta’minlaydi. Aytish mumkinki, H.Imonberdiyev she’rlaridagi uyg‘unlik, avvalo, shunda. Shuningdek, shoir she’rlarining aksariyatida ona va bola obrazi mavjud. Bu esa dastlab tabiiy hayot qonuniyatlaridan kelib chiqadi. Chunki hech bir xilqatni, jonzotlarni busiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu sababli onani bolasiz, bolani onasiz tasavvur qilish alamli va firoqlidir. Badiiy asar-da ham bu ifoda fojiaviy qismat belgisi bo‘lsa, ularning birgalikdagi hayoti faravonli hisoblanadi. Shoirning yuqorida tahlil etilgan “Ona Orol”, ”Baliqcha”, “O’q” she’rlari bu jihatdan fikrimizni asoslaydi. Bolalar adabiyotida qadrlanuvchi yana bir jihat bu asardagi tarbiyaviylik. Xususan, bolaning o‘z oilasidan o‘rgangan ko‘nikmasi, uning kelajagini belgilovchi buyuk omillardan biridir. Shunday xususiyat badiiy asarda xoh ramziy, xoh real tasvirlansin, u birdek e’tirofga sazovor. Hamza Imonberdiyevning “Sinov” she’ri shu jihatdan ibratli. Unda eng jasur, kuchli va bahaybatli ovchi qush burgutning o‘z bolasini parvozga o‘rgatishidagi matonati badiiy aks ettiriladi:

Hayajonda Ona burgut,
Iztirobda yonar burgut,
Ne uchundir ko‘p bezovta,
Quyi boqar ming azobda.
Chunki tog‘lar qoyasida,
Baland chinor soyasida,
Burgutchasi qanot qoqar,
Indan unga intiq boqar,
Sinov kutar ovunchog‘in...[4,35].

She’rning dastlabki misralarida Burgut, avvalo, o‘z jigarporasi uchun ham hayajon, ham bolasining ilk parvozi, sinovidan qo‘rquvga tushgan mushtipar ona timsolida gavdalanadi. Ammo u o‘z qismatini unutmaydigan burgut. Shunga ko‘ra, bir qarorga kelib shahd bilan pastga sho‘ng‘ib, uyasiga qo‘nadi. U endi onalik mehridan ko‘ra yuksaklikni orzu qilgan dovyurak qush ekanligini his qilib, olislarga ko‘zin tikib, entikib, bolasiga so‘zlay boshlaydi:

Qushcham senga qanot berdim,
Yurak berdim, sabot berdim,
Tuyding chog‘i, quchish zavqin
Ko‘k toqini quchish zavqin,
Mag‘rur tutgin xush qaddingni,
Sinab ko‘rgin omadingni

Ammo polaponi hali yosh, qanotlari nozik, u onasidan parvozni yerda sinashni o‘tinch bilan so‘raydi. Ona burgut esa qat’iy javob qaytaradi:

Kaltakesak ilinji bu!
Gapim tamom, qani bo‘lgin,
O’lsang, burgut bo‘lib o‘lgin!!!
Shunday deya bolasini,
Yolg‘iz jigarporasini,
Panjasida shart changallab,
Uchar-ketar u balandlab.
Bir nuqtaga aylanadi,
Birdam jangga shaylanadi,
Sug‘urganday shirin jonin,
Tashlavorar polaponin… [5,36]

Nihoyat ona Burgut qushchasini ajalqoya tomon sho‘ng‘ib ketishiga, yordamga zor nolasini eshitib, “simobdayin qalqib turadi”. Xayolidan har xil yomon fikrlar kechib, o‘zini pastga otadi, o‘z bolasidan ko‘zini uzmay, o‘qday uchadi. Ne ajabki, polapon ham shu choq o‘zini bir lahzada o‘nglab, qanotchasini silkib, yengil ucha boshlaydi, “ko‘k toqini qucha ketadi”...

Bu manzara o‘quvchi hayajonini oshirib, nihoyat quvontiradi. Aslida bolalar adabiyotining muhim xususiyati ham syujet voqealarining yaxshilik bilan tugashi orqali tarbiyaviylik kasb etishida. Burgut tabiatan yirtqich, ovchi qush. Uni kattalarning barchasi birdek xush ko‘ravermaydi. Ayniqsa, bolalarni undan yiroq bo‘lishiga da’vat etishadi. Shu tariqa burgutga nisbatan bir yoqlama salbiy munosabat paydo bo‘lgan. Shoir esa bu she’r orqali yangicha talqinga erishgan. Burgutning yuksaklikda parvoz qilishi, o‘z bolasini qaltis sinovlardan qo‘rqmay, onalik mehridan farzand kamolini ustun qo‘yishidagi qat’iyati, uni dovyurak qilib o‘stirishga o‘rgatishi baayni ibratliligidan obrazli badiiy ifodalangan. Va bu o‘z navbatida kitobxonda ham shu qushga nisbatan bo‘lakcha mehr uyg‘otadi.

Bundan tashqari, insonlardagi juda ko‘p qusurlar jur’at va qat’iyatning yetishmasligida. Ayniqsa, ota-onalar o‘z bolalarini suyushni tor ma’noda tushunib, ularning mustaqil bilimga va kasb-hunarga ega bo‘lishi, hayotda o‘z o‘rnini topishidagi qiyinchilik hamda sinovlar oldida bardoshli bo‘lishlariga xalaqit beradilar. Aniqrog‘I, ularning xudbinona sevgisi bolalar taqdiriga salbiy ta’sir etmay qolmaydi. Natijada, bunday bolalar nafaqat o‘z ota-onalari, balki jamiyat uchun ham mute shaxsga aylana boradilar. Ona burgutning shahdi shu ma’noda diqqatga sazovor.

Hamza Imonberdiyevning qushlar va hayvonlar obrazidan ramziy vosita sifatida foydalanishi bejiz emas. U jamiyatdagi salbiy hodisa va kamchiliklarni majoziy allegorik obrazlar orqali fosh etishda ham ularga ko‘p murojaat qiladi. Shoirning “Qora qarg‘a” she’ri, shu jihatdan, diqqatga sazovor. Unda hikoya qilinishicha, o‘rmon ahli jam bo‘lib, o‘zlariga shoh saylamoqchi bo‘ladilar. Shunda qora qarg‘a qag‘illab, cho‘chqa ustiga kelib qo‘ngach, u shoh etib saylanadi:

Cho‘chqa shoh der:–Tobakay,
Azobdan ko‘z yoshlaymiz,
Eski shohning akillash,
Odatini tashlaymiz.
Endi ishni xo‘rillash,
Cho‘milishidan boshlaymiz.
O’rgandilar na foyda,
U yaxshi kunlar qayda,
Faqat botqoqqa botdi
O’rmon ahli har joyda [5,36].

So‘ngra qush va hayvonlar yana boshqadan shoh saylash uchun yig‘iladilar. Qora qarg‘a bu safar eshakka qo‘ngach u shoh etib saylanadi. O’rmon ahli esa tuproqqa-ag‘anab, hangrashni o‘rganadilar. Yanagi safar o‘rmon ahli qo‘rqib, qora qarg‘aning ko‘zi ko‘rshapalakka tushmasin, deya bezovta bo‘ladilar. She’r syujetining qiziqarli va hajviyligi bolalarda e’tibor uyg‘otish tayin. Shuningdek, yosh kitobxon har bir

hayvonning xarakteri xususiyati bilan yaqindan tanishsa, o‘smirlar ularning ramziy ma’nolarini anglaydilar. Chunki bolalar va o‘smirlarga xalq ertaklaridan tanish bo‘lgan, hayvonlar obrazlarining majoziy allegorik xususiyatlari ham ma’lum. Shunga ko‘ra, H.Imonberdiyev she’r qahramonlarini o‘quvchilar saviyasiga mos satirik-allegorik obrazlar – qora qarg‘a, cho‘chqa, eshak, it, ko‘rshapalak kabilar orqali badiiy ifodalashga harakat qiladi. Bu hayvonlarning fe’l-atvori bolalar uchun tushunarli bo‘lishi bilan birga, salbiy personajligi ham aniq. Ular orqali shoir aytmoqchi g‘oyani teran anglash esa har bir kitobxon tafakkuriga bog‘liq, albatta.

H.Imonberdiyev ko‘pgina mamlakat va xalqlarning yaqin tarixidagi illatlarni hayvonlar olami misolida ochib berishga erishgan, deyish mumkin. Shoirning erk va ozodlik motividagi she’rlarida ham simvolik-ramziy ifodalar talaygina. Bunda bolalar uchun tanish manzara va obrazlardan foydalanishi ko‘proq kuzatiladi. Jumladan, uning beozor va sayroqiligi uchun qafasga bandi etilgan bedana obrazi ko‘zga tashlanadi. Qushcha o‘z “aybi”ni shunday bayon qiladi:

Shunchaki bir havasga,
Band etishdi qafasga,
Yorug‘likka chiqsaydim,
Loaqal bir nafasga,
Bit-bildiq, bit-bildiq.
Qirqdilar parvozimni,
Aybdor xush ovozimni,
Bir bechora qushchani,
Xo‘rlash shuncha mumkinmi? [6,76]

Shoirning “Kenguru nidosi” she’rida ham hayvonot bog‘idagi kenguru qismati, u qarib qolganida uzoqlarda qolib ketgan bolasini yanada ko‘proq sog‘ingani, shu katakda umrini o‘tkazganiga qaramay, endi yuragi chidamay, nola-yu afg‘on qilgani hikoya qilingan. Hatto, jonivorning ko‘zidan unsiz yosh dumalab: “ Yolvoraman, jon egam, Tezroq qafasingni och!” deyishida hayotiylik mavjud.

Xulosa. Bu kabi she’rlardagi mantiqiy fikr erksizlikning naqadar fojeali qismatligi yaqqol anglashiladi. E’tibor berilsa, shoir tanlagan voqea va obrazlar tizimi ham o‘ziga xos. Qolaversa, bolalarga hayvonot bog‘idagi jonivorlar, jumladan, kenguruning vatani Avstraliya ekanligi, u dunyodagi eng tez chopar hayvonligi yaxshi ma’lum. Shuningdek, bedananing keng o‘tloqlar-u dala qo‘ynida charx urib uchishi, o‘z tabiati, erkinlikda xushovoz sayrashi tanish manzara. Bu jonivorlarning endi qafasdagi, tutqunlikdagi holatini nafaqat kattalar, balki bolalar va o‘smirlar ham tasavvur qila oladi.

Muhimi esa, shu vaqtga qadar adabiyotimiz, jumladan, bolalar she’riyatida asosan jamiyatning, demakki bolalarning ham tabiatga, hayvonotu nabototga munosabati ifodalanib kelingan. Istiqlol davri bolalar adabiyotida endi bu munosabatning aksi, ya’ni tabiatning insoniyatga murojaati, aytar so‘zi ko‘paydi. Shoirlarimiz aynan turfa o‘simliklar-u dov-daraxtlar, daryolar-u dengizlar, hayvonlar-u qushlar obrazini gavdalantirish, ular olamini teran tadqiq etish orqali tabiat qonuniyatlarini ifodalamoqdalar. Butun dunyoda yuzaga kelayotgan ekologik muammolar shuni taqozo ham etayotir. Binobarin, H.Imonberdiyevning ijodida bu talqin eng ko‘p kuzatiladi, deyish mumkin. Shoirning ramziy obrazlari ham aslida shu motivni tashiydi.

ADABIYOTLAR:

1. Imonberdiyev H. G‘aroyibkent hangomalari. – T .: ―Yosh gvardiya‖, 1992.
2. Imonberdiyev H. Adolat kaliti. Gulxan, 1992, 2-son, 16-bet.
3. Imonberdiyev H. Adolat kaliti. Gulxan, 1992, 2-son, 16-bet.
4. Suxomminskiy V. Tarbiya haqida. – T .: Yosh gvardiya‖; 1977.
5. Imonberdiyev H. Shirin aldov. Gulxan. 1997, 11-son, 26-bet.
6. Bionika olami: tabiatdan «nusxa olish» mumkinmi? https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/biologiya/l-r-16/
7. Yashash uchun kurash: asosiy vosita moslashuvchanlikmi? https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/biologiya/yashash-uchun-kurash-asosij-vosita-moslashu/

УЎК 392.5(575.146)

МАРОСИМ ҚЎШИҚЛАРИДА БУХОРО НИКОҲ ТЎЙИ УДУМЛАРИНИНГ БАДИИЙ ИФОДАСИ

Шербекова Гавҳар Яхшибаевна,
Бухоро муҳандислик-технология институти
академик лицейи ўқитувчиси
Gavharyaxshibayevna1984@gmail.com

Аннотация. *Мазкур мақолада тўйдан олдин келин борадиган хонадонни суриштириш, бориб кўриш, танишиш удумида аёллар томонидан куёв хонадонининг мақталиши, таъриф-тавсифланиши, Бухорода "қалин" ва "сут пули" олиш-бериш удуми "ёр-ёр", "келин салом" қўшиқлари мисолида таҳлил қилинган.*

Тўй юборишда йўқолиб бораётган "ўтин бериш" удумининг тарихий-ҳаётий асослари ҳақида маълумот берувчи халқ маросим қўшиқлари изоҳланилган.

Айрим ҳудудлардан фарқли равишда келиннинг уйида чимилдиқ тутишдан олдин "Рахтзанон" – "Рахт урди" удуми бажарилиши, рахт теришга ёшроқ, чаққон, бир никоҳли жувон-қизлар жалб қилиниши, "рахт", "бистар" каби сўзларнинг қўлланилиши, йигитларга куёвлик чопонининг кийинтирилиши, ("Жомапўшон") удумларининг бадиий ифодаси Бухоро никоҳ тўйи қўшиқлари мисолида далилланган.

Калит сўзлар: *никоҳ тўйи, Бухоро тўй қўшиқлари, уй кўрди, қалин, сут пули, тўй юбориш, ўтин бериш, тўн кийдириш, фотиха, маросим, удум.*

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ БУХАРСКИХ СВАДЕБНЫХ ОБЫЧАЕВ В ОБРЯДОВЫХ ПЕСНЯХ

Аннотация. *В данной статье рассмотрены восхваление и описание дома жениха женщинами во время обряда расспроса, посещения и знакомства с домом, куда идёт невеста перед свадьбой, обряда получения и вручения «калыма» и «молочных денег» в Бухаре анализируется на примере исполненных песен «ёр-ёр», «келин салам».*

Объясняются народные обрядовые песни, дающие информацию об исторических и жизненных основах обряда «дачи дров», исчезающего при свадебном обряде.

В отличие от некоторых регионов, обряд «Рахтзанон» — «Рахт урди» совершается в доме невесты, к сбору рахта привлекаются более молодые, ловкие девушки, используются такие слова, как «рахт», «бистар», молодые мужчины одевают в одежды жениха. О художественной выразительности удумов «Джомапошон» свидетельствует пример бухарских свадебных песен.

Ключевые слова: *свадьба, бухарские свадебные песни, осмотр дома, калым, молочные деньги, посылка на свадьбу, раздача дров, одевание наряда, благословение, обряд, обычай.*

ARTISTIC EXPRESSION OF BUKHARA WEDDING IN CEREMONIAL SONGS

Abstract. *In this article, the praise and description of the bridegroom's house by women during the ceremony of inquiry, visit, and acquaintance with the house where the bride goes before the wedding, the ceremony of receiving and giving "thick" and "milk money" in Bukhara is analyzed on the example of the songs "yor-yor", "kelin salam" done.*

The folk ritual songs that provide information about the historical and vital foundations of the disappearing "firewood" ceremony at the wedding ceremony are explained.

In contrast to some regions, the ceremony "Rakhtzanon" - "Rakht urdi" is performed in the bride's house, younger, agile, monogamous young women are involved in picking rakht, words such as "rakht", "bistar" are used, young men are dressed in groom's robes, The artistic expression of "Jomapo'shon" udums is evidenced by the example of Bukhara wedding songs.

Key words: *wedding, Bukhara wedding songs, house saw, thick, milk money, sending a wedding, giving firewood, dressing, blessing, ceremony, tradition.*

Кириш. Бухоро никоҳ тўйи удумларга бой. Унга алоқадор удумларнинг аксарияти никоҳ тўйи маросими жараёнида айтиладиган қўшиқларда ҳам ўз бадиий тажассумини топганлиги билан эътиборни тортади.

Асосий қисм. Тўйдан олдин келин борадиган хонадонни суриштириш, бориб кўриш, танишиш удуми ҳалигача сақланиб келаётир. Одатда, кекса аёллар иштирокида ташкил қилинадиган бу удум халқ орасида "Уй кўрди" деб номланади. Унга ишоралар қуйидаги ёр-ёрда ифода этилган:

Кекса-кекса хотинлар
Бориб келинг, ёр-ёр.
Тўй бўлажак ҳовлини
Кўриб келинг, ёр-ёр.
Домотимиз онасини
Сўраб келинг, ёр-ёр [1, 61].

Куёвнинг уйини кўришга келган аёлларга куёв хонадони, одатда мақталган, таъриф-тавсифланган:

Келин тушган уйнинг
Нақши бордир, ёр-ёр.
Бизга келган келиннинг
Бахти бордир, ёр-ёр [2, 85].

Куёвнинг уйини, хонадон аҳлини кўриб келган аёллар эса қиз томонга шу мақтов ва таъриф-тавсифларни етказишган:

Келин тушган уйнинг
Свети бор, ёр-ёр.
Ҳамма халқнинг дунёдан
Умиди бор, ёр-ёр.
Ёки:
Ҳай-ҳай ўлан, ҳай ўлан,
Ҳай саники, ёр-ёр.
Тўрт бурчаги кумушдан
Уй саники, ёр-ёр [3, 74].

Ёр-ёрларда "уй кўрди" натижаларини баъзан қизнинг дугонаси сўраб, билиб бериши ифода этилган:

Тоғда кийик сайр этиб,
Сойга тушди, ёр-ёр.
Манинг севган дугонам
Қайга тушди, ёр-ёр [3,71].

Уй кўриб келган аёлнинг келин дугонаси саволига жавоби:

"Қайга тушди?" – деманглар,
Ишқ боғида, ёр-ёр.
Энди ўрин қолмайди
Дил доғига, ёр-ёр [3, 71].

Агар "уй кўрдичи"ларга куёв томон маъқул келмаса, бу ҳам рўй-рост айтилган:

Жерси кўйлак егнида
Гули майда, ёр-ёр.
Танимаймиз куёвни
Уйи қайда, ёр-ёр [3, 76].

Турмушга узатилаётган қиз учун куёв томонга маълум миқдорда "қалин" белгиланган. Айрим жойларда қалиндан ташқари, "сут пули" ҳам олинади. Бу воқелик "ёр-ёр", "келин салом" қўшиқларида билдириб ўтилган.

Никоҳ тўйи билан алоқадор айрим қўшиқларида "тўй харжи" учун "тўйлик" беришда олийҳиммат бўлишга чорланган.

Бу воқелик, хусусан, қизни куёвникига узатиш жараёнида куйланадиган "ёр-ёр" қўшиқларида ҳам таъкидланган:

Боққа қўчқор боғламоқ,
Одат экан, ёр-ёр.
Қалин бериб, қиз олмоқ,
Давлат экан, ёр-ёр [3, 68].

Кўриняптики, қўшиқда “қалин бериб, қиз олмоқ” одат, давлат экани алоҳида таъкидланмоқда. Бунинг учун йигит томон махсус тайёргарлик кўрган. Мол-ҳол боқиб, пул йиққан, чунки қалин нархи ё пул, ё мол билан белгиланган. Қалин белгилаш жараёни “қалин бичмоқ” деб юритилади. “Қалин бичиш”да совчилар масъул ҳисобланган. Айрим ёр-ёрларда қалиннинг миқдори, унинг қиммат нархланишига ишора кузатилади:

Узоқ-узоқ йўл юриб
Сурилманглар, ёр-ёр.
Ўн беш тилло пул бериб
Керилманглар, ёр-ёр [1, 66].

Ушбу тўртлик бандда “Ўн беш тилло пул” миқдоридаги қалин пулини “бердим” деб айтишга ва керилишга арзимаслиги шунчаки айтилмаяпти. Бунинг сабаби, шу бандниг мантиқий давоми сифатида келтирилган қуйидаги бандда равшанлаштирилган. Келин томон, одатда, қизнинг “қалин”и учун олган пулини унинг сепини қилиш, кам-кўстини ҳозирлаш учун ишлатади. Шунинг учун қизни олиб келган янгалар тилидан айтиладиган ёр-ёрларда олинган тилло пули бўлса-да, харжлаб келингани ҳақида гапирилади:

Ўн беш тилло қалинни
Харжлаб келдим, ёр-ёр.
Тўлган ойдек синглимни
Бошлаб келдим, ёр-ёр [1, 66].

6. *История и культура Средней Азии в эпоху Амира Тимура: сборник научных статей. - Ред. Ахмедов Б.А., Мукминова Р.Г. - Издательство "Караван", 2014.*
7. *Метсопский Ф. "Теймурленкин тарихи. История Тимур-Ланка". - Издательство "Гумилевское наследие", 2008.*
8. *Пардаева Дилфуза Раимовна. (2023). Художественная интерпретация образа амира темура в русскоязычной литературе. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers, 11(6), 548–555. https://doi.org/10.5281/zenodo.8041695*
9. *"Уложение Темура". - Издательство "Исторические издания", 2012.*

UDC 82-1/-9

HISTORICAL DEVELOPMENT OF FAIRY TALES

Jalilova Lola Jalilovna,
PhD, associate professor, Bukhara State University
Jurayeva Dilorom Rakhmonovna,
1st year Master student of Turkistan New Innovational University

Abstract. *Fairy tales are important tools in formulating children's social, mental development and emotional growth. Fairy tales have forged unbreakable bonds between parents and children from generation to generation, influencing their relationship and providing a delightful way for them to spend quality time together. The youngster develops his worldview, moral principles, positive role models, and readiness for a life with the help of fairy tales. The article highlights the fairy tale's historical development and important influence on a child's growth. Also, characteristics of traditional and modern fairy tales are discussed focusing on the variations between its conventional and modern forms.*

Keywords: *child, fairy tale, tradition, traditional, historical, modernity, character.*

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СКАЗКИ

Аннотация. *Сказки являются важными инструментами для формулирования социального, психического развития детей и эмоционального роста. Сказки установили неразрывные связи между родителями и детьми от поколения до поколения, влияя на их отношения и предоставив им восхитительный способ провести качественное время вместе. Младший развивает своё мировоззрение, моральные принципы, позитивные образцы для подражания и готовность к жизни с помощью сказок. В статье подчёркивается историческое развитие сказки и важное влияние на рост ребёнка. Кроме того, обсуждаются характеристики традиционных и современных сказок, сосредоточенные на различиях между его обычными и современными формами.*

Ключевые слова: *ребёнок, сказка, традиция, традиционная, историческая, современность, характер;*

ERTAKLARNING TARIXIY RIVOJLANISHI

Annotatsiya. *Ertaklar bolalarning ijtimoiy, aqliy rivojlanishi va hissiy o'sishini shakllantirish uchun muhim vositadir. Ertaklar avlodlararo munosbabatlarni mustahkamlab ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarga ijobiy ta'sir ko`rsatadi va bolalarning dunyoqarashi, axloqi, tarbiyasi ertaklar vositasida rivojlantiriladi. Ushbu maqolada ertakning tarixiy taraqqiyoti va bolalar tarbiyasidagi ahamiyati yoritilgan. Bundan tashqari, an'anaviy va zamonaviy ertaklar o'rtasidagi farqlar ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *bola, ertak, an'ana, an'anaviy, tarixiy, zamonaviylik, xarakter.*

Introduction. For centuries, fairy tales have been a staple of children's literature, and as a didactic tool as well as a kind of entertainment, they are still regarded as the best books for young readers. It is widely accepted that the oral folk tale served as the fairy tale's processor, primarily transmitting dominant ideologies and creating discourse that gave rise to subversive ideas and ideologies. These roles were later taken up by the literary fairy tale.

Fairy tales are not born as the literary genre we all know today, neither have they always been called "fairy tales" during the different phases of their development. Similar plots and stories "begin[s] to appear in writing between 1250 and 2000 years before the birth of Christ". They were normally told and spread orally, in antiquity recorded in writing just by chance or embedded in other narratives. They continued to be told until the modern era, so that we can say that fairy tales - in their motifs and themes - are as old as the human practice of telling stories. However, as a set of literary conventions perfectly recognizable by the reader, their origin can be traced to Western Europe during the last few centuries: what was just a narrative commonly spread orally became then, through some phases, a literary genre destined to have a great success among its public [8;195].

The origins of the fairy tale as a genre are linked to the phenomenon of the wonder or oral folk tale, which is thought to be the fairy tale's forerunner. Due to the difficulty in distinguishing between the two, the fairy tale is sometimes confused with or regarded as indiscriminate of the folk tale. Nevertheless, scholars

commonly differentiate between wonder folk tales and literary fairy tales, and usually consider them separate entities in a symbiotic relationship [4;25].

A particular type of folktale known as a "fairy tale" is one that is typically told orally to all members of the community by storytellers. Their primary characteristic is that they accept miraculous or magnificent occurrences as genuine aspects of the human experience. Fairy tales typically depict amazing and strange escapades and occurrences, in which a hero embarks on a mission or quest after experiencing a shift in his circumstances and leaves his surroundings to make a difficult journey to foreign worlds. The protagonist typically overcomes a number of obstacles and has amazing encounters along the way that either briefly distract him from the goal of the voyage or grant him magical assistance and the knowledge he needs to pass the tests.

Research methods. Since the form is a part of a larger body of research on the history of oral storytelling, the origins of oral folk tales are unclear. Nonetheless, it is widely believed that it originated from a multitude of stories that have been passed down through the ages in various communities, told to both adults and children to address how society is perceived and its problems. According to Zipes, folktales originated as oral narratives that people, both literate and illiterate, cultivated to express how they saw and understood nature, their social order, and their desire to fulfill their needs and desires [4;29].

Each community chose the right changes to the stories as they were passed down through the ages to properly reflect the needs and norms of the society. Zipes believes that the supernatural and pagan divinities that were prevalent in these antecedents of oral folk tales were the ancestors of the creatures found in fairy tales. The motif of a "miraculous transformation" set the oral wonder tale apart from other simple narrative forms of the period [4;28].

The literary fairy tale was first widely used in Italian literature during the 14th century by authors Giovanni Francesco Straparola and Giambattista Basile, who presented a number of fairy tales using frame narratives influenced by Boccaccio and Chaucer. According to Zipes, the works of Straparola and Basile are the source of the fairy tale genre that will be defined and institutionalized in the 17th century. Their works also established the precedent for using fairy tales to influence the process of civilisation.

The translations of The Arabian Nights, a compilation of oral folktales related to Arab, Persian, and Indian cultures that were recorded sometime between the ninth and the fourteenth centuries, are another significant source. According to the narrative framework, Sheherazade is a cruel ruler who kills a woman every night for three years until she confronts him at the age of ten and tells him a fantastic story every night to prevent her from dying. The Sheherazade stories are part of the story structure and were written by different storytellers with different themes and styles over time. Antoine Galland, an orientalist scholar, translated the collection for the first time in France at the beginning of the eighteenth century.

The Arabian Nights proved to be a major inspiration for the creation of collections of literary fairy tales during the period of French and German Romanticism, which romanticized the ethereal cultures of the East and found inspiration in orientalism.

Results and discussion. "Le Magasin des enfants", a didactic collection of children's fairy tales by Jeanne-Marie Leprince de Beaumont, published in 1743, is credited with starting the literary fairy tale genre that is written only for children. Through literary fairy tales, children are being brought closer to civilization. According to Zipes, the term "fairy tale" was first used in 1697 by Madame d'Aulnoy, a French writer of fairy tales. It was later adopted as a way to denote the narrative power of women, since the fairies and the writers/tellers of these texts control the fates of all the characters. The phrase "fairy tale" was accepted as a standard translation and used in English during the 1750s.

However, until the 1820s, fairy tales meant for children came under intense criticism because they "were not considered to be 'healthy' for the development of young people's 15 minds" [1;12]. The Brothers Grimm made several changes to the fairy tales they collected, making them "cleans[ed] their narratives of erotic and bawdy passages and more appropriate for children than they had done in the beginning" [1;12].

By the end of the Nineteenth century, in most Western countries fairy tales were a fully-fledged, socially institutionalized literary genre meant for a young audience.62 Their main aim was to educate and to that purpose they toned down the traditional stories in order to abate any negative influences such gruesome plots might have on children. Moreover, fairy tales began to be successfully adapted for the theatre and they were used in schools as didactic material. Yet, especially as far as experimental and performative adaptations were concerned, fairy tales were enjoyed by adults as well. In general printed tales, very often accompanied by illustrations, acquired more legitimacy than the oral tradition.

The growing perception of children as a distinct age group is what gave rise to the idea of the fairy tale as a genre of children's bedtime stories: Children were gradually seen as a distinct age group with unique

characteristics throughout the Middle Ages, and it was thought to be crucial to further the cause of civilité with explicit and implicit pedagogical rules in order to have young people's manners and mores reflect the social power, prestige, and hierarchy of the ruling classes. As a result, it became crucial to use fairy tales to socialize children and to help them internalize particular values and gender roles.

Fairy tales proved to be an effective medium for transmitting the process of civilisation to the next generation of society's members, since children were viewed as more vulnerable, "a special kind of creature, almost a different race, rather than as normal, if immature, members of a particular family, and of the human family at large" [2;50]. In addition to being entertaining, they contributed to the formation and internalization of dominant social values and viewpoints, particularly those related to gender roles and stereotypes. According to Tolkien, the value of the fairy tale has been reduced as a result of its rejection as a worthwhile genre of adult literature.

Because they are works of pure imagination, contemporary fairy tales are referred to as "modern fantasy". They occasionally feature an unreal setting along with humans or other creatures. Children's fantasy literature that is at its best exhibits two qualities [3;21]: firstly, it presents a vividly imagined fantasy world. Even in fantastical worlds, there must be logic and typically a lesson or moral to be learned. Symbolism is often used to illustrate themes.

As may be noted from the history of the genre, the fairy tale provided a useful tool for discussion about the civilising process. The waves of subversive fairy tale writing never abated and attempts at furthering the discourse on the issues of the civilising processes present in the canonised fairy tales appear, for example, in the works of authors such as Oscar Wilde, George MacDonald, and Lyman Frank Baum.

Three factors are manipulated by the author to create fantasy.

1. Setting: The land of Narnia in Clive Staples Lewis' The Chronicles of Narnia is an example of a setting that is both of this world and not easily accessible. The setting could also be absolutely amazing, like in John Ronald Reuel Tolkien's The Hobbit.

2. Time: Setting and time have a close relationship. The plot might take place in the present day, the protagonists could travel in the past, or both. When the characters return to reality, they are frequently taken aback by how little time has passed. Lewis Carroll's Alice in Wonderland serves as a classic example.

3. Characters: characters can be personified animals, like in Hans Christian Andersen's The Ugly Duckling, or they can be humanized creatures, like the hobbits in Tolkien's The Hobbit. Humanized characters include Alice in Wonderland.

Vladimir Propp outlined basic functions that constitute the formation of the model narrative in a fairy tale. Function is understood as an act of character, defined from the point of view of its significance for the course of the action. Functions of characters serve as stable, constant elements in a tale, independent of how and by whom they are fulfilled.

1. The protagonist is confronted with an interdiction or prohibition that he or she violates in some way. Often the protagonist commits an error or seeks to improve his Justyna Sala-Suszyńska 196 Prima Educatione or her social status by embarking on a journey. One way or another, the protagonist is commissioned – sent on a mission.

2. Departure or banishment of the protagonist, who is either given a task or assumes a task related to the interdiction and prohibition, or to the desire for improvement and self-transformation. The protagonist is assigned a task, and the task is a sign. That is, his or her character will be marked by the task that is his or her sign.

3. The protagonist then encounters: (a) the villain; (b) a mysterious individual or creature, who gives the protagonist gifts; (c) three different animals or creatures who are helped by the protagonist and promise to repay him or her; or (d) three different animals or creatures who offer gifts to help the protagonist, who is in trouble. The gifts are often magical agents, which bring about miraculous change.

4. The endowed protagonist is tested and moves on to battle and conquer the villain or inimical forces.

5. The peripety or sudden fall in the protagonist's fortunes is generally only a temporary setback. A wonder or miracle is needed to reverse the wheel of fortune. Sometimes a fairy, hermit, wise man or woman, or magically endowed human or animal will intervene to benefit the protagonist.

6. The protagonist makes use of gifts (and this includes the magical agents and cunning) to achieve his or her goal. The result is (a) three battles with the villain; (b) three impossible tasks that are nevertheless made possible; and/or (c) the breaking of a magic spell.

7. The villain is punished or the inimical forces are vanquished.

8. The success of the protagonist usually leads to (a) marriage; (b) the acquisition of money; (c) survival and wisdom; or (d) any combination of the first three. Typically, fairy tales also have the "happy

ending" that most people are familiar with today. They triumph over death. The tale begins with "once upon a time" or "once there was" and never really ends when it ends. The ending is actually the true beginning. [8;195]

Modern fantasy is braided into a number of subgroups, based on themes [2:144-156].

Stories of pure imagination: these can be picture books or longer, more intricate narratives. The adventures of the character take place in completely made-up settings, even though they start and end on realistic notes. Tales of talking beasts are not new; they date back a long way. Both old fables and numerous modern fantasy tales contain them. Modern talking-beast stories depict animals as being close to people and frequently residing in human-like environments. Kenneth Grahame's The Wind in the Willows is a contemporary story about a talking beast.

Personified toys: The first stories about toys that came to life were written by Hans Christian Andersen. His story, The Steadfast Tin Soldier, is a well-known illustration of a toy that performs heroic feats.

Humorous fantasy: A lot of fantasy has a humorous element. Younger kids enjoy humor that is more open-minded and slapstick. In those stories, the situations happen frequently and easily, and there is no magical explanation for them. The dynamics develop very smoothly. All of the heroic actions, metamorphoses, extraordinarily long-distance teleportations, and other frequent breaking of natural laws found in fairy tales are nothing more than miracles that call for an explanation from the audience.

The genre of fairy tales is ever changing and the characteristics differ from one story to the next. Although these unique distinctions make it challenging to confine fairy tales to any particular demographic, they attribute to the power that fairy tales maintain. The similarities between the stories are what truly classify them as one within this vast and continually evolving genre: The evolution of the fairy tale as a literary genre is marked by dialectical appropriation that set the cultural conditions for its institutionalization and its expansion as a mass-mediated form through radio, film, and television. Fairy tales were first told by gifted tellers and were based on rituals intended to endow with meaning the daily lives of members of a tribe [7; 333-334].

The genre of fairy-tale expands to include so many memorable stories and so many beloved characters. Fairy tales across time have had the unique ability to teach their listeners about life, expectation, and the importance of various virtues that pertain to the time and society in which they are told. The stories find a way to draw innate urges, darkness, and messed-up perceptions from the readers in a compelling way that demonstrates the hidden and sometimes disturbing feelings within all. Fairy tales break the boundaries of age, culture, and time. The everlasting power of the genre explains its exceptional ability to enter into the hearts of all.

As this quote asserts, the genre of fairy tale has evolved in unbelievable ways to better reflect the mediums used in the times of their telling. Beginning as an oral tradition and transforming into a variety of films and theatre performances, the genre lends itself to capture the attention of so many individuals and societies, encouraging them to recognize the moral claims within.

Conclusion. Children's literature aids in a young child's understanding of the world and what it means to be human. Children can learn valuable lessons through the genre of fairy tales. Even though fairy tales contain some unrealistic themes, they generally have a positive impact and provide essential components for children's development. For the foreseeable future, the traditional fairy tales will likely continue to hold the same significance for people as they did when they first came out. It is possible to refer to some of the contemporary versions as "fairy tales" but that does not make them unneeded or bad. These modifications are appropriate in a culture that values entertainment. For difference to truly emerge, identity must pass through it. Therefore, even though these tales might mimic fairy tales but never fully replace them, they might also be the beginning of something else that will eventually be valued and appreciated by people all over the world.

REFERENCES:

1. Bell E. (2012). Classic vs. Modern: Fairy Tales. Retrieved from: http://artsatmichigan.umich.edu/ink/2012/12/09/classic-vs-modern-fairy-tales/ (access: 27.05.2021). Benediktsdóttir H. (2014). The Impact of Fairy Tales. An Exploration of the Relationships of Parents and Children in Selected Fairy Tales. Retrieved from: https://skemman.is/bitstream/1946/17819/1/Baessay.Helga.Benediktsdottir.pdf/ (access: 23.05.2021).

2. Grenby M.O. (2008). Children's Literature. Edinburgh: Edinburgh University Press.

3. Nikolajeva M. (2003). Fairy tale and Fantasy: From archaic to Postmodern. Marvels & Tales, 17(1), pp. 138–156. DOI: https://doi.org/10.1353/mat.2003.0014

4. Zipes J. (2004). Speaking Out. Storytelling and Creative Drama for Children. New York – London: Routledge.

5. Zipes J. (2006). Fairy Tales and the Art of Subversion. The Classical Genre for Children and the Process of Civilization. new york – london: Routledge.

6. Zipes J. (2007). When Dreams Came True. Classical Fairy Tales and Their Tradition. New York – London: Routledge.

7. Tatar, Maria, ed. The Classic Fairy Tales. New York: Norton & Company, 1999. Print.

8. Justyna sala-suszyńska. Fairy tales – yesterday and today. Maria Curie-skłodowska university in lublin, Poland ORCID: https://orcid.org/0000-0002-3408-4324, 2021

UO‘K 82

G‘AFUR G‘ULOMNING “SHUM BOLA” ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA MILLIYLIKNING IFODALANISHI

Safarova Zilola Tolibovna,
Buxoro davlat universiteti
Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasi dotsenti, f.f.f.d
Berdiyeva Sitora Utkerovna,
Buxoro davlat universiteti
Ingliz adabiyotshunosligi yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Milliy madaniyat uzoq davr mobaynida shakllanadigan urf-odat hamda an’analar asosida asrlar davomida avloddan-avlodga yetib keladi. Har bir xalqning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari uning madaniyatida o‘z aksini topadi. Badiiy asar tarjimasi haqida gap ketar ekan, bir millatning madaniyatini boshqa millat kitobxonlariga yetkazish tarjimondan yuksak mahorat talab qiladi. Xususan, bunday hollarda tarjimon asliyatdagi madaniyatni aks ettiruvchi jihatlarni tarjima asarida to‘liq yetkaza olishi lozim. Ushbu maqolada G‘afur G‘ulom qalamiga mansub “Shum bola” asarining ingliz tilidagi tarjimasida milliy xususiyatlarning tarjimon tomonidan qanday berilganligi tahlil qilingan. Tarjima jarayonida tarjimondan bir millatga doir xususiyatlarni boshqa tilda berishda katta mahorat va so‘z boyligi talab qilinadi. Bundan tashqari, tarjima qilishda asl ma’noni saqlagan holda asarni qisqartmalarsiz tarjima qilish ham tarjima jarayonining muammolardan biridir.*

Kalit so’zlar: *tarjima asarlar, badiiy tarjima, tarjimada lingvo-kulturologik xususiyatlar, tarjimon, tarjima turlari, muallif, realia, milliy-mental xususiyatlar.*

ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИНАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ В АНГЛИЙСКОМ ПЕРЕВОДЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ГАФУРА ГУЛЯМА “ОЗОРНИК”

Аннотация*. Национальная культура передаётся из поколения в поколение на основе обычаев и традиций, формировавшихся веками. Уникальные особенности каждой нации отражены в её культуре. Перевод культуры нации читателям другой нации требует от переводчика высокого уровня мастерства. В частности, в таких случаях переводчик должен суметь в полной мере передать в переводческой работе те аспекты, которые отражают культуру оригинала. В данной статье анализируется, как даётся перевод произведения Гафура Гулама “Озорник” на английский язык переводчиком. В процессе перевода переводчику необходимы большое мастерство и словарный запас, чтобы передать особенности одной нации на другом языке. Кроме того, перевод произведения без сокращений с сохранением исходного смысла является одной из проблем переводческого процесса.*

Ключевые слова: *переводные произведения, художественный перевод, лингвокультурологические особенности перевода, переводчик, виды перевода, автор, реалии, национально-ментальные особенности.*

EXPRESSION OF NATIONALITY IN THE ENGLISH TRANSLATION “NAUGHTY BOY” BY GAFUR GULOM

Abstract*. National culture is passed down from generation to generation based on customs and traditions that have been formed over centuries. The unique characteristics of each nation are reflected in its culture. Translating the culture of a nation to readers of another nation requires a high level of skill from the translator. In particular, in such cases, the translator must be able to fully convey in the translation work those aspects that reflect the culture of the original. This article analyzes how the national characteristics are interpreted by the translator in the English translation of the work “Shum bola” by Gafur Gulom. In the process of translation, the translator is required to possess a great proficiency and linguistic flexibility in expressing national characteristics in another language. Furthermore, translating a work without losing its original meaning is also one of the challenges of the translation process.*

Key words: *translated works, artistic translation, linguistic and cultural features in translation, translator, types of translation, author, realia, national-mental characteristics.*

Kirish. Tarjima jarayonida milliy koloritni saqlash va uni boshqa tilda mukammal darajaga yetkazish uchun tarjimon o‘sha millat bilan yaqindan tanish bo‘lishi, uning nozik qirralarini yaqindan his qila olishi lozim bo‘ladi. Tarjimon ikki til va ikki millat orasidagi bamisoli ko’prikdir, uning tarjima qilish qobiliyati orqali xalqning, millatning eng nozik qirralari aks ettiriladi. Ayniqsa, tarjima qilinayotgan asarning milliylik kasb etuvchi o‘ziga xos so‘zlarini boshqa tilga o‘girishda tarjimondan alohida yondashuv talab qilinadi. Bu borada olim Qudrat Musayev shunday jumlalarni keltiradi: *“Har qanday barkamol tarjima ilmiy umumlashtirishga ehtiyoj sezgani holda, san’atkorning asliyatga aloqador barcha manbalarni to‘la-to‘kis ilmiy idrok etishini hamda ularga asoslangan jami omillarni o‘z tilida ongli ravishda bekamu-ko‘st aks ettirishini nazarda tutadi. Bu hol tarjimon zimmasiga badiiy yodgorlikning asosiy mazmun chizig‘ini tasvir etadigan lisoniy xususiyatidan tashqari, asar sohibi bo‘lmish xalq ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy hayoti, ruhiy kechinmalari bilan bog‘liq g‘ayrilisoniy jihatlarni ham qayta yaratish mas’uliyatini yuklaydi”* [6,3].

O‘z ijodida hissiyot teranligi, lirik tili bilan ajralib turadigan buyuk adib G‘afur G‘ulom o‘zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. U o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalash uchun boy metafora va tasvirlardan foydalangan. Uning asarlarida hayotning o‘tkinchi tabiati, ma’naviy rohat izlash kabi inson borlig‘ining turli jihatlari tadqiq etilgan.

Jumladan, “Shum bola” qissasi adib mahoratini oliy darajada namoyon qilgan yumoristik asardir. Yozuvchi asar boshidayoq yumoristik ruh yaratadi. Tuyg‘u va kechinmalar tahliliga berilmaydi. U butun diqqatini xarakterlar mantig‘i bilan tug‘ilgan komik vaziyatni, komik voqea va detallarni tasvirlashga qaratadi. Bora-bora yumor satiraga o‘tadi. Asarda satirik ruh kuchli. Bu yozuvchi shartlilik prinsipiga keng murojaat etishining natijasidir. Bizningcha, ana shu badiiy usul mantiqan asoslangan va u hayot haqiqatini ochish, xarakter yaratish uchun xizmat qilgan. Asarning asosiy xususiyati shuki, yozuvchi yumor orqali hayotning achchiq haqiqatlarini chiroyli tarzda eks ettiradi. Tarjimon esa, mana shu yumor va milliy kaloritni mahorat bilan ifodalagan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tarjimon uchun ikki tilning, ya’ni xorijiy til va ona tili xususiyatlarini bilish yaxshi amaliy bilim hisoblanadi, biroq bu tarjima qilish uchun yetarli emas. Til xususiyatlarini bilishdan tashqari tarjimon tarjima nazariyasida ishlab chiqilgan bir qator prinsiplarini yaxshi bilish bilan birga yaxshi ishonchli malakaga ham ega bo‘lishi lozim. “Shum bola” etnograflar uchun noyob qo‘llanmadir. Chunki unda XX asr boshlarida Toshkent va uning atroflarida mavjud shahar va qishloqlar, ulardagi madaniy hayot, ismlar, joy nomlari, bolalar o‘yinlari, maishiy turmush tarzi haqida jonli hikoyalar berilgan. Tarjimada ham ushbu ma’lumotlar saqlanib, asarning umumiy ma’nosi yo‘qotilmagan, aksincha, asardagi milliylik ruhi mahorat bilan yetkazilgan. Asarni bir necha xorijiy tillarga tarjima qilingan variantlari mavjud. Qissani F. Shayhutdinova va A. Naumov rus tiliga, V. Grimich ukrain tiliga va I. To‘xtasinov ingliz tiliga o‘girgan.

Maqolada badiiy matn tarjima tadqiqot yo‘nalishlaridan, qiyosiy-tahlil va tavsifiy, komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Badiiy tarjima o‘z murakkabligi va qiyinlik darajasiga ko‘ra badiiy ijod bilan deyarli bir mavqeda turadi, deyish mumkin. Sababi muallifning iste’dodi va mahorati mevasi bo‘lgan asarni umuman boshqa til vositalari bilan asliga muvofiq qilib qayta yaratish kerak bo‘ladi. Badiiy asarlar tarjimasi uchun til bilishning o‘zi kifoya qilmaydi, buning uchun ijodkorlik istedodi va badiiyat ilmidan xabardor bo‘lish talab qilinadi. Realistik tarjima talablariga ko‘ra, tarjimon asl nusxani san’at asari sifatida shakl va mazmun birligi asosida qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarni saqlashi lozim. Chunki, har bir badiiy asar ma’lum bir millat vakili tomonidan yoziladi va unda, albatta, milliylikni aks ettiruvchi xususiyatlar mavjud bo’ladi.

Madaniy elementlarini tarjima orqali boshqa til muhitiga uzatish jarayoni murakkab masaladir. Madaniyat kundalik turmush tajribalarining murakkab to‘plami, u tarix, ijtimoiy tizim, din, kundalik urf-odatlar va an’analami o‘z ichiga oladi [3,27].

Natijalar va muhokamalar. “Shum bola” qissasida G‘afur G‘ulom sodda, beg‘ubor, ma’sum va musaffo tabiiy xislatlarga ega bo‘lgan o‘spirin obrazini yaratadi. Asar o‘tkir hajv va dono yumor bilan ziynatlangan, yetim bolaning sarguzashtlari asosiga qurilgan. Asarda ma’lum darajada avtobiografik elementlar uchrasa-da, unda o‘zbek bolalarining boshidan o‘tkazgan sarguzashtlari hikoya qilinadi. Mamlakatdagi notinchlik tufayli shaharda ishsizlik muammosi kelib chiqqan. Qissadagi Omon, It Obid, Bit Obid, Turobboy, Yo‘ldosh, Husni, Solih, Abdulla, Po‘latxo‘ja, Miraziz singari bolalarning taqdiri bir-biriga o‘xshash. Omon onasidan, Yo‘ldosh esa ota-onasidan, “Shum bola” qahramoni ham otasidan ajralgan. Odamlarning kasb-korlariga diqqat qilinsa, pichoqchi, eski-tuski yig‘uvchi, tikuvchi, ko‘nchi, hofiz, g‘o‘zafurush, kerosinfurush, mayda savdogarlik va hokazo.

Milliylikka xos so‘zlar, ayniqsa, mana shu kasblar va kiyim-kechaklar tasviri bilan bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi. Masalan, “… *bari mog’orlab ketgan surp yaktak kiyib olgan”* [1,10] jumlasi tarjimasiga e’tibor qaratsak. Tarjimon milliy koloritni saqlash maqsadida ayrim so‘zlarni tarjima qilmasdan ularni asl holida qoldirib, ularga sahifa ostida ta’rif keltirgan. Bunday usul qo‘llanilishiga yana bir sabab, bu so‘zlarning aynan tarjimasi mavjud emas, chunki ular faqat milliy xususiyatga ega va ingliz jamiyatida bunday buyumlar qo‘llanilmaydi, yoki joy nomlari va ismlar uchramaydi. Masalan:

“He wore a yaktak on his shoulder”[2,5]. Aynan shu sahifaning ostida “yaktak” so’ziga “oriental robe”, ya’ni “Sharq xalati, kiyimi” deb ta’riflangan. Yana bir misol: “*Mullah had already tied his salla as a belt*”[2,23], bu yerda “salla”, ya’ni erkaklar bosh kiyimiga quyidagicha ta’rif berilgan: “A kind of head dress tied around the head, usually made of silk”. Yoki aynan “salla” so‘zining boshqa joyda “*He had put on his salla and his eyebrow and face were red and green”* [2,24]- “turban” kabi ta’rif keltirish orqali yozilgan joyi ham mavjud. Tarjimonning bunday ta’rif keltirishi orqali ingliz kitobxonlarining ko‘z oldida predmetning aniq tasviri keladi. Chunki bu so‘zlarning yuqorida ta’kidlanganidek, aynan tarjimasi yo‘q va boshqa shu ma’noga yaqin so‘zni ham topish qiyin. Tarjimonning bunday mahorati orqali o‘zbek milliy so‘zlari ingliz kitobxonlari tomonidan o‘rganiladi va ular to‘g‘ri tushunchaga ega bo‘lishadi.

“Shum bola” asarining ingliz tilidagi tarjimasi hamda uning asliyati o‘rtasida lingvo-kulturologik jihatlarni ifodalashda ko‘plab farqlar uchraydi. O‘zbek milliy madaniyatiga xos bo‘lgan xususiyatlarni aks ettiruvchi so‘zlarning ingliz tilidagi muqobil variantini topish qiyinligi mazkur farqlarni yuzaga keltirgan. Bunday hollarda tarjimon yaqin ma’no aks etuvchi so‘zdan foydalangan, yoki o‘sha so‘zni umuman tushurib qoldirgan. Masalan:

“*Uzun rasta, juhud rasta, attorlik va boshqa rastalarning boyvachchalari savdodan bo’sh vaqtlarida bu choyxonaga yig’ilib mehmonlardek o’rtada katta barkashlardan qand-qurs, pista-bodom, murabbo-nisholda, obinon, shirmoy nonlar bilan shamaloq bezatilgan dasturxon atrofida chaqchalashib o’tirishardi”* [1,3]. Asardan keltirilgan ushbu parchaning ingliz tilidagi tarjimasi

“The rich of long row, haberdashery rows and other rows gather there at the table served with lumps of sugar, nuts, jam, hot-bread and oil-bread, and they are having endless chattering” [2.5] tarzida berilgan. Bu yerda ayrim so‘zlar tushurib qoldirilganining guvohi bo‘lamiz. Jumladan, *“shamaloq bezatilgan dasturxon”,* ya’ni yozuvchi dasturxon ustida hamma narsa muhayyo degan ma’noda ishlatgan bu tasvir, tarjimada keltirilmagan.

Shuningdek, “*Uzun rasta, juhud rasta” kabi birliklari mutarjim tomonidan shunchaki, “The rich of long row”* birikmasi bilan ifodalangan. Ingliz tilidagi tarjimada aynan ushbu ma’noni beruvchi ibora yo‘qligi tufayli, tarjimon shunday yo‘l tutgan. Yana bir boshqa misolda *“Ba’zi boyvachchalarning dasturxonida qornida qaldirg‘och surati solingan, ustiga poxoldan to‘r to‘qilgan konyaklar ham ko‘rinar edi”*[1,3]. Tarjimon bu yerda ichimlik turiga nisbatan keltirilgan uzun tasvirni butunlay tushurib qoldirgan: “*There are also bottles of cognacs on the tables of some rich men”* [2,5].

Asardagi milliy madaniyatni aks ettiruvchi o‘yin turlari va ularning ingliz tilidagi tarjima varianti quyidagicha ifodalangan:

O‘zbek tilida	Ingliz tilida
“Qushim boshi” shunaqa o‘yin: bolalar ikki to‘daga ajralishadi, ular ichidan ikkitasi “onaboshi” bo‘ladi. Ular bitta lattani qushga o‘xshatib tugadi. Har ikki bola bir-biriga shivirlashib, bir qushning otini yashirishadi. Suttimi, baliqchimi, chittakmi, qumrimi, itolg‘imi, qirg‘iymi, miqqiymi – biror qushning nomini yashirishadi [1,7].	“My Bird’s Head” is played like this: the children are separated into two parts, among them two boys were “head-mothers”. They made a bird from fabric. Two head-mother boys whispered to each other saying the bird’s name. they hid any bird’s name.[2,8]
“Och poyga” degan o‘yinimiz yaxshi o‘yin. Ikkita do‘ppini chakkalarimizga bog‘lab, otning qulog‘iga o‘xshatib orqa etaklarimizni tugib dum qilib, turli masofaga kim o‘zarga yugurishamiz. Bizniki Tikonli mozor, Qoratosh, Yalanqari, Olmazor, Devonbegi, Qo‘rg‘ontagi, yana Tikonli mozor mahallalari bo‘ylab o‘tgan masofada – taxminan, uch chaqirimcha keladigan bir doirada o‘tkaziladi. Oldin kelgan bolalarga chapak chalib,	Our “Naked Race” game was the best one. We lighted two hats on our heads, made a tail of a bird and ran far to get the farthest first.

barakalla aytib, hurmat ko‘rsatamiz. Ikkinchi poygagacha u zo‘r hisoblanib yuraveradi.	
Kurash o‘yinimiz bo‘lsa, o‘zingizga ma’lum.	And also we had wrestling, and you know it.

Yuqorida asardagi uchta milliy o‘yinlardan misollar keltirgan. “Qushim boshi” degan o‘yinning tarjimasi inglz tilida mutarjim tomonidan to‘liq keltirilgan bo‘lsa-da, “Och poyga” nomli milliy o‘yinning tarjima varianti qisman tarjima qilingan. Asliyatda o‘yinga keltirilgan ta’rifda muallif bir qator joy nomlarini sanab o‘tgan, tarjimon esa bu nomlarni keltirib o‘tirmagan, shunchaki, qisqa ta’rif bilan ifodalashni lozim topadi. Bu turdagi misollar leksik yoki strukturaviy birliklarning paralleligi yo‘qligi bilan izohlanadi.

Xulosa. Yumoristik asarlarining tarjimasi zamirida jiddiy lingvomadaniy muammolar yashiringan bo‘lib, ularda hayotiy voqealar aks ettirilgan bo‘ladi. Har bir asarning tarjimasida millat mintaliteti, dunyoqarashi, xarakteri namoyon bo’ladi. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari o‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos o‘zgacha asardir. Qissada nafaqat o‘sha davr hayoti, balki o‘zbek millatining madaniyati, urf-odatlari o‘z ifodasini topgan. Tarjimada ham milliy koloritni saqlab qolishga harakat qilingan. Xususan, Toshkent ko‘chalari, bozorlar tasviridan tortib, asar qahramonlarining nutqidagi ibora va so‘zlarning asl mazmuni saqlangan holda ifoda etilgan. Kitobxon asar tarjimasini o‘qir ekan, ko‘z oldida asliyatda keltirilgan tasvirlar hech bir o‘zgarishsiz jonlanadi va u o‘zi uchun notanish bo‘lgan, milliy ahamiyatga ega bo‘lgan buyumlar, kiyimlar va boshqalarni aniq tasavvur qila oladi. Bu orqali mutarjimning asliyat tili madaniyati bilan qanchalik tanishligi hamda uni mahorat bilan yoritib bera olganligi namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. *G’ulom G‘. Shum Bola. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. – 2018. 190b.*
2. *Gulom G. Naughty Boy. Translators: Tukhtasinov I, Yuldashev U. - Tashkent: Yangi asr avlodi. - 2017. 125b.*
3. *G‘ofurov I. Tarjima nazariyasi. – Toshkent “Tafakkur bo‘stoni”, – 2012. 214b.*
4. *Safarova Zilola. "G'afur G'ulom asarlarida yetim bola hayoti va yetimlikka munosabatning yoritilishi." Центр научных публикаций (buxdu. uz) 22.22 (2022).*
5. *Safarova Zilola. "The theme of orphanhood in the poetry of Uzbek and English literature." Центр научных публикаций (buxdu. uz) 3.3 (2021).*
6. *Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: “FAN nashriyoti”, 2005. – 342b.*
7. *Safarova Z. T., & Urayeva D. S. (2020). The similar features in depiction of orphans’life in children’s adventure novels. Theoretical & Applied Science, 4, 343-347.*
8. *Safarova Z. (2022). G'afur G'ulom asarlarida yetim bola hayoti va yetimlikka munosabatning yoritilishi. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 22(22).*
9. *Safarova Z. (2020). Analysis of orphan images and orphanhood in children's literature. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 1(1).*
10. *Safarova Z. (2021). The theme of orphanhood in the poetry of Uzbek and English literature. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 3(3).*
11. *Bozorova N., & Madaliev Y. K. (2023). Ghafur ghulam's artistic principle in illuminating the truth of the time. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences, 13, 6-9.*
12. *Utkerovna B. S. (2023). Shum bola asarining tarjimasida tarjimon mahorati. Denmark theoretical and practical foundations of scientific progress in modern society", 14(1).*
13. *Ёқубов Ҳ. Ғафур Ғулом (ҳаёти ва ижоди). – Т: Бадиий адабиёт, 1959*
14. *Каримов Н. Ғафур Ғулом. – Т: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2003*
15. *Tolibovna S. Z. (2023). Expression of orphans’life through the theme of “hunger” in bildungsromans.*
16. *Safarova Z. (2022). A realistic artistic depiction of the lives of orphans in Dickens's novel Oliver Twist. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 13(13).*
17. *Safarova Z. (2020). Ingliza va o’zbek maqollarida yetim va yetimlik tushunchalari talqini. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 1(1).*

UO'K 82.091

MR. POTTER ROMANIDA BOSH QAHRAMON RUHIY OLAMI TASVIRIDA MUALLIF MAHORATI

Ganieva Orzigul Khayriddinovna,
Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
o.x.ganiyeva@buxdu.uz
Ashurova Nigina Aziz qizi,
Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasi magistranti
n.a.ashurova@buxdu.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Amerika zamonaviy ayol yozuvchilaridan bir Yamayka Kinkeyd tomonidan yozilgan «Mr. Potter» romanidagi bosh qahramon ruhiy dunyosini tasvirlashda muallif mahorati tahlil qilingan bo'lib, qahramon nutqi, tashqi ko'rinishi, xatti-harakatlari va atrofdagilar bilan munosabati ichki qiyofani namoyon qiluvchi asosiy omillar sifatida olingan. Janob Potter shaxsiyatining jiddiy, intizomli va eski qadriyatlar tarafdori bo'lishdek aksariyat jihatlari o'quvchiga muallif tomonidan uning asardagi turli vaziyatlarga bildirgan javoblari va boshqa qahramonlar bilan olib borgan dialoglari orqali yashirin, lekin mohirona tarzda ko'rsatib beriladi. Yozuvchining bosh qahramon tasviriga bunday yondashuvi o'quvchilarga Mr. Potter obrazi va uning o'ziga xosliklarini yanada chuqurroq tasavvur qilish hamda o'rganish imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *Mr. Potter, Yamayka Kinkeyd, bosh qahramon, ruhiy olam, muallif mahorati, bilvosita tasvirlash, qahramon nutqi, tashqi ko'rinish, munosabat.*

АВТОРСКОЕ МАСТЕРСТВО В ИЗОБРАЖЕНИИ ДУХОВНОГО МИРА ГЛАВНОГО ГЕРОЯ В РОМАНЕ «МИСТЕР ПОТТЕР»

Аннотация. *В данной статье анализируется мастерство автора в описании внутреннего мира главного персонажа в романе «Мистер Поттер» Ямайки Кинкейд, одной из современных американских писательниц. Анализ основывается на речи персонажа, его внешности, действиях и отношениях с окружающими, как на ключевых факторах, показывающих определённый образ. Некоторые аспекты характера этого персонажа, такие как строгость, дисциплинированность и приверженность традиционным ценностям, раскрываются через его реакции на различные ситуации и взаимодействия с другими персонажами. Такие примеры косвенной характеристики от писательницы помогают создать ясный портрет мистера Поттера, позволяя читателям сформировать более глубокое понимание его личности, ценностей и сложностей, формирующих его характер.*

Ключевые слова: *мистер Поттер, Ямайка Кинкейд, главный персонаж, внутренний мир, мастерство автора, косвенная характеристика, речь персонажа, внешность, отношение.*

THE AUTHOR'S SKILL IN PORTRAITING THE MAIN CHARACTER'S SPIRITUAL WORLD IN THE NOVEL «MR. POTTER»

Abstract. *This article analyzes the author's skill in describing main character's inner world in the novel «Mr. Potter» by Jamaica Kincaid who is one of modern American woman writers, taking the character's speech, appearance, actions and the relationship with the surroundings as crucial factors to show a certain image. Certain aspects of this character are shown through his responses to situations and people around him such as being strict, disciplined and an adherent of traditional values. These examples of indirect characterization by the writer help to build a clear portrayal of Mr. Potter, allowing readers to form a deeper understanding of his personality, values, and the complexities that shape his character.*

Keywords: *Mr. Potter, Jamaica Kincaid, main character, inner world, author's skill, indirect characterization, character's speech, appearance, attitude.*

Kirish. Adabiyot tasvirlash-u ta'riflarga tayanadi. Yozuvchi o'z asarini yaratish jarayonida bevosita ma'lum bir davr, manzara, hodisa va ko'p hollarda, shaxslarning ta'riflarini keltiradi. Bundan asosiy maqsad o'quvchi ko'z o'ngida shu asarni jonlantirish va unga kirishishini ta'minlashdan iborat. Biroq muallif ba'zan bunday tasvirlashni to'g'ridan-to'g'ri keltirmasligi, aksincha bilvosita, asardagi boshqa omillar yordamida ochib berishi ham mumkin. Masalan, yozuvchi asardagi ma'lum qahramonga batafsil ta'rif bermasdan uning shaxsiyati va ruhiy olamini qahramonning tashqi ko'rinishi, nutqi va xatti-harakatlari orqali ko'rsatishi mumkin. Asar qahramonini bu usulda yashirin tasvirlash orqali muallif o'quvchining diqqat-e'tiborini ko'proq jalb qilish va asar so'ngigacha o'zgacha qiziqishni saqlab qolgan holda qahramonni chuqur taftish qilishga chaqirishni ko'zda tutadi. Shu tarzda o'quvchi qahramonni mustaqil o'rganib boradi va uni o'ziga yaqin ola boshlaydi, uning ruhiy olamiga kirishib, do'st tutinadi.

Zamonaviy Amerika ayol yozuvchilaridan biri hisoblangan Yamayka Kinkeyd 1949-yilda Karib dengizi bo'yi davlati hisoblangan Antiguada dunyoga kelgan bo'lib, u o'z asarlarida ona yurti va oilaviy rishtarini aks ettiradi. Uning aksariyat asarlari avtobiografik xarakterga ega bo'lib, o'z ota-onasi va hayotida uchratgan insonlarini har bir roman va hikoyalarining qahramonlariga aylantiradi. Yamayka Kinkeydning biz tahlil qilmoqchi bo'layotgan «Mr. Potter» romani ham uning o'z otasi haqida yozilgan bo'lib, yozuvchi avval onasi haqida yozgan «Annie John» va «Lucy» romanlarining mantiqiy davomi hisoblanadi. Yozuvchi ushbu asarni o'z otasiga bo'lgan alam va mehrni birgalikda qo'shib yaratgan. Ammo qizda baribir otasiga nisbatan muhabbat tuyg'usi ustun keladi, garchi otasi undan voz kechgan bo'lsa ham, qizi otasidan voz kecholmaydi. Sababi u otasining bunday qilishiga sababchi bo'lgan bosh unsurlarni izlab topib, tushunishga harakat qiladi hamda aynan mana shu «voz kechish an'anasi»ni tugatmoqchi bo'ladi va tugatadi.

Yamayka Kinkeyd o'zining «Mr. Potter» romanida bosh qahramon Janob Potter shaxsiyati va uning ruhiy dunyosini ochib berishda asar boshidan oxirigacha ana shunday bilvosita tasvirlashga tayanadi. Har kunini quyosh nurlari ostida moviy rangli Hillman mashinasini Antiguaning keng ko'chalarida haydab o'tkazuvchi savodsiz bir taksi haydovchising o'ta sodda va qiyinchiliklarga to'la hayoti uning o'limidan so'ng hech qachon otasi tomonidan tan olinmagan qizlaridan biri tomonidan ham ayovsiz g'azab, ham rahm-shavqat orqali hikoya qilib beriladi. Yozuvchining mahorati sababli o'quvchi ko'z o'ngida ichki dunyosi ziddiyatlarga to'la murakkab bir qahramon gavdalanadi.

Ushbu roman butunlay bilvosita tasvirlashlardan tashkil topganligi bilan ajralib turgani uchun ham bosh qahramon ruhiy olami tasvirida muallif mahoratiga alohida e'tibor qaratishni va tahlil ko'zidan o'tkazishni lozim topdik.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Yamayka Kinkeyd «Mr. Potter» romanida Janob Potter obrazi orqali Antigua xalqining tartibsiz hayot tarzini yaqqol ochib beradi, ammo asarning biror o'rnida qahramonlarga to'liq ta'rif bermaydi. Bunda u asar qahramonlarining tashqi ko'rinishlari, suhbatlari va asardagi turli vaziyatlarga bildirgan munosabatlarini asos qilib oladi. Janob Potter ushbu romanda barcha voqealar zanjirini ushlab turgan asosiy qahramon bo'lib, yozuvchi u haqida juda kam ta'rif keltiradi. Uning ichki qiyofasini ochib berishda Kinkeyd qahramon tashqi ko'rinishi, nutqi, xatti-harakatlari va atrofidagi holatlarga nisbatan javoblariga urg'uni qaratadi.

Tug'ilganda Roderick deb ism qo'yilgan, ota-onasi voz kechib tashlab ketilgandan so'ng uni mehrsiz bo'lsa-da katta qilgan oila tomonidan Drickie deb chaqirilgan, ulg'ayib Janob Potter nomiga sazovor bo'lgan asar qahramoni o'ta qiyin hayot kechiradi. Janob Potter kambag'al ekanligiga uning ijarada taksi haydovchisi bo'lib ishlashi, hatto «ko'chada turgan ko'zi ojiz tilanchiling ham uning oyoq tovushlarini tanib, hech qachon pul so'ramasligi», u xafa qilgan ayollardan biri «bir kun o'z mashinasiga ega bo'lish uchun uning barcha yig'gan pullarini olib, uni tashlab ketganligi», «bir juft oyoq kiyim unga hech qachon osonlikcha kelmagani» orqali ishora qilinadi [1, 5, 20]. Shuningdek, Potter uni o'stirgan «Janob Shepherdning kostyum cho'ntagidan chiqib turuvchi dastro'molga, o'zi tomonidan obdon dazmollangan shimi va poplin matoli ko'ylagiga hamda chiroyli sayqallangan oyoq kiyimlariga havas qilganligi va keyinchalik xuddi shu kiyimlarni uning o'zi kiyganligi» ham bir tomondan yuqoridagi fikrga yaqqol misol bo'lsa, ikkinchi tomondan, Janob Potterning tartibli, ozoda va saranjom inson ekanligidan darak beradi. Yamayka Kinkeyd asarda bosh qahramon tashqi ko'rinishida ikki jihatga alohida to'xtalgan: birinchisi, Janob Potterning qora rangli tanasi va u doimiy kiyadigan oq ko'ylagi bo'lib, u egasiga «ko'ngil xotirjamligini berardi», bunday qarama-qarshilik orqali yozuvchi qahramon ruhiyatidagi ziddiyatga ishora qiladi, balki uning qiyinchiliklarga boy «zulmat» hayotida Janob Potter qaysidir ma'noda «yorug'lik» qidiradi va buni unga shu oq ko'ylak bera oladi; ikkinchisi esa uning hammadan ajralib turuvchi va «barcha qizlariga go'yo meros bo'lib o'tgan burni» edi, bu orqali qahramon shu darajada nochor-u, farzandlariga shundan boshqa hech bir vaqo bera olmaganligi yashirin aytib o'tilgandek [1, 96, 4, 167], tuyuladi.

Bosh qahramon nutqi romanda uning ruhiyatini ochib beruvchi asosiy vosita sifatida aks ettirilgan. Janob Potter ingliz tilida ravon so'zlasha olmaydigan, o'qish va yozishni bilmaydigan savodsiz bir odam bo'lib, undan gapirish talab qilingan ko'p hollarda shunchaki «Eh, eh» deb qo'ya qoladi, xolos [1, 12]. Uni sevgan va u bilan jiddiy munosabatlarga kirishishni xohlaydigan ayollarga nisbatan esa «Men senga bunga qarshi ogohlantirish beraman», deb javob beradi [1, 118]. Ushbu dalillardan Janob Potter ichki olamidagi nizolarni yaqqol ko'rish mumkin. Birinchi keltirilgan misoldan Janob Potterning o'ziga ishonchi past, jur'atsiz va biroz tortinchoq ekanligi anglashilsa, ikkinchi holda uning sevgisiz ulg'ayganligining natijasini ko'rish mumkin. Bolaligidan sevgi nima ekanligini bilmay o'sgan yigitcha ulg'aygach ham bu hisni nafaqat tuya olmaydi, balki tuyishga ham qo'rqadi. Bundan uning shaxsiyatidagi beqarorlik, qo'rquv va javobgarlikdan qochishga intilish kabi tomonlarni sezish mumkin.

Asarda qahramonning xatti-harakatlari va turli holatlarda o'zini qanday tutishi ham uning ichki dunyosida kechayotgan to'xtovsiz jarayonlar va o'zgarishlarning natijasi o'laroq, aynan shu omil orqali bosh qahramon o'quvchi uchun sevimliga yoki butunlay dushmanga aylanishi mumkin. Janob Potter misolida esa o'quvchi har ikkala holatni boshidan kechirish ehtimoli mavjud. Masalan, «har tongda Janob Potter ijaradagi mashina egasining garajiga vaqtli kelishi hamda dastlab o'zining, so'ngra do'sti Janob Martinning va undan keyin shunchaki tanishi sifatida keltirilgan Janob Josephning mashinasini yuvib qo'yishi» uning punktual, intizomli, o'z kasbini sevuvchi, samimiy va saxiy, «o'zining farzandi bo'lmasa ham, rafiqalaridan birining o'g'lini juda yaxshi ko'rganligi» unda ham mehr-muhabbat tuyg'ulari bor ekanligidan dalolat berib, o'quvchida Janob Potter qahramoniga nisbatan hurmat va e’tibor hissini uyg'otsa, ayollarga nisbatan hurmatsiz munosabatda bo'lib, barcha farzandlari qiz bo'lgan holda ularning birortasini ham tan olmaganligi, ayniqsa, asarni hikoya qilib berayotgan qizi «Elaine 4 yasharligida uni soatlab ishxonasi oldida kutib, nihoyat ko'rishaman deganida Janob Potter unga qo'l siltab, shunchaki bee'tibor qoldirganligi va bu holat qiz tomonidan «Men uning uchun go'yo yo'lni to'sib turgan bir it edim, go'yo men u uchun hech narsa edim», - deya ta'riflanishi esa endilikda o'quvchida bosh qahramonga nisbatan nafrat paydo qiladi [1, 7, 156, 146].

Tadqiqot natijalari va muhokama. Yamayka Kinkeyd «Mr. Potter» romanidagi bosh qahramon Janob Potter obrazi orqali zamonaviy fantastikada hech kimga o'xshamaydigan figurani jonlantiradi, desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Janob Potter qahramoni o'ta sodda qahramon sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lsa ham, muallif mahorati nuqtayi-nazaridan yondashganda, u o'ta murakkab qahramon ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Janob Potterning xatti-harakatlari va unga asardagi boshqa qahramonlar tomonidan bildirilgan munosabatdan dastlab o'quvchida ushbu qahramonga nisbatan begonalik yoki nazarga ilmaslik hissi paydo bo'lishi shubhasiz. Sababi «hatto dunyo ham uning mavjudligiga e'tiborsiz edi» [1, 29].

Janob Potterning ko'rinishi, asar davomidagi boshqa qahramonlar bilan qilgan suhbatlari va munosabatlaridan uning kambag'al, savodsiz, eski an'analarni yoqlovchi, tartib va bir xillikni xush ko'ruvchi, o'z ishi, boshlig'i, do'stlariga sodiq, itoatkor, kamgap, mehribon ekanligini o'rganishimiz mumkin, ammo bu xislatlar uning to'laqonli yaxshi inson ekanligidan dalolat bermaydi. Chunki asar davomida uning o'z farzandlari va ayollariga ko'rsatgan muomalasidan Janob Potterga nisbatan bizda adovat paydo bo'lishi ham muqarrardir. Lekin Janob Potter bunday qahramonga aylanishining bosh sabablariga e'tibor qaratganimizdan so'nggina xuddi asarni hikoya qilib berayotgan Janob Potterning qiziga o'xshab har qanday o'quvchida uning ruhiyatini tushunish va unga nisbatan achinish hissi tug'iladi. Bosh qahramon ruhiy olamining shakllanishi, avvalambor, uning sevgisiz ulg'ayganligi natijasi edi. Bolalikdan ota-onasi tomonidan rad etilgan, keyinchalik uni katta qilgan oilaga ham bor-yo'g'i yugurdaklik vazifasini bajargan, boshlig'i va manzillariga yetkazib qo'ygan mehmonlar mensimagan Roderick yoxud Janob Potter bunday muomalaga qarshi kurashish, bartaraf etish o'rniga, ushbu munosabatlarni jimgina qabul qiladi va o'zida aks ettirishni boshlaydi. U ham hayotidagi boshqa insonlar singari e'tiborsiz, qo'pol, jim, kuchsiz va, eng asosiysi, sevgisiz insonga aylanadi.

Garchi «Mr. Potter» romani birgina odam haqidagi hikoya bo'lsa-da, uning hikoyasi Karib dengizi bo'yidagi qishloq mamlakatlari hayot tarzini ko'rsatib beruvchi haqiqatdir. Janob Potter ham aynan Antigua mahalliy aholisining qullik, mustamlakachilik va buning natijasida yuzaga kelgan qashshoqlik, savodsizlik va umidsizlik tarixi ko'zgusi va davomchisi o'laroq keltirilgan.

Roman bosh qahramoni ichki olami haqida chuqur mulohaza yuritar ekanmiz, Janob Potter oddiyligi qadar murakkab ekanligining guvohi bo'lamiz. U ichki ziddiyatlar va hayot muammolarini bo'yniga olgan, ammo bunga o'zi zarracha e'tibor qaratmaydigan shaxs. Chunki asrlar davomida uning ajdodlariga o'tkazilgan bosim Potterning ham qon-qoniga singib ketgan edi. Aynan shu vaziyatni tushunish o'quvchini Janob Potterga nisbatan g'amxo'r va dilkash qilib qo'yadi. Bu qahramonning naqadar ahamiyatga ekanligi asar oxirida o'z ifodasini topgan bo'lib, «farzandlar-u tanishlar Janob Potter yig'gan boyligini uzoq bir qarindoshiga meros qilib qoldirganligidan shikoyat qilib yig'layotgan edilar». Umr bo'yi uning hatto

mavjudligi yodga olinmagan Janob Potter vafot etgandan so'ng barchaning e'tiborini qozonadi. Odamlar ba'zilari uning yaxshiliklarini, ba'zilar esa yomonliklarini aytib eslardilar. Aslida esa ular ham o'sha qashshoqlikning ilojsiz asirlari edilar. Janob Potterning dafn marosimiga kelishdan maqsad ham o'z manfaatlari yo'lida boylikka erishish edi. Tug'ilishi hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagani qadar muhim edi uning o'limi [1, 189]. Demak, biz Janob Potterni shunchaki oddiy qahramon sifatida qabul qila olmaymiz. U butun asardagi voqealar rivojida eng asosiy rol o'ynovchi qahramon hisoblanadi. Shuning uchun ham yozuvchi uni ta'riflashda o'zgacha uslubni qo'llaydi, ya'ni uning ruhiyati va, umuman olganda, qanday inson ekanligini birma-bir ta'riflamaydi, balki urg'uni bu vazifani bajaruvchi qahramon nutqi, tashqi ko'rinishi va harakatlari kabi asardagi boshqa omillarga qaratadi. Aytish joizki, bunday yondashuv orqali Yamayka Kinkeyd asar bosh qahramoni haqidagi xulosani o'quvchining o'ziga qoldiradi. U o'quvchilar o'zi Janob Potter haqida qiziqishlarini va uning ichki qiyofasini tahlil orqali tasavvur qilishlarini xohlaydi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillarga tayanib shuni xulosa qilish mumkinki, adabiyotda qahramonni o'quvchiga tanishtirish yoki uning ichki qiyofasini ochib berishda yozuvchi har doim ham bevosita ta'riflashdan foydalanmasligi mumkin. Muallif qahramon ruhiyatini va xarakterini asarda qatnashuvchi boshqa omillarga suyanib ham mukammal darajada ko'rsatib berishi mumkin. Jumladan, asar qahramonining tashqi ko'rinishi, kiyinish va so'zlashish uslubi, ichki o'y-kechinmalari, asardagi boshqa qahramonlar bilan olib borgan suhbatlari, ularga qilgan muomalasi yoki asarda sodir bo'ladigan turli vaziyatlarga nisbatan bildirgan munosabat va javoblari ham qahramon ruhiy olamining ko'zgusi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Qahramon ichki olamini ochib berishda bunday yordamchi vositalarni qo'llay olish nafaqat muallifdan buyuk mahoratni talab qiladi, balki o'quvchiga ham ushbu badiiy ijodkorlikni tushunib, tahlil qila olishda va asarning to'liq mazmunini anglab yetishda katta mas'uliyat yuklaydi. Bunda o'quvchi yozuvchining fikrlarini va ko'zlagan maqsadini aniqlashga harakat qilar ekan, asar qahramonini beixtiyor uning o'zi kashf qiladi.

Zamonaviy Amerika ayol yozuvchilaridan bo'lgan Yamayka Kinkeyd o'zining «Mr. Potter» romanida bosh qahramon Janob Potter obrazini bilvosita xarakterlash orqali yozuvchi sifatida o'z mahoratini eng yuqori darajada ko'rsata olgan. Bu asar Kinkeydning nafaqat boshqa asarlari orasida, balki zamonaviy jahon adabiyotida ham aynan bilvosita tasviriy yondashuvning ajoyib namunasi sifatida alohida ajralib turadi. Yozuvchi asar oxirigacha ushbu tasvir usulini saqlab qoladi va bosh qahramon atrofidagi barcha boshqa qahramonlar va holatlar orqali go'yo Janob Potter obrazini chizadi. Qahramon o`zining ichki ruhiy olamini personajlar bilan suhbatda, kiyinish uslubi, xatti-harakatlari va atrofdagi bo'layotgan hodisalarga munosabati bilan ifodalaydi va bunda asar muallifining hissasi beqiyosdir.

ADABIYOTLAR:

1. *KINCAID, Jamaica. Mr. Potter. New York: Farrar, Straus and Giroux, 2002*
2. *Khayriddinovna G. O. "East of Eden" романида қаҳрамонлар хулқ-атворига жамият фикрининг таъсири // Scientific Reports of Bukhara State University. – С. 146.*
3. *Ganiyeva O. K. H., Rajabova Z. T. The Analysis of Loneliness theme in of Mice and Men //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 31. – С. 157-159.*
4. *Ganieva O. K. H., Aminova N. B. John Steinbeck's "Discontent" over the social problems //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 23. – С. 146-148.*
5. *Khayriddinovna G. O., Jahonovna C. M. Description of the relationship between people and society in john steinbeck" s „The grapes of wrath" //IEJRD-International Multidisciplinary Journal. – Т. 6. – С. 75-78.*
6. *Ganieva O. K. H., Aminova N. B. Family relationships in John Steinbeck's novel "East of Eden" //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 5 Part 4. – С. 247-249.*
7. *Sadullayev F. B. Inner characterization of the main character in the novel "The wings of the dove" by Henry James //Conferencea. – 2022. – С. 132-135.*
8. *Садуллаев Ф. Б. XX аср АҚШ модерн адабиётининг тарихий ҳамда ижтимоий негизлари //Scientific Reports of Bukhara State University. – С. 171.*
9. *Садуллаев Ф. Ҳенри Жеймс ижодида инсон руҳияти тасвирининг бадиий-эстетик вазифалари //Social sciences.*

УЎК 82

МОТАМ МАРОСИМИГА ОИД СЎЗЛАРНИНГ ТАРЖИМАЛАРДА БЕРИЛИШИ

Комилова Дилдора Шавкатовна,
Тошкент Давлат шарқшунослик университети ўқитувчиси

Аннотация. *Ушбу мақолада таржималарда дафн маросими, ундан сўнг ўтказиладиган бир қанча маросимларнинг ноқардош саналмиш инглиз тилидаги талқини таҳлил қилинган. Тиллараро таржималарда шакл ва мазмун бир-бирига мос келмасада, яъни бир тилда ифодаланган сўз бошқа тилда ифодаланмаслиги мумкин, аммо таржимон ўз маҳорати ва қобилиятига таянган ҳолда таржимада эквивалент яратишга, талаффузни мослаштиришга, муқобил вариантни топиб, асл нусхадаги маънони имкон қадар еткизиб бермоғи лозим.*

Калит сўзлар: *дафн маросими, ғам-андуҳ, ноқардош тиллар, таржимада муқобиллик, эпиталама, халк турмуш тарзи.*

ПЕРЕДАЧА ТРАУРНЫХ СЛОВ В ПЕРЕВОДАХ

Аннотация. *В данной статье анализируется английский перевод погребального обряда и некоторых последующих ритуалов в переводах. В межъязыковых переводах форма и содержание не соответствуют друг другу, то есть слово, выраженное на одном языке, может не быть выражено на другом языке, но переводчик, опираясь на свои навыки и умения, должен создать в переводе эквивалент, адаптировать произношение, найти альтернативный вариант и максимально передать смысл оригинального текста.*

Ключевые слова: *похороны, горе, неродственные языки, альтернативный перевод, эпитафия, народный быт.*

TRANSLATION OF MOURNING WORDS IN TRANSLATIONS

Abstract. *This article examines the English translation of the funeral ceremony and several subsequent rituals in translations. In interlanguage translations, the form and content do not correspond to each other, that is, the word expressed in one language may not be expressed in another language, but the translator, relying on his skills and abilities, should create an equivalent in the translation, adapt the pronunciation, find an alternative option, and convey the meaning of the original copy as much as possible.*

Key words: *funeral, grief, non-kin languages, alternative in translation, epitaph, folk way of life.*

Кириш. Жаҳон адабиётида шундай жанрлар борки, улар қайсидир жиҳати билан бир-бирига ўхшаб кетади. Жумладан, ўзбек никоҳ тўйи маросимига алоқадор ёр-ёрлар билан антик шеъриятда шаклланган эпиталамалар худди шу жиҳатдан эътиборни тортади.

Мотам қўшиқлари бошқа халқ қўшиқлари сингари этнографизмларга бойлиги, халк турмушини, эътиқодий қарашларини ўзида кенг мужассамлаштириб келиши сабаб қизиқиш уйғотиб, инглиз тилига ҳам таржима қилинган. Жумладан, ўзбек йиғи ва йўқлов қўшиқлари, мотам аллалари, мотам ёр-ёрлари, Наврўз йўқлови, Ҳайит йўқлови, йўқлов-ёр-ёр, алла-йўқлов кабилар таржимада ўзбекча матни билан ёнма-ён берилган ва уларда этнографизмларни сақлашга уринилган.

Ўзбек тўй маросимлари карнай-сурнайсиз, ноғорасиз ўтмайди. Тўйга ўзгача шукуҳ бағишлайдиган бу миллий чолғу асбобларининг донғи эса чет элларгача кетган. Шуни инобатга олиб, айрим олим ва таржимонлар ўз асарларида бу чолғу асбобларининг номини транслитерация усулида беришгани кузатилади.

Адабиётлар методологияси.

Мақоламизни ёзишда Ғ.Саломов, Қ.Мусаев, Н.Қамбаров, Х.Хамидовб Э.Очилов, С.Фидокор, Д.Ўраева, Ж.Бўронов, Ғ.Раҳимов, М.Бақоеваларнинг таржима назариясига оид илмий ишларидан манба сифатида фойдаландик.

Асосий қисм. Тиллараро семиотик асимметрия шакл ва мазмуннинг бир-бирига мос келмаслигида, яъни бир тилда ифодаланган сўз бошқа тилда ифодаланмаслиги мумкинлигида намоён бўлади. Шундан келиб чиқиб, таржимада эквивалент яратишга, талаффузни мослаштиришга, аналог ёки адекват сўзларни топишга уриниш кўзга ташланади.

Лекин инглиз силлабик-тоник шеър тизими бўйича шеърларда, асосан, урғули ва урғусиз бўғинлар тартибини Ўзгартириш оркали ритм ранг- баранглигига эришиш мумкин. Шу жиҳатдан қаралса, таржимада туроқланиш тартиби ва бўғинлар сони ўзгартириб юборилган бўлса-да, маъно сақлаб қолинган. Аслиятдаги *"вой гулим"* бирикмаси умумий маънода *"гул"* ўсимлигини англатса, таржимада конкретлаштириш усулидан фойдаланилиб, гулнинг аниқ бир турини англатувчи "атиргул" сўзи билан алмаштирилган:

"Oh my dear rose", яъни *"Оҳ, менинг атиргулим"* тарзида ўгирилган. Аслиятда *"вой гулим"* мурожаати *"гулим / булбулим / мушкулим"* каби ўзаро қофиядош сўзлардан кейин радиф сифатида ҳар бир мисранинг охирида муттасил такрорланиб келган бўлса, таржимада у анафора сифатида ҳар мисра бошида такрорланади. Шуниси борки, аслиятда ҳам, таржимада ҳам у *"гулим"* сўзи бўладими, *"атиргул"* сўзи бўладими, истиоралик вазифасини сақлаган. Истиора - бу бадиий санъатлардан бири. Унда маълум бир сўзни такрор ишлатмай, ўша суз бир ўринда икки маънода қўлланади.

Шунингдек, бу ўринда *"гул"* ва *"атиргул"* сўзлари ҳам гул ўсимлигини, ҳам инсон тушунчасини ўзида ифодалаб келганлиги туфайли истиорани ташкил этган. Бу ўринда таржимон "гул" сўзининг инглизча муқобили "flower" сўзи мавжуд бўлишига қарамай, таржимада нега "атиргул" сўзини танлагани алоҳида қизиқиш уйғотади. Бизнингча, таржимон бунда инглизча *"flower - гул"* сўзи ўрнида *"rose - атиргул"* сўзини бежизга қўлламаган. Бу билан у, аввало, шеърий ритмни сақлаб қолишни мақсад қилган. Шу тарзда таржимон мисрадаги бўғинларнинг ўзаро мутаносиблигини, туроқлар тартибини сақлаб қолишга эришган. Чунки *"flower"* сўзи икки бўғиндан ташкил топгани учун уни *"Oh my dear flower"* тарзида қўллаш, бўғинлар миқдорининг ортишига олиб келган бўларди. Агар унинг ўрнида ҳозиргидек *"Oh my dear rose"* бўғин ишлатилса, бўғинлар сони тенг бўлади ва бармоқ вазни талаби бузилмайди. Оҳанг ва ритм бутунлай сақланиб қолади.

Маълумки, атиргул хушбўй ҳид таратувчи гул тури сифатида барчага манзур бўлишидан ташқари, халқ эътиқоди билан ҳам боғлиқдир. Қадимги тотемистик тасаввур-тушунчалар асосида ҳинд маъбудаси Лакшми атиргулдан пайдо бўлган деган мифологик ишонч ҳам мавжуд. Шу каби эътиқодий қарашлар асосида бу гул қадрли ҳисобланади. Умуман айтганда, тотемистик қарашлар асосида гуллар образи бадиий асарларида кўпинча инсон учун истиора сифатида танланади. Юқоридаги қўшикда ҳам гул ва инсон параллел образлар сифатида гавдаланмоқда.

Аслида: Қалам қалам қошларинг, вой болам,
Қаландарлар қилди мени, вой болам,
Хумор хумор кўзларинг, вой болам,
Хумор лари қилди мени, вой болам

Таржимада:

Oh my love, your beauty glorifies,
Oh my love, you made me act like a dervish,
Oh my love, your eyes are mysterious,
Oh my love, you made me all alive

Бу йиғи матни таржимасининг иккинчи бандида таржимон юқоридаги каби образни индивидуаллаштиришдан эмас, аксинча, уни моҳиятан умумлаштиришдан фойдаланган. Таржимада *"вой болам"* мурожаати *"oh my love"* бирикмаси билан берилган. Бунинг натижасида Ғ.Раҳимов таъкидлагандек, модуляция (маъно кенгайиши) содир бўлган. Чунки *"my love"* кишининг фақатгина фарзандига нисбатан эмас, балки бутун оила аъзоларига, яқин дўстларига нисбатан ҳам ишлатилиши мумкин. Мисра сўнгида радиф, мисра бошида эса анофора тарзида келтирилган бу бирикма синтактик - стилистик восита сифатида бир хим такрорланиб, ритмни кучайтиришга хизмат қилади

Ўзбек халқларининг урф - одат ва маросимлари ўзаро яқин бўлганлиги сабабли С.Фидокор томонидан амалга оширилган бу таржималарда профессионаллик сезилмайди. Таржимон катта зўриқиш билан аслият хусусиятларини сақлаб қолишга уринганлиги билиниб туради. Айтайлик, таржимон юқоридаги парчада учрайдиган *"қалам-қалам қошларинг"* бирикмасини *"гўзаллигинг тилларда достон, яъни кўкларга кўтарадиган даражада гўзалсан", "хумор-хумор кўзларинг"* бирикмасини *"кўзларинг сирли", "хуморилар қилди мени"* жумласини *"сен менинг ҳаётим",* яъни *"мен сен билан ҳаётман", "вой болам"* мурожаатини *"о менинг суюклигим"* деб таржима қилиб, мазмуний чалкашликка йўл қўйган. Бир сўз билан айтганда, унинг ўзбекча-инглизча таржима билан мунтаззам шуғулланмаслиги, ҳодисага тасодифан муносабатда бўлганлиги сезилади.

У.Дуркснинг луғатида *"хумор кўзлар" - "languid eyes", "хумори"- "addict"* тарзида таржима қилиниши кўрсатилган. Шуни инобатга олиб, бизнингча, *"хумор-хумор кўзларинг"* мисрасини - *"your languid eyes"* деб бериш мақсадга мувофиқ бўларди.

Ушбу қўшиқнинг иккинчи мисраси таржимасидаги *"my rose" "атиргулим"* сўзи матннинг асл ўзбекча вариантида қўлланилмаган. Демак, бу сўзни таржимон ўзи ортиқча қўшмоқда. Сабаби, у бу сўзни *"my love"* бирикмаси билан уюшиқ бўлак тарзида кетма-кет келтириш орқали аслида мисрадаги бўғинлар сонини мутаносиблаштиришни кўзда тутган. Қўшиқдаги *"Қилди бағримни кабоб"* мисраси онаи зорнинг фарзанди, жигаргўшаси айрилиғига чидолмай, юрак-бағри эзилаётгани, куйиб ўртанаётганига ишора қилмоқда. Айнан мана шу ғам-андуҳ руҳини таржимон "юрагим қайғуга тўлди (ботди)", яъни *"My heart/ was filled with sorrow"* мисраси орқали ифода этмоқда. Бунда агар *"кабоб"* сўзи у бирикиб келган *"бағир"* сўзи билан биргаликда таржима қилинмай, алоҳида сўз сифатида ўгирилса эди, маънога путур етган бўларди. Шуни яхши билган мутаржим бу ўринда эҳтиётлик қилган ва таржимани тўғри амалга ошира олган. У йиғи матнидаги *"вой болам"* мурожаатини худди аслиятдаги каби бандни ташкил этган тўрт мисранинг охирида радиф янглиғ келтирган.

М.Диккенснинг мақоласида ҳам ўзбек халқининг мотам маросимида куйлайдиган йиғи қўшиқларидан бирининг инглизча таржимаси мисол сифатида келтириб ўтилган: *"There are also different types of "Yighi" songs, some sung in an improvisational manner, others sung by professional mourners. Here is an example of the latter:*

A hawk took flight high above the earth; woe!
He flew from my hands to the sky like an arrow.
I am left quite alone, I regret my friend.
Tears flow all day from my eyes like a river.
Woe unto me! How shall we live?"

Мазмуни: "Қирғий баланд осмон узра қўлимдан ўқдай учиб кетди. Мен ёлғиз қолдим. Кўз ёшларим кун бўйи дарё бўлиб оқади, ғам-қайғуга ботдим. Энди қандай яшаймиз". Ушбу қўшиқ мазмунидан унинг йиғи қўшиғи эканлиги, оила бошлиғи вафоти муносабати билан куйлангани аёнлашади.

С.Фидокор "йиғи" айтаётган кишининг вафот этган одамга нисбатан қариндошлигига кўра "йиғи"ларда турли сифатлашлар ва иборалар ишлатилишини айтиб ўтиб, оилада ота вафот этган ҳолатда "*sun and head of the household"*, онага нисбатан *"moon and fountain*, амаки ёки тоғага нисбатан *"door bolt",* фарзандга нисбатан *"rose or nightingale"* сифатлашлари қўлланилишини таъкидлаган.

Йиғида табуга алоҳида аҳамият берилиши маълум. Жумладан, дунё халқлари орасида исмга нисбатан табу билан муносабатда бўлиб келингани, асосан, яқин қариндошларнинг исми айтилмай, уларга нисбатан табу билан қаралгани ва алмаштириб айтиш одати шаклланган Ж.Ж.Фрезер томонидан алоҳида таъкидлаб ўтилган. Худди шунингдек, ўзбеклар одатига кўра ҳам, яқин қариндошларнинг исмлари, айрим сўзлар айнан айтилмайди, балки сир сақланади. Уларни ошкор айтиш ёмонлик белгиси ҳисобланади. Ўлим ҳодисасининг номи ҳам шундай лексик табу қаторига киритилади.

Таржимонлар ўлим ва мотам маросими ходисаларига тааллуқли табулар қуйидагича таржима қилаган: *"grave – a palace without any windows", "shroud – collarless shirt", "coffin – horse tree".* Яъни *"қабр – ойнасиз сарой", "кафан – ёқасиз кўйлак", "тобут– ёғоч* от" тарзида ифодаланган.

Мотам ёр-ёрлари ўзбек мотам маросими фольклорининг мустакил жанрларидан бири. Б.Саримсоқов ҳамда Д.Ўраеваларнинг фикрича, тўй ёр- ёрлари таъсирида мотам ёр-ёрлари келиб чиққан. Уларнинг куйланиш тартиби бир-бирига ўхшаб кетади. Мотам ёр-ёрлари дафн маросимидан олдин ижро этиладиган йиғиларнинг бир тури ҳисобланади.

Бироқ мотам маросими сифатида у шундай бахтга эришмай туриб, бевақт вафот этган кизларни сўнгги манзилига беармон узатиш ниятида ташкил қилинади. Таржимонлар ўзбекларнинг инсонни қадрлашдек юксак ўзига хос туйғулари асосида шаклланган бу удум ҳақида маълумот беришни кўзлар экан, *"салла ўраш"* бирикмаси инглиз тилида *"tied down" - "боғланган"* деган маънони билдиради, деб тушунтиришга ҳаракат қилган. Ҳолбуки, *"салла"* сўзи этнографик лексика ҳисобланади ва ўзига хос изоҳни талаб этади. Шуни инобатга олиб, таржимон *"Салла ўраш"* бирикмасини удум номи сифатида айнан сақлаган. Уни яқиндан тушунтириш мақсадида "боғланган" сўзидан фойдаланган. Лекин бу сўз кўп маъноли лексик бирлик бўлиб, ўзида турли маъноларни мужассамлантириб келади ва ёлғиз у орқали "салла ўраш" этнографизмининг моҳиятини тўлиқ очиб бериб бўлмайди.

Хуллас, С.Фидокор таржималарида ўзбек тилидаги мотам ёр-ёрлари, Чимилдиқ тутди, салла ўраш сингари маросимий этнографизмлар аслиятдагидек сақланиб, транслитерация усулидан фойдаланилган бўлса-да, улар таркибидаги айрим товушларнинг бошқа товушлар билан алмаштирилгани аён бўлади.

Мотам аллалари ўзбекона дафн маросимлари кўшикларидан бири. Бундай қўшиқлар болани ухлатиш вақтида айтиладиган алла билан генетик жиҳатдан боғлиқдир. Фақат "мотам аллалари" аллага нисбатан ғамгинроқ ва қайғулироқ оҳангда айтилади. "Йиғи" дафн маросимида қатнашувчиларни йиғлашга мажбур қилса, "мотам аллалари", аксинча, азадорларни тинчлантириш, уларга далда ва таскин бериш, йиғидан тўхтатиш учун куйланади. Уларни куйлашнинг яна бир сабаби шуки, ўлим ҳам абадий уйку ҳисобланади ва унга боғлаб абадий уйқу чорловчи "ўлим алласи" куйланади. Лекин *"мотам аллалари"* Ўзбекистоннинг барча худудларида ҳам учрамайди. Шуниси билан у локал хусусият касб этади. Бу маросимга кўра, дунёдан ўтган кишининг яқин қариндошларидан бир аёл дафн маросими ўтказилган куннинг кечасида марҳум тириклигида ётган тўшакда ётиши керак. Айтилишича, вафот этган кишининг руҳи ўша кечаси бу аёлнинг тушига кириб, бирор армони, тириклигида қилиб улгуролмаган иши бўлса маълум қилар эмиш.

Хулоса қисми. Таржимонлар ўз асарларида мотам аллаларини инглиз тилига таржима қилар экан, аввало, уларнинг ўзига хос маъносини очиб беришга, тушунтиришга ҳаракат қилади.

Ўзбек халкида мотам маросими кишининг вафоти ҳақидаги нохуш хабарни етказишдан то бир йил муддат ўтгунгача бўлган вақтни ўз ичига олади. Бу вақт оралиғида амалга ошириладиган барча расм-русумлар, урф-одатлар ҳақида Ҳ. Вамберининг китобида ҳам этнографик маълумотлар учрайди. Китобнинг еттинчи қисми *"Joy and Sorrow"* деб номланган бўлиб, унда ўзбекларда туғилиш, тўй ва мотам маросимлари тафсилотлари баён этилган.

Маҳаллий аҳоли томонидан майитни ювиш, кўмиш, мотам маросимини ўтказиш даври ва жойи ҳақида маълумотлар тўплаб, ўрганган. Мақолада тўлалигича бемор кишининг аҳволи ёмонлашишидан бошлаб, дафн маросими, ундан сўнг ўтказиладиган бир қанча маросимларнинг инглиз тилидаги талқинига бағишланган. Ўзбек миллатида оғир аҳволдаги беморнинг қайта ўнгланмаслиги хақидаги хабар шифокор томонидан унинг яқин қариндошларига айтилиб, беморнинг ўзидан сир тутилади.

АДАБИЁТЛАР:

1. *Ўраева Д. Мотам маросимидаги бир удум хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004. - № 2. - Б. 48.*
2. *Bo'ronov J., Botayev Sh., Irisqulov M., Rahmonberdiyev K. English - Uzbek dictionary. -T.: G'afur G'ulom Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилдли. 1-жилд, Б.356.*
3. *Бакоева М. Инглиз ва Америка адабиётидан ўзбек тилига шеърий таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари. - Т.: Фан, 2015. - Б. 142. 94*
4. *Galperin I.R.Stilistika. - Moskva: Oliy maktab, 1977.- P. 212.*
5. *Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. Т.: Фан, 1986. – Б. 29.*
6. *Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. - Т.: Фан, 2004. - Б. 45.*
7. *Komilova D. Giving the lexicon of emotional evaluation in literary translation //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. Special Issue 29. – C.34-39.*
8. *Гаффорова Назокат, Тешабоева Зиёдахон Қодировна. She'riy matn tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari. Uzbekistan Language and culture Volume 3 (4). Tashkent. – 2023. B.138-150*
9. *Комилова Дилдора Шавкатовна. Бадиий таржимада ҳиссий баҳолаш лексикасининг берилиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида) // ORIENSS. 2022. №10-2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-tarzhimada-issiy-ba-olash-leksikasining-berilishi-ingliz-va-zbek-tillari-misolida.*
10. *Kasimova, Rano Rakhmatulloevna, and Ziyadullayeva, Aziza Akmalovna, (2020) "Grammatical transformations in english translation of uzbek stories," Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology: Vol. 2: Iss. 8, Article 37. Available at: https://namdu.researchcommons.org/journal/vol2/iss8/37*

UO‘K 821.111

INGLIZZABON ADABIYOTDA AMIR TEMUR TIMSOLIGA BAG’ISHLANGAN ASARLAR TAHLILI

Sayidova Shahrizoda Nasrulloyevna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
sh.n.sayidova@buxdu.uz

Annotatsiya. *Maqolada buyuk sarkarda, tarixiy shaxslar orasida nafaqat Osiyoda, balki butun dunyoda o’z o’rniga ega bo’lgan Amir Temur siymosining inglizzabon adabiyotida obraz sifatida kirib kelish omillari va adabiy asarlarda uning timsoliga berilgan ta’riflar, Amir Temur xarakteristikasi haqida fikr va mulohazalar tahlil qilingan. Amir Temur shaxsining sifatlari yoritilgan bir nechta ingliz adabiyoti namoyondalari va ularning ushbu mavzudagi asar namunalari tadqiq qilinib, ushbu tarixiy shaxs haqida turli ijodiy asarlar yaratgan inglizzabon adiblar asarlari va ularda keltirilgan izohlar, obraz tasvirlari yoritilgan. Inglizzabon yozuvchilarning ushbu obrazni gavdalantirishda qo’llagan mulohazalardan misollar keltirilib, fikr-mulohazalari haqida so’z yuritilgan.*

Kalit so’zlar: *tarixiy shaxs, obraz, tragediya, ma’rifatparvarlik, insonparvarlik, san’at, badiiy adabiyot, tushuncha, prolog, epilog.*

АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ, ПОСВЯЩЁННЫХ АМИРУ ТИМУРУ В АНГЛОЯЗЫЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. *В статье анализируются факторы появления образа Амира Темура как персонажа англоязычной литературы, а также определения, данные его персонажу в литературных произведениях, мысли и мнения о характеристике Амира Темура, занимающего место среди исторических личностей не только в Азии, но и во всём мире. Отмечается, что изучены некоторые представители английской литературы, выделяющие личностные качества Амира Темура, и их примеры произведений на данную тему, а также произведения англоязычных писателей, создавших различные творческие произведения об этой исторической личности, а также по мере того, как даются комментарии и изображения, представленные в них. Приводятся примеры мнений, использованных англоязычными писателями при воплощении этого образа, и обсуждаются их мнения.*

Ключевые слова: *историческая личность, образ, трагедия, просветительство, гуманизм, искусство, художественная литература, концепция, пролог, эпилог.*

ANALYSIS OF WORKS DEDICATED TO AMIR TIMUR IN ENGLISH LITERATURE

Abstract. *The article analyzes the factors in the appearance of the image of Amir Temur as a character in English-language literature, as well as the definitions given to his character in literary works, thoughts and opinions about the characteristics of Amir Temur, who occupies a place among historical figures not only in Asia, but throughout the world. It is noted that some representatives of English literature have been studied, who highlight the personality qualities of Amir Temur, and their examples of works on this topic, works of English-language writers who have created various creative works about this historical figure, as well as comments are given and the images presented in them. Examples of the opinions used by English-language writers in embodying this image are given and their opinions are discussed.*

Keywords: *historical figure, image, tragedy, enlightenment, humanitarianism, art, fiction, concept, prologue, epilogue.*

Kirish. Biror tarixiy shaxsning obraz sifatida badiiy adabiyotga kirib kelishi, bu o’sha shaxsning jamiyatda o’z o’rniga ega siymo ekanligini, bundan tashqari nafaqat o’z millatida, balki dunyo sarhadlariga chiqa olganligini ko`rsatadi. Amir Temur esa ana shunday tarixda o’z o’rniga ega shaxslardan biri ekanligi butun jahonga ma’lum. Tarixiy shaxslar orasida Amir Temur kabi yaqqol va salobatli shaxs badiiy adabiyot shuningdek, badiiy publitsistika va san`at vakillari, yozuvchilar, shoirlar, dramaturglar, musavvirlar, haykaltaroshlar, musiqachilar va boshqalarning e`tiborini tortishi va u haqida ijodiy ishlar qilinmay qolmasligi mumkin emas edi.

1402-yilda Anqarada A.Temur qo‘shinlari bilan turk sultoni Boyazit o‘rtasida bo‘lib o‘tgan jang nafaqat sharqiy davlatlarni, balki butun Yevropani befarq qoldirmadi. Yevropaning ko‘plab yetakchi madaniyat va san’at namoyandalari qalbini hayajonga solgan bu tarixiy voqea kelajakdagi ko‘plab adabiy, san’at, sahna va musiqa asarlarining markaziy syujetiga aylangan. Amir Temur va Boyazid 16-asrdan to 20-asrgacha musulmon sharqining asosiy va deyarli yagona qahramonlari bo‘lgan desak adashmaymiz. Amir Temurning shaxsiyati o'rta asrlar yevropaliklarida katta qiziqish uyg'otdi, u qo'mondon sifatida xristian olamini muqarrar falokatdan qutqargani sababli XVI asrdan boshlab yevropaliklar minnatdorchilik belgisi sifatida Amir Temur shaxsi, uning davlatining tuzilishi, sarkardalik iste’dodiga bag’ishlangan bir qator badiiy va tarixiy asarlar yaratdilar. Bu asarlarda Sohibqiron ham realistik, ham epik xususiyatlarga ega obraz sifatida ko’rish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, bu vaqtda mavjud Yevropa olimlari, tarixchilari va sharqshunoslarining Temur davlatining siyosiy va madaniy hayotiga alohida qiziqishi Amir Temur va temuriylar, ularning umuminsoniy madaniyat rivojidagi hissasi va ta’sirini o’z asarlarida ochib berdi. Sharq tarixiga bag'ishlangan nafaqat inglizzabon, balki boshqa Yevropa yozuvchi va tarixchi olimlar asarlarida ham Amir Timur shaxsi o'zining munosib aksini topdi.

Amir Temur shaxsi hamisha yevropalik tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Uning faoliyatini, umuman temuriylar davrini o‘rganishga turli mamlakatlardan kelgan olimlar, tarixchilar, yozuvchilar katta hissa qo‘shishgan. Ular orasida R. Klavixo, I. Shiltberger, L. Langle, K. Marlo, I. Gyote, Ed. kabi taniqli shaxslar aytish mumkin. Po, Volter, G.Vamberi, X.Gukem, L.Keren va boshqalar. Amir Temur siymosi Yevropa san’ati va musiqa adabiyoti namunalarida tasvirlangani ham bejizga emasdir. Ilk adabiy va musiqiy sahna asarlari g'arb tomoshabinlari uchun nafaqat voqealarga boy maftunkor ekzotik hikoyani taqdim etgan, balki ayni paytda Yevropa jamoatchiligini sharqqa nisbatan geografik, siyosiy va madaniy qarashlar tizimini shakllantirgan yangi ma'lumotlar bilan ta'minlagan. Dastlabki asarlarda Amir Temur obrazi talqinining ahamiyati katta, chunki sahna materialining kelib chiqishi uning shaxsiga xos qarama-qarshi, biroz chalkash, noaniq xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan, bu esa keyinchalik badiiy asarlarda uning obrazining boshqacha talqin qilinishiga olib kelgan.

Inglizzabon adabiyotda Amir Temur shaxsiga bag’ishlangan asarlarning yuzaga kelishi uzoq va murakkab jarayon bo’lib hisoblanadi. Inglizzabon badiiy adabiyotida Amir Temur timsolining yoritilishida birinchilardan bo’lib Kristofer Marlo (1587 – 1588) ning “Buyuk Temur” tragediyasini aytish mumkin. Tragediyada Amir Temur yengilmas, salobatli, jasur sardor, kelishgan, aqlli, chin sevgiga moyil, sodiq do`st, insonparvarlikni ulug’lovchi, ilm-fan va ma’rifatni qadrlovchi shaxsga xos sifatlari ila tasvirlangan. Kristofer Marlo Amir Temurni Uyg’onish davrining afsonaviy odami sifatida tasvirlab, uni o’z zamonasining buyuk gumanisti sifatida gavdalantirgan. Amir Temur adabiyotda badiiy obraz sifatida gumanistlarning g’oya va qarashlari, hamda talablariga mos haqiqiy qahramon sifatida e`tirof etilgani va gumanistlarning g’oya, qarash va talablariga mos topilishi uning badiiy timsol sifatida paydo bo`lishiga asosiy omil bo’la oladi.

Yevropa adabiyotida Amir Temur siymosining badiiy obraziga bag’ishlab Marlodan keyin XVIII asr dramaturgi Nikolas Rou (1674 – 1718) juda muhim rol o’ynaydi. Adabiy dunyoda Temur hayoti ko’plab badiiy va adabiyot asarlariga ilhom bag’ishlagan. Ana shunday asarlardan biri Nikolas Rouning ilk bor 1702-yilda sahnalashtirilgan “Temurlan” pyesasi bo’lib, 5 akt va 7 sahnadan iborat bo`lgan “{Buyuk Temur” (Tamerlane ,1702) tragediyasi, epigraf, bag’ishlov, prolog va epilogni o`z ichiga olgan va bu asar badiiy qiymati va ommaviyligiga ko’ra o’z zamonasida Shekspir tragediyalari bilan bellashishga qodir bo’lgan asarlardan biri hisoblangan. Bu asarda Temurning hayoti va zabtlari to’g’ridan-to’g’ri tasvirlangan bo’lib, u ulkan hududlarni zabt etuvchi qudratli yo’lboshchi sifatida tasvirlangan va xalq orasida hurmatga sazovor. Asar o’z davridayoq olqishlarga sazovor bo’ldi va nashr etilganidan keyin ham asrlar osha san’atkorlar va olimlarni ilhomlantirishda davom etdi. Asar 14-asrda O‘rta Osiyoda Temuriylar saltanatiga asos solgan bosqinchi, tarixiy shaxs Tamerlanning hayotiga asoslangan. Rou o'yinida Tamerlan o'z maqsadlariga erishish uchun hech narsadan to'xtamaydigan shafqatsiz va shuhratparast rahbar sifatida tasvirlangan. Tamerlanning xarakteri hayratlanarli fazilatlari va tashvishli kamchiliklari bilan murakkab shaxs sifatida tasvirlangan. U zo'r harbiy strateg va xarizmatik lider sifatida, balki o'z hokimiyatini saqlab qolish uchun hamma narsani, shu jumladan o'z oila a'zolarini ham qurbon qilishga tayyor bo'lgan shafqatsiz va qasoskor hukmdor sifatida namoyon bo'ladi.

Romantizm davrida ham inglizzabon badiiy adabiyotda Sohibqiron mavzusida she`riy asarlar paydo bo`la boshlagani va shoir, adabiy tanqidchi, publitsist va esse janrining ingliz adabiyoti tarixidagi eng yirik vakili sanalgan Charl’z Lembning (1775 – 1834) “Malika Ariananing orzusi” (1818) deb nomlangan she`ri ham Amir Temur siymosining yoritilishida o’z o’rniga ega. “Malika Ariananing orzusi” – Amir Temurning rafiqasi haqidagi she`r bo’lib, bu she`r bevosita Amir Temurga aloqador bo`lmay, Sohibqiron unda u yoki bu munosabat bilan tilga olingan. Asarda Charl’z Lembning Amir Temur va uning yaqinlari haqida yetarlicha

ma`lumotga ega emasligi ko'rinib turadi. Muallif unda Sohibqironni "Butunjahon hukmdori qudratli Temur" (mighty Tamerlane, that was lord of all the land Between Thrace and Samarkand) deb sifat berar ekan, uning rafiqasiga G'arb muhitiga mos, biroq tarixiy haqiqatga zid ravishda ism qo`yib, uni "Malika Ariana"ga aylantiradi.

Samuel Klark (1599 –1682) ning "Buyuk Temurning hayoti" ("The life of Tamerlane the Great») 1653 yilda Londonda "Ilk ingliz tilidagi kitoblar 1641-1700" seriyasida nashr etilgan. Kitob Amir Temurning Xitoy podshosi mosolik Diyuk, Buyuk turk sultoni Boyazid, Misr sultoni, eron shahanshohi va boshqalar bilan olib borgan janglari ta`riflariga bag'ishlangan. Unda birinchi navbatda davlat boshliqlari ega bo`lishi lozim bo`lgan mulohazakorlik, oliyhimmatlik, mehribonlik, adolat, itoatkorlik, shijoat va shavkat singari insoniy fazilatlar haqida yozilgan.

Amerika she`riyatiga Amir Temur mavzusini olib kirgan shoir sifatida Edgar Allan Po (1809 – 1849) ni aytish mumkin. Adibning birinchi ijodiy ishi "Tamerlan va boshqa she`rlar" nomli asari 1827 yili nashrdan chiqqan bo`lib, bu kichik to`plamdagi boshqa she`rlar orasida katta hajmli "Buyuk Temur" dostoni Sohibqiron Amir Temur siymosiga bag'ishlangan. Dostonda Amir Temur – kuch-qudratga to`la romantik qahramon sifatida gavdalantirilib, u shon-shuhratga intiluvchi, hukmron bo`lishni istaydigan, dunyoga hukmronlik qilishni hohlaydigan, mahbubasini esa malika qiyofasida tasavvur qiladigan hukmdor sifatida tasvirlangan. Dostonning bosh mavzusi sevgi-muhabbat mavzudir. Ma`shuqasidan ayrilgan Sohibqiron Temur qattiq aziyat chekadi, ammo shu qurbonlik natijasida jangu jadallar uchun tug'ilgan bu buyuk zotning Samarqandda nafosat va go`zallikni ko`rish va yaratish niyatida bunyodkorlikka shasht etgani sababli "ro`yi zamin sayqali" ning turkiy xalqlarni birlashtiruvchi maskan sifatida barpo etilgani qayd etiladi.

Britaniyadagi muzeylardan birida yozuvchi Uilyam Poppl (1701-1764) tomonidan yozilgan 1720-yilda yozilgan "Taqvodor Temur" fojiasi qo'lyozmasi saqlanmoqda. Bu asar Temur obrazi talqinining yangi, bizningcha, yangi qirralarini ochib beradi. . Shunday qilib, asarda bag'rikenglik g'oyasi birinchi o'ringa chiqadi. Amir Temur shaxsi yuksak qadrlanib, unga alohida e'tibor qaratilgan. Matto Gregori Leyning (1775-1818) 1858-1859 yillarda Parijda nashr etilgan "Temur tatar" romantik dramasida, Sharl Brifonning (1781 - 1857) "Sevimli Bayazid" pyesasida, shuningdek, 1828 yilda Kopengagenda yaratilgan. Iogannes Kersten Xauchning (1790-1872) "Bayazid" spektaklida Amir Temur muhim rol o'ynaydi. Amir Temur haqida yaratilgan asarlar orasida 18-asr ingliz dramaturgining "Temurlan" (1701) tragediyasi alohida o'rin tutadi. Nikolas Rou (1674-1718) mashhurligi va ahamiyati bo'yicha Shekspirning durdona asarlari bilan raqobatlashdi. Nemis bastakori G.F.Xendel, ehtimol, N. Rou tomonidan o'tkaziladigan mavsumiy oqshomlardan ilhomlanib, 1724 yilda o'zining eng yaxshi operalaridan biri - "Tamerlan" operasini yaratdi va uni o'zi ham o'z asarlaridan ajratib ko'rsatdi.

Fojianing sahna hayoti tarixi 1702 yilda Linkoln maydonida spektakl premyerasi bilan boshlanadi. Bir asr davomida spektakl keyingi barcha teatr mavsumlarida o'n marta sahnalashtirilgan. "Tamerlane" ning mashhurligi, shuningdek, asarning Angliyada 18-asr davomida eng ko'p takrorlanganligidan dalolat beradi.

N. Rouning ingliz dramaturgiyasi tarixidagi pyesasi Draydenning qahramonlik tragediyalari qolipidan chiqib, sentimental tragediya turiga yo'lni oldindan ko'ra oldi. Shu bilan birga, u biz uchun ham tarixiy, ham estetik qadriyatga ega. Muallifning Amir Temurga munosabati N. Rouning Devonshir gertsogi Uilyam Markusga yozgan kichik bag'ishlovida ifodalangan: "Uning jasorati, taqvodorligi, o'z vaqtidaligi, adolati va o'z xalqiga bo'lgan otalik mehri, lekin eng avvalo uning zulm va zulmdan nafratlanishi, insoniyatning jamoat manfaati uchun g'ayratli g'amxo'rligi Janobi Oliylariga juda o'xshashdir." Muallif qahramonning xizmatlarini yuqori baholaydi va uning kamolotini yetkazish qobiliyati haqida kamtarona gapiradi. "Qahramon shoir tafakkuridan oshib ketdi", deb yozadi va shu bilan shoir qalami bu shaxs qudrati voqeligi timsoli oldida so'nib borayotganini ta'kidlaydi. Asar muqaddimasida N. Rou o'quvchilarga murojaat qilar ekan, Amir Temur shaxsini shunday tavsiflaydi: "... U davlat manfaatlari uchun kurashdi, azob chekdi. Bu solih shahzoda tinchlikka erishish uchun qon to'kishga tayyor edi"

N. Rou asarida Amir Temur va Boyazid munosabatlari siyosiy allegoriyalar ob'ekti bo'lgan. Xususan, shu mazmunda asarda Uilyam III va Lyudovik XIV hamda ingliz liberallari va konservatorlarining siyosiy munosabatlari qiyoslanadi. Devonshir gersogi Uilyam Markusga bag'ishlangan "Temurlan" asari Amir Temur badiiy obrazi talqinining yangi qirralarini ochadi.

Asar syujeti Amir Temur va turk sultoni Boyazid o'rtasidagi hal qiluvchi jangga tayyorgarlikdan boshlanadi. Amir Temur sarkardalarining suhbatidan ko'rinib turibdiki, sarkarda bo'lajak jangga puxta hozirlik ko'rmoqda, uning yakuni bo'yicha katta rejalar bor. Natijada Amir Temur g'alaba qozonadi, Boyazid va uning qo'shini asirga olinadi. Amir Temur siymosi talqinida qahramonlik mavzusidan tashqari yana bir qatorni ko'rish mumkinki, bu 18-asr musiqali sahna asarlariga eng xosdir. Unda Amir Temurning Boyazidning qizi Asteriyaga muhabbati mavzusi ustunlik qiladi. Ko'pgina musiqa va sahna asarlari, afsuski,

saqlanib qolmagan, ularning ba'zilari qo'lyozma holida shaxsiy fondlarda saqlanadi, nashr etilgan arzimagan qismi xorijiy kutubxonalar arsenalida.

N. Rou pyesasida Bayazid va uning rafiqasi Arpaziya sahnasida Bayazid obrazi yanada yorqinroq ochib berilgan. Shunday qilib, yunon malikasi Boyazidga majburan xotinlikka berildi. — Men zolimning xotiniman! – qichqiradi u og'riqli va taqdiridan charchagan holda, spektakl oxirida o'z joniga qasd qiladi. Amir Temur shaxsi siymosi turk darveshi Xoluning (Boyazidga yaqinroq) akalari bilan suhbatida ochib beriladi. Sohibqironning eng ko‘zga ko‘ringan xususiyati olijanoblik va kechirimlilikdir. Amir Temurning darvesh bilan suhbatidan esa Temur qarashlariga bag‘rikenglik namoyon bo‘ladi. Boyazidning vahshiyona zo‘ravonlik harakatlarini oqlab, darvesh Temurga yuzlanib: “Musulmon musulmon bilan urushmasin, aks holda Alloh taolo jazolaydi! Parvardigorim, Boyazid bilan kuchlaringni nohaqlarga qarshi birlashtirasan!” Amir Temur bunga javoban: “Siz meni qo‘rqitmoqchisiz! Bu sizning siyosiy hiylalaringizdan biri! Alloh taolo ko'p e'tiqodlarni yaratgan va hamma narsa din deyiladi. Bu dinlarning qarama-qarshiliklari ustida kurashish, qarindosh-urug'larga xiyonat qilish demakdir!

Amir Temurning oliyjanob, qudratli va buyuk shaxs sifatidagi obrazi Yevropa musiqa sahnasi adabiyotida ijobiy talqin etilgan. Sharq qahramonining yevropalik tomoshabinlar tomonidan ijobiy qabul qilinishi fakti ham muhim. N. Rou "Tamerlan" ushbu obrazni talqin qilishda yangi qirralarni ochib berdi va shu bilan uning badiiy obrazini G'arb musiqa adabiyotida yanada tatbiq etish uchun zarur shart-sharoit yaratdi. Ko‘p asrlik tariximiz bilan bog‘liq bo‘lgan musiqali sahna janridagi Yevropa asarlarini o‘rganish va targ‘ib qilish yangi g‘oyaviy-uslubiy talqinlarni aniqlashga xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, Amir obrazining badiiy talqini tahlili ingliz tilidagi adabiyotda Amir Temur obrazini tarixiy xarakter, badiiy adabiyotda faol ishlatilgan turli janr va formatdagi asarlar qahramoni sifatida ko’rishga imkon beradi. Shu bilan birga, mualliflar turli ma'no va bu boradagi shaxsiy qarashlarini tarixiy shaxs timsolida gavdalantirishdi. Asarlarda Amir Temurning harbiy jasoratlari va siyosiy qarorlari va yetakchilik fazilatlari alohida qiziqish uyg'otadi.

Robert Fletcher 1916 yili “Ingliz adabiyoti tarixi” kitobida Elizaveta davrining ilk dramalari ruknida (The earlier Elizabethan drama) Amir Temur siymosini Kristofer Marloning “Buyuk Temur” dramasi asosida bayon etilishi haqida qayd etilgan. Unda Temur aslida skiflar sardori bo`lib, XIV asrda G’arbiy Osiyoning va Sharqiy Yevropaning katta qismini egallaganini, bu haqida Marlo dramasida va XVI asr lotin manbalarida ham aytilgani hamda dramadagi sevgi voqealari Marloning badiiy to`qimasi ekanligini qayd etilgan. 1928 yil Amerika tarixchi olimi Gerold Lembning (1892 – 1962) “Amir Temur – hukmdor va sarkarda” (“Tamerlane, the earth shaker”) tarixiy romani bevosita Amir Temur hayoti va faoliyatiga bag’ishlangan.

Robert Hovard (to`liq ismi Robert Irvin Hovard / Robert Ervin Howard) fantaziya janrida ijod qilgan amerika yozuvchisidir. U Texas shtatining Pester shahrida tug’ilib, juda qisqa umr ko`rgan (1906 –1936). To`qqiz bobdan iborat “Lord of Samarcand” (Oriental Stories, Spring 1932) badiiy asari Sohibqiron egallagan hududlarda shahar va qishloqlarning chiroyli qad rostlab turishi, ayniqsa, saltanat poytaxti Samarqand muallif qalamida faxr ila namoyish etilishi, saltanatda va saroyda o`rnatilgan tartib-intizomlar va qonun qoidalar, turk sultoni Boyazidga qarshi bo`lgan jang va Xitoyga rejalashtirayotgan yurish tafsilotlari ham bayon etilgan. Vill Durant 1957 yili “Viklifdan Kalvingacha bo`lgan davrda Yevropa madaniyatining tarixi” asarida Buyuk Temur usmonli turklarning qirg’inbarot yurishlariga chek qo`yganini aytadi. Asar muallifi Durant mazkur kitobida Amir Temur quchgan zafaridan keyin, sulton Boyazidga oliyjanob muomalada bo`lgani, uning mavqeiga yarasha ish tutgani, unga va yaqinlariga alohida uchta chodir qurdirgani va keynchalik turk sultoni hastalangan paytda eng zo`r tabibni chaqirtirgani, yoniga Boyazidning ayoli bo`lgan Despoinani g’amxo`rlik qilishi uchun jo`natgani masalalariga to`xtalib o`tgan.

Devid Nikol, Britaniyalik olim, 1990-yili “Temur davri” (asliyatda: The Age of Tamerlane) deb nomlangan, 48 betdan iborat bo`lgan kitobda Sohibqiron hayoti va faoliyati, o`sha davr siyosiy va ijtimoiy ahvoli, Amir Temur qo`shini va ul zotning qo`llagan harbiy taktikasi va mahoratlari va Amir Temur davri madaniyati va Temuriylar tarixi haqida so`z yuritadi.

Beatris Forbes Mansning “Temurning taxtga o`tirishi va hukmronligi” asari (Manz B.F. The Rise and Rule of Tamerlane, Cambridge, 1990.) “Islom tamadduni bo`yicha Kembrij tadqiqotlari” ruknida 1999 bosib chiqarilgan. B. Mansning bu asari Temur biografiyasi yoki uning jang va zafarlari haqida emas, balki Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgan davrdagi siyosiy ahvol haqida. Iqtidorli siyosatchi, mohir jangchi, omad sohibi hamda buyuk saltanat barpo etish iqtidori ila Temur shak-shubhasiz Ulusning yakka hukmdori degan ta`riflari bilan Mans asarida Amir temurga nisbatan o`z munosabatini bayon etgan.

Beatris Forbes Mansning “Amir Temur va fotihning meros masalasi” maqolasida Amir Temurning katta nufuzga ega bo`lgani, ko`chmanchi bo`lib, u bunyodkorlik ishlarini qilgani, turk va fors madaniyati

targ'ibotchisi, mo`g'ullar istilosini yo`q qilgani va Islom dini targ'ibotchisi deb yozgan. Shunisi shubhasizki u tengi yo`q zabtkor, u tarqoq xalqlarni birlashtirdi va markazlashgan davlatni shakllantirdi. Uning faoliyati haqida turli bahs-munozaralar mavjud. Nega u yurishlar ustiga yurishlar qilgan? Qanday qilib bu tadbirlarni amalga oshirishni uddasidan chiqqan? Avlodlariga qanday meros qoldirgan? Temurdan keyin Turk va fors dunyosi qanday ko`rinishga ega bo`lgan? Mo`g'ul va islom madaniyati orasida qanday munosabatlar bo`lgan? – kabi savollarga javob topishga harakat qilgan muallif faqat chingiziylar xon unvoniga sazovor bo`la olishini va bu muhitda Amir Temur qanday yo`l tutgani haqida o`z fikrlarini ifodalagan.

"Temurning afsonaviy biografiyalari» nomli Ron Selaning 2011-yilda nashr etilgan kitobida muallif Amir Temurni Markaziy Osiyoning asosiy qismini zabt etgan va Temuriylar sulolasi asoschisi bo`lgan XIV asrning fotihi deb ataydi. Uning shuhrati o`z vatanida uch asr o`tgandan keyin ham biografiyalarda, fors va turk yozma manbalarda yashab keldi. Bu biografiyalar madaniy meros sifatida saqlanib qoldi. O`n sakkizinchi asrdan boshlanib hozirgacha davom etayotgan Amir Temur haqidagi turli asarlar yaratilishiga qaramasdan, chet el xalqlariga hanuz bu shaxsning hayoti va faoliyati haqida salmoqli ma`lumotga ega emas. Bu kitob nafaqat Sohibqiron shaxsiyati haqida, balki u yashagan davr, uning zafarona yurishlari, qanday qilib avlodlar qalbida mangu joy olgani hamda u haqida yozilgan asarlarning yaratilish davri va ularga bo`lgan munosabatlar aks ettirilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Amir Temur obrazi ingliz dramaturgiyasida murakkab va o'ziga xos obraz bo'lgan. U ijobiy qahramon va ba'zan salbiy shaxs sifatida, bosqinchi va tinchlikparvar hukmdor sifatida tasvirlangan. Amir Temurning hayot yo'li va unga bag'ishlangan adabiy meros butun dunyo bo'ylab tomoshabinlarni hayratda qoldirib, ko'p adabiyotxonlarni ilhomlantirib kelmoqda. Amir Temurning hayoti va O'zbekiston tarixiga qo'shgan hissasi butun dunyoda o'z ta'sirini qoldirdi. Uning merosi butun dunyo bo'ylab olimlar, san'atkorlar va yetakchilarni o'ziga jalb qilishda davom etmoqda va uning xotirasi O'zbekiston madaniy merosining muhim qismi bo'lib qolmoqda.

***ADABIYOTLAR*:**

1.Амир Темур жаҳон тарихида. Масъул муҳаррир Ҳ.Кароматов. « Шарқ» нашриёт матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. – Тошкент: 2001. – 314 б.

2. Парфенов А.Т. Кристофер Марло и легенды Востока и Запада. М., 1980.

3. По Эдгар Аллан. Стихотворения / На англ. и рус. яз. Составление А. Глебовской, С. Степанова. Предисл. и коммент. Ю. Ковалева. – СПб.: Издательство «Symposium», 1998.

4. Эрматов Б.С. Амир Темур Ғарбий Европа адиблари нигоҳида. – Тошкент: 2017.

5. Justin Marozzi Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the World. Da Capo. February 2006. – 449 p.

6. Lamb H. Tamerlane, the Earth Shaker. Ann Arbor. – Michigan: University of Michigan Library. 2005.

7. Manz B. The rise and rule of Tamerlane. Cambridge studies in Islamic civilization. – Cambridge, New York: Cambridge University Press, 1999. – P. 231.

8. Marlowe's Tamburlaine Preface VII. Vanderbilt University September, 1941 Roy W Battenhouse.

9. The Rise and Rule of Tamerlane. book review by Danny Yee © 1999 http://dannyreviews.com/ April 1999.

10. https://cyberleninka.ru/article/n/the-short-survey-of-the-history-of-creation-poem-tamerlane-by-edgar-allan-poe

11. http://readbookonline.net. Charles Lamb. Queen Oriana's Dream.Text of 1818.

12. Tamburlaine the Great. The New Human. http://www.novelguide.com

УЎК 82

ЎЗБЕК АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ГЕРМЕНЕВТИКАГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ

Саидова Нодира Мустакимовна
Бухоро давлат университети
Бошланғич таълим кафедраси ўқитувчиси
saidova@mail.ru

Аннотация. *Ўзбек адабиётшунослигида герменевтикага оид назарий қарашлар замонавий адабиётшуносликда яратилган. Бироқ Алишер Навоийнинг "Мажолис ун-нафоис" асарида бадиий матннинг таҳлил ва талқинига ўзига хос тарзда ёндашилади. Мақолада бадиий матннинг таҳлилига қаратилган герменевтик ёндашувнинг шаклланиш омиллари хусусида фикр юритилади.*

Калит сўзлар: *бадиий матн, герменевтика, таҳлил, талқин, шарҳ, бадиият, ғоя, мавзу.*

ФОРМИРОВАНИЕ ВЗГЛЯДОВ НА ГЕРМЕНЕВТИКУ В УЗБЕКСКОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Аннотация. *Теоретические взгляды на герменевтику в узбекском литературоведении сформировались в современном литературоведении. Однако в "Маджолис ун-нафоис" Алишера Навои к анализу и интерпретации художественного текста используется особый подход. В статье рассматриваются факторы формирования герменевтического подхода к анализу художественного текста.*

Ключевые слова: *художественный текст, герменевтика, анализ, интерпретация, комментарий, искусство, идея, тема.*

FORMATION OF VIEWS ON HERMENEUTICS IN UZBEK LITERARY STUDIES

Abstract. *Theoretical views on hermeneutics in Uzbek literary studies have been formed in modern literary studies. However, Alisher Navoi's "Majolis un-Nafois" uses a special approach to the analysis and interpretation of a literary text. The article examines the factors of the formation of a hermeneutical approach to the analysis of a literary text.*

Keywords: *artistic text, hermeneutics, analysis, interpretation, commentary, art, idea, theme.*

Кириш. Жаҳон адабиётшунослигида, жумладан, ўзбек адабиётшунослигида бадиий асарларни таҳлил ва талқин қилишда янгича ёндашувларнинг юзага келиши бадиий матнни ҳар томонлама англашга кўмаклашувчи ижобий ҳодиса саналади. Зеро, таҳлил ва талқинлар-бадиий асар баҳосини белгилашдаги бош мезон саналади.[1.341-bet]

Бадиий матн таҳлилида кенг қўлланувчи усуллардан бири гермевтикадир. Бу усул бадиий матнни тушуниш ва талқин қилишнинг назарий масалаларини ўрганади. Герменевтика" (грекча hermeneutike) - "ўрганиш, шарҳлаш" деган маънони билдиради. Таъкидлаш керакки, бу атама мумтоз адабиётшунослигимизда "шарҳ", "тафсир" атамалари билан берилган.

Шарқ адабиётида айтилмоқчи бўлган фикр ва қарашларни рамз ва мажоз орқали ифодалаш анъана тусини олган. Шунинг учун бундай асарларнинг моҳиятини англаш, ўз даври китобхонларига етказиб бериш, муаллиф бадиий маҳоратига баҳо беришда шарҳ илмига мурожаат қилинган. Бу илм тарихи узоқ тарихий даврни босиб ўтиб, бу соҳада маълум бир тажрибалар тўплана борган. Натижада шарқнинг буюк ижодкорлари Жалолиддин Румий, Хўжа Ҳофиз, Мирзо Бедил асарларига ёзилган шарҳлар фикримизни тасдиқлайди. Шарҳ ёзиш анъанаси билан боғлиқ маълумотлар мумтоз манбалар ва тазкира асарларда ҳам қайд қилинган.

Султон Санжар замонида яшаган Авҳадиддин Анварий улкан қасиданавис бўлган. Шеърлари зўр бадиий маҳорат билан ёзилган, тили бирмунча оғир ва теран маънолидир. Шу боис, Абулҳасан Фаррахоний Анварий девонини шарҳлаш учун турли фанларга оид 60 та илмий китоб ёзган.

Хожа Аҳрор Валий тарихини тадқиқ қилган адабиётшунос олим унинг "Рисолаи ҳавроия" асари машҳур шоир Абу Саъид Абулхайрнииг бир рубоийси шарҳига бағишланганлигини таъкидлайди. Олимнинг қайд этишича, орифлар султони сифатида мусулмон Шарқида донг таратган

Шайх Абусаид Абулхайр Меҳнавийнинг бир рубоийси илму адаб ва тасаввуф аҳли ўртасида шунчалик шуҳрат тутганки, биргина Саййид Неъматулло Валий унинг шарҳига 3 та рисола бағишлаган. Қосим Анвор, Шайх Озарий, Яъқуб Чархий ва Хожа Аҳрор Валийлар ҳам уни шарҳлаб рисолалар битганлар. Бундай маълумотни "Музаккири аҳбоб" тазкирасининг "Олимлар раҳномаси мавлоно Иброҳимнинг муқаддас ёди" номли фаслида ҳам ўқишимиз мумкин: "Ўта даражада илмли олимлардан эди. Кўпгина илм соҳалар бўйича яхши таснифлари бор. Айниқса, ғариба фанида иқтидори кучли эди. Иншо ёзганда кўп маъноларни муъжаз ва лўнда каломда баён этиб, сиқиқ ҳажм мазмунида катта ва кўп фикрларни англатарди. Ҳазрат Убайдуллохон пешиндан кейин арабий тилда бир рубоий айтиб юборган экан, мулло эса намозшомгача довур вақт ичида шу рубоиий хусусида бир арабча рисола тасниф қилишга улгурганлар. Мазкур рубоийнинг ҳар бир мисраси бобида олти юз эллик маъно айтганлар.[2.172-bet]

Тадқиқот объекти. Маълумки, бирор-бир шоир шеърларига шарҳ ёзиш борасида араб ва форс-тожик адабиётшунослигида маълум бир тажрибалар мавжуд эди. Жумладан, Ҳофиз, Румий асарларига ёзилган шарҳлар. Аммо бу тажриба туркий-ўзбек тилидаги адабиётшуносликда Алишер Навоийгача бўлган даврда кўзга ташланмайди. [3.75-bet] Бироқ Алишер Навоийнинг "Мажолис ун -нафоис" нинг Ҳусайн Бойқарога бағишланган саккизинчи мажлисини кузатсак, унда муаллифнинг шоир ғазалларига таҳлил ва талқинлари ўзига хос шаклда бериб ўтилади. Бу билан Навоий туркий адабиётдаги кемтикликни тўлдириши билан бирга тазкирачилик анъанасини бойитди ҳамда шарҳ ёзиш анъанасига хос хусусиятларни акс эттирувчи таҳлилларни ўз тазкирасида бериб ўтади.

Улуғ шоир асарнинг саккинчи мажлисида Ҳусайн Бойқарога шеъриятидан намуналар келтирар экан, уларга ёзилган ўз шарҳларини ҳам жойлаштиради. Жумладан, Ҳусайн Бойқаронинг Мавлоно Лутфий ғазалига ёзган жавобиясига муносабат билдириб шундай ёзади:

"Малик ул-калом Мавлоно Лутфийнинг машҳур матлаи жавобида дебтур:

Эй қадинг тубию жаннат хадди гулгун устина.

Бу матлаъ воқеъ бўлубтурким:

Хаттининг тори тушубтур лаъли майгун устина,

Уйлаким, жон риштаси бир қатраи хун устина.

Басират аҳли қошида зоҳирдурким, тафовут не чоғликдур. Не учунким, Мавлоно юзни жаннатқа нисбат қилубдур ва бу муносиб ташбеҳдур. Бовужуди бу икки мисра бир-бирига марбут эмас ва жавоби бовужуди ғаробати маъни иккаласи бир-бирига мувофиқ ва алфози бир-бирининг муқобаласида лойиқ воқеъ бўлубтур. Ва қофияга тағйир бериб ҳам ушбу радиф била яна уч ғазал дейилибтур.[4.192-bet]

Лирик асар бу оний ҳис – туйғунинг бадиий ифодаси экан, унинг таъсирчанлигини таъминлаган омиллардан бири тасвирий воситалар саналади. Ижод ва ижодкорлик олдига юқори талабларни қўйган Алишер Навоий лирик асар таҳлилида унинг бадиияти, унда қўлланилган бадиий - тасвирий воситалар, ички ва ташқи жозибадорлигини таъминлаган муҳим омиллар, ғояни қай тарзда акс эттира олганлигига ҳам диққат қаратади. "Асарнинг тарбиявий ва маърифий мотиви унинг маъносини (мазмунини), бадиий жиҳати эса, сувратини (шаклини) ташкил қилади. Сурат-ташқи кўриниш, маъно-моҳият, асос. Асарнинг барча адабий воситалари, тил ва услуби асарнинг сувратини ташкил этади. Фикр эса маънодир"[5.35-bet].

"Мажолис ун -нафоис"дан келтирилган иқтибосда Алишер Навоий Лутфий байтида қўлланилган ташбеҳнинг (маъшуқа юзини жаннатга ўхшатилиши) ўринли ва муносиб эканлигини таъкидлайди. Шоир бу ўринда қўлланилган тасвирий воситанинг инсон тафаккуридаги бадиий инъикосига эътибор қаратади. Яъни тасвирий восита ўқувчи кўз ўнгида гавдаланмаса, ҳаёт ҳақиқатига мос келмаса китобхон ундан эстетик завқ ололмайди. Шу мисрага жавобия тарзида айтилган Ҳусайний жавоби "бовужуди ғаробати маъни (маънонинг гўзал ва нодир бўлиши билан бирга) иккаласи (байтнинг икки мисраси) бир-бирига лойиқ воқеъ бўлганлиги"ни таъкидлайди, бироқ икки муаллифнинг мисралари "бовужуди бу икки мисраъ бир-бирига марбут (мувофиқ) эмас" дейди.

Навой "Мажолис ун -нафоси"да Ҳусайн Бойқаро ғазаллари шарҳида бир неча масалаларга урғу берганлигини кўришимиз мумкин. Жумладан,

1. **Шоир ғазалларида қофия ва радифнинг "бағоят ширин ва рангин" қўлланганлиги билан боғлиқ таъкидлари:**

"Бу қофия ва радиф ҳам ул ҳазратнинг хоссаи табъидур ва ҳеч ерда эшитилмайдур ва бағоят ширин ва рангин тушубтур. Ҳажр шоми суубатида ўзини анжум ва афлок била машғул тутар кайфиятида бу ғазал бошдин оёқ хуб ва пурошуб воқеъ бўлубтурким:

Ҳажр шоми ой чиқиб мен йиғлар эрдим дард ила,

Сайрлар қилдим сени истаб маҳи шабгард ила”

2. **Ҳусайний ғазалларининг композицион тузилиши хусусидаги қарашлари:**

“Бовужуди ўз ишқи ўти ва ёр ҳусни ўти риққати қалб ва тараҳҳум жиҳатидинким, ишқ аҳли лозимасидур яна бир мазлуми зор ишқининг ўти била ҳам кўнмак ва матлаъдин **шеърнинг охириғача бу маънини ҳар байтда** изҳор қилибдурким, назм элидин ҳеч кимга даст бермайдур:

Бас эмас эрди манга ҳам ўз ўтум, ҳам ёр ўти
Ким, анга афзун дағи бўлмиш яна бир зор ўти»

3. **Тасвирий воситаларнинг ғазалдаги бадиий вазифаси тўғрисидаги таъкидлари:**

“Наргис кўзлук ва ғунча оғизлиғ гульузори кўзу оғзин наргис била ғунчаға таржеҳ қилғони ажиб навъ воқеъ бўлубтур:

Наргис олмас ердин ул фаттон кузунг олида кўз,
Оғзинг олида тутулмиш ғунчанинг оғзида сўз”

Шеърий санъатда “таржеҳ” бир нарсани ёхуд бирор образни бошқа нарса ё образдан баланд қўйиб таърифлашни англатади. Бу байтда шоир ўз севгилиси кўзларини наргис гулидан, оғзини ғунчадан афзал деб таърифлайди.

Алишер Навоий, бундан ташқари, асарда Ҳусайн Бойқаронинг тажоҳули ориф, таржеъ, талмеҳ, муболаға санъатларини маҳорат билан қўллаганлигини далилловчи байтларни ҳам келтиради.

4. **Ҳусайний шеърларининг мавзулар оламининг ранг-баранглиги билан боғлиқ қайдлар:**

А) Навоий шоир ғазаларида ишқ мавзусининг етакчилик қилишини қайд қилади:

“Ишқдин жаҳон ичра, афғонидин калом ва кўю-кўчада бу достонидин паём:

Ваҳки, ишқингдин жаҳон ичра фиғонимдур менинг,
Барча кўю-кўчада ҳам достонимдур менинг.”

Б) Ғазалларда панд-насиҳат ғоясининг ифодаси масаласига эътибор қаратади:

Ошиқона киноят била ҳусн аҳлиға элни шайдо қилур маънида **насиҳат қилибдур** ва оламға расво қилур маънида **мавъизат этибдур**, басе ғарибдур:

Баъдазин, эй ҳусн аҳли, элни шайдо қилмангиз,
Бевафолиқ айлабон оламға расво қилмангиз”

5. **Ҳусайний ғазалларида ҳасби ҳолнинг бадиий ифодаси масаласи:**

“Бу матлаъ дағи ўз ҳоли шарҳидаким, анвоъи балият бир ишқ жиҳатидин бир-бирининг устида бўлмиш бўлғаи. Бу матлаъ яхши воқеъ бўлубтурким:

Йўқ дамеким, телбалардек ул париға зор эман,
Сабру ҳушумдин жудо, дарду балоға ёр эман”

6. **Ҳусайн Бойқаронинг ғазалчиликдаги ихтироларини таъкидлайди:**

“Бу қофия ва радиф ҳазрат Султон Соҳибқироннинг ихтироидурким, ҳеч назм айтилмайдур ва ҳеч девонда битилмайдур:

Оҳким, ҳижрон ўтидин куйди жоним ўзга навъ,
Ўртади офоқни ўтлуқ фиғоним ўзга навъ”.

7. **Навоийнинг Ҳусайний ғазаллари таҳлилида объектив баҳо беришида, ҳатто, ўзига нисбатан танқидий муносабатда бўлиши билан боғлиқ фикрларни келтириб ўтади:**

“Бу фақирнинг бир ғазалига бу ғазал жавоб воқеъ ўлубтурким, ўзум инсоф юзидин муътарифманким, андин юз мартаба ортуқроқ тушубтурким:

Тушгали ҳажрингда, эй сарви гуландомим менинг,
Не кўзумда уйқу бор, не жонда оромим менинг”

Қўлланилган методлар. Алишер Навоий “Мажолис ун-нафоис” асарида шарқ адабиётида шарҳ ёзиши тарихига оид баъзи бир маълумотларни келтирилиб ўтадики, бугун адабиётшунослимизда шаклланган герменевтика масалалари узоқ тарихий тараққиёт босқичини босиб ўтгалигидан далолат беради. Жумладан, Мавлоно Ҳусайний Хоразмий ҳақида фикр юритган Алишер Навоий шундай ёзади: Ва Мавлоно Жалолиддин Румий (қуддиса сирруҳу) маснавийсиға шарҳ битибдур ва “Қасидаи бурда” ға ҳам хоразмийча туркий тил билан шарҳ битибдур”. Ёки Мавлоно Шарофиддин Али Яздийга бағишланган фаслдаги “Ва алар мусаннафотидин улча машҳурдур: “Қасидаи Бурда” шарҳи ва “Асмоуллоҳ” шарҳи ва “Зафарнома” тарихидур ва муаммо фанини алар тадвин қилдилар”. Келтирилган иқтибослардаги маълумотларнинг шарҳнавислик тарихидаги қиммати шундаки, унда бир асарга турли кишилар томонидан мурожаат қилинганлиги ўша асарнинг ўз даврида машҳурлигидан далолат берган. Юқоридаги иқтибосда “Қасидаи бурда”нинг икки муаллиф томонидан шарҳ қилинганлиги Навоий томонидан таъкидланади. “Қасидаи бурда” араб шоири Каъба Ибни Зухайр (VII аср) қаламига мансуб асар. Бу асарга жуда кўплаб

шарҳлар битилган. Асар номидаги “бурда” сўзи “йўл-йўл матодан тикилган устки кийим” маъносини англатган. Ривоятларда таъкидланишича, пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в) шол бўлган беморнинг устига ўз бурдаларини ташлаганда у дарддан фориғ бўлган экан. Демак, қасиданинг яратилиши бевосита мана шу ривоятга асосланилган. Арабшунос олим И.М. Фильштинскийнинг таъкидлашича, мусулмонлар қасиданинг айрим парчаларини ўзлари билан тумор қилиб олиб юрганлар.

Алишер Навоий Шарофиддин Али Яздий томонидан шарҳланган “Асмоуллоҳ” асари Шайх Муҳаммад Тободгоний қаламига мансуб бўлиб, унда Аллоҳнинг 99 муборак исми ва уларни зикр этишнинг фазилатлари ҳақидаги фикр юритилади. Мазкур асарга ҳам ислом минтақа адабиётида жуда кўплаб шарҳлар ёзилган. Кўриниб турибдики, Шарқда шарҳ ёзиш анъанаси бевосита исломий мавзулар ва исломий маданият билан боғлиқ бўлган.

Хулоса. Навоийнинг “Мажолис ун -нафоис” асарида Ҳусайн Бойқаро лирик меросига оид қарашларини ҳамда шарҳлар асосида яратилган асарларга оид маълумотларни тизимлаштирсак, мумтоз адабиёда шарҳ ёзиш ва ундан кўзланган мақсад ойдинлашади. Жумладан:

- Лирик асарлар шарҳида шаклий унсурлари (қофия ва радиф)га эътибор қаратиш;
- Ғазалларнинг композицон тузилишини назарда тутиш;
- Тасвирий воситаларни қўллашда маҳорат масаласига диққат қаратиш;
- Таҳлил жараёнида муаллифнинг ранг-баранг мавзуларга мурожаат қилишидаги маҳорати масаласи;
- Лирик асарларда шоир “мен”лигининг ифодаси ҳамда таржимайи ҳоли билан боғлиқ чизгиларнинг бадиий талқини масаласини тадқиқ қилиш;
- Муаллифнинг ўз даври шеъриятида тутган ўрни ва у олиб кирган бадиий кашфиётларга холисона муносабатда бўлиш;
- Таҳлил ва талқиннинг объективлигини таъминлашда танқидий муносабатнинг бўлиши ва ҳоказо.

Хулоса қилиб айтганда, араб, форс-тожик адабиётида шаклланган шарҳ ёзиш, лирик асарларга оид турли таҳлил ва талқинларнинг юзага келиши билан боғлиқ анъаналар Алишер Навоий томонидан ўзига хос шаклда тарғиб қилинди. Бу эса ўз даврида туркий адабиётни тарғиб қилишнинг бир кўриниши эди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Nazarov B, Rasulov.A, Qahramonova Q, Axmedova Sh., O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. -Toshkent. -2012//Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. B-341

2. Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи. – Тошкент: “Ёзувчи”, 1994. 75-бет.

3. Ҳасанхожа Нисорий. “Музаккири аҳбоб” (И.Бекжон таржимаси). – Тошкент: “Халқ мероси. 1993. 172-бет.

4. Botirxon Valixo’jayev. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (davri, zamondoshlari, hayoti, faoliyati, merosi).To’rtinchi qism. https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/botirxon-valixojayev-alisher-navoiy-davri-html

5. Навоий. Мажолис ун-нафоис.192-бет

6. Е. Бертельс, История персидско-таджикской поэзии, М., 1960.

UDC 372.8:81

STYLE CHARACTERISTICS OF DIALECTS AND ACCENTS IN THE HISTORICAL NOVEL "BAKU-1501" BY AZIZA JAFARZADE

Abbasova Aynur,
Nakhchivan State University,
Dissertation student of the
Azerbaijani language and literature department
aynurabbasova1987@gmail.com

Abstract. *Although she wrote her works in various genres, Aziza Jafarzadeh, who is known as the author of historical novels, in her works has recreated in detail the complex and transitory events of Azerbaijan's history from ancient times to the 20th century. He did not describe history only on the basis of facts and documents, but also gave it the qualities of artistry, liveliness, and imagery. Aziza Jafarzade's historical novels are valuable sources that reflect the historical values and ethnography of our people, and are also rich in linguistic aspects. In his novels, the writer revealed the wide possibilities of the Azerbaijani language by using dialect, archaism and borrowed words.*

Key words: *obsolete word, archaism, dialectology, displacement, substitution.*

СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДИАЛЕКТОВ И АКЦЕНТОВ В ИСТОРИЧЕСКОМ РОМАНЕ АЗИЗЫ ДЖАФАРЗАДЕ «БАКУ-1501»

Аннотация. *Хотя Азиза Джафарзаде писала свои произведения в различных жанрах, она известна как автор исторических романов, но в своих произведениях детально воссоздала сложные и скоротечные события истории Азербайджана от древнейших времен до XX века. Она не описывала историю только на основе фактов и документов, но и придавала ей художественность, живость, образность. Исторические романы Азизы Джафарзаде являются ценными источниками, отражающими исторические ценности и этнографию нашего народа, а также богаты лингвистическими аспектами. В своих романах писательница раскрыла широкие возможности азербайджанского языка, используя диалект, архаизмы и заимствованные слова.*

Ключевые слова: *устаревшее слово, архаизм, диалектология, смещение, подмена.*

AZIZA JAFARZODA "BOKU-1501" TARIXIY ROMANIDA DIALEKTLAR VA URUVLARNING USLUB XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Aziza Jafarzoda *o'z asarlarini turli janrlarda yozgan bo'lsa-da, tarixiy romanlar muallifi sifatida tanilgan. U o'z asarlarida Ozarbayjon tarixining qadimdan to XX asrgacha bo'lgan murakkab va o'tkinchi voqealarini batafsil jonlantirgan. U tarixni faqat fakt va hujjatlar asosida tasvirlab bermay, unga badiiylik, jonlilik, obrazlilik sifatlarini ham bergan. Aziza Jafarzodaning tarixiy romanlari xalqimizning tarixiy qadriyatlari, etnografiyasini aks ettiruvchi qimmatli manbalar bo'lib, lisoniy jihatlarga ham boy. Yozuvchi o'z romanlarida sheva, sheva, arxaizm va o'zlashtirilgan so'zlardan foydalangan holda ozarbayjon tilining keng imkoniyatlarini ochib bergan.*

Kalit so'zlar: *eskirgan so`z, arxaizm, dialektologiya, ko`chish, almashtirish.*

Introduction. Although Aziza Jafarzade talked about the Safavid era in her novel "Baku-1501" and entered the lexicon of that era, it has lost the frequency of usage for our modern language, but by using archaism and borrowing words in some dialects and dialects, she used their semantic aspects. "Writers representing this and other dialects played a major role in the development and enrichment of the vocabulary of the literary language at the expense of dialects. In our modern literary language, today there are many words that are part of the literary language, and although these words did not leave the vocabulary of different dialects, our writers revived them by using them in their works, gave them a national color and included them in the dictionary of the literary language" (Jafarov, S. 1982: p. 136).

Main part. Azerbaijani colloquial language is multifaceted due to its character. In this respect, spoken language can be divided into two branches according to its content: a) simple speech; b) dialect and accent. Everyone can understand simple spoken language. However, elements of dialect and accent are not

understood in the same way by everyone. Unlike the literary language, the dialect of a certain place or region is distinguished from others. The dialects of the Azerbaijani language have added new words to the vocabulary of the literary language from time to time, and this process is still ongoing. Therefore, the vernacular and its dialects are valuable as a source of constant enrichment of the literary language.

A.Jafarzade's novels are rich with enough materials to study the dialect lexicon of the Azerbaijani language. Fiction serves as a transition for dialect words to enter the vocabulary of the literary language. Writers bring dialect words that need to be used in literary language from a lexical-semantic point of view into fiction. Among them, the ones that have a national character enrich the vocabulary of the literary language.

He used dialectism, archaism and borrowed words in the lexicon of his historical novels, confirming their interesting stylistic qualities. Dialects and dialects have a special role in the language of the author's historical novel "Baku-1501". In the novel, "The Caspian was very quiet today. It was spring. On the shore, where **takamseyrak** bushes were visible, black spots were occasionally noticeable under the rocks" (Jafarzadeh, A. 2016: p.5). The word " **takamseyrak** " in the sentence belongs to the dialects of Aghdam, Barda, Gazakh (western group) and is used sporadically, very rarely, the first one is a complex adjective that cannot be used separately, and the second one is used as a multiplicative adjective (Shiraliyev, M., Ismayilov, M. 1999: p.557). The explanation of the word **takamseyrak** is also given in the explanatory dictionary of the Azerbaijani language and is related to the adverb: "The main part of speech belongs to the adverb, it expresses the meanings of a*dda-budda*, *orada-burada*, *seyrak* " (Dialectological dictionary of the Azerbaijani language. / a. Obastan).

Dialectisms consisting of archaic adverbs can also be found in the novel. For example, "Ismail did not remember his father. At least aran-saran, he could not remember his face and height" (Jafarzadeh, A. 2016: p.18). **Aran-saran** the adverb of manner-movement belongs to the dialect of Baku, Salyan (eastern group) and means ***çox az, otari, az-maz, azca*** (Shiraliyev, M., Ismayilov, M.1999: p.16).

Aziza Jafarzade's language is notable for its abundance of everyday vocabulary. Of course, dialects are one of the indicators of this lexicon. In this sense, the following examples are noteworthy: "The girl learned to make **shirbadushanda** from Xeyransa wife by peeling figs and drying them **mocalanda**, and to make **puskanda** by boiling and drying them, she cooked adavali **zincilfarac** in a fig pot, dried grapes and mulberries, made rich fig and ag shanı jam, gathered provisions for the harsh, mild winter, and made preparations" (Jafarzadeh, A.2016: p.26). Here the name Xeyransa is given as **Xeyransa**. **Xeyransa** is a word of Persian origin, and in borrowed words, the sound of a is replaced by the sound of a, and vowels become thicker. **Mocalan** - belonging to the dialect of the Eastern group (Baku) means a special place for drying figs, **shirbadushanda** -means dried figs after boiling (dialectological dictionary of the Azerbaijani language. / a. Obastan). The words **puskanda**, **riçal**, **ag shanı** do not belong to the dialect lexicon. **Puskanda** is a word of Persian origin - peeled and dried fig; **riçal** - grapes, figs, mulberries, etc., cooked in **doshab**. fruit jam; and **ag shanı** is a very sweet, juicy, aromatic type of grape - It means **Ag shanı, *Qara shanı*** (explanatory dictionary of the Azerbaijani language. / a. Obastan). Professor M.Shiraliyev, who is considered the father of Azerbaijani dialectology, writes: "In our dialects and dialects, the increase of vowels at the beginning and in the middle of the word is common, and rarely at the end of the word", "In our dialects and dialects, the vowel increase between two consonants is often noticeable in borrowed words. This phenomenon can be seen between deaf or voiced consonants and sonorous consonants. The increase of vowels in the middle of the word mainly refers to closed vowels. But sometimes the growth of open vowels is also evident" (Shiraliyev, M. 2008: p.64-66). The increase of the ***a*** sound can be attributed to the **adavalı zincilfarac** dialect shown in the example. In the Ganja-Kazakh dialect, the addition of **a** to the middle of the word in the word Adava occurs. This phenomenon is called epenthesis. Belonging to the Baku (eastern group) dialect, **zincilifarac** means halva cooked with fig juice. It means **advalı halva** (sweet) (Shiraliyev, M., Ismayilov, M.1999: p..648).

"Wives used these grapes and figs to make **puskanda**, **shirbadushanda**, dried movuc for the winter fast, to make **doshab**, which is a medicine for ailments, to taste **kashil** and halva, and to cook **zincilfarac**, which is **novxarısh** for children" (Jafarzadeh, A. 2016: p.26). The explanation of the words **mocalan**, **puskanda**, **shirbadushanda** va **zincilfarac** is given in the above example. The words movuc and **novxarısh** given in the given dialect examples do not belong to the dialect lexicon. **Movuc** belongs to the lexicon of the literary language and is included in the group of common words, it is used as a synonym of the words raisin, dried grape. **Novxarısh** means raw food, that is, everything eaten with bread (explanatory dictionary of the Azerbaijani language. / a. Obastan). Although the word **Novxarısh** is included in our explanatory dictionary, it is losing its functionality in modern times. " **tazak** used ash and **karma** in winter, **kulash** and **qaramıg**

stubble **hazel** in summer" (Jafarzadeh, A. 2016: p.82). **Tazak**, **karma** - belong to Jabrayil, Jalilabad, Fizuli, Kalbajar, Gazakh, Sabirabad, Salyan, Ordubad, Sharur dialects. When the waste of goods is trampled and fixed, it becomes ***basma***, and when it is chopped, it becomes ***kerme*** (Shiraliyev, M., Ismayilov, M. 1999: p.277). The word **tazak** belongs to the lexicon of the literary language. It means cattle dung, which is used as fuel after drying (explanatory dictionary of the Azerbaijani language. / a. Obastan). "Bowls, glazed dishes made of clay, kuza, kupa, glasses and dabbalar were arranged on the shelves and dahmardalara ", " **sovça, sanak, nehra, kupa** and other products were sold to those who came from the villages (Jafarzadeh, A. 2016: p.82). Among the words given in the examples of the dialect and accent lexicon, dahmarda - a large, deep plate in the Baku, Alibayramli, Lankaran and Sabirabad dialects (Shiraliyev, M., Ismayilov, M.1999: p.130), **dabba** - **lovga** in the Aghdam, Borchali, Gazakh, Yevlakh dialects, evasive in the Fizuli, Gazakh dialects, conditional eraser; In Hamamli (Pambak district of Western Azerbaijan (now the Republic of Armenia)) dialect, obstinate, stubborn; In the Aghdam dialect, it means gunpowder (Shiraliyev, M., Ismayilov, M. 1999: p.129).

The **dabba** dialect given in the sentence is used in the Aghdam dialect in the sense of gunpowder. The explanation of the words **sovça**, **sanak** given as an example of dialectics is as follows: **Sanak** is synonymous with the word **sahank**. It comes from the Arabic word **sahn**, which means bowl. A pot with a handle, a bell, and a bottleneck, made of copper or clay, for carrying water; copper ***sahank***, pottery ***sahang***. Professor B. Khalilov shows that: "The word ***sahank*** has many images in Azerbaijan. Depending on the size of the jar, ***curdak, sovça, bardaq, sahang*** have names like (Khalilov, B. 2012: p.441).

The Sanak dialect is pronounced differently depending on the region. For example, in the dialects of Barda, Nakhchivan, Ordubad, it is pronounced in the form of **sayan**, and it means a porcelain bowl: pour a chub into ***sayana***, and in the dialects of Gakh, Zagatala, it is pronounced in the form of **saqan**, and it means a large container for storing food: Is there wheat in the **sagan**? (Shiraliyev, M., Ismayilov, M. 1999: p.487). The words **nehra** and **kupa** belong to the lexicon of the literary language. **kupa** - **a** container in which yogurt is stirred to get oil; **kupa** are made of earthenware or wood, grapes - water, oil, etc. it means a pot of different sizes that is poured (explanatory dictionary of the Azerbaijani language. / a. Obastan). The word **kupa** given in the example means diminution. The suffix **-a** here is a word-forming suffix with a diminutive meaning. That is, a **kup** is larger than a **kupa** in terms of volume. Docent A. Agalarov noted in his book "Research of non-productive suffix morphemes" that **"-a,-a** suffix is also a non-productive suffix that forms a noun. Mainly by adding to the end of names, it forms words that indicate time, simile, object, tool. For example: **kup-a, qoz-a, gec-a, lavash-a** etc."(Agalarov, A. 2014: p.73).

*The fig **sabahi**,*
Filling the plate.
Open your frown
*Hey, yellow **sabahi**,*
*Buttermilk doesn't give **oyuna**,*
*Won't let him **oyuna*** (Jafarzadeh, A. 2016: p.27).

In the fragment of the poem given in the first paragraph, the **sabahi** dialect is the name of a type of grape in the dialect of Ganja-Gazakh (western group) (Shiraliyev, M., Ismayilov, M. 1999: p.467). If we analyze the word **oyun** given in the first and second stanzas of the poem given in the second stanza as a dialect, it means that day in the northern and western (Kazakh, Sheki, Karvansaray) dialect group (Shiraliyev, M., Ismayilov, M. 1999: p.438). However, the word Oy is not given here as a dialect. Oy means house, and there was a case of replacing the e sound with the o sound. It occurs most often in eastern dialects and dialects, in the Kazakh dialect. This phenomenon often shows itself in the first syllable of the word before **v** and **y** sounds (Shiraliyev, M. 2008: p.46).

According to their ancient customs, the days were called special day, salt day, single day, milk day, and mirror day. The months were also named after sheep farming: **guzduk, dol, dolardı, qarbasan, boza, korpa, dıbara, amlik...**" (Jafarzadeh, A. 2016: p.43). **Guzduk** means autumn grain in the dialect of Basarkechar (district in Goycha district), city of Chambarak-West Azerbaijan (present-day Republic of Armenia), Khanlar (present-day Goygol district) (Shiraliyev, M., Ismayilov, M. 1999: p.210). In the book "Dictionary of Nakhchivan Dialects and Dialects" written by Doctor of Philological Sciences, Professor Abulfaz Guliyev and Nuray Aliyeva, **guzduk** dialect is given as **guzdak** in Nakhchivan (southern group) dialect. In the first sense (Nusnus) it means a shorn lamb, and in the second sense it means newly green grass in autumn. It has been noted that the **guzdak** dialect is used in the same sense in Dashkasan, Fuzuli, Gadabay, and Zangilan dialects (Hasanova S., Abulfaz Mukhtaroglu.2017: p. 115). Doctor of Philology, Professor S. Hasanova, in her article "Peculiarities of Language and Style of Abulfaz Mukhtaroglu", drew

attention to the **guzduk** dialect, which is considered a variant of the **guzdak** dialect due to its pronunciation and letter composition, in the verse "The sky is stained with blood" in the poet's language, and evaluated it as the Nakhchivan dialect: **guzdak** dialect (Bulgan) means new green grass in autumn. In the Nakhchivan (Shahbuz) dialect, **guzdukh'** (Shahbuz) means autumn sowing. **Guz**, which used to be a synonym of autumn in this word, is one of the linguistic units currently included in the archaic lexicon (Hasanova S., Abulfaz Mukhtaroglu.2017: p.345). **Dol** - in the Ganja, Goychay, Sheki dialects, it means gender, generation, in the Ordubad dialect, it means the millstone that is poured out of the mill (Shiraliyev, M., Ismayilov, M. 1999: p.152). From the dialect examples given in the sentences, the words **dolardı**, **qarbasan**, boza belong to archaisms, not dialectisms. **Dolardı** is a winter drink made from millet, water and sugar after the birth of domestic animals, **qarbasan** - the time of snowfall, boza - millet. It is one of the oldest known Turkish drinks. Boza is usually drunk during winter months. July 15-May 15 (during the grain harvest) is the season for making **boza**. The word Dıbara is not explained in the dialectological and explanatory dictionary of the Azerbaijani language. However, according to our opinion, the word **dıbır** took the form of **dıbara** because it means the name of the day. **Dıbır** means a two-year-old male goat in the Kurdamir dialect, and a one-year-old kid in the Ismayilli, Basarkecher, Mingachevir, and Nakhchivan dialects (dialectological dictionary of the Azerbaijani language. / a. Obastan). The word **amlik** is not a dialectic. Belonging to the lexicon of the literary language, it means a lamb that has just fallen to the grass and at the same time suckled its mother (explanatory dictionary of the Azerbaijani language. / a. Obastan). Even from the "Koroglu" saga, "I'm pulling **amliklar** from the tumor; Be a heavy pack!". From the epic "Gachaq Nabi" "The cool air of the steppe, the meat of the **amlik** lamb made the Cossacks happy and put them to a sweet sleep", etc. in the given examples, we can see that the word amlik means lamb (explanatory dictionary of the Azerbaijani language. / a. Obastan).

In his youth, he saw several **tabah** quarrels (Jafarzadeh, A. 2016: p.47). In the given example, the word **tabah** is used in the Shamakhi dialect to mean generation, scorpion (Shiraliyev, M., Ismayilov, M. 1999: p.555). The word **tabah** is a borrowed word. It is of Persian origin, its translation means destroyed, destroyed, void (explanatory dictionary of the Azerbaijani language. / a. Obastan). We can see that the word " **tabah** " is used in the sense of ruin and futility in the poem of the famous poet of Azerbaijan Gasim Bey Zakir " Who is waiting, my eyes, do not tell you the truth":

"It is a grass that the donkey always eats,
In the beginning there is **tabah**, in the end there is no one." (Gasim bey Zakir, 2005: p. 80)

"Yes, just as the fight started, the army gathered and came out, the one who ran away ran away, mine went **gira** " (Jafarzadeh, A. 2016: p.84). The word **gira** given in the sentence belongs to the dialect of Baku (eastern group). It is pronounced in the form of gira dushmeg, meaning to fall into a difficult, difficult situation. In the Balakan dialect, **gira** is a storehouse of cleaned nuts (Shiraliyev, M., Ismayilov, M. 1999: p.200). The **gira** dialect given in the example belongs to the Baku (eastern group) dialect. Getting into trouble means getting into a difficult situation. "Since then, I have made it a habit to make this kind of **gulabatin**" (5 p. 85). The dialect of **gulabatin** (***gulabatın***) given in the example is a borrowed word. In the Azerbaijani dialectological dictionary, two meanings are explained in the Baku (eastern group) dialect. The first meaning is clean (adjective), the second meaning is a golden thread (Shiraliyev, M., Ismayilov, M. 1999: p.207). The dialect of **gulabatin** (***gulabatın***) in the sentence is given in the meaning of golden thread. In Molla Panah Vagif's couplet "It is true, there are many beautiful things in the world" shown below, we can see that the word **gulabatin** means a golden thread:

A ring on her finger, a reproach in her ear,
knot by knot to the neck,
***Gulabatin** shirt, blue jacket,*
The collar needs a gold button (M.P. Vagif, 2004: p. 121).
***Gulabatin** shirt means a shirt embroidered with gold thread.*

Na **faddasan** Gumush?" (Jafarzadeh, A. 2016: p.45). The word **faddasan** in the example should actually be **fandasan**. Fand is a word of Persian origin, it means "priyom", "style" (explanatory dictionary of the Azerbaijani language. / a. Obastan. In other words, ***na faddasan (na fandasan)*** means what kind of way are you. So, the word ***na faddasan*** has changed over time. Doctor of philological sciences, professor M.Shiraliyev noted that "Arabic and Persian words have been included in the vocabulary of our dialects and dialects since ancient times, and have undergone more changes in accordance with the rules and laws of the language. Under the influence of the phonetic laws of the language (harmony law, voice drop, voice rise, assimilation, dissimilation, etc.), it has gradually changed its phonetic appearance" (Shiraliyev, M., Ismayilov, M. 1999: p.342).

"Well, these reports of yours are true, I wonder, or are they just what those who put their mouths on the bum **qayırmasıdı**?" (Jafarzadeh, A. 2016: p.46). The verb **qayırmaq** is a modified form of the word to build. Here, there was an increase in the consonant **y** between the vowels. Also, there is a substitution of the vowel **u** (a labialized vowel) with a vowel (a non-labialized vowel). This is a characteristic of the dialects and dialects of the western group of Azerbaijan. "Omar's son, where is the strength to give hax in public now?" (Jafarzadeh, A. 2016: p.46). In the word book used in the sentence, **q-x** substitution occurred at the end of the word in dialects and dialects. "Oh, the invisible **tarı**, this is the only thing left, didn't it happen to the **fagır-fugara**?" (Jafarzadeh, A. 2016: p.47). **Tanrı**-God, there has been a case of dropping the n sound in the word **tarı**. "The falling of the n sound in the middle of a word is one of the widespread phenomena in our dialects and dialects. We find this phenomenon in all dialects and dialects. The fall of the n sound occurs mainly before the sounds **r, l, sh, s, z, t, g, x**" (Shiraliyev, M., Ismayilov, M.1999: p.102). **Fagır-fugara** does not belong to dialectisms, it means the lower, poor class of society (explanatory dictionary of the Azerbaijani language. / a. Obastan).

In the explanatory dictionary of the Azerbaijani language, **Fagır** is explained in the form of **faqir**, and **fuqara** is explained in the form of **fugara**. **Faqir** is a word of Arabic origin meaning poor, poor, and **fuqara** means the plural form of the word **faqir**: poor, destitute. At the beginning of the word, the sound of a is replaced by the sound of a, the sound of u is replaced by the sound of u, and in the middle of the word, the consonant sound of **q-g** was replaced. According to Professor M. Mammadli, "dialects are divided into two groups according to the processing of **q** > **g** change: 1) **g** sound at the end of polysyllabic words in north-eastern dialects: **yarpag**; 2) in the western, southern and northeastern dialects, the **x** sound prevails: comb, etc. In the Agdash transitional dialect, the characteristic of the change of **a > a** in the dialects belonging to the western group is manifested" (M. Mammadli, 2019: p. 35-67).

Conclusion. The research shows that the Azerbaijani language has different dialects. These dialects are valuable as one of the means of enriching our literary and artistic language. The language of Aziza Jafarzade's historical novels shows that artistic style cannot be imagined without dialects.

REFERENCES:

1. *Dialectological dictionary of the Azerbaijani language. / a. From Obasanjo*
2. *Explanatory dictionary of the Azerbaijani language. / a. From Obasanjo*
3. *Agalarov, A. (2014). Study of unproductive suffix morphemes, Nakhchivan: School publishing house, 106 p.*
4. *Jafarov, S. (1982). Modern Azerbaijani language, Baku: Maarif, 214p.*
5. *Jafarzadeh, A. (2016). Baku-1501, Baku: Khan publishing house, 348 p.*
6. *Khalilov, B. (2012). Azerbaijani language anthology, Science and education publishing house, 648p.*
7. *Shiraliyev, M. (2008). Basics of Azerbaijani dialectology, Baku: East-West, 416p.*
8. *Shiraliyev, M., Ismayilov, M. (1999). Azerbaijani dialectological dictionary, Ankara: Turkish Language Institute*
9. *Gasim Bey Zakir. Selected works, Baku, Eurasia Press, 2005, 400 p.*
10. *Language and style peculiarities of Hasanova S. Abulfaz Mukhtaroglu. Language is our spiritual identity. Nakhchivan, Ajami, 2017, p. 342-354. P.345).*
11. *Guliyev A., N. Yadigar. Dictionary of Nakhchivan dialects and dialects. Nakhchivan, "Ajami" publishing house, 2017, 296 pages.*
12. *M. Mammadli, Azerbaijani dialectology. Textbook. Baku: Zardabi LTD, 2019*

M.P. Vagif. Works. Baku, "East-West", 2004, 264 pages.

UO‘K 82

SAIF ZAFARI BUXORIYNING “DURRUL MAJOLISI TURKI” TOSHBOSMASINING ARXEOGRAFIYASI

Boqiyev Azizbek Abdullajon o’g’li,
Buxoro davlat universiteti,
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo’nalishi magistranti,
O‘zbekiston musulmonlari idorasi Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *“Durrul majolis” asari forsiy tilda yozilgan bo’lib, unda Odam alayhissalomning yaratilishidan boshlab keyingi yuborilgan payg’ambarlar hamda so’ngi payg’ambar bo’lmish Muhammad alayhissalom va u zotga haq yo’lda ergashgan sahobiylar, avliyolarning hayoti bilan bog’liq qissalar go’zal va betakror holatda bitilgan. Asar forsiy tilda yozilganligi bois turkiy xalqlar uchun ham qiziqarli bo’lganligi tufayli mashhur Maxdum Qodiriylar sulolasidan bo’lmish Eshon Janobi Sulton Sayyid xo'ja Ibn Mahmudxo'ja Eshon Toshkandiy bu asarni turkiy tilga tarjima qilgan. Shu bois asar “Durrul majolisi turki” deb nomlangan.*

Kalit so’zlar: *Durrul majolis, Saif Zafari Buxoriy, toshbosma, nashr, Basmala, qo’lyozma, badiiyat, Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, tasavvuf.*

АРХЕОГРАФИЯ КАМЕННОЙ ПЕЧАТИ САИФА ЗАФАРИ БУХАРИ «ДУРРУЛ МАДЖОЛИСИ ТУРКИ»

Аннотация. *Произведение «Дуррул Маджолис» написано на персидском языке, оно связано с жизнью пророков, посланных после сотворения Адама, и последнего пророка Мухаммеда, а также сподвижников и святых, следовавших за ним по правильному пути. Рассказы написаны красиво и оригинально. Поскольку произведение было написано на персидском языке, оно было интересно и для тюркских народов, Эшан Джанаби Султан Сайид Ходжа ибн Махмудходжа Эшан Ташканди, член знаменитой династии Махдума Кадири, перевёл это произведение на турецкий язык. Именно поэтому произведение называется «Дуррул Маджолиси Тюрки».*

Ключевые слова: *Дуррул Маджолис, Саиф Зафари Бухари, литография, издание, Басмала, рукопись, искусство, Священный Коран, хадисы, суфизм.*

ARCHAEOGRAPHY OF SAIF ZAFARI BUKHARY'S "DURRUL MAJOLISI TURKI" STONE PRINT


Annotation. *The work "Durrul Majolis" was written in Persian language, it is related to the life of the prophets sent after the creation of Adam, and the last prophet, Muhammad, and the companions and saints who followed him on the right path. The stories were written in a beautiful and unique way. Since the work was written in Persian, it was also interesting for Turkic peoples, Eshan Janabi Sultan Sayyid Khoja Ibn Mahmudhoja Eshan Tashkandi, a member of the famous Makhdum Qadiri dynasty, translated this work into Turkish. That is why the work is called "Durrul Majolisi Turki".*

Key words: *Durrul Majolis, Saif Zafari Bukhari, lithograph, edition, Basmala, manuscript, art, Holy Qur'an, Hadith, Sufism.*

Kirish. Jonajon yurtimiz mustaqillikka erishganidan so’ng, mo’tabar hamda nodir qo’lyozmalarni o’rganish, xalqimiz mulki bo’lgan turli qo’lyozma va toshbosma manbalarni topish, ularni tadqiq va tabdil qilish, nashr etish ishlari sezilarli darajada jonlandi. Bu borada bir qarashda ko’zga tashlanadigan salmoqli ishlar amalga oshirildi va mazkur xayrli ishlar davom etib kelmoqda. Aytish lozimki, ko’plab qo’lyozma va toshbosma manbalar hozirgi o’zbek imlosiga transliteratsiya qilinib chop etilmoqda. Jumladan, Buxoro shahridagi Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat universal ilmiy kutubxonasida saqlanayotgan bebaho qo’lyozma manbalar olimlar ko’magida nashr etilib, xalqimizga taqdim etib kelmoqda. Ana shunday sa’y-harakatlar natijasida sho’ro tuzumi mafkurasi o’rganishni man etgan yuzlab mutafakkirlarimiz, diniy arboblarimizning ilmiy-ijodiy merosidan bahramand bo’la boshladik. Buyuk olim va mutasavvif arbob Saif Zafari Buxoriyning ijodi ham shular jumlasidan sanaladi.

Saif Zafari Buxoriy o’z davrida ko’zga ko’ringan buyuk yozuvchi hamda tarixchi olim bo’lib, o’zining “Durrul majolis” kitobida Qur’oni Karim hamda Hadisi Shariflarda zikr qilingan qissalar va oyatlarning ma’nolarini chuqur yoritib o’sha davr talabiga binoan forsiy tilda yozib tugatilgan. Ushbu asar o’zining yozilish uslubi hamda axloqiy-didaktik mavzudagi qissalari bilan boshqa asarlardan yaqqol ajralib turadi.

Asosiy qism. “Durrul majolis turki” toshbosma Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat universal ilmiy kutubxonasida 726-inventar raqam ostida saqlanadi. Bu noyob manba 1910-yil Toshkentdagi G‘ulomiy matbasida bosmadan chiqarilgan, 240 sahifadan iborat. Ushbu kitob Toshkentda bosilgan bo’lsa-da, Buxoro qo’lyozmalari fondida saqlanayotgani uchun shartli ravishda Buxoro toshbosmasi nomi bilan o’rganilmoqda. Toshbosma betlari sahifaning yuqori qismida arab raqamlari bilan ko’rsatilgan. Ushbu kitob an’anaviy devonlar kabi Basmala bilan boshlangan. Hamdu sano va na‘tlardan so‘ng, ushbu kitobning asl musannifi Saif Zafar al-Buxoriy ekanligi, kitobning nomi "Durrul majolis"ligi hamda ushbu kitob forsiy tilda yozilganligi, bu asarni forsiy tildan turkiy tilga tarjima qiluvchi Eshon Janobi Sulton Sayyid xo'ja Ibn Mahmudxo'ja eshon Toshkandiy mashhur Maxdum Qodiriylardan ekanligi aytib o‘tilgan. Asar arab alifbosi asosida yozilgan bo’lib, jami 33 bobdan iborat. Kitobning dastlabki muqova-sahihasida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan:



Joriy yozuvdagi tabdili:

Miftohuli jannat La ilaha illalloh Muhammadur rosululloh.

La havla vala quvvata illa billahil a’liyyil a’zim. Mashaallohu kana vama lam yasha’ lam yakun.

Ushbu kitob bihujjati nishoni musammo ba “Durrul majolisi turki”.


Bihasbi farmoyish Mullo Sayyid Akbarxo’ja va Mullo Sayyid Sultonxo’ja Eshon o’g’lilarining xarajoti ilan bosma uruldi va be ijozat chof qilmoq mamnu’.

Dar shahar Toshkand matba’ dar G’ulomi tab’ orasida shud.

Kitobning muqova-sahihasi duoyi xayr bilan boshlangan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, asarning nomi “Durrul majolisi turki” ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, Mullo Sayyid Akbarxo’ja va Mullo Sayyid Sultonxo’ja Eshon o’g’lilarining xarajoti bilan bosmadan chiqqanligi ta’kidlanishi bilan ruxsatsiz chop etish

mumkin emasligiga urg'u berilgan. Toshkentda bosmadan chiqarilganligi ham aytilgan. Kitobning ilk sahifasida an'anaviy xarakterdagi hamd va na't keltirilgan.

Ma'lumki, Sharq musulmon adabiyotida kitobatchilikning maxsus an'anasi shakllangan. Ushbu an'anaga qat'iy amal qilingan. Mazkur an'ananing shakllanishi Qur'oni Karim bilan bog'liq. Chunki har bir ijodkor asar yaratar ekan, o'z kitobini muqaddas Qur'oni Karimga o'xshatma sifatida bo'lishini orzu qilib, aynan mazkur kitob boshlanmalarini inobatga olib yozgan. Ya'ni dastlab basmalayi sharif so'ng hamd va keyin na't boblari keltirilgan. "Durrul majolisi turki" asarida ham mazkur an'anaga qat'iy rioya qilingan. Kitobning birinchi sahifasida unvon qismi va matn birgalikda berilganligini ko'rish mumkin. Unvon bu – ilk sahifaning yuqori qismida joylashtiriladigan bezakdir.



Joriy yozuvdagi tabdili:

Bismillahir rohmanir rohim

Hamd majid va sanoyo beadad va ul podshohi azal va hakimi lam yazal va Xoliqi Toq va qodiri alal itloqkim O'z qudrat va komiliysi birla Xudoyo yakka va yagonaligini ma'lum va oshkor qilmoq uchun va qudratlarini bildirmoq uchun avval O'zi o'z nuri pokidin hamma maxluqotdin ilgari Nuri Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamni ofriyda qildi, sallallohu alayka yo Muhammad. Ya'ni rahmati Xudo

senga ey Nuri Muhammad. Andin so'ng Xudoyo bekam va beniyoz va beziyon aydi. Ey mani nurim, ey mani do'stim va ey mani bir kazidim sani do'stlug'ing uchun va sani ishq-muhabbating uchun sani nuringni tafili va sharofatidin jami ashyoni va Arsh va Kursiy va lavh qalamni va osmon va yerni va hamma ajoyib va g'aroyiblarni o'z qudrat komilim birla yaratdim va sening uchundur dedi sollallohu alayhi va ala alihi vasallam va yana duo va durud oliy va as'hobi kirom va chahori yor izom va xulofoyi roshidin va shuhadoyi solihiyn va imomayni muttaqiyn va aimmatud din rizvanullohi taala ajmain.

Muallif avval basmalayi sharif kalimasini keltirgan. So'ng Haq taolloning yakka-yagonalik sifatlarini keltirib, unga hamd aytadi. Shundan keyin butun borliq yaratilishidan avval Nuri Muhammadiyning yaratilganligi, bu nurning sharofatidan Arsh, Kursiy, lavh qalam, osmon va yer hamda barcha ajoyib va g'aroyiblar yaraganligini qayd etadi. Qolaversa, muallif olam va undagi jami g'aroyibotlarni Alloh faqat Muhammad (s.a.v) uchun yaratganligiga ham urg'u beradi. Ayni shu fikrdan so'ng hazrati Rasulullоh (s.a.v) ga na't aytadi. Shu o'rinda chahoryorlar, xalifayi roshidinlar, shahidlar, imomlarga ham duoyi oliy tilaydi.

Asar quyidagi 33 bobdan iborat:

Birinchi bob Hazrati Odam alayhissalomning jasadi muboraklarini yaratmog'ini bayonidadur

Ikkinchi bob Mehtar Ibrohim alayhissalomning xayr va ehson va sahovatlari fazilatining bayoni

Uchinchi bob Mehtar Shuayb alyhissalomni fazilatlatini bayonidadur

To'rtinchi bob Hazrat Muso alayhissalomning hayotlari hamda Tur tog'iga borganlari bayonidadur

Beshinchi bob Hazrati Sulaymon alayhissalomning fazilatlari bayonidadur

Oltinchi bob Hazrati Iso alayhissalom fazilatlari bayonidadur

Yettinchi bob payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom fazilatlari bayonidadur

Sakkizinchi bob ota-onag'a yaxshilik qilmoq va muloyim so'zlamoq va xursand qilmoq bayonidadur

To'qqizinchi bob Hazrati Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallamning muborak tishlarini majruh bo'lg'onining hikmatini bayonidadur

O'ninchi bob Xo'ja olam sollallohu alayhi vasallamni Haq subhanahu va taolog'a iltimos birla munojot qilg'onlarining bayonidadur

O'n birinchi bob Hazrati Ali karramallohu vajhahuning hikmatlarining bayonidadur

O'n ikkinchi bob Moriya Qibtiyyaduki habash yurtidin payg'ambarimiz hizmatlarig'a kelib erdi, aning bayonidadur

O'n uchinchi bob Fazilati bir jovoni Yusuf sifat Xudo azza va jallaning rizosin istab yurar erdi aning bayonidadur

O'n tòrtinchi bob Fazilati Xolid ibn Valid roziyallohu anhuning hikoyalarin bayonidadur

O'n beshinchi bob Fazilati Bilol va Hilol roziyallohu anhuni hikoyatlari

O'n oltinchi bob Xòja Luqmoni hakim farzandlariĝa nasihat qilĝonlarini bayonidadur

O'n yettinchi bob Bir kofir bat yer ostiga òĝli betob erdi kalima aytib musulmon bòlĝonini bayonidadur

O'n sakkizinchi bob Sultoni Ibrohim Adhamni hikoyatlarini bayonidadur

O'n tòqqizinchi bob Mard saxiy birla baxil xotun hikoyati

Yigirmanchi bob Ozar buttaroshni hikoyatini bayonidadur

Yigirma birinchi bob Tòtiqushni hikoyatidur

Yigirma ikkinchi bob Xòja Hasan Basriy rohmatullohi alayhi hikoyatlaridur

Yigirma uchinchi bob Shayton alayhi lanani hikoyatidur

Yigirma tòrtinchi bob Podsho Nishopurni bayonidadur

Yigirma beshinchi bob Xòja Robiy Hisomiddin qadasallohu ruhahuni hikoyatlaridur

Yigirma oltinchi bob Xòja Sufyoni Savriy rohmatullohi alayhni hikoyatlaridur

Yigirma yettinchi bob Xòja Hasan Nuriy rohmatullohi alayhning hikoyatlaridur

Yigirma sakkizinchi bob Shayx Barsisaning bayonlaridur

Yigirma tòqqizinchi bob Ramazoni sharifning fazilatlarini bayonidadur

O'ttizinchi bob Xonai kabani fazilatlarini bayonidadur

O'ttiz birinchi bob Hazrati imomi Hasan va imomi Husan roziyallohu anhumoni shahid bòlĝonlarini bayonidadur

O'ttiz ikkinchi bob Sulton Abu Said abulxayrni hikoyatlaridur

O'ttiz uchunchi bob Ahli behishtlarni fazilatlarini bayonidadur



“Durrul majolis”da payg’ambarlar qissasiga alohida ahamiyat berilgan. Jumladan, Qur’oni Karimda zikri kelgan payg’ambarlardan quyidagilar asarda keltirilgan:

1. Muhammad alayhissalom
2. Odam alayhissalom
3. Ibrohim alayhissalom
4. Muso alayhissalom
5. Ismoil alayhissalom
6. Ayyub alayhissalom
7. Sulaymon alayhissalom
8. Shuayb alayhissalom
9. Yusuf alayhissalom
10. Yunus alayhissalom
11. Iso alayhissalom
12. Lut alayhissalom
13. Yaqub alayhissalom

Qolaversa, sahobalar va ularning ibratli hayoti yo’li haqida ham mulohazalar berilgan. Sahobalardan “durrul majolis” kitobida zikri keltirilganlari quyidagilar:

1. Abu bakr roziyallohu anhu
2. Umar roziyallohu anhu
3. Usmon roziyallohu anhu
4. Oisha roziyallohu anho
5. Ali roziyallohu anhu
6. Fotima roziyallohu anho
7. Hasan roziyallohu anhu
8. Husan roziyallohu anhu
9. Moriya roziyallohu anho
10. Hafsa roziyallohu anho
11. Hadicha roziyallohu anho
12. Xolid ibn valid roziyallohu anhu
13. Bilol roziyallohu anhu
14. Hilol roziyallohu anhu
15. Muoviya roziyallohu anhu

Muallif avliyolar zikriga ham o’rin ajratadi. Albatta, ular haqidagi mulohazalarni sahobayi kiromlardan keyin keltiradi. Asarda quyidagi avliyolar haqidagi hikoyatlar berilgan:

1. Ibrohim Adham
2. Hasan Basriy

3. Abdulloh ibn Muborak 4. Xo’ja Robi’ Hisomiddin
5. Xo’ja Sufyon Savriy 6. Xo’ja Hasan Nuri
7. Shayx Barsiso

Kitobda “Layli va Majnun” hikoyasi ham qisqacha bayon qilinganligini qayd etish lozim. Ma’lumki, asar arxeografiyasini yoritishda kitobning kalofon qismi ham muhim rol o’ynaydi. Kalofon bu ba’zan uchburchak, ba’zan boshqa shaklida chizilib, ichiga kotib nomi, qo‘lyozmaning ko‘chirilish va tugatilish sanasi (xatm ul-kitob), kotibning qo‘lyozma so‘ngida keltirilgan mulohazalari beriladi. Toshbosmaning kalofon qismini asliyatda va tabdil variantda keltiramiz:

Joriy yozuvdagi tabdili:

Ma'lum va ravshan bo'lg'oykim, ushbu kitobi "Durrul majolis"ining forsiy zabonidin turkiy tilig'a tarjima qilib kitobdin bayozg'a ko'targon nomi sharifi Eshon Sulton Sayyidxo'ja Muhammadxo'ja o'g'li "Va muni chof qilmoq ixtiyorini o'z o'g'lum tojirul kutub Sayyid Akbarxo'jag'a berdim va har kimki beizni Sayyid Akbarxo'ja chof qilmag'ay" deganlari sababli faqirul haqir Abdulhamid Qori Jalolobodiy raqamini qalam chektim.

Xulosa. Demak, “Durrul majolisi turki” asari o’z davri talablaridan kelib chiqib yaratilgan. Unda asosiy e’tibor Rabg’uziyning “Qissayi Rabg’uziy” asari kabi nomlari Qur’oni Karimda zikr etilgan payg’ambarlar haqidagi qissalarga qaratilgan. Ammo Qur’ondagi payg’ambarlarning barchasi zikr etilgan. Jumladan, 12 nafar Qur’ondagi payg’ambarlar haqida ma’lumotlar keltirilmagan. Shunday bo’lsa-da, sahobalar va avliyolar haqidagi ibratli hikoyatlar keltirilgan. Mazkur hikoyatlar hozirda ham yosh avlod tarbiyasida beminnar xizmar qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. در المجالس سيف ظفر البخاري طشقند1329هجري
2. *Сирожиддинов Ш. Матншуносликсабоқлари. –Тошкент. 2019.*
3. *Рабғузий Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. Тошкент: Ёзувчи, 1990.*
4. *Рабғузий Носируддин Бурхониддин. Қисаси Рабғузий. 2 - китоб. Тошкент: Ёзувчи, 1991.*



Navoiy gulshani

SHOH UL EMASKIM, BOSHIG'A QO'YDI TOJ...

To'rayeva Umriniso Rahmatovna,
Buxoro davlat universiteti, f.f.f.d., o`qituvchi
niso2019@mail.ru

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, Navoiyning turkiy tilda bitilgan, o'z nazdi bilan aytganda, "o'ttiz oy, ikki yarim yilda yaratilgan" bo'lsa-da, "Xamsa" dostoni nihoyatda puxta, asar tarkibidagi dostonlarning har biri ko'p yillik ijodiy tafakkurning mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Asarni shartli ravishda "ma'naviy konstitutsiya" deb atasak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, asar boshdan oxirigacha hayotiy xulosalangan, insonning ruhiy-ma'naviy olamini kamolot sari yetaklash xususiyatiga ega qoidalar jamlanmasidir.

"Xamsa" asarining yirik dostoni "Hayrat ul-abror"ning birinchi maqolati aynan, insoniy go'zal fazilatlardan biri imonli bo'lish haqida. Ijodkor: " Kimki bu jahonda inson bo'lib kelgan ekan, uning asosiy sharti imondir. Sabr, shukr va hayodan iborat bo'lgan shaxsgina "inson" degan sharafli nomga munosibdirlar, imondan uzoq bo'lgan kishilarni esa bu nom bilan atab bo'lmaydi", - deydi[1]. "Hayrat ul-abror" dostonining beshinchi maqolatida karam, olijanoblik, saxovat haqida shunday fikr keltiriladi: "Inson saxovat kiyimini kiyar ekan, u bu dunyo ne'matlari, dur-u gavharlarini pisand qilmaydi. Inson saxovat bilan kimgadir yaxshilik qilsa, uning uchun bundan yoqimliroq tuyg'u yo'q. Jismingdagi har bir tuk tilga aylanganida ham buning shukrini aytib, ado qilib bo'lmaydi. Tangri senga mol-davlat ato etgan ekan, kimlarga yaxshilik qilishni ham ta'lim berib qo'ygan. Bilib ol: saxovat qilish uchun kimlar haqli, kimlarga oltin-u kumush hadya qilish mumkin? Nom chiqarish, ismini ulug'lash uchun, hatto, qo'l bilan etaklab gavhar sochish bu aqlli insonlarga xos fazilat emas. Mast yoki jinni kishi bunday bema'ni ishlarga qo'l uradi [1]. Jumladan,

Barchasi haq ilmida ma`lum edi,
Lavhul mahfuzda marqut edi.

Yaxshi xulq va amal egalari qilgan ezgu amallari yuzidan omonligidan behishtga tushishi ham, yomon fe'li va axloqi tufayli do'zaxdan o'rin olishi ham noma'lum. Tangriga ming yil sujud qilgan odam ham jannatdan o'rin ola olmasa barcha qilgan ibodatlari besamar.

Darhaqiqat, shoir saxovatni kiyimga mengzaydi. Sababi, kiyim insonni go'zal qilgani kabi saxovat ham unga 375 bezakdir. Saxovatpesha insonlar hech qachon boshqalardan javob kutmaydilar. Ular ta'madan yiroq, Haqqa yaqin bo'ladilar. Qolaversa, saxovat nom chiqarish vositasi emasligini ham ulug' mutafakkir alohida ta'kidlaydi. Dostonning uchinchi maqolati "Salotin bobida" (Sultonlar, ya'ni podshohlar haqida) keltirilgan "Shoh G'oziy hikoyati" dagi shohning kampirga ko'rsatgan adolati eng buyuk tahsinga loyiq:

"Zoli falakdin necha ko'rsang alam,
Shah chu qilur adl, Navoiy, ne g'am".

Navoiyning hikoyatda keltirgan adolat borasidagi fikrlari o'z davri podshohlari va bugungi kun rahbarlari uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilishiga shubha yo'q.

Xuddi shunday, yettinchi maqolat "Qanoat" bobida fikrlar ham bugungi kun uchun ham ahamiyatli: "Kim uchun qanoat bir fan, odat bo'lib xizmat qilgan ekan, bilingki, uni boy qilgan ham ana shu qanoat bo'lgan. Oltin va kumushlarni, turli bezaklarni boylik deb hisoblamagin, chinakam boylik qanoat ganjidir.

Ey tushub egninga karam kisvati,
Qolmayin ilgingda diram qiymati.

Panjang o`lub siymfishonliqqa fosh.
Mashriqu Mag'ribda nechukkim quyosh.

Siym ila ilginga adovat bo`lub.

Anda fano, munda saxovat bo'lub.

Chun kafing oltun sochib, andoqki barq,
Barqi hayod in bo`lubon terga g'arq.

Boshing uza judu saxo afsari,
Afsaring listida karam gavhari.

Gavhari zoting topib oncha sharaf,
Kim yeti ко'к huqqasin aylab sadaf.

Agar senda qanoat bo'lmasa, harakat qilgin-u, naqdi qanoat birlan boy bo'lishga intilgin. Ta'magir bo'lma. Chunki ta'ma – gadolar ishidir, ta'magir esa gadoning o'zidir". Shoir insondagi qanoatni chinakam boylikka qiyoslaydi. Chunki qanoat tufayli inson yuksalishi mumkinligini hayotiy dalilllaydi :

Shoh ul emaskim, boshig'a qo'ydi toj,
Shoh ani bilkim, anga yo'q ehtiyoj.
Shoh agar ul bo'lsaki, muhtojdur,
Harf ila muhtojda ham tojdur [1].

Navoiy o'tmishda ham, hozir ham illat sanalgan ta'magirlik, ya'ni bugungi kun tili bilan aytsak, "korrupsiya" ning paydo bo'lish sabablari: boriga qanoat qilmaslik, sabrsizlik, imon-e'tiqodsizlik, ma'naviy noqislikdan ekanini bilgan va o'z asarlari orqali bunga qarshi kurashgan. Umuman olganda, Navoiy "Xamsa" si tarkibidagi barcha dostonlaridagi insonni kamolot sari yetaklovchi fazilatlar talqini har bir davr farzandlarining ma'naviyatini boyitishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Alisher Navoiyning "Lisonut tayr" ("Qush tili") dostoni ham asrlar davomida Sharq mutafakkirlarini o'ylantirib kelgan inson va tabiat mohiyatiga doir murakkab ilohiy, falsafiy kechinmalarni mushohada etishga qaratilgan. Asarning e'tiborli jihati shundaki, mutafakkir shoir dostonda insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'lini qushlar boshidan kechirgan ramziy sarguzashtlar misolida mohirona tasvirlab beradi.

Jon qushi chun mantiqi roz aylagay,
Tengri hamdi birla og'oz aylagay.
Ulki maxluqot xalloqidur ul,
Ondin o'zga foniyu boqiydur ul.
Sonie'kim chekti chun sun'i qalam,
Ofarinish tarhini qildi raqam.
Aylagach doyir to'quz aflokni,
Qosir etti fahmidin idrokni.
Ko'kni tun, kundin mulamma' ayladi,
Mehru anjumdin murassa' ayladi,
Oyni ko'k tirnog'idin qildi misol,
Olg'on ul tirnog' bir yondin hilod.
Sayrdin gardung'a soldi iztiror,
Yerga oning javfida berdi qaror.

Ijodkor qush deb atayotgan narsa, aslida, jon. Kechinmalar jonda, ya'ni ko'ngilda paydo bo'ladi va ong orqali aql tarozisida o'lchab ko'rilib, so'ng amalga oshiriladi. Agar ko'ngil mayl bildirsa-yu, aql inkor etsa, bilingki, bu ish amalga oshadi. Agar aql mayl bildirsa-yu, ko'ngil xohish bildirmasa, bilingki, bu ishni bajarishdan naf yo'q, baribir besamar. Inson zoti ijtimoiy hayotning ikir-chikirlari bilan o'zi bilmagan holda o'ralashib qoladi, o'zi bilmagan holda o'zligidan yiroqlashadi, moddiy hayotga sho'ng'iydi. Bunday holatda ilohiy tuyg'ular rangsizlashadi.

Yer yuzin yomg'ur suvi birla yudi,
Gardu chirki ul yumog'din o'ksudi.
Bahr uza jo'ng ayladi tufrog'din,
Jo'ng uchun langar yosodi tog'din.
Qildi daryog'a buxorin pardapo'sh,
Mehr o'tidin tushmasun deb suvg'a jo'sh.

Oshkor aylab adolat olamin,
Yeb suda mavjud qurtu qush g‘amin.
Berdi Nayson yomg‘urig‘a ul sharaf,
Kim guhar qozg‘ondi bazlidin sadaf.
Durg‘a berdi ul baho birla rivoj,
Kim sarir ahlig‘a bo‘ldi zebi toj.

“Lison ut-tayr” dostoni debochasida Navoiy Yaratganning qudratini nihoyatda tiyrak ifoda etadi: “Yaratuvchi qudratli qalami bilan olamni aniq bir reja ostida bunyod qildi. U to’qqiz falakni aylanuvchi qilib yaratdi va buning sirini tushunishda idroki ojiz etdi. Ko’kni kun va tun bilan yarqiratib, uni quyosh va yulduzlar bilan bezadi. Osmonni betinim harakat qilishga bo’ysundirdi, yerni esa uning bo’shlig’ida turg’un qilib yaratdi” [2].

Shoir fikricha, koinot gultoji bo’lgan inson ham qusurli. Navoiy “Lison ut tayr” dostonida moddiyatdan qochib, ma’naviy kamolotga yetishish yo’llarini ko’rsatib beradi. Bu yo’llarni quyidagicha nomlaydi: talab, ishq, ma’rifat, istig’no, hayrat, tavhid va faqr-u fano yo’li. Talab yo’li borasidagi munojotida: “Yo tangri! Barcha mavjudot senga intiladi, sen ularga matlubsan ham muhabbat ahliga mahbubsan! Ikki olamdagi barcha mavjudot seni axtaradi, senga moyil bo’lganlar boshqa narsaga xohish qilishdan o’zlarini tortadilar. Sendan o’zga, garchi u malak yoki pari bo’lsa-da, tolib bo’lib izlashga arzimaydi. Jon-u ko’nglimni o’zingga tolib et! Dard ila ishqingga shavqimni g’olib et! Ham menga talab zavqini vosil qil! Ham yana tilab topmoqni hosil qil! O’zingdan boshqani ko’nglimdan chiqarib tashla! Unda seni eslashni qalbim huzuriga aylantir!” deb yozadi. Darhaqiqat, Unga oshiq bo’lgan ko’ngildan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Yomonlik chiqmasa, demak, u imonli. Imonli inson hamisha Ollohga intiladi. Ollohga intilish uchun qalbida ishq o’ti paydo bo’ladi. Olloh jamoliga ishqsiz yetib borilmaydi. Ma’rifat yo’li bayonida: “Yo rab! Bu yo’llardan qaysi biriga solik ma’rifat istab kirsa, u albatta, senga olib boradi! Ovvora Foniyni ham shu yo’lga sol! Yo’lni bosib o’tgach, visol nasib etgil! Istig’no yo’li. “O’zingdan o’zgaga muhtoj etmagin! Yolg’iz sengagina itoat etaman. Men o’rmon sheri emas, balki cho’loq chumoliman. Shunchalik ojizmanki, hatto chumoli ham mendan yuz marta or qiladi. Boshqalarga men zorni ehtiyojsiz et!”[2] Istig’no yo’lidagi insonni shoir cho’loq chumoliga o’xshatadi. “ Yo tangri! Ushbu hayrat maslagida qo’limdan tutib, hayratlanish ichra yo’limni ko’rsatgil! Ilm va aql egalari sening zotingga emas, balki har bir sifatlaringga, qudratingga lol va hayron. Hayrat ichra meni sargardon etmasdan, osongina meni o’z vasling sari tortgil” [2]. Tavhid, ya’ni birlashish yo’li. Bunda ijodkor Ollohga murojaat qilib, deydi: “Yo rab! Menga menlikdan nishon qo’yma, meni hamma 377 narsadan etak silkitib, o’zligingga yo’qotib yubor”. Insonning qalbi va tili bir bo’lsa, imoni butun bo’lsa, u, albatta, maqsadiga yetadi. Buning uchun Olloh unga nazar qilmog’i kerak. Va nihoyat, fano yo’li: “Yo rab! Foniyga shunday yo’qlikni nasib etki, bundan u abadiyat xazinasidan o’ziga tegishli boylik topsin!”[2].

Navoiy asarlari qatida yashiringan fikrlar umuminsoniy mohiyatga ega. Har gal shoir bitiklarini mutolaa qilib, ma’naviy quvvat olishga chog’langanimizda, yangi-yangi ma’nolarni ilg’ashga harakat qilamiz. Shu ma’noda asrlar osha bu bebaho merosning qimmati oshib, insoniylik rutbasini yuksaltirishga xizmat qilaveradi.

ADABIYOTLAR:

1. Навоий А. Хамса. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2018 . Б –496

2. Навоий А. Лисон ут-тайр”. –Т.: Ғ.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. Б – 464

3. http://e-adabiyot.uz

4. www.literary.uz

5. www.ziyonet.u

UO‘K 323/327:101 (575.1)

O‘ZBEKISTONDA MISSIONERLIK VA PROZELITIZM XAVFINI BARTARAF ETISHNING MA’NAVIY-MAFKURAVIY OMILLARI

Musaev Mansur Tursunpo‘latovich,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i,
siyosiy fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda missionerlik va prozelitizm xavfini bartaraf etishning ma’naviy-mafkuraviy omillari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada dunyo miqyosida missionerlik tashkilotlari tomonidan «beg‘araz» yordam ko‘rsatish bahonasida yo‘naltirilayotgan katta moliyaviy mablag‘lar jahondagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka rahna solayotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *missionerlik, ma’naviyat, mafkura, targ‘ibot, ma’rifat, axloq, odob, prozelitizm.*

ДУХОВНО-ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРЕОДОЛЕНИЯ ОПАСНОСТИ МИССИОНЕРСТВА И ПРОЗЕЛИТИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В данной статье научно анализируются духовно-мировоззренческие факторы опасности миссионерства и прозелитизма в Узбекистане. Также в статье научно объясняется, что большое количество финансовых ресурсов, направляемых некоммерческими организациями в мировом масштабе под предлогом «невинного» размножения, сеет в мире социальный и политический хаос.*

Ключевые слова: *миссионерство, духовность, идеология, пропаганда, просвещение, нравственность, нравы, прозелитизм.*

SPIRITUAL AND IDEOLOGICAL FACTORS IN OVERCOMING THE DANGER OF MISSIONARY WORK AND PROSELITISM IN UZBEKISTAN

Abstract. *This article scientifically analyzes the spiritual and ideological risk factors of missionary work and proselytism in Uzbekistan. The article also scientifically explains that a large amount of financial resources directed by non-profit organizations on a global scale under the pretext of "innocent" reproduction, sows social and political chaos in the world.*

Keywords: *Missionary, spirituality, ideology, propaganda, enlightenment, morality, morals, proselytism.*

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida missionerlik tashkilotlari tomonidan «beg‘araz» yordam ko‘rsatish bahonasida yo‘naltirilayotgan katta moliyaviy mablag‘lar jahondagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka rahna solmoqda. Mazkur holat, dunyoqarashi to‘liq shakllanmagan, din to‘g‘risida o‘zining holisona fikriga hamda qat’iy fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lmagan insonlarni o‘z domiga tortmoqda. Natijada, missionerlik va prozelitizm global miqyosda inson qalbi va ongiga, tafakkuriga hamda jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi buzg‘unchi mafkura sifatida namoyon bo‘layotganligi va bu muammoga nisbatan ogoh, sezgir va xushyor bo‘lish qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu sababdan, missionerlik va prozelitizm xavfini bartaraf etishda ma’naviy-mafkuraviy targ‘ibot ishlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda, mamlakatimizda mazkur harakatlarni oldini olishda aholi o‘rtasida keng ko‘lamli, aniq maqsadga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy, huquqiy ishlarning samaradorligini tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha amaliy natijalarga erishilmoqda. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: «Yangi tahdidlar», jumladan, «ommaviy madaniyat», missionerlik, prozelitizm xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo‘layotgan, odob-axloq, milliy va diniy qadriyatlarning yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda»[1],- deya ta’kidlagani ayni haqiqatdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. «2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»[2]ning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ham «Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish» asosiy vazifa etib belgilangan. Ushbu vazifani amalga oshirishda,

missionerlik va prozelitizm tahdidlariga qarshi kurashda ma’naviy-ma’rifiy va g‘oyaviy-mafkuraviy asoslarini o‘rganish va tahlil etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Jamiyat taraqqiyotidan ma’lum bo‘ladiki, aynan din odamlarning ijtimoiy hayotida, axloq-odobida, oilaviy munosabatlarida asrlar davomida alohida o‘rin tutib kelgan. Din ommaviy axborot vositasi bo‘lganligi sababli, u kishilarning xulq-atvoriga, shaxsini shakllantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biridir. Diniy dunyoqarash barcha jamiyatlarda jami tamoyillarga asoslanganligi sababli, har bir jamiyatda insonning shakllanishida alohida o‘rin tutadi. U dunyoda kechayotgan jarayonlarning aksariyatini, shuningdek, global ma’noda diniy dunyoqarash shakllangan tafakkur orqali idrok etadi. Har bir fuqaro, jamiyatdagi har bir shaxs, shak-shubhasiz, diniy munosabatlarga ilk bosqichdayoq noilmiy asosda duch keladi, din maxsus ta’lim orqali o‘zlashtirilmagani uchun uning asl falsafasi, obektiv asoslari o‘rganilmaydi. Natijada turli dinlar, sektalar, konfessiyalar va oqimlar u yoki bu ijtimoiy sohada o‘z-o‘zidan singib ketmoqda.

Dinning ilmiy va obyektiv asosda o‘rganilmaganligi dindan boshqa maqsadlarda foydalanmoqchi bo‘lgan turli siyosiy-mafkuraviy markazlar faoliyatini osonlashtiradi. Bu yerda missionerlik masalasi paydo bo‘ladi. Missionerlar u yoki bu jamiyatda yoki davlat ichida o‘z manfaatlarini ta’minlash maqsadida faoliyat yuritayotgan alohida g‘oyaviy-siyosiy markazlar alohida shaxslarning dinga bo‘lgan ana shunday nozik munosabatidan foydalanib, ulardan tashkil topgan o‘ziga xos ijtimoiy asosni tashkil etadi. Bu ijtimoiy negiz axloqiy yoki mafkuraviy asosda shakllanganligi sababli ular mamlakatda, jamiyatda hokimiyatga qarshi, boshqa missionerlik markazlari tomonidan tuzilgan guruhlarga qarshi, ba’zan esa milliy manfaatlar va milliy axloqqa zid ravishda foydalaniladi. Chunki, missionerlik faoliyati natijasida ma’lum bir diniy dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxslar o‘sha mafkuraning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini anglamay turib, uni o‘zlarining ma’naviy ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida chin dildan qabul qiladilar. Missionerlarning asosiy maqsadi yoshlarimizni milliy zaminimizdan, azaliy qadriyatlarimiz va ma’naviyatimizdan mahrum qilish orqali manqurtga aylantirishdir [3].

Demak, din insonning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida haqiqiy din sifatida emas, balki missioner tomonidan targ‘ib qilinadigan mafkura sifatida qabul qilinadi. Shaxs o‘zlashtirgan va din deb bilgan bu vosita uchun har narsaga tayyor. Ya’ni, odamlar bu masalada samimiy va uni hamma narsadan himoya qilishga tayyor, chunki ular buni o‘zlariniki deb bilishadi. Shu bilan birga, missionerlar va alohida markazlar faoliyati uchun keng va qulay platforma mavjud. Shubhasiz, har bir missionerlik va diniy markazning maqsadi har xil bo‘lganligi sababli, ular o‘z atrofidagi ijtimoiy va diniy guruhlarni turli yo‘nalishga yo‘naltiradi. Natijada, jamiyatda bir-biridan keskin farq qiluvchi, ayrim hollarda bir-birini qabul qilmaydigan, ayrim hollarda loqayd yoki milliy manfaatlarga sodiq bo‘lgan radikal guruhlar shakllanadi. Bugun millatimiz vakillari ichida ana shunday kishilar bor ekan, demak, milliy ma’naviyatimizga nisbatan ichki tahdidlar kuchayib borayotir, deyishga to‘la asoslar bor. Ularni cheklash uchun milliy birligimizni mustahkamlash amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi [4]. Zero, jamiyatning diniy-mafkuraviy asosda bo‘linishi milliy hamjihatlik va birlikdan tug‘ilgan milliy kuch-qudratga raxna soluvchi zarbadir. Ayniqsa, «beg‘araz» iqtisodiy yordam ko‘rsatish orqali missionerlik zamirida G‘arbcha dunyoqarash va turmush tarzi keng targ‘ib etila boshlandi. G‘arbda raxnomalik qiluvchi va globallashuv harakatida qatnashuvchi oqimni g‘arb ekspertlari protestantizm deb ataydi [5].

So‘nggi yillarda ko‘plab missionerlar noqonuniy faoliyat bilan shug‘ullana boshlagan. Bugungi kunga qadar ular tomonidan bir qancha qonunbuzarlik sodir etilgan. Evangelist xristian bartistlari, tabiiy hamjamiyat va boshqa uyushmalar mahalliy ijroiya organlarida ro‘yxatdan o‘tmasdan missionerlik faoliyatini amalga oshirishga harakat qilishadi. Xo‘sh bugungi kunda missionerlar kimlar o‘zi? Ular maxsus psixologik tayyorgarlikka ega, xorijda maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislardir. Adabiyotlarda ular ba’zan «yangi» missionerlar deb ataladi. Bular aqlli, tajribali, vasvasa usullarini yaxshi biladigan, behayo qobiliyatlarga ega odamlardir. Missionerlarning ilmiy jurnallari, ilmiy maktablar, ikki yuzdan ortiq agentliklari mavjud. Garchi diniy va’zlar haqida bahs-munozaralar mavjud bo‘lsa-da, missionerlik birlashgan harakatdir.

Missionerlik tashkilotlari vakillari ba’zi fuqarolarimizga telefon uchun flesh-karta va mikro xotira kartalarini berishayotganligini kuzatish mumkin. Bu holatni e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Chunki, ularga berilayotgan telefonlar uchun flesh-karta va mikro xotira kartalarini ko‘rib chiqsak, bular nasroniylik diniy oqimlaridan biriga tegishli targ‘ibot vositalari ekani ma’lum bo‘ladi. Bu telefonlar uchun flesh-kartalar va mikro xotira kartalarida «musiqa parchalari bor» demasa-da, aslida turli tillarda – o‘zbek, qirg‘iz, rus, ingliz tillarida dinga chaqiriqlar bor. Qizig‘i shundaki, telefonlar uchun flesh-kartalar va mikro xotira kartalari ichidagi audio yozuvlarni o‘chirib bo‘lmaydi. Agar kimdir uni ko‘tarib «tarkibini o‘chirib tashlayman, bu tayyor flesh-karta va telefonlar uchun mikro xotira kartasi» desa, kuyib ketadi. Ularni o‘chirish uchun albatta professional kompyuter mutaxassislarini jalb qilishlari kerak. Ba’zi fuqarolarimiz telefon uchun flesh-karta va mikro xotira kartalarini berganlardan qaysi tashkilotga mansub ekanliklari

so‘rashgan, ammo ular hech qanday javob bermay ketishgan. Missionerlar barcha mamlakatlarda faoliyat olib borishga harakat qilishadi. Bu tashkilotlarning asosiy maqsadi odamlarni o‘z e’tiqodidan voz kechkizishdir. Qolaversa, ularda zararli g‘oyalarni targ‘ib qilish bo‘yicha tushunish murakkab bo‘lgan va maxfiy targ‘ibot texnologiyalari borligi sababli ham afsuski ba’zi fuqarolarni ularga ergashib ketish jarayoni oson kechmoqda. Mamlakatimizda bu missonerlik tashkilotlarga nisbatan biron bir chora ko‘rilsa, ular buni insoniy, vijdon va diniy huquqlarning buzilishi sifatida ko‘rsatadi. Missionerlar faoliyati yoshlarning e’tiqodiga putur yetkazadi, ularni ijtimoiy-siyosiy faoliyatdan uzoqlashtiradi, yoshlarda vatanparvarlik ruhini zaiflashtiradi. Bularning barchasi milliy ma’naviyatimizga qarshi sektalardir. O‘rganishlarga ko‘ra, missionerlik tashkilotlarini Amerika, Fransiya, Britaniyaning nodavlat tashkilotlari moliyalashtiradi.

Natijalar. Bugungi kunda missionerlik tashkilotlarini dunyoning aksariyat davlatlarida uchratish mumkin. Noan’anaviy xristian tashkilotlarining o‘zi xristianlar hukmron bo‘lgan mamlakatlar uchun xavflidir. Musulmon davlatlari uchun bu ikki barobar xavflidir. Chunki missionerlik tashkilotlari doimo o‘zlari yashab turgan mamlakatlardagi milliy nizo va diniy tarqoqlikdan, ularning buzg‘unchi faoliyatidan manfaatdor bo‘lib kelgan. Missionerlar O‘zbekiston xalqi bilan ishlashda jamiyat yoshi, ijtimoiy va etnik guruhiga ko‘ra tasniflanadi. Bu bir tomondan, ularning ta’limotiga ergashuvchilarning diniy bilimlarini chuqurlashtirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ateist va ateistlarni ularning ta’siriga moslashtiradi. Uchinchidan, pravoslavlik o‘zini musulmon deb ataganlarning diniy ta’limining sayozligini hisobga olib, ularni ham nishonga oladi, ayniqsa o‘zbeklar, tojiklar, qozoqlar, uyg‘urlar va ruslar bilan ishlashga faol harakat qiladilar. Ular rasmiy siyosat tamoyillari, bag‘rikenglik, hurmat va hamjihatlik kabi ma’naviy talablardan o‘z manfaatlari yo‘lida moslashuvchan foydalana olishadi. Mazkur holat, bugungi kunda protestantizmni qabul qilganlar o‘zbeklar orasida ham o‘z aksini topmoqda. Protestantlar o‘z duolarini o‘zbek, tojik, qozoq, qirg‘iz va uyg‘ur tillarida o‘qib, o‘zbeklardan pastorlar tayyorlaydilar, xorijliklarga emas, o‘zbeklarga diniy va’z o‘qiydilar. Protestant pastorlarining aksariyati o‘zbeklar tomonidan tayyorlanadi va o‘zbeklarni protestantizmga aylantirish strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Shunday qilib, millat va oila dinga qarab bo‘linib keta boshladi. O‘zbek ayollari o‘z diniy e’tiqodlariga ko‘ra nisbatan moslashuvshan bo‘ladi. Bu holat yolg‘izlik va stress bilan bog‘liq. Eng qiyini, farzandlarini bir dinga jalb qilishlari. Ba’zan protestantlar yashirincha ishlaydilar, jamoat fondlari, maktablar, sport seksiyalari va klublar tuzadilar. Missionerlar mazkur usullar orqali o‘z g‘oyalarini targ‘ibot etishi natijasida diniy dunyoqarashi shakllanmagan, din to‘g‘risida holisona fikrga ega bo‘lmagan insonlarni o‘z tuzog‘iga ilintirayotganligi namoyon bo‘lmoqda.

Mutaxassislar yollanishga moyil bo‘lganlarni uch toifaga ajratishadi: bu – talaba yoshlar, mehnat muhojirlari va jiddiy iqtisodiy hamda ijtimoiy bosim ostida yashaydigan ishsizlar. Haqiqat shundaki, bu yoshlar nafaqat past huquqiy va siyosiy ongga ega, balki, ularning dunyoqarashlari, bilim darajasi bir xil saviyada, ularning aksariyati maktab va kollejlarda past baholarda o‘qigan[6].

Shu tariqa, protestantlar ertaga hokimiyatga keladigan yoshlarning dinga kirishiga katta ahamiyat berishadi. Umuman olganda, yoshlarning dunyoqarashi, siyosiy yo‘nalishi va milliy pozitsiyasiga ta’sir qilish global strategiyaga aylandi. Bugungi kunda AQSh, Angliya, Germaniya, Fransiya, Xitoy va boshqa davlatlarda bir qancha o‘zbek talabalari tahsil oladi. Bu davlatlar nafaqat yoshlarni tarbiyalaydi, balki ular ongiga G‘arb madaniy va siyosiy qadriyatlarini singdirishga harakat qilishadi. Yoshlarga ta’sir ko‘rsatishning asosiy yo‘llari diniy adabiyotlar, televideniya, radio, internet, reklama, e’lonlardir. Masalan, Iegova guvohlari diniy adabiyotlarini uch yuz tilda, shu jumladan o‘zbek tilida ham tarqatadi. Evangelistlar o‘zlarining sun’iy yo‘ldoshlari orqali butun dunyoni qamrab olish imkoniyatiga ega. Ularning diqqat markazida bo‘lgan o‘nta muhim mintaqadan biri bu Evrosiyo. Protestantlarning aytishicha, kecha hukmron bo‘lgan hududni kommunizmdan tozalash ularning burchidir.

Muhokama. Bugungi kunga kelib ham xristian, ayniqsa, protestant konfessiyalari missionerlik faoliyatida yetakchilik qilmoqda. 1970 yilda xristianlarning 2200 xorijiy missiyalarida 240000 professional missioner faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2000 yilda 4800 ta xorijiy missiyada 420000 missioner mahalliy aholi ichida targ‘ibot o‘tkazib kelgan»[7]. Olib borilgan ilmiy izlanishlarimizdan ma’lum bo‘ladiki, ko‘pgina missionerlar mahalliy aholi ko‘p bo‘lgan hududlarda yashaydi. O‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun o‘sha mamlakatning tili, urf-odatlari va odob-axloqini etarli darajada o‘rganadi. Konfessiyaviy adabiyotlarda missionerlik tushunchasi o‘z mamlakatida yoki boshqa davlatda xushxabar berish, cherkovlar qurish va ibodat qilish jarayonini amalga oshirishga qaratilgan diniy birlashma vakillarini anglatadi. Insoniyat taraqqiyoti tarixida missionerlar diniy e’tiqodni yoyish maqsadida xorijiy mamlakatlar va qit’alarga borganliklarini bilamiz. Biroq, u hech kimga diniy e’tiqodlarni tarqatishga ruxsat bermaydi. Har bir missioner o‘ziga yuklangan vazifani bajarish uchun turli vaziyatlarda yechim topa olgan, notiq, diniy tashviqot olib borish qobiliyatiga ega bo‘lgan dindor bo‘lishi kerak.

Missionerlarning asosiy maqsadi targ‘ibot yo‘li bilan odamlarni dinga keltirish edi. Shu bilan birga missionerlar insonparvarlik, tibbiy yordam, ta’lim va xayriya fondlari orqali mahalliy aholini

xristianlashtirishga harakat qildilar. Missionerlar g‘arb davlatlarining mustamlakachilik siyosatining piyodalari bo‘ldi deyishga to‘liq asoslar bor. Buning sababi shundaki, missionerlar boshqa mamlakatlarni mustamlaka qilishni maxsus maqsad qilmagan bo‘lsalar ham, g‘arb ekspansiyasi tarixi missionerlarning mustamlakachilikka hissa qo‘shganligini ko‘rsatdi. Missiyani amalga oshirish uchun missioner kuchli yordamga muhtoj (davlat, diniy buyruqlar, turli tashkilotlar). Ko‘pgina rivojlangan davlatlar bu tendensiyaga hissa qo‘shmoqda. Missionerlik faoliyati ko‘pincha iqtisodiy jihatdan yaxshi rivojlangan va katta kuch ambitsiyalariga ega bo‘lgan mamlakatlar tomonidan moliyalashtiriladi. Missionerlik faoliyati mafkuramiz uchun yot unsurgina bo‘lib qolmay, balki ma’naviyatimiz rivoji uchun ham jiddiy to‘siqdir»[8]. Bugungi kunda mamlakatimizda vijdon erkinligi huquqlarini ta’minlash borasida yaratilgan imkoniyatlardan afsuski, ayrim noislomiy diniy tashkilotlar xalqimizning mentalitetiga raxna solish orqali o‘zlarining «maftunkor» diniy da’vatlarini olib borayotganligini kuzatish mumkin.

Xulosa. Bugungi kunda faol tarzda missionerlik bilan shug‘ullanayotgan «Pyatidesyatniklar» yoki «To‘liq injil xristianlari», «Yettinchi kun adventistlari», «Iegova guvohlari», «Baptistlar» ijtimoiy hayotda fuqarolarning qayg‘u-alamlari, muammolarini bartaraf etishda «beg‘araz» xayriya yordamlari ko‘rsatishga e’tibor qaratishadi. Aslida, bu «beg‘araz» yordam orqali jamiyat hayotida o‘zlariga xayrixoh bo‘lgan fuqarolarni ko‘paytirish asosiy maqsad hisoblanadi. Insoniyat ravnaqi, dunyoda tinchlik o‘rnatish, muhtoj bechoralarga yordam berish bahonasida ko‘rsatilayotgan «beg‘araz» yordamlar zamirida aksariyat hollarda o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yotadi. Shu o‘rinda, «saxiy», «gumanitar» yordamlar «ayrim» siyosiy markazlar ko‘magidagi missionerlik tashkilotlari u yoki bu mamlakatda diniy muvozanatni izdan chiqarish orqali «adolatparvarlik» bayrog‘i ostida o‘zlarining ta’sir doiralarini kengaytirishga intilishini kuzatish mumkin. Shuningdek, ushbu o‘rinda tashvish uyg‘otayotgan faktlardan yana biri missionerlik faoliyati bilan shug‘ullanayotganlar orasida o‘zbek millatiga mansub bo‘lgan kishilarning mavjudligi hamdir[9].

Respublika bo‘yicha missionerlik va prozelitizm bilan shug‘ullangan yoki shunga moyil bo‘lgan shaxslar sifatida 6186 nafar shaxs hisobga olingan bo‘lib, ularning 3031 nafarini «Iegova shohidlari» diniy tashkilotini va 1794 nafarini «To‘liq Injil xristianlari» oqimini a’zolari hisoblanadi. Hozirda missionerlik va prozelitizm bilan shug‘ullangan shaxslarning 1713 nafari Toshkent shahri, 790 nafari Toshkent viloyati, 739 nafari Qoraqalpog‘iston Pespublikasi, 414 nafari Samarqand, 380 nafari Jizzax, 380 nafari Qashqadaryo, 316 nafari Andijon, 231 nafari Buxoro, 270 nafari Xorazm, 237 nafari Farg‘ona, 221 nafari Surxondaryo, 208 nafari Navoiy, 162 nafari Namangan, 125 nafari Sirdaryo viloyatlarida tezkor hisobga olingan. Hisobga olingan shaxslarning 3059 nafari «Iegova shohidlari», 1811 nafari «To‘liq injil xpistianlari», 679 nafari «Injil xristian baptistlari», 52 nafari «Bahoiy», 168 nafari «Yettinchi kun adventistlari», 73 nafari «Krishnani anglash jamiyati» va 344 nafari boshqa noislomiy diniy yo‘nalish a’zolari hisoblanadi[10]. Xulosa qilib aytganda, missionerlik va prozelitizm harakati xalqimiz va millatimiz ma’naviyatiga, e’tiqodiga raxna solmoqda. Missionerlik va prozelitizm tahdidini bartaraf etishda jamiyatimiz hayotida aholining keng qatlamlarini ushbu illatlarga qarshi g‘oyaviy-mafkuraviy qurollantirish uchun ma’naviy qadriyatlarimizni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Тинчлик, маърифат ва бунёдкорлик йўлида ҳамкорлик. Ўзбекистон Республикаси Президенти вазифасини бажарувчи Шавкат Мирзиёевнинг Тошкентдаги симпозиумлар саройида Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи // «Халқ сўзи» online, 2016 йил 19 октябрь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси» тўғрисидаги Фармони.

3.Танимов Ш. Миссионерство и прозелитизм как новая форма идеологической интервенции. Демократизация и права человека. – 1/2022. – С.145.

4. Отамуротов С. Глобаллашув ва миллий –маънавий хавфсизлик. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – Б. 301.

5.Ричард Д.Н. Бизнес и Евангелие. – http://www.krotov.info/libr_min/n/neretina/neuh_02.html.

6. Ғойибназаров Ш. Ислом терроризмга қарши. –Т.: «O‘zbekiston» нашриёти, 2021. – Б.139.

7.Хасанбоев. Ў. Ўзбекистонда даавлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар, оқимлар мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари. Тошкент ислом университети. – Тошкент, 2014. – Б. 110-111.

8. https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/missionerlar-va-ularning-maqsadlari.

9. Тўхтаров И. Ахборот алмашинув жараёнларининг глобаллашуви шароитида диний-сиёсий барқарорликни таъминлашнинг айрим масалалари. «Глобаллашув жараёнида ахборот хавфсизлиги:

информацион таҳдид ва мафкуравий иммунитет масалалари». Республика илмий – амалий анжумани материаллари. – Фарғона. 2013 йил февраль. – Б. 7.

10. Республика Маънавият ва маърифат маркази томонидан 2019-2020 йилларда мамлакатимизда ижтимоий –маънавий муҳит ҳолатини ўрганиш бўйича ўтказилган сўровнома.

UO‘K 323/327:101

СИЁСИЙ ПАРТИЯВИЙ ТИЗИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ОАВНИНГ РОЛИ (хорижий ва миллий тажрибаларнинг қиёсий таҳлили)

Адизов Беҳзод,
Ўзбекистон Журналистика ва оммавий коммуникациялар университети таянч докторанти
behzodbek2027@gmail.com

Аннотация. *Ушбу мақоланинг мазмуни сиёсий-партиявий тизимни ривожлантиришда оммавий ахборот воситаларининг роли ҳамда уларнинг бугунги кундаги долзарблигини очиб беришдан иборатдир. Шунингдек, сиёсий ва партиявий тизимни яратиш учун ҳозирги пайтда жамият олдида турган ОАВ соҳасининг муҳим вазифалари ҳам келтириб ўтилган. Бугунги кунда жаҳон миқёсида кузатилаётган мамлакатлараро сиёсий-ижтимоий жараёнларни яхлит сиёсий тизим сифатида ёритиб бериш ҳамда бунга нисбатан кенг жамоатчиликнинг фикрини ўрганишда ОАВ соҳасининг олдида турган устувор вазифалардан биридир. Қолаверса, жамиятдаги сиёсий ўзгаришларни ОАВ талқинида намоаён бўлишини маҳаллий ҳамда хорижий тажрибаларнинг қиёсий таҳлиллари ҳам келтирилган.*

Калит сўзлар: *сиёсий-партиявий тизим, оммавий ахборот воситалари, муҳим вазифалар, сиёсий-ижтимоий жараёнлар, сиёсий тизим, кенг жамоатчилик, устувор вазифалар, маҳаллий, хорижий тажрибалар, таҳлил.*

РОЛЬ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В РАЗВИТИИ ПОЛИТИКО-ПАРТИЙНОЙ СИСТЕМЫ (сравнительный анализ зарубежного и национального опыта)

Аннотация. *Содержание данной статьи призвано раскрыть роль средств массовой информации в развитии политико-партийной системы и их актуальность в наши дни. Также были упомянуты важные задачи сферы СМИ, которые в настоящее время стоят перед обществом по созданию политической и партийной системы. Одной из приоритетных задач, стоящих перед отраслью средств массовой информации, является освещение международных политических и социальных процессов, наблюдаемых в глобальном масштабе как целостной политической системы, и изучение мнения широкой общественности. Кроме того, представлен сравнительный анализ отечественного и зарубежного опыта медиаинтерпретации политических изменений в обществе.*

Ключевые слова: *политико-партийная система, средства массовой информации, важные задачи, политико-социальные процессы, политическая система, широкая общественность, приоритеты, отечественный и зарубежный опыт, анализ.*

THE ROLE OF THE MEDIA IN THE DEVELOPMENT OF THE POLITICAL PARTY SYSTEM (comparative analysis of foreign and national experiences)

Abstract. *The content of this article is to reveal the role of the mass media in the development of the political-party system and their relevance today. Also, the important tasks of the mass media sector, which are currently facing the society in order to create a political and party system, were mentioned. One of the priority tasks facing the mass media industry is to shed light on international political and social processes observed on a global scale as a whole political system and to study the opinion of the general public. In addition, comparative analyzes of local and foreign experiences of the media interpretation of political changes in society are presented.*

Keywords: *political-party system, mass media, important tasks, political-social processes, political system, general public, priorities, domestic and foreign experiences, analysis.*

Кириш. Бугунги кунда Янги Ўзбекистонни барпо этиш, озод ва обод ватан яратиш, эркин ҳамда фаровон жамият қуриш, шунингдек, мамлакатимизда адолатли фуқаролик жамиятни барпо этиш, қолаверса, сиёсий-ҳуқуқий демократик давлат яратиш ҳамда шулар асосида бугунги кунда халқимиз ҳаётининг фаровонлигини таъминлаш каби кўплаб устувор мақсадлар белгилаб олинган.

Жаҳон миқёсидаги глобаллашув жараёнида оммавий ахборот воситалари (ОАВ)нинг таъсири ниҳоятда ўткир қуролга айланиб бормоқда. Бугунги кунга келиб ушбу жараён кундалик ҳаётимизда

ўз аксини топмоқда. Ахборот оқимларининг телевидение, радио, матбуот ва интернет тармоқлари орқали кириб келиши сиёсий партиявий тизимни ташкил этишда ҳамда уни ривожланишида ҳукумат ва ҳалқни боғлаб турувчи муҳим ўрин эгаллайди.

Шу ўринда, «Оммавий ахборот воситаларининг жамият ташкил этувчи инсонларнинг онгига ва бутун жамиятга қай тарзда ва қай даражада таъсир этади?» деган саволга жавоб излаш, ушбу масалани кенгроқ ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, оммавий ахборот воситалари, яъни телевидение, радио, матбуот, илмий-оммабоп адабиётлар, ахборотномалар ёшлар сиёсий билимини юксалтиришнинг энг самарали воситалари ҳисобланишини эътиборга оладиган бўлсак, уларнинг бу борадаги фаолият йўналишларини таҳлил этиш ва уларни такомиллаштириш бўйича тегишли таклиф ва тавсияларни ишлаб чиқиш ҳозирги кунда долзарб аҳамият касб этаётганлигининг гувоҳи бўламиз.

Ҳозирги пайтга келиб мамлакатимизнинг барча соҳаларида олиб борилаётган чуқур ислоҳотлардан ва улардан кўзланган асосий мақсадларга эришиш учун, энг аввало, жамиятдаги инсонларнинг ижтимоий-сиёсий онгини, тафаккури ва маданияти билан бир қаторда ҳуқуқий, сиёсий фикрлашини ҳам тубдан ўзгартириш ва ривожлантириш муҳим аҳамият касб этмоқда. Ушбу машаққатли ва заҳматли жараённи амалга оширишда оммавий ахборот воситаларининг роли ҳамда аҳамияти жуда ҳам муҳим ҳисобланади. Айнан шу сабабли ҳам барча мамлакатларда оммавий ахборот воситалари давлат ва жамият ҳаётида муҳим роль ўйнайди. Уларнинг “тўртинчи ҳокимият” деб аталиши ҳам бежиз эмасдир. Бугунги кунга келиб, ОАВ соҳаси мамлакатимизнинг барча соҳа ва тизимлар фаолиятини кенг қамровда таҳлил этади, назорат қилади ҳамда ушбу фаолият натижасида эга бўлган маълумотларини кенг оммага етказишида уларнинг ижтимоий-сиёсий ҳамда ҳуқуқий онги ва савиясини ривожлантиради.

Оммавий коммуникациянинг келиб чиқишига XX асрнинг биринчи ярмида катта ҳажмдаги оғзаки, образли ва мусиқавий ахборотларни тез ва ғоятда кўпайтириб узатишга имкон берган техник қурилмаларнинг яратилиши моддий замин бўлди. Юксак малакали мутахассис ходимлар хизмат қиладиган бу коммуникациялар “оммавий информация ва пропаганда воситалари” ёки “оммавий ахборот воситалари” деб атала бошланди.

Айни шу нуқтаи назардан мамлакатимизда ҳар кимнинг фикрлаш ва сўз эркинлиги, ахборотни олиш, излаш ва тарқатиш ҳуқуқлари, оммавий ахборот воситаларининг эркинлиги Конституциямизнинг тегишли моддалари ҳамда “Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида”ги, “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги, “Журналистлик фаолиятини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги, “Оммавий ахборот воситалари тўғрисида”ги ўндан ортиқ қонун ҳужжатлари билан кафолатлаб қўйилган.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Журналист ҳамда сиёсий-ижтимоий мавзулар доирасида қизғин фикрлар соҳиби Хуршид Дўстмуҳаммаднинг фикрича: “Ахборот глобаллашуви нафақат дунёни, унга қўшиб одамларни, миллий қадриятларни ва табиий, миллий журналистика қиёфасини жиддий ўзгартирди. Шунинг баробарида замон журналистлар зиммасига ўзларини ва ўз миллатини маданий инқирозлардан асраб қолиш масъулиятини юкламоқда. Бундай юксак масъулиятни эса ўз касбининг барча сир-асрорини, жумладан, касб одобини мукаммал эгаллаган журналистларгина теран идрок этишлари, самарали фаолият юритишлари мумкин”[4].

Ўрганилаётган муаммонинг турли жиҳатлари журналистика назариётчилари томонидан маълум даражада ўрганилган. Х.Дўстмухамедова, Ф.Мўминов, Қ.Ирназаров, М.Худойқулов асарларида[4; 5; 6;] кўриб чиқилган.

Ғарб партологияси бўйича таниқли мутахассис, француз олими М.Дюверженинг “Сиёсий тизимда кўп партиявийлик қарор топган тақдирдагина, давлат халқ манфаатларини тўлиқ ифодалай олиши, умуммиллий манфаатларни, синфлар, ижтимоий гуруҳлар манфаатлари устунлигини таъминлай олиши ва жамиятдаги барқарорликнинг мустаҳкам негизини ташкил қила олиши мумкин”, деган таърифини келтириш мумкин.

Е.Пронинанинг фикрича, аудитория алоҳида шахс ёки бутун жамиятдан иборат бўлса, журналист ёзган матни ва саъй-ҳаракатлари билан аудиториянинг руҳиятига таъсир этувчи коммуникатор вазифасини бажаради. Коммуникатор аудиториянинг нафақат руҳиятига таъсир қилади, балки унинг фикрини шакллантиришга ҳам хизмат қилади. Журналистикада фикрни шакллантириш ОАВнинг асосий вазифаси – жамоатчилик онгига таъсир этиш ва уни шакллантиришдан кейин иккинчи ўринда туради. Шундай қилиб, замонавий журналистиканинг бош вазифаси одамларда фуқаролик жамияти талабларига жавоб берадиган, жамиятни демократлаштириш ва бозор иқтисодиёти талабларидан келиб чиқадиган ижтимоий-психологик сифатлар, қарашлар ва ишончни шакллантиришдан иборатдир.

В.В.Ворошиловнинг бу фикри айнан болалар аудиториясига ҳам тааллуқлидир. Айнан, болалар ОАВ ўз аудиторияси вакилининг онги ва фикрини шакллантиришда, уларнинг руҳиятига таъсир қилишда етакчи ўринни эгаллайди.

Тадқиқот методикаси. Мақолада синтез-анализ, статистик-таҳлил, қиёсий-назария, омилли таҳлил, индукция ва дедукция, нисбий кўрсаткич, таснифлаш ва тизимлаштирш каби методлардан фойдаланилган. Шунингдек, мақолада олиб борилган иқтисодий таҳлиллар натижасини турли кўринишдаги жадваллар, графиклар ҳамда схемалар билан кўрсатиб берилган. Натижалар асосида зарурий хулосалар ҳам мақолада мужассамдир.

Таҳлили ва натижалар. Жамиятнинг сиёсий тизими ижтимоий-сиёсий тусдаги муносабатларда қатнашувчи ташкилотлардан иборат. Сиёсий тизимнинг ажралмас таркибий қисми ва унинг асосий бўғинларидан бири эса сиёсий партиялардир.

Партия - (лотинча “partio” - “бўламан”, ‘‘ажратаман ”) ғоявий жиҳатдан маслакдош, манфаатлари муштарак бўлган, шунингдек, муайян ишни бажариш мақсадида тузилган кишилар гурухдир.

Ўзбекистон Республикасининг “Оммавий ахборот воситалари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги Қонунида белгиланганидек, “оммавий ахборотни даврий тарқатишнинг доимий номга эга бўлган ҳамда босма тарзда (газета, журналлар, ахборотномалар, бюллетенлар ва бошқалар) ва (ёки) электрон тарзда (теле-, радио, видео, кинохроникал дастурлар, Интернет жаҳон ахборот тармоғидаги веб-сайтлар) олти ойда камида бир марта нашр этиладиган ёки эфирга бериладиган қонунчиликда белгиланган тартибда рўйхатга олинган шакли ҳамда оммавий ахборотни даврий тарқатишнинг бошқа шакллари оммавий ахборот воситасидир”[1; 2;].

Мамлакатимизда олиб борилаётган кенг кўламли устувор ислоҳатлар шуни кўрсатадики, ижтимоий-сиёсий ўзгаришларга зарурий мослашишни таъминлайдиган ҳамда ахборотлашув муҳитида муносиб ўринни кафолатлайдиган тафаккур тарзига эга бўлган ОАВ кадрларини тарбиялаш давлат сиёсатининг асосий устувор йўналишига айланди.

Оммавий ахборот воситаларининг вазифаларидан бири жамиятни демократлаштириш ва фуқаролар эркинлигини таъминлашдир.

Жамиятни демократлаштириш вазифасига эътибор қаратадиган бўлсак, биламизки, демократия “халқ ҳокимиятчилиги” маъносини англатади, демак, давлат ва жамият бошқарувида халқ ролини ошириш, улар томонидан сайланган вакиллар орқали ҳокимиятни амалга ошириш тушунилади. Бу жараёнда сиёсий партиялар муҳим вазифа бажаради.

Чунки сиёсий партиялар жамиятнинг турли қатламлари, гуруҳлари ва синфлари қарашларини ўзида мужассамлаштирган сиёсий институт бўлиб, улар томонидан кўрсатилган номзодлар халқнинг овоз бериш йўли билан халқ вакиллари сифатида фаолият олиб боради. Шу каби сиёсий жараёнларда сиёсий партиялар фаолияти, сайлов даврида эса номзодларнинг сайловолди дастурларини халққа етказишда ОАВларнинг ўрни беқиёс. Биз сиёсий партиялар фаолиятида оммавий ахборот воситаларининг аҳамиятини кўпинча сайловолди ташвиқотларида кўрамиз, лекин ОАВлари сиёсий партиялар фаолиятини сайловолди ташвиқотларида кенг ёритса-да, уларнинг қизиқиши фақат партиялар нима қилаётгани ва айтаётганидан иборат эмас. Улар фуқароларнинг эркинлигини таъминлаш вазифасини ҳам бажаради. Сабаби, аксарият одамлар сиёсий маълумот олиш учун ОАВларига таянадилар. Натижада, ОАВлари сайловчиларга ва жамоатчилик фикрига таъсир ўтказади.

Шу ўринда Президент Шавкат Мирзиёевнинг қуйидаги фикрларини келтириб ўтиш ўринлидир [2]: “Жамиятда аҳоли ва партияларнинг сиёсий фаоллиги, фуқаролик жамияти институтлари роли, оммавий ахборот воситалари таъсири кун сайин ошиб бормоқда”.

Замонавий жамиятда ОАВлари овозлар ва жамоатчилик фикри курашда асосий роль ўйнайди. ОАВларининг сиёсий партиялар фаолияти ривожида муҳим аҳамиятга эгалигини, улар фаолиятининг қай даражада самарадорлигини ва халқ ҳаёти фаровонлиги учун қандай ишларни амалга ошираётганлигини халққа етказувчи асосий восита эканлигида кўрамиз. Сайлов жараёнларида сиёсий партиялар ва сиёсатчилар фаолияти ривожида ОАВларининг аҳамияти шундан иборатки, улар сайловчилар ва жамоатчилик фикри билан боғланиш, мулоқот қилиш ва уларга таъсир ўтказишлари керак. Шу тарзда сиёсий ҳаётда аҳоли фаоллиги ошади ва жамоатчилик фикри ривожланади. Бу фаоллик ва фикрларнинг ижобий бўлиши учун сиёсий партиялар ўз фаолиятини янада ривожлантиришга ҳаракат қилишади.

Wолсфельд айтганидек, “Агар сиз оммавий ахборот воситаларида мавжуд бўлмасангиз, сиёсий жиҳатдан мавжуд эмассиз”. Бугунги шиддат билан ривожланаётган замонда ҳаётимизни оммавий

ахборот воситаларисиз тасаввур эта олмаймиз. Чунки дунёда содир бўлаётган нафақат сиёсий, балки бошқа соҳалардаги ўзгаришлардан, янгиланишлардан ҳам бохабар бўлиб бориш давр талабидир.

ОАВларининг давлат ва жамият ҳаётида катта аҳамиятга эгалиги, қонунчиликда белгилаб қўйилганидек, фаолиятида цензурага йўл қўйилмаслиги уларга ҳеч қандай чекловлар йўқлигини англатмайди, чунки демократик давлатларда оммовий ахборот воситалари эркинлигини, улар фаолият кўрсатиш шароитларини таъминлаш билан бирга бу эркинликларнинг суистеъмол қилинишига йўл қўйилмайди.

Биринчидан, ОАВлари берилаётган ахборотнинг тўғрилиги учун жавобгардир.

Иккинчидан, мавжуд конституциявий тузумни, ҳудудий яхлитликни зўрлик билан ўзгартиришга даъват қилиш, уруш ва зўравонликни, миллий, ирқий, диний адоватни тарғиб этиш, давлат сирини ёки қонун билан қўриқланадиган ўзга сирни ошкор этиш, жиноий жавобгарликка сабаб бўладиган ҳаракатларни содир этишга рухсат берилмайди.

Учинчидан, фуқароларнинг шаъни, қадр-қимматини таҳқирлаш, шахсий ҳаётига аралашиш ҳам тақиқланади.

Россиялик тадқиқотчи В.А.Зимин нуқтаи назарига кўра, “фуқароларнинг мамлакат ижтимоий ҳаётидаги турли даражадаги иштирокида мужассамлашган, фаолиятга йўналтирилган сиёсий маданият сиёсат ҳақидаги оддий билимлар мажмуаси эмас, балки амалда қўлланиладиган тарихий-сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий тажрибанинг натижаси, шунингдек, маълум бир жамиятнинг умумий маънавий-ахлоқий ривожланиши билан белгиланадиган анъаналарнинг аксидир. Иккинчиси сиёсий маданиятда алоҳида фуқаролар ва ижтимоий гуруҳларнинг сиёсатдаги ўзига хос хулқ-атвори учун мотивацион асос бўлиб хизмат қиладиган махсус тартибланган қадриятлар тизимида ўзини намоён қилади”[7].

Хулосалар. Демократик ҳуқуқий давлатнинг янада ривожланиши ва олиб борилаётган ислоҳотлар самарадорлигини ошириш учун сўз эркинлиги ҳуқуқининг кичик бир қисмини чеклаш талаб қилинади. Унда сўз ва матбуот эркинлигини демократик жамиятда миллий хавфсизлик, ижтимоий осойишталик манфаатлари йўлида, тартибсизликларнинг олдини олиш, ахлоқни ҳимоя қилиш, бошқа шахсларнинг обрў-эътибори ва ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ёхуд одил судловни таъминлаш мақсадларида мажбурият ва жавобгарлик имкониятини келтириб чиқариши белгиланган.

Сиёсий партиялар шаклланишида ва сиёсий жараёнларда Оммавий ахборот воситалари, матбуот, журнал ва газеталар, радио ва телевидениянинг ва замонавий глобал тармоқларнинг аҳамияти ва ўрни беқиёс ҳисобланади. ОАВ инсонларга сиёсий партиялар ҳақида ва уларнинг дастурлари ва кураш йўллари ва усуллари ҳақида батафсил маълумот беради.

Xulosa qilib aytganda, missionerlik va prozelitizm harakati xalqimiz va millatimiz ma’naviyatiga, e’tiqodiga raxna solmoqda. Missionerlik va prozelitizm tahdidini bartaraf etishda jamiyatimiz hayotida aholining keng qatlamlarini ushbu illatlarga qarshi g‘oyaviy-mafkuraviy qurollantirish uchun ma’naviy qadriyatlarimizni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Тинчлик, маърифат ва бунёдкорлик йўлида ҳамкорлик. Ўзбекистон Республикаси Президенти вазифасини бажарувчи Шавкат Мирзиёевнинг Тошкентдаги симпозиумлар саройида Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи // «Халқ сўзи» online, 2016 йил 19 октябрь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси» тўғрисидаги Фармони.

3.Танимов Ш. Миссионерство и прозелитизм как новая форма идеологической интервенции. Демократизация и права человека. – 1/2022. – С.145.

4. Отамуротов С. Глобаллашув ва миллий –маънавий хавфсизлик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – Б. 301.

5.Ричард Джон Нейхауз. Бизнес и Евангелие. – http://www.krotov.info/libr_min/n/neretina/neuh_02.html.

6. Ғойибназаров Ш. Ислом терроризмга қарши. Тошкент: «O‘zbekiston» нашриёти, 2021. – Б.139.

7.Хасанбоев. Ў. Ўзбекистонда даавлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар, оқимлар мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари. Тошкент ислом университети. – Тошкент, 2014. – Б. 110-111.

8. https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/missionerlar-va-ularning-maqsadlari.

9. Тўхтаров И. Ахборот алмашинув жараёнларининг глобаллашуви шароитида диний-сиёсий барқарорликни таъминлашнинг айрим масалалари. «Глобаллашув жараёнида ахборот хавфсизлиги: информацион таҳдид ва мафкуравий иммунитет масалалари». Республика илмий – амалий анжумани материаллари. – Фарғона. 2013 йил февраль. – Б. 7.

10. Республика Маънавият ва маърифат маркази томонидан 2019-2020 йилларда мамлакатимизда ижтимоий –маънавий муҳит ҳолатини ўрганиш бўйича ўтказилган сўровнома.

UO'K 327:008(58)

MIGRATSIYANING MOHIYATI VA O'ZIGA XOSLIGI

Поручение воспитания детей, нуждающихся в особом внимании, воспитателю без специальной подготовки, не способному применять адекватные, пропорциональные воспитательные меры, может превратить данный процесс в мучение для обеих сторон. Например, доведение до сознания вспыльчивого, склонного к капризам, имеющего умственное расстройство инвалида определенной нормы морали или поведения или просто сообщение ему этой нормы может привести к серьезному конфликту. Обычно дети с такой особенностью, не зная о своем недостатке, любят быть в центре внимания группы. Именно этими своими действиями они пытаются поставить свою личность на первое место, им нравится управлять, приказывать своим сверстникам. В результате между ними возникает немало ссор, конфликтов, недовольствий, причиной которых является непропорциональность морали и характера. С учетом данных моментов воспитание этой категории детей, нуждающихся в особом внимании, должно отличаться от нормально развивающихся детей интегрированнстью и дифференцированностью.

В совершенствовании психолого-педагогической деятельности в образовательных учреждениях, где организовано инклюзивное образование, необходимо систематически применять различные коррекционные психолого-педагогические методы с учетом отношений,

коммуникабельности, способности к адаптации а также диагностики привлеченных к инклюзивному образованию больных детей, что способствует решению различных проблем. Эти методы служат повышению качества и эффективности системы инклюзивного обучения и воспитания, интеграции на достаточном уровне. В этом процессе анализируются психологическое состояние, переживания детей.

К экспериментам, проведенным в специализированных школах-интернатах для детей с легкой и средней инвалидностью, было привлечено 2383 учащихся, применена методика психологического диагностирования. По результатам изучения обнаружено, что учащиеся проявляют высокий уровень интереса к таким учебным дисциплинам, как химия, математика, английский язык, труд, родной язык, информатика, при выборе профессионального колледжа выражают большее желание продолжить учебу по направлениям медицины, педагогики, промышленности и транспорту. Исследование эффективности инклюзивного образования показало высокий уровень интереса учащихся к химии, информатике, труду, математике, родному языку (рис. 3).




Рисунок 3. Показатели интереса учащихся к усвоению дисциплин

Наиболее важное качество, присущее детям, нуждающимся в особом внимании, – сильное стремление к нравственному совершенствованию, так как отношение к действительности, людям происходит у них через глубокое духовное стремление. Изучение их интереса к учебным дисциплинами и профессиям должно начинаться со дня прибытия их в образовательное учреждение. Например, можно проводить беседы о том, кем работают их родители и близкие, тем самым доводя до их сознания мысли о профессиях.

Для определения интереса к учебным дисциплинам, склонностей к профессиям учащихся, нуждающихся в особом внимании, использовали методики, характеризующиеся удобством в применении, в рамках исследования проведены «Анкета интересов», «Дифференциальное диагностическое анкетирование». Активное включение учащихся в практическую работу по своим интересам свидетельствует о превращении интереса в склонность.

Заключение. Результаты свидетельствуют о том, что критерий оценки эффективности динамики экспериментальной работы больше единицы, критерий оценки уровня знаний больше ноля, в свою очередь, это означает, что результаты экспериментальной группы выше, чем контрольной. Таким образом, статистический анализ подтвердил эффективность экспериментальной работы, направленной на определение уровня самооценки, взаимоотношений и адаптированности детей, нуждающихся в особом внимании, и здоровых детей в инклюзивном образовании. Для эффективной организации инклюзивного образования, изучения созданных для детей с инвалидностью условий, определения удобных путей социальной адаптации к жизни детей с ограниченными возможностями к инклюзивному образованию были привлечены учащиеся специальных образовательных учреждений. Например, по желанию семьи (родителей) к инклюзивному образованию были привлечены слабовидящие, слабослышащие и дети, больные легким сколиозом (1-й и 2-й степени), которые обучались в специальных учреждениях. Дети, нуждающиеся в особом внимании, были вовлечены в инклюзивное образование в общей средней школе.

Особую актуальность приобретает подготовка к жизни детей с особыми нуждами с учетом особенностей инвалидности. Результаты экспериментального образования детей с лёгкой инвалидностью.

ЛИТЕРАТУРА:

1. *См.: Туре Йонссон. Инклюзив таълим. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. ЮНЕСКО халқаро ташкилоти. Оперейшен Мерси Халқаро Ташкилоти, Республика таълим маркази. – Тошкент, 2003.*
2. *Раджапова А. Р. Педагогик мулоқотни оптималлаштиришнинг коммуникатив усуллари. //Халқ таълими. – 2011 №6. –104-бет.*
3. *Дьюи Дж. От ребенка – к миру, от мира – к ребенку. – М.: Карапуз, 2009. –С. 122.;*
4. *Жўраев Т. С. Ўсмир ўқувчилар ақлий ривожланишининг психологик хусусиятлари: Псих. фан. номзоди ...дисс. – Т., 2005. – С. 139.*
5. *Каждаспаров Г. М., Каждаспаров А. Г. Педагогический словарь. – М.: Просвещение, 1998. – С. 49.*
6. *Выготский Л. С. Педагогическая психология. – М.: АСТ, 2005. – С.*
7. *Каримова В.М. Оилавий ҳаёт психологияси. Т.-2006.-143б.*
8. *“Оила психологияси” ўқув қўлланма.-Тошкент.-2008.- 140 б.*
9. *.Алимов У. Оилада фарзанд тарбияси. –Т: Моваройннаҳр, 2011. –78*
10. *Выготский С. Л. Собрание сочинений. В 6 томах. Т. 2. – М.: Педагогика, 1984. – 274 с.*

UO'K 904

"ОЗОД БУХОРО" ГАЗЕТАСИДА МИЛЛИЙ-ҲУДУДИЙ ЧЕГАРАЛАНИШ МАСАЛАСИНИНГ ЁРИТИЛИШИ

Раҳмонов Камол Жамолович,
Бухоро давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси доценти, тарих фанлари номзоди
k.rakhmonov@buxdu.uz

Аннотация. *Мақолада БХСРнинг матбуот органи ҳисобланган "Озод Бухоро" газетасида эълон қилинган мақола ва маълумотларда Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланишга муносабат масаласи имкон қадар таҳлил этилган.*

Калит сўзлар: *миллат, миллий масала, мустамлака, инқилоб, хорижий, сиёсат, жумҳурият, ҳуқуқ, аҳоли, ўтроқ, кўчманчи, ярим кўчманчи, дўстлик, миллий бирлик, комиссия, давлатчилик, тенглик, озодлик, иттифоқ, рақобат.*

ОСВЕЩЕНИЕ ВОПРОСА НАЦИОНАЛЬНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ГРАНИЦЫ В ГАЗЕТЕ «ОЗОД БУХАРА»

Аннотация. *В данной статье максимально подробно анализируется вопрос отношения к национально-территориальному размежеванию в Центральной Азии в статьях и информации, опубликованных в газете "Свободная Бухара", которая считалась рупором БНСР.*

Ключовые слова: *нация, национальный вопрос, колония, революция, внешняя политика, республика, закон, население, низовые слои, кочевой, полукочевой, дружба, национальное единство, комиссия, государственность, равенство, свобода, союз, конкуренция.*

COVERAGE OF NATIONAL-TERRITORIAL BOUNDARY ISSUE IN «INDEPENDENT BUKHARA» NEWSPAPER

Abstract. *This article analyzes in as much detail as possible the issue of attitude to the national-territorial demarcation in Central Asia in articles and information published in the newspaper "Independent Bukhara", which was considered the mouthpiece of the BPSR.*

Key words: *nation, national question, colony, revolution, foreign policy, republic, law, population, grassroots, nomadic, semi-nomadic, friendship, national unity, commission, statehood, equality, freedom, union, competition.*

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномасида: «Биз қадимий ва бой тарихимизни, айниқса, оғир шароитда илм-маърифат, инсон эркинлиги, халқ озодлиги, Ватанга, миллий қадриятларга меҳр ва садоқат ғояларини дадил кўтариб чиққан жадид боболаримиз фаолиятини янада чуқур ўрганишимиз лозим. Уларнинг улуғ мақсадлар йўлидаги мардона кураши ва фидоийлиги Янги Ўзбекистонни қуришда барчамиз, аввало, ёшларимиз учун чинакам ибрат мактаби бўлиб хизмат қилиши зарур» [1]-деб алоҳида уқтириб ўтганди. Ўз салоҳиятимиз, куч-қудратимиз ва имкониятларимизга ишончимиз ортиб бораётган бугунги кунда аждодлар руҳи ва анъанасига садоқат кўрсатиш туйғуси кучаймоқда.

Совет ҳокимиятининг 1920-1930 йиллар босқичи тарихида Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланиш масаласи марказий ўринлардан бири ҳисобланиб, ушбу муаммо ҳамон узил-кесил якуний илмий баҳосини олган эмас. Бу масалада тарихчи, сиёсатчи, иқтисодчи ва маданиятшунос олимлар ҳамон илмий баҳс олиб борадилар ҳамда муаммога ўз соҳалари нуқтаи назаридан фикр-мулоҳазалар билдирадилар. Миллий-ҳудудий чегараланиш сиёсати Туркистон халқлари миллий бирлиги, иқтисодий якдиллиги, истиқболдаги интеграция жараёнларига қарши қаратилган воқелик сифатида халқлар дўстимиз раҳна солишга асосланган эди, деган илмий хулоса мустақиллик йилларида устунлик қилмоқда. Бироқ Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланишнинг манбашунослиги, Ватан ва хориж тарихшунослиги билан боғлиқ тадқиқотларни атрофлича ўрганиш бу борадаги илмий бўшлиқни тўлдиришга хизмат қилади.

Мақоланинг асосий мазмуни. Бухоро Халқ Совет Республикаси (БХСР) ҳукумати йилларида “Бухоро ахбори” газетасининг (1920-1923 йй) давомчиси ҳисобланган “Озод Бухоро” газетаси (1923-1929 йй) саҳифаларида 1923 йил баҳоридан куз фасли охирги ноябрь ойи давомида босилган мақолалар таҳлил этилар экан, устида мулоҳаза юритилаётган масалага тегишли бой маълумотлар олиш мумкин. Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланиш масаласига оид “Озод Бухоро” газетасидаги манбаларни қуйидаги гуруҳларга ажратиш мумкин:

1.БХСР ҳукумати ва Туркистон АССРдаги масъул шахслар томонидан ёзилган мақолалар ва суҳбат материаллари;

2. Турли уюшма (партия, касаба союз, жамоатчилик кенгашлари, комиссиялар фаолияти)лар тадбирлари билан боғлиқ хабарлар;

3. БХСР меҳнаткашларининг 5-қурултойидаги Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланиш масаласи маълумотлари.

БХСР ҳукумати аъзоларидан Файзулла Хўжаев ва Абдулқодир Муҳиддиновлар “Озод Бухоро”нинг бир қатор соҳаларида ўз мақолалари билан чиқишлар қилдилар. Биз Ф.Хўжаевнинг 1924 йил август ойида 3 та, ноябрь ойида 1 та мақоласи Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланиш масаласига қаратила ёзилганини аниқладик [2].

Шунингдек, Абдулқодир Муҳиддинов бу борада Ф.Хўжаевдан бир қадар олдин чегараланишга ўз шахсий муносабатини билдиргани газета маълумотлари орқали аниқ бўлди. А.Муҳиддиновнинг 1924 йил март, апрель ойларида “Озод Бухоро”нинг 2 та сонида салмоқли мақоласи босилган [3]. Юқоридагилардан ташқари Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланиш масаласида Туркистон АССР марказий ижроия қўмитаси ўринбосари Хўжанов билан суҳбат, Туркистон коммунистлар фирқаси марказий ижроия қўмитасининг масъул саркотиби ўртоқ Раҳимбоев билан мулоқот кабилар ҳам босилган, масъул ходим Масъуд Қурбонов хабарномаси кабилар “Озод Бухоро” саҳифаларидан ўрин олган [4].

Ҳукумат аъзолари ва партия йўлбошчилари мақолалари таҳлил этилар экан, уларда синфийлик назарияси ва коммунистик мафкура етакчилик қилади. Ўрта Осиё тарихий босқичларига мурожаат қилиниб минтақа (Фарғона, Хоразм, Бухоро) 50 йиллар давомида Россия империяси мустамлакаси асоратида мустамлака қилиб келинганлиги 7 йил (1917-1924 йй) “инқилоб” туфайли халққа эркинлик ва озодлик берилганлигига алоҳида урғу берилган.

Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланишга халқнинг азалий орзу-истаги сифатида қаралгани кўрсатилган. Бироқ Ўрта Осиё республикалари доҳилий (ички) ва хорижий (ташқи) масалаларда мустақил бўлиши, ўз ҳуқуқини ўзи белгилаши, иқтисодий мустақилликка эга бўлиш шарти иттифоқ таркибига кириши ҳақида эркин фикр-мулоҳазалар ҳам илгари сурилган. Афтидан, “Марказ” миллий-ҳудудий чегараланиш маҳаллий аҳоли ҳохиш иродаси билан табиий ўтказилмоқда деган руҳий ҳолатни юзага келтирмоқчи бўлган. Шу сабабли Ф.Хўжаев ва А.Муҳиддиновларнинг салмоқли мақолалари мафкура доирасини ёриб чиқа олмаган. Масалан, “Озод Бухоро” газетасининг 1924 йил 11 августдаги 125-сонида босилган Файзулла Хўжаевнинг “Ўрта Осиё мамлакатларини миллий чегаралаш масаласи” мақоласида: “Туркистон халқи 7 йилдан буён ўзининг идорасини тузиб келадур ва ўзларининг ҳаётий манфаатларини таъмин қилиш учун тиришмакдалар. Бухоро ва Хоразм халқлари бўлса мана 4 йил бўлди ўз мамлакатларини амир ва хонлардан ҳоли идора қилиб келмакдадурлар. Амирлар, хонлар, бойлар ва тескаричиларни бостириб, ўзларининг шўро усулидаги идораларини тузмаклари билан бирликда хароб бўлган шаҳарларни, зарар кўрган қишлоқларни ва умуман, ўзларининг иқтисодий ишларини тузмакка киришдилар. Бу йўлда кўрилган муваффақиятлар кўз олдимиздадур.

Ўрта Осиё халқлари ўз мамлакатларидан ҳайдалган амир, хон ва чор ҳукумати амалдорларининг тилакларига мухолиф равишда мустақил ва озод яшамоқлари учун янги тадбирлар кўрмакдадурлар. Русия чори ва эски амирлик ва хонликнинг энг кейинги мерослари бўлғон сохта чегараларни битириб, миллатлар озодлиғи асосида миллий жумҳуриятлар ва ўзбак жумҳурияти доҳилида мухтор тожик музофоти тузмакка киришмаклари мана буни очиқ исбот қилади. Ишчи ва деҳқонлардан иборат бўлғон меҳнаткаш халқлар золимлар дунёсига бир неча дафъаларча ўзларини кўрсатиб келганлари каби яшамоққа ҳақлари борлигини бу сафар ҳам кўрсатмакдадурлар”-каби фикр-мулоҳазалар баён этилган.

“Озод Бухоро” саҳифаларида БХСРнинг 5-қурултойи материалари босилиши муҳим аҳамиятга эга бўлган. Шу ўринда қурултой материалини айнан беришни мақсадга мувофиқ ҳисобладик: “Ўрта Осиё қитъасида яшаб келган халқларнинг кўписи тарихий жиҳатдан турк миллатига муносиб бўлсалар ҳам, замон ўтиши билан улар турлик уруғларга бўлиниб, бир-бирларига тамоман бошқа

турмуш тартиби, урф-одат ва иқтисодий вазиятлар ичида яшай бошлоғонлар. Бу уруғлар орасида доимий равишда чиқиб келган низолар ва бир-бирига бошқа бўлғон мустақил миллатларга ажралиб кетганликларини кўрсатадур. Мана шу иқтисодий, сиёсий ва маданий эҳтиёжларда бўлғон қаршиликлари орасида бу халқлар (туркман, ўзбак, қирғиз-қозоқ)нинг бутун турмушлари хароба ҳолига келиб, ўтган асрнинг энг маданий даврларини ташкил қилғон ўзбак маданияти ҳам йўқ даражасига келган.

Айниқса, миллий масалада мустабидона ва золимона ҳаракат қилғон подшоҳлар, амирлар ва хонларнинг ўз шахсий манфаатлари учун Ўрта Осиёда яшаган халқлар, ҳатто, бир турли ҳаёт ичида яшағон уруғлар орасида ҳам сохта ҳудудлар вужудга келтиришлари, бу халқнинг тамоман эзилишга ва сиёсий, иқтисодий жиҳатдан кучлик миллатларга қул бўлишларига сабаб бўлғон.

Октябрь инқилоби подшоҳлар, амирлар ва хонларнинг бу машъум сиёсатларини супуриб ташлаш билан баробар ҳар миллатга ўз турмуш талабларига мувофиқ яшашға имкон берди. Унинг натижасида биз шўро жумҳуриятлари иттифоқи ва иштирокиюн фирқасининг 7 йилдан бери октябрь инқилоби тарафидан майдонға қўйилган бу шиорини юзага чиқариб келишини кўриб турамиз.

Мана шунинг учун юқорида айтилган сиёсий ва иқтисодий сабабларни далил қилиб, шўро жумҳуриятлари иттифоқи ва иштирокиюн фирқасининг тақозо қилғон миллий сиёсати доирасида Ўрта Осиёни миллий анъаналари қараб чегаралаш ҳақида ўртоқ Файзулла Хўжа тарафидан қилинғон маърузани эшитгандан кейин 5-бутунбухоро қурултойи қуйидаги қарорга келадур:

1.Вақтида бутун Шарқни истило қилишға интилғон чор ҳукумати Туркистон, Бухоро ва Хоразм ўлкаларида яшағон халқларнинг бутун маданий ва миллий, иқтисодий уюшмаларини тор-мор келтириб, ўзининг миллий сиёсатини мазкур халқларни бир-бирларига қарши қўйиш ва сохта чегаралар воситаси билан буларни бир-бирларидан узоқлаштириш асосига қурилғон эди.

Бешинчи Бутунбухоро қурултойи мана шу синфий равишда Ўрта Осиё халқларининг бўйинлариға боғланган ёлғон ва ҳалокатлик турмушни таги-томиридан битириб ташлаш мақсади билан лозим топадур:

А) Ўзбак жумҳурияти тузулсин. Бутун миллатларнинг тақдири ва ҳаётларини ўз қўлларига топшириш

Б) Ўрта Осиёда яшағон халқларни тезроқ ижтимоий ҳаётга етказиш

С) Буларнинг иқтисодий ва хўжалик ишларида кўрсатган ташаббусларини таъмин қилиш

Д) Буюк тарих ва мозийга молик бўлғон ўзбак маданиятини тургизиш мақсадлари билан Туркистон, Бухоро ва Хоразмда яшағон ўзбаклардан иборат “Буюк Ижтимоий Ўзбак Жумҳурияти” ва бу ўлкаларда яшағон тожиклардан иборат мухтор тожик вилояти ташкил этилсун. Ўзбак қурултойи чақирилсун.

2. Шунинг билан бирга бу тилакни тамоман вужудга чиқариш ва амалга тадбиқ қилиш учун Бухоро, Туркистон ва Хоразм вакилларидан иборат бутун Ўзбак қурултойи чақирилсун.

3. Ташкил қилинғуси ўзбак жумҳуриятининг ишларини муваффақиятлик равишда бажариш учун бирдан-бир мувофиқ марказ Самарқанд шаҳри бўлғонлиги учун Самарқанд шаҳри Ўзбекистоннинг маркази бўлсун.

4. Ўрта Осиё ўлкаларида яшағон қозоқ-қирғиз жумҳуриятини бошқалар билан бир текис деб топиб, туркман халқи учун шўролар жумҳуриятининг вужудга келтирилиши мувофиқ кўрадур.

5. Ижтимоий турмуш тузиш, шўролар ҳукуматини ва қизил қуллар озодлигини ҳимоя қилиш ҳамда сармояга қарши бошланғон кураш жабҳасини кучайтириш мақсади билан Ўзбекистон ва Туркманистон жумҳуриятларининг ижтимоий шўролар жумҳурияти иттифоқига киришларини лозим топди.

Яшасун Ўзбекистон ва Туркманистон жумҳуриятларининг ижтимоий шўролар жумҳурияти иттифоқига киришлари!”

Гувоҳи бўлиндики, қурултойда Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланиш масаласи, БХСРдаги туркман ва тожик миллатлари тақдири анча кенг муҳокама қилинган. Қурултой ўзбеклар яшайдиган ҳудудлар, Ўзбекистон ССРга кириши зарур бўлган вилоятлар ҳақида муҳокамалар уюштириб, 1 млн 200 минг сонли тожиклар, 400-500 минг сонли туркманлар тақдири масаласида комиссиялар ташкил этишни таклиф этган [5].

Газетадаги маълумотлар таҳлил этилар экан, БХСРнинг 5-қурултойида ташкил этилажак Ўзбекистон ССРнинг 1-съезди Бухорода ўтказилиши, Самарқанд шаҳри пойтахт шаҳар қилиб белгиланишига қарор қилган [6]. Негадир, Тошкент шаҳрининг Ўзбекистон таркибида бўлиши шартлиги билан боғлиқ маълумотлар газетада келтирилган. Бизнингча, ушбу шаҳар ҳудудларини Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланиш туфайли вужудга келадиган айрим республикаларга

бериш билан боғлиқ таклифлар бўлган. Бу ўринда Қозоғистон Ўрта Осиё республикалари ҳудудига кирмаслиги, ягона ҳудудий бирлик эканлиги ҳақида ҳам газетадаги мақолаларда фикрлар келтирилганлигини инобатга олиш мумкин.

Хулоса. Тадқиқот давомида амин бўлиндики, "Озод Бухоро" газетаси ўз даврининг матбуот органи сифатида 1924 йилнинг муҳим сиёсий воқеаси Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланиш билан боғлиқ масалани диққат эътиборидан қочирмаган. Газета саҳифаларидан биз аниқлаган мақолалар таҳлили шуни кўрсатадики, БХСР ҳукумати аъзолари, фаол жамоатчилик Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланиш масаласи ижобий ҳодисот сифатида қаршиламай, таҳликада бўлса-да, ундан хайрли натижалар кутганлар. Шу ўринда таъкидлаш мумкинки, эҳтимол, "Озод Бухоро"нинг биз излаб топа олмаган бошқа сонларида ҳам Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланиш масаласига дахлдор мақола, маълумот ва хабарлар бўлиши мумкин. Мулоҳаза ва таклиф сифатида айтиш жоизки, 1920 йиллар матбуотида Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланиш масаласининг ёритилиши алоҳида тадқиқ этилса, илмий жиҳатдан аҳамиятли бўларди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси //Халқ сўзи. 2022 йил 21 декабрь.

2. Файзулла Хўжа. Ўрта Осиё мамлакатларини миллий чегаралаш масаласи //Озод Бухоро. 125-сон. 1924 йил 11 август; Миллий чегараланиш хусусида //Озод Бухоро. 126-сон. 1924 йил 14 август; Ўрта Осиёни миллий жумҳуриятларга бўлиш //Озод Бухоро. 132-сон. 1924 йил 25 август. Марказда Ўрта Осиё масаласи //Озод Бухоро, 163-сон. 1924 йил 14 ноябрь.

3. Абдулқодир Муҳиддинов. Миллий жумҳуриятлар ташкили //Озод Бухоро, 67-сон. 1924 йил 27 март; Миллий жумҳуриятлар ташкили ва Бухоро туркманлари //Озод Бухоро, 80-сон. 1924 йил 20 апрель.

4. Ўрта Осиё миллий жумҳуриятлари тевараги да //Озод Бухоро, 130-сон. 1924 йил 21 август; Жумҳуриятимизда. Миллий жумҳуриятлар тевараги да //Озод Бухоро, 134-сон.1924 йил 29 август

5. Абдулқодир Муҳиддинов. Миллий жумҳуриятлар ташкили ва Бухоро туркманлари //Озод Бухоро, 80-сон. 1924 йил 20 апрел.

6. Марказда Ўрта Осиё масаласи //Озод Бухоро, 163-сон. 1924 йил 14 ноябрь.

U‘OK 33.07

ISO 9000 STANDARTI ASOSIDA KORXONALARDA MAHSULOT SIFATINI YAXSHILASH

Tursunov Alisher Ravshan o‘g‘li,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali o’qituvchisi
alishertursunov260@gmail.com
Hasanov Saidaxrorxon Abror o‘g’li,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali talabasi
saidaxrorxonxasanov2001@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ISO 9000 xalqaro standarti asosida korxona va tashkilotlarda mahsulot sifatini yaxshilash chora-tadbirlari va ularni yuritish usullari bayon qilingan. ISO xalqaro standarti asosida mahsulot sifatini har tomonlama yaxshilash, takomillashtirish va bu mahsulotlarni bozordagi o‘rnini oshirish nazarda tutilgan. Bundan tashqari iste’molchilarga yuqori sifatli mahsulotlarni yetkazib berish va mahsulotlarning har tomonlama qulayligini ta’minlash nazarda tutilgan. Ishlab chiqarish korxonalarida ham xalqaro standart va talablarga javob bera oladigan mahsulot ishlab chiqarish va uni xalqaro bozorga chiqarish yo’llari haqida to’xtalib o’tilgan.*

Kalit so‘zlar: *ISO, sifat, standart, korxona, tashkilot, menejment, bozor.*

ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ПРОДУКЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ НА ОСНОВЕ СТАНДАРТА ISO 9000

Аннотация. *В данной статье описаны меры по повышению качества продукции на предприятиях и организациях на основе международного стандарта ISO 9000 и методы их управления. На основе международного стандарта ISO предусматривается комплексное улучшение и повышение качества продукции и повышение положения этой продукции на рынке. Кроме того, предусмотрено доставлять потребителям качественную продукцию и обеспечивать всестороннее удобство продукции. Производственные предприятия также обсудили пути выпуска продукции, соответствующей международным стандартам и требованиям, и выпуска её на международный рынок.*

Ключевые слова: *ИСО, качество, стандарт, предприятие, организация, менеджмент, рынок.*

IMPROVEMENT OF PRODUCT QUALITY IN ENTERPRISES ON THE BASIS OF ISO 9000 STANDARD

Abstract. *This article describes measures to improve product quality in enterprises and organizations based on the ISO 9000 international standard and methods of their management. On the basis of the international ISO standard, it is envisaged to comprehensively improve the quality of products and increase the position of these products in the market. In addition, it is envisaged to deliver high-quality products to consumers and ensure all-round convenience of products. Production enterprises also discussed ways to produce products that meet international standards and requirements and release them to the international market.*

Key words: *ISO, quality, standard, enterprise, organization, management, market.*

Kirish. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda mahsulotlar va xizmatlarning sifati masalasi korxonaning nufuzini, rivojini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarining raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Korxona va tashkilotlarda mahsulot sifatini boshqarish tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilganligi va sifatni ta’minlash masalalari korxonaning doimiy siyosati darajasida ko‘rilishi bozorda o‘zining muqim o‘rniga ega bo‘lish, strategik hamkorlik va iste’molchilar bilan faoliyat olib borishning garovi sanaladi. ISO xalqaro standarti asosida mahsulot sifatini oshirish korxona va tashkilotlar o’rtasidagi raqobat va rivojlanishga yo’l ochib beradi. Bu standartlarni o’rnatishda, asosan, korxonalarda ISO 9000 standarti, ya’ni sifat menejmenti tizimi bo’yicha standartlarini o’rnatish afzalroqdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 19-iyuldagi №173-sonli “Xalqaro standartlarga muvofiq sifatni boshqarish tizimlarini respublika korxonalariga joriy etishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari shular jumlasidandir. ISO standartlari, shu jumladan, ISO 9001 maslahat xarakteriga ega, ammo ularga rioya qilinmasa, mahsulotlarning bozor raqobatbardoshligi ko'pincha pasayadi, chunki jahon tovar bozorlarida

narxdan tashqari raqobat katta ahamiyatga ega. Uning paydo bo'lishining sababi shundaki, jahon iqtisodiyotida turli integratsion jarayonlar sodir bo'lmoqda va buning uchun sifatsiz mahsulotlarning bozorlarga kirib kelishining oldini olish bilan bog'liq bo'lgan savdodagi ta’rifsiz to'siqlarni bartaraf etish zarur. Yana bir sabab - mahsulot sifatiga talab qo'yadigan iste'molchilarning ko'pligi. Shu sababli, sifat menejmenti tizimi bozorning har bir segmentida mahsulot sifatiga qo'yiladigan barcha talablarni, ularni qondirish uchun real imkoniyatlar bilan muvofiqlashtirishi kerak. Bundan tashqari, yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarda talab qilinadigan sifat darajasidagi mahsulotlarni kelishilgan narxda va o'z vaqtida ishonchli yetkazib berishni ta'minlashning ahamiyati ortadi. Bularning barchasi korxonalarda xalqaro ISO standartlarini joriy etish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Xalqaro sifat menejmenti tizimlarining asosiy maqsadi yangi sifat tizimlarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish maqsadida xalqaro darajada barcha uchun yagona metodologik asos yaratishdir.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sifat tizimini joriy etish korxonaga quyidagilarga imkon beradi:

- faoliyatingizni sezilarli darajada yaxshilash va optimallashtirish va samaradorlikni oshirish;
- o'z faoliyatining maqsadiga e'tiborni kuchaytirish va iste'molchilarning talablarini qondirish;
- iste'molchilarning talab va ehtiyojlarini qondirish uchun mahsulot va xizmatlarning yuqori sifatiga erishish va doimiy ravishda saqlab turish;
- iste'molchilarga tashkilot ular uchun nima qilishi mumkinligi haqida dalillarni taqdim etish;
- yangi imkoniyatlar ochish yoki allaqachon bosib olingan bozor segmentlarini saqlab qolish;
- sertifikatlashtirish jarayoni orqali mijozlar e'tirofiga ega bo'lish.

Shuni tushunish kerakki, sifat tizimi faqat yuqorida aytib o'tilgan umidlarni amalga oshirishga yordam beradi va tashkilot oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'llaridan faqat biri hisoblanadi, ammo sifat tizimining o'zi ish jarayonlari yoki mahsulot sifatini yaxshilashga qodir emas. Sifat bu tashkilotning barcha muammolarini hal qila olmaydi.

Qo‘llanilgan metodlar. ISO 9000 xalqaro standartlar seriyasi tashkilotlarning sakkiz tamoyilga asoslangan sifat menejmenti tizimlarini qurishini taklif qiladi:

Mijozlarga e'tibor qaratish. “Mijoz har doim haq” shiori shunchaki rasmiyatchilik bo'lib qolgan davrlar o'tib ketdi. Endi yangi narsa ishlab chiqarishdan oldin potensial iste’molchi oldiga borib, u aynan nimani sotib olishni xohlashini aniqlashimiz kerak, ya’ni hozir ishlab chiqarishning asosiy e’tibori marketing tadqiqotlari va ishlab chiqarishimizni yo‘lga qo‘yadigan bozor tahliliga qaratilgan.

Yetakchilik. Menejer-rahbar barqaror muvaffaqiyatning zaruriy shartidir, ammo har qanday muhim vazifalarni hal qilishda tashkilotning barcha darajalarida yetakchilik funksiyalari zarur. Rahbarsiz moslashuvchan, dinamik, samarali tashkiliy tuzilmani qurish yoki tashkilotning missiyasi va qarashlarini yaratish mumkin emas. Bunday holda, yetakchining tashkilot madaniyati bilan o'zaro munosabatiga alohida e'tibor qaratish lozim, uning rolini ortiqcha baholash qiyin. Tashkilot madaniyatiga o'z vaqtida tuzatishlar kiritish kerak va bu juda va juda qiyin.

Xodimlarni jalb qilish. Bu erda asosiy narsa ishonchga asoslangan vakolatlarni topshirishdir. Butun jamoaning ishtiroki parsipativlik prinsipidan, ya'ni boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatidan foydalangan holda kuchaytiriladi. Aytishimiz mumkinki, kadrlar bilan bog'liq yangi vazifa yollanma ishchilarni xodimlarga aylantirishdir. Bu asosiy savollardan biri. Shuningdek, xodimlarni jazolash amaliyotini to'xtatish kerak. Moddiy tomoniga kelsak, xodim o'z mehnati bilan kun kechirishini tushunishi uchun imkon qadar belgilangan maoshlardan voz kechish kerak.

Boshqaruvga tizimli jarayon yondashuvi. Tashkilotni o'zaro ta'sir qiluvchi dinamik jarayonlarning yaxlit tizimi sifatida ko'rsatish kerak. Shunda deyarli barcha boshqaruv vazifalari qanday o'zgarishini tasavvur qilish oson bo'ladi. Bo'limlar o'rtasidagi to'siqlarni yo'q qilib, boshqaruvga jamoaviy yondashuv ta'minlanadi. Bundan tashqari, tizimli yondashuv tashkilotning barcha jihatlarini muvofiqlashtirishni talab qiladi. Jarayonli yondashuvning odatiy namunasi biznes jarayonlari qiziqarli, chunki ular natijalari uchun to'lashga tayyor bo'lgan aniq iste'molchi mavjud bo'lganda mavjud. Xuddi shu biznes jarayonlari iste'molchiga yo'naltirilgan, ya'ni an'anaviy tashkiliy tuzilma loyiha yondashuvi va jamoaviy ish shakli bilan almashtiriladi. Sifat tizimi uchun har qanday biznes-jarayonning har bir elementini o'z iste'molchilari va yetkazib beruvchilari, o'z kirish va natijalariga ega bo'lgan jarayon sifatida ko'rib chiqish juda muhimdir. Bundan tashqari, zanjirdagi har bir bo'g'in muhim emasligini va butun jarayonga qiymat qo'shishini tushunish juda muhimdir. Xarajatlarni optimallashtirish uchun bunday havolalarni izlash istiqbolli va qiziqarli savoldir.

Doimiy takomillashtirish. Doimiy takomillashtirish imkoniyatlarini tizimli izlash yapon tilida “kaydzen” deb ataladi. Kayzen - bu tashkilot faoliyatining barcha jabhalarida doimiy takomillashtirishning

mashaqqatli, shoshilinch jarayoni. Doimiy takomillashtirish insondan, uning shaxsiy fazilatlari, bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishdan boshlanadi. Navbatdagi vazifa tizimli mashg‘ulotlar o‘tkazish va iliq muhit yaratish orqali jamoa ishini yaxshilashdan iborat. Keyingi o'rinda "yashash muhitini", ish joyini yaxshilash, keyin esa - ishni, ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilash, tashqi muhitga global maqsad bilan ta'sir o'tkazishga urinishlar.

Faktlarga asoslangan qarorlar qabul qilish. Cheklangan miqdordagi ko'rsatkichlarga (moliyaviy-iqtisodiy, mijozlar ehtiyojini qondirish ko'rsatkichlari, ichki biznes jarayonlarining xususiyatlari, kadrlar tayyorlash va o'sish imkoniyatlari ko'rsatkichlari) ega bo'lgan holda, ularning dastlabki talab qilinadigan sifatini ta'minlagan holda o'lchash jarayonlarini amalga oshirish mumkin. Keyinchalik, siz ma'lumotlarni to'plashingiz mumkin. O'lchov ma'lumotlarini qayta ishlash "sifatni statistik nazorat qilishning yettita oddiy vositasi" yordamida amalga oshiriladi, ammo yaqinda olti Sigma usuli tobora ko'proq qo'llanila boshlandi. Faktlarga asoslangan qarorlar qabul qilish - bu jarayonning o'zgaruvchanligiga asoslangan "statistik fikrlash" kontseptsiyasidan foydalangan holda ishonchli va ishonchli faktlarni noto'g'ri, shubhali faktlardan ajratishni anglatadi.

Yetkazib beruvchilar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatish. Ushbu yangi dunyoda arzonroq sotib olish foydasiz bo'lib qoldi, chunki amalda u "qimmatroq" bo'lib chiqdi. Narxlarni pasaytirish uchun yetkazib beruvchilar o'rtasida raqobatni rivojlantirishning hojati yo'q, doimiy yetkazib beruvchiga ega bo'lish ancha foydali bo'ladi, keyin qiymat zanjirlarini boshqarish mumkin bo'ladi. Biz "birga buni qilamiz, birga g'alaba qozonamiz" munosabatlarini yaratishimiz kerak.

Ixtisoslashgan kompaniyalar korxonalarda sifat tizimini yaratishda sifat sohasidagi faoliyatning to'rt turini ajratib ko'rsatadilar: sifatni rejalashtirish, sifatni ta'minlash, sifatni boshqarish, sifatni yaxshilash.

Sifatni rejalashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi: mahsulot sifatiga qo'yiladigan aniq talablar, sifatni yaxshilash bo'yicha qoidalarni ishlab chiqish, kerakli sifat darajasiga erishish uchun xarajatlarni rejalashtirish, sifat tizimini tekshirish va boshqalar.

Sifatni boshqarish tartib-qoidalariga quyidagilar kiradi: sifat nazorati, shuningdek, tuzatish choralarini amalga oshirish. Sifat menejmentining asosiy vazifasi tizimda belgilangan sifat talablaridan nomuvofiqliklarni yoki chetlanishlarni aniqlashdan iborat.

Sifatni ta'minlash mahsulot sifatiga qo'yiladigan talablarni yaratish va amalga oshirish faoliyatidan va iste'molchilarning sifat tizimlarining barcha elementlari nazorat qilinadigan sharoitlarda amalga oshirilishiga ishonchini ta'minlashga qaratilgan faoliyatdan iborat.

Xalqaro sifat menejmenti tizimlarining samaradorligi olingan ma'lumotlarga va uning yetarliligiga bog'liq. Shuning uchun sifat tizimi doimiy ravishda nazorat qilinadi va auditlar tashkil etiladi. Asosiy vazifa - tizimning barcha elementlarining og'ish sabablari va faktlarini aniqlash, tizimni bartaraf etish va yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqish. Tekshiruv oldindan ishlab chiqilgan rejalarga muvofiq amalga oshiriladi. Tekshirish tartibi barcha ishlarning tizim hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqlik darajasini belgilashdan iborat.

Shunday qilib, ISO 9000 seriyali standartlari ideal boshqaruv modelini joriy etish orqali kompaniyalarga sifat nazorati tizimini boshqarishga yordam berish maqsadida ishlab chiqilgan, degan xulosaga kelish mumkin. ISO 9000 dan foydalanish korxonada samarali sifat menejmenti tizimini yaratish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Korxona va tashkilotlarda ISO standartlarini joriy qilish respublikamizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning dunyo bozoriga olib chiqishimizga yordam berardi, degan fikrdamiz. Chunki bu xalqaro va mintaqaviy standartlar ishlab chiqarish korxonalarimizda joriy qilinsa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va iste’molchilarga sifatli, ekologik toza mahsulotlar yetkazib berish yaxshilanadi. O’ttgan yillar mobaynida xalqaro standartlarni joriy qilish respublikamiz sanoat va qishloq xo’jaligi sohalarida joriy qilish tez sur’atlarda ortib bormoqda. Yurtimizda hozirgi vaqtgacha xalqaro hamkorlik sohasida ko’zga ko’rinarli ishlar olib borilmoqda.

Misol qilib oladigan bo’lsak, birgina 2020- yilda menejment tizimlarini joriy etish sohasida 244 ta korxonada 274 ta sifat menejmenti tizimlari bo’yicha muvofiqlik sertifikatlari rasmiylashtirilgan. Shundan ISO 9001 sifat menejment tizimi bo’yicha 185 ta korxonada, ISO 14001 ekologik menejmenti tizimi bo’yicha 13 ta korxonada, ISO 22000 oziq- ovqat xavfsizligi menejmenti tizimi bo’yicha 31 ta korxonada, ISO 50001 energetik menejmenti tizimi bo’yicha 26 ta korxonada menejment tizimlari bo’yicha sertifikatlashtirish ishlari olib borilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlari sohalarida sertifikatlashtirilgan korxonalarning asosiy qismi 41 ta oziq-ovqat korxonalari, yengil sanoatda 26 ta korxonada, qurilish sanoatida 28 ta korxonada va 12 farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalariga to’g’ri keladi. Global G.A.P. standarti bo’yicha 226 ta meva va

sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchi xo'jaliklari sertifikatlashtirilgan. Shu standart asosida 3419 ga yer maydoniga 28 xil meva-sabzavot, poliz va dukkakli mahsulotlar yetishtiruvchi xo'jaliklar xorijiy davlatlarga eksportni amalga oshirishiga imkon yaratdi. Organik satandarti asosida respublikamiz hududida 3 ta ya'ni:

Buxoro viloyatida 12 ga yer maydonida paxta yetishtiruvchi korxona;

Namangan viloyatida 528 ga yer maydonida kovul yetishtiruvchi korxona;

Farg'ona viloyatida 222 ga yer maydonida dorivor o'simliklar yetishtiruvchi qishloq xo'jalik korxonalari sertifikatlashtirildi.

ISO xalqaro standartini joriy etib sertifikatini olish uchun yurtimiz ishlab chiqarish korxonalari o'zlarida quyidagi tayyorgarlik ishlarini olib borishlari kerak:

Korxona mijozlarning talabini va estetik didlarini hisobga olish va ular bilab hamkorlikni yo'lga qo'yish;

Korxona pirovard natija ko'rsatishi uchun xodimlarni faoliyatiga qarab rag'batlantirish;

Yetkazib beruvchilar bilan har doim o'zaro manfaatli munosabatlarni saqlab qolish kabi ishlarni olib borishlari kerak. Bu tayyorgarliklardan keyin ISO sertifikatini olish uchun harakat qilishlari kerak va ayrim kerakli bo'lgan hujjatlarni taqdim etishlari tavsiya qilinadi:

Belgilangan shaklga muvofiq tayyorlanishi kerak bo'lgan ariza;

Ariza beruvchi kompaniyaning ustav hujjatlari va zarur rekvizitlari;

Ishtirok etgan kompaniya bo'linmalarining sxematik ko'rinishi, ishlab chiqarish jarayoni, ularning funksional vazifalariga oid ma'lumotlar bilan to'ldirilgan;

Mahsulot sifati uchun mas'ul shaxsni ko'rsatgan holda xodimlarning malakasi bo'yicha kompaniyaning tarkibi;

Jamiyatning ayrim faoliyat turlarini amalga oshirish huquqini tasdiqlovchi litsenziyalar (nusxalar);

Xulosa. ISO xalqaro standartlarini joriy etish bilan korxona pirovard natijaga erishadi. Va bu standartlar asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati yaxshilanadi. Korxonalarimiz o'zlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan nafaqat bozorlarga, balkim jahon bozoriga ham chiqarishlari uchun keng yo'l ochib beradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xalqaro standartlarni joriy etish biz uchun inson iste'moli uchun sifatli, arzon, qulay va estetik didlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishimiz mumkin bu esa iste'molchilarning huquqlarini himoya qilgan bo'lamiz. Shuningdek, korxonalarimizda ishlab chiqarish siklining davomli, samarali, ortiqcha xarajatlarsiz, yarimtayyor mahsulotlardan unumli foydalashga imkon beradi. Bu esa davlatimiz iqtisodiga va aholining ham ijtimoiy hayotini yaxshilashga imkon beradi. Xalqaro standartlarni joriy etishni har bir ishlab chiqarish korxona va xizmat ko'rsatish tashkilotlariga tavsiya etib qolamiz.

Bu maqoladan korxona va xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'zlariga ISO xalqaro standartlarini joriy etish bo'yicha tavfsiyalarga ega bo'lishadi.

ADABIYOTLAR:

1. Аристов О. В. Управление качеством: учебник / О. В. Аристов. - М.: ИНФРА-М, 2006. - 238 с.: ил.

2. Ахмедов Б.М., Абасов А.А. Система менежмента качества - основа конкурентоспособности. Изд. «Аср-Матбуот». 2004. 96с.

3. Ахмедов Б.М., Исматуллаев П.Р., Туробжонов С.М., Юсупов Э.Д., Тураев Ш.А. Основы системы менеджмента качества. Изд-во ИПТД «Узбекистан», - Ташкент, 2009. -208 С.

4. Басовский, Л. Е. Управление качеством: учебник Л. Е. Басовский, В. Б. Протасьев. - М.: ИНФРА-М, 2006. - 211 с.

5. Елиферов, В. Г. Управление качеством: сказки, мифы и проза жизни: стандарты ИСО 9000 и система менеджмента / В. Елиферов. - СПб.; М.: Вершина, 2006. - 295 с.: ил.

6. lO.Ismatullayev P.R., Maksudov A.N., Abdullayev A.X., Axmedov B.M., A'zamov A.A. Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish. «0'zbekistan» Toshkent-2001y.

7. Круглов, М.Г. Менеджмент качества как он есть / М.Г.Круглов, Г.М. Шишков. - М.: Эксмо, 2007. - 544 с;

8. Крылова Г.Д. Основы стандартизации, метрологии и сертификации. Учебник для студентов вузов. - М.: Издательство стандартов, -1998. - 497 с.

9. '' Sifat menejmenti tizimi va uni sertifikatlashtirish'' Ismatullayev P.R., Axmedov B.M., Matyakubova P.M., Xamroqulov G'.X., Turayev Sh.A.

10. O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida"gi qonun

ЖАҲОН ТАРИХИ ФАНИДАН ТАРИХЧИ ТАЛАБАЛАР УЧУН ЯНГИ ДАРСЛИК

Ҳайитов Жаҳонгир Шодмонович
Бухоро давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси мудири,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Орзиев Маҳмуд Зайниевич
Бухоро давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси доценти,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Ўзбекистон мустақиллиги йилларида халқ хўжалигининг барча таримоқлари учун замонавий билимга эга бўлган, рақобатбардош кадрлар тайёрлаш масаласи долзарблик ва даврталаблик касб этмоқда.

Айниқса, маънавий баркамол, тарихий хотираси мустаҳкам, иродали ва собитқадам олий малакали, мозийнинг илмий билимдонларини етказиш орқали ёш авлодда ватанпарварлик, она юрти ва мустақилликка садоқат руҳини сингдириш вазифаси муҳимдир.

Ушбу йилда Тошкентдаги “Замон полиграф” (“Zamon poligraf”) нашриёти тарих фанлари номзоди, Бухоро давлат педагогика институти профессори, малакали педагог Очил Сирожович Сирожовнинг “Жаҳон тарихи” дарслигини нашрдан чиқарди[1].

Ушбу дарслик олий ўқув юртларининг “Тарих” мутахассислиги талабаларига Жаҳон тарихини янги давр босқичларини далил ва рақамлар орқали мукаммал ва атрофлича ўрганишга кенг имконият яратади.

О.Сирожовнинг йирик ҳажмдаги “Жаҳон тарихи” дарслиги Кириш, 15 та мавзу ва глоссарий қисмларидан иборат.

Китобнинг кириш қисмида дарсликнинг мазмун-моҳияти, ундаги тарихий-хронологик чегара, мавзуларнинг умумий таснифи, XIX аср 40-йилларидан 1918 йилга қадар Европа ва Америка мамлакатларида кечган ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва маданий жараёнларнинг умумий манзарасига қисқача тасниф берилган.

1848-1849 йилларда бир қатор Европа давлатлари, жумладан, Германия, Австро-Венгрия, Италия, Францияда буржуа-демократик инқилоблари юз бериб, инқилоблар натижасида монархиялар ўрнинга демократик тартиблар жорий этила бошланди. Биринчидан, ушбу инқилоблар Европа тарихида тараққиётнинг янги босқичини бошлаб берган бўлса, иккинчидан, азалдан тарқоқ бўлган Германия ва Италияни бирлаштирилиши вазифаси амалга ошмади. Дарсликнинг барча мавзуси Ўзбекистон ва хорижда кейинги йилларда яратилган асарлар, мақолалар, хотиранома ва эсдаликлар материааларидан фойдаланиб ёзилган. Ундаги ҳар бир мавзу билан танишиш орқали амин бўлинадики, айнан Янги давр тарихининг 1848-1918 йиллари босқичида Европадаги етакчи давлатлар: Буюк Британия (Англия), Франция, Германия, Австрия-Венгрия, Россия ижтимоий-иқтисодий, маданий ҳаётида туб бурилишга молик воқеалар юз берган. Германия ва Италиянинг бирлашиш йўлидаги курашлари (1870-1871 йй), Англия ва Франция ўртасида дунёда гегемонлик учун кураш, Бонапарт Наполеон (1865-1921 йй)нинг тарих саҳнасига чиқиши, Франциянинг “Қитъа блокадаси” сиёсати кабиларб айниқса, дарсликда кенг ва теран таҳлил қилинган. Айнан XIX аср охирги чораги даври метрополиялар ва мустамлакалар ўртасида зиддиятлар кучайиб, ташқи сиёсатда Европа давлатлари экспансиячилик ҳаракати авж олганлиги алоҳида қараб чиқилган.

Дарслик саҳифаларини варақлар эканмиз, “Лахтак давлат” ҳисобланган 34 млн аҳолили, чех, поляк, румин, венгер, поляк, болгар кабилардан иборат Австрия-Венгриядаги миллий зулм, шунингдек, мазлум халқларнинг инқилоб ва чиқишларидан воқиф бўлинади. Дарслик муаллифи Европа мамлакатларида ҳукумат учун курашлар, бошқарув жараёнига кенг аҳоли қатламларини қамраб олган жамоат уюшмалари – касаба союзлар фаолияти, ҳукуматда, парламент сайловларида ўрин олишга интилган сиёсат партиялар тузилиши ва курашлар тарихини тизимли ҳолда баён қилган. Европада нисбатан қолоқ бўлган, шунингдек, буржуа-демократик тараққиётига нисбатан илгарироқ кириб, сўнгра қолоқлар қаторидан ўрин олган Нидерландия ҳақида алоҳида мавзулар киритилиши дарслик жараёнларни мумкин қадар атрофлича қамраб олганлигидан далолат беради. Пиреней ярим оролида жойлашган Испания ва Португалия ҳақида, бу давлатлардаги асосий воқеалар жараёни

[1] Sirojov O: Jahon tarixi (Yevropa va Amerika davlatlari yangi davri 1648-1918 yillar) darslik. Toshkent. “Zamon poligraf” nashriyoti, 2023-yil.610 bet.

тўғрисида бой маълумотлар келтирилиши муаллифнинг узоқ вақт Европа ва Америка мамлакатлари янги тарихи фанидан дарс берганлиги ҳамда тажрибаси бу борада катта эканлигини билдириб турибди.

О.С.Сирожовнинг тақриз қилинаётган дарслигида Америка қитъасидаги АҚШ ва лотин Америкаси мамлакатларида юқорида қайд этилган тарихий-хронологик чегара доирасидаги энг муҳим воқеалар ва улар таҳлили берилган. Дарсликда АҚШнинг XIX аср охиридан ривожланган давлатлар ҳақидаги маълумотлар далиллар орқали очиб берилган. Бу мамлакатдаги 2-Фуқаролар уруши (1861-1865 йй), қулчиликка абадий чек қўйилиши, Реставрация жараёнлари, бўш ерлар кўплиги, табиий ва ерости бисёрлиги кабилар унинг истиқболли ривожланишини белгилаган.

АҚШнинг XIX аср охири-XX аср бошларида Кариб ҳавзаси ва Лотин Америкасида гегемонликка интилишга қаратилган “катта таёқ сиёсати”, “доллар дипломатияси”, “Америка америкаликлар учун”, каби сиёсатининг зўравонлик моҳияти дарсликда кўп сонли манбалар орқали очиб берилган.

Лотин Америкаси мамлакатлари билан боғлиқ мавзуларда ушбу давлатлар тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари инқилоблардан кейинги даврда (XX аср 20-30 йиллари) теран таҳлил этилган. Ушбу давлатларда қулчилик муносабатлари узоқ вақт сақланганлиги (Бразилияда 1889 йилга қадар қуллик сақланган), бу давлатлар Испания ва Португалия зулми остида кўп асрлар давомида яшаб, мустамлака асоратларининг салбийтаъсири масалаларига алоҳида эътибор қаратилган.

Лотин Америкаси давлатлари (Аргентина, Чили, Перу, Боливия ва ҳ.к.)да бошқарувда диктатура тартиби етакчилик қилиб, сиёсий ислоҳотларга йўл берилмаган. Ушбу давлатлар қишлоқ хўжалик соҳасига ихтисослашган, хомашё (донли экинлар, пахта, кофе ва ҳ.к.) етиштириб, аҳолининг турмуши паст бўлганлиги ҳақида дарсликдан кўпгина маълумотларни олиш мумкин. Дарсликнинг ҳар бир мавзусида алоҳида олинган мамлакатнинг ташқи сиёсат йўналишлари баён этиб ўтилган. Шунга қарамай, дарсликдаги 15-мавзу махсус халқаро муносабатлар муаммосини очиб беришга қаратилгани билан эътиборга лойиқдир. XIX аср охирида метрополияларда “бўлинган дунёни бўлиб олиш учун” кураш авж олиб “Учлар иттифоқи” (1882 йил), Антанта (1904) кабилар тузилганлиги, улар ўртасидаги дипломатия ва сиёсат майдонидаги кураш масалалари, охир-оқибатда биринчи жаҳон уруши келиб чиққанлиги дарслик сўнгги мавзусида тизимли баён этилган.

О.С.Сирожовнинг “Жаҳон тарихи” дарслигидаги ҳар бир мавзу режалари якунланган ва хулосаланган. Дарслик муаллифи тарихий воқеаларнинг шунчаки баёнчиси сифатида эмас, балки ҳар бир жараёнга шахсий мулоҳаза билдириш, ўз нуқтаи-назарини мустақил қайд этувчи бўлиб иш кўрган.

О.Сирожовнинг Жаҳон тарихи (1648-1918 йиллар) дарслиги университет ва педагогика институтлари “Тарих” мутахассислиги юқори курс талабалари учун ҳозирги кунда зарур бўлган муҳим қўлланма ҳисобланади. Талабалар ушбу дарслик орқали Европа ва Америка тарихининг роппа-роса 270 йиллик даври ҳақида асосий билимларга эга бўлишига ҳеч қандай шубҳа йўқ. Фурсатдан фойдаланиб, муҳим дарслик муаллифи, устоз О.С.Сирожовга педагогик ва илмий фаолиятда улкан ютуқлар тилаб қоламиз.

2030 UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE
uzjournals.edu.uz

doi® digital object identifier

Google scholar

ROAD DIRECTORY OF OPEN ACCESS SCHOLARLY RESOURCES

ADVANCED SCIENCES INDEX

"SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY"

The journal was composed in the Editorial and Publishing Department of Bukhara State University.

Editorial address:
Bukhara, 200117
Bukhara State University, main building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing Department.
https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted 29.12.2023 y. Paper format 60x84,1/8. Printed in express printing method. Conditional printing plate – 35,30. Circulation 70. Order № 30. Price is negotiable.
Published in the printing house "BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara, K.Murtazayev street, 344